

ISLOM ENSIKLOPEDIYASI**Zuhriddin Husniddinov tahriri ostida**Taqrizchi: akademik **Ne'matulla Ibrohimov**© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2004

LOTIN ALIFBOSI

A B D E F G H I J K L M N O P Q R S T U V X Y Z O' G' Sh Ch**- A -**

ABBOSIYLAR - arab xalifalari sulolasi (750-1258), Muhammad (sav) ning amakilari Abbos avlodlari. Abu Muslim qo'zg'oloni natijasida hokimiyat tepasiga kelgan. Dastlabki poytaxti - Kufa sh. "Saffoh" ("Xunrez") laqabi bilan mashhur bo'lgan Abul Abbos Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754-775) Bag'dod sh.ga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chirdi. A. hukmronligining dastlabki davrida mulkchilik munosabatlari o'sib, savdo-sotiq rivojlandi. Bag'dod Sharqning yirik savdo markaziga aylandi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tabiiyot va b. fanlarga oid ko'plab asarlar yaratildi. Andalusiya (Ispaniya) dan tashqari butun musulmon mamlakatlari - Mag'rib, Hindiston, Movarounnahr A. qo'li ostiga o'tdi. Bular xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun zamoni A. sulolasining gullagan davri edi. 9-a.ning ikkinchi yarmidan boshlab A. xalifaligi zaiflasha boshladi, Afrikada ag'labiyalar, Misrda tuluniylar, Xuroson va Movarounnahrda somoniylar A. xalifaligidan ajrab chiqdilar. 10-a.ning boshiga kelib faqat Bag'dod va uning atroflaridagina siyosiy hokimiyat A. qo'lida qoldi. Harbiy kuchlar turk sarkardalari qo'lga o'tib ketdi. Ular xohlagan vaqtlarida xalifalarni almashtira olar edilar. 10-a. o'rtalariga kelib A. siyosiy hokimiyatni tamoman qo'ldan boy berib, musulmonlarning diniy xalifasi (payg'ambar o'rinbosari)gina bo'lib qoldilar. Erondagi buyayhiylar (945 y.) Bag'dodni o'z qo'lga oldi, lekin ular A.ning mavqei bilan hisoblashar edi. Bag'dod saljuqiy-sunniylar tomonidan bosib olingandan keyin A. siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va dinning mavqei mustahkamlandi. 1258 y. mo'g'ullar Bag'dodni vayron qilib, A.ni tamoman tor-mor keltirdi. Mo'g'ul xoni Huloku buyrug'i bilan Abbosiy xalifalarning so'nggisi -Musta'sim qatl etildi. A. sulolasining qolgan vakillari esa Misrga qochdi. Mamluk sultonlari davrida (turklar 1517 y. Misrni olgunga qadar) A. Qohirada muqaddas kishilar sifatida yashab keldilar. 1261 y. mamluk sultoni Beybars A.dan biri al-Mustansirni xalifa deb e'lon qildi. 1517 y. A.ning avlodi Mutavakkil III Istanbulga keltirilib, u diniy rahnamolik huquqini turk sultonlariga topshirgan. A. dan 37 kishi xalifa bo'lgan. Ular quyidagilar:

	hijriy	milodiy
1. Saffoh	132	750
2. Mansur	136	754
3. Maadiy	158	775
4. Hodi	169	785
5. Horun ar-Rashid	170	786
6. Amin	193	809

7. Ma'mun	198	813
8. Mutasim	218	833
9. Vosiq	227	842
10. Mutavakkil	232	847
11. Muntasir	247	861
12. Musta'in	248	862
13. Mu'tazz	252	866
14. Muhtadiy	255	869
15. Mu'tamid	256	870
16. Mu'tazid	279	892
17. Muktafiy	289	902
18. Muqtadir	295	908
19. Qohir	320	932
20. Roziy	322	934
21. Muttaqiy	329	940
22. Mustakfiy	333	944
23. Mute'	334	946
24. Toi'	363	974
25. Qodir	381	991
26. Qoim	422	1031
27. Muqtadiy	467	1075
28. Mustazhir	487	1094
29. Mustarshid	512	1118
30. Rashid	529	1135
31. Muqtafiy	530	1136
32. Mustanjid	555	1160
33. Mustazi'	566	1170
34. Nosir	575	1180
35. Zohir	622	1225
36. Mustansir	623	1226
37. Musta'sim	640-656	1242-1258

ABD (arab. - qul, banda) - keng ma'noda "qul" tushunchasi; shuningdek, majoziy ma'noda aksariyat musulmonlar ismining tarkibiy qismi (mas., Abdurahmon, Abdurahim va b.). Allohning quli, bandasi ma'nosini bildiradi. Qur'onda Alloh bilan inson o'rtasidagi munosabat xoja bilan qul o'rtasidagi munosabatga o'xshatilgan. Bunga binoan Alloh insonlarga qanchalik g'amxo'r bo'lsa, xojalar ham qullariga shunday g'amxo'r bo'lmoqliklari lozim. O'z ixtiyori bilan qulni ozod qilish solih amallardan sanalib, u yetim yoki kambag'alni ocharchilik paytida yedirib-ichirganida olgan savobidek savobga erishadi. Xoja ichgan qasamini buzsa yoxud ataylab emas, bexosdan biror-bir musulmonni o'ldirsa, o'ziga xos xun to'lash shakli sifatida qul ozod qiladi. Ozod qilinganlik yozma ravishda qayd etiladi. Muhammad (sav)ning yigirmatacha (ismlari ma'lum) qullari bo'lib, u zot ularni turli vaqtlarda ozod etganlar; payg'ambar (sav)ning ikki ayollari qul-cho'rillardan bo'lishgan, ozod ayollaridan farqli suratda ularga mahr berilmagan. Musulmon huquqi barcha musulmonlarni erkin, ozod deb bilib, ularni musulmon davlatlarida qul qilinishi, jumladan qarzi evaziga qulga aylantirilishi mumkin emas deb hisoblaydi. Shunga binoan topib olingan go'dak, hanafiylik ta'limotiga ko'ra, musulmonlar yashaydigan yurtidan topilgan bo'lsa, musulmon va erkin hisoblanadi.

Kimda-kim dalillarsiz uni qul deb da'vo qilsa, u qabul qilinmaydi. Biroq qulning islom diniga kirishi, uning o'z-o'zidan erkin, ozod bo'lganini bildirmaydi. Qonun merosxo'rlarning manfaatidan kelib chiqqan holda, vasiyatnomada qullarni, 1/3 qismidan ortig'ini ozod etilishiga ruhsat etmagan. Cho'ri bilan turmush qurish - unga egalik qilishning shakllaridan biri. Agar tug'ilgan farzand xojadan bo'lsa (xoja uni o'ziniki deb tan olsa) cho'ri umm valad ("go'dak onasi")ga aylanadi va ayrim imtiyozlarga ega bo'ladi. Agar xojaning ozod xotini bo'lmasa u cho'riga uylanishi mumkin bo'lgan, cho'ri esa, ozod ayolga nisbatan yarim huquqqa ega bo'la olgan. Uning farzandlari erkin hisoblangan, ya'ni bolalar otaga merosxo'r bo'lganlar. Shuning uchun cho'ridan tarqalganlik shaxsning sha'niga dog' tushirmagan. Ko'pchilik xalifalar (mas., Horun ar-Rashid) cho'rilarning farzandlari bo'lishgan. Qullar xojalarining roziligi bilan oila qurish huquqiga ega bo'lganlar, bu hatto Qur'onda ham tavsiya etilgan. Ajralish uchun xojaning roziligini olish shart emas, hatto xoja o'z qullarining nikohini bekor qilishga haqqi bo'lmagan. Diniy jihatdan musulmon-qul erkin musulmonlar bilan teng deb bilingan, biroq juma namozida bo'lish hamda zakot to'lash va sadaqa berish uning uchun majburiy hisoblanmagan. Bordi-yu, namoz paytida erkin musulmon bo'lmasa, qul imomlikka xam o'tishi mumkin bo'lgan, lekin mustaqillikni talab etuvchi bironta ham diniy mansablarni (qozi, muhtasib, maosh oluvchi imom) unga topshirish mumkin bo'lmagan. Islom davlatlarida qulchilik 20-a. o'rtalarigacha saqlanib kelgan. Jazoirda - 1848 y., O'rta Osiyoda 1865-73 y.larda rasman, amalda esa 20-a. 1-choragida, Afg'oniston, Eron, Iroqda- 1923-29 y.larda, Saudiya Arabistonida - 20-a.ning 70-y.larida bekor qilingan.

ABDI BERUN, Xoja Abdi Berun, Sayid Abdi ibn Ya'kub ibn Sa'id ibn Usmon ibn Affon (9-a.) - Muhammad (sav)ning (qizlari Ruqiya tomondan) avlodi. Abdi nomli arab qabilasidan. A.b.ning bobosi (Sa'id ibn Usmon) Movarounnahrni fath etishda qatnashgan. A.b. Samarqand qozisi bo'lgan. Qabri shahar tashqarisida bo'lganligi uchun shunday atalgan.

ABDI DARUN, Xoja Abdi darun, Abd al-Mu'iziddin ibn Muhammad Ya'qub ibn Muhammad Abdi ibn Usmon ibn Affon (9-a.) - Muhammad (sav)ning (qizlari Ruqiya tomondan) avlodi. Abdi berunning o'g'li. Laqabi Xojai Ganjra von. Qabri Samarqand sh. ichida bo'lgani uchun shunday atalgan. A.d. Samarqand qozisi bo'lgan, nihoyatda adolatli, to'g'riligi bilan shuhrat qozongan. Uning qabri muqaddas ziyoratgohlardan sanaladi.

ABDI DARUN MAQBARASI, Xoja Abdidarun maqbarasi-Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (12-a. - 15-a.ning 1-yarmi). Samarqand qal'a devorining sharqiy tomonida (darun - ichkari) joylashgan qad. ziyoratgoh. Markazida eng yirik bino - xonaqoh (15-a.) bor. Uning peshtoqi, gumbazi va devorining bezaklari Ulug'bek davri me'morligi mahsuli. Xonaqohning ichida Abdi darunning qabri bor. Xoja Abdi darunni Xojai Kunj deb ham ataganlar.

ABDOL (arab. - avliyo(lar)) - tasavvufda valiylikning muayyan bir darajasiga erishgan guruh. Keng ma'noda avliyolar, shayxlarni ham anglatadi.

ABDU (Abdo) Muhammad (1849-1905) - misrlik ilohiyotchi, jamoat arbobi. Qohiradagi al-Azhar dorilfununida tahsil olgan (1869-77). Milliy-ozodlik kurashida ishtirok etganligi uchun hibsga olinib, so'ngra Misrdan chiqarib yuborilgan (1883-88); 1884 y.da Parijda Jamoliddin al-Afg'oniy bilan birgalikda "Al-Urvat al-vusqo" ("Mustahkam birlik") yashirin jamiyatini tuzgan, bu jamiyat musulmon ziyolilari orasida katta ta'sirga ega bo'lgan, shu nomda gazeta nashr etgan. 1889 y. Misrga qaytib kelib, qozilik, al-Azhar dorilfununida mudarrislik qilgan. 1898 y. "Al-Manar" jurnaliga asos solgan. 1899 y.dan umrining oxirigacha Misr muftiysi bo'lgan. A. ijtimoh huquqini ilgari surib, islom aqidalarini har bir davrning shart-sharoitidan kelib chiqqan holda talqin qilish zarur deb hisoblagan, ba'zi urf-odat va taqiqlarni yengillashtirishni yoqlab chiqqan. A. "Tafsir al-Qur'on al-hakim" ("Qur'on tafsiri"), "Risalat at-tavhid" ("Yakkaxudolik to'g'risida risola"), shuningdek shariat, ta'lim tizimini isloh qilishga oid 30 ga yaqin kitob muallifi.

ABDULAVVAL NISHOPURIY (? - 15-a.) - mutasavvif. Nishopurda tug'ilgan. "Masmuot" ("Eshitilganlar") kitobi bilan mashhur. Bu asar naqshbandiylik tariqatining namoyandasi Xoja Axrorning so'fiylik qarashlariga bag'ishlangan. Uning yoshligidan to umrining oxirigacha bosib o'tgan so'fiyona hayot yo'li o'sha davrdagi siyosiy, ijtimoiy ahvol bilan bog'lab ko'rsatilgan. Kitobda Mirzo Ulug'bek davri (15-a. 1-yarmi) voqealari ham o'z ifodasini topgan. Bu asarning nodir 2 nusxasi saqlangan. A.N. Samarqandda Xoja Ahror qabristoniga dafn etilgan.

ABDULJABBOR ibn Axmad al-Xamazoniy (? - 1025 - mu'taziliylarning yirik mutakallimi, shofi'iylik mazhabi faqihi. Buvayhiylar davrida mu'taziliyaning qayta tiklanishi A. faoliyati bilan bog'liq. Kalomda u dastavval ash'ariylar ta'limotiga suyangan, so'ngra mu'taziliylar qarashlarini qabul qilgan. Bag'dodda yashagan, taxm. 971 y. buvayhiylar vaziri mu'taziliya kalomi homiysi as-Sohib ibn Abbod (938-995) tomonidan fiqhdan saboq berish uchun Rayga taklif etilgan. Rayda A. qozi ul quzzot etib tayinlangan. A. - kalom, fiqh va tabiiy fanlarga ovd ko'plab asarlar muallifi. A.ning hoz. davrgacha saqlangan (1950 y.lar boshida topilgan) asarlari, shuningdek uni bevosita shogirdlari Abu Rashid an-Naysaburiy (taxm. 1024 y. v. e.) va Ibn Mattuvayx (1076 y. v. e.) ishtirokida yozgan asarlari mu'taziliya ta'limotiga oid asosiy manba hisoblanadi.

ABDULLOH ibn ABBOS (yoxud al-Abbos) Abul Abbos (619-686) - Muhammad (sav)ning amakivachchalari. A.i.A. nihoyatda ilmi bo'lgashshgi tufayli "xabr al-umma" ("jamoat donishmandi") laqabiga sazovor bo'lgan. Muhammad (sav) va sahobalarning faoliyatlari, aytgan so'zlari haqidagi hikoyalarini (hadislar) to'plash fikri dastlab A.i.A.ga kelgan. A.i.A. Qur'onni tafsir qiluvchi, fiqhga oid masalalarni sharxdovchi (huquqqa doir masalalar bo'yicha uning o'zi xulosa chiqargan), johiliyat davri tarixi, Muhammad (sav)ning g'azotlariga oid hikoyalarni yetkazuvchi sifatida mashhur.

ABDULLOH ibn ABU BAKR (? - 632) - Abu Bakr Siddining o'g'li, payg'ambarimiz (sav) ning qayin inilari. Islomning dastlabki yillarida musulmonlikni qabul qilgan. Hijrat chog'i

payg`ambarimiz (sav) birodarlari Abu Bakr bilan uch kun Savr g`orida qolib ketganlarida Abdulloh ularga ham yegulik keltirib, ham mushriklarning ishlaridan xabardor qilib turish bilan muhim vazifani ado etgan. Keyin u ham Makkadan ketib, "muhojir" degan nomga sazovor bo`lgan. Makka fathida qatnashgan. Hunayn va Toif janglarida ishtirok etgan. Toifdagi muhosarada o`q tegib, yaralangan.

ABDULLOH ibn MAS`UD, to`liq ismi Abdulloh ibn Mas`ud ibn Rofiya ibn Habib al-Xuzaliy; kunyasi - Abu Abdurahmon (590-653) - sahoba, buyuk faqih va mujtahidlardan biri, Muhammad (sav) xizmatlarida turgan zotlardan. Shu sababli Qur`oni karimni hammadan yaxshi o`rgangan, juda ko`p hadis eshitgan va yod bilgan. Rasululloh og`izlaridan eshitib hifz etgan, tafsir ilmining eng mohiri. A. i. M. Qur`oni karimni Makkada qurayshlar orasida eng avval yoygan, Maqomi Ibrohimda Rahmon surasini ochiq-oshkor o`qigan. Badr va Uhud va b. barcha janglarda qatnashgan. Rasululloh (sav) vafotlaridan so`ng Kufa xazinasining boshlig`i bo`lgan. Usmon (ra) davrida Madinaga kelib shu yerda 63 yoshida vafot etgan.

ABDULLOH ibn MUBORAK, to`liq ismi Abu Abdurahmon Abdulloh ibn al-Muborak al-Xanzaliy al-Marvaziy (736-797) - ikkinchi darajali tobeinlardan; so`fiy, muhaddis. Hadis, fiqhda zamonasining yetakchi olimi. Xorazm turkiylaridan Muborak ibn Vozihning o`g`li. Xurosonning ilmiy-madaniy markazi Marvda tug`ilgan. Butun umrini haj, jihod, ilm va ibodat yo`liga baxsh etgan. Ko`p mamlakatlarga sayohat qilgan. Sayohatlarida Abu Hanifa bilan ko`rishgan va uning eng mumtoz shogirdlari safidan o`rin olgan. So`fiylik, fiqh, hadisshunoslik, tarix, filologiya va tafsirga oid asarlar yozgan. 20 ming hadisni o`z ichiga olgan 20 asarini Abu Hanifaning abvobi fiqhiga ko`ra tartib etgan. Jihod haqida ilk asar ta`lif etgan va ilk daf`a Arba`in (qirq hadis) yozgan. A.i.M.dan bahramand bo`lganlardan biri Ahmad ibn Xanbaldir. Imom Buxoriyning otasi - Ismoil A.i.M.ning shogirdlaridan bo`lgan. Tarsus (Suriya)dan qaytayotganda vafot etgan va Furot daryosining qirg`og`idagi Xish sh.da dafn etilgan. Uning "Kitob az-zuhd varraqoiq" nomli 16 juzdan iborat kitobi bizgacha yetib kelgan.

ABDULLOH ibn UMAR, to`liq ismi Abdulloh ibn Umar ibn al-Xattob al-Adaviy, kunyasi - Abu Abdurrahmon (taxm. 612-693) - ashobi kiromning eng yuksak olim va mujtahidlaridan biri. Hijoz fiqhi va huquqining tamal toshini qo`ygan zot. Oltmish yil fatvo berish bilan shug`ullangan. Abu Hurayra (ra)dan so`ng Rasuli Akram (sav)dan eng ko`p - 2630 hadis rivoyat etgan. Otasi Umar (ra) bilan Madinaga hijrat qilgan, Usmon (ra) vafot etgach xalifalik taklif qilingan, ammo bu rutbadan bosh tortgan.

ABDULLOH NADIM, to`liq ismi - Abdulloh ibn Misboh Ibrohim al-Idrisiy an-Nadim (1845-1896) - misrlik jamoat arbobi, ma`rifatparvar, mutafakkir. Arablar ozodlik harakatining namoyandalaridan biri. Qohiradagi al-Azhar un-tida o`qigan. 80-y.larda A.N. taraqqiyparvar va vatanparvar ziyolilar bilan birgalikda inglizlar asoratiga qarshi kurashda faol qatnashgan, jurnallar nashr etgan. Islomning axloqiy ta`limotiga asoslangan ijtimoiy tenglik va adolat g`oyalarini targ`ib qilgan. Bir qancha vatanparvarlar qatori A.N. ham o`lim jazosiga hukm qilingan, lekin u qochib, 9 y. muhojirlikda ta`qib ostida yashagan. A.N. 20 dan ortiq asar yozgan. Ular orasida "Sulofat an-nadim fi

muntaxabat as-sayid an-Nadim ibn Misboh" ("An-Nadim ibn Misboh tanlangan asarlarida do'st uchun shirin may"), "Xoni an-Nadim" ("Nadimning nolalari") kabilar ayniqsa mashhur. Umrining oxirgi yillarini Istanbulda o'tkazgan va shu yerda vafot etgan.

ABDURAHMON ibn AVF (taxm. 579-654) -sahoba; makkalik ilk (Xadichadan keyin) sakkiz musulmonning beshinchisi. Asharai Mubashsharalardan. A.i.A. ham Habashistonga, ham Madinaga ko'chgan muhojirlardan. Badr, Uhud va b. janglarda Muhammad (sav)ning yonlarida bo'lgan. Uhud jangida yigirma joyidan yaralangan. Dastlab faqir edi, so'ngra tijorat bilan shug'ullanib boyib ketgan. Xayr-ehsonni ko'p qiladigan, bu odatni yaxshi ko'radigan zot bo'lgan. Bir kunda o'ttiz qulni ozod qilgan. Mol-dunyosining bir qismini hayotligida musulmonlarga tarqatgan, bir qismini g'oziylarga vasiyat qilib qoldirgan. Umar (ra)dan so'ng xalifa bo'lishni istamagan, hakamlik qilgan. Usmon (ra)ni xalifa etib saylagan va hammadan oldin unga bay'at qilgan.

ABDURAHMON ibn SAMUR al-ANSORIY (? - 670) - sahobalardan. Tobuk g'azoti, Iroq, Sijiston, Xuroson va b. mamlakatlarni fath etishda qatnashgan. Seyiston noibi (653-666). Basrada vafot etgan. Mahmud ibn Valining yozishicha, uning qabri Marvi Shohijahon (Marv)da joylashgan.

ABDUSSALOM al-MUBORAKPURIY, to'liq nomi Abulhuda Muhammad Abdussalom ibn ash-Shayxxon Muhammad (1872-1924) -hadisshunos, tarixchi. Hindistondagi Muborakpur qishlog'ida, ziyoli, taqvodor oilasida dunyoga kelgan. Qur'oni karim, hadisi sharif, tafsir, fiqh, tarix, hikmat va tabobat ilmlari bo'yicha zamonasining eng yirik allomalaridan ta'lim olgan. 22 yil davomida boshlang'ich va oliy madrasalarda, so'ng umrining oxirigacha "Dor ul-hadis ar-rahmoniyya" un-tida mudarris. Uzoq yillar olib borgan tadqiqotlariga tayanib, islom ilmi va tarixga doir bir qancha asarlar yaratgan. Ulardan "Siyrat al-Imom al-Buxoriy" islom olamida mashhur bo'lib, hadis ilmi va muhaddislar xususidagi asarlarning eng batafsili va mukammali hisoblanadi. Bu asar 1955-86-y.larda Banorasda ikki marta nashr etilgan.

ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY - q. G'ijduvoniyy.

ABODILA (arab. abduullohlar) – Fiqh ilmida to'rt sahobai kirom (Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Azz ibn Zubayr, Abdulloh ibn Amr ibn Oss)ga nisbatan qo'llaniladigan istiloh. Biror fiqhiy masala A.ning so'zi sifatida zikr etilsa, bu masalada mazkur shaxslarning muttafiq (bir xil fikrda) ekanlari tushuniladi. "Abdulloh" ismli sahobai kiromning adadi, ibn as-Salohning so'ziga ko'ra, ikki yuz yigirmaga, ibn ul Fathunning zabt va tahqiqiga ko'ra esa, uch yuzga yetadi, ammo "abodila" istilohi faqat mazkur to'rt shaxsga nisbatangina qo'llaniladi. Ilmi fiqhni to'la egallagan bo'lishiga qaramay, Abdulloh ibn Mas'ud A. qatoriga kirmaydi. Chunki bu istiloh uning vafotidan so'ng paydo bo'lgan.

ABRAXA (habashcha Ibrohim) - Yaman hokimi. Rivoyatga ko'ra, A. Yamanda hukmronlik qilib turgan vaqtda Sa'no sh.da Qullays nomli bahaybat xristian cherkovini barpo etib, xalqni Makkaga borib haj qilmasdan, uni ziyorat qilishga da'vat etgan. Lekin Yaman ahdi Makka ziyoratini tark qilmagan. Shunda A. Ka'bani vayron qilish uchun fillar bilan hujum boshlagan (A. shuning uchun Sohib ul-fil laqabini olgan). Alloh taoloning qudrati bilan uning qo'shini ustiga to'p-to'p qushlar uchib kelib, tosh parchalarini yog'dirib fillarni ham, lashkarlarni ham halok etgan. Bu voqea Muhammad (sav) tavalludlaridan bir oz oldin bo'lib o'tgan. Qur'onning 105-surasi "Fil" nomi bilan atalishi va Muhammad (sav) "Fil" yilida tug'ilgan deyilishining sababi ham shu.

ABROR (arab. - yaxshilar, pok kishilar) - tasavvufga ko'ra, darajalari o'rta hol kishilar. Ularning darajasi avliyolardan quyi, oddiy xalqdan yuqori hisoblangan. Ular Allohning buyruqlarini o'rtacha bajaradilar, man qilgan ishlaridan saqlanib yuradilar.

ABU (arab. - ota so'zining izofa holatidagi shakli) - arablar va b. musulmon xalqlarda ko'pchilik kunyalarning tarkibiy qismi. Mas., Abu Nuvos, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy va b.

ABU BAKR VARROQ, Shayx Abu Bakr Muhammad ibn Umar al-Varroq (? - 907) -faqih. Balxdagi Ayozi mahallasida tavallud topgan. Islomdan tashqari yahudiylik va xristian dinlaridan ham mukammal bilimga ega bo'lgan. Ilohiyotga doir o'nga yaqin asar, jumladan "Kitob al-ixlos", "Kitob al-xuruf", "Kitob al-ajab", "Kitobi Xadiqat al-botin" va b. muallifi. Mahmud ibn Valining yozishicha 907 y. Siyohjird qishlog'ida vafot etgan, Termizdagi Mashohid degan joyda dafn etilgan.

ABU BAKR SIDDIQ (ra), to'liq ismi Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibn Abu Qahhafa ibn Omir (571/572 - 634.23.8) - islomda "xulafoi roshidin" ("to'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar"), Movarounnahrda "chahoryorlar", "choryorlar" deb atalgan dastlabki to'rt xalifadan birinchisi (632-634). Muhammad (sav)ning eng yaqin safdoshlari, qaynotalari (Oishaning otasi). Yirik savdogar. Makkaning quraysh qabilasidan. Muhammad (sav) da'vatlari bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan. Islomga kirishdan oldin ismi Abdulka'ba edi. Abdulloh ismini Muhammad (sav) qo'yganlar. Siddiq deb atalishiga sabab shuki, isro va me'roj hodisasini eng birinchi bo'lib tasdiqdagan. Muhammad payg'ambar unga Siddiq, ya'ni imoni kuchli deb laqab berganlar. Makkadan Madinaga hijrat qilishda Muhammad (sav)ga hamroh, g'orda hamnishin bo'lgan. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya va b. joylardagi janglarda ishtirok etgan. A.B.S. (ra) umr bo'yi to'plagan 40 ming dirhamlarini islom yo'liga sarf qilgan, chunonchi, Bilol Habashiyni sotib olib, qullikdan ozod etgan. Muhammad (sav) vafotlaridan keyin birinchi xalifa bo'lib saylangan (632). Arab qabilalarining Madina hokimiyatiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlarini bostirgan (q. Ridda). A.B.S. (ra) xalifaligi davrida arablar Iroq va Suriyani fath etgan. 634 y.dan Vizantiya imperatori (Rum sulтони) Irakliy (Xiraqil) yuborgan yuz mingdan ortiq qo'shin ham islom lashkarlaridan yengilgan. Qur'oni karimni tartibga solib, jild holiga keltirishga kirishgan. Sarvari olamdan 142 hadis rivoyat qilgan. Islom davlatini boshqarishda qator tartiblar joriy etgan, mamlakatni boshqarish uchun Maslahat kengashi, har bir viloyatga voliy (hokim) tayinlash, Baytulmol tashkil etish

kabilar shular jumlasidandir. A.B.S. (ra) Muhammad (sav) vasiyatlariga sodiq qolib juda kamtarona hayot kechirgan. Madinada vafot etgan va Muhammad (sav) yonlariga dafn qilingan.

ABU BAKR SHOSHIY, Muhammad ibn Ahmad Shoshiy (1038-1114)-fiqhshunos. Shoshda tugʻilib oʻsgan, Bagʻdodda taʻlim olgan. Madrasani tugatgach, Nizomiya madrasasida mudarrislik qilgan. Asarlari ichida eng mashxuri "Xilyat al-ulamo" ("Olimlar chiroyi") boʻlib, olim bu asarini abbosiylar xalifalaridan Mustazhir (vafoti 1118 y.)ga bagʻishlagan. Shu kitobi tufayli A.B.Sh. "Mustazhiri", yaʼni Mustazhir tarafdori degan nom taratgan. Asariga sharh sifatida Shoshiy "al-Muʼtamad" ("Ishonchli") kitobini yozgan. Olimning fiqhshunoslikka oid yana bir yirik asari "ash-Shofiy" ("Shifo beruvchi") boʻlib, u arab olimi Abu Ibrohim Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy (791-878)ning "al-Muxtasar" ("Qisqacha") asariga sharhdir. Bu sharh 20 jilddan iborat boʻlib, olim uni 5 yil davomida yozib tugatgan. A.B.Sh. ning "ash-Shofiya shoxobchasining ustuni", "Taloqqa oid masala" kabi asarlari ham boʻlgan. Shoshiy arab adabiyoti, sheʼriyati, tilshunosligi, Qurʼon, hadisni puxta egallagan. Fiqhshunoslikdagi bilimi, tutgan mavqei jihatidan uni barcha arabiynavis entsiklopedik kitoblarda nomi zikr qilinganda "Islom mamlakatlarining faxri" deb ataydilar. A.B.Sh. Bagʻdodda vafot etgan, qabri shaharning Bob al-Sheroz maqbarasida, ustozi va mashhur olim Abu Ishoq Sheroziy qabri yonida.

ABU DOVUD Sijistoniy, toʻliq ismi Sulaymon ibn Ashʼas ibn Ishoq ibn Bashir ibn Shaddod ibn Amr al-Azdiy as-Sijistoniy (817-888/889) - muhaddis, imom. Yoshligidan hadis ilmini oʻrgangan. Oʻsmirlik chogʻlaridayoq hadis toʻplash niyatida sayohatga chiqib, Xuroson, Iroq, Suriya, Misr, Hijoz kabi yurtlarda boʻlgan. Bir qancha ulugʻ muhaddislar (Buxoriy, Ahmad ibn Hanbal, Qutayba ibn Said, Termiziy) bilan uchrashgan. Abul Faraj ibn Javziyning guvohlik berishicha, u hadislarni naql qilish va ularning sabablarini koʻrsatish boʻyicha muhaddis ulamolarning eng ulugʻlaridan biri sanaladi. A.D. oʻzining aytishicha, 500 ming hadis yozib olgan. Shulardan 4800 tasini maʼlum bir shartlar asosida ajratib, hadislar toʻplami tuzgan. Bu toʻplam "Sunan" ("Sunnatlar") nomi ila mashhur boʻlib, sahihligi jihatidan imom Buxoriy va Muslimlarning asarlaridan keyinga oʻrinda turadi, yaʼni "Kutubus sitta" ("Oltita ishonchli") hadis toʻplamlaridan biri hisoblanadi va shuning uchun ham keyinchalik uni imom A.D. deb yodga olinadigan boʻldi. A.D. umrining soʻnggi yillarini Bagʻdodda oʻtkazgan va Basrada vafot etgan. Uning "Nosix ul-Qurʼon va mansux" ("Qurʼonning nasx qiluvchi va qilingan oyatlari") va "Daloil al-nubuvvat" ("Paygʻambarlik dalillari") asari ham bor. Ibn Nadim uning "Kitob ixtilof al-masohif" ("Ilk mushaflar (Qurʼon qoʻlyozmalari)ning bir- biridan farqi haqida kitob") nomli asarini eslatib oʻtadi. A.D.ning asarlari "axli sunna val-jamoa"ning muhim hujjatlaridan hisoblanganligi uchun azaldan Movarounnahrda ham keng tarqalgan.

ABU JAHL, asl ismi Amr ibn Hishom (? -624) - Makka zodagonlaridan biri. Muhammad (sav) targʻibotiga qarshi turgani, unga dushmanlik qilgani uchun laʼnatlangan. Islom anʼanasida unga A.J. (jaholat egasi) laqabi berilgan. A.J. Badr jangida. halok boʻlgan.

ABU ZAYD, toʻliq ismi Ubaydullo ibn Umar ibn Iso ad-Dabusiy (? - 1039) - buxorolik, hanafiylikka asoslangan fiqh olimi. Fiqhda keng tarqalgan "Ilm ul-xilof" ("Ixtiloflar

haqidagi ilm") uning nomi bilan bog'liq. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida A.Z.ning 1094 y.da ko'chirilgan "Taqvim ul-adilla fil-usul" ("Qonunshunoslik asoslari bo'yicha dalillar bayoni") va 1278 y.da ko'chirilgan axloqqa doir "al-Amad ul-aqso" ("Oxirga chegara") asarlari nusxasi saqlanadi.

ABU ZARR al-G'iforiy, to'liq ismi Jundub ibn Junoda ibn Sufyon ibn Ubayd al-G'iforiy (? - 652/53) - sahobalarning ulug'laridan. G'ifor qabilasidan. Islomga juda erta kirgan zotlardan. Xalifalikda Ali avlodlari hukmron bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surgan. A.Z.ning bu g'oyalari shialikdagi imomat ta'limotiga asos bo'lgan. A.Z. o'zining taqvosi va sodda hayot tarzi bilan mashhur bo'lgan. Payg'ambar (sav) vafotidan so'ng Shom sahrosida yashagan. Usmon (ra) xalifaligi davrida Damashqda yashagan. Uning huzuriga ko'plab kambag'al va bechoralar kelib turgan. A.Z. ularga Payg'ambar (sav)ning shariatga itoat qilmaydigan, ziqna boylarni mazammam qiladigan hadislarini rivoyat qilib bergan. A.Z. kambag'allarning boylar mulkida haqlari borligini targ'ib qilgan. Muoviyanshg shikoyati asosida Usmon (ra) uni Madinaga chaqirtirib olgan. Lekin kambag'allarni boylarga qarshi qo'zg'atgani uchun ar-Rabda qishlog'iga jo'natilgan va shu yerda vafot etgan. 281 ta hadis rivoyat qilgan.

ABU ISO TERMIZIY - q. Termiziy Abu Iso.

ABU LAYS SAMARQANDIY, to'liq ismi Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim as-Samarqandiy (? - 1003) -faqih, mufassir. "Al-Faqih" va "Imomul-xudo" nomlari bilan tanilgan. Samarqand shayxulislomi. Hikmatli so'zlari bilan islom olamida shuhrat qozongan. "Xizonat ul-fiqh" ("Fiqh xazinasini"), "Bo'ston ul-orifin" ("Oriflar bo'stoni"), "Tanbihul-g'ofilin" ("G'ofillarga tanbeh") va b. asarlar yozgan. Qur'on tafsiriga bag'ishlangan mashhur "Bahrul-ulum" ("Ilmlar dengizi") asarining ikkita qo'lyozma nusxasi saqlanib qolgan. Ularning biri Misr Arab Respublikasi kutubxonasi, ikkinchisi Buyuk Britaniyaning Edinburg sh. kutubxonasi. Hozirda mazkur tafsir nashr etilgan.

ABU LAHAB (arab. - "o'tda kuyuvchi", "alangalanuvchi"; asl ismi Abd al-Uzzo ibn Abdulmuttalib (6-a. o'rtalari - 624) -Muhammad (sav)ning amakisi va yovuz dushmani. A.L.ning Ataba va Utayba ismli ikki o'g'li payg'ambar (as)ning qizlariga uylangan. Abu Tolib o'limidan so'ng (619 y.) u banu Hoshim qabilasining boshlig'i bo'lgan. Dastlab Abu Tolib kabi Muhammad (sav)ga homiylik qilgan. Ammo Muhammad (sav) Makka ahli sig'ingan uch ma'budni tan olishdan butunlay voz kechganlaridan so'ng, qaynog'asi Abu Sufyon ta'sirida Muhammad (sav)ni himoya qilishdan bosh tortgan. Payg'ambar (as)ni masxaralab, xotini bilan birgalikda u zotga qarshi har xil makrlar ishlatgan. Muhammad (sav)ning dushmanlari ichida Qur'onda ismi keltirilgan yagona shaxsdir. Qur'onning 111-surasida A.L. la'natlanadi.

ABU MADYON (Bumedyen) Abu Madyon Shu'ayb ibn al-Husayn al-Ansoriy (taxm. 1126-1197) - shimoliy afrikalik mashhur so'fiy. Sevilya sh. atrofida, andalusiyalik arablar oilasida tug'ilgan. Ota-onasi vafotidan so'ng akalari qo'lida cho'pon bo'lgan, to'quvchilik hunarini o'rgangan A.M. o'smirlik chog'ida Shimoliy Afrikaga o'tib, baliqchilik

bilan shug'ullangan, jangchi ham bo'lgan. A.M. so'fiylik xirqasini Fes sh.da, Mag'ribning eng yirik shayxlari ad-Daqqoq (12-a. o'rtalarida vafot etgan), Ali ibn Xirzixim (1195 y.v.e.), Abu Ya'azza al-Xazmiriy (1177 y.v.e)lar qo'lida saboq olayotgan chog'ida olgan. Fiqhiy masalalarda A.M. molikiylar mazhabi tomonida bo'lgan. Haj safaridan qaytib kelgach, A.M. Bejaya (Buji)da yashagan, bu yerda u o'zining va'zlari va taqvodorligi bilan shuhrat qozongan. Uning atrofida ko'plab shogird va izdoshlari to'plangan. A.M.ning shuhrati va ta'siri oshib borayotganidan, A.M. nomidan mahdiylik harakati bayroq sifatida foydalanishi, bu esa hali mustahkam bo'lmagan Almohadlar (Al-Muvahhidun) hokimiyatiga xavf tug'dirishi mumkinligidan xavotirga tushgan Marokash hukmdori Abu Yusuf al-Mansur uni Marokashga keltirishga amr qilgan. Io'lda keksayib qolgan so'fiy og'ir xastalanib Tlemsen sh. atrofidagi Ubbod degan joyda vafot etgan. Rivoyatlarga ko'ra, A.M. o'z davrining G'avsul A'zami bo'lgan. Ubboddagi qabri atrofida zamonlar o'tishi bilan me'moriy majmua vujudga kelgan, u hozirda muqaddas ziyoratgoh sanaladi. Tlemsen sh. aholisi A.M.ni o'zlarining pirlari deb biladilar.

ABU MANSUR al-MOTURIDIY - q. Moturidiy Abu Mansur.

ABU MUSLIM (laqabi; boshqa laqablari Abo Muslim, Abu Muslim Xurosoniy, Abu Muslim Marvaziy; asl ismi Abdurahmon) (taxm. 727-755) - Xuroson va Movarounnahrda umaviylar sulolasiga qarshi harakat rahbari. Isfahon viloyatidan chiqqan qul. Ba'zi manbalarga ko'ra, abbosiylarning Kufadagi targ'ibotchilaridan Iso as-Sarrojning quli bo'lgan, boshqa bir manbalarga qaraganda, Isfahon viloyatida yashovchi bir arab, yirik yer egasining quli bo'lib, 738 y. xo'jayini Kufa qamoqxonasiga tashlangan paytda A.M. uning xizmatida bo'la turib as-Sarroj bilan tanishgan va uning topshiriqlarini bajara boshlagan. Keyinchalik abbosiylarning Xurosondagi targ'ibotchilari rahbari Abu Salamaga sotilgan (yoxud berilgan). 744 y. boshida u bilan birga Xurosonga kelgan. Keyinchalik A.M. alaviylardan Ibrohim ibn Muhammadga ma'qul kelgani tufayli unga tuhfa qilingan. Ibrohim uni ozod qilib, Abdurahmon deb ism qo'ygan va uni o'ziga yaqin tutgan. 747 y. martda Ibrohim A.M.ni umaviylarga qarshi tayyorlanayotgan harakatga rahbarlik qidish uchun Xurosonga o'zining shaxsiy vakili sifatida jo'natgan. May oyida u Marv vohasiga yetib kelib, bir oy ichida bir necha ming tarafdorlarini to'plagan. A.M. qullarga ozodlik berilishini va'da qilgan. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor qo'shinlari ustidan g'alaba qilib, 748 y. boshida Marvni egallagan. A.M. shu yerdan turib Xuroson va Movarounnahrni egallanishiga rahbarlik qilgan. A.M. Marvda ko'pgina qurilish ishlarini olib borgan, ilk bor xutbani o'tirib emas, balki minbarda turib o'qigan. A.M.ning hukmronlik davri notinch bo'lgan: 750 y. umaviylar o'rniga kelgan abbosiylar sulolasidan norozi bo'lgan Buxoro arablari qo'zg'olon ko'tarishgan va Movarounnahrning ko'pgina hokimlari xalifalikdan ajrab chiqishgan. A.M. Samarqandgacha borib, uning istehkomlarini yangilagan va Movarounnahrda egalik qilish uchun kurash boshlagan. 751 y. iyulda uning sarkardasi Ziyod ibn Solih Taroz yonida Xitoy qo'shinini tor-mor keltirgan va bu bilan abbosiylarning Sirdaryo ortidagi hududlariga egalik qilishlarini ta'minlagan. 752 y. boshida A.M. Marvga qaytib kelgan, biroq oz fursatdan so'ng Movarounnahr noibi etib tayinlangan Ziyod isyon ko'targan va A.M.ga yana Amudaryoni kechib o'tishiga to'g'ri kelgan. A.M. qudratining oshib borayotgani abbosiylarni xavotirga solgan va ular uni yo'qotish payiga tushishgan. 754 y. may-iyunda A.M. hajga borish uchun Xurosonni tark etgan. Shu paytda as-Saffoh vafot etib, xalifalik taxtiga al-Mansur o'tiradi. Mansur hokimiyatini amakisi, Vizantiyaga yurish qilgan qo'shin ko'mondoni Abdulloh tan

olmagan. A.M. isyonchini tor-mor keltirgan (754 y.noyab.) va katta o'ljani qo'lga tushirgan. Mansur o'ljani talab qiladi, bundan g'azablangan A.M. Xurosonga qaytgan. Biroq xalifa uni yo'ldan qoldirib Madoyin sh.ga muzokaraga chaqirtirib keltirishga erishgan. A.M. shu yerda 755 y. 12 fev. (yoxud 27 yanv.)da xalifa qabulida bo'lgan chogida o'ldirilgan. Sakkiz yillik faol diniy-siyosiy faoliyati davrida A.M. "ashaddiy" shialar ta'limotiga yoki imomatlikka yaqinlashmagan bo'lsa ham uning o'limi zamonaviy mazdakiylar, shialarning bir qancha qo'zg'olonlarini keltirib chiqargan. "Ashaddiy" shialarning ayrim firqalari uni imom deb e'lon qilgan, abumuslimiya firqasi paydo bo'lgan. Bularning so'nggi aks-sadosi Muqanna qo'zg'oloni hisoblanadi. A.M. haqida Marvda udum bo'lgan rivoyat, afsonalar keyinchalik fors tilida (uning turkiycha varianti ham bor) yozilgan xalq romani - "Qissai Abu Muslim" (o'zbekcha "Abu Muslim jangnomasi")ga asos bo'lgan.

ABU MUSO AI-ASH'ARIY, to'liq ismi Abdulloh ibn Qays al-Ash'ariy (taxm.601 - taxm. 665, Quddus) - ashobi kironing faqihlaridan, zohid va fozil bir zot. Hijratdan avval qabilaning aholisi va o'z birodarlari bilan Makkaga kelib musulmon bo'lishgan. Ilmu fazli, zuhdu taqvosi bilan hazrati Payg'ambar (sav)ning tavajjuhlarini qozongan. Rasuli Akram tomonidan Zobit va Adan tomonlarga valiy qilib tayinlangan. Umar (ra) A.M.al-A.ni Basraga voliy qilib tayinlagan. Askariy qo'mondon sifatida Ehvaz (Efes) va Isfahon taraflarni fath etgan. Usmon (ra) zamonida Kufada voliy bo'lgan. Siffinda ham hokimlik qilgan. Qur'oni karimni go'zal bir sado bilan tilovat etar, tinglovchilarni hayajon va tug'yonga solar edi. Ushbu jihatdan ham Rasuli Akramning madhu sanosiga sazovor bo'lgan. 360 hadis naql etgan.

ABU NAZR SAMARQANDIY, to'liq ismi Abu Nazr Muhammad ibn Mas'ud al-A'yoshiy as-Sulamiy (10-a.) - fiqh olimi. Xurosonda bosh imom bo'lgan. Arab tilida 200 dan ortiq asar yozgan. Bulardan "Kitob siyrat Umar" ("Umarning tarjimai holi kitobi"), "Kitob al-muvazzah" ("Izohlangan narsalar haqida kitob"), "Kitob siyrat Muoviya" ("Muoviyaning tarjimai holi kitobi") kabi asarlari diqqatga sazovor. Ayniqsa, uning "Tafsir as-Sulamiy" kitobi mashhur bo'lib, unda Qur'oni karim tafsir qilingan. Kitobning Ibrohim ibn Ahmad al-Qummiy tomonidan qayta ishlangan nusxasi bizgacha yetib kelgan.

ABU NUAYM, to'liq ismi Ahmad ibn Abdulloh al-Isfahoniy (944-1038, Isfahon) - taniqli hadis imomlaridan biri. Fiqh va tasavvufda ham zamonasining yetakchi olimi bo'lgan. Tabaroniy kabi buyuk muhaddislardan hadis olgan, uning o'zidan ham Xatib Bag'dodiy kabi yuksak shaxslar hadislar rivoyat etgan. Eng mashhur asarlari: yigirma jildli "Hiltul-avliyo", "Daloilun-nabaviyya", "Kitobul-mustaxraj alal-Buxoriy", "Al mustaxraj alo sahihi Muslim", "Kitobut-taboqat", "Ma'rifatus-sahoba" va b.

ABU SAID al-XUDRIY, to'liq ismi Abu Said Sa'd ibn Molik al-Xazrajiy al-Ansoriy (taxm. 609-693) - sahoba. Uning otasi Molik ibn Sinon ham sahobalardan bo'lib, Uhud jangida shahid bo'lgan. A. S. a.-X. Rasululloh (sav) bilan birga Xandaq jangi va b. g'azotlarda qatnashgan. Imom Buxoriy, imom Muslim va imom Termiziyning hadis kitoblarida uning rivoyatida 1170 ta hadis keltirilgan.

ABU SAYID MAYXONIY (Mixoniy, Mixni), Fazlulloh ibn Abulxayr Ahmad (967-1049) - tasavvufdagi sharqiy (Xuroson) maktabining asoschilaridan biri. Xuroson viloyatidagi kichik shaharcha - Mayxonada tugʻilib, oʻsha yerda vafot etgan. Otasi soʻfiylar bilan aloqador boʻlib, oʻgʻlini ham shu davraga boshlab kelgan. Soʻfiylar yigʻinlaridan birida A.S.M.ni shoir Qosim Bishr ibn Yasin (990 y. v.e.)ga tanishtirganlar, u A.S.M.ning soʻfiylikdagi birinchi ustoz boʻlgan. Keyinchalik A.S.M. oʻzining vaʼz-nasihatlarida doimo uning sheʼrlaridan foydalangan. Oʻsmirlik chogʻlarida A.S.M. Marvga borib, besh yil mobaynida Abu Abdulloh Muhammad al-Xisriy (983-1000 y.lar oraligʻida v.e.), soʻngra shuncha yil Abu Bakr Abdulloh al-Qaffol (1026 y. v.e.)dan shofiʼiylik fiqhi boʻyicha ilm olgan; Saraxsda shofiʼiylik faqih Abu Ali Zoxir ibn Ahmad (999 y. v.e.) rahbarligida tafsir, hadislar va kalomni oʻrgangan. Oʻsha yerda (taxm. 997 y.) devonai Luqmon Saraxsiy A.S.M.ni Abul Muhammad as-Saraxsiyning xonaqohiga boshlab kelgan, u A.S.M.ni ilohiyot fanlarini tashlashga koʻndirgan, unga oʻzi pir boʻlib, Mayxonaga qaytishni va faqat "Alloh" deb zikr bajo etishni topshirgan. A.S.M. Mayxonada 15 y. umr kechirib, shuning deyarli yetti yilini toʻliq uzlatda (yolgʻizlikda) oʻtkazib, odamlar nigohidan chetda, yarim och holda yashagan. Bu davrda u chillai maʼqus (boshini pastga qilib osilgan holda 40 kunlik roʻza davrida zikrni bajo etish)ni mashq qilgan, uni 40 yoshga toʻlgunicha (yoxud hatto undan ham oshiq - 1016 y.gacha) bajo etgan. Oʻzining birinchi soʻfiylik xirqasini A.S.M. mashhur soʻfiy Abu Abdurrahmon as-Sulamiy (1021 y. v.e.)dan Nishopur sh.da olgan, ikkinchisini - Amulda soʻfiy Abul Abbos Ahmad b. al-Qassobdan olgan. Hayotining ikkinchi yarmini A.S.M. taniqli murshid sifatida oʻtkazgan. U Mayxonadagi oʻz uyida, shuningdek shahar chetidaga yolgʻiz hujrasida, baʼzan Nishopurga borganda Adanikuban mahallasida oʻzining koʻplab muridlariga vaʼz, pand-nasihatlarni qilgan. A.S.M. tomonidan zikri samoga musiqa, raqslar va shahvoniy mazmundagi qoʻshiqlarni kiritilishi unga nisbatan keskin tanqid qiluvchilarning koʻpayishiga sabab boʻldi, u shariat yoʻlidan chekinishda va hatto ilohiyotchilar tomonidan kofirlikda ayblandi. A.S.M. xonaqohlarda yashovchi muridlari uchun axloq-odobning 10 ta moddasini ishlab chiqqan birinchi soʻfiy shayxdir. Bunga qoʻshimcha tarzda u murshid uchun zarur boʻlgan 10 ta sifatni va muridlar uchun zarur boʻlgan 10 ta xususiyatni koʻrsatib bergan. A.S.M. tasavvufning mahalliy maktabiga asos soldi. Uning koʻplab avlodlari keyinchalik bu qarashlarni oʻzlari yashagan viloyat hududidan chetga tarqata olmadilar. Bu mahalliy maktab 1154 y.gacha mavjud boʻlib, shu yili qoʻzgʻolon koʻtargan urugʻlari butun Xurosonni talon-toroj qilganlar va Mayxonani egallagan paytda esa, A.S.M. avlodlaridan boʻlgan 115 kishini qatl qilganlar. A.S.M. qarashlari ziddiyatli boʻlib, "xudoning ishq bilan mast" soʻfiylar gʻoyasiga yaqin. "Bechoralarga xizmat qilish" A.S.M. qarashlariga xos xususiyat edi. U malomatiya taʼlimotiga muvofiq, qalandarlik bilan xayru ehson toʻplab, shogird va muridlarining, yon-atrofidagi aholining manfaat va ehtiyojlarini qondirishni oʻylagan. U yaratgan maktab amaliyoti Movarounnahrda ham tarqalgan.

ABU SUFYON, toʻliq ismi Abu Sufyon Saxr ibn Harb ibn Umayya ibn Abdushshams (567-652) - yirik savdogar, qurayshiylar zodagoni. Makkada Muhammad (sav)ga va ularning diniy targʻibotiga qarshi kurashib, ul zotni taʼqib qilgan. Mushriklarning musulmonlarga qarshi olib borgan Uhud va Xandaq janglaridagi boshliqlaridan biri. Muhammad (sav) Makkani fath qilishi arafasida islomni qabul qilgan. Keyinchalik Madinaning mavqei kuchaya boshlagach, oʻz xonadoni vakillarining islom davlatida taʼsirli oʻrin egallashini taʼminlash maqsadida Muhammad (sav) bilan yarashgan. 630

y.da Makkani musulmonlarga jangsiz topshirgan. Islom himoyasi uchun Hunayn va Toif janglarida qatnashib, bir ko'zidan judo bo'lgan. So'ngra Rasululloh (sav) uni Najron viloyatiga hokim etib tayinlaganlar. Nabiullohning vafotlaridan keyin Shom fathida qatnashgan. Yarmuk jangida jasorat ko'rsatib, ikkinchi ko'zidan ham ajralgan. Xalifa Usmon (ra) davrida A.S.ning o'gli Muoviya Suriya hokimi etib tayinlangan. Keyinchalik, Ali (kv) vafotidan keyin (661), xalifalik hokimiyatini qo'lga olgan Muoviya umaviylar sulolasiga asos solgan.

ABU TUROB Naxshabiy (? - 875) - Naxshab (hoz. Qarshi)lik avliyo. A.T. Xuroson mashoyixlari orasida mashhur bo'lgan. Qirq marta hajni ado etgan. Ma'ruza va suhbatlarida kishilarni nafsni tiyib yurishga, sabr-qanoatli bo'lishga, shariat, tariqat va ma'rifat yo'lidan borishga chaqirgan. Zamondoshlari uni "ma'no shohining mardoni", "Taqvo osmonining oyi", "Haqiqat ilmining orifi", "qutbi zamon" deb ta'riflashgan. A.T. haqida el orasida o'nlab naqlar yoyilgan. Shulardan yigirmaga yaqini Muhammad Siddiq Rushdiyning "Avliyolar sultoni, turonlik avliyolar" kitobida (Toshkent, 1995) keltirilgan. A. Navoiy uning 261 hijriy (mil. 875) yilda olamdan o'tganligini qayd etadi. Basra dashtida vafot etganligi rivoyat qilinadi. Qabri Qarshi sh.da.

ABU UBAYDA ibn Jarroh (? - 639) - sahoba, makkalik ilk musulmonlardan keyin islomga birinchi bo'lib kirgan kishi. Asharai Mubashsharalardan. Ismi Omir, quraysh qabilasining bani Fixr urug'idan bo'lgan. AU. Habashistonga, keyin Madinaga hijrat qilgan. Muhammad (sav) bilan hamma g'azotlarda kdtinashgan. Islom tarixida shijoatli va o'ta jasur mujohid, buyuk sarkarda, odil bir inson sifatida tanilgan. Otasi Badr jangida makkalik mushriklarga qo'shilib, musulmon qo'shinlariga qarshi kurashgan, o'g'li A.U.ni o'ldirishga qasd qilgan, doimo uni ta'qib etgan. Abu Bakr Siddiq xalifaligi davrida Shom (Suriya) fathi uchun yuborilgan. A.U. odil, shafqatli va halim zot bo'lgan. Bu hol dushmanni yengishga qo'l kelgan, Shomning urushsiz olinishiga sabab bo'lgan. 639 y. Shomda og'ir, yomon kasallik (touni amvos) garqalgan. Kasallik dastlab Falastindagi Amvos qishlog'idan chiqqan bo'lib, bu kasallikdan bir oy ichida yigirma ming musulmon vafot etgan. A.U. ham shu kasallik qurboni bo'lgan. A.U. Urdun (Iordaniya) nohiyasida vafot etgan, qabri Shariat daryosining g'arb tomoni, Amyo qishlog'idadir. Umar (ra) o'zidan keyin xalifalikka A.U.ni munosib nomzod deb bilgan.

ABU SHAYBA, to'liq ismi Abubakr Abdulloh ibn Muhammad ibn Abu Shayba (? - 849) - muhaddis, olim. Sufyon ibn Uyayna, Abdulloh ibn Muborak, Yahyo ibn Said kabi zotlardan hadis olgan, uning o'zidan ham Buxoriy, Muslim, Abu Dovud kabi buyuk muhaddislar qadis naql etganlar. Xalifa Mutavakkilning amri bilan xalqqa hadisdan dars bermog'i uchun Bag'doddagi Rusofa yaqinida bir minbar hozirlatgan. Uni tinglagani 3000 kishi to'plangan. Hadisga doir "Musnad" va uch jildli "Almusannaf" asarlari mashhurdir.

ABU SHUJO RO'ZROVARDIY, Zahiruddin Muhammad ibn Husayn (1045, Ahvoz - 1095, Madina) - tarixchi, davlat arbobi. Fiqh, hadis, til va tarix sohasida, xususan somoniylar tarixiga oid bir qancha asarlar yozgan. 1076 y.da xalifa Muqtadiy (1075-94) tomonidan vazirlikka tayinlangan. Uning davrida ba'zi soliqlar yengillashtirilgan. U o'z

yerlarini vaqfqa ajratib, masjid va madrasalar qurdirgan. Sunniylar va shialar o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilgan.

ABU YUSUF, to'liq ismi Yoqub ibn Ibrohim al-Kufiy al-Ansoriy (731-798 yoki 804) - faqih, islomdagi dastlabki qozi ul-quzzot. Kufada, kambag'al oilada tavallud topgan. 13 yoshida Kufa qozisi mashhur faqih Ibn Abi Laylodan fiqhdan saboq olgan, oradan 9 y. o'tgach, Abu Hanifaga. shogirdlikka o'tib, 15 y.ga yaqin uning shogirdi va eng yaqin yordamchisi bo'lgan. Boshqa shogirdlar, ayniqsa Zufar al-Huzayl bilan birgalikda A.Yu. fiqh nazariyasini ishlab chiqishda qatnashgan. Abu Hanifa vafotidan so'ng Iroqdagi ulamolar davrasida ustoz o'rnini egallab, uning ishini davom ettirgan. Xalifa al-Mahdiy (775-785) A.Yu.ni Bag'dod qozisi etib tayinlagan, xalifa Horun ar-Rashid (786-809) esa, unga qozi ul-quzzot mansabini berib, butun xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash va qozilar qarori yuzasidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish huquqini bergan. Bunday yuksak martaba A.Yu.ga Abu Hanifaning nazariy qarashlarini amaliyotda keng qo'llash imkonini bergan, bu esa, hanafiylik mazhabining tarqalishi va mustahkamlanishiga xizmat qilgan. A.Yu. "Kitob al-xiroj" ("Soliq haqida kitob") asarining muallifi bo'lib, u Horun ar-Rashidning soliq, yer va suvdan foydalanish, davlat boshqaruviga oid savollariga berilgan batafsil javoblaridan iborat. A.Yu.ning shogirdlaridan Muhammad ash-Shayboniy uning maslahat va ma'lumotlaridan keng foydalanib, Abu Hanifa ma'naviy merosini to'plagan va bir tizimga solgan. Boshqa bir shogirdi esa Ahmad ibn Hanbal bo'lgan. A.Yu.ning qarashlari Muhammad ash-Shofi'iyga katta ta'sir ko'rsatgan.

ABU QATODA, to'liq ismi Abu Qatoda al-Haris ibn Rab'iy al-Ansoriy as-Sulamiy (taxm. 604-674) - ansori kiromdan va Paygambar (sav)ning suvoriylaridan biri. Rasuli Akramdan 170 hadis rivoyat etgan. Bulardan 21 tasida Buxoriy va Muslim hamfikrdirlar. Faqat Buxoriyda 2, Muslimda 8 hadisi bor. Qolgani boshqa kitoblardadir. Madinai munavvara yoki Kufada vafot etgan.

ABU HANIFA, Nu'mon ibn Sobit al-Kufiy; Imomi A'zam (699 - 767) - ilohiyotchi, fiqhshunos, muhaddis, ulug' imom, hanafiylik mazhabi asoschisi. Kufada tug'ilgan. "Imomi A'zam" (buyuk imom) - ulug'ligi e'tirof etilib berilgan unvon. O'ziga to'q, zodagon oiladan bo'lib, olim va fozil insonlar orasida voyaga yetgan. Otasidan qolgan katta boylikni ilm yo'lida sarf etgan. Yoshligidayoq Qur'onni yod olgan. Kalom ilmi va mantiqni o'rgangan. 22 yoshida iroqlik ulug' alloma, ilohiyotchi Hammud ibn Abu Sulaymonga shogird tushib, uning ta'limini olgan. Keyin Kufa va Basraning eng obro'li faqih bo'lib yetishgan va o'zi shogirdlar tarbiyalagan. Kamtar, mehribon va o'ta saxovatli, nihoyatda taqvodor inson sifatida hurmat qozongan. Uning qirq yil mobaynida xufton tahorati bilan bomdod namozini o'qigani, 55 marta haj qilgani haqida rivoyat bor. 747-48 y.larda A.H. Iroq hokimi ibn Hubayra ta'qibidan qochib Makkaga ketgan. Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgach, Iroqqa qaytib ulamolik faoliyatini davom ettirgan. Xalifa al-Mansur (754-775) unga yanga poytaxt Bag'dodda qozilik yoki boshqa istagan yuksak lavozimni taklif qilgan. Biroq A.H. bu taklifni qat'iy rad etgan. Shunda Mansur uni qamab, turli qiynoklarga solgan. A.H. ko'p o'tmay Bag'dodda vafot etdi. Mansur A.H.ga zahar ichirgan va u shu sababdan shahid bo'lgan, degan rivoyat ham bor. A.H. fiqhiy ilmni birinchi bo'lib tasnif qilib, uni boblarga ajratib, tartibga solgan va kitob

shakliga keltirgan. A.H.ning ilmi kalom, fiqh, hadis, sarfga oid bir necha kitoblari bo'lib, ular jumlasiga "Kitob as-salot" ("Namoz ahkomlari kitobi"), "Kitob al-Manosik" ("Haj kitobi"), "Kitob ash-shurut" ("Shartnomalar haqida kitob"), "Kitob al-faroiz" ("Meros ilmi haqida kitob"), "Kitob al-olim val-mutaallim" ("Ustoz va shogird haqida kitob"), "Kitob al-fiqh al-akbar" ("Katta fiqh kitobi"), "Kitobi al-vasiya" ("Vasiyatnoma kitobi") va b. kiradi.

A.H. faqihlarning ustozi, imom Shofi'iy ta'biri bilan aytganda, "barcha odamlar fiqhda uning boqimandalari" edi. Hech qanday shubhaga o'rin qolmaydigan darajadagi aniq hujjat va dalillar asosida hukm chiqaradigan olim bo'lgan. A.H.ning bulardan tashqari hadis sohasida ham asarlari mavjuddir. O'rta asr faqihi Abul Muayyad Muhammad ibn Mahmud Xorazmiy A.H. musnadlarini jam qilib, kitob shakliga keltirgan, 1907 y.da Misrda chop etilgan bu kitoblar zamonlar osha musulmonlar tayanadigan ilmiy manba va asos bo'lib kelmoqda.

A.H.dan ta'lim olgan shogirdlar zamonasining yetuk peshvolari bo'lib yetishgan. Ulardan biri Abu Yusuf bo'lib, Horun ar-Rashid davrida qozilik vazifasida ishlagan. Ikkinchi shogirdi imom Muhammad ibn Hasan o'z navbatida imom Shofi'iyga ta'lim bergan. Hadislarni saralashda nihoyatda mohir bo'lgan, har bir masalani dalil bilan isbotlay oladigan Zufar ibn Huzayl ham A.H.ning ko'zga ko'ringan izdoshlaridandir. Yana bir shogirdi Hasan ibn Ziyod A.H.ning "Al-Mujarrad", "Qozining odobi", "Nafaqalar", "Faroiz" (Meros ilmi), "Xislatlar" kabi kitoblarini yozib tugatgan. A.H.ning o'g'li Hammod va nabirasi Ismoil ham shar'iy ilmlar borasida yetuk alloma bo'lganlar, turli shaharlarda qozilik mansabida ishlagan. Xurosonda birinchi bo'lib hadisni yozib olgan Abdulloh ibn Muborak ham A.H.dan ta'lim olgan. Movarounnahrda mamlakatlarda va dunyoning boshqa ko'pgina joylarida musulmonlar A.H. mazhabi qoidalari asosida ibodat qiladi.

ABU XAFS KABIR Buxoriy (767 - Buxoro - 832) - islom olamining buyuk fiqhshunos olimi. Imom Buxoriyning zamondoshi. Buxorodan Bag'dodga borib, imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy (804 y. v.e.)ga shogird tushgan. A.H.K. islom qonunshunosligi asoslarini yaratgan yirik olim bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, uning sharofati bilan Buxoro "Qubbat ul-islom" - "Islom dinining gumbazi" unvonini olgan. Abu Hafsnig o'ziga "Kabir Buxoriy" - "Buxoriylarning kattasi" va "Hojatbaror imom" degan unvonlar berilgan, o'g'li Abu Abdulloh (Abu Hafs Sagir Buxoriy; 877 y. v.e.) ham otasi singari fiqh ilmida peshqadam bo'lgan. A.H.K. fiqhning turli masalalari yoritilgan "Al-Ahvo' val-ixtilof" ("Havoyi gaplar va kelishmovchiliklar"), "Ar-raddu alal-Lafziyya" ("Yuzaki qarovchilarga raddiya") va b. asarlar yozgan. A.H.K. Buxorodagi Darvozai nav qarshisidagi tepalikda dafn etilgan. Buxoroliklar u joyni muqaddas sanab, "Haqrah" ("Haq yo'l") va Xoja Imom Abu Hafs deb ataganlar. Mustabid sovet tuzumi davrida uning qabri va atrofidagi me'moriy yodgorliklar buzib tashlangan.

ABU HUZAYL ALLOF, Muhammad ibn al-Huzayl (749/753-841/849) - mu'taziyalar (huzayliylar) Basra maktabining yirik vakili, g'oyaviy rahnamosi. Alloflar savdo qiladigan joydan bo'lganligi uchun al-Allof laqabini olgan. 818 y.da Bag'dodga ko'chib kelgan. Samarra (Iroq)da vafot etgan. A.H.A. ko'p qismi bahs-munozara tusidagi 60 ta asarning muallifi bo'lgan, ammo ularning birontasi bizgacha yetib kelmagan. Uning "Raddiyalar" asari boshqa dinlar (yahudiylik, xristianlik, zardushtiylik)ga ham, islom dinidagi turli oqim va maktablarga ham qarshi qaratilgan. Qur'on va sunna ta'limotini aql-idrokka mos talqin etishga urinib, ma'lumotlarni qabul qilishda faqat aqlga suyanish kerak, Qur'on

yaratilgan, banda o'z fe'l-atvorini o'zi yaratadi, degan g'oyani ilgari surgan. A.H.A.ning "xudoning kalomi" iroda erkinligi, odamning o'z xatti-harakatlari uchun ma'naviy javobgarligi, hayotiy ne'matlar haqidagi va b. fikrlari nafaqat sunniy ilohiyotchilar, balki boshqa mu'taziliy oqimlarning vakillari tomonidan ham tanqidga uchragan. A.H.A. xalifa Ma'munning ustoz bo'lgan va ayni shu xalifa davrida (813-833) mu'taziliylar ta'limoti hukmron diniy e'tiqod hisoblangan. Xalifa amri bilan barcha qozilar, ilohiyotchi olimlar, mansabdor shaxslar aqidaviy masalalarda imtihon qilingan. Mutaziliylik, ya'ni A.H.A. aqidalarini tan olmagan kishilar xizmatidan bo'shatilib, jazolangan, hatto o'limga mahkum etilganlar.

ABU HURAYRA (602 - 679, Madina) - mashhur sahoba, roviy, faqihlardan. Asli ismi Abdurahmon ibn Sahr al-Davsiy Abdushams. Rasululloh tomonidan Abdurrahmon deb atalgan. Mushuklarni juda sevgan. Bir kun uning etagida bir mushuk bolasini ko'rgan Rasuli Akram, "Abu Hurayra" - mushukning otasi deya lutf etgan va u ham bundan iftixor etib, ushbu laqab bilan shuhrat topgan. Tijorat va boyligi yoxud ma'lum bir mashg'uloti bo'lmagani uchun ashobi Suffa sirasiga kiritilgan. U Doril-irfondan dars olgan va huzuri Rasulotdan bir lahza ham ayrilmagan. Ajoyib faqih bo'lib, ifto (fatvo beruvchi) mavqeiga ko'tarilgan. Umar (ra) tomonidan Bahrayn voliyligiga tayinlangan. Usmon (ra) zamonida Makka qozisi va Muoviya davrida Madina voliysi bo'lgan. Favqulodda kuvvai-hofizaga ega bo'lgan A.H. uch yil muttasil Nabiy (as)ning majlisidan ajralmagan va bu muddat mobaynida kuch-quvvatini Rasuli Akram(sav)ning so'zlari va ishlarini egallash hamda qayd etishga baxsh etgan. 5374 hadis rivoyat etgan. Bulardan 335 tasida Imom Buxoriy va Imom Muslim hamfikrdirlar, 93 tasi faqat Buxoriyda, 189 tasi yolg'iz Muslimda, qolgan 4757 tasi boshqa hadis kitoblarida keltirilgan.

ABUD-DARDO, asl ismi Uvaymir, kunyasi bilan mashhur (? - 652) - ashobi kiromning faqihlaridan, olim va hakimlaridan biri. Shom fathidan so'ng u yerga hokim qilib tayinlangan. 179 hadis rivoyat etgan.

ABULABBOS MUSTAG'IRIY- Imom Mustag'firiyy (to'liq ismi: Nasafiy Samarqandiy Ja'far ibn Abu Ali Muhammad ibn Abu Bakr) (961-1041, Nasaf) - tarixchi, adib, muhaddis va faqih, Sam'oniyyning "Kitob al-ansob" asarida yozilishicha, Ab.M bir qancha vaqt Marv, Saraxs, Nishopur, Buxoro va Samarqandda yashagan. 987 y.dan Nasaf jome masjidida ma'ruzalar o'qigan. Umrining oxirida Nasafning bosh imom-xatibi lavozimida bo'lgan. U "Kitob tarixi Samarqand", "Kitob tarixi Nasaf va Kesh" (2 jildlik), "Kitob ush-shi'r vash-shuaro" ("She'r va shoirlar haqida kitob"), "Kitob ul-vafo" ("Vafo kitobi"), "Kitob daloil an-nubuvva" ("Payg'ambarlik dalillari"), "Kitob ud-da'vot" ("Targ'ibotlar kitobi"), "Kitob xutab an-nabiy" ("Payg'ambar xutbalari kitobi"), "Kitob tibb in-nabiy" ("Payg'ambar tibbi kitobi") kabi o'ndan ziyod asarlar yozgan. Uning "Kitob tibb in-nabiy" asari Tehronda nashr etilgan.

ABULBAQO ibn BAHUDDIN (16-a. 1-yarmi - 17-a. 1-choragi) - tarixchi. Xoja Ahmad ibn Jaloluddin Kosoniy (Mahdumi a'zamning nabirasi bo'lib, Abdulazizxon (1540-49) saroyida kichik davlat lavozimi (hukmgar)da turgan. U bobosiga atab "Jome' ul-maqomoti Mahdumi a'zam" ("Mahdumi a'zam maqomotining majmui") kitobini yozgan (1617). Bu asarda Mahdumi a'zamning hayotiga oid ma'lumotlardan tashqari,

Movarounnahrning 16-a. 1-yarmidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli hamda shayboniylar bilan Eron o'rtasidagi munosabatlarga oid qimmatli ma'lumotlar bor.

ABUL ASVAD DUALIY (? - 689) - islom olimlaridan, ulug' tobe'inlardan. Ayniqsa, go'g'riso'z va hozirjavoblighi bilan shuhrat qozongan. Hazrati Ali bilan birga Siffin jangida ishtirok etgan. Muoviya ibn Abu Sufyon zamonida ham hurmati baland bo'lgan. Basrada qozilik qilgan. A.A.D.ning ikki ishini avlodlar ehtirom bilan esga oladilar. U zot nahv ilmiga asos solgan hamda Qur'oni karimning harflariga nuqtalar qo'yib chiqqan (avvalgi Qur'on nuqtalarsiz va harakatlarsiz edi).

ABULFATH ALOUDDIN MUHAMMAD ibn Abdulhamid Usmandiy Samarqandiy (? - 1157) - fiqhshunos olim. Uning Abu Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniyning "al-Jomi' al-Kabir" ("Katta to'plam") kitobiga yozgan "Sharh ul-Jomi' al-Kabir" ("Jomi' al-Kabirning sharhi") nomli bir necha jildli asarining 1-si bizgacha yetib kelgan. U "Kitob ul-imon" ("Imon haqida kitob"), "Kitob un-nikoh" ("Nikoh haqida kitob"), "Kitob ush-shahodat" ("Shahodat kitobi"), "Kitob ul-qazo" ("Hukm kitobi") kabi boblarga bo'linadi. Mazkur asarning kotib Ahmad ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Umar Samarqandiy tomonidan 1361 y.da ko'chirilgan nodir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 5558) saqlanadi.

ABULQOSIM HAKIM SAMARQANDIY, to'liq nomi Ishaq ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Zayd (856-946) -hanafiylik mazhabining ko'zga ko'ringan nazariyotchisi, hakim. Samarqandda tug'ilgan. Yoshligida ilm olish uchun Balxga borgan, u yerda Abu Bakr Varroq Termiziydan tariqat ta'limini olgan. U kalom, fiqh va tafsir ilmlarini chuqur o'rganib, o'sha davrning mashhur shayxlaridan hadis va rivoyatlar eshitgan. Manbalarga ko'ra, keyinchalik u Samarqandga keladi, qozi lavozimida ishlaydi va shu yerda vafot etadi. Ulamolar somoniylar amiri Ismoil Somoniyga murojaat qilib, Movarounnahrda avj olgan turli mazhab va firqalarni kelishtirish uchun aqidalar majmui bo'lgan bir kitob yaratishni tavsiya etadilar. Amir kitob yozishni A.H.S.ga topshirgan. Shu tariqa "as-Savod ul a'zam" ("Ko'pchilik tomon") kitobi vujudga kelgan. A.H.S. o'ziga xos kalom maktabini yaratgan. U o'z asarida imonni yaratilmagan, ya'ni azaliy deb hisoblab, bu fikrga qo'shilmaganlarni bid'at ahli deb atagan. A.H.S. hanafiy mazhabining asosiy aqidalarini himoya qilib, mazhabni tug'ilib kelayotgan aqliy dalillar vositasida qayta ko'rib chiqishga qarshi turgan, aqidaviy ixtilofga barham berish yo'li bilan Movarounnahr musulmonlari o'rtasidagi fikriy yakdillikni saqlab qolmoqchi bo'lgan. U ahli sunna va jamoa ta'limotining shakllanishiga muhim hissa qo'shgan.

AVESTO, Ovasto (parfiyoncha: arastak -matn; ko'pincha "Zend-Avesto", ya'ni "tafsir qilingan matn" deb ataladi) -zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. A.Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qad. davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatlarini, forsiy va turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalarning yozuvlarini o'rganishda muhim va yagona manba. A. o'rta fors (paxlaviy) yozuviga yaqin bo'lgan maxsus Avesta yozuvida bitilgan. Mil. av. 6-a.da, Axomaniylar sulolasi zamonvda oromiy alifbosida ilk bor kitob qilib ko'chirilgan. A.ning tafsiri "Zend A." nomi bilan yuritiladi. Zardushtiylik ruhoniylari

qo'lida A.ning asl nusxasi muqaddas bitik sifatida saqlangan. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, A. O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda mil. av. 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. A.da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Mas., xudo yaratgan o'lkalar sanab o'tilar ekan, boyligi va ko'rkamligi jihatidan qad. Xorazm, Gava (Sug'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo'lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yoxud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. A.dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo'lgan. A. uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qad. qismlari mil. av. 2-ming yillik oxiri - 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda A. tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va h.k. qo'shib borgan. A.ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa, 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U Persepolda saqlangan. Axomaniylar sulolasininng poytaxti Sheroz yaqinidagi Taxti Jamshidda saqlangan. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51-78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniylar shohi Xusrav I (531-579) davrida yaxlit kitob holiga keltirilgan. 9-a.da yozilgan "Denkart" asari A.ning 21 nask (qism)dan iborat ekanligi haqida ma'lumot beradi. A. hajmi katta kitob bo'lgani sababli, dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - "Kichik A." (Xurdak A.) yaratilgan. Arablar Eronni fath etgach (7-a.), zardushtiy ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombay sh.da o'z jamoalarida hozirgacha A.ning asl nusxasini saqlab keladi. Frantsuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron zardushtiylar jamoasida yashab, A. tilini va yozuvini o'rganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771). A.ning bu nusxasi 27 jilddan iborat bo'lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gatlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi.

A.da bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda yer, o'simlik va b. hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu Ahuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengashga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa, kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa, yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. Cheksiz, abadiy fazo va vaqt ham ikki qarama-qarshi qismdan: yaxshilik va Ahuramazda hukmron bo'lgan abadiy yorug'lik bilan yomonlik va Anxramaynu hukmron bo'lgan abadiy zulmatdan tashkil topadi.

A. ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govamard (xo'kiz-odam; forscha Kayumars) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekamu ko'st, baxtiyor yashagan. 900 y. o'tgach, shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anxramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on (var) qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, Xayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik saltanati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. A.ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardushtiylarning namoz ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu

uch ibora bilan boshlanadi.

A. mil. av. 6-a.da yashagan va o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan Spitama Zardusht faoliyati tufayli diniy asar sifatida tizimga solingan. Zardushtiylik jamoalari hozir ham Hindistonning Bombay va Gujarot viloyatlarida hamda Eronning ba'zi shaharlarida mavjud. Kaliforniya (AQSh) shtatida zardushtiylarning ilmiy markazi mavjud.

Eronlik tadqiqotchi Pur Dovud 1920-1940-y.larda A.ning qad. nusxalarini fors tiliga tarjima qildi.

Zardushtiylik dini ibtidoiy jamoa tuzumidan ijtimoiy tabaqalanishga o'tish davrida vujudga kelgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni diniy shaklda ifodalagan va ko'p xudolik (politeizm)dan yakka xudolikka (monoteizmga) o'tishni aks ettirgan. A. "Eng mo'tabar, qad. qo'lyozmamiz... Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir" (I.A.Karimov, "Adolatli jamiyat sari", T., 1998, 39-40-bet).

AVLIYO (arab. valiy so'zining ko'pligi, xudoga yaqin odam) - tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o'zini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan yuz o'giruvchi kishi. Islom an'anasida A.lar qaysidir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Allohga yaqin bo'lib qolgan, duolari mustajob, solih, qobil, kamtar kishilardir. A.lar payg'ambarlar darajasidan keyin turadi. A.larning mozorlarini ziyorat qilib ibrat olish islom dinining hanafiylik mazhabida savobli ishlardan hisoblanadi.

AVRAT (arab.) - 1) himoyalanmagan, zaif joy; 2) jinsiy a'zo - shariatga ko'ra, ibodat (diniy amallar) paytida namozxon tanasining kiyim bilan yopib turishi lozim bo'lgan qismi. Namozda er kishining kindikdan to tizzagacha bo'lgan gavda qismi, ayollarning esa, yuz va kaftlaridan boshqa hamma joylari hatto sochlari ham A. hisoblanadi.

ADAB (arab.) - tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx va saboq oluvchi murid yoki solikning rioya qilishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar. Shayxlar va soliklar A.i xususida ko'plab asarlar yozilgan.

ADL ("adolat", "to'g'rilik") - 1) adolat va to'g'rilik nuqtai nazaridan shaxsni axloqiy baholash tushunchasi. Qur'oni karimda A.-yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham birday adolatli hukm chiqaruvchi Allohning sifatlaridan biri. Biroq Allohning A.i -inson ongi, tafakkuri anglab yetmaydigan darajadagi oliy adolat. Shu tufayli inson Allohdan adolat qilishni emas, raxm-shafqat qilishni so'rab iltijo qilishi lozim. Insonga nisbatan A. - bu birovga nisbatan yomonlik (jabr) qilish niyati borligani payqab olish va uni bartaraf etish imkoniyati, shuningdek umumiy ma'nodagi adolat tushunchasi. G'azoliy A.ni ehson ("chin ko'ngillik", "vijdon") tushunchasi bilan birgalikda qo'llaydiki, bular "adolat va vijdon" ma'nosini anglatgan. Davlat xizmatidagi biror mansabga da'vogar yoki biron-bir muhim jamoatchilik majburiyatlarini, chunonchi: vasiylik, vakillik, guvoxdik va b.ni bajaruvchi har qanday shaxsda A. bo'lishi lozim. Birovga jabr qilmagan, g'ayriaxloqiy (fisq, fujur) harom yo'llarga yurmagan har qanday musulmon odil, ya'ni A.i bor kishi deb qaraladi. Bu sifatlarni yo'qotganlar (fosiqlar) agarda solih amallar bajo keltirib tavba

qilsalar va shundan so'ng haqiqiy musulmonga xos hayot kechirsalar A.ni tiklashlari, unga erishishlari mumkin. 2) shialikdagi 5 aqidadan biri.

AJAL (arab. - belgilangan vaqt, muxlat) - islom dinida inson umrining Alloh tomonidan belgilangan muddati tugashi. Islom aqidalariga ko'ra, A. Alloh tomonidan qat'iy belgilangan bo'ladi. Qur'oni karimda shunday oyat bor: "Qachonki ularning ajali yetsa, bir lahza oldin ham, bir lahza keyin ham qo'yilmaydi" ("A'rof" surasi, 34-oyat).

AJAM (arab. - arab emas) - arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon, Eron .ham "Mulki ajam" deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar "ajamiy" deb atalgan. Keyinchalik A. nomi faqat eronliklarga nisbatan qo'llanilgan, Eronni esa, A. yoxud Ajamiston deb ataganlar.

AJDODLARGA SIG'INISH - ibtidoiy din shakli. A.s.ning turli shakllari mavjud bo'lgan. A.s. dafn marosimlari (o'lgan kishilarning joni va ruhi haqidagi tasavvurlar), shaxsiy homiy ruhlarga, oila-urug' oqsoqol homiylariga sig'inish kabilar asosida tarkib topgan. A.s.da ajdodlarning ruhlari urug'ning a'zosi bo'lib qolishi, lekin ular odamlardan kuchli bo'lgani sababli urug'ning farovonligi shu ruhlarga bog'liq, degan tasavvur katta ahamiyat kasb etgan. Bu tasavvurlar obro'-e'tiborli urug' oqsoqoli timsolini qabila xudosi darajasiga ko'tarish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Jamiyatda kishilarning ijtimoiy belgilariga ko'ra, tabaqalashuviga mos ravishda ajdodlar ruhlarining ham tabaqalashuvi sodir bo'ladi, natijada qabila boshliqlari, urug' oqsoqollariga sig'inish birinchi o'rinni oladi. Buning asosida qad. dinlarda qahramonlarga sig'inish, keyin esa, avliyolarga sig'inish vujudga kelgan. O'rta Osiyo xalqlari orasida ham bu odat mavjud. Arvohlarni eslash, ularga sig'inib, madad so'rash, jonliq so'yish, is chiqarish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Islomda A.s. qoralanadi.

AJR (arab. - to'lanadigan haq, mukofot) - islomdagi tushuncha. Qur'onga ko'ra, odamlar bu dunyodaga yaxshi ishlari uchun oxiratda A.ini topadi, ya'ni nasib etgan mo'min-musulmonlarga savobli ishlari evaziga turli maqom va martabalar, nozu ne'matlar beriladi.

AZAYIMXONLIK, duoxonlik - duo o'qish, dam solish yo'li bilan tabiblik qilish. A. bilan shug'ullangan shaxslar azayimxon, duoxon, baxshi va h.k. deb ataladi. Nomi chiqqan, tajribali, martabali duoxon azayimxon deb atalgan. Azayimxon issiq-sovuq qilish, jodugarlik bilan ham shug'ullangan. Ibtidoiy jamiyatning urug'chilik bosqichida ayrim kishilar odamlarni oddiy usul (dorivor giyoh, qon olish va b.) bilan davolashgan. Lekin ularning ba'zilar bemorni davolash jarayonida, go'yo kasal "sababchisi" bo'lgan "yomon ruhlar"ni har xil xatti-harakatlar (avrash, duo o'qish, sehrlash, afsungarlik) bilan "haydab chiqara olishlariga" odamlarni ishontirishgan. Jahonning ko'pgina xalqlarida keng tarqalgan.

AZOB (arab. - qiynoq) - shariatda gunoh uchun belgilangan jazo. Gunoh uchun qozi tomonidan belgalanadigan jazo ham, narigi dunyoda beriladigan jazo ham A. deb atalgan (yana q. Azob al-qabr).

AZOB al-QABR (sinonimi azob al-barzox; "qabr jazosi") - sinov, qabrdagi jazo, inson o'lgan zahoti bo'ladigan kichik sud. Shunga ko'ra, qabr jannat yoki do'zaxga kirishdan oldingi o'tloq (yaylov)dir va unda dastlabki sud sodir etilib, bandaning qilgan amallariga yarasha dastlabki hukm belgilanadi. Ikki farishta - Munkar va Nakir bandaning islomga bo'lgan munosabati haqida savol-javob qiladilar. Mo'minlarni to qiyomat kuniga qadar qabrda tinch-osoyshta, orom olib yotishi uchun qoldiradilar. Gunohkorlarni og'ir yuk (bosim) bilan qiynaydilar, dinsizlarni farishtalar bundan tashqari yana Alloh taoloning xohishiga qarab, ba'zan qiyomatgacha betinim suratda uradilar.

AZON (arab. azana - bildirish, e'lon qilish; sinonimi nido chiqarish) - namozga chaqirish. A. namoz uchun buyurilgan sunnat hisoblanadi. Odatda har bir masjidida muazzin bo'ladi. Uning aytgan A.i namoz vaqti kirganini bildiradi. A. baland ovoz bilan o'ziga xos ohang ila aytiladi. A. 622-623 y.larda Muhammad (sav) tomonidan belgilangan. Birinchi muazzin Bilol bo'lgan. Sunniylikda A. aytish qoidasi: ikki qo'lning bosh barmoqlarini quloqning yumshoq joyiga tekkizib, ko'rsatkich barmoqlarni quloq ichiga tiqib, shunday deyiladi: "Allohu akbar" ("Alloh -eng ulug'dir") - 4 marta; "Ashhadu al-la iloha illalloh" ("Guvohlik beramanki, Allohdan o'zga iloh yo'q") - 2 marta; "Ashhadu anna Muhammadur-rasululloh" ("Guvohlik beramanki, Muhammad Allohning payg'ambaridir") - 2 marta; "Hayya alas-solah" ("Namozga kelinglar") - 2 marta; "Hayya alal falah" ("Najotga kelinglar") - 2 marta; "Allohu akbar - Allohu akbar, La ilaha illalloh". A. hamma namoz uchun bir xilda aytiladi, lekin faqat bomdod namozi A.ida "Hayya ala falah" degandan so'ng "As-salotu xoyrum min-an-navm" ("Namoz uyqudan afzaldir") deb 2 marta qo'shib aytiladi. Islomda yangi tug'ilgan chaqaloqning o'ng qulog'iga A. aytish odati ham bor. Bunda avval o'ng qulog'iga A., chap qulog'iga takbir aytiladi. Bu odat go'dakning bokira shuuriga Alloh taolo nomini muhrlash mazmunida talqin etilgan. Takbirda A. lafzlariga "hayya alal falah"dan so'ng ikki marta "qad qomati saloh" (namoz o'qishga tayyor) lafzini ziyoda qilinadi.

AZRAQIYLAR - xorijiyarlardan ajralib chiqqan o'ta murossasiz firqa tarafdorlari. Asoschisi - Nafi ibn al-Azraq (685 y. v.e.). 7-a. ning 2-yarmida arab xalifaligining sharqiy hududida xorijiyalar harakati kuchayadi. A.ning umaviylar xalifaligiga hamda shialarga qarshi qaratilgan eng yirik isyoni Iroq va Eronda boshlandi va 15 y. davom etdi (684-699). Qullarni ozod etgani, ezilganlarni himoya qilgani uchun qishloq aholisi, ayniqsa forslar A.ni qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga A.ning islomdagi boshqa oqimlarga nisbatan mutaassiblarcha murossasiz va qattiqqo'lligi, o'z qarashlariga qo'shilmagan barcha kishilar, shu jumladan ayol va bolalarni ham o'ldirishni talab qilishi, zinoga belgilangan jazoni bekor etishi A. harakatining ijtimoiy negizini susaytirdi. A. tarafdorlari 8-a.dayoq butunlay yo'qolib ketgan.

AZROIL - islom dinida to'rt bosh farishtadan biri (Jabroil, Mikoil va Isrofil bilan birga), jon oluvchi farishta. Rivoyatlarga ko'ra, A. dastlab oddiy farishta bo'lgan, Alloh

Odamatoni yaratish uchun farishtalarni yerdan tuproq olib kelishga yuboradi. Yer qarshilik ko'rsatadi va farishtalar undan bir siqim ham yulib ololmaydilar. Bu ishni faqat A. bajarganligi sababli u o'limdan ustun turuvchi farishta deb hisoblangan. A. taqvodorlarning jonini oson, gunohkorlarning jonini esa qiynab oladi degan fikrlar mavjud.

AYNULQUZZOT, asl ismi Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Miyonjiy Hamadoniy (1099-1132) - shayx, mutasavvif. Hamadon sh.da tug'ilgan. Uning ilohiy hikmat va tabiatshunoslik ilmlariga oid "Yazdon shenoht" ("Xudoni tanish"), tasavvufning o'n asosini talqin qiluvchi "Tamhidot" ("Tekislash"), xudoning sifatlari va zotiga bag'ishlangan "Zubdat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i") kitoblari bor. U aqlni bilim hosil qilishning muhim vositasi deb bildi. Mutafakkir fikricha, aql faqat moddiy dunyodagi voqealarnigina tushunib yetishi mumkin, Haqning mohiyatini anglashda esa, ojizdir. A. insonning mohiyatini ishq tashkil etadi, ishq vositasidagina inson kamolotga erishadi, ishq dunyoni harakatlantirib turadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, oliy darajadagi ilohiy ishq quyi darajadagi insonning dunyoviy ne'matlarga bo'lgan rag'batini inkor etmaydi, balki uni to'ldiradi. "Kimki xudoni sevsa, uning rasuli, o'zining piru murshidi va o'z hayotini ham sevishi lozim", - deb yozadi. A. bir necha yil qozi ul quzzot - bosh qozi bo'lib ishlagan va adolat yo'lini tutgan, diniy ixtiloflarga qarshi turgan. Uning ijtimoiy-axloqiy fikrlari O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron mutafakkirlariga ta'sir o'tkazgan.

AYYUB (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. A. ismi Qur'onda to'rt o'rinda zikr etilgan: Niso surasi 163-oyat, An'om surasi 84-oyat, Anbiyo surasi 83-oyat. Sod surasi 41-oyat. A. Muso (as)dan ilgari yashab o'tganligi rivoyat qilingan, ba'zi rivoyatlarda esa, Ibrohim payg'ambaridan yuz yil ilgari yashagan deyiladi. A. o'ta taqvodor, kambag'allarga mehribon, yetim va bevalarga saxovatli, mehmondo'st inson hamda o'zi nihoyatda badavlat va serfarzand bo'lgani rivoyat qilingan. Shunday imkoniyatlar sohibi bo'lgan A. biron marta ham Allohga osiy bo'ladigan ish sodir etmay, ibodatni tark qilmagan, har doim shukrona aytib yurgan. A. katta boylik egasi bo'la turib, Allohga biron bir gunoh ish qilmaganidan shaytoni lain iztirobda edi. Chunki boshqa boylar har qadamda Allohga osiylik qilishardi. Va shaytoni lain hasad qilib Allohga xitob qiladi va: "Bu A. sening bergan molu davlating, farzandlaring va salomat qilib qo'yganing uchungina senga ibodat qilib yuribdi. Men kafillik berurmanki, agarda sen uning molu dunyosini va sog'ligini ketkazib, imtihon qilsang, albatta u kufrga ketib, seni unutadi" - deydi. Shu boisdan Alloh A. molu-dunyosini, farzandlarini halokatga uchratib, o'zini ham og'ir xastalikka muhtalo qilib sinaydi. Lekin A. boshiga har qancha musibat yetganda ham Allohning zikrini tilidan qo'ymay, ibodatini aslo tark qilmaydi. A. yetgan og'ir xastalik oqibatida u joyidan qo'zg'ala olmaydigan holga yetganida ham uning vafodor ayoli unga qarab, uni parvarish qilib turadi. Nihoyat shuncha og'ir sinovlarni boshidan o'tkazgan A.ga Alloh yana sog'liq in'om qiladi va unga farzandlaru ko'pgina molu dunyo ato etadi. Shu o'rinda ulamolar bir mulohazani qayd etadilar: A.ga yetgan xastalik borasida turli rivoyatlar kelgan, jumladan A.ning tanasini yara bosib, qurtlar yeb, odamlar A.ni dashtga chiqarib yuborgan emish. Tavhid ulamolari qayd etadilarki, payg'ambarlar bunday jirkanch xastalikka muhtalo qilinmaydilar. Zero, bunday holatga tushishlik payg'ambarlik maqomiga to'g'ri kelmaydi. A. qissasida va uning boshiga tushgan musibatlaru xastalikda hamda A.ning Allohga duo qilishi oqibatida uning shifo topib yana molu dunyo sohibi bo'lishida mo'minlarga ibrat va

namuna bor. Zero, payg`ambarimiz ham: "Sinovning eng qattig`i payg`ambarlarga, so`ngra solihlarga, so`ngra shularga o`xshashlarga bo`lur..." mazmunida hadis aytganlar. Shundan ma`lum bo`ladiki, bu dunyoda musibat yetish bilan bo`ladigan sinov badbaxtlik belgasi emas. Zero, bu foniy dunyo qilingan ishga yarasha mukofot olish o`rni emas, balkim imtihon va oxirat uchun zaxira to`plash o`rnidir.

AKROMIYLAR - islomdagi diniy-siyosiy guruh (oqim). 1997-1999 y.larda Farg`ona vodiysida paydo bo`lgan. Guruh asoschisi -Akrom Yo`ldoshev (1960 y.da Andijonda tug`ilgan). Guruh a`zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo`lgan. Ular rasmiy ishxonalardan bo`shab, jamoa ma`qullagan mehnat faoliyati bilan shugullanganlar. Ular mavjud tuzumni tan olmaydilar, davlat, qonun, ota-onaga emas, faqat oqim sardorlariga bo`ysunish lozim deb hisoblaydilar. A.asoschisi vahhobiylik ta`limotiga tayanib, 1992 y.da 12 darsdan iborat "Imonga yo`l" deb nomlangan dastur ishlab chiqqan. Dasturda oxirgi maqsad - islom davlatini barpo etishdan iborat ekani ta`kidlangan. A. siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar: 1. "Sirli" yoki "maxfiy". 2. Moddiy. 3. Ma`naviy. 4. "Uzviy maydon". 5. "To`ntarish". Dasturda diniy taassubga moyilligi bor shaxs tanlab olinishi, uning moddiy hayoti yaxshilanishi, ekstremizm, terrorchilik ruhidagi adabiyotlar bilan tanishtirilishi, boshliqning topshiriqlarini so`zsiz bajarishi va nihoyat mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag`darib tashlab, o`z hokimiyatlarini o`rnatishi bayon etilgan. A. hozirgi kunda musulmonlarga namoz, ro`za, zakot, haj farz emas, chunki biz kufr davlatida yashamoqdamiz, deb hisoblaydilar. To islom davlati qurilmaguncha, mazkur ibodatlarini bajarish shart emas deb qaraydilar. O`zbekiston musulmonlari bu oqimni islomga yot oqim deb baholadi. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchradi va faoliyati barham topdi.

ALAVIYLAR - q. Nusayriylar.

AL-AZHAR, Azhar (al-Jome`, al-Azharning qisqa nomi) - Qohiradagi jome masjid, universitet, o`rta va o`rta maxsus bilim yurtlarini o`z ichiga olgan yirik rasmiy diniy muassasa. Masjid Al-Mu`iz al-Fotimiy buyrug`iga binoan Javhar as-Siqolliy tomonidan 970-972 y.lari Qohira sh. bilan barobar qurilgan. Uning tarkibidaga madrasa (996) 11-a.dan boshlab Qur`on, hadis, fiqh, til hamda balog`at fanlari o`qitiladigan universitetga aylantirilgan. 14-15-a.larda unga yana bir necha yangi qurilgan madrasalar qo`shilgan. 18-a.da A. eng mo`tabar umummusulmon fan va ta`lim maskani sifatida shuhrat qozondi. 1961 y.da "al-Azharni rivojlantirish haqida" qonun qabul qilingach, vazirlik maqomi berilgan. A. diniy muassasasiga rahbar - Shayxul Azharni Misr Prezidenti tayinlaydi. Ushbu qonunga ko`ra, A. universitetida qator dunyoviy fakultetlar, jumladan, idora ishlari va savdo, politexnika, qishloq xo`jaligi, tibbiyot, pedagogika va xotin-qizlar fakultetlari ochildi. A. huzurida 50 yirik ulamodan tashkil topgan (shulardan 30 nafari misrlik va 20 nafari xorijlik) Islom tadqiqotlari Akademiyasi faoliyat ko`rsatadi. A. kutubxonasida 20 mingdan ziyod qo`lyozmalar jamg`armasi mavjud. "Majallat al-Azhar" jurnalini nashr etadi. Universitet fakultetlariga shu muassasa tarkibiga kiruvchi boshlang`ich, o`rta va o`rta maxsus bilim yurtlarini muvaffaqiyatli tugatgan talabalar qabul qilinadi. O`rta ta`lim yurti (maohid i`dodiya)da o`qish muddati - 3 yil, maxsus ta`lim (maohid sanaviya)da esa - 4 yil.

ALAYHISSALOM (arab. - unga salom bo'lsin) - islomda payg'ambarlar nomi tilga olinganda aytiladigan ibora. Bu ibora barcha payg'ambarlar, jumladan, Muhammad (sav) nomi tilga olinganda ham aytiladi. Ammo, mazkur iboraning ikkinchi turi -"Sallallohu alayhi vasallam" ("Alloh taolo ul zotga o'zining salavot va salomini nozil etsin") ham mavjud bo'lib, u faqat Muhammad (sav) payg'ambarga nisbatan aytiladi.

ALAM (arab. - alomat, belgi, bayroq) - 1) aziz-avliyolar mozorida, qadamjolarida o'sgan daraxtlarga osiladigan har xil (ko'pincha oq) lattalar. O'ldirilgan kishilar qabrida tayoqqa osilgan latta ham A. deyiladi. A. joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi (Alamlisoy, Xo'jaalambardor va b.); 2) Eronda har yili o'tkaziladigan bayram. Shialar e'tiqodiga ko'ra, avliyo Imom Rizo besh o'g'li bilan haj qilish uchun Makkaga ketayotganda yo'lda qaroqchilar ularni o'ldiradi. Har yili xalq shu kunni xotirlash maqsadida A. - rasm tushirilgan bayroq ko'tarib ko'chaga chiqadi. Mis yoki birinj (bronza)dan quyilgan besh panjali (besh avliyoni ifodalovchi) A. shu marosim asosida paydo bo'lgan.

AL-ASMO al-HUSNO (arab. - go'zal ismlar) - Allohning ismlari. Mazmunan uning sifatleri, fazilatlarini ifodalaydi. Qur'onda Allohni shu ismlar bilan yodga olish buyuriladi: "Allohning go'zal ismlari bordir. Bas, uni o'sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar)" ("A'rof" surasi, 180-oyat); "Alloh, deb chorlangiz, yoki Rahmon - Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, U zotning go'zal ismlari bordir" ("Al-isro" surasi, 110-oyat). Bu ismlar - 99 ta. Ular musulmon ilohiyotida muhim o'rin tutadi. Alloh ismlari ko'p duolarda qo'shib aytiladi. Odatda tasbih donalari soni Alloh ismlari soni bilan tengdir. Hamma ismlar Qur'onning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bog'langan fe'llaridan hosil bo'lgan. Bu ismlar va ularning mazmuni quyidagicha:

1. Alloh - Tangri, Ma'budi bar haq.
2. ar-Rahmon - o'ta mehribon.
3. ar-Rahim - juda rahmli.
4. al-Malik - podshoh.
5. al-Quddus - nuqsonlardan xoli.
6. as-Salom - ofat va balolardan salomat.
7. al-Mu'min - amonli va omon beruvchi.
8. al-Muhaymin - egallab, qoplab oluvchi.
9. al-Aziz - izzat va qudrat sohibi.
10. al-Jabbor - bandalari ishini isloh etuvchi.
11. al-Mutakabbir - kattalik yarashuvchi zot.
12. al-Xoliq - yaratuvchi, vujudga keltiruvchi.
13. al-Bori' — yaratuvchi.
14. al-Musavvir - maxluqot va mavjudotlarga surat va shakl beruvchi.
15. al-G'affor - bandalarning aybu nuqsonlari va gunohu ma'siyatlarini fosh qilmay yopib turuvchi, kechiruvchi.
16. al-Qahhor - barchani bo'ysundiruvchi, g'olib.
17. al-Vahhob - o'z ne'matlarini tekin ato etuvchi.
18. ar-Razzoq - barcha tirik mavjudot rizqini yetkazib beruvchi.
19. al-Fattoh - kushoyish beruvchi, rahmat xazinalarini ochuvchi.
20. al-Alim - biluvchi, dono, ilm sohibi.

21. al-Qobiz - kimlarningdir rizqini qiyuvchi, ruhlarni qabz etuvchi (oluvchi).
22. al-Bosit - kimlargadir keng rizq beruvchi, ruh baxsh etuvchi.
23. al-Hofiz - kofirlar martabasini tushiruvchi.
24. ar-Rofi' - mo'minlar martabasini ko'taruvchi.
25. al-Muizz - kimlarnidir aziz, qadrli etuvchi.
26. al-Muzill - kimlarnidir xoru zalil qiluvchi.
27. as-Sami' - maxfiy va oshkora gap va sharpalarni, hatto dildan o'tganini ham eshituvchi.
28. al-Basir - hamma maxfiy va oshkora narsalarni ko'ruvchi.
29. al-Hakam - qat'iy hukm etuvchi.
30. al-Adl - o'ta adolatli.
31. al-Latif - bandalariga sezdirmay o'z lufu ehsonini yetkazib beruvchi.
32. al-Xabir - hamma maxfiy va oshkora ishlardan xabardor.
33. al-Halim - jazolashga shoshmaydigan, yumshoqlik bilan yaxshilik qilib turuvchi.
34. al-Azim - ulug', buyuk, katta.
35. al-G'afur - gunohlarni yashirib, jazo bermay turuvchi.
36. ash-Shakur - oz ishga ko'p mukofot beruvchi.
37. al-Aliy - ulug' martabali, buyuk.
38. al-Kabir - katta, har jihatdan yuqori.
39. al-Hafiz - saqlaguvchi (o'z panohida).
40. al-Muqit - moddiy va ma'naviy oziq beruvchi.
41. al-Hasib - har bir ishga o'zi kifoya qiluvchi.
42. al-Jalil - barcha sifatleri mukammal, ulug' zot.
43. al-Karim - karamli, sahovatli, kechirimli.
44. ar-Raqib - hamma narsani kuzatib, nazorat ostiga olib turuvchi.
45. al-Mujib - duolarni qabul etuvchi.
46. al-Vosi' - mulki, rahmati va qudrati keng zot.
47. al-Hakim - hikmat sohibi. Daqiq va nozik ilmlarni biluvchi.
48. al-Vadud - do'st, xayrixoh, mahbub.
49. al-Majid - ne'mati va ehsoni bepoyon.
50. al-Bois - payg'ambarlar yuboruvchi, o'lgandan keyin qayta tiriltiruvchi.
51. ash-Shahid - hamma narsani bilib, ko'rib turuvchi, guvoh.
52. al-Haq - haqiqatan mavjud zot.
53. al-Vakil - hamma ishlarni o'z zimmasiga, kafolatiga oluvchi.
54. al-Qaviy - haqiqiy quvvat va qudrat egasi.
55. al-Matin - quvvatli, matonatli.
56. al-Valiy - do'stlariga do'st, madadkor.
57. al-Hamid - hamdu sanoga, maqtovga loyiq zot.
58. al-Muhsiy - barcha maxluqot va mavjudotlarning hisob-kitobini yaxshi biluvchi.
59. al-Mubdi' - yo'qdan bor qiluvchi, yaratuvchi.
60. al-Muid - hayotdan o'limga, o'limdan yana hayotga qaytaruvchi.
61. al-Muhyiy - tiriltiruvchi.
62. al-Mumit - o'ldiruvchi.
63. al-Hay - tirik.
64. al-Qayyum - o'z-o'zidan turuvchi, boshqalarni turg'izuvchi.
65. al-Vojid - xohlagan narsasini topuvchi.
66. al-Mojid - karamli va sharafli zot.
67. al-Vohid - yagona, bir (xudo-bir).
68. as-Samad - hojatbaror.

69. al-Qodir - qudratli.
70. al-Muqtadir - qudratli, qodir.
71. al-Muqaddim - o'ziga yaqin qiluvchi.
72. al-Muaxxir - o'zidan uzoq etuvchi.
73. al-Avval - hamma narsadan avval, boshlanishi chegarasiz.
74. al-Oxir - hamma narsadan boqiy, oxiri cheksiz.
75. az-Zohir - borligi hamma tomonlama bayon bo'lmish zot.
76. al-Botin - o'zi mavjud, lekin sezgi vositalarimizdan maxfiy zot.
77. al-Voliy - barcha ishlarni tasarruf etuvchi hokim.
78. al-Mutaol - ulug', oliy martabali.
79. al-Barr - yaxshilik va ehson sohibi.
80. at-Tavvob - tavbalarni qabul etuvchi.
81. al-Muntaqim - gunohkor bandalaridan o'ch oluvchi, jazolovchi.
82. al-Afuv - gunohlarni afv etuvchi.
83. ar-Rauf - o'ta mehribon, rahmati keng.
84. Molikul-mulk - mulk, saltanat, hukm sohibi.
85. Zul-jaloli val-ikrom - sharaf va karam egasi.
86. al-Muqsit - adolatli, odil.
87. al-Jomi' - to'plovchi, qiyomat kuni xaloyiqni mahshargohga jam etuvchi.
88. al-Raniy - boy, ehtiyojsiz.
89. al-Mugniy - boy etuvchi, kifoya qiluvchi.
90. al-Moni' - do'stlarini himoya etuvchi, noloyiqlarga o'z ne'matlarini man etuvchi.
91. az-Zorr - xohlagan bandalariga ofat, zarar va musibat yetkazuvchi.
92. an-Nofi' - xohlagan bandalariga manfaat va foyda yetkazuvchi.
93. an-Nur - o'z-o'zidan borligi ayon va borliqni ham ayon etuvchi.
94. al-Hodiy - yo'l ko'rsatuvchi, hidoyatga soluvchi.
95. al-Badi' - yaratuvchi (ixtiro ila)
96. al-Boqiy - doimiy, abadiy mavjud.
97. al-Voris - borliqni meros qilib oluvchi.
98. ar-Rashid - barcha ish va tadbirlari to'g'ri chiquvchi.
99. as-Sabur - gunohkor-isyonkorlarga jazo berishga shoshilmaydigan zot.

ALVASTI - Sharq mifologiyasi va diniy-xurofiy tasavvurlarga ko'ra yovuz ruh. A. ko'pincha sochlari yoyilgan, ko'kraklari uzun osilgan va badbashara ayol qiyofasida tasavvur etilgan. Manbalarda A. dastlab yaxshilik qiluvchi, hosildorlik, uy-ro'zg'or, yovvoyi hayvonlar va ovchilik homiysi, sahiy ma'buda sifatida tasvirlangan. Rivojlangan mifologik tasavvurlarning keng yoyilishi bilan esa, yovuz ruhlardan biriga aylantirilgan. Ba'zan A. jin, ajina so'zlarining sinonimi sifatida ham ishlatiladi.

ALI ibn Abu Tolib (kv) (taxm. 600-661.21.1, Ko'fa) - "xulafoi roshidin" yoxud "choryorlar" deb ataluvchi dastlabki to'rt xalifaning to'rtinchisi, Muhammad (sav)ning amakivachchalari va kuyovlari (Fotimaning eri). Otasi - Abu Tolib ibn Abdulmuttalib, onasi - Fotima binti Asad ibn Hoshim. 9 yoshidan Muhammad (sav)ning tarbiyasida bo'lgan. Laqabi - Haydar. Islomda vujudga kelgan shialik harakati bevosita A. (kv) ismi bilan bog'likdir. 7-a. o'rtalarida xalifa Usmon (ra) siyosatidan norozilik ommaviy tus oldi. Muhammad (sav)ning barcha yurishlarida ishtirok etgan, qo'rqmas va sodiq jangchi, o'ta taqvodor inson, mohir notiq A. (kv) xalifalikka munosib nomzod sifatida ko'pchilikka

ma'qul edi. 656 y. iyunida Usmon (ra) o'ldirildi va A. (kv) xalifa deb e'lon qilindi. Ammo sahobalardan Talha va az-Zubayr hamda A. (kv)ga nisbatan adovatda bo'lgan payg'ambar (sav)ning bevasi Oisha (ra) tarafdorlari unga qarshi bosh ko'tardilar. Qatl etilgan Usmon (ra)ning qarindoshi Suriya hokimi Muoviya ham A. (kv)ga qarshi urush e'lon qildi. 657 y. Furot daryosi o'ng qirg'og'idagi Siffin degan joyda yuz bergan jangda A. (kv) qo'li baland kelgan bo'lsa-da, u raqiblari bilan kelishishga ko'ndi. Bundan norozi bo'lgan A. (kv) askarlaridan 12 ming kishi jang maydonini tark etdilar va xorijiyar deb atalgan diniy-siyosiy oqimni tashkil qildilar. Xorijiyar raqiblariga nisbatan yakka terror usulini qo'llay boshladilar. 661 y. 19 yanv.da A. (kv) Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy degan shaxs tomonidan Kufa masjididan chiqish paytida jarohatlanadi va ikki kundan so'ng vafot etdi. Jasadi ana shu masjid yaqiniga dafn etilgan, keyinchalik Najaf qasabasiga ko'chirilgan. Rasulullohdan 586 ta hadis rivoyat etgan. Islomda A. (kv) shaxsiga munosabat turlichadir. Xorijiyar unga o'ta salbiy munosabat bildirgan bo'lsalar, shialar aksincha uni ilohiylashtirib yuborganlar. Ahli sunna A. (kv) shaxsiga mo'tadil va to'g'ri baho beradi. A. (kv) tarafdorlari keyinchalik islomdagi shialik (arab. - "shia" - guruh, bu o'rinda "Ali tarafdorlari" mazmunida) oqimini tashkil etganlar. A. (kv) shialarning 1-imomi va shia imomlari shajarasini boshlab beruvchi hisoblanadi. Shia yo'nalishining ba'zi ashaddiy firqalari A. (kv) shaxsini ilohiylashtirib, uni Muhammad payg'ambardan ham yuqori qo'yadilar. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda bir necha qadamjo va mozorlar A. (kv) nomi bilan bog'lanib, muqaddaslashtirilgan. Haqiqatda esa A. (kv) O'rta Osiyo va Eronda hech qachon bo'lmagan.

ALI AVLODLARI - Ali ibn Abu Tolib avlodlari. Manbalarga ko'ra, Ali (kv)ning turli xotinlaridan (8 yoxud 9) ko'plab farzandlari - 14 (yoki 18) o'g'il va 19 (yoxud 17) qizi bo'lgan. Ularning ichida tarixda eng mashhurlari Muhammad (sav) qizlari Fotimadan tug'ilgan Hasan va Husayn hamda banu hanifa qabilasidan bo'lgan xotinidan tug'ilgan Muhammad ibn al-Hanafiya hisoblanadi. Aynan mana shu uch farzanddan tarqalgan tarmoq oliy hokimiyatga da'vogar bo'lishgan. Shialikdagi imomiyar oqimi tan oladigan 12 imomdan 9 tasi Husayn tarmog'iga mansubdir. Islomning deyarli butun tarixi mobaynida A.a. yoxud ularning tarafdorlari oliy hokimiyatga erishish yo'lida qurolli va g'oyaviy kurash olib borganlar. Ular imomatga faqat A.a. hukmron bo'lish huquqiga ega deb hisoblaydilar. Kurash jarayonida xalifalikning turli chekkalarda A.a. bosh bo'lgan imomatlar barpo etilgan. Ularning ichida eng mashhurlari Marokashdagi Idrisiylar (789-926), Shimoliy Afrika, Misr va Suriyadagi Fotimiylar (909-1171), Yamandagi Rassiylar (9-a. boshidan 1281 y.gacha), Tabariston (863-64 - 928) va Yaman (1592-1962)dagi Zaydiylar sulolasi hisoblanadi. Hoz. vaqtda ko'plab A.a. barcha musulmon mamlakatlarida yashaydilar. Ular imtiyozli huquqlarga ega bo'lib, yashil salla o'raydilar va sayyidlar yoxud shariflar deb ataladilar. Tor ma'noda A.a. alaviyya deganda "ashaddiy" shialar jamoasi - nusayriylar tushuniladi. Xalq fikriga ko'ra, Fotimadan tarqalgan A.a. O'zbekistonda "sayidlar" yoxud "to'ralar" deb ataladi. Ali (kv)ning boshqa xotinlaridan tarqalgan avlodlari "xo'jalar"ga kiradi.

ALI ar-RIZO, Ali ibn Muso (765/770-818) - shialarning sakkizinchi imomi. Madinada yashagan. 816 y.da xalifa al-Ma'mun mo'tadil shialar bilan ittifoqlashish va ular yordamida o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida A. ar-R.ni taxt vorisi deb e'lon qilgan. Lekin bu ittifoq uzoqqa cho'zilmagan. Sunniylar bunga qarshi harakat boshlagan. Xalifa shialar bilan munosabatini uzgandan keyin A. ar-R. Xurosonda Tus sh. yaqinidagi

Nukan qishlog'ida zaharlab o'ldirilgan va Sanobad qishlog'iga dafn qilingan, keyinchalik uning qabriga maqbara barpo etilgan va shialar uchun ziyoratgoh, asosiy muqaddas joylardan biriga aylangan. Qabr joylashgan qishloqqa A. ar- R. sharafiga Mashhadi Ali Rizo nomi qo'yilib (A. ar-R. shahid bo'lgan joy), u yirik shahar (hoz. Mashhad)ga aylangan.

AL-ILOHIYLAR - q. Ahli haq.

ALIXONTO'RA Shokirxo'ja o'g'li (taxallusi Sog'uniy; 1885.21.3, To'qmoq- 1976, Toshkent) din va davlat arbobi, ulamo, tarjimon. Taxallusi tug'ilgan shahrining qisqa nomi - Bolasog'un bilan bog'liq. Arabiston (Madina)da va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Chor ma'muriyatining yerli aholini mardikorlikka olish siyosatiga qarshi chiqqanligi uchun podsho maxfiy politsiyasi ta'qibida bo'lgan. 1916 y. siyosiy muhojir bo'lib Qashqar (Xitoy)ga ketgan. Omma orasida hurriyat uchun kurash g'oyalari targ'ib qilganligi sababli 1937 y. Xitoy ma'murlari tomonidan hibsga olinib, umrbod qamoq jazosiga hukm etilgan. 1941 y. ozod qilingan. 1944 y. Sharqiy Turkiston jumhuriyati e'lon qilinish, A. Muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylangan. Milliy qo'shin tashabbuskori bo'lgan va unga qo'mondon etib tayinlangan. 1946 y.dan umrining oxirigacha ilmiy, ijtimoiy faoliyatini davom ettirgan. Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Darvish Ali Changiyning "Musiqqa risolasi", shuningdek, "Temur tuzuklari" kabi asarlarni tarjima qilgan. A.ning "Devoni Sog'uniy" she'riy to'plami, "Tarixi Muhammadiy", "Shifo ul-ilal" ("Xastaliklar davosi") va b. asarlari bor. "Tarixi Muhammadiy" (yoki "Muhammad tarixi" asarini A. 1959 y. yozib tugallagan, lekin u muallif vafotidan keyin chop etilgan (1991 va 1997). Asar 2 kitobdan iborat, unda Muhammad (sav)ning islom dini vujudga kelishi va rivojlanishidagi xizmatlari mufassal yoritilgan, din yo'lida qilingan g'azotlar, islom diplomatiyasi, g'oyalari, amaliyoti va yutuqlari tahlil etilgan, Muhammad (sav)ning shaxsiy va oilaviy hayoti, payg'ambarligini tasdiqlovchi mo'jizalar bayon qilingan. A. tarixiy me'morlik obidalari va qad. qo'lyozmalarni saqlab qolishda jonkuyarlik qilgan. Toshkentdagi Shayx Zayniddinbobo qabristoniga dafn etilgan.

ALLOH (arab. "al-iloh" - ilohiy kuch, turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda - Tangri, fors-toj. Xudo, Yazid), Olloh - islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi. Odatda A.ga Taolo (ulug', oliy), Taboraka va taolo, Jalla jalalahu, karim, buzurg, Parvardigori olam kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Islom diniga binoan A. - yakkayu-yagona xudo, olamning yaratuvchisi va qiyomat kunining egasi. U Muhammad payg'ambar (sav)ni insoniyatga o'zining so'nggi elchisi sifatida yuborgan. Islomning eng asosiy talabi hisoblangan kalimai shahodat "La iloha illallohu Muhammadur rasululloh" ("A.dan boshqa iloh yo'q, Muhammad - A.ning payg'ambari"), deb uqtiradi. Islomga ko'ra, Qur'on Muhammad (sav)ga farishta Jabroil (as) orqali yuborilgan A.ning so'zidir. Qur'oni karimda A.ning yagonaligi va buyukligi juda ko'p bor ta'kidlanadi. 112-Ixlos surasida: "...U - Alloh Birdir (ya'ni Uning hech qanday sherigi yo'qdir. U yakka-yu yolg'izdir). A. (barcha hojatlar bilan) ko'zlanguvchidir (ya'ni barcha hojatlar Undan so'raladi, ammo U hech kimga muhtoj emasdir). U tug'magan va tug'ilmagandir (ya'ni A.ning o'g'il-qizi ham, otasi-onasi ham yo'qdir. U azaliy va abadiy zotdir). Va hech kim U zotga teng emasdir", deyilgan. Shuningdek, Qur'onda doimo A.ning mukammalligi, qodirligi va ulug'ligi haqida gapiriladi. A. "aliym", ya'ni biluvchidir, u bo'lib o'tgan

ishlarni, endi bo'ladigan ishlarni, xoh katta, xoh kichik, barchasini biladi; A. "murid", ya'ni xohlaguvchidir - dunyodagi ishlarning har biri A. taoloning irodasi va xohishi ila bo'ladi, u xohlagan ish bo'lmay qolmas va xohlamagan ish aslo bo'lmas; A. "qadir", ya'ni har ishga qudrati yetuvchidir; A. "basir", ya'ni ko'ruvchi yer va osmondagi, qorong'u va yorug'dagi, katta va kichik narsalarning barchasini ko'radi; A. "sami'", ya'ni eshituvchi - baland bo'lsin, sekin bo'lsin har qanday ovozlarni eshitadi; A. "mutakallim", ya'ni so'zlaguvchi - Qur'oni karimdagi barcha oyatlar, shuningdek, Tavrot, Injil, Zabur kitoblari A. taoloning so'zidir; A. "mukavvin", ya'ni bo'ldirguvchi - dunyodagi barcha narsalar uning bo'ldirmog'i ila bo'lgandir; A. "rabbun", ya'ni tarbiya qiluvchi - barcha jonli va jonsiz narsalarni tarbiya qiladi; A. taolo "odil", ya'ni to'g'rilik qiluvchi - har bir hukmni va har bir ishni to'g'rilik ila qiladi, hech kimga jabr va zulm qilmaydi. U mehribon va kechirimli. Odamlar butunlay unga itoat etishlari (islomga kirishlari), xudodan qo'rqib vijdonli bo'lishlari, barcha narsada A.ga va uning irodasiga ishonishlari lozim. A. o'zi xohlagan paytda yerdagi barcha narsani barbod etadi, o'liklarni tiriltiradi va ularni o'z huzuriga hukm qilish uchun yig'adi: u yerda har kishining qilgan amaliga ko'ra yo jahannam (do'zax) azobiga duchor qiladi yoki jannat bilan mukofotlaydi. A. haqidagi ta'limot musulmon dini va ilohiyot fanining asosi bo'lib qoldi. A. tabiatining turli qirralari hadis, tafsir va ilohiyotga oid maxsus asarlarda tilga olinib, tushuntiriladi. Shunga ko'ra, U inson sifatlaridan tubdan farq qiladi. Islom ta'limotiga ko'ra, A. taoloning zoti va sifatleri to'g'risida chuqur bahs yuritish shar'an man etiladi. A. biror narsaga o'xshatilmaydi va biror narsa ham A.ga o'xshatilmaydi. A.ning ism va sifatleri Qur'oni karimda tilga olingan 99 ismlarida yaqqol ko'rinadi (q. Al-asmo al-husno).

ALLOHU AKBAR - q. Takbir.

ALYASA' (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. A. Banu Isroil payg'ambarlaridan biri bo'lib, Qur'onda A. haqida alohida oyatlar nozil bo'lmagan, balkim imon keltirish lozim bo'lgan bir guruh payg'ambarlar jumlasida zikr qilingan (Sod surasi, 48-oyat, An'om surasi, 86-oyat). Rivoyatlarga ko'ra A. Ilyos payg'ambarning amakivachchasi bo'lib, Ilyos (as) vafotidan so'ng Alloh A.ni payg'ambar etishni ixtiyor qiladi va A. Ilyos (as) ning da'vatini davom ettirib odamlarni Allohga imon keltirishga va Ilyos (as) shariatini tatbiq etishga chaqirgan. A. zamonasida turli hodisalar sodir bo'lgani rivoyat qilingan.

AMAL (arab - ish, faoliyat, harakat) - din aqidalariga ishonishdan tashqari dindor o'z faoliyati va harakati bilan bajaradigan barcha ishlarni ifoda etuvchi tushuncha. A. umumiy mazmunda diniy marosim, urf-odatlar bilan bog'liq vazifalarni o'z ichiga oladi. Qur'onda "A." so'zi juda ko'p suralarda keladi, bunda musulmonlar tomonidan bajariladigan yaxshi, savob va gunoh ishlar ham, shayton tomonidan odamlarga qilinadigan vasvasa va zararli ishlar ham tushuniladi.

AMIN (arab. - ishonchli, halol) - Muhammad (sav)ga payg'ambarlik vahiyi kelmasidan burungi davrda u zotning nihoyatda halol, rostgo'y bo'lganliklari tufayli xalq tomonidan berilgan laqab (Muhammad amin, ya'ni Muhammad halol, ishonchli).

AMIR al-MO'MININ (arab. - mo'minlar amiri) - arab xalifaligi davridagi xalifalarning unvoni. Islom ta'limotida Muhammad (sav) oxirgi payg'ambar, xalifalar esa, payg'ambarning o'rinbosarlari hisoblanadi. Diniy, dunyoviy va harbiy hokimiyat ularning qo'llarida jamlangan. Bu vazifalarni bajaruvchilar "xalifa", "imom", "amir" istilohlari o'rniga, har uchala mazmunni ifodalovchi yagona A.al-m. istilohi bilan atalgan. Mazkur unvon ilk daf'a ikkinchi xalifa Umar (ra)ga berilgan, keyingi barcha xalifalar (Usmon (ra), Ali (kv) va b.) ham shu unvon bilan atalgan.

AMIR ul HAJ, Amiral-Haj - haj boshlig'i, hojilar karvoni rahbari. Haj ziyoratiga keluvchilarga rahbarlik qilish odatini Muhammad (sav) belgilab berganlar. Payg'ambar (sav) 631 y. Abu Bakr Siddiqqa Madinadan Makkaga boruvchi karvonga haj amiri sifatida boshchilik qilishni, unga g'ayridinlar qo'shib qolmasligi ustidan nazorat qilishni topshirganlar. 632 y. Muhammad (sav) ning o'zlari "vidolashuv haji" ("haj ul vido")ga boshchilik qilib, haj marosimlariga doir bir qancha muhim ko'rsatmalarni berganlar. Hajga rahbarlik qilish yoxud A. ul H.ni tayinlash huquqi xalifalarda bo'lgan. 13-a.da A. ul H.ni tayinlash huquqi mamluk sultonlariga o'tgan, ayni shu vaqtdan e'tiboran Makkaga yo'l olgan hojilarning asosiy to'planadigan yerlari (mas., Damashq)da tashkil etilgan karvonboshilar ham A. ul H. deb atala boshlagan. Makkaga boruvchi hojilarning asosiy karvonini tayyorlash va jo'natishga Usmoniylar davrida ham katta e'tibor berilgan. A. ul H. tomonidan qurolli guruh ajratilib, unga Hijozda Turkiyaning mavqeini kuchaytirish bo'yicha muhim vazifalar yuklatilgan. 20-a.ning 20-y.larida Saudiya Arabistoni qiroli Ibn Sa'ud davlat hududida A. ul H.ning har qanday siyosiy faoliyat yurgizishini taqiqlab qo'ygan. A. ul H. vazifalari karvondagi tartibni saqlash va diplomatik topshiriqlarni bajo keltirish bilan cheklanib qolgan. 1954 y. hajga boruvchilarning asosiy qismi to'planadigan Misrda A. ul H. unvoni bekor qilinib, o'rniga "hojilar guruhi rahbari" (ra'is ba'sat al-haj) tayin etilgan.

AMMOR ibn YOSIR, to'liq ismi Abul Yaqzon Ammor ibn Yosir ibn Omir al-Kinoniy (565-657) - sahoba, islomga birinchi bo'lib kirganlardan biri. O'tkir fikrli va jasoratli kishi bo'lgan. Madinaga hijrat qilgan. Badr, Uxud, Xandaq janglarida qatnashgan. U islomda birinchi bo'lib masjid kurgan kishidir, u o'z masjidini Qabo deb atagan. Ali (kv) xalifaligi davrida Kufa amiri bo'lgan. Ali (kv) bilan birga Jamol va Siffin janglarida qatnashgan va Siffin jangida shahid bo'lgan.

AMR ibn al-OSS, to'liq ismi Amr ibn al-Oss ibn Voil al-Sahmiy al-Qurayshiy; kunyasi Abu Abdullo (571-664) - Misrni fath etgan islom sarkardasi, arablarning qabila boshliqlaridan. Johiliyat davrida islomga qarshi bo'lgan. Xudaybiya sulhida islomga kirgan. Rasululloh (sav) uni g'azotga yuborib, yoniga Abu Bakr Siddiq (ra) va Umar (ra)ni qo'shganlar. Keyin A.a.-O.ni Ummonga voliy qilib yuborganlar. Umar (ra)ning xalifalik davrida Shom fath qilingach, A.a.-O. Falastin, so'ng Misrga katta lashkarga qo'mondon bo'lib borgan. 39 ta hadis rivoyat qilgan.

AMR ibn UBAYD (699-761) - mu'taziliylar oqimi asoschilaridan biri. Balxda tug'ilgan. Otasi bilan Basraga ko'chib borib, Hasan al-Basriydan ta'lim olgan. Ba'zi o'rta asr

ilohiyotchilari islomdan mu'taziliylar oqimining ajralib chiqishiga Vosil ibn Ato emas, balki A.i.U. sababchi deb hisoblaydilar. Aslida esa, mutaziliylarning aqlga tayanuvchi alohida oqim bo'lishi Vosil ibn Atoning xizmatidir. Ammo A.i.U. ham iste'dodli shaxs sifatida mu'taziliylar ta'limotini shakllantirishga sezilarli hissa qo'shgan.

AMRI MA'RUF (arab. to'liq shakli "amri ma'ruf, nahiy munkar" - "yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish") - islom dinidagi marosim. Musulmonlar bir-birlarini haq yo'lga, yaxshilik va go'zal axloqqa chaqirishi Alloh tarafidan farz qilingan. Chunki, do'stona, beg'araz nasihat, xususan, amalda o'zi o'rnak bo'lgan holda, boshqalarni tarbiyalash juda katta ta'sirga ega. Kishi o'z oilasini, farzandlarini diniy e'tiqod, halollik va pok axloqda tarbiyalash ham A.m. sifatida farzi ayn hisoblanadi. Alloh musulmonlar bir-birlarini to'g'ri yo'lga da'vat etib, insoniylikka nomunosib, nojo'ya ishlardan qaytarishlarini (nahiy munkar) zaruriy farzlardan qilgan. Hadislarning birida "Agar sizlar bir-biringizni yaxshilikka buyurib, yomonliklardan qaytarib turishlik vazifasini tark etadigan bo'lsangiz, Alloh taolo sizlarga shunday balo va ofatlarni yuboradiki, bu hamma uchun fojia bo'ladi", deb rivoyat qilinadi. Alloh taolo ham o'z kitobida: "Sizlardan yaxshilikka da'vat etadigan, amri ma'ruf va nahiy munkar qiladigan bir toifa kishilar bo'lsin. Aynan ular najot topuvchilardir" (3.104) deydi.

ANAS ibn MOLIK, to'liq ismi Anas ibn Molik ibn an-Nazr an-Najjoriy al-Xazrajiy al-Ansoriy, kunyasi Abu Sumoma (610, Madina - 712, Basra) - ansorlardan va ashobi kiromning faqihlaridan biri. Hijratning ibtidosidan e'tiboran o'n yil Rasuli Akram(sav)ning xizmatida bo'lishi bilan shuhrat topgan. 2630 hadis rivoyat etgan. Abu Bakr, Umar, Usmon, Ubayy bin Ka'b va b. ko'pgina ashoblardan rivoyat etgan, uning o'zidan ham Hasan Basriy, Zuhriy, Qatoda, Yahyo ibn Said kabi zotlar hadis naql etganlar. Basrada eng keyin vafot etgan sahobadir.

ANBAR - erkaklar tobutining 4 burchagiga tik qoqilgan tayoqlarga o'rnatilgan gazlama, surp; shuningdek, ayollar tobutining tepasiga ishkomb tarzida egib o'rnatilgan tol yog'ochlari ustiga yopilgan malla bo'z.

ANBAR BIBI MAQBARASI - Zangi ota majmuasi tarkibidagi maqbara. Toshkent yaqinidagi Zangi ota qishlog'ida barpo etilgan (15-a. boshlarida). Zangi ota maqbarasi qatori bu yodgorlik ham Amir Temur zamonasi me'morlik an'anasining yorqin namunasidir. Rivoyatlarga qaraganda, maqbara Zangi otaning xotini Anbar bibining qabri ustiga qurilgan. Maqbara ichidagi ikkinchi qabr Anbar bibining avvalgi qaynonasi Ulug'pohshoniki. A.b.m. keyingi asrlardagi ta'mirlanish oqibatida hozir o'zining asli holatini deyarli yo'qotgan. Anbar bibi xalq orasida afsonaviy shaxsga aylangan. U kishining ruhiga bag'ishlab o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarning ko'pchiligi suv toshqini, bola tug'ilishi va hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan.

ANBAR ONA, Ambar ona- xalq og'zaki ijodi va islom an'analarida ayollar mashg'ulotining homiysi, piri. Rivoyatlarga ko'ra, u dastavval shayx Hakim otaning zavjasi bo'lgan, u vafot etgach, Zangi otaga turmushga chiqqan. A.o. haqida hosildorlik

ma'budalari, jumladan Avestodagi Anaxita ma'budasiga o'xshatib bayon etilgan afsonalar ham bor. Shuningdek, A.o.ni ko'p yillar sarson-sargardonlikda yo'qolgan o'g'lini qidirganligi, lekin uni topa olmaganligi haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. A.o.ga bag'ishlab o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarning ko'pchiligi suv toshqini, bola tug'ilishi va hosildorlik bilan bog'liq bo'lgan. Sumalak uchun tayyorlangan bug'doyning tez yoki sekin unib chiqishi ham A.o. nomi bilan bog'langan. A.o.ga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarda otin bibilar, doylar, sehrarlar, parixonlar ishtirok etib, ular A.o. haqida to'qilgan rivoyatlar yordamida turli irim-sirimlarga ishongan sodda kishilarni aldab, boyluk orttirganlar.

ANBIYO (arab. nabiyy, payg'ambar so'zining ko'pligi) - q. Payg'ambar.

ANJIRFAG'NAVIY Mahmud [12-a. oxiri, Vobkent tumanidagi Anjir Fag'nav (hoz. Anjirbog') qishlog'i - 1286] - xojagon-naqshbandiya silsilasining yirik namoyandasi, buxorolik yetti purning uchinchisi. Xoja Orif Mohitobon - Revgariydan tahsil olib, uning vafotidan so'ng xojagonlik silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da 12-halqaning piri hisoblanadi. Xufiyona (yashirin) zikr bilan jahriya (baland tovushli) zikrga barobar amal qilgan. Xoja Ali Romitaniy (Xojai Azizon)ga ustozlik qilgan. Tug'ilgan qishlog'ida dafn etilgan. Qabri ustidagi maqbara mustaqillik davrida ga'mirlangan.

ANSORIY Boyazid ibn Abdulloh (1525-1572) - Afg'onistondagi ravshaniylar diniy oqimi asoschisi, soxta payg'ambar. O'zbeklar orasida Bobo Ravshan nomi bilan ma'lum bo'lgan. Yoshligida savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanib ko'p shaharlarga borgan. Tasavvuf hamda ismoiliylar ta'sirida bo'lgan. Fiqh ilmi asoslarini o'rgangan. Ulamolar bilan diniy bahslarda ishtirok etgan. 1542 y. "menga ilohiy vahiy tushdi" deb, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan va "yangi g'oyalari"ni targ'ib qilishga kirishgan. Tenglik va adolatli jamiyat kurish fikrini ilgari surgan. Afg'on mulkdorlariga va mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan harakatga rahbarlik qilgan. A.ning tarafdorlari unga Piri Ravshan laqabini berishgan. A. pushtu, fors va arab tillarida bir necha asarlar ("Madad qiluvchi purning ahvoli", "Mo'minlarning maqsadlari") yozgan. A. pushtu tili uchun o'z alifbosini taklif etgan.

ANSORIY al-HARAVIY, Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad (1006-1089) - mashhur so'fiy-hanbaliy. Hirotda tug'ilgan. Otasi so'fiylardan bo'lib, o'g'lini ham tasavvuf yo'lga boshlagan. To'qqiz yoshida Abdulloh hirotlik yetakchi shofi'iyalar rahbarligida hadis va tafsirdan saboq olgan. Ular jumlasiga Mansur al-Azdiy (1018 y.v.e.), Abul Fadl al-Jorudiy (1023 y.v.e.) va Yahyo b. Ammor (1031 y.v.e.)larni kiritish mumkin. Garchi uning ustozlari shofi'iyalar bo'lsa-da, Abdulloh Qur'on va sunnaga o'ta mehr qo'yganidan hanbaliy mazhabining ashaddiy tarafdoriga aylangan. A. al-H. saboq olish maqsadida 1026 y. Nishopurga, so'ngra Tus va Bistomga borgan. 1031 y. u bir fursat Bag'dodda to'xtagan chog'ida mashhur hanbaliy muhaddislarning mashg'ulotlariga qatnagan. Oradan bir oz vaqt o'tgach, u mashhur so'fiy -Abul Hasan al-Haraqoniy (1033/34 y. v.e.) bilan uchrashgan. Boyazid Bistomiyning izdoshi bo'lgan bu zot bilan muloqotda bo'lish uning hayoti va tafakkurida o'chmas iz qoldirgan. So'ngra u Xirotda qaytib ta'lim berish bilan shug'ullangan va mu'taziliy va ash'ariylarga qarshi faol munozaralar olib borgan.

Shayxulislom unvoniga sazovor bo'lgan A. al-H. umrining oxirida ko'z nuridan ajrab Hirotda vafot etgan. Yusuf al-Hamadoniy (1140 y. v.e.) A. al-H.ning eng buyuk izdoshlaridan sanalib, yassaviylik va xojagon tariqatlari mana shu zotga borib taqalgan.

ANSORLAR (arab. - yordamchilar, safdoshlar) - Muhammad (sav) sahobalari bir tabaqasining nomi. 622 y. Makkadan Madinaga ko'chib borgan musulmonlar (muhojirlar)ga va Muhammad (sav)ga yordam bergan hamda islom dinini qabul qilgan madinalik Avs va Hazraj qabilalarining a'zolari. A. muhojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil etgan. A. bilan muhojirlar o'zaro munosabatlarini bitimlar orqali belgilagan. A. Badr jangidan e'tiboran Muhammad (sav)ning Makka mushriklariga qarshi yurishlarida faol ishtirok etishgan. Harbiy o'lja taqsimlanganda muhojirlardan keyingi navbatda turganlar. Keyinga siyosiy voqealarda ham A.ning o'rni katta bo'lgan. Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng ular o'z ichlaridan xalifa saylashga urinib ko'rganlar. Lekin xalifalik ko'pchilik ovozi bilan Abu Bakr Siddiqqa nasib bo'lgan. A. hadis roviylari sifatida ham mashhur.

ANQO - qadimiy sharq xalqlari mifologiyasiga ko'ra, Alloh tomonidan har tomonlama mukammal qilib yaratilgan afsonaviy qushning nomi. Ba'zi rivoyatlarda ko'rsatilishicha, A. tamomila yo'qolib ketgan emas, lekin juda kam uchraydi. Islom an'anasida A. afsonaviy qush - Semurg' bilan aynanlashtiriladi, rivoyat, ertaklarda Humo qushga ham o'xshatiladi. Qad. Sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy. U insonlar ko'ziga ko'rinmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va b.dan deb ta'riflanadi. Xalqimiz orasida A. baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa, o'sha baxtli bo'ladi degan fikr mavjud. Taqchil, kamyob narsalar haqidagi "anqoning urug'i" degan ibora shuvdan olingan.

ARASOT - q. A'rof.

ARAF (arab. - bilmoq, tanimoq, ma'rifat hosil qilmoq) - 1) hijriy-qamariy yil hisobi bo'yicha 12-oy (Zil-hijja) 9-kunining nomi. Islom manbalarida aytilishicha, bu kunning A. deb atalishiga sabab Ibrohim (as)ga Jabroil haj ibodatining arkonlarini shu kuni o'rgatib ketgan. Hojilar shu kuni Arafot tepaligiga chiqib, to Quyosh botgunga qadar duo, ibodat va iltijo bilan mashg'ul bo'ladilar; 2) Hayitdan oldingi kun ham A. deb nomlanadi.

ARAFOT - Makka sh.dan 20 km narida joylashgan, uzunligi 11-12 km va kengligi 6,5 km bo'lgan vodi. Shimol tomondan tog' tepaligi bilan o'ralgan, bu tepalik ham A. deyiladi. Qurbon oyi (Zilhijja oyi)ning 9-kuni, ya'ni arafa kuni hojilar shu tepalikka chiqib, to quyosh botgunga qadar ibodat bilan mashg'ul bo'ladilar. Islom manbalaridagi rivoyatga ko'ra, Ibrohim (as)ga Jabroil shu tepalikni ko'rsatib: "Shu joy - Arafotdir, bilib oling, haj arkonlari shu yerda kamoliga yetadi, shu yerda gunohlaringizni e'tirof etasiz", deganlar. Boshqa bir rivoyatda Odamoto bilan Momohavo jannatdan chiqarib yuborilganidan keyin bir-birlari bilan shu yerda uchrashgan, deyiladi. A. tepaligida bir baland joy borki, u yerni "jabalir rahma" ya'ni "rahmat tog'i" deyiladi. Muhammad (sav)

vafotlaridan 81 kun oldin, hijratning 10-yili Madinadan hajga kelib, arafa kuni shu tepalikka chiqqanlar va oq tuyalarini cho'ktirib, uning ustida turib mashhur "Vidolashuv va'z"larini aytganlar. Shu sababli bu joy uzoqdan ko'rinib turishligi uchun ustun shaklida ko'tarilib, oqqa bo'yab qo'yilgan.

ARVOH (arab. - ruhlar) - q. Ruh.

ARKON ad-DIN - q. Rukn.

ARSLONBOB (taxm. 11-a.) - turkistonlik mashhur so'fiy. A.ning hayoti, so'fiylik faoliyati haqidagi ma'lumotlar nasabnoma (shajara)larda va qo'lyozma manbalarda qisqa berilgan. Ahmad Yassaviyning birinchi ma'naviy ustози bo'lgan. Yosh Ahmad uning rahbarligida sufishtik tariqatining murakkab amaliy va nazariy bilimlarini olgan. Rivoyat qilinishicha, A. Qirg'iziston hududidagi shu nom bilan ataluvchi qishloqqa dafn qilingan. Maqbarasi hozirgacha saqlanib qolgan va ziyoratgoh hisoblanadi.

ARSH, Arshi a'lo (arab. taxt) - buyuk taxt. Aqid ilmi ulamolari fikri, oyat hamda hadislarga ko'ra, A. oyoqlari bor taxt bo'lib, uni farishtalar ko'tarib turadi. U xuddi olam ustidagi kubbaga o'xshash. U maxluqotlarning shiftidir. Alloh taoloning A.ga ehtiyoji yo'q, balki uni O'zi bilgan hikmat uchun yaratgandir. A. faylasuflar aytganidek falak emasdir. Ular A.ni to'qqizinchi falak yoki atlas falaki deyishgan. Arablar A.ni hech qachon bu ma'noda ishlatmaydilar. Alloh taolo A.ga barobar bo'lib, uning ustida turgani unga muhtojligidan emas. Alloh bundan oliy va ulug'dir. U o'z qudrati ila o'zidan pastdagi A.ni, uni ko'tarib turuvchilarni va undagi narsalarni ko'tarib turuvchidir. Shuningdek, Alloh A.ni va undagi narsalarni ihota qiluvchidir. A. Allohning qudrati ostida chegaralangan va Unga muhtojdir. Qur'oni Karim oyatlarida A. to'g'risida 23 joyda bayon etilgan.

ASMO bint ABU BAKR (taxm. 592-692, Makka) - sahoba, Abu Bakr Siddiqning qizi. Muhammad (sav) zavjasi Oishaning ota bir, ona boshqa opasi. Asharai mubashsharadan biri - az-Zubayr ibn Avvomning zavjasi. O'g'li -Abdulloh ibn az-Zubayr Hajjoj ibn Yusuf tomonidan o'ldirilgach (692), nihoyatda qayg'urib, ko'zi ojiz bo'lib qolgan va Makkada yuz yoshida vafot etgan. U 56 ta hadis rivoyat etgan.

ASR - besh vaqt o'qiladigan namozning biri. 4 rakaat farz bo'lib, kun botishidan 2 soat ilgaridan to kun botgunga qadar muddatda bajariladi.

ASSALOMU ALAYKUM (arab. sizga tinchlik, salomatlik tilayman) -musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatiladigan salomlashuv iborasi. Salom qabul qiluvchi "Va alaykum assalom" ("Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman"), deb javob qaytaradi. A.a. tanigan va tanimagan musulmonlarga beriladi. Kichik yoshdagilar yoshi ulug'larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. A.a. ko'pchilik huzuriga kirib o'tirishda ham aytiladi. A.a. deyish sunnat, javob qaytarish

esa vojib hisoblanadi. A.a. namoz o`qiyotgan kishining namozi tugaganining alomati hamdir.

ASHOB - q. Sahoba.

ASHOB al-KAHF, Ashobi kahf (arab. "g`or egalari", "g`or odamlari") - o`z zamonlari podshohi Daqyonus (imperator Detsiy) zulmidan qochib, Robbilariga bo`lgan imonlarini saqlash maqsadida g`orga kirib yashiringan va Alloh taoloning irodasi, ilohiy mo`jiza bilan ko`p yillar uxlatib qo`yilgan yosh yigitlar va ularning iti. Allohning inoyati bilan ular 309 y.dan so`ng uyg`onishadi. Oyatda bu mo`jizani Alloh taolo keyingi ummatlar qiyomatga va o`lgandan keyin tirilish haq ekaniga ishonch hosil qilsinlar deb sodir etgan, deyiladi. Uzoq uyqudan uyg`ongan yigitlar uchun go`yo kunning bir qismi o`tgandek tuyulgan. Ular oralaridan bir kishini vakil qilib uni taom keltirish uchun shaharga pul bilan jo`natganlar va biron-bir kishi uni tanib qolishidan ehtiyot bo`lishini tayinlashgan. Vakil bozorga borib pulni berganda, odamlar u qad. zamon puli ekanligini bilib qolganlar. Vakil bilan muomalada ham uning o`z zamonlari odami emasligini sezib qolishgan. Xullas, Allohning irodasi bilan yigitlarning siri fosh qilinib, ular o`sha davr odamlariga tanitilgan. Vaqt o`tishi bilan shahar aholisi ham imonga kelgan edi. Ular kahf egalari haqidagi qissani yaxshi bilishardi. Shuning uchun bozorga kelgan vakilni darhol tanib olishadi. Shahar aholisi g`or ustiga masjid bunyod etishgan, so`ngra ular kahf ahli necha kishi ekanligi (3,5,7 kishi) va ular qancha muddat g`orda bo`lganliklari haqida tortishganlar. Ularning adadi va qancha muddat g`orda bo`lganliklari yolg`iz Allohga ayondir. Qur`oni karimning "Kahf surasi"da A.k. haqida batafsil hikoya qilingan. Islom olamining turli yerlarida - Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Yaman, Mag`rib, Ispaniyada go`yo "A.k. yashiringan g`or" deb hisoblanuvchi g`orni ko`rsatadilar. Ba`zi rivoyatlarga ko`ra, A.k.ning nomlari: Amlixo, Makshalino, Mashlino, Marnush, Dabarnush, Shoznush. Kashfittanus hamda itning nomi - Qitmir bo`lgan.

ASHOB al-HADIS, ahd al-hadis (arab. -rivoyat tarafdorlari) - an`anaviy islom tarafdorlari, ilk islomdagi oqimlardan biri. 8-a.da shakllangan. Ashob ar-ra`yga qarshi o`laroq, dastlab Madina maktabiga mansub faqihlar va muhaddislarni shu nom bilan atashgan. A. al-H. diniy-huquqiy masalalarni hal etishda har xil yangicha uslublarga qarshi chiqishgan. Bu ishda ular mavhum, tajribadan o`tmagan uslublarni qo`llanishga yo`l qo`ymaslik lozim deb hisoblab, amaliy faoliyatda faqat Alloh kitobi (Qur`on) va payg`ambar sunnasiga asoslanishga da`vat etishgan. Keyinchalik tobora rivojlanib borgan jamiyat zayli va talablari ta`sirida ijmo` va qiyosni musulmon huquqining manbalari deb tan olishgan, biroq Qur`onni talqin etishda yangicha uslublarni keng qo`llanishga yo`l berishmagan va uni cheklab qo`yishgan.

ASHOB ar-RA`Y (arab. - fikr tarafdorlari) - ra`y, fikr va aql bilan hukm chiqaruvchi ulamolarga berilgan nom. Islom ilmlaridan tafsir, fiqh kabi sohalarda ijod qiluvchi olimlar ikki turga bo`linadi. Birinchi turi - Qur`onni tafsir qilishda va biror shar`iy hukm chiqarishda faqat Qur`on oyatlari, hadislar, sahoba va tobeinlardan naql qilingan rivoyatlarga suyanadigan olimlardir. Ikkinchi turi - tafsir va fiqh sohasida faqat naqliy dalillarga suyanish bilan qanoatlanmay ijtihod, ya`ni aql, fikr va ra`yni ham ishga solib

shar'iy hukmlar, fatvolar ijod etadigan olimlardir. Shu ikkinchi turiga A. ar-R. deb nom berilgan. Ular mutafakkir olimlar deb ham yuritiladi.

ASHOB ar-ROSS, Ashobur Ross ("ar-Ross odamlari", "quduq odamlari") - Qur'onda ikki marta tilga olingan va Alloh hidoyatga da'vat etgan qad. qavm. Ammo, ularga pand-nasihatlar kor qilmaydi, shu sababli halok etiladilar (25-sura, 38-39-oyat). "Ross" iborasi ichi mahkamlanmagan, nurab turgan quduqni anglatadi. Rivoyatlarda aytilishicha, o'sha jinoyatchi qavm quduq atrofida o'tirganida, u qulab tushib hammalarini halok etadi. Rivoyatlarga ko'ra, ar-Ross odamlari ilgari halokatga uchragan Samud qabilalarining avlodi bo'lib, Yamomadagi quduq yonida yashagan va ulkan qush - anqo hujumidan ozor chekkan. Payg'ambar Hanzala ibn Safvon Allohtsan bu odamlarni qutqarishni so'raydi, shundan so'ng qonxo'r qushlar g'oyib bo'ladi. Ammo qavm baribir Hanzalaning yakka xudoga sig'inish haqidaga da'vatlariga quloq solmaydi, buning ustiga uning o'zini quduqqa tashlab yuboradi. Shu bois Alloh ularni yakson qiladi.

ATTOR Alouddin, Xoja Alouddin Attor, Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (? -1399) - mashhur mutasavvif, shayx. Bahouddin Naqshbandning xalifasi va kuyovi. A. madrasani tugatmasdanoq Naqshband sulukiga kirgan, bir umr piri yonida bo'lgan. Buxoroda vafot etgan. Naqshbandning boshqa bir xalifasi - Xoja Muhammad Porso A. iltimosi bilan "Risoi qudsiya" ("Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari") kitobini bitgan va unda A. tilidan o'z piri haqidagi o'nlab rivoyat va xotiralarini keltirgan. Ularda Naqshbandning tarjimai holi, hayot tarzi, odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar, hikmatli so'zlar bayon etilgan. Ular keyinchalik Naqshband hayoti va tariqati haqidagi ko'pgina risolapar, jumladan, ular ichida eng e'tiborlisi - Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining "Maqomoti Xoja Naqshband" ("Bahouddin Naqshband", T., 1993) asari uchun muhim manba bo'lgan.

ATTOR Farididdin, Muhammad ibn Abubakr ibn Ibrohim (1148/51-1220) - fors-tojik mutafakkiri, mutasavvif shoir. Nishopur yaqinidagi Xadkana (Kadkon) qishlog'ida tug'ilgan. Otasining izidan borib, dorishunoslik va tabiblik qilgan. Hajga borgan, Misr, Iroq, Shom safarida bo'lgan, atoqli so'fiylar bilan uchrashib, din va tasavvuf arboblarning hayoti hamda faoliyatini o'rgangan. Zamonasining tariqat peshvolaridan biri bo'lib, "Farididdin" ("dinda yagona") va shayx unvonlarini olgan. Mo'g'ullarning Eronga birinchi bosqini paytida dushman qo'lida halok bo'lgan. Nishopurda dafn etilgan. "Ilohiynoma", "Musibatnoma", "Mazhar ul-ajoyib", "Asrornoma", "Haydarnoma", "Javhar uz-zot", "Hayloj", "Muxtornoma", "Xusravnoma", "Sharx ul-qalb", "Bulbulnoma", "Me'rojnoma" kabi asarlarida ilohiy ma'rifat g'oyalari targ'ib etgan. Haq va haqiqat sirlarini kashf qilishga uringan. Asosiy asarlaridan biri "Mantiq ut-tayr" ("Qushlar mantig'i") dostoni (1175) so'fiylikning eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. "Tazkirat ul-avliyo" asari islom olamida mashhur. Unda o'nlab aziz-avliyolarning hikmatli so'zlari, ibratli hayoti, karomatlari bayon etilgan. A. she'rlarida darvishlik axloqi to'g'risidagi g'oyalarni mujassamlantirgan. A. asarlarida shialik g'oyalari va qoidalari mutlaqo uchramaydi, sunniylikka mo'tadil munosabatda bo'linadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda "Mantiq ut-tayr" va "Ilohiynoma"dan ayrim parchalar ("Ilohiynoma", Toshkent, 1994) hamda "Tazkirat ul-avliyo" ("Avliyolar kitobi", Toshkent, 1997) asari o'zbek tilida nashr etildi.

AUZA'IY, Abu Amr Abdurrahmon ibn Amr (707-774) - ilohiyotshunos, faqih, auza'iylik mazhabi asoschisi. Baalbak sh.da tug'ilgan, Makkada-Ato ibn Abi Rabaldan, Madinada - Muhammad az-Zuhriydan, Basrada - Vosil as-Salamoniydan saboq olgan. Suriyaga qaytib, Damashqda yashagan, davlat xizmatida bo'lgan, so'ngra Qur'on ilmlaridan dars bergan. 750 y. Suriyani zabt etgan abbosiylar qo'shini qo'mondoni Abdulloh ibn Ali bilan janjallashib qolgan A. uning ta'qib etishidan qochib Basraga, ustozi Vosil as-Salamoniy huzuriga ketishga majbur bo'lgan. Yangi sulola bilan yarashgach, A. Suriyaga qaytib, Bayrutda joylashgan va umrining oxirigacha shu yerni tark etmagan. Uning qabri hozirgacha ziyoratgoh hisoblanadi. A. Suriyaning imomi deb tan olingan, bu yerda uning izdoshlaridan alohida mazhab shakllangan. Uning tarafdorlari fikricha, huquq (fiqh) manbai faqat Qur'on va sunna bo'lib, ulardagi ko'rsatmalar hech qanday talqinsiz, o'zgarishsiz aynan qabul qilinishi lozim bo'lgan. Bu mazhab 9-a.gacha Suriya va Andalusiyada tarqalgandi. Suriyada uni shofi'iylik mazhabi, Andalusiyada esa -molikiylik mazhabi siqib chiqargan. Lekin A.ning qarashlari tizimi izsiz yo'qolmagan, zero uning shogirdlari orasida Sufyon as-Savriy (777-778 y. v.e.) va Molik ibn Anas (795 y.v.e.) - ikki mazhab asoschilari bo'lgan. Molik ibn Anas orqali A.ning qarashlari ash-Shofi'iyga ta'sir o'tkazgan, u esa o'z navbatida Ahmad ibn Hanbal qarashlarining shakllanishiga ta'sir qilgan.

AFG'ONIY, Muhammad ibn Safdor Jamoliddin (1839-1897) - diniy-siyosiy arbob. Kobulda diniy, Hindistonda dunyoviy bilim olgan. Hayotining ko'p qismi muhojirlikda kechgan. Islom dinini isloh qilish va musulmon olamini islom bayrog'i ostida birlashishga qilgan da'vatlari bilan tanilgan. 1871-79 ylarda Misr ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashgan. Istibdodni tanqid qilib, konstitutsiyaviy tuzum o'rnatish uchun kurashgan. Islom dinining ma'naviy-axloqiy aqidalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va adolat g'oyalari targ'ib qilgan. Isyon ko'tarishga undagani uchun hibsga olinib, Misrdan chiqarib yuborilgan. Politsiya nazoratida Kalkutta va Haydarobod (Hindiston)da yashagan. 1883 y.dan Yevropa (London, Parij)da istiqomat qilgan. Abdu Muhammad bilan birga gazeta nashr etgan. Ko'p o'tmay mustamlakachi davlatlarga nisbatan kelishuvchilik mavqeini egallagani uchun u bilan aloqasini uzgan. Eron, Rossiya, Iroqda bo'lgan. Inqilobiy millatparvar doiralar bilan hamkorlik qilgan. 1892 y.da Turkiyaga qaytgan va shu yer (Istanbul)da vafot etgan. 1944 y.da hoki Kobulga olib kelingan. Dafn etilgan joyiga dahma qurilgan.

AXBOR (arab. - xabarning ko'pligi, xabarlar) - shialarning muqaddas rivoyatlari. Muhammad (sav) va Ali (kv)ning so'zlari, faoliyati to'g'risidagi rivoyatlar to'plami. A. Qur'ondan keyingi muqaddas manbalardan hisoblanadi. Sunna Muhammad (sav) va sahobalarning, A. esa faqat payg'ambar va uning oila a'zolari, Ali (kv) va b. imomlarning faoliyati haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga oladi. Hadis olimlarining istilohida A. so'zi hadis so'zining sinonimi shaklda qo'llaniladi.

AXBORIYLAR - 1) imomiylarning diniy-huquq tizimidagi oqimlardan biri. 10-a.da shakllangan. Uning tarafdorlari Axbor rivoyatlarini fiqhning asosiy manbai deb

hisoblaydi. A. imomiylarning yana bir huquqiy oqimi bo'lgan usuliyga qaraganda kamroq tarqalgan. 2) Xabar - axbor janrida ijod qilgan o'rta asr arab tarixchilari.

ASHARAI MUBASHSHARA - jannati ekani bashorat qilingan O'n sahobiy. Ular quyidagilar: Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdurahmon ibn Avf, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Zubayr ibn Avvom, Talha ibn Ubaydulloh, Abu Ubayda ibn Jarroh, Said ibn Zayd. Ularning barchasi Quraysh qabilasidan chiqqan.

ASHURO (arab. - o'n kunlik) - 1) Muhammad (sav) Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng dastlabki paytda, muharram oyining 10-kunida tutilgan ro'za. Keyinroq ramazon oyida ro'za tutish belgilangach, A. ro'zasini tutish ixtiyoriy deb e'lon etilgan; 2) shialarda xalifa Alining o'g'li Husaynning Karbalo yonidagi jangda halok bo'lganligi xotirasiga bag'ishlab muharram oyining dastlabki o'n kunligida o'tkaziladigan motam marosimlari. Eron va Iroqda A. kuni masjid va madrasa hovlilari, takyaxona va husayniyaxonalarda imom Husayn va safdoshlari chekkan azob-uqubatlari haqidagi qissalar jamoat orasida o'qiladi. Ko'chalarda shialar yurish qilib, motam tug'lari va shiorlarini ko'tarib: "Shoh Husayn, voh Husayn" so'zlarini takrorlab, nola chekishadi, musht va zanjir bilan ko'kraklariga urishadi. A. kunida islom mamlakatlaridan minglab shialar Karbalo sh.ga yig'ilishib, imom Husayn va safdoshlari qabrini ziyorat etishadi. Sunniylarda A. kuni odatdagi tabarruk sanalardek o'tadi, ayrim joylarda "ashur oshi" ulashiladi.

ASH'ARIY, Abul Hasan Ali ibn Ismoil (873-935) - mashhur ilohiyotchi, kalomning ash'ariylar maktabi asoschisi. Basrada tug'ilgan. 40 yoshigacha mu'taziliy ilohiyotchi bo'lgan. Munozaralardan birida ustozi bilan kelisha olmay, o'z qarashlarini keskin o'zgartirib, shofi'iyilarga qo'shilgan, mu'taziliylik aqidalari islom asoslariga to'g'ri kelmaydi, deb xulosa chiqargan. Umrining oxirgi yillarini Bag'dodda o'tkazib, shu yerda vafot etgan. A. mu'taziliylarga qarshi diniy-falsafiy tizimni asoslash uchun Qur'on va hadislarga qo'shimcha qilib falsafa va mantiq uslubidan kengroq foydalangan. A. shogirdlari uning ta'limotini rivojlantirganlar. A. 100 ga yaqin asar yozgan, ulardan eng mashhuri "Maqolat al-islomiyin" ("Musulmonlar ta'limoti")dir.

ASH'ARIYLAR - kalomning asosiy yo'nalishlaridan biri - Ash'ariy maktabi tarafdorlari. Boqiloniy (1013 y. v.e.), ibn Furq (1015 y. v.e.), Abu Ishoq Isfaro'iniy (1027 y. v.e.), Abdul Qohir Bag'dodiy (1037 y. v.e.), Juvayniy (1085 y. v.e.), Shahrisoniy (1153 y. v.e.) va Faxriddin Roziy (1209 y. v.e.) taniqli vakillaridir. A.ning dunyoqarashida akd diniy an'ana - nakddan ustun qo'yiladi. A. moturidiylik tarafdorlaridan o'nlab aqidaviy masalalarda fark qiladilar. Mas., A. Alloh o'z bandalariga toqatlaridan tashqari og'ir ishlarni ham buyurishi mumkin desalar, moturidiylar mumkin emas deydi. A. Allohni aql bilan tanish vojibligiga ham qarshi turadilar. Dalil keltira olmaydigan muqallid musulmonning imonini A. qabul emas deydi. Imon ozayib-ko'payib turishi, amal imonning tarkibiy qismi deb qarash va b. A.ning qarashlarini eng avval Eronda (10-a.da) keng tarqalgan shofi'iylik mazhabi tarafdorlari qabul qilganlar. Ash'ariyning o'zi tayangan hanbaliylik tarafdorlari bu maktab dushmanlari bo'lib qolgan. Taniqli ilohiyotchilarning ko'pchiligi (mas., Andalusiyada Ibn Hazm) A. g'oyasiga qarshi chiqqan. Birinchi saljuqiy sulton To'g'rulbek (1038-1063 y.larda hukmronlik qilgan) davrida A. ta'limoti bid'at deb

eʼlon qilinib, uning tarafdorlari taʼqib etilgan. Biroq bu taʼlimot Boqiloniy, Gʻazoliy va b.ning asarlari tufayli musulmon olamida katta taʼsirga ega boʻlib, kalomning eng keng tarqalgan oqimiga aylangan.

AʼLAM (arab. - bilagʻon, eng olim) - diniy-huquqiy masalalar yuzasidan fikr beruvchi diniy amaldor. Odatda, muftilar tuzgan fatvo A. muhr bosgach, kuchga kirgan va qozilar oʻsha hujjat asosida hukm chiqargan. Buxoro xonligi davrida har bir qozi yonida A. mansabi boʻlgan.

AʼROF (arab. toʻsiqlar) - islom manbalarida, xususan, Qurʻonda taʼriflangan jannat bilan doʻzax oʻrtasidagi balandlik joy - devortoʻsiq. Oʻzbek tilida A. oʻrnida odatda Arasot istilohi ishlatiladi. Islom aqidasi koʻra, qiyomat kuni jannatga ham, doʻzaxga ham tushmay oʻrtada qoladigan odamlar A.da turadilar. Ular jannatda rohat qilayotganlarni ham, doʻzahda azob tortayotganlarni ham koʻrib turadilar, ularni tanib, ular bilan suhbatlashadilar. Baʼzi rivoyatlarda A. ustidan bogʻlar unib, anhorlar oqib turadi, deyiladi. Demak, uning qalinligi ham hiylagina boʻlgan. A.dagi odamlar kimlar ekanligi haqida ulamolar oʻrtasida ikki xil fikr mavjud. Birinchisi: ular yaxshilik va yomonliklari teng kelib, na jannatga, na doʻzaxga hukm boʻlmay qolgan kishilar. Ikkinchisi, oʻz qavmiga paygʻambarlarning haq daʼvatlarini yetkazib, ularni yaxshilikka boshlagan daʼvatchilar, ulamolar va shuhadolardir. Maʼlum muddatdan soʻng Alloh taolo A. ahliga jannatga kirishlikni amr etadi va ular bihishtdan oʻz maqomlariga yarasha joy oladilar. Qurʻonning 7-surasi A. deb nomlangan.

AQD (sinonimlari ijob, qabul, qubul, sigʻa) - bitim, shartnoma. Islomdagi A. meʼyorlari johiliyat va Rim-Vizantiya huquqiy tasavvurlariga borib taqaladi. Qurʻoni karimda A. - qasam bilan mustahkamlangan bitim. Fiqhda A. - oʻzaro majburiyatlar haqidagi ikki yoki koʻp tomonlama shartnoma boʻlib, shartnomaning mavzui faqat mavjud buyum va munosabatlar boʻlishi, unga kelishuvchi tomonlarning huquqi qoʻllanilishi lozim. Islomda bitimga doir munosabatlarning yagona nazariyasi ishlab chiqilmagan, shu tufayli bitim turlari va shakllari hamda ularning kafolatlari turli guruhga mansub fiqhshunoslar va ayrim faqihlar taʼbiri boʻyicha bir-biriga mos kelmaydi. Biroq ularning aksariyati A.ni toʻrt katta guruhga jamlaydi: hokimiyat, vasiylik, himoyalash, rahnamolik A.i va b.; biror narsani sotish, hadya etish, meros qoldirish, yon bosish va b. yoʻl bilan mulkka boʻlgan huquqni toʻliq topshirganlik haqidagi A.; ijara, topshirish, vakolat berish, saqlash, garovga berish va b. yoʻl bilan u yoki bu narsaga vaqtinchalik egalik qilish huquqini topshirish haqidagi A.; hamkorlik, ish yuzasidan topshiriq berish, ish yuzasidan sheriklik va b. haqidagi A. Har qanday aqli raso inson ijtimoiy mavqeidan va qaysi dinga mansubligidan qatʼi nazar A. tuzish huquqiga ega. Lekin, koʻpchilik faqihlarning fikricha oʻzaro qasam ichib kafolat beriladigan holatlarda musulmonlar bilan gʻayridinlar oʻrtasida A. mumkin emas. Boshqa bir faqihlar buni mumkin deb hisoblaydilar, lekin bunda A. tuzish tartibi alohida boʻlishi lozim. Balogʻat yoshiga yetmaganlar va aqli norasolar cheklangan, maʼlum hollardagina A. huquqiga ega (mas., xayriya maqsadida hadya qilish). A. tuzish vaqtida tomonlar uning shartlari va bu shartlar buzilgan holda beriladigan kafolatlar haqida toʻliq xabardor qilinishlari lozim. A.ni rasmiylashtirish tartibi mahalliy urf-odatlar va tayin sharoitlarga bogʻliq. Agarda qaysi bir shaxs xuddi A. tuzilgandek harakat qilsa va unga eʼtiroz boʻlmasa (vasiylik berish, ijara va b.) A. oʻtgan

davr hisobida ham tuzilishi mumkin. Bir tomonlama majburiyat (ehson qilish, nazorat va b.) ayrimlarning fikricha Alloh bilan tuzilgan bitim ya'ni qasam sifatida qaraladi, boshqalarning fikriga ko'ra esa - butun jamoa bilan tuzilgan bitim deb qaraladi, unda boshqa tomonning vakili sifatida qozi yoki har qanday guvoh (shohid) bo'lishi mumkin. Agarda bitim mavzui muhim yoxud g'ayri oddiy yoki tomonlardan biri ishonchsiz (fosiq) bo'lsa A. tuzilayotgan vaqtda uchinchi bir shaxsning hozir bo'lishi shart hisoblanadi. Agarda barcha zaruriy shartlarga rioya etilgan bo'lsa, ya'ni tomonlarning akdi joyida, bitim mavzui aniq, majburiyatlar kelishilgan bo'lsa, A. haqiqiy (sahih) hisoblanadi. Bordi-yu, ulardan birontasi buzilsa, mas., yanglishsa yoki xabardor bo'lmasa A. haqiqiy emas (fosid) deb topiladi, lekin u kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng haqiqiy bo'lishi mumkin. Agarda qaysidir shartlardan biri umuman bo'lmagan bo'lsa, mas., firibgarlik, majbur qilish va b. zo'ravonlik holatlarvda A. to'liq ravishda yaroqsiz (botil) deb topiladi. Bordi-yu, tomonlar yetkazilgan zararni qoplash haqida bir bitimga kela olishmasa, har bir tomon ham sudga murojaat qilish huquqiga ega. A. shartlarini qo'pol suratda buzish hollarida aybdorlar yetkazilgan zararni qoplashlaridan tashqari jinoiy javobgarlikka tortiladi. Maishiy turmushdagi kelishuv, bitim va shartnomalarning aksariyati A. sifatida rasmiylashtiriladi.

AQIDA (arab. "aqd" - bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash; ko'plikda -aqoid) - balog'atga yetgan kishi e'tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zarurlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog'lab olib undan ajralishi mumkin bo'lmagan shar'iy e'tiqodiy hukmlar. Insonning ikki dunyodagi saodati aynan A.siga bog'liq. Agar A.si pok bo'lsa, yo'li to'g'ri bo'ladi, qilgan barcha amallari qabul bo'ladi va bandalik bilan sodir etgan ba'zi gunohlari afv etiladi. Agar A.si sof bo'lmasa, buzuk bo'lsa, yo'li noto'g'ri bo'ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxiratda jahannam ahlidan bo'ladi. A. masalasi o'ta muhim bo'lganidan ham, Odamatodan boshlab, oxirgi payg'ambar Muhammad (sav)gacha bu masalani Alloh taoloning o'zi ko'rsatib bergan. Odamatodan tortib hozirgacha A. masalasi bir xil bo'lib kelgan. Islom A.larining asosi Qur'onda berilgan, hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islomning sunniylik yo'nalishi ilohiyotda e'tirof etiladigan A.lar yoki imon talablari 7 ta: Allohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, takdirga va qiyomat kuni barchaning qayta tirilishiga ishonish (q. Sunniylik). Shialik yo'nalishi ilohiyotida 5 A. tan olinadi: tavhid (Allohning yagonaligi), nubuvvat (payg'ambar)ga ishonish, adl (ilohiy takdirning adolatligiga ishonish), imomat (imomlar hokimiyatini tanish), maod (oxiratga ishonish) (q. Shialik).

AQIQA (arab. - "chaqaloq sochini olish, qurbonlik so'yish") - musulmon oilalarida yangi tug'ilgan bolaga ism qo'yish va "qorin sochi" (bolaning tug'ilgandagi sochi)ga qaychi urish bilan bog'liq odat. Johiliyat davridagi turli ma'bud va ma'budalarga atab qilinadigan kurbonliklar o'rniga musulmon oilasida farzand tug'ilganligining shukronasi sifatida bir qo'y so'yib (imkoniyatga qarab) A. marosimini o'tkazishlik joriy etilgan. So'yiladigan qo'y sog'lom, nuqsonsiz bo'lishi lozim. Islom an'anasida A.ni chaqaloq tug'ilgan kunning 7 yoki 14 yoxud 21-kunlari o'tkazish tavsiya etiladi. Bu kunlarda A. o'tkazilmay qolinsa, so'ng qaysi kunda, qachon amalga oshirilsa ham vazifa bajarilgan hisoblanaveradi. Islomda A. sunnat amallardan. Imom Buxoriyning "Adab durdonalari" nomli kitoblarida payg'ambarimiz (as) nabiralari Imom Hasan ila Imom Husaynga bittadan qo'y so'yib A. qilib berganlari rivoyat qilingan. A. kuni chaqaloqqa nom qo'yish, uning tanglayini

shirinlik ila ko'tarish, qorin sochini olib sochni tarozining bir pallasiga, ikkinchisiga sochga barobar kumush solib, uni hadya qilish hamda chaqaloq o'g'il bo'lsa xatna qilish ham shu kuni o'tkazilgan.

AQL (arab. - ong) - insondagi anglash va tafakkur qilish xususiyati. Islomda A. Allohning eng ulug' ne'matlaridan sanaladi va diniy majburiyatlarning dindor zimmasiga yuklanishi uchun A.ning raso bo'lishi shart qilinadi. A. ikki xil bo'ladi, biri - tug'ma A., ikkinchisi kasbiy, ya'ni bilim va tajriba asosida rivojlanib boruvchi A.

AQSO MASJIDI (arab. - uzoqdagi masjid) - Quddus (Ierusalim) sh.dagi yahudiylik an'anasida muqaddas hisoblangan qad. ibodatxona (Sulaymon ibodatxonasi). Qur'onda shu nom bilan tilga olingan. Islomdan ilgari arablar, undan keyin musulmonlar jamoasining a'zolari A.m. tomonga qarab ibodat qilganlar. 624 y.da Makkadagi Ka'ba qibla deb e'lon qilingandan keyin u tomonga qarab ibodat qilish to'xtatilgan. Keyinchalik 7-a. oxiri - 8-a. boshida xalifa Abdumalik tomonidan bu yer Haram ash-Sharif deb atalgan va islom ibodatxonalari majmui barpo etilgan. Hadislarda keltirilishicha A.m. islomdagi uchta muqaddas masjid (Makka va Madinadaga masjidlar qatorida)dan biri.

AHD - qasam bilan berilgan va'da, topshiriq, so'z berish, shartnoma, ahdu paymon. Qur'onda A. Allohning o'z bandalariga bergan va'dasi va bandalarining Alloh oldidagi iltijo va ahdu paymonlarini bildiruvchi barqaror tushuncha. A. bir-birini himoya etish, homiylik ko'rsatish, qo'shnichilik, ittifoq tuzish va shu kabi har qanday shartnomaviy majburiyatlarni mustahkamlagan. A. ayrim odamlar yoki guruhlar o'rtasida bevosita yoki vositachilar orqali tuzilishi mumkin. A. topshiriq sifatida hokimiyatni vorisga topshirish amalining asosiy qismini ifodalab, u o'z navbatida, hokimiyatni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs, o'zining bunday vazifani bajarishga roziligini e'lon qilib, ahdu paymonning alohida rasmiy so'zlarini aytib, va'da beradi va shu lahzadan boshlab vali al-ahd (valiahd) unvoni va lavozimi egasi bo'ladi. Tasavvufdagi A. - alohida qasam bo'lib, tariqatga kirayotganlar tomonidan bajariladigan marosimning bir qismidir.

AHKOM (arab. hukmning ko'pligi) -islomdagi tushuncha. Shar'iy A. sakkizta -farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh, mustakrah. Bulardan tashqari yana odob, mandub, fazilat, nafl, tavavvu' kabilar bor, ularning hammasi bir gap, qilsa savob bo'ladi, qilmasa malomati yo'q. Ammo qilmoq yaxshidir.

AHL uz-ZIMMA - q. Zimmiy.

AHL ul-KITOB, Ahdi kitob (arab. - kitob ahdi, mazmunan o'z diniy kitobiga ega bo'lgan xalqlar) - islom aqidasi ko'ra, musulmonlardan oldin ilohiy kitobga ega bo'lgan ummatlar. Ular o'zlariga yuborilgan muqaddas kitoblar (Tavrot, Zabur, Injil) matnini buzganlar; Muhammad (sav) va uning oxirgi payg'ambarlik vazifasi to'g'risida eslatilgan gaplarni chiqarib tashlaganlar. A. ul-K.ga xristianlik va yahudiylikka e'tiqod qiluvchilar kiritilgan. Musulmonlar umuman A. ul-K.ga sabr-toqatli munosabatda bo'lib kelganlar.

Bu hol musulmonlar bilan boshqa dindagilar o'rtasida kelishuv va tinch munosabatlar o'rnatilishiga imkon bergan. Hoz. kunda Zaburga e'tiqod va amal qiluvchilar yo'q bo'lganidan A. ul-K.lar deyilganda nasoro va yahudiylar tushuniladi.

AHLI BAYT (sinonimlari: Ol al-bayt, Ol an-nabi) - "Xonadon ahli", "Payg'ambar oilasi". Qur'onda zikr etilgan. U musulmon mualliflari tomonidan har xil sharxlanadi. Sunniylar bu tushunchani keng ma'noda qo'llab, unga Muhammad (sav)ga yaqin bo'lgan odamlarni ham kiritadilar. Shialar A.b.ni Fotima, Ali, Hasan, Husayn va ularning avlodlari bilangina chegaralaydilar. "Payg'ambar oilasi"ga sig'inishni samoviy ahamiyatga ega deb bilib, uning oila a'zolarini "ilohiy nur" sohiblari va maxsus bilimlar egasi, deb hisoblaydilar.

AHLI SUNNA val JAMOA -musulmonlarning asosiy va jumhur ommasi e'tiqod va amal qilib kelayotgan akddaviy va mafkuraviy mazhablarning jamlama nomi. Islomning dastlabki davrlarida boshqa mazhab va oqimlar kabi A.S.val J. ham bo'lmagan. Birinchi hijriy asrning birinchi yarmi oxirlarida turli siyosiy sabablarga ko'ra, musulmonlar safida ajralish paydo bo'ldi. Avval xorijiylar toifasi, keyinroq shia va b. musulmonlar ommasidan ajrab chiqtsilar. Ularga o'ziga xos nomlar berila boshladi. Har tomon o'zining haqligani isbot qilish uchun o'z fikrini, yo'nalishini himoya qilib chiqqan, shu tariqa har guruhning o'ziga xos aqidasi shakllana boshlagan. Boshqa firqalar ajralib chiqqach, qolgan musulmonlarning asosiy ommasi A.S.val J. deb atala boshlangan. Bu nomda Payg'ambar (sav)ning sunnatiga amal qilish va musulmonlarning asosiy ko'pchilik jamoasi ma'nolari aks etgan. Shuning uchun ham A.S.val J. ulamolari boshqa toifalarning hammasi bilan tortishganlar va ularning xato fikrlarini tanqid qilganlar. Avvalgi aqidaviy tortishishlar faqat Qur'on va hadis asosida bo'lgan. Bu ma'noda hazrati Ali, Abdulloh ibn Abbas kabi sahobalar xorijiylarning boshliqlari bilan olib borgan bahs va tortishuvlari A.S.val J.ning dastlabki dalil keltirish urinishlari bo'lgan. Keyingi avlod musulmonlari ichidan Hasan Basriy va uning hamfikrlarini keltirish o'rinlidir. A.S.val J.ga mansublikni bildiruvchi asosiy belgilar quyidagilardir: dastlabki to'rt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali) hokimiyati qonuniy ekanligini tan olish, oltita hadis to'plami (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy, Abu Dovud, an-Nasoiy, Ibn Moja to'plamlari)ni sahih (ishonchli) deb bilish, to'rt diniy-huquqiy mazhab - hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, xanbaliylikdan biriga mansub bo'lishdan iborat. Islom davlatlari hududlarining kengayib borishi turli din, toifa, mazhab va mafkura tarafdorlarining musulmon bo'lishi oqibatida aqidaviy masalalar yana ham murakkablashib ketdi. Buning ustiga turli tomonlardan musulmonlar aqidasi buzishga urinish va tanqid qilish ham avj oldi. Ana shunday murakkab holat A.S.val J. aqidasi va fikrlarini ilmiy asosda jamlash va tartibga solishni taqozo etdi. Bu ishni musulmon olamining mashriq tomonida Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy va ikkinchi tomonida Abul Hasan aya-Ash'ariy uddaladilar. A.S.val J.ning aqidaviy masalalari o'sha ikki olim shaxsiga nisbat berilib (ash'ariylar, moturidiylik) deb nomlanadigan bo'ldi. A.S.val J. faqatgana aqida bobida emas, balki boshqa sohalarida ham o'ziga xos mazhablarni birlashtirgan. A.S.val J.ning o'ziga xos tafsir maktabi ham bor. Ularning mashhur tafsirlari jumlasiga Abu Mansur al-Moturidiyning "Ta'vilotu ahli sunna", Abul Barakot Nasafiyning "Madorikut Tanziyl", Ismoil Haqqiyning "Ruhul Bayan" tafsirlari va b. kiradi. A.S.val J.ning o'ziga xos hadis sharhi maktabi ham yuzaga kelgan. Bu maktabning yirik namoyondalari ichida Asqaloniy, Badriddin Ayniy, Ali Qori kabilar bor. Shunga o'xshash islomiy ilmlarning barcha sohalarida A.S.val J.ning o'z maktablari bor. 20-a. oxirida islomning dunyodagi

siyosiy o'rnini kuchayishi sharoitida sunniylik va shialik o'rtasidagi munosabatlar ham keskinlashdi, bu hol mamlakatlar o'rtasida (Eron-Iroq), shuningdek, turli mamlakatlarning ichki hayotida (Saudiya Arabistoni, Livan) ham ko'zga tashlandi, biroq ular ko'p holatlarda uchinchi darajali ahamiyat kasb etgan (Eron-Iroq) yoxud osongina hal etilgan. Sunniylikning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlari hoz. vaqtda islomning haqiqiy demokratik din ekanligini isbot qilishda dalil sifatida ko'rsatilmoqda. Sunniylar barcha islom olamidagi davlatlar aholisining ko'pchiligini (Eron va Iroqdan tashqari) tashkil etadi.

AHLI HAQ (fors., arab. - "haqiqat kishilari"), aliilohiyalar - shialarning yashirin jamoasi. Eronlik shialar A.h. tarafdorlarini "aliilohiyalar" deb ataydilar. Bu jamoa taxm. 14-a.da vujudga kelgan. G'arbiy Eron va Sharqiy Turkiyaga, keyinchalik Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ozarbayjonning janubiga yoyilgan. A.h. Ali azaldan ilohiy va u Odamatodan to Muhammad (sav)ga qadar bo'lgan payg'ambarlarda, shia imomlari va kelajakda mahdiyda mujassamlanadi, deb hisoblaydilar. A.h. jannat va do'zaxni inkor etib, jonning yangicha shaklga kirishiga ishonishadi. Ular darvishlarga o'xshab jazavaga tushishadi, shuningdek, ularda nasroniylikdagi kabi muqaddas uchlik aqidasi ham mavjud. A.h. ning aqidasida masihiylikdagi uchlik tushunchasi asosiy o'rin tutadi. Hoz. vaqtda A.h. Turkiyada shialarning taxm. 90% ini, Afg'onistonda 15% dan ortig'ini, Eronda 8% ga yaqinini tashkil qiladi.

AHMAD ibn HANBAL, Abu Abdulloh; Ibn Hanbal (780-855) - ilohiyot olimi, sunniylikdagi hanbaliylik mazhabining asoschisi va imomi. A.i.H. o'smirigidanoq hadis va fiqhni o'rgana boshlagan, zamonasining yirik ulamolari, jumladan Abu Yusuf va ash-Shofi'iyalar bilan muloqotda bo'lgan. 816-833 ylarda Bag'dodda mudarrislik qilgan va fiqh ilmi bilan shug'ullangan. A.i.H. an'anaviy sunniylikni himoya qilgan, mu'taziliylarga qarshi kurashgan. Abbosiy xalifalar Ma'mun (813-833), Mu'tasim (833-842) va Vosiq (842-847)lar davrida mu'taziliylar oqimi ta'limoti rasmiy e'tiqod sifatida e'tirof etilgan, A.i.H. mansub bo'lgan an'anaviy islom tarafdorlari ta'qib ostiga olingan edi. Aslida an'anaviy islom ulamolari va mu'taziylar o'rtasidaga bahs bir asrdan (xalifa Hishom (724-743) davridan) beri davom etib kelar, ular islom ummasining parchalanishida bir-birini ayblardi. Ma'mun ana shu bahsga barham berish, mu'taziliylarning bir necha aqidalari, va ayniqsa, Qur'onning yaratilganligi (ya'ni Alloh tomonidan yaratilgani), haqidagi fikrni qaror toptirish maqsadida 833 y. maxsus hay'at tuzgan va barcha ulamolarni imtihon (mehna) qildirgan. Bu aqvdalarni qabul qilmagan din arbobi Qur'onni Alloh bilan bir darajaga qo'yuvchi mushrik, ya'ni ko'pxudolik tarafdori deb e'lon qilinar va shunga yarasha jazoga tortilardi. O'z fikrlaridan qaytmagan bir necha ulamo qatori A.i.H. 2 yil zindonda yotgan. Ozodlikka chiqqach, umrining oxirigacha diniy-siyosiy faoliyatini davom ettirgan. Pirovardida mehna kutilgan natija bermadi va an'anaviy islom tarafiga o'tgan xalifa Mutavakkil (847-861) 848 y. mehnani bekor qilgan. Keksayib qolgan A.i.H. Bag'dodda endi o'zining nomi bilan atala boshlagan diniy-siyosiy harakatning g'oyaviy rahnamosiga aylangan. Bag'dod va Basradagi faol mu'taziliylarning ro'yxati tuzilib, ular qirg'in qilinganlar. 9-a.ning 20-40-ylari musulmon ummasida yuz bergan parokandalik holatini tahlil qilib, A.i.H. islomning "oltin davri" - Muhammad(sav) va ilk xalifalar davriga qaytish kerak, degan xulosaga keldi. Ayniqsa, "bid'at" masalasida u keskin mavqeda bo'ldi. Uning fikricha, Qur'on, hadis va musulmon ulamolarining ilk uch avlodi fikri (ijmo)ga asoslanmagan din va hayotga oid har qanday "yangilik" qoralanmog'i

darkor. Shuningdek, u diniy arboblarning hokimga ta'sir o'tkazishlari lozim, deb uqtirdi. A.i.H. ta'limotini uning shogirdi al-Barbahariy (847-941) o'z asarlarida davom ettirgan. Hanbaliylik mazhabi nazariyasi Ibn al-Javziy (1116-1200) va Ibn Taymiya (1263-1328) asarlarida o'z ifodasini topdi. A.i.H.ning "6 aqida" (islom dini ahkomlarining qisqacha bayoni), hadislar to'plamlari, shu jumladan 30 ming hadisni o'z ichiga olgan "Musnad" ("Isnodli hadislar to'plami") va imon-e'tiqod, fiqh va ibodat masalalari bo'yicha risolalari hozirgacha saqlanib qolgan.

AHMAD KOSONIY - q. Mahdumi A'zam.

AHMADIYA - 19-a. oxirida Hindistonda vujudga kelgan diniy harakat. Mirza Rulom Ahmad Kodiyoniy (1835-1908) asos solgan. U 19-a.ning 70-y. larida Panjob musulmonlari o'rtasida yirik ulamo va avliyo sifatida nom chiqargan. Islom tarixi va ilohiyot bo'yicha bir necha asar yozgan. 1891 y.da "Anjumani Ahmadiya" diniy tashkilotini tuzgan. Izdoshlari uni "payg'ambar", deb e'lon etgan. Vafotidan keyin uning o'rniga Hakim Nuriddin qolgan. Bashar Ahmad ibn Rulom ham taniqli A. arboblardan hisoblanadi, "Siyrat ul Mahdiy" ("Mahdiyning hayot yo'li"), "Kalimat ul-fasl" ("Ajraturvchi so'z") va b. kitoblari bor.

A. aqidalari islomga zid. A. aqidasi bo'yicha: 1) G'ulom Ahmad va'da qilingan Iso Masih emish; 2) Alloh ro'za tutar, namoz o'qir, uxlar, uyg'onar, yozar, imzo chekar, ba'zan adashar emish; 3) Muhammad (sav) oxirgi payg'ambar emas, chunki Alloh o'z ehtiyojiga ko'ra yer yuziga payg'ambarlar yuborib turar, ulardan eng afzali esa G'ulom Ahmad emish; 4) Jabroil (as) G'ulom Ahmadga vahiy olib tushar emish; 5) Kodiyon qishlog'i Makkai-mukarrama va Madinai-munavvaradan afzal emish; 6) Araq ichish, af'yun va b. mast qiluvchi narsalarni iste'mol qilish mumkin. Hoz. kunda ahmadiylar Hindiston va Pokistondan tashqari, bir necha arab mamlakatlari, Eron, Afg'oniston, Afrika hamda G'arb mamlakatlarida tarqalgan. Londonda ularning katta markazi bor. Ahmadiylar MDH hududiga keyinga yillarda kirib keldi. Ko'proq ishbilarmon, tojir va xayriya jamiyati vakillari sifatida Tatariston va b. joylarda rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Robita al-alam al-islom (Islom olami ittifoqi) A.ni "islomga yot oqim" deb e'lon qilgan.

AHROR (arab. - "hur" so'zining ko'pligi) -islomda "hur", "ozod" ma'nolarini anglatuvchi tushuncha. Tasavvufda uch xil asirlikdan xalos topgan kishiga "hur" unvoni beriladi. Birinchisi - hayvoniy va shahvoniy his-tuyg'ularni yengib, ularning asirligidan qutulish. Bu martaba nomi - "hurriyati omma". Bu xususiyat hammada ham bo'lishi mumkin. Ikkinchisi - ortiqcha orzu-havaslardan voz kechish. Bu - "hurriyati xossa" atalib, u tasavvuf ahlining ko'pchiligida topilishi mumkin. Uchinchisi - barcha dunyoviy taqlid, an'ana va mashg'ulliklardan dilni pok tutish. Bu - "hurriyat xossatil-xossa" atalib, u tasavvuf ahlining ayrimlarigagina nasib etadi

- B -

BADAVIY, Abu Fityon (yoxud Abu Abbos) Ahmad Sidi ash-Sharif (1199-1276) - badaviya (yoki ahmadiya) tariqati asoschisi, Misr xalqi hozirgacha e'zozlaydigan mashhur so'fiy. Fes sh.da o'z shajarasini Aliga bog'lagan va 7-a. oxirida Mag'ribga ko'chib kelgan oilada tug'ilgan. 1210 y. Makkaga kelgan. Bu yerda B. shofi'iylik huquqi va Qur'on tilovati bilan mashg'ul bo'lgan. 1230 y. otasi vafotidan keyin B. odamlardan uzoklashib, yolg'iz zohidona turmush kechirgan, u faqat imo-ishora vositasida odamlar bilan muloqotda bo'lgan. 1236 y. B. o'zining tushi ta'biriga amal qilib Iroqqa borgan, u yerda Abdulqodir Geloniy (Jiloniy) va Ahmad ar-Rifo'iy maqbaralarini ziyorat qilgandan so'ng Bato'ik sh.da rifo'iylar tariqatiga qabul qilingan. 1237 y. B. Misrning Tant sh.ga ko'chib kelib, shu yerdagi rifo'iylarga rahbarlik qilgan. Bu yerda u o'zining darvishona turmush tarzi (suv ichmasdan va taom yemasdan 40 kun ro'za tutishi, uyining tomidan quyoshga tikilib qarashi - "soyaga yurish", ba'zan to'la sukunatda, ba'zan baqirib-chaqirib yurish va b. bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Tantda vafot etgan. Xalq orasida uning "mo'jizakor" kuchi haqida ko'plab rivoyatlar tarqalgan. B.ning vafotidan so'ng, uning xalifasi va vorisi Solih Abdul Ol (1333 y.v.e.) uning qabri ustiga masjid qurdirgan, u avliyoni ziyorat qilish markaziga aylangan. B.ga sig'inish Misrning qad. qibtiy-xristian urf-odatlarini o'zida uyg'unlashtirib yuborgan. Ko'pchilik misrlik musulmonlar B.ning Tantdagi maqbarasini ziyorat qilib, keyin haj ziyoratiga borishadi. Shundan uning "Bob un-nabiy" ("Payg'ambar darvozasi") laqabi kelib chiqqan. Oddiy xalq orasida u as-Sayid ("janob"), tariqat a'zolari uchun u - qutb deb ataladi. Magrib badaviylari kabi bosh kiyim kiygani uchun "Badaviy" laqabini olgan deb hisoblanadi. B. Misrda xonanda ayollar va raqqosalar uyushmasining rahnamosi hisoblangan, shuningdek u yo'qolgan narsalarni, jumladan yo'qolib qolgan bolalarni topishda ko'mak beruvchi shaxs sifatida mashhur bo'lgan. B.ga siginishni, ayniqsa Tantga ziyorat qilishni ulamoyu fuqaholar doimo qora-lab kelishgan. 1498 y. ularning qat'iy talabi bilan mamluk sultoni az-Zohir Jaqmoq B. qabrini ziyorat qilishni taqiqlash haqida farmon chiqargan. B.ga e'tiqod qilish xalq orasida juda chuqur ildiz otib ketganligi bois farmonning ta'siri bo'lmagan. Usmonli turk saltanati davrida mavlaviylar, bektoshiylar, naqshbandiylik kabi qudratli so'fiylik tariqatlari tarafdorlarining talabi bilan B.ni dabdabali suratda ziyorat etish ancha kamaygan.

BADAVIYA (yoxud ahmadiya) - so'fiylik tariqati. Ahmad al-Badaviy Misrda asos solgan. B. amaliyotda qodiriylar va rifo'iylarga yaqin. B.ning tashkiliy asoslari aniq belgilanmagan. Mahalliy zoviya va jamoa rahbarlari nomigagina tariqat rahbariga itoat etib, kamdan-kam hollarda undan fatvo olganlar. Tariqat qarorgohi asosiy ziyoratgoh - Tant sh.da joylashgan. 1333 y. tariqat asoschisining vorisi Solih Abdul Ol vafotidan so'ng B.ga rahbarlik qilish merosiy bo'lgan. 14-15-a.larda ayrim mamluk sultonlari B. bilan aloqa bog'lashgan. Uzoq vaqt mobaynida (20-a.ning 50-y.larigacha) B. Misr xalqi orasida o'zining ta'sirini saqlab kelgan. B.dan kamida 15 ta tarmoq ajralib chiqqan, ularning ayrimlari (mas., dasuqiya-burhoniya) mustaqil tariqatga aylangan. B.ga Misr xalqining qad. islom va xristianlikdan avvalgi diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini chatishib ketgan. Shu sababdan bo'lsa kerak Abdul Vahhob ash-Sha'roniy (1493-1565) B.ni shariat yo'lidan og'ganlikda ayblagan. B. tarafdorlari o'ziga xos - qizil rangda kiyim kiyishgan, ularning xirqasi va 12 shokilali uzun qalpoklari, shuningdek bayroqlari ham qizil bo'lgan. Ular odatda chorshanba kunlari Tant sh.dagi markaziy ziyoratgohda,

maxsus xonalarda (tahdirxona) va Qohiradagi al-Husayn masjidida jamoa bo'lib zikr tushishgan. Unda maxsus qo'shiqchi xonishi va nog'ora sadosi ostida davra bo'lib zikr tushganlar. Davra bo'ylab aylanayotgan zikr ishtirokchilari vaqti-vaqti bilan chuqur ta'zim bajo keltirib, shu x,olatda qo'llarini oldinga cho'zganlar. O'zaro uchrashganlarida tariqat a'zolari qo'l sqiqishib ko'rishganlar. Tariqat yilda uch bayramni nishonlagan. Bayram sanalari qad. qbtiy quyosh taqvimiga qarab belgilangan. Birinchi bayram sanasi "ilohiy cho'qintirish" kuniga to'g'ri keladi, qolgan ikki sana Nil daryosi suvining ko'tarilishi muddati bilan bog'liq (hosildorlikka bag'ishlangan marosim). Bayramlar vaqtidagi tartib ustidan B. a'zolaridan tuzilgan maxsus qo'riqchilar - Nuh avlodlari nazorat yurgizishgan. Ularning belida yog'och qilich, ko'llarida - arqon qamchin, bo'yinlarida turli rangdagi munchoq shodasi bo'lib, u ko'krakka tushib turgan; bosh kiyimlarining tepasida rangli tizimchalardan qilingan tutama (o'ram) bo'lgan.

BADA' ("paydo bo'lish", "vujudga kelish") - shialikka oid tushuncha. Unga ko'ra Allohning fikri, qarori turli shart-sharoitlarga qarab o'zgarib turadi. Bu g'oyani kaysoniylarning peshvosi al-Muxtor ibn Abi Ubayd nomi bilan bog'laydilar. U o'zida bashorat qilish qobiliyati borligini da'vo qilib, agarda uning bashorati to'g'ri chiqmasa, bunga Allohning fikri o'zgarib qolganini ro'kach qilgan. Shialar B.ni sunniylikdagi nasx ta'limotiga qarshi qo'yadilar. O'zlarini kelajak haqida bashorat etish qobiliyatiga ega deb hisoblaydigan shia imomlari agarda bashoratlari noto'g'ri chiqqudek bo'lsa, o'zlaridan javobgarlik mas'uliyatini soqit qilish uchun xohlagan paytda o'z fikr va qarorlarini "Allohning fikri o'zgarib qoldi" deb o'zgartirishlariga B. imkon bergan.

BADR JANGI - Muhammad (sav) rahbarligida musulmonlarning Badr qudug'i yaqinida (Madinadan 150 km jan.-g'arbda) Makka qo'shinlari bilan qilgan birinchi yirik jangi (624 y. 15 yoki 17 mart). Makkadan Falastin va Suriya yerlariga olib boradigan yirik karvon yo'li Madina yaqinidan o'tar edi. Bu yo'l Makka hokimlari va savdogarlari uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Musulmonlar bu yo'ldagi Makka karvonlarini bosib olishga, Makka zodagonlari esa karvonlarni himoya qilishga uringan. Badr qudug'i yonida madinaliklar makkaliklarning savdo karvoniga hujum qilgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, jangda musulmonlar tomonidan 80 muhojir, 230 ansor, makkaliklar tomonidan Abu Jahl rahbarligida 850 kishi qatnashgan. Makkaliklar yengilgan, katta talafot ko'rgan. Makkaliklarning 50 dan ortig'i halok bo'ldi, yana shunchasi asir olindi. Ular o'z yo'l boshchisi Abu Jaxldan ham judo bo'lishdi. Musulmonlardan faqat 14 kishi halok bo'ldi. Kuchlar nisbati kam bo'lishiga qaramay musulmonlar qozongan g'alaba Muhammad (sav) ning siyosiy va diniy obro'yini oshirib yubordi, Madina va butun Arabiston ya.o.da faol harakat boshlab yuborishga asos soldi. Jangda katta o'lja, jumladan 30 ta ot, 150 tuya, ko'p qurol, anjomlar qo'lga kiritildi. Muhammad (sav) bu o'ljalarni jang ishtirokchilariga taqsimlab, uning beshdan bir qismini o'zlari olganlar. Islom an'anasida o'lja taqsimlashda uning beshdan bir qismi xalifalar xazinasiga tushishi, piyoda askarga bir hissa, otliq askarga ikki hissa berilishi ana shundan boshlangan. Keyinchalik bu shariatda qonunlashtirilgan.

BAZDOVIY, Abul Hasan Ali ibn Muhammad al-Bazdoviy (1009 - 1089) - xanafiylikdagi yirik muhaddis va faqih. Nasaf viloyatidagi Bazda (Pazda) qal'asida tug'ilgan; ko'plab

shogirddar yetishtirgan. Tarixchi Sam'oniy B.ning o'g'li al-Hasan ibn Ali al-Bazdoviy qo'lida ta'lim olgan. B. fiqhga doir 6 asar muallifi.

BAYT ul-MAQDIS, Bayt ul Muqaddas (arab. - Muqaddas uy) - Quddus (Ierusalim) sh.da qadimdan mavjud bo'lgan, musulmonlar, xristianlar va yahudiylarda muqaddas hisoblangan ibodatxonalar. Shu munosabat bilan Quddus sh.ning o'zi ham B.ul-M. deb nom olgan. B.ul-M.ning o'rta asrlarga oid sharqiy qismida - Harom ash-Sharif (Moria tog'i etaklarida) qo'riqxonaga aylantirilgan hudud bo'lib, Aqso masjidi, Qubbat as-sahro masjidi va b. inshootlar uning tarkibiga kirgan. Qur'oni Karimning Muhammad (sav)ning me'roj kechasida borgan yerlari haqidagi oyatdagi joy - B. ul-M. deb hisoblanadi. Muhammad (sav) Madinada bo'lgan dastlabki bir yarim-ikki yillik davrlarida musulmonlar B.ul-M.ga qarab namoz o'qiganlar (q. Qibla). Quddus sh. Umar (ra) bilan patriarx o'rtasida tuzilgan bitimga asosan 638 y. boshida musulmonlar qo'lga o'tgan. Umar (ra) Quddusda bo'lgan chog'ida Aqso masjidini qurdirgan (705-715 y.larda u yangidan qurilgan). Qubbat us-sahro masjidi bunyod etilgach, shaharning diniy markaz sifatidagi mavqei kuchaygan. Arabcha al-Quds nomi shu payt (8-a. boshi)dan e'tiboran qo'llanila boshlagan (bu paytgacha shahar Iliyo deb atalgan). 11-13-a.larda B.ul-M. diniy urushlar, xususan, salbchilar bilan musulmonlar o'rtasidagi to'qnashuvlarning asosiylaridan sanalgan. 1517 y. shaharni Usmonli turk saltanati egallagan. 16-a.da Harom ash-Sharif tubdan qayta ta'mirlangan. Ark va b. inshootlar qurilgan. 16-19-a. o'rtalarida shahar (80 ga yaqin shahar hududi va 13 ga dan iborat Harom ash-Sharif) devor bilan o'rab olingan. 1553 y.dagi aholi ro'yxatiga ko'ra shaharda 1950 musulmon, 413 nasoro va 324 yahudiylar oilasi, jami taxm. 15 ming aholi yashagan. 19-a. so'nggi choragidagi aholi ro'yxatida ham taxm. shu manzara aks etgan. 19-a.da xristian qadamjolarini himoya qilish bahonasida Yevropa davlatlari Usmonlilar saltanatining ichki ishlariga aralasha boshlagan. 19-a.ning ikkinchi yarmida Kuddusning g'arbiy qismida yevropalik bir qancha missionerlik markazlari paydo bo'lgan; shu asr oxirida esa, bu yerda yahudiy-immigrantlar (muhojirlar)ning koloniyasi (manzilgohi) vujudga kelgan. 1920-47 y.larda Quddus Millatlar Ligasi mandatiga ko'ra, Buyuk Britaniya tomonidan boshqarilgan Falastinning ma'muriy markazi bo'lgan. 1947 y. Isroil davlati barpo etilishi tufayli Quddus sh. BMT boshqaruvidagi alohida zona sifatida ajratilgan, biroq Isroil-Arab urushi (1948-49) natijasida shaharning g'arbiy qismini Isroil bosib olgan, sharqiy qismi esa, Iordaniyaga o'tgan. 1967 y. Quddusning sharqiy qismi Falastinning arablar yashaydigan qismi bilan birgalikda Isroil tomonidan egallangan.

BAYTULLOH (arab. - Alloh uyi) - Makka sh.dagi Ka'ba binosi. Uning boshqa nomlari ham bor. Mas., Masjidi harom, Baytulatiq, Qibla, Xonai Ka'ba. "Allohning uyi" deganda Allohning manzili yoki maskani emas, balki Allohga ibodat qilinadigan joy, qiblagoh ma'nosida tushunmoq kerak. Shu ma'noda yer yuzidagi masjidning har birini ham "Allohning uyi" deb atash mumkin. B.ni "Makkatulloh" deb atash noto'g'ridir.

BAYTULMOL (arab. - "mol-mulk uyi") - 1) islom mamlakatlarida davlatga qarashli mol-mulk; 2) qimmatbaho narsalar saqlanadigan bino. B.ni dastlab xalifa Umar ibn al-Xattob (ra) ta'sis qilgan. Undagi boyliklar asosan xiroj, jizya, zakot, hums kabi soliklardan to'plangan. BAY'AT (arab. oldi-sotdi) - shariatda kishilarning Rasululloh (sav)ga itoat haqida bergan va'dalari. Bu va'dada va'da ahd beruvchi shaxs o'z itoati evaziga savobni

sotib olish ma'nosi borligidan "bay'at" deyilgan. Rasululloh (sav)dan keyin xalifalar, davlat boshliqlariga B. qilish odati bo'lgan. Keyinroq davlat boshlig'idan boshqalarga, ma'lum rahbarlik ma'nosidagi ulug'larga ham B. qilish tarqagan. Alloh taolo Fath surasida: "Albatta, Senga bay'at qilayotganlar, haqiqatda Allohga bay'at qilmoqdalar. Allohning qo'li ularning qo'llari ustidadir", degan. Bu oyat Hudaybiya sulhi vaqtida nozil bo'lgan. Rasuli Akram (sav) 1400 nafar sahobiylar bilan umra qilgani Makka tomon yurganlar. Makkaga yaqinlashganlarida, mushriklar yo'lni to'sishga tayyorgarlik ko'rayotgani haqida xabar kelgan. Hudaybiya degan joyda to'xtalgan. Ikki taraf bir-biriga vakil yubora boshlagan. Rasululloh (sav) hazrati Usmon ibn Affon (ra)ni yuborganlar. U kishi daraksiz uzoq qolib ketganlar. Shunda "Mushriklar Usmonni o'ldiribdi" degan gap tarqalgan. Vaziyat og'irlashib, qurolli to'qnashuv bo'lishi muqarrarga o'xshab qolgan. Ana shunday nozik va xatarli bir paytda musulmonlar Islom yo'lida fidokorlik ahdini berib, Rasululloh (sav)ga B. qilishlari lozim bo'lgan. Payg'ambar (sav) daraxt tagida turib, B. olganlar, Alloh taolo ushbu B.da ishtirok etganlardan rozi ekanini e'lon qilib, oyatlar nozil qilgan. B. vaqtida qo'l ushlab turib ahd berilganidan ahli tasavvufda muridning shayxga qilgan B.ini "qo'l berish" deyiladi. Shayxga muridning B. qilishi hijriy beshinchi asr (mil.11-a)larda boshlangan, bunda murid o'z ustoziga taqvoda bardavom bo'lishga ahdu paymon ila B.qiladi.

BALUZURIY Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir ibn Dovud (taxm. 820-892) - arab tarixchisi. "Futuh ul-buldon" ("Mamlakatlarni fath etish") va "Ansob ul-ashrof" ("Iqtidorli kishilarning nasablari") kabi tarixiy asarlari bilan mashhur. Birinchi asarining qisqartirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Unda hijrat davridan boshlab to Suriya, Armaniston, Misr, Mag'rib, Ispaniya, Iroq va Eronning fath etilishigacha bo'lgan tarixiy voqealar bayon etilgan. Asarda mahalliy xalqlar va turli mashhur qurilishlarga doir juda ko'p muhim ma'lumotlar ham bor. Shuningdek, unda arab tilining fath qilingan mamlakatlarda devon ishlarida qabul etilishi, turli jarima va soliqlar, tanga va chaqa pullar, arab yozuvining tarixi xususida ma'lumotlar mavjud. Bu kitob Gollandiyada sharqshunos de Gue tomonidan 1866 y.da nashr etilgan.

BALUZIY, Abul Abbos al-Hasan ibn Sufyon ash-Shayboniy al-Baluziy an-Nasaviy (? - 915/916) - shofi'iylikdagi yirik muhaddis, faqih, muftiylardan. Niso viloyatidagi Baluz (Faruz) qishlog'ida tug'ilgan. Sam'oniyning yozishicha, u Iroq, Shom, Misr va Xuroson shaharlari bo'ylab sayohat qilgan, uning huzuriga turli mamlakatlardan olimlar kelib saboq olganlar. 12-a.da uning Baluz qishlog'idagi qabri ziyoratgoh bo'lgan. Sam'oniylar B.ni fiqh, hadis va ilmi adab bo'yicha 20 ustoz va 10 ta shogirdini qayd etib o'tgan. Fiqhga doir 3 asari bor.

BAL'AMIY Abu Ali Muhammad ibn Muhammad (? - 974 - Buxoro) - tarixchi olim, davlat arbobi. Somoniylardan Abdulmalik ibn Nuh (954-961) va Mansur ibn Nuh (961-976) zamonida bosh vazir bo'lgan. U 963 y. Tabariy (839-923)ning "Tarix ul-anbiyo var-rasul val muluk val-xulafo" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi") nomli yirik asarini fors tilida qaytadan yozgan. Bu Sharqda 9-a.gacha bo'lgan siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan, O'rta Osiyoda yangi fors tilida bitilgan birinchi asar bo'lib, Tabariyning arab tilida yozilgan va Leydenda (1879-89) nashr etilgan yuqoridagi asariga qaraganda aniq ma'lumotlarga boy va ayrim hollarda mufassalroqdir. Aftidan, B. Tabariy asarining

avvalgi to'laroq nusxalaridan foydalangan. B.ning bu asari chet tillariga tarjima qilingan. Mazkur kitob 1958 va 1974 y.da tuzatishlar bilan Tehronda 2 marta nashr etildi. Uning qo'lyozma nusxasi O'zbekiston musulmonlari idorasining kutubxonasida saqlanmoqda.

BARAKA - islom ilohiyotida biror ishga Allohdan rivoj tilash, oq fotiha berish mazmuniga ega bo'lgan tushuncha; xayrli istak va qo'rquv. Qur'onda B. uch harf, ya'ni BRK ildizidan chiqqan bir qancha so'z va tushunchalardan iborat. B. so'zi ko'plik shaklida barakot deb yuritiladi. Qur'onda keltirilishicha, B.ning nozil etuvchisi Alloh bo'lib, u B.ni payg'ambarlarga (Iso - 19:31/ 32, Muso - 27:8, Ibrohim, Ishaq - 37:113) va ularning yaqinlariga (11:48/50, 76/73) ato etgani zikr etiladi. B. istagi musulmonlar o'rtasidagi an'anaviy salom-alikning tarkibiy qismiga aylangan. Oddiy xalq tilida B. mehnat va faoliyatda, hosil va daromadda unum, mo'l-ko'llik ma'nosini bildiradi.

BARKONIY, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ad-Barkoniy (948 - 1034) - shofi'iylikdagi mashhur muhaddis, mufassir, faqih, adib va shoir. Xorazmdagi Kot (Kas) sh. atrofidagi Barkon qishlog'ida tug'ilgan. B. fiqhni dastlab Xorazmda o'rganib, so'ngra Xuroson va Iroq sh.lari bo'ylab sayohat qilgan. Bag'dodda yashagan va jome masjidi qoshidagi qabristonga dafn etilgan. B.ning 5 ustoz va 5 shogirdi bo'lib, fiqhga doir 3 ta asar yozgan.

BARO' ibn OZIB, to'liq ismi Abu Amr al-Baro' ibn Ozib ibn al-Xoris al-Ansoriy al-Avsiy (7-a.) - sahoba. Badr jangiga bormoqchi bo'lganida Rasululloh (sav) uni yoshligi tufayli jangdan qaytarganlar. Muhammad (sav) bilan birga 14 ta g'azotda, u zot vafotlaridan so'ng Ray sh.ni fath etishda (644) qatnashgan. Keyinchalik Ali bilan birga Jamol, Siffin va Nahravon janrlarida jasorat ko'rsatgan, ko'p hadislar rivoyat qilgan. Mus'ab ibn az-Zubayr zamonida (689-691) vafot etgan.

BARSISA, Barsis - Qur'onda (59: 16-17) zikr etilgan inson nomi. Qur'oni karimda "Mana u (shayton) insonga dedi: "Kofir bo'!" Inson kofir bo'lganida, u dedi: "Men sendan yuz o'gardim. Men butun dunyoning rabbisi Alloadan qo'rqaman!" Ularning har ikkisi ham oxir-oqibatda to'abado'zax o'tiga tashlandilar. Kofirlarning holi shu bo'lur!". Bu oyatlar Iblis-shaytonning timsolini aks ettirishda juda muhimdir. Shayton garchi insonni to'g'ri yo'ldan og'dira olsa ham, uni Allohning g'azabidan himoya eta olmaydi. U Allohga raqib emas, lekin uning zaif dushmani. Qiyomatda shayton o'zi yo'ldan urgan kishilari qatorida teng jazolanadi. Qur'oni karimdan keyingi rivoyatlarda aytilishicha, B. ismli zohid aka-ukalari tomonidan tashlab ketilgan bemor qizning hol-ahvolidan boxabar bo'lib turishga rozilik bergan. Shaytonning so'ziga kirgan B. zino ish qilib, so'ngra jinoyatini yashirish maqsadida qizni o'ldirgan; qizning aka-ukalari kelganida B. qizni xastalikdan vafot etganini aytgan. Biroq Shayton aka-ukalarga singillari o'limining asl sababini yetkazgan, ular zohidni o'ldirish qasdida tutib olishgan. Shunda Shayton Allohdan yuz o'girish evaziga uni xalos etishini taklif etgan. B. yuz o'g'irgan, lekin shu zahoti Shayton ham undan yuz o'g'irgan. Bu hikoyadan pand-nasihatlariga oid adabiyotlarda keng foydalaniladi. Fuqaholar undan Shaytonning usullari, kirdikorlarini ko'rsatishda yaqqol misol sifatida foydalanadilar: insonning g'oyibona xohish-istaklaridan foydalanib, Shayton uni go'yo solih amallarni (yuqoridagi holatda - bemor qizning hol-

ahvolidan boxabar bo'lish) qilishga, aslida esa, uni halokatga yetaklovchi amallarni bajo etishga undaydi.

BAQO VA FANO (arab. baqo - boqiylik, barqarorlik; fano - foniylik, yo'qolish, o'tkinchilik) - islomdagi tushuncha. Islom dinida baqo - Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning boqiy do'sti bo'lib qolish uchun o'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarini o'zida mujassam qilish deb ham tushuniladi. Fano - o'zidagi barcha yomon sifatlarini yo'q qilish yo'li bilan Allohga yaqinlik hosil qilishlikdir. Tasavvufda solik fano maqomiga yetgach, Allohning haqligi va ulug'ligi to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, bu foniy dunyodagi jamiki narsalarni unutib yuboradi. Bu maqom "fano filloh" deb ataladi (yana q. Fano).

BAG'DODIY, Abul Barakot Hibatulloh ibn Malka al-Baladiy (1077-1164) - faylasuf, tabiatshunos, tabib. Bag'dod xalifalari va saljuqiylar sultonlari saroyida tabiblik qilgan. B.ning asosiy asari "al-Mu'tabar fil hikma" bizgacha yetib kelgan. Bu asar sharq peripatetizmi ruhida yozilgan bo'lib uch qismni - mantiq, fizika va metafizikani o'z ichiga oladi. Ikkinchi bo'limda (Ibn Sino fizikasiga nisbatan) muammoni toraytirib, asosiy e'tibor tabiiy-ilmiy masalalarni tadqiq etishning asosiy vositalari sifatida tajriba va kuzatishga qaratiladi. Metafizikada, asosan, sharq peripatetiklari izidan borib B. ularning ayrim qoidalarini tanqid qiladi. Unga ko'ra yagonalikdan faqat yagonalik kelib chiqadi, abadiy o'tkinchi hodisalarni (havodis) o'ziga sig'dira olmaydi, xudoning mohiyatidan tashqari uning boshqa atributlari bo'lishi mumkin emas hamda o'nta fazoviy akdlar mavjud deb tanqid qildi. Keyinchalik bu tanqid kalom bilan falsafani yaqinlashtirishga zamin hozirlagan ar-Roziy tomonidan davom ettirildi.

BAG'DODIY, Abu Mansur Abduqohir ibn Tohir (? - 1037) - shofi'iylik faqihlaridan, ash'ariy ilohiyotchi. Nishopurda ash'ariy Abu Ishoq al-Isfaroiniy (1027 y. v.e.) rahbarligida o'qigan. B.ning Xurosonda shogirdlari ko'p bo'lib, ular orasida mashhur ilohiyotchi-so'fiy Kushayriy ham bor edi. B. muhofazasi keng olim bo'lib, fiqh, usuli al-fiqh, kalom, grammatika, handasa - jami 17 fandan dars bergan. U uchta asar - "al Farq baynal firaq", "Usul ad-din", "al Milal van nihal" yozgan. Bulardan oxirgisi o'zining ma'nosi jihatidan Shahrisoniyning xuddi shu mazmundagi asaridan ancha ustun turadi. B. boshqa sunniy huquqshunoslar yo'lidan borib xorijiylar, shialar va mu'taziliylar bilan munozarada imomat g'oyasini rivojlantirdi. U o'zining zamondoshi va maslakdoshi Boqiloniydan farqli o'laroq, imomat zaruriy narsa va bir vaqtda ikki imomning (mulki dengiz bilan ajralgan bo'lsa) mavjud bo'lishi mumkin deb hisoblagan.

BAHIRO, Buhayro- Muhammad (sav) siyratlari haqidagi hikoyalarda uchraydigan shaxs ismi; Muhammad (sav)ning bolalik paytlarida u zotdagi payg'ambarlik alomatlarini payqagan Busrolik (Suriya, Basra sh.) xristian rohib. Hikoya etilishicha, Makka karvonlari Damashqqa borayotganda va undan qaytayotganda ko'pincha B. uyi oldida dam olish uchun to'xtagan. Bir kuni Abu Tolib o'zi bilan safarga jiyani Muhammad (sav)ni ham olgan. B. bulutlar, quyosh va daraxt shoxlari harakatiga asoslanib, kelganlar orasida bo'lg'usi payg'ambar borligani aniklagan va uning belgilarini Muhammad (sav)da ko'rgan. U Abu Tolibga bolani ehtiyot qilishni va uni Damashqqa olib

bormaslikni maslahat berib, Damashqda uni yahudiylar o'ldirishi mumkinligini aytadi. Shu sababdan Abu Tolib savdo ishlarini shu yerning o'zida bajarib, Damashqqa borishdan voz kechadi. Muhammad (sav)ni tanish uchun B. xristianlarning buzilmagan muqaddas kitoblaridagi u zot haqida bitilgan yeridan foydalangan.

BAHOIYLIK, bahoiyya - diniy-siyosiy oqim. 19-a. o'rtalarida Erondagi bobiylik harakatining davomi sifatida Iroqda vujudga kelgan. Asoschisi Bahouullo. U insoniyat uchun yagona din, iqtisodiyot va davlat zarur, degan g'oyalarni ilgari suradi (shu bilan bobiylikdan farq qiladi). Bahouullo fikricha, mavjud dinlarni yo'qotishning hojati yo'q, ularni qandaydir bir nuqsonsiz ta'limot asosida birlashtirish lozim. Aslida hamma dinlar yaxshi, faqat ularni ortiqcha aqida va urf-odatlardan tozalash kerak. Muhimi - Xudoni sevish kerak, chunki muhabbat - taraqqiyotning sharti va koinot qonunidir. 1979 y.da Eronda islom inqilobidan so'ng bu ta'limotning o'nlab rahnamolari qatl etildi. Bahoiylar Osiyoning ba'zi mamlakatlarida ham bor. Bahoiylarning ko'pchiligi Yevropa va Amerikada, asosiy markazlari Germaniya, AQSh, Panamada, markaziy qarorgohi Xayfa (Isroil) shahrida. O'zbekistonda bahoiylarning ro'yxatdan o'tgan 3 ta jamoasi bor (1998). Ular Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridadir. O'z an'anaviy bayramlarini o'tkazadi, Xayfa sh.ga ziyoratga borib turadilar.

BAHOUDDIN MAJMUASI - shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira - ansambl (Buxoro viloyati, 16-a.). Mozor Abdulazizxon buyrug'i bilan tartibga solinib, hazira barpo etilgan va 1544-45 yillarda majmuaning eng katta binosi - xonaqoh qurilgan. B.m. daxmalar (Daxmai shohon va Bahouddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdulazizxon xonaqohidan iborat. Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan o'tgach, o'ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo'lganligi ma'lum. Yo'l davomida chapda xonlar mozori - Daxmai shohon joylashgan. Daxmai shohon to'g'ri to'rtburchak tarhli, bal. 2,5 m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda marmar o'ymakorligi, xattotlik san'atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv surati va b. bezaklar o'yilgan; naqshlar ba'zida yozuvlar bilan aralash uchraydi. Daxmai shohondan o'tgan yo'lak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi (peshtoqning ikki tabaqali eshigiga "bag'dodi" va "guli nav" ushida naqshlar o'yilgan). Peshtoqning eshigidan o'tilgach, o'ngda gumbazli maqbara bor (unga kim dafn qilinganligi noma'lum). Chapda -kiraverishda 6 ustunli (soddagina), oldi ayvonli Muzaffarxon masjidi joylashgan. Masjid yoniga 2 ustunli Hakim qo'shbegi masjidi tushgan (masjid mehrobida ajoyib mujassamotli namoyon bor). Uning jan.da naqshdor, shim.da naqshsiz ayvonlar bor. Bahouddin daxmasi marmar qoplangan kattagina murabba supa bo'lib, atrofi chiroyli marmar panjara bilan o'ralgan. Undan sal nari, shim.da - tomonlari 9,5 m keladigan aylana zinali marmar hovuz, uning shim. tomonida kichikroq, ko'rkam chortoq saqoxona bor. Bahouddin daxmasi bilan hovuz oralig'ida quduq, uning yonidagi chiroyli shiypondan qadimda ziyoratchilarga turli shaklli idishlarda "muqaddas" suv ulashilgan. Hakim qo'shbegi masjidining shim.da ko'rimsizgana bir minora, undan narida hovlidaga hovuzdan 3 baravar katta boshqa hovuz bor. Hovlining tashqarisi (shim.-g'arbi)da to'rtburchak supa ustida xonaqoh (eni 37 m, bo'yi 40 m li) qad ko'targan. Markazida atrofi peshtok, ravoqli ayvonlar bilan o'ralgan masjid, uning to'rvda chorzamin uslubda ishlangan qirma naqshli mehrob mavjud. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli katta-kichik hujralar bo'lgan. B.m.ga undan 0,5

km shim.-sharkda joylashgan "Qasri Orifon" masjidi ham kiradi; uning yonida pastakkina minorasi bor. Masjid 3 tarafdin ayvon bilan o'ralgan; shipi naqsh tushirilgan hovuzaklik. B.m. 16-a. me'morliganing yangacha ansambl tuzishda erishilgan yutuqlardan namuna bo'lib, qo'sh binoli simmetrik ansamblardan farq qiladi. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi (1993) munosabati bilan majmua qayta ta'mirlanib, qo'shimcha binolar bunyod etildi (2003).

BAHOUDDIN NAQSHBAND, Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (ko'proq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318-1389) - mashhur avliyo, naqshbandiylik. tariqatining asoschisi. Buxoro viloyati hoz. Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilib, shu yerda vafot etdi. Bu qishloq keyinchalik B.N. sharafiga Qasri orifon deb atalgan. B.N.ning oilasi va farzandlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Uning Muhammad payg'ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan. Otasi to'quvchi hamda o'yma naqsh soluvchi (naqshband) bo'lgan. B.N. hayotida bobosining alohida xizmati bor. U so'fiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg'otdi. B.N. Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, mavlono Orif, Xalil ota, Qusam Shayx kabi ustozlardan saboq oldi. B.N.ning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloklarda so'fiylik bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. Raribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati - dehqonchilik va keyinroq kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko'rgan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdulholiq G'ijduvoni g'oyalariga asoslangan. Ta'limotining asosida "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" ("Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin") degan shior yotadi. B.N. tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa, ish - mehnat bilan band bo'laversin. B.N.ning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l silkimay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi. B.N.ning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. B.N. va uning ta'limoti hamda naqshbandiy shayxlar to'g'risida talay asarlar yaratilgan. Birgina Uzbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik in-ti qo'lyozmalar xazinasining o'zida a naqshbandiylikka doir 195 kitob mavjud. B.N. tavalludining 675 yilligi (1993) O'zbekistonda keng nishonlandi. Unga bag'ishlab qator asarlar nashr etildi, xalqaro ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi. B.N. nomi bilan bog'liq yodgorliklar qayta tiklandi.

BAHOULLO (arab. - Alloh nuri, jilosi; asl ismi Mirzo Husayn Ali Nuri) (1817 - 1892) - bahoiylik asoschisi. Bobiylik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan. Mozandaronda tug'ilgan. Bobiylarning Eron shohiga uyushtirgan suiqasdi muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin B. Iroqqa qochgan (1852), bu yerda o'zini Bob ishini davom ettiruvchi va xudodan vahiy olgan mahdiy deb e'lon qilgan. 1858 yilda Bag'dodda chiqqan "Kitobi iymon" ("Ishonch kitobi") asarida Bob ta'limotiga bo'lgan munosabatini aks ettirgan. 1873 yilda Falastinda "Kitob al-akdas" ("Eng muqaddas kitob") asarini yozadi, unda bahoiylik ta'limotining asosiy g'oyalarini bayon etadi. Keyinchalik B. o'z ta'limotini davom ettirishni katta o'g'li Abbos afandiga (taxallusi Abdulbaho, 1920 y.v.e.) vasiyat qiladi. Uning avlodlari hamon o'z g'oyalarini targ'ib etmoqda.

BEDIL (taxallusi; asl ismi Mirzo Abdulqodir) (1644-1721) — shoir, mutafakkir. Ota-bobosi kesh(shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan. Yoshligidan turli fanlarga qiziqqan. Shayx Kamol, shoh Fozil va Mirza Abdulqosim kabi olimlardan ta'lim olgan. Hindiston bo'ylab ko'p sayohat qilgan, 1685 y.dan umrining oxirigacha Dexdida yashagan. Uning falsafiy-axloqiy qarashlari tasavvuf aqidalari ta'sirida shakllangan. B. dunyoqarashi tasavvufning vahdati vujud ta'limotiga asoslanadi, ya'ni olamni Allohning ko'zgusi, inson qalbini shu ko'zguning markazi, deb biladi. Inson qalbi qanchalik sayqal topsa, u shunchalik Alloh nurini aks ettiradi. B. 120 ming misradan ortiq she'riy, ko'pgana nasriy asar yozgan. Yirik asari "Chor unsur" ("To'rt unsur", 1703) nasrda yozilgan bo'lib, uning dastlabki boblarvda B. o'z hayoti haqida hikoya qiladi. So'nggi ikki bobda esa, to'rt unsur -havo, suv, yer, olov to'g'risida; o'simliklar, hayvonlar va odamning paydo bo'lishi, mutlaq ruh, ruh va narsalar, din hamda ruhoniylarning o'rni haqida fikr yuritadi. Kitobda parilar, jinlar, uyku, tush ko'rish va b. haqida hikoya va afsonalar ham mavjud. B. "Irfon" ("Bilim", 1711-12; "Komde va Mudan", "Nukot" asarlari ham shuning tarkibida) dostonida falsafa, tarix, tibbiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to'xtalgan. Borliq, yo'qlik, fano, baqo singari falsafiy masalalar haqida fikr bildirgan. U xind falsafasvdaga tanosux nazariyasi hamda islom falsafasvdagi tavakkul ta'limotini tanqid qiladi. B.ning ijtimoiy qarashlarida ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik mavzulari asosiy o'rinni egallaydi. B. asarlari 19-a.da O'rta Osiyoda keng tarqaldi. Ular falsafiy fikrga boyligidan B. Turkistonda "Abulma'oniyy" ("Ma'nolar otasi") degan nom olgan.

BEKTOSHIYLAR, bektoshiya- Turkiyada tarqalgan tasavvuf tariqati. Kichik Osiyoda 13-a. oxiri - 14-a. boshida mahalliy turk ko'chmanchi va o'troq aholisi orasida paydo bo'lgan. Tariqatning nomi Hoji Bektosh Rumiyan boshlanadi.

B. tariqatining haqiqiy asoschisi va'zxon va qalandar Hoji Bektosh Vali Nishopuri Xurosoniy (1208 - 1270) hisoblanadi. Uning silsilasi esa, turkistonlik shayx Ahmad Yassaviyga, undan esa, shia imomi Muso al-Kozimga taqaladi. B. a'zolari shialardek hazrati Ali va 12 imomga, ayniqsa, 6-imom Ja'far as-Sodiqqa e'tiqod qiladilar. Hoji Bektosh Kichik Osiyoda tez shuhrat qozongan. Bu tariqat ko'proq qishloq aholisi orasida qo'llab-quvvatlangan. Vaqti kelib B. keng tarmoq yoygan tashkilotga aylangan, o'zining belgisi va maxsus kiyimiga ega bo'lgan. B. tariqatining qat'iy uyushgan jamoaga aylanishida "Ulug' pir" Balim Sultonning (1516 y. v.e.) ta'siri katta. Ilmiy adabiyotda uni "Ikkinchi pir" ("Piri soniy") deb atashadi. Balim Sulton o'zini Hoji Bektosh Rumiyaning avlodi, deb e'lon qilgan va tariqat tuzilishiga aloqador bir qator islohotlarni amalga oshirgan. B. ayni Balim Sulton zamonida keng tarqalib, yanicharlar (Turkiyadagi imtiyozli piyoda askarlar) orasida yoyilgan, ular orqali davlat ishlariga o'z ta'sirini kuchaytirgan. 1826 y.da Sulton Mahmud 11 yanicharlar korpusini tugatgach, B. faoliyati taqiqlandi. Uning yirik rahnamolari qatl etildi. B. tarafdorlari esa, Bolqonga va Albaniyaga tarqalib ketdi. Lekin hozir ham B. tarafdorlarini Turkiya va Iroqda uchratish mumkin. B. turk xalqi diniy dunyoqarashining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning madaniyati, musiqasi va ayniqsa adabiyotining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shgan.

BERUNIY Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973-1048) - o'rta asrning buyuk qomusiy olimi, mutafakkiri. Xorazmning qad. poytaxti Kot (Kat) sh.da tugaldi. Yoshligidanoq ilm-fanga qiziqdi. B. o'z ona tilidan tashqari arab, so'gd, fors, suryoniy,

yunon va qad. yahudiy gillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi. Tarix, matematika, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geofafiya va b. fanlarni chuqur o'rgandi va bu ilmlarga oid 150 dan ortiq asar yozdi. B. Allohni birinchi yaratuvchi sifatida e'tirof etdi, lekin olam keyin tabiiy ravishda rivojlanadi, deb hisobladi. B. xudoga, uning payg'ambariga bag'ishlab madhlar aytgan. U koinotda Yerdan, bizning hayotimizdan tashqari yana boshqa dunyolar mavjudligi haqida fikr yuritgan. Uning mashhur "Mas'ud qonuni" kitobi astronomiya va matematika bo'yicha ungacha yozilgan barcha kitoblarning eng mukammalidir. Qizig'i shundaki, ushbu kitobda bayon etilgan ta'limotlarning ko'pchiligini B. Qur'on oyatlari bilan solishtirgan. Shuning uchun ham uning "Hindiston", "Mas'ud qonuni" asarlari o'tmishdaga barcha dinlar va islom uchun ham katta ahamiyatga egadir. Keyinchalik "Mas'ud qonuni"da bayon etilgan kashfiyotlardan Ulug'bek rasadxonasida unumli foydalanilgan. Ulug'bek kutubxonasida bu asarning bir necha nusxasi mavjud bo'lgan. B. mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog'liq, inson bilimli va ma'rifatli bo'lgandagina baxtli bo'la oladi, deb bildi. Zero, islom dini ham ilm olishga da'vat etadi. B. "Qadimgi xalqdardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida o'sha davrdagi va undan oldingi davrdagi ko'p dinlar (mas., hind e'tiqodlari, zardushtiylilik va b.)ga xos urf-odatlar, marosimlar, taqvimlar qaqida boy ma'lumotlar qoldirgan. Uning dunyoqarashiga xos xususiyatlardan biri - diniy e'tiqodlarga xolisona qarashi, g'ayri dinlarga beg'araz munosabatda bo'lishidir. U ma'rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlariga, adolatsizlikka qarshi edi. B. asarlari rus, lotin, frantsuz, italyan, nemis, fors, ingliz, turk tillariga tarjima qilingan. Uning ijodi musulmon Sharqi madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

BEHBUDIY Mahmudxo'ja (1875-1919) -ma'rifatparvar, muftiy, Turkistonda jadidchilik harakati asoschilaridan biri. Samarqand sh.da imom-xatib oilasida tug'ilgan. Qorilar maktabini tugatgan. Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgach, qishloq joylardagi qozilar va muftiyarga mirzalik qilgan. 1899-1900 y.larda haj safarida bo'lgan. 1906 y. Nijniy Novgorodda o'tkazilgan Butun Rossiya musulmonlarining 3-qurultoyida Turkiston delegatsiyasini boshqargan va ma'ruza qilgan. B. o'sha paytda Turkistonda g'oyalari tarqala boshlagan sotsial-demokratik partiya dasturiga keskin qarshi chiqqan. "Biz musulmonlar uchun bu partiya kirish katta ziyon keltiradi. Sotsial-demokratlarning dasturi shariatga xilofdir" ("Taraqqiy" gazetasi, 1906 y. 29-son). B. adabiy-ilmiy, noshirlik faoliyati bilan shug'ullangan. Uning yangi usuldagi maktablar uchun yozgan "Amaliyoti islom" (1908), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi") (1909) darsliklarini alohida ko'rsatish mumkin. B. o'z davrining yirik islom ulamosi bo'lib, fiqhga oid kitoblar ustida tinimsiz ishlagani bois unga muftiy unvoni berilgan. B. umrining oxirigacha Jomboyda muftiylik qilgan. Hamisha bid'atga qarshi kurashib, dinni to'g'ri tushunish va targ'ib qilishga da'vat etgan. Uning umuman tarix, xususan, islom tarixi haqidagi asarlari diqqatga sazovordir. B. 1917 y. oktyabr to'ntarishini zo'ravonlik deb bilib, moddiyunchilik va xudosizlikni shior qilib olgan sho'rolar tuzumini qoralagan. Shu bois sho'ro ayg'oqchilari chaquvi bilan Shahrisabzda hibsga olinib, 1919 y. qatl qilingan. B.ning "Tanlangan asarlar" kitobi mustaqillik yillarida 2 marta (T., 1997; 1999) nashr etilgan.

BIBI MARYAM - q. Maryam.

BIBI MUSHKULKUSHOD (fors. - mushkulni oson qiladigan ayol) - diniy tasavvurlarga ko'ra kishini qiyinchiliklardan xalos etadigan avliyo ayol obrazi. B.M. haqidagi rivoyatlardan birida o'tin yig'ib yurgan chol o'rog'ini yo'qotib qo'yadi va uni qidirib B.M. yashaydigan g'orga kirib qoladi. B.M. cholga agar u xar haftaning chorshanbasida unga atab ziyofat o'tkazsa, o'rog'i topilishini va hozirgisidan ko'proq o'tin yig'ishi mumkinligani aytadi. Chol bu talabni bajaradi va ishi yurishib ketadi. Chol ehtiyotsizlik qilib bir safar chorshanbani o'tkazib yuboradi va yana og'ir ahvolga tushib qoladi. Xatosini tuzatgach, yana ishi yaxshilanib ketadi. Rivoyatning musulmonlashtirilgan ko'rinishida B.M. so'fiylik tariqatlaridan biriga asos solgan Bahovuddin Naqshbandiyning xolasi sifatida talqin qilinadi. Asosan, dindor ayollar orasida kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan irim-sirimlar B.M. rivoyatiga borib taqaladi.

BIBI SESHANBA, Seshanba ona-diniy-xurofiy tasavvurlarga ko'ra ayollar sig'inadigan avliyo, afsonaviy shaxs (ona); charx yigiruvchi ayollarning homiysi, oila baxtining himoyachisi. Qad. diniy e'tiqodlarning islomga moslashib saqlanib qolgan ko'rinishlaridan biri. Dindor ayollar B.S.ga sig'inib, seshanba kunlari uning sharafiga ziyofat beradilar. Soddadil ayollar B.S.dan, muruvvat, madad tilaydilar, "mushqullarini oson qilish"ni iltijo qiladilar. B.S.ga sig'inish, unga atab marosimlar o'tkazish hoz. vaqtda juda kam uchraydi va shirk amallardan sanaladi.

BIBLIYA (yun. Vibia - kitoblar) - yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmuasi. B. ikki asosiy qism - Qadimgi ahd va Yangi ahdga bo'linadi. "Ahd" so'zi Xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini ifodalaydi. Qad. ahd yahudiylikda ham, xristianlikda ham muqaddas sanaladigan va eng qad. davrlarda yaratilgan diniy adabiyotlardan, Yangi ahd esa, faqat xristianlar muqaddas deb biladigan, ular dini shakllanishiga aloqador diniy asarlardan iborat. Mazkur dinlarning aqidalariga binoan, B. - Xudoning kalomi, barcha insonlarga yo'llagan, dunyo va odamzodning paydo bo'lishi va "oxirat" sirini ochib beruvchi muqaddas kitobidir. Uning asosiy mavzusi - yagona haq Xudoning fazilatlari va insoniyat bilan munosabati haqidadir. B. mil. av. 8-a. va mil. 2-a.lar oralig'ida oromiy hamda yunon tillarida yozilgan. B. matnlari tadqiq etilganda shu narsa tasdiqlandiki, ular qariyb ming yil davomida xilma-xil joylarda yaratilgan. B. eng qad. adabiy yodgorliklardan biri bo'lib, diniy pand-nasihatlari, aqidalar, bashoratlar, duolar, solnomalar, masallar, ishqiy va falsafiy dostonlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. B.da, bir yoqdan, odamzodning gunohkor bo'lib, Xudo tomonidan rad etilishi, abadiy halokatga mahkum qilinishi to'g'risida gap ketsa, ikkinchi yokdan, Xudo insonni qutqarish uchun qanday rejalar tuzgani haqida hikoya qilinadi. Ayniqsa, odamlarga najot yo'lini ochgan Iso Masih (as) to'g'risida to'laqonli xabar beriladi.

Jami qad. yahud tilida 66, lotin tilida 70 kitob (bo'lim)ni o'z ichiga olgan B. 13-a.da kardinal Stefan Lengton tomonidan hoz. ko'rinishga keltirilgan, kitoblarni she'rlarga bo'lish va raqamlashtirishni parijlik matbaachi Rober Stefan (16-a.) amalga oshirgan. B. - dunyodagi 1-bosma kitob (1452-55) bo'lib, jahon bo'yicha keng tarqalgan, asrlar mobaynida ko'pgina xalqlarning axloqi, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, musiqa va rangtasvir san'atiga barakali ta'sir ko'rsatgan. B.ning ayrim qismlari 1891, 1913 ylarda Leyptsig sh.da arab imlosida, 1981, 1983, 1986, 1996 ylarda B.ni tarjima qilish in-ti (Stokgolm) tomonidan kirill yozuvida o'zbek tilida chop etilgan.

BID'AT (arab. - yangilik kiritmoq, yangitdan yaratmoq) - noma'qul yangilik; din aqidalariga xilof yangilik. Qur'on va Sunnatga xilof ravishda paydo bo'lgan har bir narsa B.dir. Dastlab xalifa Usmondan norozi odamlar, asosan, shialar va xorijiyilar uni Muhammad (sav) so'zlari va amallariga zid yangiliklar kiritganlikda, B.da ayblaganlar. Keyinroq islom dunyosida diniy-g'oyaviy ixtiloflar va bahslar avj olgan paytda B. tushunchasi "noto'g'ri yoki xato tasavvur", "yanglish fikr" degan ma'nolarni kasb etdi. B.ga nimani kiritishning aniq chegarasi bo'lmagan. Faqixdar B.ni bir necha turga bo'ladilar: 1) Harom B. - qadariylar, jabariylar, murji'iyalar va xorijiyalar mazhablarining qilgan B.lari; 2) Mandub B. - madrasalar tashkil etish, tarovih namozini jamoat bilan o'kish; 3) Makruh B. - masjidlarni bezashga o'xshash ishlar; 4) Muboh B. - namozdan keyin qo'l olishib ko'rishish, taom va libosda kengchilikka yo'l qo'yish; 5) Vojib B. - kerakli ilmlarni o'rganishga o'xshash ishlar. Ba'zi ulamolarning fikricha B. asosan, uch turli bo'ladi: 1. Kofirlikka olib boradigan B. Mas., o'liklardan, g'oyib kimsalardan yordam so'rash. 2. Harom bo'lgan B. Mas., duoda o'liklarni vosita qilish. 3. Makruh bo'lgan B. Mas., juma namozidan keyin ehtiyot yuzasidan peshin namozini o'qish. Muayyan amal bir fiqhiy mazhab vakillari tomonidan "nojoyiz yangilik", ya'ni islom ahkomlariga xilof ish deb baholansa, boshqa mazhab tarafdorlari uni Qur'on va sunnatga muvofiq keladigan "haq yo'l" deb bilganlar. Bu xildagi bahslar hamon uchrab turadi. Aytaylik, Imom A'zam mazhabiga ko'ra, ota-bobolar mozorlarini ziyorat qilish, olamdan o'tgan ajdodlar ruhi poklariga duoi fotiha savob ish sanaladi va shunga rioya qilib kelinadi. Ammo hanbaliylik mazhabining vahhobiylik oqimi vakillari bularni B. deb hisoblaydilar. Shundan foydalanib odamlarni yo'ldan urmoqchi, jamiyatda beqarorlik vujudga keltirmoqchi bo'ladilar. B. bema'ni gap, safsata ma'nolarini ham anglatgan. Adabiyotda B. - xurofot, uydirma ma'nolarida keng ishlatiladi.

BILOL, to'liq ismi Abu Abdullo Bilol ibn Raboh al-Habashiy (? - 641) - islom tarixvdagi birinchi muazzin. Baland, shirali, ta'sirli ovozga ega bo'lgan. Asli habashistonlik, Makkada islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan qullardan. Xojasi Umayya ibn Halaf islomdan voz kechishni talab etib, B.ga toqat qilib bo'lmas azoblarni bergan. Abu Bakr Siddi (ra) B.ni Umayyadan sotib olib, ozodlikka chiqargan. Payg'ambar (sav) bilan Madinaga hijrat qilgan. 622 y. Madinada ommaviy azon aytish joriy etilganda u birinchi bo'lib baland ovozi bilan musulmonlarni namozga chorlagan va bir necha yil davomida Muhammad (sav)ga muazzinlik qilgan. Payg'ambar (sav) vafotidan so'ng Shomda yashagan va hazrat Husayn iltimosiga ko'ra Madinaga kelganida bir bor bomdrd namozi azonini aytgan, degan rivoyat bor. Qabri Damashq sh.da.

BILQIS - musulmonchilik rivoyatlarida va Qur'onda tilga olingan Sabo yurtining podshohi (malikasi). Injilda Savro podshosi sifatida tilga olinadi. Qur'onda Sulaymon payg'ambarning ulug'vorligini ta'riflovchi hikoyalardan birida keltirilishicha, hudhud qushi podshoga Sabo mamlakatiga borgani va u yerda "hamma narsa ato etilgan" xotin hukmronlik qilayotgani, ammo butun xalqi bilan shaytonga aldanib, Allohga emas, Quyoshga sig'inayotganini aytadi. Sulaymon shu qush orqali malikaga maktub yo'llab, unga bo'ysunishni buyuradi. B. o'z yaqinlari bilan maslahatlashib, Sulaymonga katta hadyalar yuboradi. Ammo Sulaymon malikaning elchilari oldida bu hadyalardan jirkanishini aytib, Sabo yurtiga qo'shin tortishini e'lon qiladi. So'ngra, matnda aytilishicha, malika Sulaymon huzuriga o'zi keladi. Sulaymon xizmatida bo'lgan sehrargar va jinlar ko'z ochib-yumguncha, malikaning taxtini uning oldiga olib kelishadi. Malikani

saroyga kiritishganida, saroy sathini "suv to'liqlari sifatida ko'radi va oyoklarini to'pig'igacha ochadi". Saroyning qadam bosiladigan qismi shaffof billurlardan iboratligini ko'radi. Alloh hamma ishda yorlaqagan Sulaymonning bunday ulug'vorligi dalillariga shohid bo'lgan malika, o'zining gumrohligini tan oladi va Allohga imon keltiradi (Qur'on, "Naml" surasi, 22-45-oyatlar).

BISMILLOH, Bismillohir Rahmonir Rahim (arab. - "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan") - islomda ko'p tilga olinadigan, har bir niyat, ibodat va amaliy harakat oldidan aytiladigan oyat. B. Qur'onda 114 suradan 113 tasining boshlanishida ishlatilgan (faqat 9-surada yo'q). Bu oyat xudo bandalariga rahmli (rahim), mehribon (rahmon), musulmonning har bir harakati Alloh nomi bilan boshlanishi lozimligini bildiradi. Payg'ambar (sav) o'z hadislaridan birida: "E'tiborli har bir ish "Bismilloh" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir" deganlar. Ya'ni uning barakasi bo'lmaydi, oxiriga yetmaydi, deganidir. Qur'on tilovatida B. oldidan "A'uzu billohi minashshaytonir rajim" ("Shaytonning yomonligidan Allohdan panoh tilayman") ham qo'shib aytiladi. Buni har qanday ish va xatti-harakat oldidan shaytonni haydash va uning vasvasasidan xoli bo'lish mazmunida ham talqin etadilar. B. maktublar, rasmiy hujjatlar, diniy asarlar boshida ham yoziladi. Diniy manbalarda "basmala" nomi bilan ham yuritiladi.

BISTOMIY, Boyazid Tayfur ibn Iso Bistomiy (? - 875) - fors tasavvuf oqimining asoschilaridan biri. Tayfuriya so'fiylik tariqatining piri. Uning bobosi islomni qabul qilgan zardushtiylardan bo'lgan, butun umrini, asosan, Bistomda o'tkazgan. Vafotidan keyin uni "Sulton al-orifin" laqabi bilan atay boshladilar. B. ta'limotiga ko'ra, inson zikr holatida o'zligini unutadi (g'alaba) va xudo ishqidan mast bo'lib (sukr) butun vujudini his-tuyg'u qamrab oladi, pirovardida u xudoga singib ketadi. Bunday holatni u fano (mavjudlikni yo'qotish) deb atadi va musulmon tarki dunyochiligining muhim ahamiyatli holati bo'lgan "sen mendirsan, men esa sendirman" iborasining ta'rifini berdi. Buning ma'nosi shuki, go'yo shaxs o'zligini tark etib, ilohiylikka singib ketadi va uning sifatlarini qabul qiladi. Bunday xulosa an'anaviy islom tarafdorlarining ashaddiy qarshiligiga uchradi va B.ni "xulul" (xudolik da'vosini qilish)da aybladilar. B. tasavvufning ayrim tushunchalarini ishlab chiqqan bo'lsa ham, o'zining bir butun ilohiy tizimdagi ta'limotini yaratmadi. U nazariyada ilohiy (lohut) va insoniy (nosut) ruhni bir-biriga biriktirishga harakat qildi, ya'ni ma'naviy va moddiy ibtidoni bir-biriga qo'shishga intildi. B. o'zidan asar qoldirmagan. Uning ibratli gaplari, nasihatlarini mulozimlari yozib olishgan. Ayrim tasavvuf kishilari B. obro'yidan foydalanib o'zlarining shariatga unchalik to'g'ri kelmaydigan fikrlarini ham B. fikri deb ko'rsatishga uringan. BOB (taxallusi; asl ismi Sayid Ali Muhammad Sheroziy) (1819 - 1850) - bobiylar asoschisi, bobiylar qo'zg'oloni rahbari. Sayid Ali Muhammad 1844 y.da o'zini B. (arab tilidagi "eshik", "darvoza" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "haqiqat va adolat yo'liga olib boruvchi eshik" degan ma'noda talqin qilingan) deb atadi. Mahdiyning xohish-irodasi, yo'l-yo'riqlari xalqqa "men orqali boradi", deb e'lon qildi. U xaloskor -Mahdiyning kelishi yaqinlashganligi g'oyasini targ'ib qildi. B. "Bayon" kitobida o'zini Muhammad (sav) o'rniga kelgan payg'ambar, o'z kitobini esa, Qur'on va shariat asosining o'rnini olishi kerak, deb e'lon qilgan. B. 1847 y.da qamoqqa olindi, u yerda "Bayon" (arabcha - tushuntirish, yoritib berish, ta'riflash) asarini yozdi. "Bayon"da bobiylar harakatining asoslari yoritilgan. B. bobiylar qo'zg'oloni vaqtida Eron shohi farmoni bilan qatl etilgan.

BOBIYLIK - 19-a.ning 40-50-y.larida Eronda shialik ichida vujudga kelgan diniy harakat. Asoschisi - Mirzo Ali Muhammad Sheroziy Bob laqabi bilan tanilgan (1849 y.v.e.) bo'lib, vafotidan keyin Bahoullo laqabli Mirzo Husayn Ali harakatga rahbarlik qilgan. Shundan keyinroq bu harakat bahoiylik deb nomlandi. Bobiylar (bahoiylar) akddasini quyidagilar tashkil qiladi: ular e'tiqod qilishlaricha, Bob butun borliqni yaratgan. Tanosux (ruhning bir jismdan boshqasiga ko'chib yurishi) B. aqidasi asosini tashkil qiladi. 19-raqamni muqaddas bilib oylarni va oylardagi kunlarni 19 tadan deb bo'lgan. Shuningdek, B. aqidasida Buddha, Konfutsiy, Brahma va Zardushtni payg'ambar deb e'tiqod qilish buyuriladi. Iso Masihni xochga mixlangan deb ishonadilar. Jannat, do'zax, farishtalar, jinlarni va payg'ambarlar mo'jizasini inkor qiladilar. Ayollar satri avratda hijob bilan yurishini harom deydilar. Boylar, shoh zulmiga qarshi qaratilgan yirik xalq qo'zg'olonlari B. bayrog'i ostida ko'tarilgan. Bobiylar shaxsni himoya qilish, kambag'allardan olinadigan soliklarni bekor qilish, yirik yer egalari xususiy mulkini tugatish, barcha mol-mulkni teng taqsimlashni talab qildilar. Mavjud din va davlat tizimini ag'darib tashlashni targ'ib etdi. Bobiylar ta'qib etildi, ularning qo'zg'olonlari shafqatsiz bostirildi. Kutulib qolganlari yashirindi yoki mamlakatni tark etishdi. B. tarafdorlari Eronda, oz mikdorda Iroq, Suriya va Isroilda mavjud.

BOBO DEHQON - 1) Markaziy Osiyo xalqlarining mifologiyasida dehqonchilik homiysi. Islomdan oldin vujudga kelgan timsol. Miflarda B.D. odamlar uchun turli narsalar - olov, o'simliklar, mehnat qurollarini topib beradigan yoki dastlab ularni yaratgan, ularga ov qilish, hunar va san'atni o'rgatadigan, ular orasida ijtimoiy tartib, nikoh qoidalari, sehrgarlik, urf-odat va bayramlarni joriy etadigan afsonaviy shaxs, baquvvat keksa dehqon sifatida talqin etilgan. Afsonalarda aytilishicha, B.D. birinchi bo'lib omoch va sug'orish arikdarini ixtiro qilgan. Markaziy Osiyoda islomning tarqalishi natijasida B.D. obrazi uning manfaatlariga moslashtirilgan, ba'zan B.D.ni Odamato va Xizr obrazlari bilan aynanlashtirilgan. Yer haydash, ekin ekish, hosilni yig'ib olish va shunga o'xshash dehqonchilik ishlari B.D. nomi bilan boshlangan. Hosilni yig'ib olish munosabati bilan B.D.ga atab maxsus xirmon to'yi o'tkazilgan, har xil taomlar tayyorlangan, ularda mullalar, qorilar B.D. sharafiga duolar o'qigan. O'zbek va tojiklarda yer xaydashni va ekishni birinchi boshlab bergan dehqon B.D.ning timsoli deb qaralgan; 2) dehqonchilik ishida katta tajribaga ega bo'lgan odam, obro'li dehqon.

BOYKANDIY, Ahmad ibn Ali as-Sulaymoniy al-Boykandiy (923-1014) -muhaddis. Poykend (Boykend) sh.da tug'ilgan. Iroq, Suriya va Misr shaharlari bo'ylab ko'p syohatlar qilgan va ko'plab hadislar to'plagan. Vataniga qaytib kelgach, har haftada bittadan hadis to'plami yozib, juma kunlari uni Buxoroga olib borgan va shahar jome masjidida uni juma namoziga kelgan xalq o'rtasida o'qib bergan. B. jami 400 dan ortiq katta va kichik asarlar yozgan.

BOMDOD (fors.), salotal-fajr, salot as-subh - besh mahal o'qiladigan namozning biri. 2 rakaat sunnat, 2 rakaat farz o'qiladi. B. namozi tong yorishgani(subh)dan boshlab to kun chiqqunga qadar ado etiladi (yana q. Namoz).

BOTINIYLAR (arab. botin - ichkari, yashirin, sirli) - 1) islomdagi mafkuraviy oqimlardan birining tarafdorlari. 8-a.da vujudga kelgan. Bu oqim tarafdorlari Qur'on oyatlari va hadislarni zohiriy va lug'aviy talqin etishga qarshi chiqqan. Ularning iddaolaricha, oyat va hadislarning zohiriy ma'nolarini emas, balki yashirin mazmunlarini olish zarur. Bu aqida bilan ular islom shariatiga qarshi chiqqan bo'ldilar. Zero, shariat hukmi bo'yicha oyat, hadis va b. Zarcha manbalarning iboralari, u qaysi tilda bo'lmasin, zohiriy, lug'aviy va istilohiy ma'nolariga asoslangan holda talqin etiladi. Ba'zi fasohat, kinoya, tanbeh, istiora, ishora kabi so'z o'yinlari, "mutashobih" oyatlar va tasavvufiy talqinlar bundan mustasnodir. Islomning "Ahli sunna val jamoa" aqidasi binoan, B. shariatga xilof e'tiqodda bo'lgani uchun dinsizlar qatorida sanalgan. 2) Tasavvufda zohirdan ko'ra botin islohiga ko'proq e'tiborni qaratuvchi kishilar (yana q. Zohiriylar).

BOQILLONIY, Abu Bakr Muhammad at-Tayyib al-Boqilloni (? - 1013) -kalomning yirik vakili, Basrada tug'ilgan. Asosan, Bag'dodda yashab, shu yerda vafot etgan. Fiqh masalalarida molikiylik mazhabiga suyangan. B. 52 asar yozgan bo'lib, bizgacha 6 tasi yetib kelgan. Ilohiy sifatlar va ilohiy mohiyat haqidagi mu'taziliylar oqimiga mansub Abu Hoshim al-Jubboiy ishlab chiqqan g'oyaga qo'shildi. Bir necha mu'taziliylarning bu masalaga doir g'oyalarini rivojlantirib, Xudoning sifatlari haqida fikr yuritdi. Iroda erkinligi muammosini ham B. yuqoridagi fikrga muvofiq ravishda hal qildi: Xudo faqat "borliq" va "asos"ni yaratgani, inson esa, borliqni shakllantirib, amaliyotni muayyan yo'singa solishini uqtirdi. U imomat masalasida shialar va rofiziylar bilan bahsga kirishib, imom yoki xalifa lavozimi merosiy emas, balki ular saylanishi zarur, deb hisobladi. Ammo bu lavozimga saylanadigan kishi Alining avlodlaridan bo'lishi shart bo'lmasa ham, qurayshiylardan bo'lishi lozim. Agar imom o'ziga topshirilgan vazifani uddalay olmasa vazifasidan tushirish zarur.

BUVAYHIYLAR - G'arbiy Eron va Iroqtsa hukmronlik qilgan sulola (932-1055). Asoschilari - aka-uka Ahmad, Hasan va Ali. Ularning otasi Buvayh (sulola nomi shuning ismidan olingan) Eron podshohi Bahrom Go'r naslidan bo'lib, Daylam (Gilon viloyatining tog'lik qismi)dan jangari qavmlar sardori edi. Shu boisdan mazkur sulola vakillari "daylamiylar" deb ham atalgan. Buvayh 930 y. somoniylardan ajrab chiqib, ziyoriylarga qo'shilgan. Ziyoriylar hukmdori Mardovij (928-935) Buvayhning o'g'illaridan Alini Karaj sh.ga voliy, Ahmad va Hasanni esa, yirik harbiy qismlarga boshliq qilib tayinlagan. So'ng, B. 932-945 y.larda Arrajon, Nubinjon, Isfahon, Hamadon, Ray, Kirmon, Ahvoz, Sheroz sh.larini bosib olganlar. Shunda Bag'dod xalifasi Al-Mustakfiy Billoh (Abdulloh) (944-946) aka-uka B.ni o'zlari istilo qilgan viloyatlarga noib etib tayinlashga majbur bo'lib, Aliga "Imoduddavla" ("Davlat tayanchi"), Hasanga "Ruknuddavla" ("Davlat ustuni") va Ahmadga "Mu'izzuddavla" ("Davlat qudrati") degan faxriy unvon bergan. Keyin, B. 945 y. Bag'dodni ham bosib olib, abbosiylar xalifaligining siyosiy mavjudligiga chek qo'yganlarda, amalda davlatni o'zlari boshqara boshlaganlar. 10-a.ning 2-yarmida B. qad. Eron hukmdorlarining "shahanshoh" degan unvonini qabul qilganlar. B.ning eng mashhur vakili - Adududdavla (949-983) mamlakatdagi barcha uluslarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Uning davrida sug'orish tarmoqlari kengaytirilgan, Sheroz, Bag'dod va b. sh.larda katta qurilish ishlari olib borilgan, iqto' yerlari ko'paytirilgan, ilm-fan va san'at birmuncha taraqqiy etgan. Adududdavla vafotidan so'ng mamlakatda boshlagan taxt uchun kurash oqibatida B. zaiflashib qolib, mamlakat yerlarining sharqiy qismi

Mahmud G'aznaviy tomonidan ishg'ol etilgan (1029 y.). Saljuqiylarning 1055 y. qilgan bosqini esa, B. sulolasi hukmronligini butunlay tugatgan.

BUDDIZM (Budda nomidan olingan), B u d d a v i y l i k - jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom dini bilan birga). Mil. av. 6-5-a.larda Hindistonda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo, Jan.-sharqiy Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hoz. kunda B. Shri-Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vetnam, Tibet, Butan va Yaponiya kabi davlatlarning asosiy dinidir. B. muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada, deyarli butun Osiyo xalqlari, ya'ni jahonning salkam 2/3 qismi aholisi ma'naviy qadriyatlariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Rivoyatlarga ko'ra, B. ga Siddhartha Gautama (Budda) asos solgan. B. da 2 asosiy yo'nalish mavjud: xinayana va maxayana. Keyingisi juda ko'p sekta va oqimlarga bo'linadi. Boshqa dinlardan farkli ravishda B.da hech bir o'zgarimas narsa yo'q hatto xudo ham o'zgaruvchan, deb uqtiriladi. Faqat on yoki lahzalar silsilasi mavjud bo'lib, ularning har biri yo'qolib, keyingisiga o'rin beradi. B. ta'limotiga ko'ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o'zi sabab bo'ladi. Zero u, garchand befoyda bo'lsa-da, o'z hayoti va farovon turmushini saqlab qolishga harakat qiladi. Azob-uqubattan qutulish uchun ko'ngil xush ko'rgan barcha narsalardan o'zini tiyishi darkor. Muntazam ravishda yolg'ondan, o'g'rilikdan, boshqaga zarar yetkazishdan, zinodan o'zini tiyish hamda meditatsiya (ongai oliy haqiqatga yetishishga qaratish) "bodxi", ya'ni "xotirjamlik"ka va oxir-oqibatda nirvanaga (azob-uqubatning tugashiga) olib keladi. Nirvanaga yetishish uchun talab qilinadigan axloqiy barkamollik bir emas, bir necha hayotni taqozo etishi mumkin. B. zaminida 3 narsa - Budda, Dxarma va Sangxaga e'tiqod yotadi. Budda (Siddhartha Gautama) oliy haqiqatga yetishishning yorqin timsoli. Dxarma - Gautama qoldirgan ta'limot. Bu ta'limotning eng qisqa bayoni "to'rt oliy haqiqat"dan iborat: 1) azob-uqubat mavjud; 2) azob-uqubatning sababi (istak) mavjud; 3) azob-uqubatning tugashi (nirvana) mavjud; 4) azob-uqubatning tugashiga olib keluvchi sakkiz bosqichli yo'l mavjud. Sangxa - Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi. Tor ma'noda bu - o'tgan asrlarda "oliy haqiqat"ga yetishgan ko'plab avliyolardir. Sangxa jamoasiga qabul etilgan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi: 1) hech kim yoki hech narsani hayotdan judo qilmaslik; 2) yolg'on so'zlamaslik; 3) o'g'rilik qilmaslik; 4) jinsiy aloqaga kirmaslik; 5) mast qiluvchi ichimlik ichmaslik; 6) kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqat tanovul qilmaslik; 7) uch kiyimdan ortiq hech narsa bilan tanani bezamaslik; 8) ommaviy ko'ngil-xushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida qatnashmaslik; 9) baland va yumshoq o'rinda yotmaslik; 10) pul ishlatmaslik. Rohiblar jamoasi asosan txeravada B.ga xosdir. Maxayanada "haqiqat yo'li" har kim uchun ochiq: rohiblarga ham, dunyoviy kishilar (ya'ni oddiy qavm)ga ham; Buddaga e'tiqod qilinsa, bas. Kenfoq qaraganda, Sangxa -muqaddaslik va qudrat xazinasini. Qisqasi, B. - Buddaga ergashib, Dxarma talablarini bajarish va Sangxa jamoasining a'zosi bo'lib qolishdir.

B. tarixi 2500 y.dan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Unga dastlab braxmanizm va jaynizmning ta'siri kuchli bo'lgan. Imperator Ashoka (mil. av. 3-a.) davrida B. kuchli mustaqil din sifatida shakllandi. 9-a. muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan B. Hindistonda inqirozga yuz tuta boshladi va pirovardida bu yerda uning o'rnini hinduizm to'liq egalladi. Ammo B. Shri-Lanka, Jan.-sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyo orqali Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetga yoyilib ulgurgan edi. Shri-Lanka va Jan.-sharqiy Osiyoning materik qismida txeravada B. (qad. an'analarga sodiqlik), Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetda esa, maxayana (yangicha yondashuvlar) tarqaldi. 15-a.da Osiyo qit'asida paydo bo'lgan

yevropaliklar B. bilan tanishdilar. Ularning baʼzilari B.ga kimgach, Angliya, Germaniya, AQShda oʻz jamoalarini tashkil etdilar. Xitoylik va yaponiyalik muhojirlar bu eʼtiqodni Gavayya orollari va AQShning gʻarbiy sohillariga olib keldilar. Hoz. paytda AQShga koʻplab yapon va tibet rohiblari hamda olimlarining kirib kelishi natijasida mamlakat boʻylab yirik B. jamoalari tashkil topdi. B. ning bir necha xalqaro tashkilotlari ham mavjud.

B.da kundalik, davriy, maxsus va bayram marosimlari ado etiladi. Monastir, butxona va xonadonlarda ertalabki va kechki ibodatlar uyushtiriladi. Odatda 12—13 yoshli oʻspirin 20 yoshgacha, yaʼni balogʻatga yetgunga qadar monastirda rohiblikni oʻtaydi, lekin taxm. ularning uchdan bir qismi umrbod shu maqomda qoladi. Oddiy qavm yoki dunyoviy kishilarning eng asosiy kundalik vazifasi - rohiblarni ovqat bilan taʼminlashdir. Bu bilan ular xayrli xizmat qilgan boʻladilar. 20-a.da jahon boʻylab dunyoviy kishilarni ushbu dinga jalb etish odat tusiga kirdi. Hatto Hindistonning oʻzida ham B. dunyoviy shaqida qayta tiklanmoqda. Yaponiyada dunyoviy kishilar "sinsyuko" (yangi dinlar) deb atalgan oqimlarni (Rossiyada katta shov-shuvga sabab boʻlgan "Aum sinrikyo" shulardan) tashkil etmoqdalar. Amerikadagi "yangi buddizm" jamoalari, asosan, dunyoviy kishilardan tarkib topgan.

Oʻzbekistonda bitta B. jamoasi rasmiy ravishda faoliyat koʻrsatadi.

BURAYDA ibn al-HUSAYB, toʻliq ismi Abu Saxl Burayda ibn al-Husayb ibn Abdullo al-Aslamiy (? - 684) - sahoba. Muhammad (sav) Madinaga hijrat qilib ketayotib, toʻxtagan vaqtlarida u va uning qishlogʻi aholisi (taxm. 80 xonadon) islomga kirgan. Uhud jangdan soʻng Burayda Madinaga kelib, koʻplab gʻazotlarda qatnashgan. Madina, Basra sh.lari soʻngra Xurosonda yashagan. Marv sh. yaqinidagi qishloqlardan birida vafot etgan. BURDA (arab. yopingʻich, xirqa) — Muhammad (sav)ning xirqalari. Rivoyatga koʻra, Alloh rasulini sharaflab shoir Kaʼb ibn Zuhayr (661 y. v. e.) "Bonat Suod" qasidasini bitgan va uni Paygʻambar (sav) huzuriga kelib oʻqib bergan. Bundan xushlangan Muhammad (sav) xirqai shariflarini shoirga hadya etganlar. Shoirning oʻgʻlidan xalifa Muoviya sotib olgan B. keyin abbosiylarga oʻtgan va islom dinining eng qadrlı yodgorliklaridan biri boʻlib qolgan. Boshqa bir shoir - Muhammad ibn Said al-Busiriy (1212-1294) ham oʻz asarini "Qasidai burda" deb nomlagan. Bu qasida muallifiga Muhammad (sav) oʻz xirqalarini uning tushida hadya etgan. Bu qasidani duoxonlar yodlab xastalarga dam solishi odat tusiga kirgan. Qasidaxonga ixlos qoʻyish musulmonlar oʻrtasida anʼanaga aylangan. Har ikkala qasida musulmonlar orasida hamon mashhurdir.

BUROQ (arab. "yarqiroq", "barq" soʻzidan) -islom rivoyatlarida juda tez chopadigan va uchadigan otsimon maxluqning nomi. Qurʼoni Karimda zikr qilinshicha (17:1), Muhammad (sav) uni minib Makka sh.dan "tungi sayr"da dastlab Kuddusga, soʻnfa meʼrojga chiqqanlar. Rivoyat qilishlaricha, B. Muhammad (sav)ni Kaʼba oldiga kelib kutib turgan, avvaliga u sarkashlik qilgan, hazrat Jabroil majbur etgandan soʻng boʻysungan. B. boshqa paygʻambarlar, chunonchi Ibrohim (as) va Dovud(as) ga ham xizmat qilgan, deydilar. B. goh ot, goho xachir shaklida ifodalangan, oq rangli, boʻyni choʻziq, quloqlari uzun, oyoklarida qanoti boʻlgan, deb taʼriflangan.

BURHONIDDIN BUXORIY, to'liq nomi Mahmud ibn Sadrus Said Tojuddin Ahmad ibn Sadrulkabir Burhoniddin Abdulaziz ibn Umar ibn Moza (16-a.) - buxorolik faqih. Ilmni o'z davrining "sudurul ulamo"si (ulamolar peshqadami) hisoblangan ota-bobolaridan olgan. B.B. "Muhitul Burhoniyy" ("Hujjatli muhit"), "Zahira"("To'planma"), "Tajrid" ("Ajratish"), "Tatimmatul fatavo" ("Fatvolarni to'ldirish"), "Tariqatul Burhoniya"("Xujjatlash yo'li") kabi kitoblar, ko'pgana asarlarga sharhlar yozgan. U o'z asarlarida fiqhning muammoli masalalarini hal qilib berish bilan islom huquqi turli tarmoqlari rivojiga hissa qo'shgan. Chunonchi, 62 ta mustaqil kitobni o'zida jamlagan "Muhitul Burhoniyy"da ibodat va muomalot masalalari alohida-alohida yoritilgan, vaqf, zakot va h.k. bo'yicha mukammal ko'rsatmalar bor. Bu kitob O'zbekiston FA Sharqshunoslik in-tida saqlanadi.

BURHONIDDIN MARG'INONIY (to'liq ismi - Abu-l-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdu-l-Jalil al-Fargoniyy al-Rishtoniyy al-Marg'inoniyy) (1123. 23. 9, Marg'ilon - 1197. 29. 10, Samarqand) - fiqh olimi, islom huquqshunosi, imom. Dastavval otasi Abu Bakr ibn Abduljalil, imom Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy qo'lida tahsil ko'rdi. Rishton, Marg'ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarida islomiy ta'lim olib, hanafiy mazhabining buyuk faqihi sifatida nom qozondi. Shariat ilmini muftiy Najmiddin Abu Xafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, Xusomiddin Umar ibn Abdulloh ibn Umar ibn Maoz, as-Saraxsiy Abu Umar Usmon ibn Ali Poykandiy, Tojiddin Ahmad ibn al-Xusayn al-Banandinjiy, Ahmad ibn Abu Rashid al-Buxoriy kabi mashhur faqihlardan, hadis ilmini Abu Iso at-Termiziy Ziyu-ud-din Abu Muhammad Say'id ibn As'ad, al-Hasan ibn al-Marg'inoniyy singari allomalardan o'rgandi. B. M. fiqh bo'yicha asosiy asari ("Fiqh o'rganishni boshlovchilar uchun qo'llanma")ni hanafiylik nazariyotchisi, shariat asoschilaridan Abul Hasan al-Kuduriy (1029 y. v. e.) va Muhammad ash-Shayboniy (884 y. v. e.) asarlariga tayanib yozgan. B. M.ning "Bidoyot-al-mubtadiy" ("Qonunni o'rganishga kirish") kitobi nazariy, asar edi. Undan amaliy jihatdan foydalanish qiyin bo'lgan. Shu sababli B. M.ning o'zi 8 jildli sharh - "Kifoyat ul-Muntahiy" ("Yakunlovchilar uchun tugal ta'limot")ni yozishga qaror qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida "Kitob al-Hidoya" ("Hidoya")ni yaratadi (1178 y.). Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom Sharqida bir necha tillarga tarjima etilib, ma'lum va mashhur bo'lib ketdi. Undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo'yicha qo'llanma sifatida foydalanilgan (q. "Hidoya").

B. M. yana bir qancha asarlar yozgan: "Nashr al-mazhab" ("Mazhabning tarqalishi"), "Kitob-at-tajnis val-Mazid" ("Fuqarolik huquqini taqtsim etish"), "Kitob ul-faroiz" ("Meros haqida kitob"), "Mazid fi-furu'-ul-hanafiy" ("Hanafiy mazhabiga qo'shimchalar") va b. U o'z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilik turli shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslarini, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoiy ishni ko'rish masalalarini batafsil yoritib berdi.

B. M.ning ilmiy merosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jahondagi ko'p oliy o'quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi fani B. M.ning fiqh ta'limoti asosida o'rganiladi. 1997 y. dek.da O'zbekistonda B. M. vafotining 800 y.ligi nishonlandi. B. M. Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

BURHONIDDIN TERMIZIY, Sayid Husayn Burhoniddin Muhaqqiq (7-1240 yoki 1275/76) - tadqiqotchi olim (Muhaqqiq laqabi shundan), shayx. Baho Valad (1231 y.v.e.) degan donishmandga shoird tushgan va davrining eng yuksak - Sayidi sirdon

(hamma sirlardan voqif) unvoniga sazovor bo'lgan. Umrining so'nggi yillarida Turkiyaning Ko'niyo sh.ga kelib, Jaloliddin Rumi maqbarasi xonaqohida shayxlik qilgan va shu shaharda (boshqa manbalarga ko'ra Qaysariyada) vafot etgan. B.T.ning "Maorif" asari bizgacha yetib kelgan. Unda falsafa, qonunshunoslik, tafsir, hadis ilmi bilan bog'liq masalalar, islom mazhablari yoritilgan. Bu asar 1920 y. Tehronda bosilib chiqqan.

BURHONIDDIN QILICH (11-a.) - o'rta osiyolik shayx, sayid. O'zganda tug'ilgan. Qoraxoniylardan Bug'roxon Abu Ali al-Hasan ibn Sulaymon (1059-75) ga zamondosh bo'lgan. Farg'ona vodiysi, Qashqar, Samarqand va Badaxshonda katta obro'-e'tibor qozongan. Unga "Qilich" deb berilgan taxallus haqidagi rivoyatda aytilishicha, Burhoniddin bolalik chog'larida o'z tengdoshlari bilan o'ynab yurib, yog'ochdan o'yinchoq qilich yasagan va kunlardan bir kuni mana shu yog'och qilich bilan qo'shnining o'g'lini qoq ikki nimta qilib chopib tashlagan. Uning ustidan shikoyat qilishgach, Burhoniddin podshoh huzuriga chaqirtirilgan. Bu yerda u podshohning farmoniga ko'ra o'zining yog'och qilichi bilan buqani ikkiga bo'lib tashlagan. Bunday kuch-quvvat mo'jiza deb e'tirof etilib, podshoh boladan o'ldirilgan qo'shni bolasi uchun xun olmay qo'yib yuborgan.

BUT (fors.), *s a n a m* (arab.), butparastlik - xudoni tasvirlaydigan va uning timsoli deb sig'iniladigan moddiy buyum (ko'pincha xudolarning tosh, yog'och, sopol va b. narsalardan yasalgan haykalchalari, rasmlari, tasvirlari va b.). Islom dini shakllanishidan oldin Arabiston ya.o.dagi qabilalarda butparastlik rasm bo'lgan, ya'ni har bir qabila o'z xudosisiga, uni ifodalovchi B.ga topingan. Bunday B.lar Makkadagi diniy ibodatxona - Ka'bada 300 dan ortiq edi. Islom dini shakllanib, yakka xudoga sig'inish paydo bo'lgandan so'ng B.lar Ka'badan chiqarib tashlandi. Xristianlik, buddizm kabi dinlarda ham B. (mas., xristianlikda ikona, krest(xoch)ga, buddizmda kichkina haykalchalarga sig'inish) saqlanib qolgan. Ko'pxudolikka e'tiqod qiladigan qabilalar-da, xususan, Afrikadagi ayrim qabilalarda B.ga sig'inish hali ham bor.

BUXORIY, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810.21.7, Buxoro — 870.31.9, Samarkand yaqinidagi Xartang qishlog'i) - islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi.

Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislarvdan, imom Molik ibn Anasning shogird va ashoblaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Tanikli muhaddislar-al-Dohiliy, Muhammad ibn Salom al-Beykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Beykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va b. dan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoddirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingana boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. B. 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidaga mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825 y. B. onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827 y. Madinaga boradi.

Madinadagi mashxur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va b. bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad(as)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, B. Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rixlati 6 y. davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Xirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu kushishlari bu vaqtda Buxoroda hukmdorlik qilgan Xolid ibn Ahmad az-Zuhliygacha xush kelmaydi. Shu sababli B. Buxoroni tark etib, Poykengda, keyin esa, Samarqavd yaqinidagi Xartang qishlog'iga kelib yashashga majbur bo'ladi. B. butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma'naviy va moddiy jihatdan ko'llab-quvvatlagan. Tijorat qilganda topgan oylik daromadidan besh yuz dirhamdan faqir miskin va talabalarga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan. B. umr bo'yi hadislarini to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o'zaro muloqotlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. B. jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadisni yoddan bilgan. B. o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai-hofizasining o'ta kuchliligiga bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish B. ga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi. B. 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. B.ning "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") deb nomlangan 4 jild (juz')dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991-96 y.larda 4 jildda nashr etildi (yana q. "Sahihi Buxoriy").

B. yaratgan "Al-Adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimasini 1990 y. Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag'ishlangan "Kitob al-kunya" ("Kunyalar haqida kitob") 1940 y. Hindistonda chop etilgan. B.ning "At-Tarix al-kabiyr" ("Katga tarix") kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, "At-tarix as-sag'iy" ("Kichik tarix") ham hadis tarixiga oid qimmatli asar xisoblanadi. U Hindiston va Qohirada chop etilgan. B. yaratgan "Kitob al-favoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jome' al-kabiyr" ("Katta to'plam"), "Xalq af'ol al-ibod" ("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "Al-Musnad al-kabiyr" ("Katta musnad"), "At-tafsir al-kabiyr" ("Katta tafsir"), "Kitob al-xiba" ("Xayr-ehson haqida kitob") va b. asarlarning ba'zilari bizgacha etib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. B.ning boshqa asarlari orasida "Tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. B. asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Davlat va jamoat arboblari, olimu ulamol va din peshvolari B. asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiklol sharofati bilan azaliy va adabiy qadriyatlarimiz qatori B.ning o'lmas merosi el-yurti bag'riga qaytdi, xalqimiz ongu tafakkurini ravshan eta boshladi. O'zR Vazirlar Mahkamasining "Buyuk muhaddis imom al-Buxoriy tavalludining 1225 (hijriy hisobda)

yilligini nishonlash haqida"gi qarori (1997 y. 29 apr.) asosida Samarqandda yubiley to'y-tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (q. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui). "Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni" mavzuida xalqaro konferentsiya o'tkazildi.

O'zbekistonda B. xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent islom in-ti (oliy ma'had)ga B. nomi berilgan. B.ning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qisimli film (1995), "Hadis ilmining sultoni" 4 qisimli kino qissa (1998) yaratilgan.

- D -

DABBAT ul-ARZ (arab. - Yer hayvoni) - oxir zamon kelganining bir alomati sifatida chiqib keladigan Yer hayvoni. Bu xususda Qur'oni karimda xabar berilgan: "Qachon (kofirlarning) ustiga so'z-azob tushganida (ya'ni, qiyomat yaqinlashib qolganida) Biz ular uchun yerdan bir jonivor chiqarurmiz. U ularga odamlar Bizning oyatlarimizga ishonmaydigan bo'lib qolganlari haqida so'zlar" (Naml, 82-oyat).

D. ul-a.ning, ya'ni yer hayvonining chiqishi haqida ko'pgana hadislar vorid bo'lgan. Lekin ularning hammasini ham sahih deb bo'lmaydi. Ayniqsa, bu jonivorlarning sifatleri keltirilgan xabarlar sahihlikdan yiroqdir. Aslida, mo'min odamga uning vasfini bilishdan ma'no yo'q. Yer hayvonining chiqishi qiyomat alomatlaridan ekani, kofirlar azobga mustahiq bo'lishi, endi ularning tavbasi qabul etilmasligi, qilmishlariga yarasha hukm qilinishi, o'sha jonivorning ularga gapirishi, uning mo'minga ham, kofirga ham tanish bo'lishini ifodalovchi Qur'oni karim va hadisi shariflar hujjati bilan kifoyalanish shart. Hayvonning gapirishi g'ayritabiiy tuyuladigan kishilarga javob shulki, uni yaratgan Zot gapirtirishga ham qodirdir. D.ul-a. chiqqan kuni Alloh taoloning oyatlari va oxirat kunini inkor qiluvchi odam qolmaydi. Lekin, yuqorida aytib o'tilganidek, o'sha kunda keltirilgan imon, tavba, istig'for va amallar qabul qilinmaydi.

DABUSIY, Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ad-Dabusiyy (? - 1038) - hanafiylikdagi yirik faqihlardan; fiqhdagi ziddiyatlarni o'rganishga asos solgan. Samarqand viloyatvdaga Dabusiya sh.da tug'ilgan. Fiqhga doir 7 asar yozgan. Sam'oniyyning yozishiga ko'ra, D. Buxoroda yashagan, Bag'dodda ta'lim olgan. Buxoro va Samarqandning yirik olimlari bilan munozara olib borgan. Qabri Buxoroda, imom Abu Bakr ibn Tarxon mozori yonida.

DAJJOL (arab. - aldamchi, firibgar) -islom diniga ko'ra, qiyomat oldidan paydo bo'ladigan va dindorlarni xudo ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan ozdiradigan bir ko'zli odamsimon maxluq. U, shuningdek, al-Masih al-Kazzob va al-Masih al-Dajjol deb ataladi. Qiyomatga yaqin u yovuzlik timsoli sifatida ezgulik tarafdorlari bilan jang qilib, oxir-oqibatda mag'lub bo'lishi haqida rivoyatlar bor. Islomga ko'ra, D. Iblis bilan aloqador bo'lib, qiyomatga yaqin insonlarni to'g'ri yo'ldan og'dirish uchun o'zini haqiqiy Iso (as) yoxud al-Mahdiy deb ataydi. Bungacha u Hind okeanidaga orollardan birida qoyaga zanjirband qilingan holda yashaydi: orol yaqinidan o'tayotgan kemadagalar u yerdan musiqa tovushini eshitadilar. D. bir ko'zli, terisi qizil, peshonasida kof harfi yoxud kofir yozuvi bor. Qiyomatdan oldin D. Sharq tomondan ulkan, bahaybat eshakda paydo bo'ladi, uning ortidan barcha dinsizlar va munofiqpar ergashadi. U Makka va Madinadan boshqa butun dunyoda o'z hokimiyatini o'rnatadi. Uning podsholigi 40 kun (yoxud yil) davom etadi, so'ngra Alloh tomonidan yuborilgan Iso (as) va al-Mahdiy uni mag'lub etib, o'ddirishadi.

"DALOIL ul-XAYROT" - daloilxonada. o'qilgan asosiy kitob. 15-a.da musulmon aqidshunosi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy (7-1466) arab tilida yozgan. Muhammad (sav)ga atab o'qiladigan salavot va madhiyalardan iborat. 7 qismga bo'lingan bo'lib, har bir qism haftaning ma'lum kunida o'qishga mo'ljallangan. Kitobda musulmonlarga tavsiya etilgan kundalik salavot aytish uslublari ko'rsatib berilgani uchun dindorlar undan

muntazam foydalangan. Xorijiy Sharq mamlakatlarida "D. ul-x." hozir ham keng tarqalgan. Uning sharxlari va turkiy tilga qilingan tarjimalari ham mavjud.

DALOILXONA (arab. daloil - dalillar) - O'рта Osiyoning yirik shaharlaridagi eski diniy maktab. D.ga savodi chiqqan bolalargana qabul qilingan. Unda dastlab (taxm. 1-2 oy) bolalarga Qur'onning ayrim sura va oyatlari, so'ngra asosiy kitob - Daloil ul-xayrot" yodlatilgan. D.da o'qish muddati aniq belgilanmagan. Qobilyatli, xotirasi kuchli talabalar kitobni 2-3 oy davomida yod olganlar.

DARVISH, qalandar (fors. - turkcha -qashshoq, kambag'al; arab. faqir) - o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga bag'ishlagan va o'zini o'zi kamolotga yetishtirish yo'liga kirgan inson. "So'fiy" so'ziga sinonim. D.lik ta'limotining asosini zikr tushish orqali xudo bilan "yaqinlashish" va, hatto, u bilan "qo'shilib ketish" mumkin, degan g'oya tashkil qiladi. Eron, O'рта Osiyo, Turkiyada D. so'zi tor ma'noda - shaxsiy mulki bo'lmagan kambag'al, daydi zohidni (16-asr boshigacha -"qalandar" atamasining sinonimi) anglatgan. D.ning boshlang'ich ma'nosini bildirgan "kambag'al" so'zi so'fiylikning ixtiyoriy kambag'allik, oz narsaga qanoat qilish haqidagi ta'limotidan kelib chiqqan. D. lar muayyan maslak (suluk)ka birlashgan va uning goyalarini targ'ib qilgan. D. likning mashhur suluklari: naqshbandiylik, yassaviylik, kubroviylik va b. Ta'limoti, amaliyoti, odati va kiyimlaridan qat'i nazar, D.lar ikki guruh - daydi, doimo darbadarlik qilib yuruvchilarga va shayx, pirlar rahbarligida muqim yashovchilarga bo'lingan. D.larning birinchi guruhi erta bahorda dunyo bo'ylab safarga otlanganlar. Shuning uchun ularni "darbadar", eshikma-eshik yuruvchi deb ham ataydi. Ikkinchi guruhi hunarmandlar, savdogarlar, turli darajadagi amaldorlar va b.dan iborat bo'lib, uyda yashab, o'z ishlari bilan shug'ullangan. Ular har kungi ibodatni bajargan, hafta yoki oyning aniq belgilangan kuni umumiy zikr tushishga qatnashganlar. Inqilobdan oldin O'рта Osiyoda ham D.lik keng yoyilgan, D.larning faoliyati bilan bog'liq qalandarxonalar va xonaqoxlar mavjud bo'lgan. D.lik suluklarining ta'siri Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Afrikaning ayrim mamlakatlarida hozir ham mavjud.

DARVISHONA - O'рта Osiyo xalqpari orasida qadimda tarqalgan urf-odat. Har yili bahor faslida qishloklarda va shahar mahallalarida 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to'plagan, so'ngra biror kishining hovlisida yoki masjidida ovqat (halim) pishirib butun mahalla baham ko'rgan. Bu marosim yurtida biror ofat bo'lganda (kasallik tarqalganda, qahatchilik, ocharchilik boshlanganda) undan xalos bo'lish yoki dehqonchilik ishlariga xudodan rivoj tilash maqsadida o'tkazilgan. Mazkur marosim darvishlar odatlariga o'xshab, uyma-uy yurib oziq-ovqat yig'ish bilan bog'liq bo'lgani uchun D. (darvishlarga o'xshab) deb atalgan. Odatda D.ni har bir qishloq yoki mahalla alohida-alohvda o'tkazgan, unda katta-kichik hamma erkak qatnashgan, musofirlar mehmon qilingan. Ba'zan D.da yig'ilgan mablag', g'alla va b. mahallada yashovchi qashshoq oila yoki beva-bechoralarga berilgan.

DAHD (fors. - o'n kunlik) - eshonlarning xonaqoxdarida bo'lib o'tadigan o'n kunlik toat-ibodat. D.ning eng kattasi Ramazon oyida o'tgan. Murid va xalifalar (erkak va ayollar) eshon huzuriga kelib, D. talab etgan vazifalarni bajarishgan, o'z murshidlarining pand-

nasihatlarini tinglab, undan yana "vird" (ko'rsatmalar) olib tarqalishgan. Tasavvuf ta'limotida D.ga o'tirish xudo oldida tavba qilish, gunoxlarni yuvish, xudoning rahmatiga erishish hisoblangan. D. 3 davrga: ramazonning birinchi o'n kunligi - "dahayi rahmat", ikkinchi o'n kunligi - "dahayi mag'firat", uchinchi o'n kunligi - "dahayi itkun minannor"ga bo'lingan. D. ramazondan boshqa ba'zi oylarda ham o'tgan, ammo unga xohlagan kishilar, ko'proq ayollar borgan. Taqvodorlar uchun xonaqoh ichida bo'zdan pashshaxonaga o'xshagan bo'lmalar qurilgan. D.ga o'tirganlar uning ichiga kirib, ro'za tutib, Qur'oni karim, salavot va duolar o'qigan. D.ning o'xshashi e'tikof deb ataladi.

DAHRIYLIK (arab. dahr - vaqt, takdir, falak) - islom paydo bo'lmasdan ilgari arab jamiyatida keng tarqalgan aqida. "O'lim", "takdir", "ajalning yetishi" ma'nolarini anglatgan. Bu aqidaga ko'ra, insonning taqtsiri oldindan belgilab qo'yilgan, u erkin iroda yoki ixtiyor egasi emas, peshonasiga "yozilgan" narsa albatta sodir bo'ladi va undan qutulishning iloji yo'q. Johiliya arablarida narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganlarga azob berilishiga ishonch yo'q edi. Borliqning egasi, oliy hokimi sifatida muayyan bir xudo emas, qandaydir "dahr", taqdiri falak, inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy o'zgarishlar jarayoni tasavvur qilinardi. Ularning e'tiqodicha, o'limdan so'ng hamma narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak. Bunday hissiyot Qur'onda quyidagi so'zlar bilan ifodalangan: "Ular deydilar: faqat bitta - bu dunyodagi hayotimiz bor - yashaymiz va o'lamiz; bizni dahr (vaqt, takdir) halok qiladi" ("Josiya" surasi, 24-oyat). Keyinchalik, islom adabiyotida "dahriy" so'zi "mo'min" so'zining ziddi sifatida ishlatila boshlandi. 19-a.da D. atamasi "materialist" (moddiyun) tushunchasining istilohi sinonimi sifatida qo'llanilgan. O'rta asrlarda bir qancha olim, mutafakkir va shoirlar (mas., Mansur al-Halloj) D.da ayblanib, shafqatsiz jazolangan. Hozir ham musulmon dunyosida D. qoralanadi. D. va ateizm bir ma'noni anglatmasa-da, sho'rolar davrida ularni sinonim so'z sifatida ishlatish rasm bo'lib qolgan edi.

DEV (fors. - div) - qad. Eron mifologiyasidaga bahaybat yovuz kuchlar. Lekin, ular ba'zan sehrgar, kohin, avliyolarga bo'ysungan bo'lsa, yaxshi foydali ishlarni ham bajaradi deb tasavvur etilgan. D. haqidagi tasavvur zardushtiylikdan islomga ham o'tgan, ular yovuz ruhlar deb talqin etiladi. O'tmishda O'rta Osiyo xalqlari orasida turli qiyofadagi D.lar (etti boshli, bir ko'zli, badani jun bilan qoplangan va h.k.) to'g'risidagi tasavvurlar mavjud bo'lgan. Ularga atab har xil urf-odatlar (maxsus ovqatlar tayyorlash, chiroq yoqish, jonliq so'yish va b.) o'tkazilgan. Hoz. vaqtda ham ayrim dindorlar ongida D. to'g'risidagi tasavvurlar saqlanib qolgan.

DIN (arab. - mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish va b.). Arab tilida "D." so'zi juda keng ma'noda ishlatiladi. Qur'onda ham "D." turli ma'nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatilgan. Ana o'sha ma'nolarning hammasi ham urfdagi "D."da ham o'z aksini topgan. D.da Allohning mulki, hukmi, qiyomatdagi hisob-kitobi, osiylarni jazolashi, tadbir qilish bor. Shuningdek, D.da bandaning bo'ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parhezkorligi, Alloh ko'rsatgan yo'lni tutishi, ma'lum ishlarni odat va e'tiqod qilishi kabi ma'nolar bor. Bundan D. Alloh bilan banda orasida bo'lishi kerak aloqalarning to'plami ekanligi kelib chiqadi. Musulmon ulamolar mazkur ma'nolarni e'tiborga olgan holda D.ni "Sog'lom aql

egalarini ularning o'z ixtiyorlariga binoan bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko'rsatmalar" deb ta'riflaganlar. D. aqida, shariat va tariqat bobidagi ilohiy ko'rsatmalarning to'plamidir. Aqida musulmon kishi imon keltirib ishonmog'i lozim bo'lgan narsalarni o'z ichiga oladi. Misol uchun Allohga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, farishtalarga, qiyomat kuniga, yaxshi yomon qadar Allohdan ekanligiga ishonish va b. Shariat D.ning amaliy qismidir. U ibodat, muomalot va hududga bo'linadi. Ibodatga namoz, ro'za, zakot, haj kabi narsalar kiradi. Muomalotga insonlar orasida bo'ladigan savdo-sotiq, kasb-hunar, dehqonchilik kabi hayotiy aloqalar va ishlar kiradi. Hududda esa, yuqoridagi masalalarda xatoga yo'l qo'yib jinoyat qilganlarga belgilangan jazo choralari haqida so'z ketadi. Tariqat esa, ruhiy va axloqiy tarbiyani o'z ichiga olgandir. Ana o'shalarning hammasining majmuasi D. deb ataladi. Imom al-Buxoriy hadislarida keltirilgan D.ga berilgan ta'rif keng tarqalgan. Unga ko'ra D. - imon, islom, ehson yig'indisidan iborat. D. tushunchasini sharxlashda bu uchlikni saqlab qolgan holda hanafiylar imonning ahamiyatiga urg'u beradilar, ash'ariylar - diniy ko'rsatmalarga rioya etish (al-islom) muhimligani, xanbaliylar, keyinchalik Ibn Taymiya - "haqiqiy an'ana", sof yo'lni Qur'on va sunnatga amal qilish ahamiyatini aytadilar. Alloh o'zi yaratgan insonning tabiatini bilganidan va uning o'zi yaratgan bu dunyoda qandoq yashab o'tishi uchun eng yaxshi yo'lni ko'rsatib, unga D.larni yuborib turgan. Inson jamiyati sodda bo'lgan davrda Alloh D. hukmlarini ham sodda qilgan. U insoniyatni asta-sekin tarbiyalab o'stira borib ilohiy D.ni ham mukammallashtirgan. Bir D.ning vazifasi bitgandan keyin uning hukmini bekor qilib, o'rniga hukmlari mukammalroq bo'lgan keyingi D.ni yuborgan. Har bir ilohiy D.ni undan keyingi kelgan ilohiy D. amaldan qoldirgan. Insoniyat kamoliga yetganda Alloh islom dinini oxirgi, mukammal va boqiy D. qilib yuborgan. D. ilohiy-samoviyga va soxta-qalbakiga bo'linadi. Alloh tomonidan insonlar ichidan payg'ambar tanlab olib, u orqali diniy ta'limotlar yetkazilgan bo'lsa, ilohiy D. bo'ladi. Hoz. kunda yahudiylik, nasroniylik va islom ilohiy D.lar hisoblanadi. Qolgan D.lar soxta-qalbaki D.lardir. Ularni turli odamlar o'zlari to'qiganlar va obro'-e'tiborini oshirish uchun o'z ta'limotlariga ilohiylik nisbatini berganlar. Gohida ta'limot egasining o'zi o'z ta'limotlarining ilohiy ekanligani da'vo qilmagan bo'lsa ham, undan keyingi kelgan shogirdlari bu da'voni qilgan bo'ladilar. Keng ma'noda D. "ma'naviy olam", "ma'naviyat" sifatida "moddiy olam" - dunyoga qarama-qarshi qo'yilgan. Biroq bu holat ularning o'zaro bir-birlaridan ajralganliklarini anglatmagan. Bu tushunchalar dialektikasi, ularning aloqadorlik va qarama-qarshilik darajasi, ularning har birini faoliyati doirasi azaldan diniy va ijtimoiy munozaraning muhim belgisi bo'lib kelgan (q. Qur'on). Shaxsiy ismlar (mas., Salohad D., Faxr ad-D.), shuningdek, ilohiyotga doir adabiyotlarda D. so'zi ko'pincha "Al-Islom"ga sinonim sifatida qo'llaniladi.

DINIY JAMOA - diniy tashkilotlarning boshlang'ich, asosiy va eng ommaviy turi. D.j.lar dindorlarning ibodatda, diniy marosimlar va rasm-rusumlarda birgalashib ishtirok etishlari jarayonida ularning diniy ehtiyojlarini bevosita qondiradi. Muayyan jamoaga birlashgan dindorlarning diniy tasavvurlari, g'oyalari, e'tiqodlari, belgi va ramzlari bir xil bo'ladi. D.j.lar ijtimoiy hayotda va davlat bilan munosabatlarda mustaqil faoliyat ko'rsatadi. Fuqarolar D.j. tuzilganligi haqida diniy markazlarini va diniy tashkilotlar nizomlarini ro'yxatga oluvchi davlat idoralarini xabardor qilib qo'yishlari shart. D.j. odatda ruhoni va qavmlardan iborat bo'ladi.

DINIY MAROSIMLAR - fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. D.m. har qaysi din vakillarining o'z diniy ta'limotlari asosidan kelib chiqqan. Islom dinida aqqa, amri ma'ruf, xatna, ro'za va ramazon hayiti, qurbonlik va kurbon hayiti, namoz, haj va b. marosimlar bor. O'zbekistonda D.m.ning bemaol amalga oshirilishi ta'minlanadi, ammo ular qonunlarni, jamoat tartibini buzmasligi va shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilmasligi kerak. D.m.da qatnashish fuqarolarning xususiy ishidir va hech qanday huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. D.m.ga amal qilinganlik haqidagi hujjatlar huquqiy kuchga ega emas. D.m. ibodatxonalarda, diniy tashkilot muassasalarida, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, fuqarolarning xonadonlari va uylarida o'tkaziladi. Maxsus binolardan tashqarida D.m. yoki ommaviy ibodatlar o'tkaziladigan holatlarda bu hakda mahalliy hokimiyat ogohlantirib qo'yilishi va bunday tadbirlar qat'iy tartibga rioya qilingan holda tashkil etilishi lozim.

DINIY TASHKILOT — diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri hisoblanadi. D. t. larning eng muhim belgisi ularning o'z-o'zini boshqarishidir, ya'ni, ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. D.T.larning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, davlat ularning ichki aqidaviy ishlariga aralashmaydi. Ular o'z ustav (nizom)lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadir. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Qonunida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusmlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar va b.) D. t.lar deb e'tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi respublika diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Viloyat, tuman va shahar, shaharcha va qishloq hududida bo'lgan D. t.lar tegashli viloyatlar, shuningdek, Toshkent sh. hokimiyati adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi. D. t. ro'yxatga olingandan so'ng u yurvdik shaxs deb tan olinadi. D. t.lar tasarrufida binolar (masjidlar), transport vositalari, pul va b. mulklar bo'lishi mumkin. D. t.larning mulkiy huquqi qonun tomonidan himoya qilinadi.

DINIY O'QUV YURTLARI - ilohiyotni o'qitib, ruhoniylar tayyorlovchi maktablar. Islom dinida madrasalar ilk D.o'.yu. hisoblanib, ular diniy va tarixiy asarlarda 9-a.dan tilga olina boshlagan. Ularda ko'p asrlar mobaynida ilohiyot, til va shariat darslari bilan bir qatorda, falsafa, amaliy fanlar ham o'qitilgan. Keyinchalik madrasalarda, asosan, diniy ta'lim beriladigan bo'ldi. Faqat ayrim musulmon dorilfununlarida ta'lim avvalgisicha qoldi. Hozir jahondagi ko'p mamlakatlarda oliy, o'rta va boshlang'ich ma'lumot beruvchi ko'plab D.o'.yu. mavjud.

Islom mamlakatlarida hozir ham madrasalar asosiy D.o'.yu. hisoblanadi. Misr Arab Respublikasida al-Azhar, Tunisda Zaytuna, Hindistonda Aligarx, Pokistonda Panjob, Turkiyada Anqara diniy dorilfununlari va b. mavjud. O'zbekistonda 12 ta D.o'.yu. faoliyat ko'rsatadi. Bular: Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomli islom in-ti, "Ko'kaldosh", Buxorodagi "Mir Arab" madrasalari, shuningdek, Toshkentdagi "Xadichai Kubro", Buxorodagi "Jo'ybori Kalon" ayol-qizlar islom o'rta maxsus bilim yurtlari, Namangandagi

"Mulla Qirg'iz", Urganchdagi "Faxriddin ar-Roziy", Nukusdagi "Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy", Andijondagi "Said Muhyiddin Mahdum" islom o'rta maxsus bilim yurtlari va b. O'zbekistonda din davlatdan ajratilgani uchun D.o'y. davlat xalq ta'limi tizimiga kirmaydi.

DOVUD (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan "Bani Isroil" qavmidan chiqqan payg'ambarlardan biri. Alloh D.(as)ga payg'ambarlik bilan birga podshohlikni ham bergan. D.(as)ga Alloh Zabur kitobini tushirgan. Zaburni ahdi kitoblar al-Mazomir deb ataydilar. Bu kitob, asosan, diniy she'rlar, Allohni ulug'laydigan baytlar, Allohning savob va iqoblari vasfini o'z ichiga olgan. D.(as)ning ismlari Qur'onda o'n olti o'rinda zikr qilingan, unda D.(as) haqida gohida muxtasar va gohida mukammalroq tarzda ma'lumot berilgan bo'lib, bular bir-birini to'ldiradi. D.(as) Tolut (Shovl) askarlari safida xizmat qilib yurgan chog'laridayoq, dushmanlar sarkardasi Jolut (Juliyot)ga qarshi yakkama-yakka muborazaga chiqib, g'olib bo'lganlar va xalq orasida nom qozonganlar. D.(as)ning hayot kechirish tarzlari ham o'zgacha edi. Kunlarni to'rt qismga bo'lib qo'ygandilar. Bir kunni faqat ibodat bilan o'tkazardilar. Bir kunni xalq orasida yurib, shunga qarata hukm chiqarar edilar. Bir kunni xalqqa va'zu irshod etish bilan yana bir kunni o'zlarining shaxsiy ishlari bilan o'tkazardilar. Alloh D.(as)ga bir necha mo'jizalar in'om etgan edi, shulardan eng asosiysi temirlarni o'tda qizdirib, bolg'ada urib o'tirmay undan har xil narsalar yasashlik qobiliyatiga ega edilar. Temir D.(as)ning qo'llarida go'yo shamdek yengil va oson tarzda har xil shaklga kirardi. Bu borada Qur'onda Saba' surasi 10-11-oyat va Anbiyo surasi 80-oyatda bayon qilingan. Qur'onda D.(as) nihoyatda Allohga ixlosli, har doim zikru ibodatda bo'lganliklari bir necha oyatlarda madh etilgan. D.(as) shunday xushovoz edilarki, tasbeh aytib Allohga munojot qilganlarida, tog'laru qushlar ul zotga qo'shib tasbeh aytishardi. Lekin buni D.(as)dan boshqa odamlar sezmas edilar. Shuningdek, Alloh D.(as)ga mukammal ilm, da'volashuvchi tomonlar orasida odilona hukm qilish qobiliyatlarini ato etgandi. Bu hakda Sod surasining 17-19-oyatlari nozil bo'lgan. D.(as) vafotlaridan so'ng, barcha mulk va payg'ambarlik o'g'illari Sulaymon (as)ga meros bo'lib qoldi.

DOMLA - diniy maktab va madrasalarda talabalarni o'qituvchi shaxs; din va shariat peshvosi. "D." so'zi qachon iste'molga kirgani haqida biron ishonchli manba yo'q. Lekin "D." "mullo" so'zidan olinib, uning asosida sanskritcha "dodo" (ota) so'zi yotadi. Dastlab "mullo" so'zi oldiga "dodo" so'zi qo'shib "dodomullo" deyilgan, so'ng qisqartirib "domullo" ("katta mulla") bo'lgan.

DOR ul-BAQO (arab. boqiylik uyi) - islom dinida abadiylik dunyosi, oxirat (narigi dunyo) haqidagi tushuncha. Bunga ko'ra, u joyda o'lim yo'q, doimiy yoshlik hukm suradi, noz-ne'matlar zavol topmaydi, taomlar o'z-o'zidan hazm bo'ladi, chiqindilar bo'lmaydi. Qur'onda oxiratning abadiyligiga dalolat qiluvchi oyatlar bor.

DOR ul-ISLOM ("Islom hududi") - dor ul-harb. zid ravishda mamlakat hayoti to'laligicha shariat yo'li bilan tartibga solib turiladigan, musulmon hukmdorlari qo'l ostidagi barcha musulmon mamlakatlarning umumlashma belgisi.

DOR ul-SULH ("tinchlik sulhi hududi") - islom futuhoti davrida musulmon bo'lmagan aholining musulmonlar bilan to'lanadigan soliq miqdori va aholining huquqiy holatini belgilab berish haqida sulh tuzgan viloyatlarni anglatuvchi umumlashma atama; sulh shartlari tuzilmagan joylarda ilgarigi tartiblar mavjud bo'lgan D. ul-S. aholisi (ahd as-sulh)ga ahl-uz-zimma sifatida qaralgan, lekin D. ul-S.lik savdogarlar dor ul-islomga qaraganda 2 barobar ko'p boj to'lashgan. Xalifalik parchalanib ketgach, musulmon-hukmdorlar hukm surgan barcha viloyatlar, aholisining tarkibi va qo'shni sof musulmon davlatlari bilan o'zaro munosabatlari qandayligidan qat'i nazar, dor ul-islom sifatida qarala boshlagan. Nomusulmon davlatlar bilan tuzilgan bitimlar esa, davlatlararo oddiy shartnomalar maqomini olgan.

DOR ul-FANO (arab. foniylik uyi) - islom dinida inson yashayotgan dunyo (bu dunyo) "foniy" (o'tkinchi) ekanligani bildiruvchi tushuncha. Unga ko'ra, bu dunyo yaxshi va ezgu amallar, savob ishlar qiladigan joy; D. f.da dor ul baqo uchun tayyorgarlik ko'riladi. D. f. g'oyasi tasavvufda rivoj topgan, bu dunyoga befarq qarash, dunyo lazzatlaridan voz kechish ayrim tasavvuf arboblari xos amallardan hisoblanadi. Bu dunyoni D. f. deb atash 9-10-a.larda ayniqsa, malomatiylar tariqatida keng rasm bo'lgan.

DOR ul-HARB ("urush hududi") - dor ul-sulh tashqarisida joylashgan nomusulmon mamlakatlar; ular musulmon faqihlari tomonidan musulmonlar bilan urush holatida turgan mamlakatlar, ular o'rtasida harbiy harakatlar olib borilayotganligi esa, vaqtinchalik sulh deb qaralgan.

DORIMIY, to'liq ismi Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Bahrom ibn Abdussamad ad-Dorimiy al-Hofiz as-Samarqandiy (794-869) - samarqandlik muhaddis, mufassir, fiqhshunos, Imom al-Buxoriy ustoz. Yoshligidan aql-zakovati, o'tkir quvvai-hofizasi bilan boshqalardan ajralib turgan. Hadis ilmi bo'yicha dastlabki bilimni Samarqandda egallagan, so'nfa Misr, Shom, Iroq, Xurosonning turli shaharlari hamda Makka va Madinada tanikli olimlardan saboq olgan Najmiddin Umar an-Nasafiy (12-a.) D. haqida: "Imom ad-Dorimiy ilmi hadis, ilmi osor, ilmi sunnatni Samarqandda yuzaga chiqargan zotdir" deb aytgan. D. Samarqand sultoni tomonidan qozi kalon lavozimiga taklif etiladi, biroq qozixonada 1 ta ish ko'rilishi bilanoq, iste'foga chiqadi. D.ning "Al-Musnad", "At-Tafsir", "Al-Jome'", va b. asarlari bor. "Al-Musnad" asari "Sunani ad-Dorimiy" nomi bilan mashhur. Islom allomalari uni "As-Sahih" deb atashni taklif qilganlar va "As-Sihoh as-Sitta" ("Olti sahih") kitoblari jumlasiga (Ibn Mojaning "Sahihi" o'rniga) kiritishni tavsiya etishgan. U hadislarni mavzularga ajratib bayon etgan. D. Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga (boshqa manbalarga ko'ra Marvda) dafn etilgan.

DO'IY (arab. - da'vat etuvchi, biror narsaga chaqiruvchi) - islom dinini targib qiluvchi, da'vatchi. Ismoililar firqasida D. diniy lavozim va unvon. D. ismoililar ta'limotidagi yetti darajadan (rasul (notiq), vasiy (asos), imom, hujjat, do'iy, ma'zun, mustajib) beshinchisi. D. firqaning maxfiy ta'limotidan xabardor va uni targ'ib qiluvchi hisoblangan, firqa rahnamolarining yuqori qatlamiga mansub bo'lgan. D. unvoni ismoililar rahnamolari orasida hozir ham amalda.

DRUZLAR - shialikda vujudga kelgan firqa (diniy guruh). Asosan, Livanda va Suriyada yashaydi. Ularning qarashlari ismoiliylar qarashlariga yaqin. Firqa fotimiylar xalifasi Hakim (996-1021 y. hukmronlik qilgan) davrida paydo bo'ldi. Hakim umrining oxirida o'zini xudo deb e'lon qilgan va o'ziga e'tiqod qilishni talab etgan. U sirli ravishda o'lgach, Livan va Antilivan tog'larida yashovchi xalqlar unga xudo deb e'tiqod qila boshlagan. D. nomi xalifa Hakimning targ'ibotchilaridan bo'lgan Nishtegin Daroziy (1019 y. v.e.) ismi bilan bog'liq. D. aqidasi o'ta sirli bo'lganidan farzandlariga ham qirq yoshga yetmaguncha o'rgatishmaydi. D. aqvdasi bir qancha din va mafkuralardan tashkil topgan. Jannat, do'zax, savob va jazoni inkor qiladi. Qur'onni butunlay inkor qilishadi, o'zlarining xos mushaflari mavjud. Musulmon olimlari D.ni dindan chiqqan oqim deb e'lon qilgan. D. aqidasi ko'ra, xudo odam qiyofasiga kirib, insonlar o'rtasida paydo bo'lishi mumkin (shuning uchun ular Hakimning qaytishiga ishonadi). D. Qur'on mazmunini majoziy talqin qiladi. Jonning ko'chib yurishi to'grisidaga tasavvur tufayli o'limga befarq qaraydilar, islom dini marosimlarini bajarishni shart deb hisoblamaydilar. Diniy bayramlardan faqat qurbon hayitini va shialarda motam marosimi hisoblangan ashuroni nishonlaydilar. D. sunniylar tomonidan ta'qib etilgani uchun shialarga xos bo'lgan taqiyya talablariga amal qiladilar. Barcha ismoiliylar kabi D. ham shariatni tan olmaydilar. D. ikki qismga; "omiy" ("bexabar") va "uqqol" ("bilimdonlar", "xabardorlar")ga bo'linadi. D.da masjidga borish, namoz o'qish odati yo'q. Ularning ibodatxonalari "xalvo" deb ataladi. Bu yerda payshanba kunlari faqat "uqqol"largina to'planadi. O'rta asrlardan boshlab D. o'zlarining merosiy mulklariga va hukmdor amirlar sulolasiga ega bo'lgan. Livanda druz amirlari hokimiyati, ayniqsa, Faxriddin II Maon (1590-1633) va Bashir II Shihob (1788/ 9—1840)davrlarida juda yuksalgan .D.Suriya xalqining 1925-27 y.larda frantsuzlar hukmronligiga va 1958 y.da Isroilga qarshi chiqishlarida faol ishtirok etishgan. Hoz vaqtda D. Livan milliy-vatanparvar kuchlari tarkibida jamiyatni qayta qurish uchun kurash olib bormoqda.

DULDUL - 1) Muhammad (sav) mingan xachir (ot) larining ismi yoxud laqabi. Uni payg'ambar (as)ga Muqavqis hadya etgan, u zot esa, hazrat Aliga sovg'a qilgan. 2) "D." so'zi arablarda boshini u-bu tomon chayqab yuruvchi odamga nisbatan ham ishlatiladi, shuningdek tipratikan va jayra ham D. deb ataladi.

DUO (arab. - iltijo, chaqirish, so'rash) - Qur'on sura va oyatlaridan o'qib, so'ngra Alloh taolodan o'zi yoki boshqalar uchun tilak tilash, iltijs qilish. D. ikki turli bo'ladi. Birinchisi "ma'sura", ya'ni matni Qur'on, hadis yoki boshqa diniy manbalarda aniq belgilab qo'yilgan Dlar Ularni buzmay, qo'shmay, qanday ko'rsatilgan bo'lsa, o'sha tarzda o'qiydilar. Ikkinchisi "muhtaraa", ya'ni D. matnini o'zi to'qib, erkin holatda iltijo qilish. Islom dini Allohdan boshqadan madad so'rashlikni man etadi Insonning ko'lidan keladigan yordamni insondan so'rash mumkin. Islom aqidasi bo'yicha, farzad ato etish, shifo berish, balo-qazodan asrash insof-tavfiq kabi hojatlar faqat Allohning o'zidan so'raladi. Undan boshqadan so'rashlik shirk va kufr sanaladi. D.ning "ma'sura" turlari bir necha shaklda ta'lif etilib bizning davrimizgacha yetib kelgan. D.ni qaysi tilda qilishning ahamiyati yo'q. Lekin islom dini aqidasi bo'yicha, agar talaffuzini o'rniga qo'ya olsa va mazmunidan ogoh bo'lsa, D.ni arab tilida o'qish afzaldir. Ko'pincha D. bilan bir narsani talab qilish ma'nolari bir-biriga aralashib ketadi. Shuning uchun talab nimayu D. nima ekanini aniq bilib olish alohida ma'no kasb etadi. Talab - so'rovchi nutq qiladigan

lafzning vasfidir. Menga tilagan narsamni bergan, kabi. D. esa so'rovchida payds bo'ladigan nafsiy holatdir. Mazkur nafsiy holat ikki narsa bilan: qalb va hislarning uyg'oqligi hamda ularning har birining siniqlik va xokisorlik ila Alloh taolaga yuzlanishi bilan va yana D. qiluvchining Alloh taolodan sidqidildan o'zi qilgan gunoxlarga tavba qilishni boshlashi bilan bo'ladi. D qilayotgan paytda qalb va hislarning uyg'oqligi hamda ularning har birining siniqlik va xokisorlik ila Alloh taolaga yuzlanishi bo'lmasa odatga ko'ra, ikki ko'lni ko'tarib tilga kelgan talab so'zlarini takrorlayotgan bo'ladi. Bundoq vaqtlarda qalb g'ofil bo'lishi, tilda bir gap, xayolda boshqa gap bo'lishi ham mumkin. Albatta, bu holatni D. deb bo'lmaydi. Bas, shundoq ekan, bu ishni qilayotgan odamni falonchi Alloh taolodan so'ramoqda deyishimiz mumkin, ammo falonchi Alloh taolaga D. qilmoqtsa deya olmaymiz. D. talab qilingan narsaga erishishni taqozo qiluvchi sababdir. Sababning esa, shartlari va man qiluvchilari bor. Qachon shartlar hosil bo'lib, man qiluvchilar yo'q bo'lsa, talab qilingan narsaga erishiladi. Agar undoq bo'lmasa, erishilmaydi. Balki, gohida boshqasi, D. qiluvchi uchun xayrirog'i hosil bo'lishi mumkin. Alloh taolo Dlarni ijobat va hojatlarni ravo qiladi.

DUOI BAD (fors. qarg'ash) - kimnidir qarg'ab, uning zarariga qilingan duo. Mas., ota-ona qarg'ishi, mazlum qarg'ishi va h.k. Hadisi sharifda ota-ona, musofir va mazlum (zulm qilingan)larning duolari shaksiz qabul qilinishi ta'kidlangan. Duoi xayrning ziddi - D. b.dir. Duoi xayrda kimnidir alqab yoki olqishlab, uning haqqiga qilingan duo tushuniladi. Payg'ambarlardan Nuh (as) o'z qavmlarini D. b. qilganlar. Natijada ularga Alloh taolo to'fon balosini yuborgan. Islom dinida D. b. qilish tavsiya etilmaydi. Bir inson yoki hatto farzand yomonlik qilib, ko'p zarar keltirgan taqdirda ham, ularning sha'niga faqat duoi xayr qilib, Yaratgandan ularga insof-tavfiq so'rashlik ulug' insoniy fazilatlardan ekani uqtiriladi.

DUOXONLIK - duo o'qish, dam solish bilan shugullanish. D.da Qur'oni karim va hadisi shariflarda ko'rsatilgan muayyan duolarni o'qish bilan dam solishga islom dini nuqtai nazaridan ruhsat etilgan, uni to'g'ri o'qib, ko'rsatilgan tartibda ijro etish mumkin; duoxonning mantiqsiz, poyma-poy so'zlarni o'zicha o'qib dam solishi mutlaqo man etiladi va u bilan shug'ullanish firibgarlik, aldanchilik va gunoh hisoblanadi. Umuman D. kasbi bilan kifoyalani, jismoniy yoki aqliy mehnat bilan shug'ullanmaslik ham aqlan, ham shar'an salbiy xususiyatlardan biridir. Yana q. Azayimxonlik.

DO'ZAX (forscha; arabcha - nor, jahannam, jahim, saqar; o'zbekcha - tamug') - din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Islom dinidagi asosiy tushunchalardan biri. Qur'onda D. haqida bir necha o'rinda ta'kidlab o'tilgan (6:128; 11:106, 107). D.ni Alloh kofirlarga va gunohkor bandalarga jazo berish uchun yaratgan. Diniy tasavvurga ko'ra, D. dahshatli chukurlik, ichida olov yonib turadi. D.ga mahkum qilingan bandalar shu olovga tashlanadi, ular qaynoq suv ichadi, u yerda o'sadigan zaqqum daraxtining (shayton boshiga o'xshagan) mevasi bilan ovqatlanadi, cheksiz azob chekadi, terilari kuyadi. Qur'onda ta'kidlanishicha, "qachonki terilari kuyib bitishi bilan haqiqiy azobni totib ko'rishlari uchun o'rniga boshqa terilarni' almashtiramiz" (4:56). D. azoblaridan yana biri - achishtiruvchi sovukdir. D. bir necha tabaqadan iborat bo'lib, har bir gunohkor o'z gunohiga qarab tabaqalarda azoblanadi. Islom diniga ko'ra, D.ning yetti darvozasi bor: 1. Hoviya. 2. Jahim. 3. Saqar. 4. Lazo. 5. Xutama. 6. Sair. 7. Jahannam.

D.ni qo'riklovchi farishtaning ismi "Moliki do'zax" deb ataladi. Qalbida Allohga imoni bo'lgan bandalar D.da ma'lum vaqt azob tortganlaridan so'ng o'sha imonlari sharofati bilan D.dan chiqarilib, jannatga kiritiladi. Faqir-fuqaro, yetim-esirlarga rahm-shafqat qilish, musulmonlar va inson bolasining og'irini yengil qilish ko'plab bandalarning D. o'tidan ozod etilishiga sabab bo'ladi. Ammo, iymonsiz kishilar, kofir va mushriklar D.dan chiqmay doimiy azobda qoladi.

- E -

ESHON (forscha: ular) - soʻfiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni. Odatda, E.lar darvishlik, soʻfiylik oqimlarining biriga mansub boʻlgan. Ismoililar irqasi dindorlar jamoasining rahbari ham E. deb atalgan. Urta asrlarda soʻfiy rahnamolariga murojaat qilishda ularning ismlari oʻrnida E., baʼzan "pir" soʻzlari qoʻshib ishlatilgan. E.larga muriddarni soʻfiylik yoʻliga oʻrgatuvchi (murshid), bemorlar dardiga shifo beruvchi, kelajakni oldindan aytuvchi sifatida qarab kelingan.

ESHON BOBOXON ibn Abdulmajidxon (1860-1957) - mufti, shayx. Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxonning otasi. Toshkentda ruhoniylar oilasida tugʻilgan. Dastlabki ilmni bobosi shayx ul-islom Ayubxon ibn Yunusxondan, uning otasi Abdulla ibn Burhon Eshondan olgan. Keyin Buxoroda Mir Arab madrasasida tahsil koʻrgan. Aqid, fiqh, tafsir va hadis bilimlarini chuqur egallagan va naqshbandiylik tariqatining namoyandasi sifatida tanilgan. Urta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkilotchilaridan biri va uning birinchi raisi, muftiy (1943-57). Diniy boshqarmaning tashkil etilishi mintaqadagi mayda va tarqoq musulmon jamoalarini yagona diniy markazga birlashishiga imkon berdi. E.B. boshqarma rahbari sifatida dindorlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olish bilan birga boshqarma faoliyatini fashizmni tor-mor etish uchun frontga har tomonlama yordam koʻrsatish, xalqaro tinchlikni himoya qilish ishlariga yoʻnaltirdi. E.B. Toshkentdagi Qaffol Shoshiy maqbarasi hovlisiga dafn qilingan.

EʼTIKOF - Qurʼon va sunnat ila sobit boʻlgan sharʼiy amal. Zuhriyning xabar berishicha, Rasululloh (sav) to vafot etgunlaricha E.ni tark etmaganlar. Imom Abu Hanifa, Elarning eng ozi bir kun desa, imom Abu Yusuf, uning eng koʻpi bir kun degan. Imom Muhammad fikriga koʻra esa, bir soat oʻtirilsa ham, E. hosil boʻladi. E. masjidida qilinadi. Faqat tabiiy hojatlarni qondirish - tahorat, gʻusl uchun yoki juma namoziga borish uchungina masjid tark etiladi. Hojatdan ortiqcha bir soat ushlanib qolsa, E. buziladi. Muʼtakif masjidida uxlaydi, ovqatlanadi, ehtiyojiga zarur narsalarnigina savdo qiladi. E. payti faqat uxroviy (oxiratga oid), xayrli soʻzlarni gapiradi. Koʻp kunlik E.da kechalari ham masjidida qoladi. Bir kunlik niyat qilinsa, tong otmasdan kirib, kun botgach chiqadi. 2 yoki undan ortiq kunlik E. uchun kishi masjidga quyosh botishidan oldin kirishi va niyatdagi muddat tugagach, quyosh botganidan soʻng masjiddan chiqishi kerak.

EʼTIQOD - Allohning kalomi haqiqiy ekanligiga astoydil ishonish, imonning 3 unsurlaridan biri. E.ning sinonimi sifatida turli aqidaviy maktablar tasdiq, aqida, akd terminlarini ishlatganlar. Mazmuni jihatdan E.ga eng yaqin turadigani tasdiq (bi-l-qalb) boʻlib, Alloh va Uning Qurʼon orqali yetkazgan soʻzlari haqiqiy ekanini chin qalbdan eʼtirof etishdir. Ular oʻrtasidagi farq atigi shundaki, tasdiq Allohning soʻzlari haqiqiy va ishonchli ekanligani ichki mulohaza bilan anglash, E. boʻlsa mana shunga qoʻshilish, unga qalbdan imon keltirishdir.

EHRIM (arab. - chegaralanish, ibodat holatiga oʻtish) - 1) musulmonlarning katta va kichik haj qilish (haj va umra) vaqtidagi alohida kiyimi. E. - hajni dili bilan niyat qilish,

haromdan muhofazalanish degani, ehromdagi kishi "muhrim" deb ataladi. Muhrim odobdan tashqari soʻz soʻzlash, xotini bilan yaqinlik qilish, gunoh ishlarga qoʻl urish, bir-biri bilan qichqirishib gʻijillashishdan saqlanishi lozim. Muhrim kishi quruq yerlardagi hayvonni oʻldirmaydi, tikilgan libos kiymaydi, oyogʻiga mahsi, etik, paypoq kiymaydi, yuzini, boshini biror narsa bilan toʻsmaydi, xushboʻy narsa surtmaydi, tirnoq, soch, moʻylarini olmaydi. Agar bu qoidalardan birortasini buzsa, hayvon soʻyib yoki sadaqa qilib kafforat toʻlaydi. 2) E. holatiga kirganlar tanaga oʻraydigan mato. E. 2 boʻlak (izor va rido) boʻlib, biri bilan chap yelkani, 2-si bilan beldan pastni oʻraladi. Hojilar haj kunlarida muqaddas joy (Makkadagi Kaʻba)ga kirish uchun E.ga oʻraladi. E. haj ibodatini koʻrsatilgan tartibda mukammal bajargandan soʻng yechiladi.

EHSOŒ ("astoydillik", "vijdonlilik", "samimiylik") - Qurʻonda diniy majburiyatlarni oʻtashdagi samimiylik, riyokorlikning ziddi. Umar ibn Xattob (ra)dan keltirilgan hadislardan birida aytilishicha: "Ehson - rabbingga xuddi Uni koʻrib turgandek, ibodat qilishingdir. Agar sen Uni koʻrmagan taqdiringda ham, U seni koʻrib turadi". Al-Razoliy E. terminini "adl - adolat" soʻzi bilan birga koʻllaganki, bular birgalikda "adolat va vijdon" mazmunini kasb etgan. E.aqidaviy tushuncha sifatida islom va imon tushunchalari bilan bir qatorda umumiy "din" tushunchasini tashkil qiladi, bunda E. deganda barcha diniy aqidalarni toʻliq, shak-shubhasiz va qayta talqinsiz qabul qilishni bildiradi, yaʼni uning barcha koʻrsatmalariga chuqur sadoqatni anglatadi. E. tushunchasidan dindorning nomlaridan biri - muhsin kelib chiqqan. Kundalik istiloxda E. termini ixlos - qalbi tozalik, fikr va xatti-harakatlarida samimiylikning sinonimidir. Shogirdning ustoziga boʻlgan izzat-ikromi va ustozning barcha oʻgitlariga soʻzsiz amal qilishi ham E. deb ataladi. Tasavvufda E. - eʼtiqodning oliy bosqichi boʻlib, undan keyin imon, soʻng islom turadi, bu shariat - tariqat - haqiqat tushunchalariga mos keladi. E. odatda tasavvuf bilan aynan hisoblangan.

- F -

FADAK - Shim. Hijozdagi dehqonchilik vohasi; Madinadan 2-3 kunlik yo'lda, Xaybar yaqinida joylashgan. Hozirda mavjud emas. F. aholisini yahudiylar tashkil etib, ular g'alla va xurmo yetishtirish bilan shug'ullanganlar. Islomning ilk davrida voha taslim bo'lish haqida musulmonlar bilan tuzilgan bitimga ko'ra shuhrat qozongan. Bitimda Muhammad (sav) F. yerlaridan olinadigan daromad haqidagi masalani yechib berganlar. 627 y. Muhammad (sav) F. aholisi Xaybarga harbiy yordam berishini taklif etganidan xabar topib, u yerga Ali (kv) boshchiligida kichik qo'shin yuborganlar. Bu yurish oddiy chopqun tusida bo'lgan. Kelasi yili, musulmonlar Xaybarni egallagach, F. yahudiylari Muhammad (sav) elchilari Muxayyisha ibn Mas'ud al-Ansoriy bilan muzokara olib borishgan, butun mol-mulklari evaziga vohani tashlab ketishga ruhsat so'rashgan. Lekin Muhammad (sav) bilan tuzilgan sulh bitimiga ko'ra, ular F.da qolishgan, vohadaga yerlarining yarmi ularning xususiy mulki ekanligi e'tirof etilgan, qolgan yarmidan keladigan daromad Muhammad (sav) va u zotning xonadoniga topshiriladigan bo'lgan. Rasululloh (sav) bu daromadlarni jamoat ehtiyojlari uchun (etim-esirlar, sayyohlar, kambag'allar, jumladan hoshimiylar urug'ining eng kambag'al qatlamini ta'minlashga) sarflashga buyruq berdilar, shu bilan birga zaruriyat tug'lsa ularni o'zlariga, oilalariga va qarindosh-urug'lariga sarflayajaklarini bildirdilar.

Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng qizlari Fotima F.dan (shu bilan birga Xaybar vohasidan) olinadigan daromadga ega merosxo'r sifatida chiqqan. Xalifa Abu Bakr (ra) unga Rasululloh (sav)ning "Mening merosxo'rlarim yo'q va mendan keyin qoladigan barcha narsalar zakot kabi xayrli maqsadlarga mo'ljallangan jamoa mulki (sadaqa) bo'lib qoladi" degan hadislarini aytib e'tiroz bildirgan.

Garchi Fotima da'vosi rad etilgan bo'lsa-da, F. maqomi haqidagi janjal ikki yuz yildan oshiq davom etgan. Shialar fikricha, F. yerlari Rasululloh (sav) xonadonining merosiy xususiy mulkidir. Siyosiy vaziyatdan kelib chiqib Alaviylarning da'vosi goh e'tirof qilingan, goh oliy hokimiyat tomonidan rad etilgan.

F. uchun uzoq davom etgan kurash shundan dalolat beradiki, ilk islom davrida mulkning ikki xil shakli - xususiy va jamoa mulklari o'rtasida aniq farq bo'lgan, mulkdorlar tegashli huquq va majburiyatlarga ega edilar.

FAY ("qaytarish") - musulmonlar g'ayridinlardan tinch yo'l bilan oladigan barcha narsalar: soliqlarning barcha turi va baytulmol. Qur'onda aytilishicha, "ma afa'a Allahu ala rasulih minhum" (Alloh ulardan O'zining rasuliga qaytargan narsa", 59:6), ya'ni, jangsiz qo'lga tushirilgan o'lja ("uning uchun jangga na otlarni, na tuyalarni solganlar") Muhammad (sav)ga in'om etiladi (nomunosib egalaridan qaytarilgan) va u zot undan o'z xohishlaricha egalik qilishlari mumkin.

FAYZ - otilib chiqish, nur chiqarish. Musulmon ilohiyoti va falsafiy adabiyotda ilohiy manbadan (q. Sudur) olamni yaralish jarayonini (odatda uch bosqichda) anglatish uchun qabul qilingan istiloh.

Ixvon as-safoga ko'ra, Alloh olamni uch bosqichli emanatsiya (nur chiqarish): Avvalgi aql (al-akl al-avval) - Umumiy ruh (an-nafs al-kulliya) - Materiya (al-xayula) vositasida yaratgan.

FALSAFA - yunoncha "sevaman" ma'nosida keluvchi "filo" bilan "hikmat" ma'nosidagi "sofia" so'zlaridan paydo bo'lgan va "hikmatni sevaman" ma'nosini ifodalovchi "filosofiya" so'zi arabchaga "falsafa" shaklida ko'chgan. Mil. av. 7-a.ga qadar borliqning boshlang'ich unsurlari ustida bosh qotirgan va borliq haqida umumiy bir nazariyani o'rtaga tashlaganlar "hakim" ma'nosidagi "sofos" ifodasi ila atalishgan. Ammo ilk daf'a Pifagor, insonni sofos deb bo'lmaydi, chunki aslida sofos Allohdir, degan g'oyani ilgari surgan, binobarin, inson faqat "filosofos" bo'la olishi mumkinligini aytgan. Usha davrdan keyin borliqni yanada teran anglab, uyg'un bir shaklda tushuntirib berganlar "filo-sofos" (hikmatni sevuvchi) nomini olishgan va bu kalima arabchaga "faylasuf" (ko'pligi "falosifa") tarzida o'tgandir. Tarixda bu unvon ila atalgan ilk mutafakkir Fales (Thales) bo'lgani ma'lum. 8-a.dan e'tyboran Islom olami yunoncha va suryoniychadan qilingan tarjimalar orqali Falsafa bilan tanishdi va ilk islom faylasufi bo'lgan al-Kindiy (252/866 y. v.e.) "falsafa" atamasiga olti xil boshqa-boshqa ta'rif bergan: 1) hikmatni sevish; 2) insonning kuchi yetganicha buyuk Allohning fe'llariga o'xshashi; 3) o'limni istash; 4) hunarlarning hunari va xikmatlarning hikmati; 5) inson o'zini bilishi; 6) insonning kurbi yetgancha abadiy va kulliy bo'lgan borliklarning haqiqatini, mohiyati va sabablarini bilishi...

FANO - q. Baqo va fano.

FARZ (arab. - qat'iyat, majburiyat) - shariatda hamma musulmonlar bajarishi qat'iy buyurilgan amallar. F. ikki tur - "farzi ayn" va "farzi kifoya"ga bo'linadi. Birinchi turi barcha musulmonlarga bab-barobar buyurilgan bo'lib, ularning adadi 40 atrofida, mas., namozda 12 ta, shundan oltitasi namozdan tashqarida, oltitasi namozning ichida, tahoratda 4, tayammumda 4, g'uslda 3, ro'zada 3, taom yeyishda 4 "farzi ayn" bor (1) Halol bo'lish; 2) Zaruriy mikdorda yeyish; 3) Taom quvvatini yaxshi ishlarga sarflash; 4) Taom beruvchiga (Allohga) shukr aytish). Amri ma'ruf, nahiy munkar, ilm olish ham "farzi ayn"ga kiradi. "Farzi kifoya" esa, bir qism musulmonlar bajarsa qolganlar zimmasidan soqit bo'ladigan ishlar. Mas., janoza namozi, kafanlash, murdani yuvish, dafn etish kabilar. F.ning bu turiga kiruvchi ishlarni hech bir musulmon bajarmasa, hamma musulmonlar gunohkor bo'ladilar.

FARISHTA (forscha, arab. malak - maloika) - islom e'tiqodiga ko'ra, xudoning amrini bajaruvchi mavjudotlar. Flar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifani bajaradi. Mas., islomda har bir odamning savob va gunoh ishlarini hisobga olib yuruvchi F.lar, jannat va do'zahda darvozabonlik qiluvchi, odamlarni qabrda so'roq qiluvchi (Munkar va Nakir), Alloh taxtini osmonda ko'tarib turuvchi va b. xizmatlarni bajaruvchi F.lar mavjud deb qaraladi. Bu F.lardan 4 tasi: Azroil, Jabroil, Mikoil, Isrofil bosh F. hisoblanadi. F.larga e'tiqod qilish sunniylik akddalaridan biridir.

FATVO (arab. - tushuntirish, izoh, hukm, qaror) - islomda mufti yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh. Islomning dastlabki davrida Muhammad (sav) safdoshlari, ayniqsa, dastlabki to'rt xalifa (choryorlar)ning turli huquqiy masalalar yuzasidan bergan izohlari, shuningdek, ularning fiqhga doir chiqargan qarorlari F. deb aytilgan. F. barcha diniy-

huquqiy mazhab asoschilari tomonidan fiqhga oid qo'shimcha manba sifatida qaralgan. Huquqiy masalalarda berilgan F. diniy jamoalar, muassasalar va musulmonlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. F. Qur'on, hadislar va shariatga yoki ilgari berilgan F.larga asoslanib chiqariladi.

FAQIR - kambag'al, moddiy yoki ma'naviy jihatdan muhtoj odam. Kambag'al (fuqaro)ga, ya'ni ijtimoiy jihatdan nochor odamlarga g'amxo'rlik qilish zarurligi Qur'oni karimda, sunna va pandnoma asarlarida alohida ta'kidlanadi. Zohidlik va so'fiylik "kambag'allik" ("faqr", "fuqr")ni keng targ'ib qilgan. "F." deyilganda "darvish" va "so'fiy"lar tushunilgan. Shoirlar, mualliflar, xattotlar ham o'zlarini kamtarlik bilan F. deb atashgan.

FAQIH (arab. - tushunuvchi, anglovchi, vdok qiluvchi) - shariat hukmlarini mukammal bilgan, fiqh fani bilan shug'ullanuvchi odam. F.ning bir necha darajalari bo'lgan. Eng oliy darajadagi F.lar - mujtahidlar fiqh bo'yicha shu qadar chuqur bilimga ega bo'lishganki, manbalarni sharxlash yo'li bilan mustaqil holda odob-axloq qoidalarini ishlab chiqqanlar (q. Usul al-fiqh). Ma'lum bir mazhab asosida fiqhning ma'lum bir masalasi yuzasidan o'z fikrini bildiruvchi muftiy ham F. deb atashgan. Shuning uchun "F.", "mujtahid" va "mufti" ko'pincha sinonim so'z sifatida keltiriladi. Ba'zi hollarda davlat, ijtimoiy hayotning muhim masalalarini hal etishda F.ga muhim o'rin ajratiladi (mas., Eron Islom Respublikasida).

FAG'NAVIY - q. Anjirfag'naviy.

FIDOYILAR (arab. - biron maqsad yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor shaxslar) - o'rta asrlarda Eron, Suriya, Livandagi yashirin hashshoshiylar tashkilotining a'zolari. Keyingi davrlarda musulmon mamlakatlaridagi qurollangan ozodlik kurashi qatnashchilariga nisbatan ham ko'pincha F. atamasi ishlatila boshlandi. Mas., Eronda 70-y.lar boshidan faollashgan yosh ziyolilar va talabalarni birlashtirgan "Fidoiyoni xalq" ("Xalq fidoyilari") tashkiloti inqilob davrida kuchaydi, lekin inqilob g'alabasidan so'ng u ta'qib ostiga olindi.

FIR'AVN - Qadimgi Misr podsholarining nomi. F.larning 31 sulolasi ma'lum. Oxirgi F. makedoniyalik Iskandar (mil. av. 356-323) Misrni bosib olgan paytda hukm surgan. Qur'onda tilga olingan F. o'zini xudo deb e'lon qilgan zolim podshohni ifodalovchi umumlashma nom. Alloh uning huzuriga Muso (as)ni yuboradi. Ammo F. unga imon keltirmaydi; aksincha, o'z qudratini namoyish qilish uchun amaldori Homonga "osmono'par" minora qurishni buyuradi. Dindorlarni, ayniqsa, yahudiylarni ta'qib qiladi. Muso (as) o'z qavmi bilan Misrdan chiqib ketishga ahd qilganda, askari bilan uning ketidan quvadi, lekin dengiz suvlari uni o'z domiga tortadi. Oxirgi pallada tavba qilgach, Alloh irodasi bilan to'lqinlar F.ni qirgoqqa olib chiqadi. Musulmon diniy va badiiy adabiyotida F. eng qabih imonsizlik (o'zini xudo deb e'lon qilishi) va zolimlik timsoli sifatida gavdalanadi.

FIRQA (ko'pligi firoq; sinonimlari milla, toifa, sinf) - aqoidga doir bir yoki bir necha masala yuzasidan maxsus fikrga ega bo'lgan kishilarning tashkiliy guruhi; maktab, jamoa. Muhammad (sav) musulmonlar jamoasi 73 jamoa (firqa)ga bo'linib ketadi deb bashorat qilganlar. Faqixdar diniy-siyosiy guruhdar, ilohiyot maktablari, jamoa va b. o'rtasida qat'iy chegara qo'ymay, F.ni musulmonlar jamoasi bo'linadigan birliklardan birini anglatuvchi istiloh ma'nosida qo'llaganlar.

FITR, fitr sadaqa (arab. - ro'za yakuni sadaqasi) - islomda ramazon oyi tugashi munosabati bilan beriladigan sadaqa. Har bir musulmon erkak va ayol uchun ikki yarim kilogramm xurmo, arpa, un yoki guruch, yoki ularning qiymati miqdorida pul ehson qilishi vojibdir. Muhtojlikda yashovchi oila a'zolari ham hayit kuni to'q yashasin degan niyatda F. joriy etilgan va u vojib amallar safidan joy olgan. F. sadaqasini o'z vaqtida ado etilishiga targ'ib qilingan hadisi shariflardan birida to F.ni o'z egasiga topshirmagunga qadar tutgan ro'zasi osmonda muallaq (osilib) turadi, ado etishi bilan qabul bo'lib osmonga chiqib ketadi, deyilgan. F. sadaqasini katta-yu kichik, er-xotin, oila boshlig'i o'z qaramog'idagi har bir jon hisobidan beradi. F.ni hayit namozi o'qilmasdan egalariga topshirish lozim. F. sadaqasi o'ziga to'q musulmonlarning muhtoj va hojatmandlar uchun ramazon oyida beradigan xayr-ehsonlaridir. Uning hikmatlaridan biri fuqarolar, miskinlar, beva-bechoralar va hojatmandlarni ulug' ayyom - hayit oldidan qalblariga bir oz bo'lsa-da, shodlik va hurramlik baxsh etish, ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va oqibat natijada, odamlar orasida mehr-shafqat tuyg'ularini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, ro'zadorning ramazon oyida bilib-bilmasdan qilgan gunoxlariga kafforat hamdir.

FITRAT, Abdurauf Abdurahim o'g'li (1886-1938.4.10) - ma'rifatparvar, Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyandasi. Dastlab Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. Makkaga borib, Haj amalini bajargan. Istanbulda dorilfunun va madrasada o'qigan (1909-13). Buxoroga qaytgach, jadidchilik harakatida faol qatnashgan. F. "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadida maktablari xususida qilg'on munozarasi"; Istanbul, 1909), "Bayonoti sayyohi hindiy" ("Hind sayyohi bayonoti"; Istanbul, 1912) asarlarida islom dinining sofligi uchun kurashgan hamda xurofot va bid'atni qoralagan. "Rahbari najot" ("Najot yo'li"; Petrograd, 1915) asarida millat taraqqiyotining najot yo'li (dasturi) sifatida Qur'oni karimni ko'rsatgan. "Muxtasar islom tarixi" (1915) risolasida islom dinining tarixi xolislik bilan yoritilgan. U "Sharq siyosati" (Toshkent, 1919) va "Yig'la, islom" kabi publitsistik asarlarida Sharq va islom dini ustidan G'arb va xristianlikning zo'ravonlik qilishini tasvirlagan va o'quvchining Sharqni ozod qilishga chaqirgan. F. sovet rejimi tomonidan 1937 y. 24 aprelda qamoqqa olingan. Unga "panturkizm va panislomizm"ning bosh mafkurachisi deb siyosiy ayblar qo'yilgan va keyinchalik otib tashlangan.

FIQH ("chuqur tushunish, bilish") - musulmonlarning xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi islom doktrinasi (huquqshunoslik), islom ijtimoiy me'yorlari majmuasi (keng ma'nodagi musulmon huquqi). Ikkala ma'nodagi F. islom dini vujudga kelib, musulmon davlati - Xalifalik qaror topishi bilan darhol tarkib topgan emas. 8-a.ning 1-yarmigacha umuman xalifalikning ijtimoiy (jumladan yuridik me'yorlari tizimi islom qoidalari bilan belgilanmas, balki asosan islomdan avval mavjud bo'lgan va yangi tarixiy sharoitda amal

qilib turgan normalardan iborat edi. Arablar bosib olgan hududlarda avvalgi yuridik norma va urf-odatlar yangi din aqidalariga zid bo'lmasa, ular ham jiddiy o'zgarishlarsiz saqlanib qolavergan, chunki, avval boshda islom o'zining huquqiy masalalariga unchalik e'tibor bilan qaramagan. Bu paytda xalifalikning huquqiy tizimi Rum (Vizantiya), sosoniylar, talmudchilar va sharqiy xristianlar huquqining ayrim unsurlarini hamda ko'pgina mahalliy urf-odatlarni qabul etdi, ularning ko'plari keyinchalik islomniki qilib olindi va F.ga kiritildi.

F.ni shakllantirishni, bir tomondan, amal qilib turgan huquq va b. ijtimoiy me'yorlarni diniy aqidalarga moslashtirish zarurligi va ikkinchi tomondan, ilk mulkdorlar jamiyatining endigina vujudga kelgan munosabatlarini mohiyat e'tibori bilan islomning diniy-axloqiy ta'limotiga asoslangan qoidalar negazvda tartibga solish ehtiyojlari taqozo qilar edi. F.ning qaror topishi Muhammad (sav) hadislari va choryorlarning aytgan gaplarini yozib olish bilan birga davom etdi. Shu sababli F.ga oid dastlabki asarlar (mas., Zayd ibn al-Hasanning "Majmua", Molik ibn Anasning "al-Muvatto", Ahmad ibn Hanbalning "al-Musnad" asarlari), aslida, huquqiy mavzudagi tadqiqotlar emas, balki muayyan mavzuda tanlab olingan hadislardan iborat. Hadislarning bir tizimga solinishi Qur'on va sunnani oqilona talqin etish orqali hal qilinadigan masalalarni belgilab olish va shu tariqa F.ni mustaqil fan sifatida shakllantirish imkonini berdi.

8-a. va 9-a.ning 1-yarmida F. - huquqshunoslikda o'z tushunchalari vujudga keldi, o'ziga xos til va uslub shakllandi. Unda Muhammad (sav)ning vafotlaridan so'ng asl ma'noda qonunlar yaratish faoliyati to'xtadi, degan fikrga kelindi. Qur'on va sunna huquqiy yechimlarning asosiy manbalari bo'lib qoldi. Faqihlar musulmon jamoasining yakdil fikri (al-ijmo')ni choryorlarning yagona fikri deb hisoblab, ularni ham mustaqil manba sifatida tan olar edilar. Qur'on va sunna faqihlarni qiziqtirgan har qanday savolga javoblarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga kelindi. Shu sababli ularda musulmonlar amal qilishi lozim bo'lgan aniq fe'l-atvor qoidalari xususida bir xil yechim, ko'rsatma bo'lmagan takdirda faqihlar mazkur manbalarni huquqiy holatlarga oqilona "tatbiq qilish" yordamida amaliy masalalarni hal etish bilan shug'ullanadi. Bora-bora F. - huquqshunoslikni ilm al-furu deb tushunish hammaga ma'kul bo'la boshladi. Ilm al-furu' - shariatning aniq manbalar asosida ta'riflangan (ya'ni Qur'on yoki sunnaning ayrim qoidalari asoslangan va ijmo'da tasdiqlangan yoxud ijthod yordamida bayon etilgan) "amaliy" (odamlar xulq-atvorini tartibga soladigan) me'yorlari to'g'risidagi fandır. F. - huquqshunoslik fani me'yorlarning ikki toifasini: 1) musulmonlarning Alloh bilan munosabati (ibodot); 2) odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, shuningdek, musulmon hokimiyati (davlati)ning o'z fuqarolari, boshqa dinlar va davlatlar bilan munosabati (muomalot)ni belgilovchi, tartibga soluvchi me'yorlarni o'z ichiga oladi. Faqihlarning asosiy kuch-g'ayratlari me'yorlarning ikkinchi toifasini ishlab chiqishga qaratildi, ularning aksariyati ijthod asosida joriy etildi. F. - huquqshunoslik shakllanishining ilk bosqichidayoq ikki maktab yuzaga kelgan edi: ulardan biri - Iroq maktabi "mustaqil fikrlash tarafdorlari" (ashob ar-ra'y) maktabi deb, ikkinchisi - Madina maktabini "naql tarafdorlari" (ashob al-hadis) maktabi deb atalgan. Ular o'rtasidagi tafovut maktablar o'z ta'limotlarini rivojlantirgan moddiy va madaniy sharoit xususiyatlari hamda ular meros qilib olgan huquqiy an'analar bilan izohlanadi. iroqlik huquqshunoslar ijthodni qiyosdangana iborat deb bilmasdan, undan kengroq foydalandilar, Madina maktabi esa, asosiy e'tiborni Qur'on va sunnaga qaratdi. Avvaliga bu maktablarning ta'limoti muayyan nom bilan atalmadi, biroq keyinchalik ularning har biri o'z ta'limotini o'z asoschisi nomi bilan atay boshladi. Chunonchi, Nu'mon ibn Sobit Abu Hanifa (767 y. v.e.) Iroq maktabining asoschisi bo'lgan. 9-10-a.larda F. - huquqshunoslikning boshqa sunniy tariqat (mazhab)lari ham yuzaga keldi. Mas., Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (820 y. v.e.) nomi bilan atalgan

shofi'iylik tariqati ijtihodni qiyos bilan aynan bir narsa deb hisoblab, uni qat'iyat bilan tatbiq etdi. Keyinroq Ahmad ibn Hanbal (855 y. v.e.) asos solgan hanbaliylik mazhabi ham tan olindi. Bu tariqat Qur'on va hadislardan imkoni boricha keng foydalanganligi va ijtihodga ishonchsizlik bilan qaraganligi ma'lum. F. -huquqshunoslikning boshqa maktablari ham bor edi, ammo, 14-a.ga kelib, mazkur to'rt sunniy mazhab hamda bir necha shialik tariqatlarigana saqlanib qoldi. F. mazhablaridan har birining ta'limoti uning tarafdorlari e'tirof qilgan asarlarda bayon etilgan. Bu asarlarning ko'pchiligi o'rta asrlarda mazhab asoschilari, ularning yaqin shogirdlari va izdoshlari, atoqli huquqshunoslar tomonidan yozilgan. Mas., hanafiylik mazhabi bo'yicha Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn al-Hasan al-Shayboniy (805 y. v.e.)ning oltita kitobi eng mo'tabar (Kutub zohirat ar-rivoya) hisoblanadi. Mazkur asarlarning eng muhim qoidalarini keyinchalik Abul Fazl al-Marvaziy o'zining "al-Kofi" kitobida umumlashtirdi, Shamsiddin as-Saraxsiy (1090 y. v.e.) bu kitobni batafsil sharhlovchi "al-Mabsut" asarini yaratdi. "Al-Mabsut" hanafiylik mazhabiga oid eng obro'li asarlardan biri deb tan olinadi. Molik ibn Anasning "al-Muvatto" kitobi molikiylar fiqhi bo'yicha yetakchi manbaligicha qolmoqda. Bundan tashqari molikiylik faqihlarining bir necha avlodi, avvalo, Abdusalom Saxnun (854 y. v.e.) tomonidan yaratilgan "al-Mudavvana al-kubro" asari juda mashhur. Ahmad ibn Hanbalning "al-Musnad" asari hanbaliylar uchun shunday ahamiyatga ega. Ash-Shofi'iyning "al-Umm" asari shofi'iylik F. - huquqshunosligi bo'yicha birinchi manbadir. Shialar F.ga doir anchagina kitoblar ham ma'lum. Umuman, F.ga oid asarlar orasida turli mazhablarning xulosalarini taqqoslashga bag'ishlangan asarlar (ilm al-xilof) sezilarli o'rin oladi. Bir mazhab tarafdorlari o'rtasida ham ixtiloflar borligi F. - huquqshunosligiga xos xususiyatdir.

9-a. o'rtalaridan e'tiboran sunniy F -huquqshunosligida faqat o'tmishdagi yirik huquqshunoslar ijtihod xukuqiga ega, degan goya qaror topa boshlagan edi, 10-a. o'rtalariga kelganda esa, o'zining huquqqa oid qarorlarini ta'riflab berish usullari tizimiga ega bo'lgan yangi mazhablar yuzaga kelishi mumkin emas, degan e'tirozsiz yakdil bir fikrga kelindi. Binobarin, endi har bir faqih muayyan mazhab ta'limotiga ergashmog'i darkor bo'lib qoldi, buni taklid deb yuritadigan bo'ldilar. Shu vaqtdan boshlab F. - huquqshunoslikning rivoji e'tirof qilingan mazhablar doirasida davom etdi. Bunda o'tmishdagi yirik mujtahidlarning xulosalarini muntazam holatga keltirishga, ularning asarlarini sharxdashga, ularni qayta ishlab, qisqa va sodda to'plamlar tayyorlashga asosiy e'tibor berildi. O'rta asrlarda va yangi davrda F. -huquqshunoslikka oid asarlar orasida fatvo to'plamlari ko'paydi. Fatvo to'plamlari tartibga solinadigan mavzular bo'yicha guruhlangan va har birining manbai ko'rsatilgan favqulodda me'yorlar majmuasidir. Al-Quduriyning (1037 y. v.e.) "Muxtasar", Qozixonning (1196 y. v.e.) "Fatovo", Burhoniddin Ali Marg'anoniyning (1197 y. v.e.) "Hidoya", Ibn Bazzozning (1414 y. v.e.) "Fatovo" asarlari bunga misol bo'ladi. Sunniy faqihlar fatvolarining aksariyat to'plamlari keng mazmunli bo'lib, tahorat, namoz, dafn, zakot, ro'za, haj, turli savdo-sotiq bitishuvlari va majburiyatlarini, mulkni tasarruf etish tartibotini, vaqf, meros, nikoh-oila munosabatlari har xil huquqbuzarliklar, musulmon hokimiyatini nomusulmon va b. davlatlar bilan munosabatlari, qozilik, kiyinish, ovqatlanish qoidalari va shu kabi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi. Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarga taalluqli ishlar ham borligi ma'lum. Mas., al-Mavardiyning (1058 y. v.e.) "al-Ahkom as-sultoniya" risolasi asosan xalifalikni tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish hamda shu munosabat bilan moliya, yer, jinoyat va qozilik huquqiga bag'ishlangan. Shia huquqshunoslari odatda boshqacha tasniflash yo'lidan borib, F.ning barcha me'yorlarini to'rt guruhga bo'ladilar. Mazkur guruhdar ibodat tartibini, ikki tomonlama shartnoma (uqud), shu jumladan nikoh, muayyan shakldagi bir tomonlama

bitim (iqo'at), jinoyat uchun javobgarlik va yetkazilgan zarardan kelib chiqadigan majburiyat yoki ixtiyoriy shakldagi bitishuv yoxud harakatlarni tartibga soladi. F., bir tomondan, aqliy ta'limot bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tajribasiga qaratilgan. F. -huquqshunoslikning ko'pgina xulosalari amalda tatbiq etilib, islom ijtimoiy me'yorlari majmuasini tashkil etganligi bois ular ham F. iborasi bilan atala boshladi. F. musulmonlar orasida amal qilgan fe'l-atvor qoidalari ma'nosida ijtimoiy me'yorlarning har xil diniy, huquqiy, axloqiy turlarini, shuningdek, urf-odatlarni, oddiy xushmuomalalik va axloq-odob qoidalarini o'z ichiga olgan, ya'ni keng, umumiy ijtimoiy tushunchadagi musulmon huquqi bo'lgan. Shu majmuaga kiruvchi me'yorlarning turli toifalarini ijtimoiy munosabatlarda va shaxsiy fe'l-atvorda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Chunki, musulmonlar diniy ahkomlarni imon-e'tiqod bilan ado etar va shu sababli ular juda mukammal bo'lar edi. F. - huquqshunoslikning ko'pgina qoidalari musulmonlar orasida rasm bo'lgan va bu qoidalarga rioya etilishni kafolatlaydigan urf-odatlarni aks ettirar edi. Ammo, faqihlar ishlab chiqqan me'yorlarning bir qismi aksar hollarda davlat ishtirokida amalga oshirilar, davlatning majburlashi imkoniyatiga tayanar edi. Shu sababli, islomda yagona ijtimoiy-me'yoriy tartibga solish majmuasi tarkibida fe'l-atvorning huquqiy qoidalari (yuridik ma'nodagi musulmon huquqi) alohida o'rin oldi. F. - huquqshunoslikning xulosalari davlat tomonidan buyurish rasmiy qo'llab quvvatlash natijasida qisman amaldagi huquqqa aylanar, mas., tayinlab qo'yilgan qozilar muayyan mazhab xulosalarini joriy qilar edi. Jumladan, abbosiyalar hokimiyatni qo'lga olgach, faqihlarni qozi lavozimiga ko'tarish yo'li bilan shunday xulosalarni qozilik tajribasiga tatbiq eta boshladilar. Yuridik ma'nodagi F. - huquq shu asosda tarkib topdi, F. - huquqshunoslik uning manbai bo'ldi. Musulmon faqihlarining ko'p asarlari qozi va muftilar uchun amaliy qo'llanma (dasturulamal) bo'ldi, ko'pincha ma'murlarning buyurtmasi bilan davlat mahkamalari uchun maxsus kitoblar yozib berildi. Abu Yusufning (798 y. v.e.) "Kitob al-xaraj"i yoki Boburiylar saltanatining hukmdori Avrangzeb (1658-1707) amri bilan 1669 y.da bir guruh hanafiy huquqshunoslar tuzgan "al-Fatovo al-hindiya" asari bunga misoldir. Chigallik F. me'yorlarining ko'pchiligiga xos xususiyatdir. Zero, ayni bir xil masalalarni hal etishda turli mazhablarning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan xulosalari tatbiq etilishi mumkin edi. Hatto bir mazhab ichida ham ziddiyatli qoidalar amal qilaverar, chunki F. huquq ko'p jihatdan yirik huquqshunoslarning aniq masalalarga oid qarorlari yigandisidan iborat bo'lib, ular ayni bir masala yuzasidan ko'pincha turli xulosalarga kelar edilar. Shu sababli hatto davlat F. - huquqdagi muayyan tariqatni qo'llab quvvatlashi ham bir xil me'yorlar tizimi belgilab qo'yilganini bildirmas edi. Binobarin, F. - huquqning bir-biriga mos kelmaydigan ko'pdan-ko'p qoidalari orasidan qozi qaysi birini tanlab olishini oldindan bilib bo'lmas edi. Shu sababli F.ning umumnazariy asosi asta-sekin birinchi o'ringa chiqa boshlagani bejiz emas. O'rta asrlarda musulmon faqihlari qozilarning F. - huquqqa oid yakka-yakka ko'rsatmalari asosida uning umumiy qoidalari (al-Qavo'id al-Kulliya)ni shakllantirib berishga muvaffaq bo'ldilar. Shu sohadagi ishlar orasida Ibn Nujaymaning (1562 y. v.e.) "al-Ashboh va-n-nazo'ir" asari yaxshi ma'lum. 16-17-a.larda chigal fatvolar bilan bir qatorda me'yoriy qoidalar uzil-kesil shakllantirib berilganligi ikkala ma'nodagi F. - huquqni rivojlantirishda eng yuqori nuqta bo'ldi. Islom mamlakatlari huquq tizimida F. -huquqning roli doimo bir xil bo'lgan emas. Jumladan, 16-a.da Usmonli turk saltanatida va 17-a. 2-yarmida Boburiylar davlatidagi 'huquqiy amaliyotda uning qoidalari juda keng va izchil qo'llanildi. Biroq, umuman F. - huquq hech qachon F. - huquqshunoslik bilan to'la-to'kis mos kelgan emas. F. - huquqshunoslikning haqiqatda amalga oshirilgan, hokimiyat tepasidagi kuchlarning

manfaatlarini ifodalagan va davlat tomonidan biron-bir tarzda qo'llab-quvvatlangan qoidalarigina amaldagi huquqqa aylangan, faqihlarning boshqa xulosalari esa huquqiy nazariya doirasidan tashqari chiqmagan. Ayni vaqtda F. - huquq me'yorlarining turli majmualari shu jihatdan o'z xususiyatiga ega bo'lgan. Shaxsiy holat huquqi (al-ahvol ash-shaxsiya) F. - huquqning eng rivojlangan tarmog'i hisoblanadi. U oila-nikoh, meros munosabatlarini va ularga yaqin bo'lgan boshqa ba'zi munosabat (huquq qobiliyati, vaqf tartibi va h.k.)larni tartibga soluvchi me'yoriy yig'indisidan iborat. Jamiyatning iqtisodiy negizidan nisbatan xiyla olis bo'lgan, ikki tomondan, diniy aqidalar bilan juda qat'iy belgilab qo'yilgan ushbu munosabatlarni tartibga solishda F. - huquq me'yorlari, odatda, boshqa tarmoqlarga nisbatan juda keng qo'llanilib keldi. Ammo, hatto oila-nikoh sohasida ham mahalliy urf-odatlar F. - huquq bilan raqobat qilar va amalda uning ayrim qoidalarini yo'qqa chiqarib yuborar edi. F. -huquqning jinoyat (g'ayriqonuniy harakat) tarmog'i (al-uqubot), sajiyasi (xarakteri)dan qat'i nazar, barcha huquqbuzarliklar uchun jazo chorasini o'z ichiga oladi. Faqat 10 ta eng xatarli jinoyat uchun qat'iy belgilangan jazo chorasi ko'zda tutilgan. Mazkur tarmoq, shuningdek, F. - huquqning qozilar sudi (al-muhokamat) tashkiloti va uning faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlari amal qilish sohasi davlat o'tkazayotgan siyosatga bevosita bog'liq edi, bu siyosat esa, uning dunyoviy va diniy vazifalari nisbatiga qarab belgilanar edi. Faqihlar ishlab chiqqan davlat huquqi, ma'muriy va moliyaviy huquq me'yorlari (al-ahkom as-sultoniya) F. - huquqning nisbatan ikkinchi darajali unsuri bo'lib, ko'p jihatdan mavhum nazariya edi, u soliq sohasidagina birmuncha izchil amalga oshirilardi. Musulmon ma'murlarning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini, urush olib borish va harbiy o'ljani taqsimlash tartibini, musulmon hukmdorning bosh din vakillariga nisbatan o'tkazadigan siyosatini tartibga solish uchun faqihlar belgilab bergan as-siyar me'yorlari haqida ham shu gapni aytish mumkin. Shu me'yorlarning ayrimlarigina (jumladan, nomusulmonlarning huquqiy holatini belgilovchi me'yorlar) huquqiy tus olar va yuridik (huquqiy) ma'nodagi F. - huquqqa aylanardi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, o'rta asrlarda islom mamlakatlarining huquqiy tizimlarida F. - huquq markaziy o'rin olgan bo'lsa ham, ammo barcha huquqiy me'yorlarni qamrab olmas edi. Bu yerda F. - huquq bilan bir qatorda davlatning faqihlar xulosalaridan ba'zan farq qiladigan va hatto ularga zid bo'lgan qonun hujjatlari ("huquqiy siyosat" - as-siyosa ash-shar'iya) amal qilar edi. 19-a.ning 2-yarmida F. huquq nizomida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buning eng muhim sababi shundan iborat bo'ldiki, eng rivojlangan islom mamlakatlarida (xususan, Usmonli turk saltanati tarkibidagi el-yurtlarning ko'pchiligida) F. - huquq asoslari hollarda G'arbiy Yevropadan olingan qonunlarga yetakchi o'rinni berib qo'ydi. Natijada F. - huquq asosan shaxsiy holat munosabatlarini tartibga solish .sohasida o'z mavqeini saqlab qoldi va mazkur mamlakatlarning davlat, ma'muriyat, jinoyat, savdr-sotiq huquqida, ko'p jihatdan fuqarolik huquqida ham qo'llanilmay qo'ydi. Shu bilan birga bu davrda 1869-1877 ylarda "Majallat al-ahkom al-'adliya" degan hujjatni qabul qilish yo'li bilan uning me'yorlari birinchi marta rasmiy ravishda sharoitga moslashtirib olindi, bu ish Usmonli turk saltanatining fuqaro kodeksida muhim rol o'ynadi (hozirgi paytgacha ham shu hujjat Kuvaytda qisman qo'llanib kelinmoqda). Diqqatga sazovor tomoni shuki, mazkur qonun F. -huquqshunoslikning hanafiylik mazhabi xulosalari asosiga kurilgan bo'lib, jumladan, Ibn Nujaymaning risolasidan olingan aniq me'yorlarni ham, umumiy qoidalarni ham o'z ichiga olgan edi. 19-a. 2-yarmi va 20-aning boshlarida hukumat ma'murlarining topshirig'iga binoan tayyorlangan qonun loyihalari tarzidagi asarlar (mas., Qadri Posho, D.Santillana va M.Moranning shaxsiy holatga oid ishlari) paydo bo'lganligi diqqatga sazovordir, ammo, ular davlat tomonidan e'tirof qilinmadi. Garchi 19-a.ning 2-yarmidan

F. - huquqning ahamiyati tobora pasayib borgan bo'lsa ham, hoz. vaqtda uning ayrim tarmoqlari, tartib-qoidalar va me'yorlari ko'pchilik aholisi musulmon bo'lgan Sharq mamlakatlarida biron-bir tarzda qo'llanilmoqda (faqat Turkiya bundan istisnodir, bu mamlakat 20-y.lardan e'tiboran undan butunlay voz kechdi). Shaxsiy holat tarmog'i izchil, keng va deyarli bekamu ko'st amal qilayotir, ayrim hollarda (mas., Tunis va Yamanda) F. - huquqning oila-nikoh masalalariga oid qoidalar birmuncha o'zgartirildi. F. - huquqning tartiboti jinoyat huquqida (mas., Saudiya Arabistoni, Yaman, Fors ko'rfazi mamlakatlarida) ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, ammo bir qancha mamlakatlar (Liviya, Eron, Pokiston, Mavritaniya va b.)da huquqning tarmog'iga uning ta'siri 70-y.lardan boshlab hatto kuchayib ketdi. Fuqarolik va savdo huquqi haqida ham shu gapni aytish mumkin. F. - huquqning bu sohadagi me'yorlari vaqflarning huquqiy holatini tartibga solib kelmoqsa (vaqflar tugatilgan Jazoir, Tunis, Yaman bundan mustasno). Bu me'yorlar fuqarolik kodeksiga ayrim moddalari (mas., huquqni suiiste'mol qilish, qarzni o'tkazish, yerni ijaraga olishga oid moddalar) tarzida kiritilgan. Keyingi 10-15 y.da bir qancha mamlakatlar (Liviya, Pokiston va b.) fuqarolik va tijorat huquqida F. - huquq me'yorlarini qo'llash miqyosi kengaydi. F. -huquqqa asoslangan soliq va moliya qonunlari (jumladan, foyda - ribo olishni taqiklaydigan va shu asosda islom banklari faoliyatini tartibga soladigan qonunlar) qabul qilingani bunga sabab bo'ldi. Ko'pchilik islom mamlakatlarida musulmon (shariat) sudlari saqlanib qolayotir (arab mamlakatlaridan faqat Tunis, Jazoir, MAR, Yamanda bunday sudlar tugatilgan). Ularning tashkil etilishi va faoliyati ko'p jihatdan F. - huquq me'yorlari bilan tartibga solinadi. F. - huquq qoidalar va me'yorlari ayrim mamlakatlar (avvalo Saudiya Arabistoni) davlat huquqida aks etgan va hoz. vaqtda 1979 y. konstitutsiyasida islom respublikasi deb e'lon qilingan Erondagi davlat shaklida juda yaqqol ko'rinib turibdi. Shuni ham aytish kerakki, barcha islom mamlakatlarida yoxud boshqa mamlakatlar aholisining ozchiligani tashkil etuvchi musulmon jamoalarida diniy qoidalar va namoz tartibini belgilovchi F. - huquq me'yorlari hali ham qo'llanilayapti. Hoz. sharoitda F. rasmiy huquq manbai sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Bir qancha mamlakatlarning shaxsiy holat va jinoyat huquqiga oid qonunlarida ko'zda tutilishicha, agar qonunda tegashli me'yorlar bo'lmasa, F. - huquqshunoslik xulosalari qo'llanilishi lozim. Ba'zi mamlakatlar (Misr, Suriya, Liviya, Iroq, Jazoir, Kuvayt)ning fuqarolik kodekslarida ham shunday qoida belgilangan. Hoz. vaqtda ko'pgina islom davlatlarining konstitutsiyalari fiqhning asosiy va o'zgarmas me'yorlarini qonunchilikning asosiy manbai deb tan oladi. Davlatning F. - huquqqa nisbatan bunday siyosati F. huquqshunoslikka oid ilmiy ishlarni rag'batlantiradi. Bu ishlar ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi. Nazariy ilohiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan birinchi yo'nalish an'anaviy fatvo janridan iborat (Misrning sobiq muftisi Hasanayn Muhammad Maxlufning ikki jildli fatvolar to'plami bunga misol). Ikkinchisi - F. nazariyasi va tarixiga oid asarlardir.

FOL (fors. - oldindan aytish, topish, arab. - kelajakning yaxshilik belgisi), r o m -kishilar takdirini, kelajakni yoki noma'lum voqea va hodisalarni "aytib berish"ning soxta har xil usullari.

F. dastlab ibtidoiy jamoa davridayoq paydo bo'lgan. Ovchilik, so'ngra choravachilikning vujudga kelishi bilan qushlarning sayrashi, uchishi, harakatlariga qarab F. ko'rish rasm bo'la boshladi. Ibtidoiy dehqonchshshk paydo bo'lgan davrda yulduzlarga qarab F. ko'rish tarqaldi; keyinchalik bunday F. ko'rish negazida soxta fan - astrologiya yuzaga keldi. F. bobilliklar, etrusklar, yunonlar va b. qad. xalqdarda keng tarqalgan edi. F. ko'rish bilan maxsus kishilar - folbinlar shug'ullanganlar. Ko'pgina xalqlarda folbinlar

suyaklar, don-dukakli o'simliklarning mevalari, yong'oq, qo'y qumalog'i va sh.k. yordamida F. ochganlar. O'rta Osiyo xalqdarida F. ochishda F. ochtiruvchining tomirini ushlab, nomini takrorlash yoki boshqa so'zlar aytish, mayda toshlardan foydalanish yoxud piyoladagi suvga paxta tashlash kabi usullar qo'llanilgan. Keyingi davrlarda kartaga va qo'l kaftining chizikdariga qarab F. ochish keng tarqaldi. F.ning hoz. kunga qadar saqlanib qolgan eng qad. ko'rinishi tushga qarab F. ochishdir. F. ochish negizida tabiat va odamlarni boshqaruvchi g'ayritabiiy kuchlar bilan aloqa bog'lab, noma'lum voqea va hodisani anglash mumkin, degan diniy tasavvurlar yotadi.

FOROBIY Abu Nasr (873-950) - o'rta osiyolik qomusiy olim, faylasuf. Sirdaryo qirg'og'idagi Forob sh.da tug'ilgan. Buxoro va Samarqandda o'qidi. Eron shaharlarida bo'ddi. O'rta asr fani hamda tillarni o'rgandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Aristotel va Platon asarlarini sharhlab bergan. Sharq mamlakatlarida ulug'lanib "Ikkinchi muallim", Shark Aristoteli deb nom olgan. U tibbiyot matematika, filologiya, musiqashunoslik, mantiq, axloqshunoslik, davlatshunoslik, falsafa va b. sohalar bo'yicha 160 dan ortiq asar yozib qoldirgan. F. fikricha, olam - yagona mavjudot, Alloh hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar uning emanatsiyasi (nurlanishi) asosida kelib chiqadi. "Fozil shahar aholisi" asarida qayd etishicha, faqat xudo o'z zotiga ko'ra tafakkur qiladi va tanho Ugana eng yaxshi ilmlarni biladi. Nazariy hikmat xudo zotini bilish ilmi bo'lmay, balki U yaratgan narsalar haqidagi ilmdir va shu yaratilgan narsalarga qarab Uning jamolini, qudratini, hikmat va adolatini bilish mumkin. F. fikricha, aqd shariatning tayanchi va madadkori bo'lib, mohiyatan u bilan birdir. Shariatni tushunish uchun akd ishlatish zarur. Inson tasavvuriy quvvat orqali erishishi mumkin bo'lgan "eng mukammal bosqich" payg'ambarlik bo'lib, payg'ambarlikning "eng mukammal bosqichi" tasavvuriy quvvat vositasida hosil qilinadigan vahiydir. "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv haqida" va shu kabi asarlarvda barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi, ularni komil inson qilib tarbiyalovchi ideal jamoa haqidagi fikrni olg'a surdi. F.ning diniy, falsafiy qarashlari keyingi davr olimlariga muhim ta'sir ko'rsatdi.

FOSIQ (arab. - yo'ldan adashgan, axloqsiz) - 1) islom an'anasida diniy majburiyatlarni ado etmagan gunohkor; 2) axloqiy ma'noda -fahsh, buzuq odam. "Fosiq" kalimasi johiliyat davrida qo'llanilmagan. Qur'oni karimda o'zak holida yetti, tuslangan fe'l sifatida o'n va "fosiq" shaklida esa (ikkitasi birlikda, boshqalari ko'plikda) o'ttiz yetti joyda keladi. Ba'zi oyatlarda yahudiylar, xristianlar, mushriklar va munofiqlar haqida so'z borarkan, ko'plarining F. ekanlari bildiriladi (mas., Baqara, 99; Oli Imron, 110; Movda, 47, 59; Tavba, 67); boshqa ayrim oyatlarda esa, fisq va fusuq mo'minlarga nisbatan ham ishlatiladi (Baqara, 197, 282; Nur, 4). Oyatlarda ma'lum qilishiga ko'ra, Alloh F.lardan rozi bo'lmaydi, moliy ehsonlarini qabul etmaydi va o'zlarini hidoyatga erishtirmaydi. Ularni dunyoda jazolagani kabi, oxiratda ham jahannamga tashlaydi.

FOTIMA (taxm. 605/606—632/633) -Muhammad (sav)ning kenja qizlari. F.ga e'tiqod qilish shialar o'rtasida keng tarqalgan. Shia imomlari va musulmon mamlakatlaridagi ko'pchilik sulolalar (Idrisiylar, Fotimiylar, Sa'diylar va b.) shuningdek, barcha sayyidlar F. va uning eri Ali ibn Abu Tolib avlodlari deb hisoblanadi. F. go'zal bo'lgani uchun Zahro (Guldek) deb laqablanadi. F.ni Alidan 5 farzandi (uch o'g'il (bittasi yoshligida vafot

etgan) 2 qiz) bo'lgan. Hasan, Husayn, Ummu Kulsum va Zaynab. Muhammad (sav) vafotlaridan olti oydan so'ng olamdan o'tgan F. Madinada dafn etilgan. Makka va Madinaga borgan shia ayollari F. qabrini ziyorat qiladi.

FOTIMIYLAR (909 - 1171) - ismoiliy xalifalar sulolasi; o'zlarini Ja'far as-Sodiq (765 y.v.e.) o'g'li Ismoil orqali Ali va Fotima avlodi deb hisoblaganlar (q. Ja'fariylik). Sunniy muarrixlar F.ning Ali avlodi ekanliklarini rad etib, ularni ubaydiylar ya'ni ismoiliylar imomi Ubaydulloh al-Mahdiy (F. sulolasi asoschisi) avlodlari deb hisoblaydilar. F. Sitsiliya, Marokash, Misr, Falastin va Suriyaning bir qismini egallashga muvaffaq bo'lishgan. 971 y. ular Misrning yangi poytaxti - Qohiraga asos solganlar. Makka va Madinani o'zlariga tobe etgan F. Bag'dodni bosib olib, abbosiylarni taxtdan ag'darish va o'zlari hukmronligidagi yangi xalifalik barpo etishni rejalashtirganlar. Qohirada ular markaz tashkil etib, u orqali F. o'zlarining tashviqot ishlarini olib borganlar. 11-a. o'rtalarida Yamanda ismoiliylarning Sulayhiylar sulolasi qaror topgan. F.ning ta'siri asta-sekin susaya boshlagan, bu faqat saljuqiylarning kuchayishi bilan bog'liq bo'libgina qolmay, ismoiliylar mafkurasining tanazzulga uchrashi bilan bog'liq edi. Vizantiya, ayniqsa, salbchilar bilan bo'lgan urushlarda toliqqan F. davlatida yollanma gvardiya (mamluklar) tasiri kuchaygan. Kurd amiri Salohiddin hokimiyat tepasiga kelgach, abbosiy xalifalar hukmronligani tan olgan va ismoiliylar davlati asta-sekin sunniylar davlatiga aylangan.

FOTIHA (arab. - ochmoq, boshlamoq) - 1) Qur'onning birinchi (boshlang'ich) surasi nomi. F. 7 oyatdan iborat bo'lib, unda Alloh taologa hamd, uning sifatleri, qiyomat kuni egasi ekanligi, ibodat, ixlos, duo, yolvorish, yaxshi ummatlarning zikri va yomon yo'ldan yurganlarning oqibati nima bo'lishi zikr qilingan. 2) Biron voqea munosabati bilan o'qiladigan duo, Qur'onning ayrim qisqa suralaridan birini tilovat qilish. Islom an'anasvda F. marhumning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga bildirilgan ta'ziyaning diniy shakli hisoblanadi.

FURU' al-FIQH - fiqhning "tarmoqlari", islom pozitiv huquqini tashkil qiluvchi fikhning bir qismi. Dastlab "furu" istilohi Muhammad ash-Shayboniyning "Kitob al-asl fi-l-furu" (al-Mabsut nomi bilan ko'proq mashhur) asarida qayd etilgan. Muhammad ash-Shofi'iy aniq ta'riflagan fiqhning asos -"ildizlari" (usul al-fiqh)dan farqli o'laroq pozitiv huquq qismlari o'zaro chegaralanmagan va ayni bir masalaning o'zi turli bo'limlarga mansub deb qaralishi mumkin bo'lgan.

- G -

GILONIY (Jiloniy) Muhiddin Abdulqodir ibn Abi Solih Jangiydo'st (1077- 1166) - fors ilohiyotchisi, mutasavvif. Gilon viloyati (Eron) da tug'ilgan. 18 yoshida Bag'dodga kelib saboq oladi. Uning hanbaliylik mazhabiga oid va'zlari shuhrat qozonadi. Keyinchalik G. Qur'on tafsirchisi va muftiy sifatida faoliyat ko'rsatadi. U hadis va fiqh ilmlaridan dars beradi. G. hanbaliylik mazhabida qat'iy turgan, Muhammad (sav) sunnatlariga so'zsiz rioya etgan. Va'zlarida musulmonlar uchun zarur bo'lgan o'nta axloqiy qoidani bayon etgan. G. o'zining tariqat uslubini vujudga keltirmagan, biror tariqatga boshchilik qilmagan bo'lsa ham uni qodiriylik so'fiylik tariqatining asoschisi deb hisoblaydilar. Ammo, haqiqatda esa, bu tariqat uning avlodlari yoki muridlari tomonidan faqat 13-a.ning o'rtalarida, ba'zi mutaxassislarining fikricha, hatto 15-a.da vujudga kelgan. Xalq ommasi uni mo'jiza ko'rsatishga qodir bo'lgan aziz-avliyo va bechoralarning homiysi deb, ulug'lar edi. Unga "Ravsul A'zam" ("ulug' himoyachi") va "piri dastgir" ("madadkor pir") laqablarini berishgan edi. G. maqbarasi Bag'dodda bo'lib, islomdagi muqaddas joylardan biri hisoblanadi.

G.ning "Al-g'unya li tolib tariq il-haqq" ("Haq yo'lini istovchilar uchun qo'llanma") asari saqlanib qolgan. Bu asarda musulmonlarning ijtimoiy, axloqiy burch va vazifalari hanbaliylik mazhabi nuqtai nazaridan bayon qilingan. GUL - ayol jinsidan bo'lgan jinning bir turi; nihoyatda badjahl va insonlarga dushmanligi bilan ajralib turgan. Go'yo cho'lu biyobonlarda yashab, turli qiyofalarga kirib yo'lovchilarni o'z tuzog'iga ilintiradi, so'ngra ularga hujum qilib o'ldiradi. Erkak jinsdagi G. - kutrub; ba'zan G. si'lat bilan aynan deb qaraladi. O'rta asrlarda islom mamlakatlaridagi xalq rivoyatlarida G. Iblis va shaytonlar bilan aloqador bo'lgan kofir jinlar qatoriga kiritilgan; ular odamxo'r va o'laksaxo'r hisoblanganlar. Deyarli butun islom ahdi xalq adabiyoti va folklorida G. bilan bog'liq sarguzashtlar bayon etilgan ko'plab hikoyalar uchraydi.

GUNOH (fors - jinoyat, ayb; asli shu ma'nodagi arab. "junoh" so'zidan olingan) -shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat. Islom dinida eng katta G. - shirk, ya'ni Allohni butunlay inkor etish yoki unga teng keladigan boshqa ilohiy kuchlar bor, deb e'tiqod qilish hisoblanadi va bunday G.ni Alloh kechirmaydi. Ammo undan boshqa katta va kichik G.larni xohlaganicha kechirishi yoki ma'lum me'yorda jazolashi mumkin. Katta G.larning adadi to'g'risida islom manbalarida turlicha fikrlar aytilgan. Ota-ona qarg'ishini olish, sehr-jodu bilan shug'ullanish, qotillik, yolg'on guvoxlik berish, o'g'rilik, chaqimchilik, qimorbozlik, riyokorlik, firibgarlik, harom qilingan narsalarni iste'mol qilish, dilozorlik va h.k. katta G. hisoblanadi. Ba'zi islom olimlari katta G.lar sonini 300 tagacha sanab o'tganlar. Kichik G.lar behisobdir.

GURGONIY Abulqosim Ali (10-a. oxiri -vaf.taxm. 1058) - tasavvufning Xuroson maktabi shayxlaridan. Tug'ilgan va vafot etgan yili, qabrining qaerdaligi haqida aniq ma'lumotlar yetib kelmagan. Ali ibn Usmon Hujviriy (vaf.taxm. 1072) "Kashf ul-mahjub" asarida G. bilan bir necha marta (aksariyat Tus shahrida) uchrashib, ba'zi masalalarni undan so'raganligi haqida yozadi. G.ning Tusda xonaqo va masjidi bo'lib, u o'z davrining qutbi deya e'tirof etilgan. "Silsilat uz-zahab"dagi 9-piri murshid. Tasavvuf ta'limini Abu Usmon Mag'ribiy va Abulhasan Haraqoniy (vaf. 1034)dan olgan. Tasavvufdagi nisbasi, bir tomondan, Abu Usmon Magribiy, Abu Ali al-Kotib, Abu Ali ar-Rudboriy orqali Junayd

Bagʻdodiy (vaf. 910)ga, ikkinchi tomondan, Abulhasan Haraqoniy orqali Boyazid Bistomiy (vaf. 848 yoki 875)ga borib bogʻlanadi. Manbalarda G. ikki yoʻnalish "sahv" va "sukr"ni oʻzida birlashtirgan murshid sifatida zikr etiladi. G. Abu Ali Formadiy (1011-1085)ning tasavvufdagi ustozidir. Shayx Abusaid Abulxayr (967-1049) bilan yaqin aloqada boʻlgan. Hayoti va faoliyati haqidagi maʼlumotlar "Tabaqot us-soʻfiya", "Risolai Qushayriy", "Nafahot ul-uns", "Nasoyim ul-muhabbat" singari asarlardan joy olgan.

- H -

HADD ("to'xtatish", "chora ko'rish") - Qur'on va sunnaga ko'ra, odob-axloq va jamoat tartibiga doir jinoyatlari uchun beriladigan jazolar: kufr, buzuqliq, soxta guvovlik, tuhmat qilish, ichkilikbozlik, ichirib mast qildirish, qimorbozlik, savdo qoidalarini buzish, qalloblik va b. H. ayrim shaxsga nisbatan emas, balki qonunga qarshi sodir etilgan jinoyatga nisbatan qo'llanilgani uchun tomonlarning kelishuvi va avf etish mumkin emas va albatta H. ijro etilmoga shart. H. faqat sudning xukmi bilan beriladi va 40 dan 100 tagacha qamchi yoki kaltaklash bilan amalga oshiriladi, undan tashqari ibratli jazo turi (ta'zir) ham qo'llanilishi mumkin. Jazo o'tab bo'lingach, albatta tavba va kafforat to'lanadi. Qadimda Usmoniylar davridagi Turkiyada H. yirik pul jarimasi to'lash bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan. Mana shu tartib ko'pgina islom davlatlari qonunchiligi tomonidan qabul qilingan.

HADIS (arab. - "xabar", "yangilik"), hadislar - Muhammad (sav)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. H. ikki turga bo'linadi: 1. Hadisi qudsiy; 2. Hadisi Nabaviy. H.lar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo'linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif. Qur'oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniklik kiritish va izoxdab uqtirish uchun Muhammad (sav) o'z H.larini aytardi. Bu H.larni payg'ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat kildirdi. Rasululloh (sav) hayotlik chog'larida sahobalarning Qur'oni karimga H.larni aralashtirib yuborishlaridan qo'rqib, H.larni yozishdan qaytarar edilar Rasululloh (sav) vafotlaridan so'ng H.larni nakd qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar Payg'ambarimiz (sav) H.lariga begona so'z aralashib qolishidan va H. nakd qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan H. zoe bo'lishidan qo'rqib, uni yozma shaklda to'play boshladilar. Bu odamlar turli yurtlarga tarqalib ketganlar. 7-a. o'rtalaridan boshlab ularni topib, H. larni ogizlaridan yozib olishga harakat qilingan. Bunda turkistonlik muhaddislar katta xizmat qilishgan. Islom olamida eng obro'li hisoblangan H. to'plamlari quyidagilar hisoblanadi: 1) "al-Jomi' as sahih" yoki qisqacha, "Sahihi Buxoriy"; 2 "Sahihi Muslim", 3) "Sunani Termiziy"; 4 "Sunani Abu Dovud"; 5) "Sunani Nasoiy"; 6 "Sunani Ibn Moja". Shuningdek, Ibn Hanbal musnadi ham katta shuhrat qozongan (yana q Hadis to'plamlari).

HADIS TO'PLAMLARI - hadisga doir kitob turlari. Ahli hadis istilohiga ko'ra, aqoidga taallukdi bo'lgan hadislar "Ilmi tavid va sifat"; hukmga dalolat qiluvchi hadislar "Sunan"; ilmi suluk va zuhdga oidlari "Riqoq"; yeyish, ichish va kiyinish, o'tirish, turish va safar... odoblariga taallukli bo'lgan hadislar "Ilmul adab"; tafsir hadislar "Tafsir"; tarix va she'r hadislar goh "Ilmu Va'dil-xalq", goh "Siyrat"; asri Jalili nabaviydan so'ngra vujudga kelgan va kelajak fitnalarga doir bo'lganlari "Ilmul-fitan"; manolib va musolaba, ya'ni shaxslar, qabilalar, shaharlar va b. shu kabilarning maqtovi yoki aybloviga doir xabarlar "Ilmul-manoqib" deb ataladilar. Bu boblarning sakkizalovini ham jamlagan "Sahihi Buxoriy" kabi kitoblarga "Jomi'" nomi berilgan. Imomi Termiziyning kitoblari esa, ham "Jomi'", ham "Sunan" deyilgandir. Sahoba ismlari maxsus tartibga solinib, har biridan rivoyat qilingan hadislar jamlangan bo'lsa, unday kitob "Musnad"; muallifning keksalari hurufi hijo (alifbo) tartibiga qo'yilib,

har birining yo'li bilan muallifga yetib kelgan rivoyatlarni to'plagan kitob "Mujam" deyiladi.

Hadis kitoblarining yana ko'p xillari bo'lsa ham, eng muhim turlari shulardir.

HADISI QUDSIY - ma'nosi Alloh taoloniki bo'lib, aytilishi Rasululloh (sav)dan bo'lgan hadislar. Shuningdek, "Hadisi Rabboniy", "Hadisi ilohiy" deb ham aytiladi. Uni Alloh taolo o'z nabiyisiga ilhom berish, tushida ko'rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg'ambar (as) esa, buning ma'nosi Alloh nomidan, Alloh taolo aytdi, deb sahobalariga yetkazganlar. H.q-ning martabasi Qur'oni karim bilan hadis Nabaviy o'rtasida. H.q. talaffuzi bilan ibodat qilinmaydi, namozda qiroat etilmaydi, u bilan bahsga chorlanmaydi. U Qur'onning naqliga o'xshab mutavotir holda naql qilinmagan. Balki, uning sahih, zaif va mavzu-yolg'onlari mavjuddir.

HAJ - Makkani ziyorat qilish, islomning besh asosiy ruknlaridan biri. H. amali uni ado etishga qurbi yetgan barcha musulmonlar uchun (juda bo'lmaganda umrida bir marta) farzdir; unga qurbi yetmaganlar o'zlarining o'rinlariga "o'rinbosar" (vakil al-H.) yuborishlari mumkin. H. zulhijja oyida amalga oshiriladi va turli marosimlarni (manosik al-H.) o'z ichiga oladi. Ziyoratchilar karvoni Makkaga 7-zulhijjada yetib keladilar Ular maxsus joy - miyqotda poklanib ehromga kiradilar, "kichik H." marosimini o'taydilar (q. Umra, tavof). So'ngra umra va H.ni alohida o'tashga qaror qilganlar sochlarini oldirib ehromdan chiqadilar. Ular bevosita H. oldidan yana qayta ehromga kiradilar. Umra va H.ni birga o'tamoqchi bo'lganlar (qiron) H. oxirigacha ehromda qoladilar. Zulhijja oyining 7-kuni ziyoratchilar Ka'bada xutba eshitadilar va namoz o'qiydilar. Ertasi kuni (yaum at tarviya) Mino vodiysiga boradilar Ziyoratchilar zulhijja oyining 8-sanasidan 9-sanasiga o'tar kechani Mino vodiysida o'tkazadi, Zulhijjaning 9-kuni ertalabdan H.ning asosiy marosimi - Arofat tog'i oldida turish (vukuf) boshlanadi. Ziyoratchilar xutba eshitadilar, namoz o'qiydilar. Bu turish kun botguncha davom etadi. So'ngra ziyoratchilar Muzdalifa vodiysi tomon yuradilar (ifada) Shu yerda shom va xufton namozlari o'qiladi va tunaladi. Zulhijjaning 10-kuni (yaum an nahr) bomdod namozidan keyin ziyoratchilar Mino vodiysiga yo'l oladilar, bu yerda ular Muzdalifadan olgan 49 ta kichik toshning 7 tasini birinchi kuni eng kichik shayton ramziga uloqtiradilar (q. Shayton). Bu marosimdan so'ng, shu yerning o'zida savdogarlar va badaviylardan sotib olingan jonliq qurbonlik qilinadi. Zulhijjaning 10-kuni musulmonlarning eng muhim bayrami hisoblanib, butun islom olamida keng nishonlanadi (q. Hayit, qurbonlik) Sochlarini oldirib yoxud kestirib ziyoratchilar so'nggi tavofni bajo keltirish uchun Makkaga yo'l oladilar. Kimda kim dastlabki marosim umra qilmay H. qilgan bo'lsa (H. ifrod) tavofdan keyin sa'yni ado etishadi Zulhijjaning 11-kunidan 13-kunigacha (ayyom at-tashriq) ziyoratchilar qurbonlik qilishda davom etadilar, Mino vodiysiga boradilar, u yerda endi hamma ustunlarga qarab 2 kun 7 tadan toshcha otadilar (jamrat al-ula, jamrat al-vusta, jamrat al-aqaba), o'z ishlari bilan band bo'ladilar. H.ning asosiy marosimlari aqidaga ko'ra Muhammad (sav) tomonidan 632 y. "vidolashuv H."ida (H. al-vado") belgilab berilgan Keyinchalik asosiy huquqiy mazhab namoyondalari ziyorat marosim-udumlarini bajarishni batafsil ishlab chiqqanlar. H.ning g'oyaviy va siyosiy ahamiyati bugungi kunda ham ulkan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yurtimiz musulmonlariga H. amalini ado etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

al-HAJAR al-ASVAD - q. Qora tosh.

HAZRAT XIZR MASJIDI - Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Shaharning eng qad. masjid shu yerda kurilgan. Xizr (as) nomidan olingan. Masjidning hoz. binosi 19-a. o'rtalarida qad. bino poydevori ustida bunyod qilingan. Tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, chap tomondagi ravokdan peshayvonga o'tiladi. Binoning shim.-g'arbiy qismi katta gumbazli xonaqoh. U 1854 y. ta'mir etilgan, peshayvon 1899 y., darvozaxona 1919 y. kurilgan. H.X.m. hozir ta'mirlangan.

HAZRATI IMOM MAJMUASI, Hastimom - Toshkentdagi me'moriy yodgorlik. Majmua kurilishiga imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (904-976)ning qabri asos bo'lgan (q. Qaffol Shoshiy). Qabr va uning atrofida vujudga kelgan qabriston hamda me'moriy yodgorliklar majmuasi (Kaykovus bog'i bilan birga) Hazrati imom nomi bilan ataladi. Saqlanib qolgan binolarning eng qad.si 16-a.ga oid. Dastlab, 16-a.ning 30-y.larida 2 ta maqbara kurilgan; kattasi Toshkentning shayboniylar sulolasidan bo'lgan xoni Suyunchxo'jaxon maqbarasi deb taxmin etiladi. 16-a.ning 50-y.larida bu binolar Baroqxon madrasasi me'moriy yodgorligi tarkibiga qo'shilgan. O'sha davrda Hazrati imom qabri ustida Qaffol Shoshiy maqbarasi bunyod etilgan. 16-a. oxirlarida uning qarshisida "qush" uslubida Qaffol Shoshiyning avlodi, Boboxoji maqbarasi kurilgan (bu bino 1939 y. buzib tapshangan). 16-a.da H.i.m.da sayrgoh bog' bo'lgan (asriy chinorlar, qayrag'och va b. daraxtlar, hovuz va ayvonlar mavjud edi), xalq sayillari o'tkazilgan. 19-a. o'rtalarida Baroqxon madrasasi ro'parasida Namozgoh (Tillashayx), Mo'yi Muborak madrasasi, Jome masjid (saqlanmagan) kurilgan. 20-a. boshida olti ustunli, o'n ikki gumbazli Tillashayx masjidi qayta kurilgan. H.i.m.da O'zbekiston musulmonlari idorasi joylashgan.

HAZRATI IMOM MAQBARASI - Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (14-a.). 1384 y. Amir Temur avliyo Muhammad Shayboniyning xokini keltirib Dor us-saodatga, o'g'li Jahongar qabri oldiga dafn ettirgan, xorazmlik ustalar baland bino barpo etganlar. Muhammad Shayboniy islom olamida "Hazrati imomi Bag'dodiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Majmuaga Amir Temur o'zi uchun katta xilxona qurdirgan. Majmuaning ulkan ark va devorlari, o'n olti qirrali asosga kurilgan gumbazlari qimmatbaho tosh va shishalardan ishlangan naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan.

HAYBAR - Madinadan shim.da joylashgan voha; mil. av. 6-a.dayoq mavjud bo'lgan. Mil. 7-a.da H. hosildor, sersuv, xurmozor va dalalari bo'lgan bir necha vodiylarda joylashgan. Aholisi yahudiy dehqonlar va yahudiylikni qabul qilgan arablardan tashkil topgan edi. Muhammad (sav) taxm. 1,5 ming kishilik qo'shin bilan o'zlariga dushman bo'lgan H. aholisi ustiga yurganlar. Bir yarim oylik qamal va H.ning g'atafon qabilasidan bo'lgan ittifoqchilari ketishi bilan voha zabt etilgan. Taslim bo'lish haqida H. aholisi bilan tuzilgan bitimda H. harbiy o'lja (g'anima) deb qaralgan, chunki u kuch bilan egallangan edi (anwatan). Vohaning 1/ 5 qism yeri Muhammad (sav) foydalariga (harbiy yurish rahbari sifatida) va u zotning oilalari foydasiga o'tgan. Yerning qolgan qismi jangchilar o'rtasida taqsimlangan; mahalliy aholi dehqonchilik qilib, olingan hosilning yarmini

musulmonlarga berishi lozim bo'lgan.

Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng qizlari Fotima H.dan olingan hosilning Rasululloh (sav)ga tegashli ulushiga merosxo'r sifatida da'vogarlik qilgan. Xalifa Abu Bakr (ra) bu talabni rad etgan, bunga sabab qilib Muhammad (sav)ning "Mening merosxo'rlarim yo'q va mendan keyin qolgan barcha narsalar zakot kabi xayrli maqsadlarga mo'ljallangan jamoaning mulkidir (sadaqa)" degan hadislarini keltirgan.

Umar (ra) voha yerlarini qayta taqsim etib, H.ni egallagan jangchilar va ularning merosxo'rlariga xususiy mulk qilib bergan.

HAYDARIYA (haydariy) - o'rta asrlarda va yangi davrda Eron va unga qo'shni mamlakatlarda mavjud bo'lgan so'fiylik va shialikka mansub uch guruhning umumiy nomi. 1. 12-a.ning oxirida Xurosonda paydo bo'lgan va asoschisi - shayx Qutbiddin Haydar Zavoiy (1221 y. v.e., Zavoda dafn etilgan, u Turbati Haydariy deb ataladi) nomini qabul qilgan ancha nufuzli so'fiylik guruhi (toifa, guruh, jamoa). An'anaga ko'ra, u o'rta osiyolik turkiy qavmlardan chiqqan va Ahmad Yassaviyning izdoshi bo'lgan. U o'z tarafdorlaridan riyozat chekib, uzoq vaqt uzlatda bo'lishni talab qilgan; aynan u amaliyotga qo'l va oyoqlarga temir bilaguzuk, bo'yinga marjon shoda, qulokdar va qo'l barmoqlariga joriy etgan. Dastlabiga H. Suriya, Kichik Osiyo va Hindistonda tez tarqalgan, lekin kundalik turmushdagi ko'rsatmalar og'irlik qilgani bois, uning ommaviyligi susaygan, a'zolarining soni keskin qisqargan, jamoalar yoki tarqab ketgan yoxud shu viloyatlarda faoliyat yurgizgan qapandariyaga qo'shib ketgan.

2. Boshqa bir nomi - mirhaydariy. Shialik (imomiylik)dagi tariqat. 14-a. oxiri - 15-a. boshida Eronda vujudga kelgan va butun mamlakatga keng tarqalgan. Asoschisi - Sulton Mir Haydar Tuniy (1427 y. Tabrizda v.e.). U o'z shajarasini imom Muso al-Kozimga bog'lagan. H.lar bayram kunlari maxsus kiyim kiyganlar: besh qavat qilib o'ralgan salla, yelkalarida qo'yning xom terisi; o'ng qo'lda - hassa-tayoq, chap qo'lda - cho'pon burg'usi. Ular dastlabki uch xalifa va payg'ambar (as)ning sahobalarini ochiq ravishda haqorat qilganlar. Ularga qarshi sunniylarning ne'matullohiylar tariqati a'zolari kurashganlar, ayniqsa, shia bayramlari vaqtida qattiq to'qnashuvlar sodir bo'lgan. Faqat 20-a. 20-30-y.laridagana Eronda bunga chek qo'yilgan.

3. "O'ta" shialar jamoasi (g'ulot); 15-a.ning 60-y.larida Anadolu, Suriya va Ozarbayjonda ko'chmanchilik qilgan turkman qabilalari orasida paydo bo'lgan. Ular o'zlarini Haydar ibn Junayd - safaviylikdagi beshinchi piri murshidning izdoshlari deb hisoblashgan. Haydar ibn Junayd tariqatga 1464-1488 ylarda boshchilik qilgan va o'z tarafdorlari orasida maxsus bosh kiyimi (toj) kiyishni joriy qilgan. U qizil rangli kigizdan qilingan uzun quloqchin bo'lib, atrofiga salla, 12 qavat qilib o'ralgan yoki shu rangda tikilgan 12 og'dan mato bog'langan. Shundan uning tarafdorlarining nomi - qizilboshlar olingan.

H. Alini iloh yoki ilohiy haqiqat (haqq) deb, shayx Haydar (keyinchalik uning o'g'li Ismoil I) - Alining mujassamoti deb hisoblaydilar. Ular ruhlarning ko'chishiga (tanosux) qattiq ishonib, ularning murshidi gunohlarni kechirish qudratiga ega, Qur'on yaratilgan va Muhammad (sav) vafotlaridan keyin u umaviylar davrida butunlay soxtalashtirilgan, shuning uchun ilohiy vahiyilar Qur'onda emas, balki Ismoil I ning "Devoni Xitoiy" ("She'rlar to'plami")da namoyon etilgan, deb hisoblaydilar. Ismoil I davrida (1502-1524) H. tarafdorlari qisman qirg'in qilingan, bir qismi Kichik Osiyoga ketib, bektoshiylar tariqati ta'limotiga ta'sir ko'rsatgan.

HAYIT (arab. iyd - bayram) musulmonlarning diniy bayrami. Islom an'anasida ikkita H. rasman diniy bayram sifatida nishonlanadi: katta H. yoki qurbon H.i (arabcha iyd al-kabir, iyd al-adho) va kichik H. yoki ro'za D.i (arabcha iyd as-sag'ir, iyd al-fitr). Qurbon H.i haj marosimi va qurbonlik qilish bilan, ro'za H.i esa, ramazon oyi nihoyasida og'iz ochish bilan bog'liq. Kurbon H.i hijriy zu-l-hijja oyining 10-kunida, ro'za H.i esa, shavvol oyining 1-kunida bayram qilinadi. H.da masjidda ertalab H. namozi o'qish, ro'za H.ida fitr-sadaqa berish (H. namozidan oldin), qurbon H.ida esa, kurbonlik qilish va sh.k. islom bilan bog'liq marosimlar yuzaga kelgan. H.dagi bu marosimlarga ko'p joylarda xalqlarning mahalliy odatlari: arafa kuni osh ulashish, yangi kiyim kiyish, "hayitlik" berish, sayil qilish, yaqin odamlarini ko'rish va h.k. ham qo'shilib ketgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qurbon H.i ham, ro'za H.i ham umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

HAKAM ("donishmand") - odatiy huquq bilimdoni. Unga xuddi sudyadek turli huquqiy masalalarni yechish uchun murojaat qilishgan. Johiliyat davrida Arabistonda H. qabila boshlig'i (shayx) lashkarboshi (qoid) va bashoratchi (kohin) qatorida qabila rahbariyatiga kirgan. Islomning dastlabki o'n yilliklarida uning o'rniga xalifa tomonidan tayinlangan diniy sudya - qozi kelmaguncha H. o'z mavqeini saqlab qolgan. Vaqt o'tishi bilan o'zining rasmiy maqomini yo'qotgan H. yana ancha vaqtgacha qabiladoshlari va qo'shinlari uchun huquq sohasidagi bilimdonligicha qolgan, unga xolis sudya (hokim) sifatida murojaat qilishgan.

HALLOJ Husayn ibn Mansur (858-922) -tasavvufdagi o'ta so'l oqimning yirik vakili. Royaviy jihatdan qarmatlarga yaqin bo'lgan. Tur, Bayda, Basra, Bag'dod shaharlarida bilim olgan. Musulmonlarning ayrim odatlariga va shariatning ba'zi qoidalariga zid fikrlar aytgan. Islomning Alloh to'g'risidagi yakkaxudolik aqidasiiga zid ravishda xudo insonda namoyon bo'ladi, inson va umuman moddiy olam Xudoning jilolanishi, "Men haq (xudo) man", ("Ana-l-haqq"), mening o'zligam - Xudoning o'zligvdir, degan fikrni ilgari surgan va bu fikr bilan vahdati-vujud ta'limotiga yo'l ochgan. H. o'z g'oyalarini O'rta Osiyo, Hindiston, Iroq va b. mamlakatlarda targ'ib qilgan va muxlislar orttirgan. Musulmon olimlari H.ni bid'atchilikda va shakkoklikda ayblab, qatl etishga hukm chiqarganlar.

HALOL ("erkin", "bog'lanmagan", "tugunni yechish") - 1) Ruhsat berish; farz, mandub va muboh tushunchalariga kiruvchi ruhsat etilgan xatti-harakatlar; man etilgan xatti-harakatlar (harom)ning ziddi. H. haqidagi masalalarni fiqhning ahkom bo'limi o'rganadi. Shariatda esa, haromlik tuguni yechilgan, ya'ni haromlik sifati yo'q narsaga, H. deb aytiladi. Chunki, harom narsaning man qilish tuguni bo'ladi. H. narsada ana o'sha tugun bo'lmaydi, bo'sh bo'ladi. Hadisi sharifda, H. ochiq-oydindir, deyilgan. Avvalo, nima narsalar H. ekani ochiq-oydindir; suv, sut, meva suvlari kabi ichimliklar, non, meva, poliz ekinlari, Allohning ismi aytib so'yilgan H. hayvonlar go'shtlari kabi taomlar, ruhsat berilgan kiyimlar va nikohga olingan shaxslar kabilar H.dir. Qolaversa, ushbu narsalarga ega bo'lish ishonchli, shariatda ruhsat berilgan yo'l bilan bo'lishi kerak. H. kasb deganda, aynan shu ma'noda gap ketadi. Ya'ni, H. narsaga H. yo'l bilan ega bo'lish lozim. H. mehnat, meros, hadya, ikki taraf roziligi bilan bo'lgan tijorat tufayli qo'lga kirgan mulk H. bo'ladi. Musulmon odam uchun H. narsani talab qilish, H.dan molu mulk topish farzdir. Musulmon inson o'zi H. bo'lgan narsani, shariatda H.

qilingan yo'l bilan topib foydalanishi kerak. Shariatda H. hisoblangan narsani harom deb e'tiqod qilgan odam kofir bo'ladi. 2) Shar'iy nikoxdan o'tishlari mumkin bo'lgan ayol yoki erkak. 3) Haj ziyoratidan qaytib kelib, sochlarini oldirgan va kundalik kiyim-boshini kiyib, ruhsat etilgan barcha odatdagi ishlar va kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lgan kishi holati.

HAMADONIY Yusuf (1048, Hamadonning Buzanjird qishlog'i - 1141, Afg'onistonning Bomiyon sh.) - tasavvufning yirik namoyandasi, mashhur olim. Bag'dodda Abu Ishoq Sheroziydan tahsil olgan. Isfahon, Samarqand, Buxoroda o'z bilimini oshirgan. Tasavvufni Abu Ali Faryumodiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnoniydan o'rgangan. Zamonasining yetuk allomalari Abdulqodir Giloniy (G'avsul-a'zam), Imom Razzoliy, shayx Hamiduddin Multoniy bilan muloqotda bo'lgan. 30 marta haj ziyoratiga borgan. H. Buxoroda uzoq muddat yashab, Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq Rijduvoniyni tarbiyalab, voyaga yetkazgan. U keyinchalik xojagon-naqshbandiya tariqatining bosh shiorlariga aylangan "xush dar dam", "nazar bar qadam", "safar dar vatan", "xilvat dar anjuman" qoidalarini ishlab chiqqan. Xalifalaridan 4 nafari: Xoja Abdulloh Barqiy (Barraqiy) Xorazmiy, Xoja Hasan Andoqiy Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustozidan so'ng muridlarning tarbiyasi bilan shug'ullanganlar. H. "Rutbat ul-hayot" ("Hayot mezoni"), "Kashf", "Risola dar odobi tariqat", "Risola fi annal-kavna musaxxarun lil/inson", "Risola dar axloq va munojot" kabi asarlarni yozgan. "Hayot mezoni" risolasi o'zbek tilida ham nashr qilingan (T., 2003). Hirotdan Marvga qaytayotganda Bomiyon sh.da vafot etgan. Keyinchalik xoki muridlari tomonidan Marv sh.ga ko'chirilib, qayta dafn etilgan. H. haqida Abdulxoliq Rijduvoni, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy o'z asarlarida muhim ma'lumotlar keltirishgan.

HAMO'IL - tumorlar, munchoqlar. Sinonimlari xurz (ko'pligi axroz), hamayya, hafiz, uza, ma'aza, nusxa, tilsam yoxud tilasm (yunonchadan) va b. Ilohiyotchilar doim H.dan foydalanishni qoralaganlar, lekin xalq orasida u keng tarqalgan; H.ni odatda darvish va duoxonlar tayyorlashgan. H. varaqacha yoki yozuvi, belgilari va suratlari bor bir necha varaqdan iborat bo'lgan; H. sifatida tasodifan topib olingan (chig'anoqlar, toshlar, suyaklar) yoki maxsus yasalgan, ba'zan qimmatbaho kichik narsalardan ham foydalanganlar; predmetlarning ko'pincha yozuvlari va tasvirlari bo'lgan. H.ni medalon, quticha, hamyonchaga solib olishgan yoxud teri, mato va b.dan tikilgan xaltachaga tikib olishgan va b.; ularning hajmi va shakli turlicha bo'lgan. Tumor va munchoqlarga Allohning ismlari (99 ta go'zal ism), farishtalarning ismlari (Mikoil, Jabroil, Azroil, Isrofil; juft va g'aroyib eshitiladigan: Qaytar-Maytar, Tolix-Ilix, Kintosh-Yaqintosh, Xorut-Morut), "etti uxlovchi" va Qur'ondan oyatlar (ayniqsa 1 sura; 2:255/256; 9:129/130; 113 sura; 36-suradan parchalar), astrologik ramzlar (zodiak belgilari), sirli yozuvlar (xalqachalar, gajaklar, naqshlar, kichik "oy" va "toj" tasviri bilan birgalikdagi yahudiy va b. alifboning buzilgan harflari)ni yozishgan. O'rta asrlarda arab tilida tumorlar va munchoqlarning sehrli xususiyati, ularni yomon ko'zdan asrashi, ilon, chayon chaqishidan, tabiiy ofatdan asrashi va b. haqida ko'p asarlar yozilgan. Tumor va munchoqlarning kashf etilishi va tayyorlash usulini Odamoto, Sulaymon podshoh, Balinas al-Hakim, Jirmis al-Musallis nomlari bilan bog'laydilar (yana q. Sehr).

HANAFIYLIK - sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa asos solgan. Undan keyin H. mazhabi qoidalari Abu Yusuf Yoqub (795 y. v.e.), Muhammad ash-Shaybon (804 y. v.e.), Quduriy (1036 y. v.e.) va b. asarlarida ishlab chiqilgan. Bu mazhab tarafdorlari fiqhning to'rt asosiy manbaini e'tirof etish (q. Usul al-fiqh) bilan birga boshqa oqimlar vakillariga nisbatan fiqh talablariga rioya etishning oqilona usullaridan kengroq foydalanadi. Bu mazhabning xususiyatlari quyidagilardan iborat: Qur'on huquq manbai sifatida hech so'zsiz, to'laligicha qabul qilinadi; sunna mustaqil manba sifatida qaraladi, biroq hadislar jiddiy tanlovdan o'tgan bo'lishi lozim; avval o'tgan ulamolardan meros bo'lib qolgan kelishilgan fikr (ijmo) faqat sahif hadis rivoyatchilaridan chiqqan takdirdagina hisobga olinadi. Lekin, yangi masalalar tadqiq qilinayotgan vaqtda boshqa har qanday obro'li ulamolarning guruhining ijmosi qabul qilinadi va shu tariqa diniy ijmolar vujudga kelishi imkoni yaratiladi. Qiyos bo'yicha hukm har qanday sahif manba asosida ham bo'lishi mumkin. Agar qiyos bo'yicha hukm zararli yoki mavhum natijaga olib kelsa, istihson bo'yicha qaror qabul qilinadi. H. mazhabi oddiy huquq (urf)dan ham huquqning keng mustaqil yordamchi manbai sifatida foydalanishga imkon beradi, bu hol hayotiy ehtiyojlarni va mahalliy odatlarni hisobga olib huquqiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu mazhab qoidalari mo'tadilligi, birmuncha yumshoqligi, qulayligi, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olganligi sababli 11-a.dan boshlab shimol va sharqqa keng yoyilgan. Kichik Osiyo, Bolqon, Shim. Kavkaz, Qora dengaz, Volga bo'ylari, O'rta Osiyo, Afgoniston, Hindiston va Xitoyning olis kengliklarigacha bo'lgan hududlarga tarqalgan. Hoz. davrda dunyo musulmonlarining qariyb yarmi H. mazhabida.

HANBALIYLIK - sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Ahmad ibn Hanbal asos solgan. H. huquq tizimi o'ta torligi, har qanday ko'rinishdagi "yangilik"ka, diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat ahkomlariga rioya etishda qat'iy turishligi bilan ajralib turadi. H. tarafdorlari Qur'on va hadislarni erkin talqin etish yo'lidagi har qanday urinishlarni qoralaganlar. Shuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat 9-a.ning 2-yarmida arab xalifaligida mu'taziliylarning va ilohiyot sohasidagi hurfikrlilikning ta'qib ostiga olinishi tufayli H. ta'siri birmuncha kengaygan va 12-a.da mustaqil mazhabga aylangan. 10-a.da Eronda, 11-a.dan 15-a.gacha Suriya va Falastinda H. izdoshlari ko'p bo'lgan. Undan keyingi asrlarda H. tarafdorlari yana kamayib ketgan. Hozirda H. Saudiya Arabistonida rasman e'tirof etilgan, boshqa mamlakatlarda kam uchraydi.

HANIF (arab. - chinakam e'tiqod qiluvchi, taqvodor) - haqqa moyil yakkaxudolikka e'tiqod qiluvchi taqvodor odam. Musulmonlar rivoyatiga ko'ra, islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig'inishni rad etgan, zohid, yakkaxudoga astoydil ishongan, lekin xristianlikka ham, yahudiylikka ham qo'shilmagan va Ibrohim (as) dinlarida bo'lgan odamlarni H. deb atashardi. Qur'onda Ibrohim (as) ham H. deb nomlangan, uning chinakam yakkaxudolikka asoslangan dinini Muhammad (sav) tiklagan, deb hisoblanadi. 8-9-a.lardan boshlab H. ko'pincha "musulmon", islom esa, haniflik dini ma'nosida ishlatilgan. So'fiylar ham o'zlarini H. deb atashardi.

HARAM (arab. - sahn, chegara) - 1) musulmonlarda muqaddas deb hisoblanadigan, qon to'kish, qurol olib yurish taqiqlanadigan joy, hudud. Makkai mukarrama sh. atrofida

belgilangan maxsus chegara ila o'ralgan, shahar va uning atrofidagi ma'lum joylarni o'z ichiga olgan mintaqa. Bu hudud Payg'ambar (sav)dan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, Alloh taolo osmonlaru yerni yaratgan kunida harom qilingan. U Allohning hurmati ila qiyomat kunigacha haromdir; daraxti kesilmaydi, o'simliga yulinmaydi, hayvonlari ovlanmaydi va urush qilib bo'lmaydi. Bu hukm johiliyat vaqtida ham joriy qilinar edi. Bir-birlari doimo urush qilib yuradigan arab qabilalari ham H. hududida o'z dushmanlarini ko'rib qolsa, unga tegmasdi. H.da nafaqat odamga, balki hayvonot va nabobot olamiga, hech bir narsaga ozor berilmaydi. Olimlar, jinoyat qilgan odam qochib H.ga kirib olsa, unga ozor berilmaydi, ammo unga joy, taom berilmasdan, muomala qilinmasdan, H.dan qaytib chiqishga majbur etiladi va chiqqandan so'ng ushlab jazosi beriladi, deyishgan.

H. chegarasida ov qilishga qat'iy hech kimga izn yo'q. Alloh taolo O'zining muqaddas shahri Makkai mukarrama atrofidaga ma'lum hududni odamlar, hayvonlar, o'simliklarga hech ozor yetkazilmaydigan mintaqaga aylantirgan. Hoz. kunda H. chegarasidan musulmon bo'lmaganlar kirmasligi yozib qo'yilgan va taftish ham bor. Makka va Madinadagi muqaddas joylar (q. Harom masjidi), Quddus ziyoratgohi (q. Aqso masjidi) va b. o'z H.iga ega. 2) Boy musulmon xonadonining ayollar yashaydigan ichki qismi. 3) Turkiya, Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari hamda O'rta Osiyoda hukmdorlar saroylarida xotin va kanizaklar yashaydigan qismi. 20-a.ning 20-y.laridan boshlab musulmon mamlakatlarining aksariyatida kup xotinlilikning man etilishi, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti, demoqratik harakatlar, xotin-qizlar harakatining o'sishi natijasida H.lar deyarli barham topgan.

HAROM (arab. - man qilingan, taqiklangan) - shariatda hech qanday shubhasiz, ochiq-oydin ravishda man qilingan narsa. Araq, najosat tushgan suv kabi ichimliklar, cho'chqa go'shti, Allohning ismi aytilmay so'yilgan hayvonlar go'shti, erkak kishilarga ipak kiyimlar va nikohida bo'lmagan shaxs ila jinsiy aloqada bo'lish kabilar H.dir.

Shu bilan birga o'zi halol bo'lgan narsalarga shariatda man qilingan H. yo'l bilan ega bo'lsa, ular ham H.ga aylanib qoladi. Misol uchun, zulm, o'grilik, riboxo'rlik, aldanchilik, poraxo'rlik yo'li bilan topilgan har bir narsa, o'zi qancha pok bo'lsa ham, topuvchiga H.dir. Shuning uchun ham ulamolar mutlaq H.ni - o'zida H.lik sifati bor yoki man qilingan yo'l bilan topilgan narsadir deb ta'rif qiladilar. Musulmon inson uchun H.dan hazar qilish farzdir.

Alloh taolo mo'min-musulmonlarni H. - botil yo'l bilan bironing molini yeyishdan qat'iy ravishda qaytargan.

Bir luqma H. taom yegan odamning necha kunlab duosi qabul bo'lmasligi ta'kidlangan. Musulmon inson H. yo'l bilan molu dunyo kasb qilishdan, xuddi cho'chqaning go'shtini yeyishdan hazar qilgandek, hazar qilish kerak. H. yo'l bilan molu dunyo topgan odam ikki dunyoda sharmanda bo'ladi. Bu dunyoda azob-uqubat, turli balo-ofatlarga yo'liqib, u dunyoda jahannam ichida turib, qorniga olovni taom o'rniga yeydi. Shariatda H. hisoblangan narsani halol deb e'tiqod qilgan odam kofir bo'ladi. H.ga ota-onaga oq bo'lish, zinokorlik, ribo (sudxo'rlik), sehrgar va folbinlarga ishonish, o'g'rilik, qaroqchilik, poraxo'rlik, josuslik, chaqimchilik, yolg'onchilik, qotillik, nohaq qon to'kish, xiyonatkorlik, o'likka dod-voy solib yig'lash, savdo-sotikda g'irromlik, g'iybat, tuhmat kabilar H. amallardir. Yeyiladigan narsalardan to'ng'iz, vahshiy hayvonlar, o'zicha o'lgan halol hayvonlar, so'yilganda oqqan qon, "bismilloh" aytmay so'yilgan halol hayvon go'shtlari, dinsiz (majusiy)lar so'ygan hayvon go'shtlari, mast qiluvchi ichimlik va giyoxlarning hammasi islom shariatida H. qilingan. Bulardan tashqari erkaklarga tilla narsa taqish,

ipak kiyim kiyish, ayollarga erkakcha kiyinish, tilla-kumush idishda ovqatlanish, avrat joylarini ochib yurish kabilar ham H. amallardan sanaladi. Foydalanishi H. etilgan va istifoda qilgan kishiga faqat zarar beradigan o'simliklarni ekish ham, parvarish qilish ham islomda H. hisoblangan. Mas., nasha, qoradori, afyun singlarlar. Tamaki ham shular toifasiga kiradi. Bir narsaning H. ekani shubhasiz, ochiq dalillar bilan ma'lum bo'lsa, uni ekish va yetishtirish ham H.dir. Agarda u narsa makruh bo'lsa, uni ekish va yetishtirish ham makruh sanaladi. Musulmon kishi g'ayrimusulmonga sotish niyatida H. narsani ekishi (u narsadan o'zi foydalanmasa ham) halol bo'lmaydi. Chunki, musulmon hech qachon H.ga qo'l urmasliga, H-Dan istifoda etmasligi, undan uzoq turishi kerak. Shunga ko'ra, mas., nasroniylarga sotish uchun cho'chqa boqish ham musulmonga joiz emas. Bu xususda islomning hatto araq tayyorlanishi aniq ma'lum bo'lgan joyga uning xomashyosini (uzum yo bug'doyni) sotishni ham H. qilganini e'tiborga olsak, masala yanada oydinlashadi.

HAROM MASJIDI (arab. - muqaddas masjid) - Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi va u bilan bog'liq bo'lgan majmua. Qur'onda shu nom bilan tilga olingan. Bu majmua qadimdan mavjud bo'lgan, arablarda islomgacha ham sig'iniladigan muqaddas joylardan biri hisoblangan. Yunon tarixchisi Ptolemey asarlarida 2-a.da Makka va undagi ibodatxonaning mavjudligiga qayd qilingan. 630 y. musulmonlar Makkani fath qilishgach, H.m. islom dinining markazi, eng muqaddas ibodatxona deb tanilgan. H.m. majmuasining markazida Ka'ba va hovlisida Zamzam bulog'i, ikki tepalik (Safo va Marva) bor. Tepaliklar tim bilan tutashtirilgan. Masjid 1570 y.da majmua bo'lib shakllangan. H.m. musulmonlar haj qiladigan muqaddas joy hisoblanadi. U g'ayrimusulmlar uchun yopiqdir. Oxirgi ta'mirlash ishlaridan so'ng H.m. maydoni kengayib, 328 ming kv.m.ni tashkil etadi. Bu esa, bir vaqtning o'zida 730 ming, haj va umra paytlarida esa, 1 mln. namozxonni o'z bag'riga sig'dira oladi. Haj marosimining boshlanishi va tugallanishida albatta H.m.ga kelib, Ka'ba tavof qilinadi.

HASAN ibn Ali (625-669) - Ali ibn Abu Tolib(kv)ning (Fotimadan tug'ilgan) o'g'li, Muhammad(sav)ning nabirasi, ikkinchi shia imomi. 661 y.da Ali o'ldirilgandan keyin uning tarafdorlari H.ni Iroqda xalifa deb e'lon qilgan va Muoviya hokimiyatiga qarshi kurashni yangitdan boshlashga da'vat etgan Lekin, H. (ra) Muoviya bilan muzokaralar olib borib, u bilan kelishgan, o'ziga in'om etilgan katta mablag' hisobiga hokimiyatga da'vo qilishdan voz kechib, Madinaga ko'chib ketgan va u yerda vafot etgan (shialik rivoyatlar bo'yicha zaharlab o'ldirilgan).

HASAN al-BANNO (1906-1949) - imom shayx. Avval Rashod madrasasi, Mahmudiyadagi (Quyi Misr) E'dodiy madrasada, so'ng Qohiradagi Dorul-ulumda ta'lim oldi Yoshligidanoq "Adabiy axloq jamiyati" keyinroq "Haromdan man etish jamiyati" kabi tashkilotlar tuzib ijtimoiy hayotda faol ishtirok etdi. 1928 y.da bir nechta do'stlari bilan "Ixvon ul-muslimin", ya'ni "Musulmon birodarlar" jamiyatini tuzdi. Ushbu jamoaning maqsadi juz'iy va mazhabiy ixtiloflarni chetlab Qur'on va sunnatga qaytish bo'lgan. H.B. islomni din va davlat sifatida, shariatni esa, hayotning tarbiyaviy ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy jabhalarida inson tasarrufotlarini tartibga solib turuvchi nizom deb hisoblagan. H.B. haftalik "al-Ixvon ul-muslimin" va keyinchalik "an-Nazir" jurnallarini nashr etgan.

Uni kitob ta'lif etishga vaqt bo'lmagan. Keyinchalik turli risola va ma'ruzalari to'planib "Majmuat ur-rasoil kitobi tayyorlangan.

HASAN BASRIY, Abu Said ibn Abil Hasan Yasor (642-728) - ilk islomning yirik ilohiyot olimi. Madinada tug'ilgan, 657 y.dan Basra sh.da yashab, shu yerda vafot etgan. 663-665 ylarda hoz. Afg'oniston hududidagi harbiy yurishda qatnashgan. Xalifa Umar ibn Abdulaziz (681-720) davrida Basrada qozilik qilgan. H.B. atrofida ilohiyot olimlari to'planib, ular Umaviylar davlati ma'naviyatini belgilagan. H.B. obro'si shunchalik baland bo'lganki, uni ahdi sunna namoyandalari ham, mu'taziliylar ham so'fiylar ham o'z ustozlari hisoblagan. H.B qarashlari haqida ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Ularga ko'ra, H.B. iroda erkinligi (ixtiyoriylik) masalasida qadariylar nuqtai nazarida turgan va inson bu dunyodagi qilmishlari uchun o'zi mas'ul ekanligini ta'kidlagan. Ayni vaqtda murji'iyalar ta'limoti ruhida: "Jon taslim qilish paytida kalima keltirgan musulmon najot topib, jannatga kiradi", deb aytgan ekan. H.B. mo'tadil siyosiy qarashlarga mos mavqeda turgan: umma birligini saqlab qolishga harakat qilib, musulmonlar o'rtasidagi harbiy mojarolarni qoralagan.

HAFTIYAK (fors. - yettidan bir) - Qur'oni karimning yettidan bir qismi bitilgan kitob. Yosh qorilarga qulay bo'lsin uchun Qur'on suralaridan bir nechtasi (13-14 ta) tanlanib, qiroat kitobi shakliga keltirilgan, uni talabalar oldingi davrda boshlang'ich maktablarda darslik sifatida o'qigan. O'tmishda Turkistondagi maktablarda xrestomatiya vazifasini o'tagan birinchi qo'llanma. Bolalar arab alifbosini o'zlashtirganlaridan so'ng o'rgatilgan. Odatda H. 1-2 y. o'qitilgan. H.dan so'ng Qur'oni karimni o'qishga o'tilgan. Yosh talaba kichik suralardan ma'lum mikdorda yod olgandan keyin H.ni o'qishga kirishish marosimini o'tkazish odatga aylangan. Keyinga paytda H. o'rniga bir yo'la Qur'oni karimning to'liq nusxasidan o'qish va o'qitish rasm bo'lgan.

HASHVIYLAR, al-Hashaviya (yoki ahl al-hashv) - antropomorfik (xudoni inson qiyofasida tasavvur etuvchi) qarashlarni targ'ib etgan musulmon an'anachilari (traditsionalistlar)ning laqabi. 8-a.da antropomorfik iboralar qo'llagan, Qur'on va ilohiy takdiri azalni abadiy ekanligini e'tirof etgan "hadis tarafdorlari" (ashob al-hadis)ga nisbatan ahl al-hashv nomi ishlatilgan. Ular qatoriga Kahmas ibn al-Hasan al-Basriy (766 y. Basrada v.e.), Ahmad al-Hujaymiy, Mudar ibn Xolid al-Kufiy va b.ni qo'shish mumkin. Munozara adabiyotida ahd al-hashv ko'pincha o'ylamasdan so'zlaydigan kishilar, payg'ambarimiz Muhammad (sav)ning so'zlari va ishlari haqida o'z bilganicha safsata to'qiydiganlarga nisbatan haqoratomuz laqab sifatida qo'llanilgan.

HASHHOSHIYLAR (arab. - hashish chekuvchilar, giyohvandlar) - ismoiliylar ichidagi yashirin terrorchilik bilan shug'ullangan firqa tarafdorlari. 11-a. oxirida Eronda ismoiliylar harakatining bo'linib ketishi natijasida paydo bo'lgan. Asoschisi - Hasan ibn Sabboh (1124 y. v. e.). Eronning shim.-g'arbidagi tog'lar orasida joylashgan Alamut qal'asi H. jamoasining markazi bo'lgan. H. harakati Suriya va Livanda, keyinchalik Hindistonda ham tarqalgan. U O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi qarmatlar harakati bilan uzviy bog'liq. H. xalifalik va saljuqiylarga qarshi kurashgan. H.ning rahbarlari o'z dushmanlarini o'ldirishni siyosiy kurashning asosiy vositasi deb bilgan. H. goyat yashirin

holda ish ko'radigan va tarmoqlangan terrorchilik tashkilotini vujudga keltirgan. Uz maqsadlarini amalga oshirish (hukmdorlar, podsholar, qirollar va yirik namoyandalarni o'ldirish)da fidoyilar(qashshoq dehqon va shaharlik yoshlar)dan foydalangan. Terrorchi (fidoyi)larga giyohvand moddalarni iste'mol qildirib, o'lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan. Birmuncha davr H. ko'p hukmronlarga dahshat solib turgan, ulardan ko'plari (jumladan ayrim Yevropa mamlakatlari imperatorlari va qirollari ham) o'z jonini saqlash uchun H.ga to'lov to'lab turgan. 1256 y. mo'g'ul istilochilari Alamutni bosib olib, Eronda H. jamoasiga barham bergan. 1273 y.da mamluklar qo'shini Suriya va Livandagi H.ning oxirgi tashkilotlarini tugatgan.

HAQQ ("asl", "haqiqiy", "haqiqat") - voqelik haqida bildirilgan fikr voqelikka to'g'ri : kelishini anglatuvchi termin; fikr ! mulohazalarning voqelikka mos kelishi sidq | termini bilan ifodalangan. Bu ikki termin ; ko'pincha sinonim sifatida ishlatilgan, biroq qo'llaniladigan joyiga qarab ularni farqlashgan: H. termini din yoki mazhabga ; ishontirish (akdda) uchun ishlatiladi. Bunda uning ziddi - botil istilohidir. Sidq | termini fikr (hukm), mulohaza (qavl)ni ta'riflashda qo'llanilib, uning ziddi - kizb.

HIDOYA (arab. - qo'llanma; to'la nomi "al- : Hidoya fi sharh al-Bidoya" - "Bidoya \ (kitobi)ning sharhi bo'yicha qo'llanma") - ; sunniylikning hanafiylik mazhabida keng I tarqalgan shariat qo'llanmasi (kodeksi). Qo'llanmani Burhoniddin Marg'inoniy 13 yil davomida yozgan. Uni yaratishda Burhoniddin Marg'inoniy Qur'oni karim oyatlari, dastlabki 4 xalifa, sahobalar va tobeinlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylik oqimidagi 4 mazhab asoschilarining asarlariga tayangan. H. 4 jilddan iborat, 57 kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan. H.ning 1-jildi 5 kitobdan iborat bo'lib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro'za, zakot va haj)ga bag'ishlangan. 2-jildga nikoh, emizish, taloq, qul ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik, vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. 3-jildga oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohdik, vakolat, da'vo, sulh, qarz berish, sovg'a, ijara, voliylik (patronat), homiylik kabi masalalar o'rin olgan. 4-jildga shafolat, merosni taqsimlash, vasiyat, dehqonchilik va bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik qilish, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash kabi masalalar yoritilgan. Kitob yaratilgan davrdan boshlab faqihlar, tarixchilar, shohu hokimlar diqqatini tortib keladi. H. bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlari, jumladan, Osiyoda ham huquqshunoslik bo'yicha eng asosiy qo'llanma hisoblangan. O'zbekistonda 20-a.ning 30-y.larigacha - shariat qozilari bekor qilinib, sho'rolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda bo'lib keldi. U musulmon mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. Kitob jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. H.ni o'zbek tilida mukammal tarjima etishga kiritilgan (kitobning 1-jildi 2000 y. bosmadan chiqdi).

HIDOYAT (arab. - to'g'ri yo'l) - haqiqiy e'tiqod yo'lidan yurish. Zalolatning qarama-qarshisi. H. Alloh o'z bandalari uchun ko'rsatgan eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Qur'oni karimning yuzlab oyatlarida H. to'g'risida ma'lumotlar bor. Ularda ta'kidlanishicha, alloh taolo H. yo'lga hammani ham boshlamaydi, balki o'zi xohlagan, tanlagan kishilarnigina bu ne'matga musharraf etadi. Hatto Payg'ambarimizga xitob qilib: "Sen xohlagan kishingai H.ga erishtira olmaysan, lekin Alloh o'zi xohlaganiga H. ato qilur" -degan

mazmunda oyat nozil qilgan. Demak, H. sari da'vat qilish yaxshi, lekin unga erishish Allohning izni bilan amalga oshar ekan.

HIJOB (arab. - parda, yoping'ich) - musulmon ayollarning ko'chaga chiqqanda tanasining avrat qismini berkitib turadigan yoping'ichi. H.ni dastlab Muhammad (sav)ning xotinlari keyinchalik barcha ozod musulmon ayollar yopinishi haqida Qur'on oyati (33, 54) ila ko'rsatma berilgan. H.ning bir necha turlari bor. O'zbek ayollarining milliy kiyimi shaklan H. kiyimi bilan uyg'unlashib ketgan. H.ni musulima ayollar, o'zlariga mahram bo'lmagan, ya'ni, oralarida nikoh qilinishi mumkin bo'lgan er kishilar oldida kiygan hodda bo'lishlari lozim bo'ladi. H.ni oddiy bir xil rangdagi, ajnabiy kishilarning nazarlarini jalb qilmaydigan matodan bo'lishi matlubdir.

HIJRA, h i j r a t (arab. - ko'chib o'tish) -Muhammad (sav) va tarafdorlarining Makkadan Madinaga ko'chishi. O'z diniy targabotlarini Makkada boshlagan Muhammad (sav) Quraysh mushriklarining unga nisbatan dushmanligi kuchayishi, vaziyatning ogarlashishi natijasida 622 y. safdoshlari bilan Madinaga ko'chganlar. Ko'chish bir necha oy davom etgan, 638 y.da xalifa Umar buyrug'i bilan musulmonlar o'rtasida H. taqvimi amalga kiritilgan, ya'ni 622 yil musulmon yil hisobining boshi deb e'lon qilingan (q Hijriy yil hisobi).

HIJRIY YIL HISOBI - xalifa Umar ibn Xattob tomonidan joriy qilingan musulmonlar yil hisobi. Muhammad (sav) va safdoshlarining Makkadan Madinaga ko'chishi (q. Hijra) bilan bog'liq. Qamariy (hijriy-qamariy yil) va shamsiy (hijriy-shamsiy yil)ga bo'linadi. Qamariya bo'yicha H. y. h. 622 y.ning 16 iyulidan boshlanib, sinodik oy (29, 530588 kun)ga asoslangan. 12 oydan iborat bir qamariy yil 354,3671 kundan iborat. Qamariy yidda 1, 3, 5,-7, 9 va 11-oylar 30 kundan qolganlari 29 kundan butun qilib olingan, Oylar tartibi bilan muharram, safar, rabiul avval, rabiul oxir, jumodil avval, jumodil oxir, rajab, sha'bon, ramazon, shavvol. zulqa'da, zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan (hoz. figoriy taqvimidan) 10-12 kun qisqa. Agar grigoriy taqvimida oddiy yil, qamariy taqvimda esa, kabisa yili bo'lsa. ularning farqi 10 kun, ikkala taqvimda oddiy yoki kabisa yillari bo'lsa, farqi 11 kun. qamariy taqvimda oddiy va grigoriy taqvimida kabisa yili bo'lsa, ularning farqi 12 kun bo'lib, oylar, fasllar bo'ylab qishdan kuzga, kuzdan yozga va h.k. surilib boradi. Qamariy yilning ba'zilari kabisa bo'lishiga sabab yilning kasr qismi (0,3671 kun) har 30 yilda 11,013 kunni tashkil etishidir. Uning 19 yili oddiy (354 kunlik), 11 yili kabisa (355 kunlik), 30 yillik arabcha tsiklning 2, 5, 7, 10, 13, 16, 18, 21, 24, 26 va 29-yillari kabisa deb qabul qilingan. Qamariy hisobi Yaqin va O'rta Sharqning ko'p mamlakatlari va b. ba'zi mamlakatlarda qo'llaniladi. Hijriy-shamsiy yil hisobi 622 y.ning bahorgi tengkunlik kuni - 21 martdan boshlab hisoblanadi; keyingi yil boshlari esa, 20, 21 yoki 22 martga to'g'ri keladi. Davomiyliga grigoriy taqvimidagi kabi 365 yoki 366 kundan iborat. Shamsiy bo'yicha oylarning nomlari xut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jady va dalv bo'lib, bu oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtlarida keladi. Shamsiy hisobdan Afg'oniston, Eron, Turkiya va b. mamlakatlarda foydalaniladi. Islom diniy an'anasi qamariya H.y.h.ga asoslangan, barcha diniy urf-odat va bayramlar ana shu taqvim asosida o'tkaziladi. O'rta Osiyoda yangicha yil hisobi keng ommaviylashganiga qadar qamariya hisobi ham, shamsiya hisobi ham

ishlatilib kelingan. Hoz. vaqtda O'zbekistonda H.y.h.dan diniy muassasalar va ruhoniylar foydalanadi.

HIZBULLOH (arab. - Alloh partiyasi) - islomdagi fundamentalistik firqa. 80-y.larning o'rtalarida tashkil topgan. Bir necha musulmon mamlakatlarda, asosan, Eron va Livanda faoliyat yuritadi. H.ning asosiy shiori - "Islom respublikasi"ni tuzish uchun islom inqilobini amalga oshirish. Iroqda, Isroil bosib olgan G'azo sektorida, Livanda xam H. guruhlar bor. Hozirda H. Falastin -Isroil munosabatlari keskinlashgan sharoitda o'ta jangari faoliyati bilan ajralib turmoqda.

HIZBUT-TAHRIR (to'la nomi "Hizbut tahrir al-islomiy" - "Islom ozodlik partiyasi") — norasmiy siyosiy tuzilma (oqim). 1953 y.da Isroilda paydo bo'ldi. Asoschisi - shayx Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979). U Misrdagi "al-Azhar" universitetini tamomlagan, Quddus i.da shar'iy shikoyat sudining a'zosi lavozimida ishlagan. Iordaniyadagi "Musulmon birodarlar" diniy ekstremistik tashkiloti rahbarlaridan biri bo'lgan. "H.t." tuzilma jihatdan piramida ko'rinishida tashkil topgan. "Doris"lardan tarkib topgan "halqa"dagi 4-5 kishi guruh rahbari -"mushrif"dan saboq oladi. Bunday kichik "halqa"larga bo'linish, tashkilot asoschilarining fikricha, fosh bo'lish imkoniyatini mumkin qadar kamaytiradi. Mashg'ulot haftada kamida 1 marta o'tkazilishi shart. Bunday "dars"larda nomigagana diniy ta'lim berilib, asosiy e'tibor yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongiga g'arazli siyosiy fikrlarni joylashga qaratiladi. Halqa a'zolari bir-birlarini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladi. Tashkilotga a'zo bo'layotgan nomzod har qanday sharoitda ham hizb faoliyati haqidagi ma'lumotni sir saqlash haqida qasam ichadi. Mintaqaviy rahbar - "mu'tamad", butun dunyo bo'yicha "H.t." harakati rahbari, ya'ni "amir" tomonidan belgilanadi va viloyat darajasida ishlaydigan "mas'ul" hamda tuman miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi "musoid"ga rahbarlik qiladi. Tumanlar ham alohida hududlarga bo'linadi va 4 mushrifdan iborat "naqib" rahbarlik qiluvchi "mahalliy jihoz"ni tashkil etadi. "H. t." ko'pgana musulmon davlatlari, jumladan Misr, Iordaniya, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va b. davlatlarda o'z faoliyatini yashirin olib bormoqda. Bugungi kunda bu tuzilmaga falastinlik Abulqadim Zallum rahbarlik qilmoqda. Mazkur diniy tashkilot 1992 y.dan O'zbekistonda maxfiy faoliyat yurita boshladi. Hizbchilarning maqsadi: tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini boshlash, mamlakat iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish, millatlar va dinlararo nizolarni keltirib chiqarish, mamlakatga qurol-yarog` va giyohvand moddalarni olib kirib, fuqarolarning tinch hayotiga raxna solish, mustaqil davlatni kurol-yarog` ishlab chiqaruvchi xorijiy mamlakatlarga qaram qilish. Bu diniy tashkilotning 3 kurash bosqichi bor. Bular 1) tasqif - tushuntirish ishlari. Onga to'liq shakllanmagan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'sirga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirish; 2) tafoul - birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali "ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi yo'lida fikriy inqilobga etishish; 3) inqilob - to'ntarish, hukumatni ummat orqali qo'lga kiritish. "H.t."ning g'oyasi islom ta'limotidan uzoq, demokratik-huquqiy davlat konstitutsiyasiga ziddir. U vijdon erkinligini suiste'mol etib, siyosiy hokimiyatga intilish yo'lini tutgan. "H.t." 1989 y.dan turli tillarda "al-Va'y" (Ong) nomli oylik jurnal chiqarib, maxfiy ravishda tarqatib keladi. "H.t."ning rasmiy faoliyati arab davlatlarida taqiklangan. Ushbu tashkilotning Iordaniyadagi mas'uli shayx Axmad ad-Daur 1969 y. hukumatni egallashda ayblanib qatl etilgan, 32 a'zosi Misrda sudlangan.

HISBA - vijdon amri yoki xizmat yuzasidan shariat normalariga amal etilishini nazorat qilish; uni amalga oshiruvchi shaxs muhtasib deb ataladi. Dastlab xalifa Ali (kv) davrida qayd etilgan, lekin H. istilohi o'rniga dastlab amr bi-l-ma'ruf va nahy anil-munkar ("yaxshilikka buyurish va yomonlikni man etish") iborasi qo'llanilgan, u keyinchalik H. istilohini izoxlash uchun ishlatilgan.

HISHOM ibn al-XAKAM, Abu Muhammad al-Kufiy (? - 814) - kindi qabilasi mavlosi - mashhur ilohiyotchi-munozarachi, shialik aqidasi asoschilaridan biri, shialar tarixchisi va nazariyotchisi; uning izdoshlari o'zlarini al-hishomiya deb atashgan. Vosit sh.da tug'ilib o'sgan, Kufada yashagan. Imom Muso al-Kozimdan 50 ming dirham olib savdogarchilik bilan shug'ullangan va Bag'dodga ko'chib borib savdo uyini boshqargan. Bag'dodda vafot etgan. Ja'far as-Sodiqning shogirdi bo'lgan H.i. al-H. yoshlikdan falsafa va ilohiyot muammolariga qiziqqan. Ilmning yetuk namoyondalari bilan muloqotda bo'lishi natijasida u imomiylik haqidagi ta'limotning eng zo'r bilimdoni va nazariyotchisi bo'lib yetishgan. Muso al-Kozim o'z tarafdorlarini quvg'in qilinishidan saqlash maqsadida uni ilohiyot bilan shug'ullanishini va munozaralar qilishini taqiqlagan.

O'rta asr musulmon olimlari X- i. al-H.ni antropomorfizm (Allohni inson qiyofasida tasavvur etish) haqidagi ta'limot asoschisi deb hisoblashgan. Dastlab u Allohni yorqin, ko'zni qamashtiruvchi nurga, shaklsiz yombiga, kristallga qiyoslagan. So'ngra. U bundan kaytib, xudo - bu jism, u hech qanday jismga o'xshamaydi, u o'z holicha mavjud. Uning intihosi va o'zaro teng uch o'lchamida cheklangan. rang, hid, harakat qilish, orom olish va b.ga ega, biroq bu sifatlarning barchasi bir-biriga o'xshashdir (uning rangi uning hididir, uning hidi uning harakatidir va b.). Uning turar joyi - taxt, lekin bu joy xudoning harakati natijasida paydo bo'lgan.

H. i. al-H. 26 ta asar yozgan, jumladan "Ixtilof an-nos fi-l-imoma" risolasi shialikdagi ilohiyotga doir ilk asarlardan sanaladi.

HOJI - haj marosimlarini to'la-to'kis bajargan shaxs. Odatda bunday kishilarga H. so'zini qo'shib murojaat qiladilar (mas. Ahmad hoji, hoji buva, hoji ota, hoji ona va h.k.). Kurbon hayiti kunlaridan boshqa vaqtlarda Makka va Madinani ziyorat qilganlar umrachi yoki arabcha "mu'tamir" deb ataladi. Quyidagi shartlarga javob bergan kishilar H. bo'la oladi; 1) islom dinida bo'lish; 2) balog'atga yetmoq; 3) esli-hushli bo'lmoq; 4) qodir bo'lmoq, ya'ni: a) jismonan sog'lomlik, b) haj safari uchun hamda Vatanda qolayotgan oila a'zolarining xarajati uchun kifoya qiladigan mablag'ga ega bo'lmoq, v) ayol kishi uchun mahram (unga uylanishi mumkin bo'lmagan er qarindosh) bilan borishi. O'zi bormasdan birovga haq to'lab, sirtdan haj (hajji badal) qilgan odam ham H. hisoblanadi. H.lik - biror imtiyoz beradigan mansab yoki lavozim emas. Aksincha, u kishiga jamoada kamtarin, taqvodor, husni xulkli bo'lib yurish mas'uliyatini yuklaydi. Nogiron kishilar haj qilmoqchi bo'lsalar, ularga doim qarab turadigan yordamchi lozim.

HOKIM ("hal qiluvchi") - sudlanuvchi taraflar o'zaro kelishuvga binoan ishni hal etish uchun murojaat qilishadigan xolis sudya (hakam). H.ga qozi huzurida ish qo'zg'alguncha murojaat qilish tavsiya qilingan. H. hech qanday ijroiya hokimiyatiga ega bo'lmagan, uning maqomi belgilanmagan, u hech kim tomonidan tayinlanmaydi, balki hayotiy tajribasi va obro'-e'tiboriga ko'ra, atrofdagilar tomonidan qo'yilgan. Shuning uchun bir

qabila yoki qishlokda bir paytning o'zida bir necha H. bo'lib, boshqasida esa, umuman bo'lmasligi mumkin. H. shaxsiga nisbatan qandaydir maxsus talablar qo'yilmagan: xar qanday kishi. garchi uning hech qanday ma'lumoti bo'lmasa-da va biron-bir jismoniy nuqsoni bo'lsa-da H. bo'lishi mumkin. H.ning asosiy maqsadi tomonlarni kelishtirish bo'lib, u o'z qarorlarida biron-bir huquqiy manbalarga suyanishi shart bo'lmagan, shu bilan birga u islom huquqi normalari (fiqh), odatiy huquq (odat) yoxud o'zining hayotiy tajribasiga birday suyanishi mumkin edi.

O'rta asr davlat-ma'muriy amaliyotida H. deb ba'zan kichik shahar yoki qishloqning saylab qo'yiladigan rahbariga, shuningdek, biron-bir viloyatni boshqarish uchun tayinlanadigan hukumat amaldorlariga aytilgan.

HOL (ko'pligi ahvol; yoxud hola, ko'pligi holat) - buyum, inson, xudo va b. holati. Qur'onda ushbu ma'noda qo'llanilmagan.

So'fiylik "psixologiya"sida H. - Allohga intilish "yo'lida" so'fiy, uning irodasidan tashqari va mukammallikka erishganlik darajasidan qati nazar tushadigan holati.

HORUN (as) - Qur'onda zikri kelgan payg'ambarlardan biri, Muso(as)ning akasi. Alloh taolo Muso (as)ni payg'ambar etib, unga Fir'avnni da'vat qilish mas'uliyatini yuklaydi. Fir'avndek zolim podshoga ro'baro' bo'lib uni imonga, hidoyatga da'vat etish kishidan shijoat va kuchli iroda talab qilar edi. Muso (as) biroz tezroq va duduqlanibroq gapirar edilar. Shu bois, Muso (as) Parvardigorga tazarru ila duo qilib, bu mas'uliyatli va og'ir vazifani ado etishda o'ziga akasi H.ni yordamchi qilib berishni so'raydi. Qur'onda yozilishicha, nihoyatda fasohatli va ta'sirli so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgan X-mas'uliyatli va og'ir vazifani ado etishda Muso (as)ga yordamchi qilib beriladi (Toho surasi 25-36-oyatlar). Aka-uka Fir'avnni hidoyat yo'liga da'vat etadilar. Ammo Fir'avn Allohning birligi va borligini e'tirof qilmay, zalolatdan qaytmaydi. O'zini xudo deb bilgan Fir'avnni Alloh g'arq etib halok qiladi.

HORUT va MORUT - qilgan gunoxlari uchun Bobiddagi zindonga tashlangan ikki farishta ismi. Ular Qur'onda sehr bilimdonlari va uni odamlarga o'rgatuvchilar, lekin uni qo'llash oqibatlaridan ularni ogoh etuvchilar sifatida qayd etilgan (Qur'on, 2:102/96). Aqidaga ko'ra, Alloh insonlarni gunohkor ekanligini qoralayotgan farishtalarni ta'na qilib, ular ham yerdagi yo'ldan ozdiruvchi narsalardan o'zlarini imonda tiyolmay, poklikni saqqab qola olmasliklarini aytgan. Uchta farishta o'zlarining barqaror ekanliklarini isbotlash maqsadida yerga ravona bo'lishgan. Ularning biri yerdagi ehtiroslar o'zidan g'olib kelayotganini darhol sezgan va osmonga qaytgan. Qolgan ikkitasi -H. va M. - yerda qolib, go'zal ayolga ilakishib, uning ta'sirida ko'p bema'ni ishlar qilishgan - butlarga sig'inishdan tortib qotillikkacha borishgan. Ularga kelajakdagi hayotda yoki hoz. hayotda jazolanishlari muddatini tanlash taklif qilingan. Ular hoz. hayotda jazolanishni tanlashgan va shundan beri Bobiddagi zindonga tashlanganlar, u yerda zanjirband holda, tashnalik azobida qiyomatdan keyin ozod bo'lishlarini kutib yotishmoqda. Kimki sehrGARLIKNI o'rganmoqchi bo'lsa, ularning yoniga keladi.

HOSHIMIYLAR, banu hoshim - 1) Muhammad (sav) bobo kalonlari Hoshim ibn Abdumannof avlodlari; Rasululloh (sav) mansub bo'lgan urug'-xonadon. H. Muhammad

(sav) hayotlarida, ul zot vafotidan so'ng esa arab-musulmon tarixida muhim rol o'ynagan (q. Ahli bayt, sharif, sayyid, al-Alaviya, xo'ja). 2) H. bir qancha musulmon hukmdorlari sulolasini shakllantirganlar. Chunonchi, 10-a.dan 1924 y.gacha Makka shariflari, uning hokimlari. Bu sulola vakshshari (al-Havoshim-Hoshimiylar) 20-a. boshida Hijozda (1908-1925) va Iroqda (1921-1958) davlatni idora etishgan, 1921 y.dan Iordaniya Hoshimiylar qirolligida, H.ning boshqa bir tarmog'i esa Marokash Qirolligida (10-a.dan) hokimiyatni boshqarib kelmoqda.

HUBAL - qad. arab ma'budi, kinona qabilalar uyushmasi va ularning o'troq tarmog'i - Qurayshiylar va Makka sh. homiysi. Rivoyatlarga ko'ra H. kinoniylarga Shim. Arabiston (Nabateya)dan o'tgan. Makkada uning sanamlari beshakl tosh hamda serdolik haykalcha ko'rinishida mavjud bo'lib, sindirilgan o'ng qo'li oltin qo'l bilan almashtirilgan. Bu sanam Ka'bani ichida joylashib, uning bosh ma'budi bo'lgan. H. uchta ma'buda - al-Lot, al-Uzza va Manatning eri, momoqaldiroq va yomg'ir hukmdori hisoblangan. Uning haykali yonida kamon o'qlari yordamida fol ochishgan. Makkalik mushriklarning musulmonlar jamoasi bilan kurashi davrida H. Allohga qarshi qo'yilgan, biroq bu haqda Qur'onda zikr etilmagan. Makka fathidan so'ng H. sanami Ka'badan chiqarilib, parchalab tashlangan.

HUD (as) - Qur'onda zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Qur'onga ko'ra, u Od qavmiga payg'ambar qilib yuborilgan. Bu qavm gavdali, jismonan baquvvat kishilardan iborat bo'lib, Yaman va Ummon o'rtasidagi Ahqof degan joyda yashagan, butlarga sig'ingan, yolg'iz Allohga ibodat qilishga da'vat etgan H.ni tahqirlab, yolg'onchi va aqli zaif deb atagan. H. (as) o'z qavmini agarda yolg'iz Allohga ibodat qilmasalar avvalda o'tgan sarkash qavmlarga bo'lgani kabi, bularga ham Allohning azobi nozil bo'lishidan ogohdantiradi. Ammo Od qavmi bari bir o'z zalolatida davom etaverdilar va H. (as)ga itoat etmadilar. Shu kundan so'ng Alloh 3 yil yomg'ir yog'dirmay, qurg'oqchilikka gariftor etsa ham, bu qavm tavba-tazarru qilmagan. O'z qavmining imon keltirishidan umidini uzgan H. (as) o'ziga imon keltirgan mo'minlar bilan Makkaga ketib o'sha yerda vafot etgan. Hidoyatga yurmagan qavm ustiga esa Alloh kuchli bo'ron yuborib, hammalarini halok qildi ("Al-haaqqa" surasi 6-7-oyatlar).

HUJVIRIY, Abu-l-Hasan Ali ibn Usmon al-Raznaviy al-Jullabiy (? - 1072-1076/77 y.lar oralig'i) - fors tilida so'fiylikka doir birinchi asar muallifi. Unda so'fiylik tarixi va mohiyati, so'fiylar dunyoqarashi va amaliyoti sistematik tarzda bayon etilgan. Hujvir (G'aznadagi mahalla)da taqvodor oilada tug'ilgan. Hanafiy mazhabiga e'tiqod qiluvchi sunniy H.. al-Junayd (910 y. v.e.) so'fiylik maktabining izchil tarafdori bo'lgan. Hayotining ko'p qismini safarda o'tkazib, Farg'onadan Huzistongacha, Hindistondan Suriyagacha bo'lgan mamlakatlarni kezgan. Hayotining so'nggi damlari Lohurda kechgan, bu yerda u bizgacha etib kelgan yagona (10 tadan) asari - "Kashf al-mahjub li-abror al-qulub"ni yozgan. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi - kirish qismi 14 bobdan tashkil topib, unda so'fiylikdagi ixtiyoriy qashshoqlik va ruhiy poklik masalalari tahlil etilgan, 74 so'fiy-shayxlar tarjimai holi keltirilgan, 2 asosiy oqim (g'arbiy va sharqiy) borligi qayd etilgan, shuningdek, so'fiylikdagi 12 "maktab" yoki mazhab ta'limotlari tahdil qilinib, shundan "10 tasi ma'qul topilib, 2 tasi esa, rad etilgan". Ikkinchi qism, asosan, javoblardan iborat bo'lib, "Kashf al-hijob" deb nomlangan 11 qismdan iborat. Unda falsafiy qoidalar, so'fiylikdagi ta'limotlar va amaliyot, ularni shariat normalariga mos kelishi, so'fiylar

orasida qabul qilingan texnik terminlar va b. koʻrilgan. Asar keyingi davrda soʻfiylikka doir fors tilida yozilgan adabiyotlarga ulkan taʼsir koʻrsatgan.

HUJJA (koʻpligi hujaj, "dalil", "isbot", "dalil keltirish") - kalom, falsafa, lochika (sinonimlari dalil, burhon) va fiqhda (sinonimlari bayyina, shahoda, iqror) keng ishlatiladigan istiloh. Qurʼonda bir necha bor faqat Allohga ishonchli dalillarga ega ekanligi uqtirilgan (6:83, 149/150), insonlarni Allohga qarshi vajlari Uning nigohlari oldida hech qanday ahamiyatga ega emas (42:15/14; 45:25/24). Hujjat al-islom ("Islomning isboti") iborasi yuqori martabali ilohiyotchilarning faxriy unvoniga aylangan. Bu unvonga dastlab al-Gʻazoliy (1111 y. v.e.) sazovor boʻlgan. Hoz. shialik olamida (avvalambor Eron, Iroqda) H. al-i. unvoni oyat Alloh al-uzmo ("Allohning eng buyuk ishorasi") va marjaʼ at-taqlid ("Taqlid qilish manbasi") unvonlari qatorida eng baland martabali mujtahid - oyatullohdarga beriladi (yana q. Hujjat al-islom).

HUJJAT al-ISLOM (arab. - islom hujjati, islomning isboti mazmunida) - oʻrta asrlarda baʼzi yirik ilohiyotchilarga berilgan diniy unvon. Sunniylarda keyinchalik qoʻllanilmay ketgan, lekin shialik ulamolari oʻrtasida rasmiy unvon sifatida baʼzi mamlakatlarda (Eron, Iroq) saqlanib kelmoqda. H. al-i. unvoni Oyatulloh unvonidan quyi mavqeda turadi. Bu unvonga ilk bor imom Gʻazoliy (1111 y. v.e.) sazovor boʻlgan. Safaviylar davrida Eronda H. al-i. unvonini eng mashhur mujtahidlar olgan. H. al-i. sohiblari odatda shialarning muqaddas shaharlari (Karbalo, Najaf va b.)da yashagan.

HULMONIYLAR, al-Hulmoniya - Abu Hulmon al-Forisiy al-Xalabiy (taxm. 950 y. Damashqda v.e.) tarafdorlari. Dastlab Damashqda paydo boʻlgan. H. ni soʻfiylar qatoriga qoʻshishgan, ular panteizmning yorqin aks etgan estetik shaklini targʻib etganlar. Ular bu dunyoda goʻzallikning har qanday koʻrinishi ilohiy mujassamotdir deb hisoblashgan. Har qanday goʻzal deb topilgan narsaga ular sajda qilishgan. Aqoid olimlari ularni Allohni muayyan narsalar va shaxslar bilan oʻxshatishda (hulul), shariat koʻrsatmalariga nisbatan bepisand munosabatda boʻlishda (ibohiya), ruhlarni koʻchib yurishini eʼtirof etishda ayblaganlar.

HULUL (halla feʼlidan - "koʻchmoq", "joylashmoq") - bir buyumning boshqasida boʻlishi, joylashishi, namoyon etishi. Bu maʼnoda H. istilohi Qurʼonda qoʻllanilmagan. Oʻrta asr musulmon taʼlimotlarida H. deganda quyidagilar tushunilgan: 4) jismlar va mavhumotlarda tasodifiy holatning boʻlishi (hulul al-aʼrod fi-l-ajsom va-l-mujarradot); b) yaxlitda qismni; v) buyumda belgani (hulul an-noʻit bi-l-manʼut); g) ruhning tanada boʻlishi (hulul ar-ruh fi-l-badan). Haqiqiy H. deb birining mavjudligi ikkinchisining mavjudligiga aylangan ikki buyumni uygʻun boʻlishiga aytilgan. Islomda H. tarafdorlari "oʻta" shialar hisoblanib, ular Ali va ayrim soʻfiylarni ilohiylashtirganlar.

HUMAYNIY Ruhullo Musoviy (1900-1989) - din va davlat arbobi. Eronning Aroq sh. yaqinidagi Humayn qishlogʻida ruhoniy oilada tugʻilgan. Avval Aroqtsa, keyin Qumda oʻqigan, oʻsha yerda madrasada dars bergan. 50-y.lar oxirida Oyatulloh unvoni bilan

atala boshlagan. Eronda shoh hokimiyatiga qarshi kurash olib borgani uchun shoh jandarmeriyasi tomonidan 1963 y.da qamalgan, 1964 y.da Turkiyaga badarg'a qilingan. 1965 y.da Iroqqa borib, shialikning muqaddas markazi hisoblangan Najafda madrasada dars bergan. Shoh hukumatining talabi bilan 1978 y.da H. Iroqdan ham badarg'a qilingan. Kuvayt hukumati unga mamlakatga kelishga ijozat bermagandan keyin, Parijda joylashgan. U yerdan turib, shoh hokimiyatiga qarshi kurashni va Eronda boshlangan inqilobiy harakatga yo'llanma berishni davom ettirgan. Shoh hokimiyati ag'darilgandan so'ng 1979 y. fevr.da Eronga qaytib kelgan. Eron Islom respublikasi tashkil etilgandan keyin H. rasman davlatning diniy rahbari (viloyati faqih) deb konstitutsiyada e'tirof etilgan. Diniy rahnamo sifatida u "marjai taqlid" hisoblanib, imom deb yuritilgan.

HURLAR (arab. hur al-ayn-shahdo ko'z) - islom an'anasi va Qur'onga ko'ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan qizlar. Qur'on (2: 23; 3:13; 4:60)da ular jismoniy va ma'naviy kamchiliklardan xoli bo'lgan, odam ham, jin ham tegmagan (55:56, 74), bir-biriga teng, bokira, go'zal qizlar deb tasvirlanadi. Qur'on sharhlovchilarining fikricha, H. jannatga tushgan taqvodorlarga ularning qilgan savob ishlari evaziga xotin qilib beriladi.

HURUFIYLAR - 14-15-alarda Eronda vujudga kelgan g'ulot shia firqalaridan birining tarafdorlari. Firqaga Fazlulloh Astrobody (taxm. 1340 y.da tug'ilgan) asos solgan. 1386-87 ylarda u o'z ta'limotini targ'ib qilib chiqqan. U arab harflari sirli mazmunga ega degan ta'limotni ilgari surgani uchun al-Hurufiy (lug'aviy ma'nosi "harfchi") taxallusini olgan, firqaning nomi shundan kelib chiqqan. Tarixiy ma'lumotlar bo'yicha, uni Amir Temur Shirvonga badarg'a qilgan, shu sababli H. Temur va uning xonadonidan bo'lgan hukmronlarga nafrat bilan qaragan. Temurning Eron va Ozarbayjon yerlarida hukmron bo'lgan o'g'li Mironshohni ular dajjol deb ta'riflagan. H. tez vaqt ichida Eron, Ozarbayjon, Turkiya va Suriyada tarqalgan. H. olam abadiy, insonda xudoning qiyofasi aks etgan, olam taraqqiyotining har biri bosqichida xudo qiyofasi insonda mujassamlanib namoyon bo'ladi, ana shunda insonning o'zi Xudo bo'ladi, oxirgi payg'ambar - Muhammad, avliyolarning birinchisi Ali, o'n birinchi imom Hasan al-Askariy esa, imomlarning oxirgasi, Fazlulloh Astrobody - xudo mujassamlashgan birinchi inson, degan ta'limotni ilgari suradi. Tez orada yerga Mahdiy kelib, ilohiy adolat o'rnatadi, barchani teng qiladi, insonning insonga zulm qilishi tugaydi, deb kutadi. Ular mavjud hokimiyatga qarshi qurolli kurash tarafdori bo'lgan, 1426-27 y.larda Hirotda temuriylardan bo'lgan hukmdor Shohruhga kdrshi suiqasd uyushtirib, uni yarador qildi, lekin u tirik qoldi. Qo'lga olingan H. maxfiy tashkilotining a'zolari beayov jazolandi va jasadlari olovda yondirildi. H. qatgiq ta'qib ostiga olindi va keyinchalik Eronda tugab ketdi.

HUSAYN ibn Ali (626-680) - Ali ibn Abu Tolib(kv)ning (Fotimadan tug'ilgan) kichik o'g'li, Muhammad (sav)ning nabiralari, uchinchi shia imomi. 669 y.da Hasan vafot etgandan keyin Ali(kv) tarafdorlari uni o'z rahbari deb e'lon qilgan. 680 y. xalifa Muoviya o'lgandan keyin Iroqda umaviylarga qarshi harakat faollashgan. H. Yazidga bay'at qilishdan bosh tortgan. Kufa shialari H.ni o'zlarining imomi deb tan olib, Kufaga taklif etgan va xalifa Yazidga qarshi qo'zg'olonga bosh bo'lishni so'ragan. H. Makkadan Kufaga jo'naydi. 70 jangchisi bilan Kufaga yaqin Karbalo dashtiga yetib kelganida xalifa Yazidning 4 ming kishilik qo'shini unga qarshi chiqqan. 680 y. 10 okt. kuni H. jangda

shahid bo'lgan, jasadi o'sha yerga dafn etilgan. Shu munosabat bilan Karbalo shialarning asosiy muqaddas ziyoratgohiga aylangan. H. halok bo'lgan sana shialarda motam kuni sifatida nishonlanadi (q. AShuro).

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY (1440-1505) -ilohiyotchi, shoir va adib. Xuroson viloyati Sabzavor sh. Bayhaq kentida tavallud topgan. Asosan, Hirotda yashab, uzoq yillar bu yerdagi madrasalarda dars bergan. Qur'onga to'rt jildli sharh bitgan. Shuningdek, din tarixi, riyoziyot, falakiyot, kimyo, fiqh, adabiyot va san'at sohalarini to'liq o'zlashtirgan va bu fanlarga oid 200 dan ziyod asar yozgan. H.V.K. voiz, notiq sifatida ham dong taratgan. "Axloqi Muhsiniy", "Javoqirnom", "Risolai Hotamiya", "Axloqi Karim", "Tafsiri Husayniy", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Anvori Suhayliy", "Oinai Iskandariy" kabi kitoblarida din-diyonat, ma'naviyat, davlatni boshqarish, komil insonni tarbiyalash masalalari, gunoh va savob, vijdon, burch singari tushunchalar yoritilgan. Uning fikricha, Alloh yaratgan inson zoti dunyodagi eng yuksak, olijanob mavjudotdir, binobarin unda saxovat, shijoat, sabr-toqat, rostgo'ylik va kamtarlik kabi fazilatlar mujassam bo'lishi shart. Kishilar birlashib, jamiyatni hosil qiladi. Jamiyat, davlat esa, adolatli boshqarilsa, shariatga, diyonatga rioya qilinsa, odil siyosat yuritilsa jamiyat, mamlakat rivojlanadi, xalq yaxshi yashaydi. "Rashahot ayni-l-hayot" ("Hayot chashmasidan tomchilar") asarida naqshbandiylik tariqati mashoyixlari haqida hikoya qilinadi. H.V.K. yaratgan asarlar o'nlab yillar davomida Xuroson madrasalarida darslik sifatida mutolaa qilingan, O'rta Osiyo va Eron tarixi hamda madaniyatini o'rganishda muhim manba sanalib, arab, eski o'zbek, tatar, ingliz, frantsuz va b. tillarga tarjima etilgan, Sharku G'arb mamlakatlaridagi kutubxonalardan o'rin olgan. H.V.K.ning "Futuvvatnomai Sultoniy" asari nashr etilgan (Toshkent, 1993).

- I -

IBLIS - q. Shayton.

IBN al-ASIR Izziddin Abulhasan Ali (1160-1232) - tarixchi. Iroqning Mosul va Bag'dod sh.lari madrasalarida tahsil ko'rgan, so'ng ilm talabida Shom (Suriya)ga safar qilgan. U yerdan qaytgach, butun umrini uzlatda, tarixga doir asarlar yozish bilan o'tkazgan. Eng yirik va muhim asari - "Al-Komil fit-tarix" ("Tarix bo'yicha mukammal asar") bo'lib, u 12 jiddan iborat. Unda Islom olamida insoniyat tarixining ilk davrlaridan 1230 y.gacha bo'lgan voqealar, xususan, Xuroson va Movarounnahrning 12-a. va 13-a.ning 1-choragidagi tarixi yilma-yil bayon qilingan. Asarning mo'g'ullar istilosiga bag'ishlangan so'nggi jildlari qimmatli manba hisoblanadi. Bu asarning tanqidiy matni Leyden (1851-76) va Misr (1873) da nashr etilgan. Ogahiy o'zbek tiliga tarjima etgan. I.al-A. "Tarix atabikat al-Mavsil" ("Mosul otabeklari tarixi"), "Usud ul-g'oba fiy ma'rifat ahvol is-sahoba" ("Sahobalar ahvolini bilish xususidaga o'rmon sherlari yanglig' qudratli kitob") nomli asarlar ham yaratgan. I.al-A.ning akasi [Majiduddin Muborak ibn Abil Karam Muhammad Jazariy ibn Asir (1166-1228)] va ukasi [Ziyoviddin Abul Fath Nasrullo ibn Asir (1180-1248)] ham tarix, hadis, ilohiyot va adabiyot sohalarida ko'plab asarlar yaratgan.

IBN ARABIY (Ibn al-Arabiy), Muhyi ad-din Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hotamiy at-Toiy (1165-1240) - diniy faylasuf, "vahdati vujud" ta'limoti asoschisi, so'fiylikning ko'zga ko'ringan vakili. "Ulug' shayx" (muallim), "Aflotun (Platon)ning o'g'li" nomlari bilan ulug'langan. Andalusiya (Ispaniya)ning Mursiya sh.da tug'ilgan va diniy bilim olgan. Dunyoqarashi so'fiylar ta'sirida shakllanib, Andalusiya va Shim. Afrika bo'ylab safarga chiqqan, mashhur olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo'lgan. I. A. shuningdek, Sharkdagi yirik musulmon so'fiy va ilohiyotchilari Xarroz, Hakim at-Termiziy, Xalloy, G'azoliy va b.ning asarlarini ham o'rgangan. 1200 y.da haj ziyoratiga borib, umrining oxirigacha Sharkda qolgan. 1201 y.da Makkada yashagan, bu yerda mashhur she'riy to'plami - "Tarjumon al-ashvoq" ("Ishqiy shavq tarjimoni")ni hamda so'fiylikka oid risolalarini yozgan. Shu yerda ko'p jildli "Futuhot al-makkiya" ("Makkaning fath etilishi") asari ustida ish boshlagan. Bu asarni "so'fiylik qomusi" deb atashadi. I. A.ning eng mashhur risolasi "Fusul al-hikam" bo'lib, unga 150 dan ortiq sharxlar yozilgan. Umuman I. A. ijodiy merosi 300 ga yaqin asarni tashkil etadi. Olim Damashq sh. yaqinidagi tog' yonbag'riga dafn qilingan. Sulton Salim I buyrug'i bilan 16-a. boshida uning qabri ustiga mahobatli maqbara qurilgan, bu maqbara hoz. ham mavjud. I. A. zamonasining barcha ilmiy oqimlaridan xabardor edi. U Ibn Rushd, Suhravardiy, ar-Roziy va b. bilan uchrashgan hamda yozishib turgan. Uning falsafiy dunyoqarashi panteistik xarakterda, hamma narsaning yagona asosi diniy substantsiya (ruh, ideya), deb hisoblaydi. Mashhur shaxslarga sajda qilishni inkor qilgan, turli dinlarning ahamiyati barobar deb hisoblagan. So'fiy sifatida Xudoni oliy, mutlaq haqiqat holda anglash va unga ko'ngilni poklash orqali erishishni tan olgan. I. A. o'rta asrlar musulmon olamida eng ziddiyatli shaxslardan biri. Uning qarashlarini Ibn Taymiya, Taftazoniy singari ilohiyotchilar, shuningdek, arab tarixchisi Ibn Xaldun keskin tanqid qilgan. Boshqa ko'pgina musulmon ulamolari esa, uni himoya etgan.

IBN ASOKIR (Abulqosim Ali ibn al-Hasan) (1105 - Damashq -1176) - tarixchi, muhaddis, faqih va shoir. Madrasada tahsil ko'rgach, o'z bilimlarini yanada ziyoda qilmoq istagida Iroq va Xuroson bo'ylab kezib, u yerlardagi ulamolardan ta'lim olgan. So'ng Damashqqa qaytib, An-Nuriyya madrasasida mudarrislik qilgan. Tarix, hadis va fiqhga doir ko'plab asarlar yaratib, "Sadiqat ud-diyn" (Din vafodori) hamda "Nur ud-diyn" (Din nuri) kabi faxriy unvonlarga sazovor bo'lgan. Uning eng yirik asari "Tarixu madiynati Dimashq" ("Damashq shahri tarixi") bo'lib, u ko'proq "Tarixu ibn Asokir" ("Ibn Asokir tarixi") nomi bilan ma'lum. Shom (Suriya) va Damashq tarixi hamda shomlik mashhur kishilar tarixiga bag'ishlangan mazkur asar 80 jilddan iborat. I. A. hadis va fiqh ilmiga oid "Al-Muvofaqot", "Al-Atrof lis-sunan", "Mu'jam ash-shuyux", "Manoqib ash-shabob" nomli asarlar ham yozgan.

IBN BOBUYA ash-Shayx as-Soduq Muhammad ibn Ali Abu Ja'far al-Qummiy (? - 991) - shialarning mashhur ilohiyotchi olimi, faqih; shia rivoyatlari bilimdoni, imomiylar (ja'fariylar) huquqini ilk bor ishlab chiqqanlardan. Yoshlik chog'idayoq Xurosonda shia rivoyatlarini bilishda unga teng keladigan kishi bo'lmagan. 965 y. u Bag'dodga kelib, Buvayhiylar bilan yaqinlashgan va faol tashviqot ishlarini boshlagan. I.B.Ray sh.da vafot etgan. I.B. 200 ga yaqin asar yozgan, shundan 20 tasi saqlanib qolgan. Asosiy asarlari - "Man la yahduruhu al-faqih" - 4 rivoyatlar to'plami (al-usul ar-arba'dan biri shialikdagi imomiylar fiqhi bo'yicha eng e'tiborli asar hisoblanadi.

IBN JAUZIY, Jamoliddin Abul Faraj Abdurahmon ibn Ali (taxm. 1116-1201) -hanbaliylik mazhabi faqihi, ilohiyotchi, muhaddis, tarixchi, bag'dodlik mashhur va'zxon. Bag'dodda, o'ziga to'q misgar oilasida tug'ilgan. Turli fanlardan ta'lim olgan. Xanbaliylikning mashhur allomalari unga ustozlik qilganlar, jumladan, faqih va va'zxon Ibn az-Zag'uniy (1133 y. v.e.), Abu Bakr ad-Dinovariy (1137 y. v.e.) unga munozara qilish san'atidan, adib Abu Mansur al-Javoliqiy (1144 y. v. e.) unga ilmi adabdan, Abu-l-Fadl ibn Nosir (1150 y. v.e.) hadis va Qur'ondan saboq bergan, faqih Abul Hakim an-Nahravoniy (1161 y. v.e.), qozi Abu Yada Kichik (1163 y. v.e.) va b. I.J. Bag'dodning diniy-siyosiy hayotida faol qatnashgan. Xalifa al-Mustadiy davri (1170-80)da hanbaliy mazhabi poytaxtda hukmron mavqega ega bo'lgan. I.J. saroy masjidida va'zxonlik qilganida uni eshitish uchun juda ko'p xalq to'plangan. Xalifa vafotidan so'ng o'rniga an-Nosir o'tirgach, vaziyat o'zgargan va I.J.ning ishlari orqaga ketgan. 1194 y. hanbaliy vazir Ibn Yunus vazifasidan chetlatilib, qamoqqa olingan, o'rniga shialardan bo'lgan Ibn al-Qassob o'tqazilgan. I.J. an-Nosir siyosatini tanqid qilgani uchun hibsga olinib, Vositga surgun qilingan, u yerda qamoqda qattiq nazorat ostida saqlangan. Xalifaning onasi aralashuvi tufayligina 5 yildan so'ng ozod etilgan. I.J. Bag'dodga tantanali suratda qaytib kelgach, biroz vaqtdan so'ng vafot etgan.

I.J. eng sermahsul musulmon allomalardan bo'lib, 200 ga yaqin asar yozgan. Eng mashhur asari - 10 jiddi "al-Muntazam" - xalifalik tarixiga oid nodir manba. 12-a. 60-80-y.larida Bag'dod hanbaliylari peshvosi bo'lgan I.J. hanbaliylik harakatiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

IBN ISHOQ Muhammad (704-767) - arab tarixchisi. Muhammad (sav) vafotidan keyin uning hayotiga oid barcha yozuvlar va rivoyatlarni umumlashtirish asosida "Siyratu

Rasululloh" ("Alloh elchisining hayot yo'li" - islom an'anasida "Siyra" nomi bilan mashhur) tarixiy asarini yozgan. Lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan, uning qayta ishlangani ma'lum.

IBN MOJA, to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja ar-Rab'i al-Qazviniy (824, Qazvin, Eron - 886) - yirik muhaddis. I.M. hofiz, to'g'riso'z tanqidchi, keng fikrli olim bo'lgan. U yoshligidan Payg'ambar (sav)ning hadislari va b. diniy ilmlar bilan shugullana boshlagan. Hadis yig'ish niyatida Iroq, Hijoz, Shom, Misr, Kufa, Basra va islom olamining boshqa shahar va davlatlariga sayohat qilib, ko'plab shayx, muhaddislardan dars olgan, bahs va munozaralarda ishtirok etgan va hadis ilmining yetuk bilimdoni darajasiga yetishgan.

I.M. ko'plab shogirdlar yetishtirgan. I.M.ning eng yirik asarlari sirasiga "Kitob as-Sunan" ("Payg'ambar sunnati haqida"), "Tafsir al-Qur'on al-Karim" ("Qur'oni karimga tafsir"), "Kitob at-Tarix" ("Tarix kitobi"). I.M. ijodining bosh asari bo'lmish "Sunan" asarini musulmon olimlarining ko'pchiligi "Sihah as-sitta" ("Olti sahih hadislar to'plami")ga oltinchi to'plam sifatida kiritganlar. Uning ushbu asari 32 qism, 1500 bobdan iborat bo'lib, 4341 ta hadis jam qilingan, ulardan 3002 tasi beshta "Sahih" to'plamlariga berilgan hadislar bilan mos keladi. 1339 ta hadis ko'shimcha hisoblanadi. I.M. "Sunan" asariga Al-Hofiz Jaloliddin as-Suyutiy (1505 y. v.e.) va Shayx as-Sindi al-Madiniy (1725 y. v.e.) sharxdar yozishgan.

IBN ar-RAVONDIY, Axmad ibn Yahyo Abul Husayn (9-a.) - ilohiyotchi; umri davomida o'zining diniy-siyosiy qarashlarini bir necha marta o'zgartirgan. Marvarrudda tug'ilib, Bag'dodda katta bo'lgan. Bu yerda mu'taziliy Bishr ibn al-Mu'tamir (825 y. dan keyin v.e.)ning izdoshi bo'lgan, uning ilohiyot maktabida ta'lim olgan. Dastlabki asarlari mu'taziliylar g'oyasini targ'ib etishga bagashlangan, keyinchalik u mu'taziliylardan yiroqlashgan va ko'pgana muarrixlar fikricha, "xudosiz" (mulxid) bo'lgan. Mu'taziliylar uni jazolashni xalifadan so'rashgan. I. ar-R. qochishga majbur bo'lib, Kufada bir yahudiyning uyiga yashiringan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u 9-a. 60-y.da Bag'dodda, taxm. 40 yoshda vafot etgan, boshqa ma'lumotlarga ko'ra esa, 10-a. boshlarida taxm. 80 yoshda vafot etgan.

I. ar-R. 40 dan oshiq asar yozgan. Ularning aksariyati, ham mu'taziliylar, ham umummusulmon aqidalarini rad etishga bag'ishlangan. Xususan, "Kitob az-zumurrud" asarida u payg'ambarlikni, xususan, Muhammad (sav)ni tanqid qilgan, payg'ambarlar ko'rsatadigan mo'jizalar va Qur'onni rad etgan, ba'zi diniy aqidalar sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydi deb da'vo qilgan va b. Ibn al-Murtadoning ta'kidlashicha I. ar-R. asarlari ma'lum mukofot evaziga yahudiylar, nosarolar, duapistlar va b. uchun yozilgan bo'lsa kerak. Xususan, imomiylar haqida rofiziylar uchun yozgan risolasi uchun u rofiziylardan 30 dinor olgan.

IBN RUSHD Abdulvalid Muhammad (lot. Averroes) (1126, Kordova - 1198.12.12, Marokko) - arab faylasufi va tabibi. Andalusiya va Marokashda yashagan, qozi va saroy hakimi bo'lgan. Aristotel asarlariga sharxlar yozgan. Razoliy ta'limotiga qarshi "Tahofut ut-tahofut" ("Raddiyatni rad etish") asari bilan falsafada muayyan o'rin tutadi. I. R. moddiy dunyo abadiy, uning boshi xam yo'q, oxiri ham bo'lmaydi, degan. Lekin, uningcha, moddiy dunyo fazoda cheklangan. Xudoning borligini tan olgan I. R. uning

olamdan oldin bo'lganligiga ishonmagan va xudo yaratilgan olam bilan birga abadiy, deb hisoblagan. U ruh o'lmaydi, oxirat bor degan gaplarga qarshi chiqqan. I. R. - ikki haqiqat nazariyasini ilgari surib, bilimni e'tiqodga, falsafani ilohiyotga qarama-qarshi qo'ydi hamda fanning, inson aqlining roliga yuqori baho berdi. I. R. kishi oliy kamolotga zikru sano orqali emas, balki ilmiy-falsafiy bilim orqali erishadi, deb hisoblagan. O'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan I. R. adolatli jamiyat qurishni, xotin-qizlarga teng huquq berilishini, hurlik g'oyalari targab qildi. I. R. g'oyalari o'rta asr falsafasiga katta ta'sir ko'rsatdi. I. R. 7 jildli qomusiy tibbiy asar "Kitob al-kulliyot" (tibbiyot bo'yicha umumiy qo'llanma) muallifidir.

IBN SINO, Abu Ali al-Xusayn b. Abdulloh Buxoriy (980-1037) - o'rta osiyolik qomusiy olim. Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur. Buxoro viloyatining Afshona qishlog'ida amaldor oilasida tug'ilgan. Otasi ismoiliylar firqasiga mansub bo'lgan. I.S. yoshligidan ilm-fan o'rganishga kirishadi, Sharq mutafakkirlari asarlarini, qad. yunon tabiiy-ilmiy va falsafiy merosini o'rganadi. I.S. asarlari 280 dan oshadi, bizgacha ularning 160 ga yaqini yetib kelgan. I.S. iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lib, 10 yoshidayoq Qur'onni yod bilgan. I.S.ning ilohiyotga oid qarashlari "Ash-shifo", "An-najot", "Ishorat va tanbehot" kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, olamdagi barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud - hech narsaga bog'liq bo'lmagan, irodali, qudratli Tangridir. Qolgan hamma narsa imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujud - Tangridan kelib chiqadi. I.S. "At-ta'liqot" risolasida "insonlarning aqli haqiqiy mohiyat va haqiqatni, "birinchi"ni (ya'ni, Xudoni) idrok qilmaydi" deb yozadi.

I.S. fikricha, vujudi o'zidan bo'lgan narsagana hakdir. Binobarin, Xudo hakdir va undan boshqa har qanday narsa botildir. Vujudi vojib uchun biror isbot ham yo'q va o'zidan o'zgacha yo'l bilan uni bilib bo'lmaydi. Chunonchi, u Qur'oni karimdagi fikrga qo'shilib, "Alloh guvoxlik beradiki, undan boshqa iloh yo'qdir" deydi. I.S. "Donishnomaye aloiy" asarida yozadi: "Uning barakotidan shu narsa kelib chiqadiki, olamning avvali bordirki, U olamga o'xshaydi. Olamning borlig'i Undan, Uning vujudidandir. U esa, vojib va o'z-o'zicha vujud. Barcha narsalarning borlig'i Uning tufaylidir". I.S. dinga e'tiqod qilsa ham o'z davridagi ba'zi tasavvurlarga e'tiroz bildirgan. I.S. ijodi, ilmiy faoliyati Sharq va Yevropadagi fan, ma'rifat va madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

IBN TAYMIYA, Taqiy ad-Din Ahmad (1263 - 1328) - hanbaliylik mazhabiga mansub faqih va ilohiyotchi olim. Harron (Suriya)da tug'ilgan 1269 y otasi oilasi bilan Damashqqa ko'chib o'tadi. I.T. dastlab otasi asos solgan Sukkariya madrasasida ta'lim oladi, so'ng shu madrasaga o'zi rahbarlik qiladi. 1306-1312 y.larda Misrda yashagan. Shu davrda u Misr ilohiyotchilari bilan keskin bahslar yuritdi va natijada 2 marta zindonga tashlandi. 1313 y. Damashqqa qaytib yana mudarrislik faoliyatini davom ettirdi. Ammo, bu yerda ham 1321 va 1326 y.da zindonga tushadi va pirovardida qal'ada vafot etadi.

I.T. o'z dunyoqarashiga ko'ra, hanbaliylik mazhabining salafiya oqimiga mansub edi. U Payg'ambar (sav)ning sahobalari fikrlarini to'rt mazhab asoschilarining ta'limotlaridan ustun qo'yish, ijthod masalasida esa, Qur'on va hadis matnlari bilan cheklanish tarafdori edi. I.T. islomning "sof"ligi uchun kurashib, falsafa, kalom (xususan, ash'ariya)ni, avliyolarga sig'inish va Payg'ambar(sav) qabrlarini ziyorat qilishni keskin qoraladi. Siyosat bobida I.T. davlat va dinning birligi g'oyasini targ'ib etdi. U yozgan ilmiy va diniy

asarlar o'rtasida islom merosining tarkibiy qismini tashkil etadi va hamma tomonidan e'tirof qilinadi. Ammo, ayni vaqtda hanbaliylik ta'limotining to'la shakllanishida katta xizmat qilgan bu asarlar Yaqin Sharq tarixining keyingi davrlarida radikal islom oqimlari uchun nazariy asos vazifasini o'tay boshladi. Hanbaliylarga xos ijtimoiy-siyosiy faollik I.T. asarlarida yuqori darajaga ko'tarilganining sababi shundaki, u davrda Suriya (Shom)dan sharqda joylashgan yerlar mo'g'ullar qo'l ostida, ammo, aholisi musulmon edi. Hatto Eron va Iroqda hukmron bo'lgan ilxonlar (xulaguiylar) ham islomga kirgandilar. Lekin, I.T. ularni haqiqiy musulmon deb hisoblamas, ularga qarshi jihatga da'vat etardi. I.T. ta'limoti uning hayotligi chog'ida keng tarqalmagan bo'lsa-da, 18-a.da vahhobiylikning kelib chiqishiga manba bo'ldi.

IBN TUMART, Muhammad ibn Abdurahmon (1078 yoxud 1081-1130) - Shim. Afrikadagi al-"Muvahhidun" harakati rahbari va sulolasi asoschisi. Susa (Jan. Marokash)da tug'ilgan. Ko'pgana muarrixlar uning shajarasini Ali ibn Abu Tolib (kv)ga bog'laydilar, biroq Ibn Xaldun uni barbarlardan hisoblaydi. 1106 y. I.T. Qurtubaga kelib fiqh bilan mashg'ul bo'lgan, 1108 y. Iskandariyada mashg'ulotini davom ettirgan, bir muncha vaqt Bag'dodda tahsil olgan. Sharkda I.T. ash'ariylarning izchil izdoshi bo'lgan, hadislarga tayanmay mustaqil hukm chiqarishga qarshi chiqqan. Dinni poklash, uning asl, ilk manbalariga qaytish (usul) haqidagi va'zlari natijasida uni Bijayndan quvg'in qilishgan. 1120 y. Marokashda al-Muvahhidun amiri Ali ibn Yusuf (1106) I.T. bilan mahalliy ulamolar o'rtasida munozara uyushtirgan. Ulamolarning I.T. qarashlariga bo'lgan noroziligi shu qadar bo'lgan-ki, u hibsga olinishdan zo'rg'a qutilib qolgan. Shundan e'tiboran I.T. dinni poklash shiori ostida "al-Muvahhidun"ga qarshi ochiqsiqsiq siyosiy qarshi chiqqan (11-a. o'rtasi - 1147). Uni ko'plab barbar qabilalari qo'llab-quvvatlashgan. Uch yillik urushdan so'ng u Nfis daryosining yuqori oqimidagi tog'li Tinmalal qal'asi (Marokashdan 75 km jan.da)da o'rnashib olgan. U har tomondan Muhammad (sav)ga o'xshashga da'vo qilgan. Tinmalalga ko'chishni hijrat, yaqin safdoshlarini - ashoblar deb atagan va b. O'zini gunohlardan xoli imom va Mahdiy deb atagan. 1130 y. Marokashni 6 kun muvaffaqiyatsiz qamal qilgach, I.T. qo'shini tor-mor keltirilgan, bir ozdan so'ng o'zi ham vafot etgan. Uning vafot etganini yaqin do'sti va yordamchisi Abdulmo'min harakatga rahbarlikni o'z qo'lga olgunga qadar (1132 y.) yashirishgan. I.T.ning Tinmalaldagi qabri 16-a.gacha ziyoratgoh bo'lgan.

IBN FARID, Sharafiddin Umar ibn Ali Abu Hafs (yoxud Abul Qosim) al-Misriy as-Sa'diy (1181-1235) - yirik arab mutasavvif shoiri. Qohirada, Xama sh. (Suriya)dan bo'lgan mol-mulkni taqsimlash bo'yicha vakil (farid) oilasida tug'ilgan, laqabi - Ibn al-Farid shundan. Yoshligidan otasi diniy ilmlarni o'rgatgan. Ibn Asokir va al-Munziriyan hadis ilmidan saboq olgan. O'smirlik chog'idanoq I.F. odamlardan xoli bo'lib yashashni yoqtirgan, otasining roziligi bilan al-Muqattam tog'iga borib uzoq vaqt yolg'izlikda yashagan. 15 yilga yaqin Hijozda yashab, aksariyat asarlarini o'sha yerda yozgan. Qohiraga qaytgan I.F. valiy sifatida kutib olingan. I.F. al-Azhar masjididan qo'nim topgan, uni boylar va kambag'allar ziyorat qilishgan. I.F. vafotidan so'ng uning al-Muqattam tog'idagi qabri ziyoratgohga aylangan. I.F. tasavvufga oid 2 mashhur qasida - "al-Xamriya" va "Nazm as-suluk" (uni ko'pincha "at-Ta'iyah al-Kubro" deb atashadi) muallifi bo'lgan.

IBN XALDUN Abdurahmon Abu Zayd ibn Muhammad (1332, Tunis - 1406, Qohira) - arab tarixchisi va faylasufi. Ibn Rushdning izdoshi. 1349-75 ylarda Tunis, Fes, G'arnota, Bujjoya (Jazoir) hukmdorlari saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan. 1382 y. Misrga kelib, mudarrislik qilgan, umrining oxirida molikiylar mazhabi qozisi bo'lgan. Asosiy asari: "Kitob ul-ibar" ("Ibratli misollar kitobi", 1370). Asarda I.X. jamiyat taraqqiyoti xususida o'z fikrlarini hamda Sharq musulmon xalqlari (xususan, Mag'rib) tarixini bayon qilgan. I.X. kishilar hayot tarzidagi tafovutlarni, asosan, geografik va b. moddiy omillarga bog'liq deb hisoblagan. Asarda I.X. o'z tarixiy-ijtimoiy nazariyasini bayon qilib, axloq va ijtimoiy muassasalar kishilar turmushi bilan bog'liqligini hamda mehnat va kishilarning o'zaro munosabati jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. I.X. tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritgan.

IBN SHIHOB, to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Muslim ibn Ubaydullo ibn Shihob az-Zuhriy al-Madaniy (670-721) - tobe'inlarning ulug'laridan, hofiz va muhaddis. Ibn Umar, Anas ibn Molik, Samu ibn al-Musayyab va b.dan hadis va fiqh ilmini o'rgangan. Allomalardan imom Molik ibn Anas, al-Avzo'iy, Suf'yon ibn Uyayna, Savriy va b.ning ustoz bo'lgan. Kuchli xotira va qobiliyat egasi bo'lib, aytishlaricha, 80 kunda Qur'onni yod olgan. Ilmga ko'p xizmati singgan zotlardan. I.Sh. ilm haqidagi "Hech bir bandaning ilmga xizmat qilishdan ko'ra ulug'roq ibodati bo'lmagay" degan.

IBN XAZM, Abu Muhammad Ali ibn Ahmad (994-1064) - andalusiyalik ilohiyotchi va faqih, zohiriylar huquq maktabining yirik vakili. Zohiriylar an'anasini davom ettirib, I. H. muqaddas matnlarni qanday bo'lsa, shunday sharhlashni qat'iy talab qildi; fiqhning asoslari sifatida faqat Qur'on va sunnani tan oldi (o'zi tan olgan ijmo'ni faqat Payg'ambar(as) sahobalari ijmo'si sifatida tushunar edi); qiyos, ra'y, istihson, ta'lil (asoslash) kabi huquqshunoslik usullarini rad etdi; kalomnng barcha ko'rinishlariga, jumladan, Ash'ariy kalomiga ham qarshi chikdi. Shu bilan birga I. H. payg'ambargagana ergashishni yoqlab, taqlidni rad etdi (uning fikricha, ergashish takdid emas). I. H. ning asarlaridan eng mashhuri "al-Fisol fi-l-milal va-l-ahvo va-n-nihal" ("Dinlar, oqimlar, mazhablar xususidagi bahs") bo'lib, Qohirada (1938 y.) bosilib chiqqan. Bu asarda musulmonlarni ko'p mazhab va oqimlarga ajratib yuborgan ilohiyot muammolarini oshkora madh etdi. Uning huquqshunoslikka bag'ishlangan "al-Muhallo" ("Shirinlangan") asari ham bor. O'zini fiqh sohasida I. H.ning muxlisi hisoblovchi Ibn Arabiy mazkur asarning qisqacha bayonini "al-Mu'allo" ("Baland martabaga ko'tarilgan") nomi bilan ta'lif etgan.

IBN HIBBON Abu Hotam Muhammad ibn Hibbon al-Bustiy (? - 965) - muhaddis. Shofi'iylik faqihlaridan. Samarqandda voyaga yetgan va u yerda bir muddat qozilik qilgan. Tib, falakiyot va b. ilmlardan voqif bo'lgan. Movarounnahr, Iroq, Xuroson, Shom, Hijoz kabi islom ilm markazlarini kezib, hadis bilimdonlarining ko'pchiligidan istifoda etgan va ko'pgana asarlar ("Al-anvo vat-taqosim", "Kitobus-sahoba", "Kitobul-fasli baynannaqala", "Kitobul-ilal", "Ashobut-tavorix", "Kitobu atboit-tobein", "Kitobus-siqat" va b.) yozgan.

IBN HISHOM (? - 834) - arab adibi. Ibn Ishoqning "Siyra" asarini qaytadan ishlagan va shu kitob hozirgacha yetib kelgan.

IBODAT (arab. - qulluq qilish, bo'ysunish, o'zini past olish, itoat qilish) - xudoga sig'inish, iltijo qilish. Musulmon ulamolari I.ni bir-biriga yaqin ma'noda turlicha ta'riflaganlar. I. Allohga bo'ysunish va unga o'zini xokisor tutishning oliy darajasidir. I. faqatgana Allohni ulug'lash uchun Uning amriga binoan amal qilishdir. I. Alloh yoqtiradigan va rozi bo'ladigan so'zlar, ishlar va zohiriy hamda botiniy amallardir. Allohga kurbat hosil qilish uchun niyat bilan qilinadigan barcha amallar I.dir va h.k. Fuqaholar I.ni tor doirada olganlar. Ularning nazdida namoz, ro'za, haj, zakot, Qur'on qiroati, zikr, xayri sadaqa kabi narsalar I. hisoblanadi. Shu ma'nodagi I. jismoniy, moliyaviy va jismoniy-moliyaviy I.larga taqsimlanadi. Jismoniy I.ga namoz, ro'za kabilar kiradi. Moliyaviy I.ga zakot, sadaqai fitr kabilar kiradi. Jismoniy-moliyaviy I.ga haj, umra kabilar kiradi. I. farz, vojib, sunnat, mustahab darajalarida bo'ladi. Farz I.ni inkor qilgan kofir, uni tan olib, amal qilmagan osiy bo'ladi. Vojib I.ni qilgan savob oladi, qilmagan gunohkor bo'ladi. Sunnatni bajargan savob oladi, bajarmagani itob qilinadi. Mustahabni qilgan savob oladi, qilmaganga hech narsa yo'q. I.ni ado qilishda boshqaning yordamidan foydalanish mumkin. Birovning yordami ila I. qilish imkoni bor odam I. qilishga qodir hisoblanadi va qilmasa gunohkor bo'ladi. I. qilish uchun uning hammasini ado etishga niyat bo'lmog'i lozim. Ba'zisini ado etishga niyat qilsa-yu, qolganiga niyat qilmasa I. to'g'ri bo'lmaydi. Aqli raso bo'lmagan kishilardan I. soqit bo'ladi. Uzrli kishilardan I.nish ba'zisi soqit bo'ladi. Mas., bemor odam turishga qodir bo'lmasa, o'tirib namoz o'qiydi. Musofir odam to'rt rakaat o'rniga ikki rakaat namoz o'qiydi. I.ni ado etmaslik uchun hiyla qilish joiz emas. Mas., namoz vaqti yaqinlashganda uyqu dori ichib olib, uxlab qolib namozni o'tkazib yuboribman deyish. Zakot farz bo'lganda molining yarmini o'g'liga hadya qilib, molim nisobga yetgani yo'q, deyish kabilar. I. ado etilayotgan paytda buzilsa, u boshqatdan ado etiladi. Agar I. jarayonida uni tuzatish imkoni bo'lsa, tuzatib ham olish mumkin. Mas., namozni fosid qilmaydigan xato sodir bo'lsa, uni sahv sajdasi ila tuzatib olish mumkin. I. ta'abbudiy va g'ayri ta'abbudiy (hikmati ma'lum va hikmati ma'lum emas) ga bo'linadi. Mas., ro'za I.ining sabr, chidam, sog'liqqa foydasi kabi hikmatlari ma'lum. Ammo namozning nima uchun peshinda 4, shomda 3, bomdodda 2 rakaat farz bo'lganining hikmati ma'lum emas. Shunga o'xshash ta'abbudiy I.larni amr bo'lgani uchun hikmatini surishtirmay ado etilaveradi.

IBODIYLAR, abodiyalar - xorijiyarlarga mansub 4 asosiy firqa (jamo)ning eng "mo'tadil" hisoblangan qismi, Abdulloh ibn Ibod (yoxud Abod) (7-a.ning 2-yarmi)ning izdoshlari. 684 y. Basradagi xorijiyalar orasida bo'linish sodir bo'lgan: azraqiyalar umaviylarga qarshi chiqishgan, Abdulloh bo'lsa, Basrada qolib, qurolli kurashdan voz kechgan va xorijiyalarning "mo'tadil" qanotiga rahbarlik qila boshlagan. I. firqasining haqiqiy asoschisi va rahnamosi Jobir ibn Zayd (Ummonda tug'ilgan, 717 y.v.e.) edi. 9-a. oxirigacha Ummon I.i mustaqil bo'lishgan, so'ngra mamlakat yana abbosiylar tasarrufiga o'tgan, lekin 11-a. boshidan e'tiboran I. Ummonda yana hokimiyat tepasiga kelganlar. Hozirda bu mamlakat aholisining yarmidan ortig'ini I. tashkil etadi. I. diniy-siyosiy dasturi asosini imomat haqidaga ta'limot tashkil qiladi. I. imomatning mavjud bo'lishi shart emas, bir vaqtning o'zida islom dunyosining turli qismlarida bir necha imomlar bo'lishi mumkin deb hisoblaganlar. Imom shayxlarning maxfiy kengashi tomonidan saylanib, bu qaror xalqqa e'lon qilingan. Ko'pincha saylovlar bitta qabila yoki urug' doirasi bilan cheklanib qolgan.

I. imomi - hokim (lashkarboshi, qozi, faqih) ham bo'lgan. I. aqidasi sunniylar va mutaziliylar aqidasi tamoyillar aks etgan. I. odamlarning qilmishini vujudga keltiruvchi Allohdir, deb biladilar. Siyosiy va diniy sabablarga ko'ra, kishini o'ldirishni rad etganlar. I. ta'limoti tarafdorlari garchi ko'p mamlakatlarga tarqalgan bo'lsalar-da, ular diniy sohada ham, siyosiy sohada ham yakdil bo'lmaganlar. Hoz. Shim. Afrikada, Ummon, Zanzibar o.da I. jamoalari mavjud. Ularning diniy e'tiqod va marosimlari sunniylik va shialikdagi oqim, firqalardagi e'tiqod va marosimlardan o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi.

IBROHIM (as) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri, o'zidan keyin o'tgan barcha payg'ambarlarning bobokaloni, arablar va yahudiylarning umumiy ajdodi. Yakkaxudolikni targ'ib qilgan. Allohning chin do'sti (xalilulloh), imom ("jamoah rahbari"), siddiq ("haqiqatgo'y") va hanif ("yakkaxudolikni targ'ib qiluvchi") deb ta'riflanadi. Yahudiy-xristian diniy adabiyotlarida Avraam nomi bilan ma'lum. Bobilda tavallud topgan. Avvaliga yudduz, oy, quyoshga sig'inmoqchi bo'lgan, keyin yolg'iz Allohga ibodat qila boshlagan. Otasi Ozor va qavmlarini ham ana shunga da'vat qilgan. Bu hakda Qur'onda (Anbiyo surasi 53-56-oyatlar) kelgan. Ular bilan bahslashgan, ammo ishontirolmagach, otasi va qavmlari sig'inib yurgan hamma butlarni sindirib tashlagan (Anbiyo surasi 58-60-oyatlar). Shu sababli uni yondirib yubormoqchi bo'lib o'tga tashlaganlar, ammo, u Alloh irodasi bilan olovdan sog'-salomat chiqqani Qur'onda bayon qilingan (Anbiyo surasi 68-72-oyatlar). Qur'onda yozilishicha, Alloh I.(as)ga qariganda ikki farzand bergan. Bular Ismoil va Ishok; (as)lardir. Ismoil (as) Muhammad (sav)ning katta bobosi, Ishoq esa, Iso (as) va undan avval o'tgan payg'ambarlarning katta bobosidir. I.(as) tushida qilingan ilhomga asosan Allohga bo'lgan chin e'tiqodi evaziga bitta o'g'li (Ismoil)ni kurbon qilishga qaror qilgan, lekin Alloh bolaning o'rniga qo'chqor yuborgan (q. Kurbonlik). Makkai mukarramada Baytulloh (Allohning uyi)ning bunyod bo'lishi, islom arkonlarining 5-farzi - haj qilish I. (as)ga borib taqaladi. Ka'ba yaqinidagi "I. joyi" ("I. maqomi") musulmonlar ziyoratgohidir. Odatda, xatna qilishni ham I. (as) nomi bilan bog'laydilar. Manbalarda I. (as)ning 175 yil umr ko'rgani, o'g'illari tomonidan Madinatul Xalil (Xevron, Falastin)ga dafn etilgani yozilgan. Bu qabr ziyoratgoh hisoblanadi.

IBROHIM OTA MAQBARASI -Toshkentdagi me'moriy yodgorlik (15-17-a.lar). Rivoyatlarga ko'ra Ahmad Yassaviyning otasi Ibrohim ota mozori ustiga qurilgan deb taxmin qilinadi. Maqbara (tarhi 6,7x9,34 m, balanddiga 5,65 m) bir xonali, oldi peshtokli (balandligi 5,65 m), gumbaz tomli. Tarzlari bezaksiz, ichkarisi ganch suvoq qilingan. Poliga g'isht yotqizilgan. Eshik tepasidagi tuynukka panjara ishlangan. Maqbaraning g'arbida yer sathidan 1,5 m chuqurlikda chillaxona ham bor. Maqbara keyingi asrlarda bir necha marta ta'mir qilingan.

IDDA, i d d a t a l-m a r ` a (arab. -ma'lum vaqt, ayollar uchun belgilangan muxdat) - shariat bo'yicha eri o'lgan yoki eridan ajralishgan xotinlar boshqa erga chiqishi uchun o'tishi shart bo'lgan muxdat. Bunday ayollarga I. o'tmaguncha erga chiqish taqiklangan: beva uchun I. 4 oy-u 10 kun, eridan ajralishgan hayz ko'rmaydigan ayol uchun 3 oy, hayz ko'radigan ayolning I.si uch hayz belgilangan. Muxdatning belgilanishi Qur'onga asoslangan holda shariatga kiritilgan bo'lib, ayolning ajralgan yoki o'lgan eridan homilasi

bor yoki yo'qdigani aniqlash bilan bog'liq bo'lgan. Eridan taloq ila ajragan ayol, I.ni eri ila yashagan uyda o'tkazishi lozim. Chunki bu, yana qayta yarashish uchun berilgan imkoniyatdir. Homilador ayolning eri vafot etsa yoki taloq qilgan bo'lsa, I.si tug'guncha bo'lib, tug'sa I.dan chiqadi.

IDRIS (as) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. Rivoyat qilishlaricha, I. (as) yer yuzida 365 yil yashagan. Bu olijanob, taqvodor insonni Alloh "yuksak martabaga ko'targan" (Qur'oni karim, 19:56-57). Islomshunoslar I. (as)ni Bibliyadaga Enoh, ba'zan Ezdra kabi afsonaviy shaxslar bilan taqqoslaydilar. I. (as) islom rivoyatlaridagi Ilyos (as) va Xizr (as) hazratlari singari "abadiy barhayot" hisoblanadi. U xat va yozuvni, kiyim tikib, kiyinib yurishni boshlab bergan, yulduzlarga qarab takdirni aytib berishni, vaqt hisobini bilgan pang'ambardir.

IDRISIYLAR, banu Idris -Mag'ribdagi birinchi alaviylar sulolasi (789-926). Asoschisi - Idris I, Hasan ibn Alining chevarasi, Madinada Abbosiylarga qarshi alaviylar qo'zg'oloni (786) qatnashchisi bo'lib, ta'qibdan qochib Shim. Marokashga eson-omon yashiringandi. Barbar - zenatlar sardorlarining qo'llab-quvvatlashiga tayanib, markazi Ulili bo'lgan kichik davlat barpo etgan (788), Ulili yaqinida yangi shahar - Fes qad ko'targan. Idrisning ukasi Sulaymon, bir oz vaqtdan so'ng markazi Tlemsen sh. (G'arbiy Jazoir) bo'lgan yana bir davlatga asos solgan. I. davlatining ravnaqi Idris II (808-828) va uning o'g'li Muhammad (828-836) hukmronliklari davriga to'g'ri kelib, bu davrda davlat hududi Baland Atlas tog'laridan shim.-garbdagi butun hududni qamrab olgan. Bu davrda Fes va Tlemsen juda tez taraqqiy etgan, yanga shaharlar vujudga kelgan. Idris II davlatni ko'p sonli merosxo'rlari o'rtasida taqsimlagan, bu o'zaro nizolarni keltirib chiqargan. 917 y. Fotimiylar Yahyo IV ni tor-mor keltirganlar, u tobelikni bo'yniga olgan, lekin 919-920 y.da qamoqqa olinib, qatl qilingan. Fotimiylar va Umaviylarning Marokash uchun olib borgan uzoq kurashlaridan foydalanib I. Rifdagi mulklarini saqlab qolganlar. 974 y. Umaviylar so'nggi I.ni asir olishgan. Ulardan biri, al-Hasan, Qohiraga qochib borib, Fotimiylarni yordam berishga ko'ndirgan, biroq yana asirga tushib qatl etilgan. 1010 y. I.ning uzoq tarmoqdaridan biri -Hammudiylar Malaga va Alxesirasni egallab, u yerda viloyat hokimi sifatida 1057 y.gacha hokimlik qilishgan. Marokashda I.ning avlodlari (shariflar, mahalliy lahjada- shorfa) ko'pchilik bo'lib, hozirgacha ta'sir kuchiga ega.

IJARA - biror narsani ma'lum muddatga ma'lum mablag' evaziga omonatga olish, yollash. Shariat huquqi bu tushunchada barcha ko'rinishdagi I.ga olishni yoki biror xodimni yollashni nazarda tutadi. Yollash haqida tuzilgan shartnoma quyidagi holatlarda haqiqiy hisoblanadi: 1) I.ga olinayotgan narsa aniq ifodalangan va ikki tomonning roziliga ochiq-ravshan bayon etilgan bo'lsa; 2) to'lov mikdori va muddati aniq ko'rsatilgan bo'lsa; 3) I.ga olinayotgan narsa (yoki yollanayotgan mehnat) musulmon uchun ruhsat berilgan va foydali bo'lsa. Bu shartlar oldi-sotdi amaliyotidagi asosiy talablarga mos keladi. I.ga olish oldi-sotdi sifatida qaralib, unda narsaning o'zi emas, balki undan keladigan foyda nazarda tutiladi. I.ga olingan narsaga I.ga oluvchi ziyon yetkazsa, uning haqqini to'lashga majbur.

IJIY, Adudaddin Abdurahmon ibn Ahmad (taxm. 1281-1355) - so'nggi kalom vakili, mutakallim. Ij sh.da tug'ilgan. Fiqhda shofi'iy mazhabiga tayangan. Kalomni al-Baydoviy (1286 y. v. e.) izdoshlaridan o'rgangan. Elxoniyardan Abu Sa'id (1316-36) saroyida qozi bo'lgan. 1355 y. noma'lum sabablarga ko'ra qamoqqa olinib, o'sha yili vafot etgan. Mashhur mutakallim Sa'diddin at-Taftazoniy uning shogirdi bo'lgan. I.ning "Mavoqif fi ilm al-kalom" asari ko'p asrlar davomida kalom bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib kelgan va bir necha bor (jumladan, al-Jurjoniy tomonidan) sharh qilingan.

IJMO' (ittifoq bo'lish, azmu qaror qilish) - muhokama etiladigan masala yuzasidan mujtahidlarning bir fikrga kelishuvi; fiqh manbalaridan biri. Usul al fiqh ulamolari I.ni quyidagacha ta'riflaydilar: Muhammad (sav)ning ummatidan bo'lgan barcha mujtahiddarning u kishining asridan keyingi davrlarda biror shar'iy ishga yaqtsillik bilan ittifoq qilishlari I.dir. I. faqat mujtahidlar tarafidan sodir bo'ladi. I.da faqatgina fosiqlik va bid'atchilikdan xoli bo'lgan mujtahidlar qatnashadi. I.ning kelib chiqishi 7-a.ning 2-yarmida o'tgan dastlabki mujtahidlar - "Madinaning yetti faqihi" - Said ibn al-Musayyib, Urva ibn az-Zubayr, Abu Bakr ibn Ubayd, al-Qosim ibn Muhammad, Ubaydulloh ibn Abdulloh, Sulaymon ibn Yasar va Xorij ibn Zayd faoliyatlari bilan boshiq. Ular munozarali masalalarni o'rganish tartibini belgilab berishgan. Buning uchun har bir munozarali masala yuzasidan imkoni boricha to'liq ma'lumot to'plashgan, iloji boricha ko'pchilik kishilardan so'rab bilishgan. So'ngra bu ma'lumotlar solishtirilib muhokama etilgan, eng ishonchli deb bilingani bo'yicha yagona bir qarorga kelingan. Zamon, sharoitga qarab o'zgarib turadigan hukmlar musulmon jamoasi ijtihod qilib yechish uchun qoldirilgan. Agar Qur'onda ham, sunnatda ham zikri kelmagan masala ko'ndalang bo'lib qolsa, bu masalaning yechilishi musulmonlarning ishboshilariga havola qilinadi. Ijtihod maqomiga yetgan ishboshilar mazkur masalani Qur'on va Sunnat qoidalari asosida hal etadilar. Bunga amal qilish har bir musulmon uchun vojibdir. Chunki oyatda: "...Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling", degan amr bor. Allohning amriga bo'ysunish esa, vojibdir. Ammo, ishboshilarga bo'ysunishda bir necha shartlar bor. Avvalo, oyatda "o'zingizdan bo'lgan" deyilyapti. Faqixdar bu oyatdagi "ishboshi"larni fiqhda ijtihod darajasiga yetgan ulamolarning jamlanib, biror masala bo'yicha ittifoq bo'lib qaror qilishlari, ishboshilikdir, deganlar. Ahli Sunnaning barchalari, I. faqat mujtahidlarning ittifoqi ila bo'ladi, kim bo'lishidan qat'i nazar boshqalarning qilgan ittifoqi I. bo'la olmaydi, deganlar. Ba'zi taraflar eng yaxshi I. to'rt roshid xalifaning qilgan I.laridir deganlar. I. uchun suyanch bo'lishi shart. Bu suyanch matnda kelgan dalil yoki qiyos bo'ladi. Odatda o'sha matn yoki qiyos maxfiy bo'ladi. Mujtahidlar uni oshkor qilishga ijtihod qiladilar va uni hal qilishda itgifoq bo'ladilar. I. yo'li bilan sobit bo'lgan hukm qagiy bo'lsa, uni inkor qilgan shaxs kofir bo'ladi. Far'iy va mashhur bo'lmagan masalalardagi I.ni inkor qilgan shaxs kofir bo'lmaydi. Hanafiylarning fikricha, qat'iy ravishda sobit bo'lgan har qanday I.ni inkor qilgan shaxs kofir bo'ladi. Agar bir asrning ba'zi mujtahidlari bir masalada I. qilsalar va bu hakda boshqa mujtahidlarga xabar yetganda ular javob berish muddatida sukut saqlasalar, I.i sukutiy bo'ladi. Bu ham hanafiylar nazdida qat'iy I. hisoblanadi. I. nasx bo'lmaydi. Chunki, u Payg'ambar (sav)ning vafotvdan keyin bo'lgan narsadir. Payg'ambar (sav)ning vafotlaridan keyin nasx bo'lishi mumkin emas. Qur'on va Sunnatga xilof ravishda fatvo berib bo'lmaganidek, I.ga xilof ravishda ham fatvo berib bo'lmaydi. Shuningdek, Qur'on va Sunnatda hukmi bor masalada qiyosni ishlatish mumkin bo'lmaganidek, I.da hukmi bor bo'lgan masalada ham qiyosni ishlatish mumkin emas. Oxirgi paytlarda mujtahidlar yo'q bo'lgani va ijtihod eshigi berkitilgani oqibatida I. ham to'xtab qolgan.

IJOZA (arab. - ruhsat, guvoxlik) - tariqatga oid tushuncha. I.ning uch turi mavjud: 1) murid yoki darvishga shayx tomonidan topshiriladigan malaka irshodi. Irshod murid va darvishga o'z shayxi nomidan amaliy ishlar bilan shug'ullanish imkonini beradi; 2) Shayxning xalifasi (o'rinbosari)ga tariqatga yangi a'zolari qabul qilish vakolati berilganini tasdiqlovchi hujjat; 3) murid yoki darvish so'fiylik ta'limotini to'liq o'taganini tasdiqlovchi hujjat.

IJTIHOD (arab. - g'ayrat qilish, intilish) - faqih tomonidan shar'iy hukmni hosil qilish uchun barcha bilim va toqatini ishga solish. I. shar'iy hukmi kelmagan ishning maxsus qoidalarni ishga solib shar'iy hukmini aniklash uchun qilinadi. Payg'ambar (sav) tirikligida u kishidan boshqa odam I. qilmagan. Bu mumkin ham emas edi. I. 7-a. oxirida vujudga kelgan. Bu vaqtga kelib sahobalarning Muhammad (sav) faoliyatlari, aytgan so'zlari haqidagi xabarlarida ixtilof paydo bo'lgan. Bundan tashqari musulmon jamoasidagi hayot tarzining o'zgarib borayotganligi tufayli ko'plab huquqiy muammolar tug'ilgan. Shuning uchun I.ning asosiy maqsadi yangi yoxud o'tmishdoshlar tomonidan hal etilmagan masalalarni topish, islomga tayanilgan va uni quvvatlagan holda hal etish bo'lgan. Keyingi davrlarda Qur'on va Sunnatga tegishli ilmlarning barchasini, ijmo'ga oid narsalarni, arab tiliga oid barcha ilmlarni, usul ul fiqh ilmini va shunga o'xshash I. qilish uchun shart bo'lgan ilmlarni ya'ni oyatlarning sabab nuzulini, hadislarning aytilish sababi va o'rnini oliy darajada bilgan, taqvodorlik, adolatlilik va shunga o'xshash oliy shaxsiy fazilatlarga sohib bo'lgan kishilar (muftahidlar) I. qilishga haqli bo'lganlar. I., asosan, fiqhga oid masalalarga qo'llangan. Aqida va falsafaga oid masalalarda I. qilish mumkin bo'lmagan. O'rta asrlarda, aniqrog'i 12-a.da ba'zi hokimlarning faqihlarni majbur qilib noto'g'ri hukm chiqarishga urinishlaridan, noahil odamlarning I.ga o'zlarini urishlaridan ehtiyot qilib ulamolar, I. eshigi berkilganini e'lon qilganlar. Bu masalada xilof qilganlar ko'pchilikning qarshiligiga duchor bo'lganlar. Shu bilan birga goh-gohida I.ni da'vo qilganlar ham chiqib turgan. Bunday shaxslarga Ibn Taymiya va Ibn Qaym misol bo'la oladi. Hanafiylardan Kamol ibn Humom haqida shunga o'xshash gaplar bor. Ammo, I. eshigi berkitilganligi holati hozirgacha davom etib kelmoqda. Yaqin orada biror kishi I. qilgani tan olingani yo'q. Ammo I. qilish zarurligi tobora ortib borayotgani haqidagi chaqiriqlar ziyoda bo'lib bormoqda. Ba'zi zamondosh ulamo va ilmiy muassasalar shaxsiy I. emas, ulamolar jamoat bo'lib I. qilishi tarafdori bo'lmoqdalar. Shu maqsadda yangi paydo bo'layotgan masalalarda I. qilish uchun Islom davlatlari uyushmasi, Islom olami robitasi va b. ba'zi bir mintaq va davlatlarda Islom fiqhi akademiyalari tashkil qilingan va qilinmoqda.

IYD (arab. - hayit, bayram) - islom an'anasidagi 2 diniy bayram. 1-si qurbon hayiti (iyd al-adha) - zul-hijja oyining 10-kuni. 2-si ro'za hayiti (iyd al-fitr) - ramazon oyi tugagandan keyin shavvol oyining 1-kuni.

ILYOS (as) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. I.(as) o'z qavmi Ba'l nomli oltindan yasalgan butga sig'inib zalolatga botgach, ularni hidoyat yo'lga da'vat etish uchun payg'ambar qilib yuboriladi. Ammo, ular da'vatni qabul qilmaydilar. "Bani Isroil"ni hidoyat yo'lga sola olmay umiddari uzilgan I. (as) parvardigordan o'z jonini olib, mashaqqatdan xalos etishni so'raydi. Alloh unga qavmini isloh qilish vazifasi

yuklatilgani, binobarii jonini olmay, o'rniga so'ragan narsasini muhayyo etishni va'da qiladi. Qurg'oqchilik boshlanib xalq qahatchilikka uchraydi, begunoh hayvonu qushlar ham nobud bo'lib, daraxtlar quriydi. Shundan so'ng qavmning iltijosi bilan I. (as) Allohga yolvorib duo qilgach, ko'kda bulut paydo bo'lib yomg'ir yog'adi. Xiyonatkor qavm esa, yana ahdini buzib zalolat yo'lga kiradi... Rivoyatda I. (as) pirovardida samoga ko'tarilib ketgani aytiladi. Injildagi Iliya to'g'risidagi hikoyatlarda ham shunday mazmun bor. ILM (ko'pligi ulum) - bilim. Islom dini asoschisi Muhammad payg'ambar (sav) turli munosabatlar yuzasidan doimo Alloh ilmi va insoniy ilm haqida uqtirib kelganlar. Qur'oni karimda 750 ga yaqin joyda I. so'zi va u bilan bog'liq fe'l o'zaklari uchraydi. Alloh ilmi abadiy va keng qamrovliligi Allohning naqadar qudratli ekanligi belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi, inson ilmi ikki xil: oddiy, dunyoviy va diniy, e'tiqodiga mos bo'ladi. Islomni islomgacha va undan tashqari bo'lgan narsalarga, imonni - imonsizlikka va bilimni - johillikka qarama-qarshi qo'yish muhim bo'lgan. I.ga avval boshdanoq o'ta e'tibor bilan qarash natijasi shunga olib keldiki, bilimning mohiyatiga ilohiyot, huquqshunoslik, falsafiy, ijtimoiy-axloqiy kabi musulmon ta'limotlarida juda katta o'rin ajratildi. Bilimga intilish har bir mo'min musulmon va musulmon ayolning burchi va vazifasi ekani farz qilingan.

ILM al-HADIS, hadis, ilmi hadisshunoslik - hadislarni o'rganishga bag'ishlangan ilm sohasi. Soxta hadislar sonini ilk islom davridayoq oshib ketgani musulmon ulamolari orasida ularga nisbatan tanqidiy yondashish lozim ekanini ko'rsatdi. Muhaddislar muomaladagi soxta hadislarni asldan ajratish uchun ularni sinchiklab o'rganish zaruriyatini anglab yetganlar. Musulmon tankidchiligining asosiy e'tibori hadisning mazmuni (matn)ga emas, balki roviylar zanjiri (isnod)ga qaratilgan, isnodning sifatli bo'lishi yetkazilgan ma'lumotning to'g'riligiga kafolat hisoblangan, Muhaddislar uchun roviylar (ar-rijal) zanjiri (silasila)ni uzluksizligini belgilash muhim bo'lgan. Roviylarning ismi, yashagan yshshari, tarjimai hollarini bilishga harakat qilganlar. Ularning imoni sofliigi va axloqiy xususiyatlari alohida muhim ahamiyat kasb etgan. Roviylar haqida batafsil ma'lumot to'plash va ularni tanqidiy o'rganish I. al-H.da alohida yo'nalish - ma'rifat ar-rijol ("roviylar haqida bilim")ni vujudga keltirgan. Bu bilimni har bir bilimdon muhaddis egallamog'i lozim hisoblangan. Roviylarni aniqlash maxsus lug'at yoki isnodlarda nomi zikr etilgan shaxslarning tarjimai hollari bitilgan tabaqot ko'rinishidagi ma'lumotnomalarning yaratilishiga olib kelgan. Bu turdagi asarlarning bizgacha yetib kelgani Ibn Sa'd (845 y. v.e.)ning "Kitob tabaqot al-kabir" asaridir. Shu bilan bir qatorda "zaif" hadis roviylari haqida ham ma'lumotnomalar yozilgan, mas., "an-Nasoiy" (915 y. v.e.)ning "Kitob ad-du'afa" asari. Hadislar tanqidi juda puxta bo'lgan, shu munosabat bilan maxsus istiloxlar paydo bo'lgan. Hadislar bir xil qiymatga ega bo'lmasdan, "sahih" (ishonchli), "hasan" (yaxshi) va "zaif" (kuchsiz) kabi turlarga bo'lingan. "Sahih" hadis deb to'liq, hech qanday uzilishsiz roviylari bo'lgan, roviylarining imoni va fazilatlarini hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydigan hadislariga aytiladi. "Hasan" hadis deb, roviylari zanjirida uzilish bor bo'lgan hadislariga aytiladi. Bunday hadislar garchi "sahih"lardan pastroq darajada tursa-da, har holda ilohiyot - huquqiy masalalarni yechishda qabul etilib, ulardan foydalanilgan. "Zaif" hadis deb hadisning mazmuni shubha tug'dirsa yoki roviylardan biri ishonchga noloyiq deb topilsa, shunday deb atalgan. Bunday hadislar faqatgina ulardan turli xildagi o'git-nasihat yoki yaxshi odob-axloqqa oid misollar keltirilgan holdagana qabul qilingan.

Hadislar tanqidiga 9-a.ning yirik allomalari, musulmon olamida eng ishonchli deb hisoblangan olti sahih hadis to'plamlarining mualliflari: Buxoriy (870 y. v.e.), Muslim

(875 y. v.e.), Ibn Moja (886 y. v.e.), Abu Dovud as-Sijistoniy (888 y. v.e.), Termiziy (892 y. v.e.) va Nasoiy (915 y. v.e.)lar katta hissa qo'shdilar.

ILOHIYOT (arab. - xudo to'g'risidagi ta'limot) - xudo, uning sifatleri, belgilari va xususiyatlari to'g'risidagi diniy ta'limot. Muayyan diniy akdda va ular haqidaga ilohiy ko'rsatmalarni o'rgatadi. I. muqaddas kitoblar, rivoyatlar kelib chiqishining ilohiy ekanini, shuningdek ibodatni bajarish bilan bog'liq bir qator amaliy bilimlar yig'indisini o'z ichiga oladi. I.ning barcha tizimlari dunyoni yaratgan va uni inson bilolmaydigan qonunlar orqali boshqaradigan xudoni tan olishga asoslanadi. Islom dinida I. shakllanish davrida xilma-xil I. oqimlari (jabariylar, qadariylar, mutaziylar, murji'iyalar va b.) vujudga kelgan. Islomda I. ilk shakllanishi davridan boshlab kalom deb atalgan. I. diniy o'quv yurtlarida o'qitiladi.

ILOHIY KITOBLAR - muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko'ra, Alloh o'tgan payg'ambarlarning ba'zilariga sahifalar, ba'zilariga esa, kitoblar nozil qilgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as)ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muhammad (sav)ga Qur'onni nozil qilgan. Qur'ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo'la bir daf'ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur'on hazrat Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan. Diniy aqidaga ko'ra, Alloh bandalarining ruhiy va moddiy ahvollarini yaxshi bilgan holda har bir payg'ambarga uning ummatlariga munosib hukmlar bayon etilgan kitob va sahifalar yuborib turgan. Ular o'z davrida ummatlar uchun hidoyat manbai bo'lgan. Islom ta'limoti bo'yicha, Qur'oni karim Allohning qiyomatgacha hukmi o'zgarmaydigan, tillarda va dillarda saqlanib qoladigan oxirgi kitobidir.

ILTIJO - ruhoniylar yoki dindorning Xudodan, g'ayritabiiy kuchlardan madad tilab hamda yovuz kuchlarni qaytarishni so'rab, murojaat qilishi. I. dinga sig'inishning zaruriy qismi, ibodat qilish va diniy marosimlarning ajralmas xususiyatidir. Diniy tasavvurlarga ko'ra, I. orqali g'ayritabiiy kuchlarga ta'sir qilish mumkin. Har bir dinda I.ning o'ziga xos shakli vujudga kelgan. Mas., islomda duo qilinganda qo'lini ochib, yuziga surtish (omin qilish).

ILHOD ("bosh tortish", "rad etish") -munozara adabiyotida keng ishlatiladigan ilohiyot atamasi. Qur'oni karimda (7:180/179; 22:26; 41:40) va hadislarda "buzg'unchilik", "qaytishlik", "man etilgan narsani buzish" ma'nosida qo'llaniladi. Qur'on tafsirchilari I.ga Allohning go'zal ismlari muqaddasligini buzish, uning sifatlarini noto'g'ri talqin qilish va b.ni kiritganlar. Ilk islom davrida I. zandaqa (q. Zindiq,) atamasining sinonimi bo'lgan, 9-a.da har qanday "yangilik" (bid'at) yoki sunniylik ta'limotiga oddiy ravishda qo'shilmalik sunniy ilohiyotchilar tomonidan I. deb baholangan; I.da ayblanganlarni malahida yoki mulhidun (birligi - mulhid) deb atashgan. Mulhid "g'orat etuvchi", "xudosiz" degan haqoratimiz ma'noga ega bo'lgan. Ka'badan "qora tosh"ni o'g'irlagan bahreynlik qaramatiylar I.da ayblanganlar. Muqaddas yerda man etilgan narsalarni buzgan (mulhidun) uch kishini Alloh huzurida eng manfur kimsalar ekani haqidagi hadisga binoan, sunniy ilohiyotchilari islomdagi mana shu "yovuz murtaddar"

(mulhidun)ni aniqlashga harakat qilishgan. Ko'pincha bunday "izzat-ikrom"ga ilohiyot sohasida o'zining tez-tez o'zgarib turadigan qarashlari bilan mashhur bo'lgan Ibn ar-Ravondiy (taxm. 10-a. boshida v.e.), "Payg'ambarlarning yolg'onlari" asarini yozgan mashhur tabib Abu Bakr ar-Roziy (912 y. v.e.) va mashhur adib Abu-l-A'lo al-Ma'arriy (973-1057)lar "sazovor" bo'lganlar.

ILHOM - ko'ngilga solish; tasavvufda solik qalbida Alloh tomonidan paydo etilgan fikr. Shariat ulamolari fikricha, I. qat'iy ma'lumot manbai bo'la olmaydi. Tasavvuf ahdi, aksincha, I.ni ilohiy fayz deb qabul qilib hamda unga asoslanib, so'z va ish yuritadi. I. tor ma'noda "vahiy"ning sinonimidir. I. o'z mohiyatiga binoan "aqliy ilm"dan ham farklanadi, chunki I. fikr-mulohaza yuritish va xulosa chiqarish yo'li bilan vujudga kelmaydi. Tasavvufga ko'ra, I. mo'min dilini yorituvchi ilohiy nurdir, Qur'onning botiniy ma'nosini ham I. orqali anglab yetish mumkin.

IMOM (arab. - oldinda turuvchi) - namozda oldinda turuvchi, g'oyaviy rahbar, musulmon jamoasi boshlig'i. Kundalik hayotda masjidida jamoa namozining rahbarini I. deb ataydilar. I. vazifalarini ayni bir odam bajarishi mumkin, ammo I. mansab ham, kasb ham hisoblanmaydi: u haqiqatda namozni boshqarib turgani uchungana I. deb e'tirof qilinadi. Mahalla va qishloq masjidlarida odatda diniy ma'lumoti bor odam I. hisoblanadi. Jome masjidlarining I.i maxsus diniy ma'lumotga ega va dindorlar o'rtasida obro' qozongan bo'lishi kerak. Namozda kimlar imom bo'lishga haqliroq ekani fiqh kitoblarida bayon qilingan. Islom dini paydo bo'lgan dastlabki yillarda I.vazifasini Muhammad (sav), u zotning vafotlaridan so'ng esa, xalifalar bajargan. Muhammad (sav) va dastlabki xalifalar namozda oldinda turuvchilargina emas, shu bilan bir vaqtda qavm boshliqlari ham edilar, binobarin I. -xalifa amalda oliy diniy va siyosiy rahbar hisoblangan. Nazariy jihatdan yagona musulmon jamoasida I.ni oliy diniy va dunyoviy hokim sifatida tasavvur qilish ana shundan boshlangan. Aynan kimni qonuniy I. deb hisoblash kerak va uning hokimiyatining mohiyati qanday, degan masaladagi bahslar musulmonlarning sunniylar va shialarga bo'linishiga sabab bo'ldi. Sunniylarning oliy hokimiyat nazariyasiga ko'ra, xalifa barcha musulmonlarning I.i hisoblanadi. Xalifa - I.ning asosiy vazifasi - dinni saqlash va dunyoviy ishlarni boshqarish. I. diniy qonun-qoidalar qavm hayotiga to'g'ri joriy qilinayotganini kuzatib borishi kerak. Sunniylar, shuningdek, xorijiyilar I.ni qavmning vakili hisoblaydilar, u nazariy jihatdan butun qavm tomonidan, amadda esa, uning vakillari tomonidan saylanadi yoki o'tmishdoshi tomonidan tayinlanadi. Shialar nazariyasiga ko'ra, Ilarning oliy hokimiyati xudo tomonidan belgilab qo'yilgan, shu sababli u odamlarning xohishiga bog'liq bo'lishi mumkin emas, ya'ni I. saylanishi mumkin emas (I.ning saylab qo'yilishiga faqat zaydiylar qarshi emasdilar). Avval boshdan I.ning saylanish qoidasini rad etgan shialar musulmonlar qavmi va davlatining oliy hokimiyati Ali avlodlariga meros hisoblanadi, chunki ularning huquqi ilohiy ko'rsatma bilan belgilab qo'yilgan, deb e'lon qildilar. Shialarning diniy ta'limotiga ko'ra, I. 3 vazifani bajaradi: 1) qonuniy I. - islom qavmi boshlig'i, odamlarning ishlarini amalga oshirishda Payg'ambarning vorisi; 2) u - diniy bilim va huquqlar tafsirchisi, Qur'on va hadislarning eng to'g'ri mufassiri; 3) u - odamlarga hamma narsaning botiniy ma'nolarini anglatadigan oliy diniy rahbar. I. hokimiyati, shu tarzda, odamlarning dunyoviy va ruhiy hayotidan tashqari ko'zga ko'rinmas dunyo - "g'ayb olami"ga ham tegishlidir. Oliy hokimiyatning ilohiy tabiatidan kelib chiqib, shialar avval boshdan o'z Ilarini Allohning yerdaga haqiqiy va to'la huquqli

vakillari deb hisoblab kelganlar. Shialarning I.i - Allohning noibi, u orqali Allohga yaqinlashish mumkin, I.lar payg`ambarlarga xos bilimlar merosxo`ri. Biroq Ali avlodlari tabiiy ravishda bo`linib, tarqalib keta borgan sari oliy hokimiyatga da`vogarlik qilishi mumkin bo`lganlar soni ko`paya bordi. Ali avlodlarining turli shajarasi vakillarini I. sifatida tan olgan shialik har xil oqim va jamoalarga bo`linib ketdi. Zaydiylar, ismoiliylar, imomiylar, "keskin" shialar oliy hokimiyatni berish qoidasi, I.ning huquq va burchlari, I.larning hukmron sulola bilan hamkorlik qilishi mumkinligi, ularning "adolatsiz" hukmdorlarga munosabati va h.k. masalalarni turlicha talqin qildilar. Ko`pchilik uchun hoz. vaqtda Ali avlodlari bo`lgan haqiqiy I. yo`q. Shialarning diniy rahnamolari - "din odamlari" (rijal ad-din) uning to`la huquqli vakillaridir. I. atamasi shialik va sunniylikda, shuningdek, yirik diniy rahnamolar, katta qavmlarning rahbarlari, diniy mazhab va maktablar asoschilari (Abu Hanifa, al-Ash`ariy, Humayniy va h.k)ga hurmat yuzasidan ham qo`llaniladi.

IMOM BUXORIY - q. Buxoriy.

IMOM al-BUXORIY YODGORLIK MAJMUI - Samarqand yaqinidaga me`moriy yodgorlik, qadamjo. Chelak tumanining Xartang qishlog`ida joylashgan. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 y. 29 apr.dagi "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo`yicha 1225 yilligini nishonlash to`g`risida"gi qaroriga muvofiq Prezident Islom Karimov loyihasi asosida allomaning maqbarasi o`rnida barpo etildi. Majmua 1998 y.da ochilgan. Yodgorlik majmui avvalo ziyoratgoh, qadamjo, so`ng kundalik, juma, hayit namozlari o`qiladigan joy vazifasini o`taydi. Umumiy mayd. 10 ga ni tashkil etadi. Majmuada maqbara, ma`muriy bino, masjid, kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va b. yordamchi xonalar mavjud. Masjid va peshayvonida 1500 gacha kishi namoz o`qishi mumkin. Masjid ichidagi mehrobning o`ng tomoniga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Saudiya Arabistoni podshohi Fahd ibn Abdul Aziz tuhfa qilgan kisva -Ka`bapo`sh parchasi osib qo`yilgan. Kutubxonada Qur`onning noyob qo`lyozmalari, turli nashrlari, Imom Buxoriy asarlaridan namunalar va b. kitoblar bor. Majmua to`rida, maqbaraning orqa tarafida hadis ilmini o`rganishga mo`ljallangan o`quv markazi -"Dorul hadis" binosi joylashgan. Bu yodgorlik majmui keyingi asrlarda bunyod etilgan ulkan va noyob inshootdir. U yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o`ylantiradigan aziz maskanga aylandi.

"IMOM al-BUXORIY SABOQLARI" - Imom al-Buxoriy xalqaro jamg`armasining ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy-adabiy jurnali. 2002 y.dan Toshkentda uch oyda bir marta nashr etiladi. Uning vazifasi - xalqimiz, ayniqsa yoshlarni milliy-diniy qadriyatlarni sog`lom idrok etishiga yordam berish, milliy-ma`naviy merosimizdan bahramand etish. Jurnalning "Abadiy barhayot kitob", "Muhaddislar sulтони", "Hadislarning ulug` hikmati", "Movarounnahrlik buyuk allomalar", "Islom va ma`rifat", "Istiqlol va islom" kabi ruknlari bor. Bosh muharriri Zohidillo Munavvarov. Adadi 1000 nusxa (2002).

IMOM BUXORIY XALQARO JAMG`ARMASI - buyuk muhaddis Imom Buxoriyning boy ma`naviy merosini chuqur o`rganish va keng targ`ib qilish maqsadida tuzilgan xalqaro

jamg'arma (1998 y. 4 noyab.). Muassislari: O'zbekiston musulmonlari idorasi, Madaniyat ishlari vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Toshkent shahar va Samarqand viloyat hokimliklari, "O'zbekturizm" va "O'zbekiston havo yo'llari" milliy kompaniyalari, O'zbekiston milliy universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Mahalla" va "Oltin meros" jamg'armalari va b. Boshqaruvi -Toshkent shahrida, Samarqand bo'limi - Chelak tumanidagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "Ymom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida (1998 y. 16 noyab.) jamg'armaning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Jamg'armaning dastlabki ustav fondi Vazirlar Mahkamasi zaxira fondidan o'tkazilgan 50 mln. so'm va Kuvayt Davlati Amiri tomonidan Imom Buxoriy yodgorlik majmuiga xayriya etilgan 500 ming AQSh dollaridan shakllavdi. Jamg'armaning asosiy fondlariga uning balansiga o'tkazilgan binolar va ko'chmas mulklar, jumladan, Imom Buxoriy yodgorlik majmui kiradi. Jamg'armaning milliy va xorijiy valyutadagi hisob raqamlari O'zbekiston fuqarolari va tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy shaxslarning xayriya ulushlari uchun ochiq, deb belgilangan. Tashkiliy tuzilmasi rais va uning o'rinbosarlari, ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, turizmni rivojlantirish, xalqaro aloqalar va investitsiyalar, qo'lyozmalar elektron kutubxonasi, Imom Buxoriy nashriyoti kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

IMOM ad-DORIMIY MAQBARASI -Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (2000 y.). Imom Buxoriyning ustozlaridan biri imom Abdurahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy (q. Dorimiy) qabri ustida bunyod etilgan. Mustaqillik yillari qabr atrofi obod etilib, ziyoratgohga aylantirildi.

IMOM MUSLIM, to'liq ismi Abul-Husayn Muslim ibn al-Hajjoj ibn Varad ibn Kushoz al-Qushayriy an-Naysoburiy (821-875) -mashhur muhaddis. Imom Buxoriydan keyin hadis ilmining eng zabardast allomasi. Fiqh ilmdan ham yaxshi xabardor bo'lgan. 12 yoshida hadis ilmini o'rganishga kirishgan. I.M. shu maqsadda ko'p mamlakatlarga sayohat qilgan, jumladan Hijoz, Misr, Suriya, Iroqda bo'lgan. Ulamolarning qayd etishlaricha, u 300 mingdan ziyod hadislarni ko'zdan kechirib shundan atigi 12 mingtasini ishonchli (sahih) deb topib o'zining "As-Sahih" asariga kiritgan. Bu kitob ahdi sunna nazdida "ikki sahihning biri" deb ta'vil qilingan, olti sahih kitobning ikkinchisidir. I.M. bundan tashqari "Al-Musnadul-kabir", "Al-asmu val-kuno", "Al-ilal", "Kitobu avlodis-sahoba" kabi asarlar yozgan.

IMOM NASAIY, Abu Abdurrahmon Ahmad ibn Ali ibn Shuayb ibn Ali ibn Sinon ibn Bahr al-Xurosoniy (827-915) - muhaddis, hadisshilik bobida eng ishonchli 6 hadis to'plamlaridan birining muallifi. Naso(Niso) sh.da tavallud topgan. Ona yurtida Qur'oni karimni yod olib, boshlangach diniy ma'lumotlarni olgandan keyin kengroq ilmu ma'rifat hosil qilish niyatida xorijiy mamlakatlarga safarga chiqadi. 15 yoshli muhaddis Hijoz, Iroq, Shom, Misr va b. mamlakatlarga borib diniy fanlarni puxta o'zlashtiradi. U Misrning "Zuqoq al-qanodil" mahallasida uzoq vaqt yashab, so'ngra Damashqqa boradi. U yerda umaviylarga yon bosmagani sababli tazyiq ostida og'ir holatga tushadi. Bir rivoyatga ko'ra, Makkaga yetib borib, o'sha yerda, ikkinchi rivoyatga ko'ra, Baytil-Makdis (Quddus)da vafot etadi. Hadis bobida yozgan "as-Sunan al-kubro" to'g'shami uning shoh

asari hisoblanadi. Undan tashqari u "as-Sunan as-sug'ro" yoki "al-Mujtabo", "al-Xasois", "Fazoil as-sahoba", "al-Manosik" va b. kitoblarni yozib qoldirgan.

IMOMIYLAR - shialikdagi asosiy oqimlardan birining tarafdorlari, Ali avlodiga taallukdi 12 imomni tan oluvchi mo'tadil shialar. I. 11-imom Hasan al-Askariy vafoti (873 y.)dan keyin uning yosh o'gli Muhammadni oxirgi, 12-imom deb tan oladilar. Rivoyatlarga ko'ra, bu imom yo'qolgan (tarixda o'ldirilgan bo'lsa kerak) deb hisoblanadi. I. uni "yashiringan imom", ya'ni Mahdiy deb e'lon qilib, u qaytib kelishi bilan adolat tantana qiladi, deb hisoblaydilar. "Yashiringan imom"ga e'tiqod I.ning asosiy aqidalaridan biridir. Ular imomat ta'limotini asosiy qoida sifatida ilgari suradi, imomning saylab qo'yilishini rad etadi. Ular o'zlarining hamma imomlarini "jabrdiyda" deb biladi va ularga e'tiqod qiladi. I. shialarning ancha ko'p tarqalgan qismidir. I. ta'limoti hoz. Eronning davlat dini hisoblanadi. I. Iroqda aholining deyarli yarmini tashkil etadi. I. jamoalari Livan, Kuvayt, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Afg'oniston va b. mamlakatlarda bor.

IMOMLIK, i m o m a t (arab. - boshqarmoq) - 1) musulmon teokratik davlatining umumiy nomi. Islom evolyutsiyasi jarayonida I. haqidagi tasavvur ham o'zgarib borgan. Ilk islomda Muhammad (sav) va xalifalar musulmonlar jamoasida ma'muriy hokimiyat va diniy rahnamo(imom)likni birga qo'shib olib borgan. Keyinchalik xalifalar hokimiyatida ma'muriy rahbarlik asosiy o'rin egallagan. Diniy hokimiyat - I. esa nomigagana saqlanib qolgan. Shia mazhabida I. faqat Muhammad (sav) avlodlaridan bo'lgan (Ali (kv) va Fotima avlodlari) shaxsning diniy va ma'muriy hokimiyati hisoblangan; 2) Dogaston va Chechenistonda muridlar davlati, 19-a.ning 20-y. oxirida chorizmning mustamlakachilik siyosatiga qarshi Shim. Kavkaz xalqlarining kurashi davrida paydo bo'lgan. Imomlari: G'oz Muhammad (1828-32), Hamzatbek (1832-34), Shomil (1834-59); 3) Namoz vaqtida jamoat oldida turib ibodatni boshqarish, imomlik qilish.

IMON, i y m o n (arab. - ishonch, e'tiqod) -islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg'ambarlari, qiyomat kuni, takdir va o'lgandan keyin tirilishga ishonish. Bu "imoni mufassal", ya'ni iymonning mufassal ta'biri deb ham ataladi. I. moturidiylik ta'limotiga ko'ra, 2 narsaning butunligi -e'tiqod (dinga ichdan chuqur ishonish) , iqror (so'zda buni tan olish)dan iborat deb hisoblanadi. Islomda I. talablari "arkon al-imon (e'tiqod asoslari) sanaladi. I. asoslariga, u aqlimizga xoh sig'sin, xoh sig'masin, baribir ularga shak-shubhasiz e'tiqod qilish talab qilinadi. I. talablari, ya'ni aqidalar islomning diniy dunyoqarash asoslarini tashkil etadi. Din va huquq ilk islom davrida ajratilmagani tufayli "I." muammosi ilohiyotchilarni ham, fiqhshunoslarni ham band etgan. I. tushunchasi islomda muhim va bahsli masalalardan biri hisoblanib, uni 8-a. boshidan turli ilohiyot va diniy-huquqiy maktab vakshshari turlicha talqin qilgan. Hoz. kunda I. so'zi vijdonlilik, halollik, soflik, Vatanni sevish ma'nolarida ham ishlatiladi.

INJIL - Alloh taolo Iso (as)ga Jabroil orqali og'zaki tarzda nozil qilgan kitob. Musulmonlar bunga imon keltiradilar. Bu hakda Qur'onda bir necha oyatlar kelgan. "Va unga kitobni, hikmatni, Tavrot va Injilni o'rgatadi" (Oli Imron surasi 48-oyat). "Ularning izlaridan Iso ibn Maryamni o'zidan oldingi Tavrotni tasdiqovchi qilib yubordik. Unga Injilni berdik. Unda hidoyat va nur bor. U o'zidan oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchidir. u

taqvodorlar uchun hidoyat va mav'izadir" (Moida surasi 46-oyat). Qur'onga ko'ra, I. da Muhammad (sav)ning kelishlari haqida bashorat qilingan, biroq I. matni nasorolar tomonidan buzilgan. Lekin o'sha ilohiy kitobning asl nusxasi hoz. yo'q. Chunki, Iso (as)ning vaqtlarida I. kitob shaklida bo'lmagan. Hech kim hech narsani yozmagan. U zotdan keyin ba'zi kishilar o'zlari kitob yozib, mana shu I., menga vahiy qilindi va uni men yozib oldim, deb chikdilar. Asta-sekin "I. vahiy qilinganlar" ko'payib boraverdi. Oxiri borib ularning soni juda ham ko'payib ketdi. Ularning har biri o'zining I.i haq ekanini da'vo qilar edi. Orada gap-so'z, ixtiloflar kuchaydi. Shunda imperator Konstantin mil. 325 y.da Nikeya (Nisea)da katta majlis chaqirdi. Bu majlisda 2048 patriarx qatnashdi. So'ngra turli jamoalardan 2000 dan ortiq ruhoniy o'nlab Ilarni ko'tarib keldilar. Imperator majlis ahdi oldiga mavjud I.lardan eng ishonchlisini tanlab olish vazifasini qo'ydi. Ular uzoq talashib-tortishishlardan keyin 4 dona I.ni tanladilar. Hoz.da nasorolar e'tiqod va amal qiladigan I.lar ana o'sha 4 I.dir. 1-Mutto (Matfey) I.i. Bu I. eng qad. I. hisoblanadi. U Iso (as)dan 4 y. keyin yozilgan. U ibroniy tilda yozilgan edi. Ammo, o'sha asl nusxasi ham hoz. yo'q. Hoz. bori o'shaning tarjimasi. Lekin tarjimon ham, u qaysi matndan tarjima qilgani ham hozirgacha ma'lum emas. Buning ustiga bu I.ning muallifi Mutto Iso (as)ning havoriylaridan emasdi. Keyinroq uni xoin Yahuzoning o'rniga saylashgan edilar.

2-Markos (Mark) I.i. Bu I. yunon tilida Iso (as)dan 23 y. keyin yozilgani aniq. Ammo uni kim yozgani noaniq. Ba'zi nasorolar, uni Pyotr yozgan, deydi. Boshqalari esa, uni Pyotrning o'limidan keyin Markos yozgan, deydi.

3-Luka I.i. Bu kitob Masih (as)dan 20 y. keyin yozilgan. Luka u zotning shogirdlaridan emas. U Polning shogirdi. Uning ustozlari ham Iso (as)ni ko'rgan emas. Buning ustiga Pol nasorolikka dushman bo'lgan yahudiylardan edi. Shuning uchun hiyla bilan nasorolikka qarshi ko'p buzg'unchiliklar qilgan.

4-Yuhanno (Ioann) I.i. Bu I. Iso (as)dan 32 y. keyin yozilgan. Ba'zi nasoro toifapari uni Iso (as)ning shogirdlaridan biri Yuhanno ibn Zabdiy yozgan, deydi. 500 taniqli nasoro olimlari ishtirokida yozilgan "Britaniya ensiklopediyasi" bu kitobni, qalbaki kitob, degan. Musulmon shaxs I.ni Alloh tomonidan Iso (as)ga tushirilgan ilohiy kitob deb imon keltirmasa musulmonliga qolmaydi. Shu bilan birga musulmon shaxs asl nusxadagi I.ning yo'q dигi va hoz. Ilar buzilgan ekaniga ishonadi. Alloh Qur'onda Iso (as)ning tug'ilishidan oldin uning kelajagi haqida quyidagilarni aytgan: "Va unga kitobni, hikmatni, Tavrot va Injilni o'rgatadi" (Oli Imron surasi 48-oyat). Tavrot Muso (as)ga tushirilgan ilohiy kitobdir. U Iso (as)ga ham kitob bo'lishini Allohning O'zi aytib turibdi. Tavrot Iso (as)ga kelgan dinning ham asosini tashkil etadi. I. esa, Tavrotni to'ldirib kelgan. I.ning o'zbek tilidagi to'liq nashri kirill yozuvida 1992 y.da so'zboshi, lug'at, jadval va rangai suratlar bilan birga Bibliyani tarjima qilish in-ti (Stokgolm) tomonidan chiqarilgan (tarjimon - Ibrohim Abaev).

IRAM ZOT al-IMOD ("ko'p ustunli Iram") - Jan. Arabistonda go'yo mavjud bo'lib, Qur'onga binoan Alloh taolo tomonidan yo'q qilib yuborilgan inshootlar majmuasi. Qur'onda (89:7/6) Alloh tomonidan kibrga berilib gunohga botganlari uchun nobud qilingan od va samud qavmlari bilan birga qayd etiladi. Ushbu oyatning eng ko'p tarqalgan tafsiri I.Z.I.ni od qavmi tarixi bilan bog'laydi. I.Z.I. - odiylar podshohi Shaddod tomonidan qurilgan shahar. Shaddod Allohning elchisi Hud (as)ning so'zlariga quloq solmay Yer yuzida, Adan yaqinida jannatga o'xshash makon yaratishni istagan; bu shaharning binolari oltin va kumushdan bunyod etilib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Podshohning kibru havosi va imonsizligi uchun Alloh I.Z.I.ga kuchli bo'ron

yuborib shaharni qumga ko'mdirib yuborgan. Ba'zan sahroda adashib qolgan yo'lovchilar mana shu o'lik shaharni ko'rganlari va u yerdan olib kelgan qimmatbaho toshlar kulga aylanib qolgani haqida afsonalar mavjud. Qur'ondagi I.Z.I. - qad. arab shaharlarining halokati haqidagi rivoyatlardan biri. Haqiqiy I.Z.I. - nabateylarning Shim. Hijozdagi ko'p ustunli ar-Ramm ibodatxonasi vayronalari. Ko'p ustunli I.Z.I. obrazida tadqiqotchilar ba'zan narigi dunyoning qad. mifologik ramzini ko'radilar.

IRIM - g'ayritabiiy hodisalarning kishilarga ta'sir qilishiga ishonib, biror niyat bilan qilinadigan odat, xatti-harakat. I. o'zni ehtiyotlash, birovlariga yaxshilik tilash yoki zarar yetkazish va b. niyatlarda qilinadi. Jahovdagi deyarli hamma xalqlarda va turli kasb-hunar sohalarida uchraydi. I., bir tomondan kishilarning ezgulikka intilishlari, orzulari bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatda qandaydir g'ayritabiiy sehrli kuchlarning borligiga ishonishga asoslanadi. I.ni Islom dini bilan hech qanday aloqador joyi yo'q. Islom diniga ko'ra, bu amal xurofot sanaladi.

ISLOM (arab. - bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) - jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. I. diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("islomni qabul qilgan", "itootli", "sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. "Muslim", "muslimun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (mas., forslarda -musalmon, o'zbeklarda - musulmon, qirg'iz va qozoklarda - musurmon, Ukraina va Rossiyada - basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi I.ga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qita aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasida musulmonlar aholining ko'pchiligani tashkil qiladi - Shim. Afrika, Rarbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va b. ba'zi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80% igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlarda musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta'sir doirasi kuchli (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina Faso, Serra-Leone va b.)- Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar - Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Yugoslaviya, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR, Frantsiya va b.), Shim. va Jan. Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSh, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fidji orollarida yashaydi.

I. 7-a.da Hijoz (G'arbiy Arabiston)da paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad (sav)dir. Islom dinining paydo bo'lishi xususida islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. I. talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambar - elchilar yuborgan. Ammo, insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammad (sav)ni tanladi, unga

o'zining kalomi - Qur'onni nozil qildi. Muhammad (sav) oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo - Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga. tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdilar. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim (as) Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, I. batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohim(as)ning qayta tiklangan dinidir.

I. dini tarixini o'rganishda o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish kerak. I. dini vujudga kelgan davrda Arabiston ya. o.da Makka va Yasrib (Madina) kabi shahar-davlat (polis)lar boshqalarga nisbatan muayyan ustunlikka ega edilar. Bu shaharlar xalqaro savdoning eng yirik markazlaridan bo'lib, iqtisodiy hayot jo'shqin tus olgandi. Shahar-davlatning kelajak taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshlagan. Hijoz (Makka, Yasrib, Xaybar, Dumat al-Jandal, Tayma va b.) va umuman Arabistonni xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona saltanatga aylantirish davr talabi bo'lib qolgan edi. Saltanat tuzish bilan bir qatorda Arabiston ya. o.dagi qabilalarning etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, ogzaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagana muvaffaqiyatga erisha olardi. Shuvday qilib, Muhammad(sav)ning diniy va siyosiy faoliyatlari yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan. Muhammad (sav) har tomonlama barkamol inson bo'lganlari uchun, u zotning shaxsiy fazilatlari tufayli yahudiy-xristian ta'limotlariga yaqin g'oya bilan yashovchi mahalliy hijozliklar harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etdi, diniy va siyosiy kuchga ega bo'ldi; bu kuch islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi.

Muhammad(sav) 610 y., ya'ni 40 yoshlarida vahiy (ilohiy ilhom) olayotganlarini e'lon qildilar. Ammo, bir necha nufuzli yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, Quraysh qabilasining zodagonlari ularning targ'ibotlariga ochikdan-ochiq qarshi chiqtsilar. U zot o'zga yerlarda tarafdorlar izlashga majbur bo'ldilar. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdi, so'ng Makka zodagonlari bilan ma'lum davrdan buyon raqobatlashib kelayotgan Yasribdagi Banu Avs va Banu Xazraj qabilalarining vakillari 622 y. musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammad(sav)ni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo'lishdi. Yasrib shahridagi mavjud etnik vaziyat ham shuni taqozo etgandi. Hijra nomini olgan bu voqea I. tarixida burilish yasadi. Ko'chib o'tgan kishilar muhojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada I.ni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 y. davom etdi (q. Badr jangi, Uxud jangi, Xandaq jangi va b.). 628 y. Makka zodagonlari Muhammad(sav) bilan kelishishga majbur bo'ldilar. 630 y. musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga I. dinini qabul qildi va Muhammad (sav)ni Allohning elchisi (rasuli) deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka I. dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. Muhammad (sav) vafot etgan 632 y.da Arabiston ya. o. to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi I. dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida I. dini muhim omil bo'lib xizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi.

Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib payg'ambarning o'rinbosari (xalifa) sifatida hukmronlik qildilar. 7-8-a.larda Iroq, Falastin, Suriya, Eron, Movarounnahr, Misr, Shim. Afrika, Pireney ya. o., Shim. Hindiston fath etildi. Bir asrdan kamroq vaqt davomida Shim. Xitoydan Ispaniyagacha, Kavkaz ortidan Hind okeanigacha bo'lgan katta hududni zabt etildi va I.

dini keng hududda tarqaldi.

I.ning muqaddas kitobi Qur'ondir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilingan so'zi deb tushuniladi. I.ning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va taqiqlari Qur'on bilan birga uning tafsirlarida, hadis to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, 8-12-a.larda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

I.ning asosiy aqidasi - "Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli". I. ilohiyotining ilk shakli - kalom bo'lib, 8-a.da arab xalifaligida vujudga kelgan.

Mutakallimlar I. dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

I. dini 5 "asos" yoki "ustun" (arkon ad-din al-islomiy)ga ega: 1) kalima keltirish; 2) namoz o'qish; 3) ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 akddani - Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, takdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishga ishonishni o'z ichiga oladi. Islomda xatna, ro'za hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, aqiqa, mavlud, xudoyi, ashuro kabi o'ziga xos diniy marosimchilik tarkib topgan. Bundan tashqari, mahalliy xalqlarda islomgacha mavjud bo'lgan urf-odatlar, jumladan, fol ochirish, dam soldirish, aziz-avliyolarga, muqaddas joylarga sig'inish ham I. marosimchshshgaga moslashib ketgan. Islomda ilk davrdan paydo bo'lgan eng birinchi yirik muammo - oliy hokimiyatni egallashga payg'ambardan keyin kim haqliroq, degan masala bo'ldi. Ali (kv) tarafdorlari "shia" nomini olib, islomda birinchi bo'linishni boshlab berdilar. Uchinchi xalifa Usmon (ra) aynan shu bo'linishning qurboni sifatida jon taslim qildi. Ikki taraf - sunniylik va shialik o'rtasidaga kurash asnosida xorijiyalar deb atalgan uchinchi yo'nalish ham paydo bo'li. Ammo, I. tarixi uzra sunniylik asosiy yo'nalish bo'lib keldi. O'rta asrlarda hukmronlik qilgan abbosiylar, saljuqiylar, ayyubiylar, mamluklar, usmonli turklar, temuriylar sulolalari sunniylar edilar. Hoz. kunda ham sunniylar musulmonlarning mutlaq ko'pchiligi (93%)ni tashkil etadi. Birdan-bir davlat - Eronda "shia" rasmiy diniy yo'nalish sifatida qabul qilingan. Iroq, Livan, Shim. Yaman, Ozarbayjon va Afg'onistonda shialarning yirik jamoalari mavjud. Ummon va Shim. Afrikada xorijiyalarning ba'zi toifalari saqlanib qolgan. Musulmon huquqshunosligi - fiqhda 4 sunniy (hanafiylik, shofi'iylik, molikiylik, hanbaliylik} va 1 shia (ja'fariylik) mazhablari shakllangan. Mazhablar sekta (firqa)lardan farq qiladi. Sektalar, asosan, geofafik va iklimiy omillar hamda I.ni qabul qilgan xalqlarning oddingi madaniyati, an'analari va diniy tasavvurlari ta'sirida vujudga kelgan. Ularning aksariyati shia yo'nalishiga mansub bo'lib, eng yiriklari -imomiylar, ismoiliylar va zaydiylardur. Islomda ilk davrlardan shariat (barcha to'la rioya qilishi kerak bo'lgan qonunchilik) bilan tariqat (faqat ayrimlar Alloh xayrixoxligiga muyassar bo'lishi mumkinligi) yonma-yon rivojlanib kelgan. Tariqat asoschilari - murshadlarning "vali-ne'mati" asrlar osha hoz. avlodgacha yetib keladi, degan tushuncha bor. 8-9-a.larda I.da diniy falsafiy oqim - tasavvuf paydo bo'ldi. Sharkda eng mashhur bo'lgan tasavvuf tariqatlari -naqshbandiylik, qodiriylar, shoziliylardir.

I. dinining muhim xususiyatlaridan biri -uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun I. akddalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir. U o'ziga xos 3 taraqqiyot bosqichi yoki davrni o'tadi. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni karimda o'z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 a. davom etgan ikkinchi davr I.da umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar (plyuralizm)ga yo'l qo'yilgani bilan ajralib turadi. I.dagi yo'nalishlar,

mazhablar va firqalar ana shu davrda paydo bo'ldi. Musulmonlarning diniy birligi muammo bo'lib qoldi. 10-11-a.larda an'anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mu'taziliylar hamda ash'ariylar o'rtasida munosabatlar, ayniqsa, keskinlashib ketdi. Xalifa Qodir (991-1031) an'anaviy I.ni qonun asosida barcha uchun majburiy bo'lgan davlat dini deb qaror toptirishga urinib ko'rdi. Shu maqsadda an'anaga. sodiq ilohiyotchilar imzolagan "Dinning qodiriy ramzi" e'lon qilindi. Unda "haq din" deb e'lon qilingan an'anaviy diniy ta'limotning asosiy qoidalari mufassal bayon qilib berildi, undan chetga chiqish jazolashga loyiq e'tiqodsizlik deb qaraldi. Biroq, bu tadbir ham I.da diniy birlik o'rnatilishiga olib kelmadi. Royaviy kurash keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu kurashda sunniylar ilohiyotchisi Ibn Taymiya ayniqsa ajralib turdi. U ilk islomni tiklashga "haq din" asosida diniy birlikni o'rnatishga astoydil harakat qildi. I.daga uchinchi taraqqiyot bosqichi musulmon dunyosi "chekka" o'lkalarining ahamiyati va o'rni ortgani bilan bog'likdir. Batamom o'zga madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlar musulmon dunyosining ma'naviy hayotiga qo'shilgach, I.ga o'z diniy-axloqiy tasavvurlari, huquqiy me'yorlari va odatlarini olib kirdilar. Movarounnahr, Eron, Shim. Afrika, Hindiston, Indoneziya kabi yirik tarixiy-madaniy mintaqalarda I. o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. I.ning rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar katta hissa qo'shdi. Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to'plami - "Al-Jomi' as-Sahih" I. dinida Qur'oni karimdan keyingi iyusinchi manba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari I. ilohiyotining barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, I. nazariyotchiligidagi yuqori baholanadigan "Ilal ash-Shariat va Xatm ul-Asliyat" risolasini ta'lif etgan Hakim Termiziy, I. huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan "Hidoya"ning muallifi Burxoniddin Marg'inoniy, I. aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy (q. Moturidiylik), buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e'zozli muhaddislaridan Abu Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mahdumi Azam, Najmiddin Kubro, So'fi Olloyor, Xoja Ahror, Abdulxoliq G'ijduvoniy va b.ni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi. I. dini musulmon mamlakatlari san'atvda o'z izini qoldirdi. Me'morlik sohasida bu jarayon yangi imorat turlari (masjid, minora, xonaqox., madrasa va b.) ning paydo bo'lishiga hamda keng tarqalishiga sabab bo'ldi. I. dini paydo bo'lgan davrida avj olgan butparastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad (sav) suratkashlikni qattiq taqiqlab qo'ygan edi. Shu asosda I.ning yirik mutafakkir huquqshunoslari ham tasviriy san'atning bu turini taqiqlangan ishlar qatoriga qo'shganlar. Bundan ular amaliy san'at turlari, naqsh, bezak, insondan boshqa hayvon va o'simliklar suratini istisno qilishgan. I.da inson suratini chizish yoki uning haykalini yasashning taqiklanishiga asosiy sabab - payg'ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki haykallarini yasab, ularga sig'inib ketish xavfining mavjudligi bo'lgan. 15-a.ga kelib Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar olim va mutafakkirlar musulmonlar qalbida Allohga bo'lgan imon va e'tiqod mustahkamlanib, suratparastlikka mutlaqo moyillik qolmaganini e'tiborga olib, endilikda inson suratini chizishga ruhsat berishlikni lozim deb topganlar. Natijada Behzod, Mahmud Muzahhibga o'xshash miniatyura san'atini rivojlantirgan yetuk musavvirilar yetishib chiqqan, Hirot miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi kabilar rivojlangan. 20-21-a.larga kelib, I. dunyosi ulamolarining bu san'atga munosabatlariga yana bir karra aniqlik kiritildi: ilohiylashtirish va odamlarning sig'inishi maqsadida inson rasmini chizish mumkin emasliga e'tirof etildi. Ammo, fotosuratlar, shuningdek, yosh

bolalar uchun yasalgan odam shaklidagi qo'g'irchoqlar taqiq doirasiga kirmaydi. Ulamolarning bergan fatvolariga ko'ra, musulmonlarga fahsh va uyat narsalarni ifoda etuvchi rasmlar, but, sanam va ikona tasviridan boshqa tasviriy san'at turlari taqiqlanmaydi.

Musulmon Sharqi 8-11-a.larda taraqqiyotda Rarbdan oldinda edi: g'arb olimlari musulmon faylasuflari va tabiblaridan saboq olishgan; g'arb savdogari I. dunyosidagi savdoning ko'lamiga havas bilan qaragan; sharq tovarlari g'arbda zebi ziynat mollari hisoblangan. Sharq shaharlarining boyligi va hashamati G'arb uchun afsonadek tuyulgan. Bularning barchasida asosiy mafkura vazifasini bajargan I.ning ijobiy xizmati buyuk, albatta. Ammo 12-13-a.lardan keyin musulmon dunyosi dastlab turg'unlik, so'ng tanazzulga yuz tuta boshladi. Ba'zilar konservativ (qotib qolgan) din sifatida I. taraqqiyotga to'siq bo'ldi, deya unga katta ayb qo'ymoqchi bo'ladilar. Aslida so'nggi o'rta asrlarda yuz bergan musulmon dunyosining tushkunligi juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, o'sha davrdagi I.ning o'zi ana shu tushkunlikning muayyan shakldagi ifodasi edi. 19-a. boshidan 20-a.ning 2-yarmigacha o'tgan bir yarim asrlik davr I.ning rivojlanishida muhim burilish bosqichi bo'ldi. Sharq mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishidagi o'zgarishlar yangi sinf - milliy burjuaziyaning vujudga kelishi, milliy ozodlik harakatining avj olishi - ularning hammasi I.ning jamiyatdagi mavqeiga bo'lgan qarashlarda ham, ijtimoiy hayotdagi yangalikalarni I. nuqtai nazaridan baholashda ham o'zgarishlar yasadi. I. diniy-falsafiy va huquqiy me'yorlarining yangi tarixiy sharoitga moslashish jarayoni 19-a. o'rtalaridan boshlanib, hoz.gacha davom etmoqda. Bu jarayonni ko'pgana tadqiqotchilar "I. islohotchiligi" deb ataydilar, u xristian reformatsiyasvdan tubdan farq qiladi. Bu tafovut, birinchidan, shundan iboratki, mazkur jarayonlar turli davrlarda, turlicha muayyan tarixiy sharoitlarda ro'y berdi. Ikkinchidan, "I. islohotchiligi" dunyoviy hayotning turli jihatlarini diniy nuqtai nazardan qayta baholashda namoyon bo'ldi va sof ilohiyotga doir masalalarga u qadar daxli bo'lmadi. Uchinchidan, I.da xristianlarnikiga o'xshash cherkov bilan ruhoniylarni bog'lab turuvchi tizim bo'lmaganidan I.dagi islohotlar xususiyatiga jiddiy ta'sir qildi.

O'rta asrlarda tarkib topgan musulmon sudlov tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon huquqi tizimining o'zi ham muayyan darajada o'zgardi: shariat sudlari huquqi asta-sekin cheklana bordi; 19-a. o'rtalariga kelib, usmoniylar imperiyasi hududida shariat sudlari va dunyoviy sudlarning vakolati butunlay chegaralab qo'yildi. Bir qancha mamlakatlarda shariatda ko'zda tutilmaydigan jinoyat kodekslari va b. huquqiy hujjatlar joriy qilindi. Misrda Muhammad Alining islohotlari va usmoniylar imperiyasidagi tanzimat siyosati (islohotlar) tufayli I.ning ijtimoiy hayotdagi mavqeida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablari musulmon ilohiyotchilari va huquqshunoslarini I.ning bir qancha an'anaviy qoidalarini yangicha talqin etishga majbur eta boshladi. Biroq, bu jarayon oson kechmadi va uzoqqa cho'zilib ketdi. Bu, jumladan, musulmon mamlakatlarida bank tizimini yaratish joizmi (yoki gunohmi) degan masala yuzasidan boshlangan munozarada o'z aksini topdi. 1899 y. muftiy Muhammad Abdu bank omonatlari va ulardan foiz olish sudxo'rlikka kirmaydi, binobarin, u man qilingan ribo hisoblanmaydi, degan fatvo chiqardi. Bu fatvo mavjud moliya tizimini milliy sarmoyadorlar manfaatiga moslashtirdi. Musulmon mamlakatlarida tadbirkorlikning avj olishi shariat qoidalarini ham, musulmonchilikdagi boshqa an'anaviy tamoyillarni ham yangacha talqin qilishga olib keldi. Ijtimoiy ong sohasida ro'y bergan o'zgarish juda muhim rol o'ynadi. Bu, avvalo, milliy o'zini anglash jarayoniga taalluqlidir. Shu jarayon davomida I.ning barcha musulmonlarning birligiga to'g'risidaga an'anaviy qoidasi yangacha ma'no kasb etdi. Jamoliddin al-Afg'oniy musulmonlarning birdamligi g'oyasini ko'tarib chikdi. M. Abdu, J. Afg'oniy, Rashid Rizo va b.ning g'oyalari milliy ozodlik

harakatlariga turtki bo'lib, ko'pchilik musulmon davlatlarining siyosiy mustaqilligiga erishuvda ijobiy rol o'ynadi. Ayni vaqtda I. birdamligi g'oyasiga asoslangan xalqaro I. harakati shakllana boshladi: 1926 y. birinchi xalqaro musulmon tashkiloti - Islom olami kongressi (Mu'tamar al-alam al-islomi) tashkil qilindi. Shuningdek, I.ning go'yo Muhammad (sav) zamonidagi "asl" tamoyillariga qaytishga da'vat etishga turli fundamentalistik oqimlar (q. Vahhobiylik) va mutaassib guruhtir (mas., hizbut-taxrir) paydo bo'ldi. 20-a.ning 2-yarmida jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatish masalasida ham I. omilidan foydalanishga qaratilgan urinishlar sodir bo'ldi (Eron islom inqilobi, Liviya Jamohiriyasi va h.k.).

Bir qator mamlakatlar (MAR, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Afg'oniston va sh.k.)da I. davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingan. Ayrim mamlakatlarda "I." so'zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom respublikasi, Pokiston Islom respublikasi, Afg'oniston Islom respublikasi, Mavritaniya Islom respublikasi va b. Osiyo, Afrika qit'asidagi ba'zi mamlakatlarda I.ning tarqalishiga musulmon partiyalari ta'sir qilmoqda, ular ko'pincha siyosatda muhim rol o'ynamoqda. Erondagi Islom respublikasi partiyasi, Indoneziyadagi Birlik va taraqqiyot partiyasi, Malayziyadagi Panmalayziya islom partiyasi, Hindiston va Pokiston Jamoati islom partiyasi bunga misol bo'la oladi. Bir qancha mamlakatlarda diniy-siyosiy tashkilotlar (shu jumladan, qonundan tashqaridaga tashkilotlar - "Musulmon birodarlar", Islom ozodlik partiyasi) tarqalgan, ko'pgina diniy bilim yurtlari (qorilik maktablari, madrasa, musulmon un-tlari), islom jamiyatlari, missionerlik tashkilotlari, tijorat korxonalarini (islom banklari, sug'urta kompaniyalari) ishlab turibdi. 19-a.ning 70-80-ylaridagi shariatning ilgari amaliyotda bekor qilingan ba'zi bir qoidalarini tiklashga urinib ko'rildi (mas., Pokistonda, Sudanda prezident J. Nimeyri davrida, arab monarxiyalarida jinoiy ishlar uchun tan jazolari berish). O'tgan asr 70-y.larining oxiri - 80-y.larining boshida xalqaro ishlarda hukumat darajasida yoki nohukumat darajasida ish olib boruvchi xalqaro musulmon tashkilotlari muayyan mavqega ega bo'la boshladi. Bunday tashkilotlardan eng nufuzlisi Islom konferentsiyasi tashkiloti (Munazzamat al-mu'tamar al-islomi) bo'lib, u 1969 y. tuzilgan, unga 55 mamlakat (O'zbekiston Respublikasi 1996 y.dan) a'zo. Xalqaro nohukumat musulmon tashkilotlari orasida Islom olami uyushmasi, Islom olami kongressi, Islom olami tashkiloti, Yevropa islom kengashi, AQSh Oliy islom kengashi va b.ni ko'rsatish mumkin. Ular, asosan, I.ni targ'ib qilish va yoyish, diniy arboblarning xalqaro uchrashuvini tashkil qilish, turli mamlakatlardagi I. jamoalariga yordam berish bilan shug'ullanadi. I. Turkiston mustamlakachilik davrini boshdan kechirgan paytda, ayniqsa, sho'rolar davrida turli ta'qib va har tomonlama cheklashlarga duch keldi, ulamolarning takdiri ayanchli bo'ldi. I.ga oid bebaho kitoblar yo'qotiddi, muborak yodgorlik va qadamjolar oyoqosti qilindi, din peshvolari eng xavfli yov, muxolif sifatida mahv etildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, I. dini hayotda munosib o'rinni egallay boshladi. Musulmonlarning diniy ibodat va marosimlarni ado etishlari uchun sharoit yaratib berildi. Qur'oni karim 2 marta o'zbek tilida chop etildi (1992, 2001 ylar), hadis to'plamlarining tarjimai, I. ulamolarning yuzlarcha kitoblari yana xalqqa yetkazildi. I. tarixi manbalari va marosimlarini har tomonlama, ilmiy, xolisona o'rganishga kirishildi, mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda Toshkent davlat sharqshunoslik in-tda islomshunoslik kafedrasini ochildi (1992), deyarli barcha viloyatlarda diniy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsata boshladi, Toshkent Islom ushversiteti tashkil qilindi (1999), uning tarkibida Islomshunoslik i.t. markazi ishlab turibdi.

I. tarixi manbalari, aqidalari, marosimlari. Qur'oni karim, Muhammad (sav) hayoti va faoliyati, payg'ambar hadislarini o'rganish, tadqiq qilish I.shunoslik fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar I. tarqalgan mamlakatlarda, xususan,

Movarounnahrda I. va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan buyon olib boriladi. Musulmon dini tarixi va Qur'onni o'rganish Amerikada (G. Grunebaum, X. Gibb, M. Vott va b.), Yevropada (I. Goldier, L. Kaetani, A. Masse, R. Sharl), jumladan, Rossiyada (A.E.Shmidt, V.V.Bartold. I.Yu.Krachkovskiy va b.) 19-a. o'rtalaridan keng tus oldi. Sho'rolar davrida tadqiqotlarda I.ga, asosan, yagona marksistik mafkura nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashildi. I.ning insoniyat tamadduni tarixidagi ahamiyatini ommaga tushuntirishda, Turon zaminida yetishib chiqib islomiy ilmlar xazinasini boyitgan ulug' allomalarning merosini xalqqa yetkazishda Eshon Boboxon Abdumajidxon o'gli, muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon, Alixonto'ra Sog'unuy, shayx Abdug'ani Abdullo va Yusufxon Shokirovlarning xizmati kattadir. 20-a. oxirlaridan boshlab mamlakatimizda I. bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyati tug'ildi. O'zbekistonlik olimlar I. manbashunosliga, Qur'on tarjimasini va tafsiri, I.dagi mazhablar, oqimlar, mashhur muhaddis va faqihlar xalqaro I. tashkilotlari, diniy bag'rikenglik, diniy ekstremizmga oid bir qancha asarlar yozdilar (marhum M.A.Usmonov, shuningdek, N. Ibrohimov, H. Karomatov, A. Mansurov, A. Hasanov, 3. Husniddinov, 3. Islomov, U. Uvatov, B. Eshonjonov, B. Abduhalimov, A. Juzjoniy, A. Mo'minov, A. Azimov, R. Obidov va b.)- O'zbekiston musulmonlari idorasi "Movarounnahr" nashriyoti faoliyat ko'rsatadi, "Islom nuri" gaz., "Hidoyat" jur. nashr etiladi. Ad.: Qur'oni karim, T., 2001; Hadis (Al-Jomi' as-sahih), 1-4 j.lar (2-nashri), T., 1997; Hidoya (1-j.), T., 2000; Sog'unuy A., Tarixi Muhammadiy, (1-2-kitob), T., 1997; Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001; Komilov N., Tasavvuf, T., 1999; Husniddinov 3., Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar, T., 2000.

ISLOM BAYRAMLARI - musulmonlar nishonlaydigan va muayyan diniy marosimlar bilan o'tkaziladigan mashhur kunlar. Ular ko'pchilik musulmon davlatlarida rasmiy umumdavlat ahamiyatiga ega. Qurbon hayit (iyd al-adha), ramazon hayiti (iyd al-fitr) asosiy I. b. hisoblanadi (q. Hayit). Hamma I. b. hijriy yil hisobi bo'yicha nishonlanadi. I.b.ni Payg'ambarimiz (sav) quyidagicha ta'riflaganlar: "Har bir millatning o'z bayrami bor. Musulmonlar bayrami ro'za va qurbon bayramidir". Ammo isro va me'roj, rajab, ashuro, mavlud kabi kunlar umumiy bo'lmay, ularni nishonlash ixtiyoriydir. Nishonlamaganlar ayblanmaydi. Shu bilan birga ular turli joyda turlicha nishonlanadi. Musulmonlar haftaning juma kunini "sayyid al-ayyom va haj al-masakiyn" (kunlar ulug'i va miskinlar uchun haj deb) hisoblaydilar.

ISLOM DAVLATI - islom dini davlat dini deb e'lon qilingan mamlakatlarga va aholisining asosiy qismi musulmonlardan tashkil topgan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha. Islomiy shiorlar ostida faoliyat yurituvchi hoz. siyosiy harakatlarning dasturlarida bayon etilgan maqsadni ifodalashda ham "I.d." tushunchasidan foydalaniladi. Bunda mazkur tushuncha "islom jamiyati" ma'nosida ipshatiladi va ijtimoiy adolatni o'zida mujassamlashtiruvchi jamiyat ramzini bildiradi. "I.d." g'oyalari hoz. sharoitda jamiyatni siyosiy jihatdan tashkil etishning an'anaviy islom modelini amalga oshirishni ko'zda tutadi. "I.d." nazariyotchilari fikricha, bunday davlatda Alloh -hokimiyatning birdan-bir asosi sifatida tan olinadi; dunyoviy va diniy hokimiyat biron-bir shaklda o'zaro qo'shilib ketadi; daromadni adolatli ravishda taqsimlash qoidalari amadda bo'ladi; iqtisodiyot sohalari shariat ko'rsatmalariga muvofiq boshqariladi va h.k. Pokistonlik islom mafkurachilari va siyosatdonlari Muhammad Iqbol, Muhammad Ali Jinna, Parvez, indoneziyalik mafkurachi Natsir, marokashlik olim al-Fasil

va eronlik oyatulloh Humayniy Ruhullo Musaviy "I. d." haqidagi nazariyalarning asoschilari hisoblanadi. Islom dini davlat dini deb e'lon qilingan ba'zi mamlakatlarda "islom" so'zi davlatning nomiga qo'shib aytiladi. Mas., Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Mavritaniya Islom Respublikasi va b.

ISLOM KONFERENSIYASI TASHKILOTI (IKT) - hukumatlararo xalqaro tashkilot. Islom mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining 1-konferentsiyasida (1969 y., Rabot sh., Marokash) asos solingan. Islom davlatlari tashqi ishlar vazirlarining 3-konferentsiyasida (1972 y. Jidda sh., Saudiya Arabistoni) ta'sis etilib, ustavi qabul qilingan. Hozir IKT diniy mushtaraklik asosida jami 55 davlatni, jumladan, mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarini, shuningdek Falastin ozodlik tashkiloti (FOT)ni birlashtiradi. IKTning maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va b. sohalarda hamkorlikni mustahkamlash, irqiy kamsitishni, barcha shakldagi mustamlakachilikni tugatishga harakat qilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash, Falastin arab xalqining o'z huquqlarini tiklash va uning yerlarini ozod qilish uchun kurashini qo'llab-quvvatlashdan iborat. IKTning rahbar organlari - Davlat va hukumat boshliqlari konferentsiyasi (1981 y.dan har 3 yidda bir marta chaqiriladi) va Tashqi ishlar vazirlarining konferentsiyasi (har yili yoki zarurat tug'ilganda chaqiriladi) va bosh kotib rahbarligidagi kotibiyatdir. IKT qarorgohi Jidda sh.da. IKT huzurida Islom taraqqiyot banki, Fan va texnika sohasida hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mita faoliyat ko'rsatmoqda. 1975 y.dan IKTga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) huzurida kuzatuvchi maqomi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi 1996 y.dan IKTga a'zo.

ISLOM MAZHABCHILIGI - islom dinida ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurash jarayonida vujudga kelgan xilma-xil yo'nalishlar va oqimlarning umumiy nomi. Mazhab tor ma'noda shariatga xos huquq yo'nalishlarini anglatadi. Lekin, mazhabchilik iborasi keng ma'noda dinlardagi barcha guruhlar ajralishlarni ifodalaydi. Shu ma'noda I. m. bu dindagi barcha guruhlar ajralish shakllarini o'z ichiga oladi, ularning 5 turini bir-biridan tafovut qilish kerak: 1) islomdagi asosiy yo'nalishlar. Islomda dastlab yuz bergan ixtiloflar natijasida alohida diniy ta'limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me'yorlarga oid bir qator masalalarda bir-biridan tafovut qiladigan 3 asosiy yo'nalish vujudga kelgan. Bulardan sunniylik va shialik hozirda ham mavjud, lekin xorijiyalar yo'nalishi o'rta asrlardayoq avval ko'p firqalarga ajralib, keyinchalik yo'qolib ketgan, undan faqat bitta ibodiyalar (abodiyalar) firqasi saqlanib qolgan. 2) Islomdagi firqalar, mohiyatan aqidaviy ta'limot va marosimchilik masalalarida oz yoki ko'p darajada bir-biridan tafovut qiladigan diniy guruhlar. Islomda firqalarning eng ko'pi shialikdan ajralib chiqqan, bulardan qarmatiylar, ismoiliylar, zaydiylar, nusayriylar, aliilohiylar, druzlar va b. hamda ular ichidan ajralgan ko'p kichik firqalarni, yangi davrda vujudga kelgan bobiylik, bahoiylik kabilarni tilga olish mumkin. Sunniylik islomda ortodoksal diniy ta'limot hisoblangan, o'rta asrlarda undan firqalar ajralib chiqmagan. Urta asr oxirlari va yangi davrga kelib unda ham firqa va oqimlar paydo bo'lgan. Bulardan ravshaniylar (17-a.), ahmadiya, voisovchilar firqalarini (19-a.), vahhobiylik, mahdiylik, panislomizm kabi diniy-siyosiy oqimlarni ko'rsatish mumkin. 3) Mazhablar, shariat mazhablari ham islomdagi ajralishning alohida shaklidan iborat. 4) Ilohiyot oqimlari bo'lib, ular islom ilohiyotining shakllanish bosqichida ilohiyotga doir ayrim masalalar bo'yicha ixtiloflar tufayli vujudga kelgan. Bulardan ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, murji'iyalar, mu'taziliylar va b. ni ko'rsatish mumkin. Ortodoksal ilohiyot ta'limoti bo'lgan Kalom shakllanib hukmron

rol o'ynay boshlagach, ilohiyot oqimlarining barchasi yo'qolib ketgan. 5) So'fiylik yoki tasavvuf tariqatlari. So'fiylik goyalari keng tarqalgach, musulmon mamlakatlarida har biri o'z yo'li (suluk)ni olib borgan so'fiylik rahnamolari (piralar) nomi bilan bog'liq ravishda juda ko'p uyushmalar paydo bo'lgan. Ulardan ko'plari o'rta asrlardayoq yo'qolib ketgan. Lekin, hozirda ham g'oyat ko'p tariqatlar mavjud. O'rta Osiyoda -naqshbandiylik, yassaviylik, kubroviylik, Kavkazda - muridizm, xorijiy Sharq mamlakatlarida o'rta asrlardan ma'lum bo'lgan qodiriylar, bektoshiylar, rifo'iylar, tayfuriylar, suhrovardiya, mavlaviylar, shoziliylar, chishtiylar, safaviylar, haydariylar, ne'matullohiylar, jaloliylar keng tarqalgan. Ularning ayrimlari hozir ham mavjud. O'rta asr oxirlari va yangi davrda Arab mamlakatlari, Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari orasida ham ko'p tariqatlar tarqalgan: salafiylar, shartariylar, rashidiylar, rahmoniylar, tayyibiylar, tinoniylar, ammoriylar, hamoliylar, muridiylar, barqiylar, idrisiylar, sanusiylar, g'ufriylar va h.k. Umuman olganda 30 dan ortiq tariqat mavjud. I. m.ning barcha ko'rinishlari islom tarixida yuz bergan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy aqidaviy va hayotning boshqa sohalaridagi ixtiloflarni ifoda etadi. Shu jihatdan islomni shartli ravishda yaxlit din hisoblash mumkin. Xilma-xil oqim va firqalarning vujudga kelishiga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy harakatlarning diniy shaklda namoyon bo'lishi sabab bo'lgan. Islom dinini qabul qilgan xalqdarning madaniyati, an'analari, ilgariga diniy e'tiqodlari, shuningdek ular yashagan geofafik sharoitlar ham oqimlarning xarakteriga ta'sir etgan.

"ISLOM NURI" - O'zbekiston musulmonlari idorasining diniy-ijtimoiy gazetasi. 1990 y.dan chop etiladi. Islom dinining asosiy manbai bo'lgan Qur'oni karim va hadisi shariflarga suyangan holda faoliyat ko'rsatadi. Uning sahifalarida O'zbekiston musulmonlari idorasining fatvolari, Oliy hay'at va Ulamolar kengashi qarorlari e'lon qilinadi va islom arkonlari tashviq va targ'ib qilinadi. O'zbekiston musulmonlari hayotiga, axloq-odobga oid maqolalar, diniy asarlar keng yoritiladi.

ISLOM OLAMI KONGRESSI (IOK) -ko'gshab musulmon mamlakatlari arboblarni birlashtirgan xalqaro islom tashkiloti. 1926 y.da Makkada tashkil etilgan. Qarorgohi - Karochi sh.(Pokiston)da. Hoz. vaqtda 36 davlat vakillarini birlashtirgan. IOK faoliyatiga musulmonlarning har ilgi haj ziyorati tugagan vaqtda to'planadigan Oliy Kengash rahbarlik qiladi. IOK bir necha ilmiy tadqiqot markazlari orqali islom tarixi, aqidalari, falsafasi sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishga rahbarlik qiladi, islom mavzuidaga nashrlarni (xususan, "Musulmon olami" jurnalini) chiqarib turadi, uning ixtiyorida "Islom ovozi" radiostantsiyasi mavjud.

ISLOM OLAMI UYUSHMASI - xalqaro islom tashkiloti. Ruhoniylarning 1962 y. may oyida Makkada bo'lib o'tgan konferentsiyasida asos solingan. Qarorgohi Makka sh.da, oliy rahbar organi Ta'sis kengashi bo'lib, unga turli mamlakatdan 60 nafar diniy arbob kiradi. Uyushma qarorlari tavsiya xarakteriga ega, majlisi yiliga 1 marta chaqiriladi. Ta'sis kengashi ishini Bosh kotibiyat muvofiklashtirib, boshqarib turadi. Saudiya Arabistonining 3 ta shahri - Ar-Riyod, Madina va Jiddada uyushmaning bo'limlari mavjud. Yana 13 ta joyda vakolatxonasi bor. Bu vakolatxonalar Ummon (Iordaniya), Jakarta (Indoneziya), Kuala-Lumpur (Malayziya), Nuakshot (Mavritaniya), Dakar (Senegal), Parij (Frantsiya), Nyu-York (AQSh) va b. bir necha xorijiy mamlakatlar poytaxtlarida joylashgan. Bundan tashqari I.o.u..ning barcha musulmon mamlakatlarida

vakillari ham bor. Uyushma BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda YuNYeSKO huzurida maslahat berish huquqini olgan. Y.o.u. BMTning Bolalar fondiga badal o'tkazib turadi. Uyushmaning asosiy e'tibori islomni targ'ib qilish, masjidlar qurilishiga ko'maklashish, haj ziyoratini uyushtirishga qaratilgan.

ISLOM SAN'ATI MUZEYI - Misrdagi eng yirik muzeylardan, Qohira sh.da 1881 y.da asos solingan. 1952 y.gacha Arab san'ati muzeyi deb atalgan. Arab mamlakatlari, Eron va Turkiyaning o'rta asrlar monumental bezak va amaliy san'at asarlarini jamlagan. Muzey to'plami negizini Qohira masjidleri, xususiy uylardan keltirilgan va Qohirada qazib olingan topilmalar tashkil qiladi. Muzeyda o'ta qimmatbaho qo'lyozma kitoblar va miniatyuralar, yog'och o'ymakorligi (Fotimiylar saroyidagi ov lavhalari tasvirlangan releflar, 11-a. va b.), kulollik, kandakorlik, rangli emal bilan naqshlangan shisha (masjidlar chiroqlari, idishlari) buyumlar va b. saqlanadi.

ISLOM TARAQQIYOT BANKI (ITB) - xalqaro bank. 1974 y. musulmon davlatlari tashqi ishlar vazirlarining kengashida ITBni tuzish haqida qaror qabul qilingan, bank o'z faoliyatini 1975 y.da boshlagan. Qarorgohi Jiddada. ITBni Boshqaruvchilar kengashi va Direktorlar kengashi boshqaradi. Bank prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. Maqsadi - musulmon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish. Islomda pulga foyda (foiz, q. Ribo) olish taqiklangani sababli bankka qo'yilgan mablag'lar uchun foiz olinmaydi va berilmaydi.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI - Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. I.f. vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari (I.f. nomi shundan) jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar "fundamentalistlar" deb atalmoqda. I.f. turli yo'nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari terroristik usullar bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o'zlarini namoyon etsalar, boshqalari targ'ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'lim, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, ayniqsa, foydalanish oson bo'lgan audio-video kassetalarni tarqatish bilan shug'ullanadi. I.f.ga xos bo'lgan g'oyalar - g'arb turmush tarzi va g'arb tovarlarining iste'moliga qarshi kurash, dinsiz yoki "sof islomdan chekingan" davlat rahbarlarini jismonan yo'q qilish (eng yorqin misol - Anvar Sadatga uyushtirilgan suiqasd), islomda "shirk" (butparastlik)ka barham berishdir. I.f. talqinida aziz-avliyolar qabrlarini e'zozlash (masalan, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf tariqatlari asoschilari ruhini hurmatlash) ham butparastlikka kiradi. Hoz. davrda I.f. vakillari butun dunyoga yoyilib, turli yo'llar bilan bir davlatdan boshqa davlatga o'tishga, har yerda o'z maslakdoshlarini topishga intilmoqda.

ISLOM ENSIKLOPYEDIYASI - islom muammolariga doir universal entsiklopediya. Islom dini, tarixiga oid barcha masalalar va istiloxlarni hamda musulmon mamlakatlariga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. 20-a. boshlaridan nashr etila boshlagan. Nemis, golland, frantsuz, ingliz sharqshunoslari uning asosiy tashabbuskorlari bo'lgan. I.e. 1913-38 ylarda bir vaqtning o'zida nemis, ingliz va frantsuz tshsharida 4 jildli qilib

Leydenda nashr etildi. I.e. 1954 y. qayta chop qilingan. 1933-65 y.larda arab tiliga tarjima qilib bosildi. 1950 y.dan Istanbulda turk tilida qayta ishlangan va to'ldirilgan holda chiqarildi. 1954 y.dan Yevropa va Amerikaning yirik islomshunoslari I.e.ni qayta nashr qilish ustida ish olib bormoqda. Hozirda turk tilida "Islom fiqhi", "Hadis entsiklopediyasi" nashrdan chiqqan. I.e. islomni va Sharq tarixini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

ISLOM EKSTREMIZMI - islomning qad. g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan bo'lib, muayyan mazhab ta'limotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va ko'pincha muayyan siyosat va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim - xorijiy harakati edi. Xorijiy Ali ibn Abu Tolib bilan umaviylar davlatining asoschisi Muoviya o'rtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali to'xtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun unga qarshi bo'ldilar. Xorijiydardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy 661 y.da 4-xalifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib o'ldirdi. Xorijiy umaviylar va abbosiylar xalifaligaga qarshi urush olib borib, juda ko'p musulmonlarning o'limiga sabab bo'ldi. Zamonlar o'tishi bilan ular barcha islom jamoasining qarshiligiga uchradi. 10-a.da O'rta Sharkda Hamdon al-Ash'as "al-Karomita" deb atalgan diniy-siyosiy harakatga asos soldi. Bu harakat vakillari boshqa mazhablar tarafdorlarini o'ldirish siyosatini olib bordi. 12-a. boshida ismoiliylardan Hasan Sabboh (1124 y.v.e.) va uning tarafdorlari o'z diniy g'oyalari va siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun qurol ishlatish, qatl qilish, yo'lto'sarlik, terrorchilikdan foydalanib kelgan. Ularning asosiy qarorgohi va markazi Alamut qal'asi (Eron)da bo'lgan. Ular hashish (giyohvandlik moddasi)ni qo'llash yo'li bilan fidoyilarni tarbiyalab, o'z muxoliflarini o'ldirishga buyurgan. Keyinroq Alamut qal'asi Xuloku tomonidan zabt etilib, ularning terrorchilik va siyosiy faoliyatiga barham berildi. 18-a. o'rtalarida hanbaliy mazhabining ayrim vakillari ta'limotidan foydalanib, Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1794) diniy ekstremistik harakat - vahhobiylikka asos soldi. Keyingi yillarda vahhobiylar harbiy tayyorgarlikdan o'tib, Tojikiston va Chechenistonda qo'poruvchilik, terrorchilikni kuchaytirdilar.

ISLOMSHUNOSLIK - dinshunoslikning islom tarixi, manbalari va marosimlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi sohasi. Islom dini va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan keyin I. islom tarqalgan mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda rivojlandi. Ayniqsa, hoz. O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Zamaxshariy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulholiq G'ijduvoniy kabi faqih, ilohiyotchi, muhaddis, tafsirchilar boy ilmiy meros qoldirdilar. Islom tarixi va Qur'onni o'rganish Yevropada 9-a.dan boshlangan. Amerika, Yevropa va Rossiya islomshunosligi va Qur'onshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ko'pligi, ma'lumotlarga boyligiga qaramay, ularda cheklanganlik, biryoqlamalik bor. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina I. bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyati tug'ildi. 1992 y.da Toshkent davlat sharqshunoslik in-tida I. kafedrasini, 1995 y.da Toshkentda Xalqaro islom tadqiqotlari markazi, 1999 y.da Toshkent islom un-ti ochildi. Universitet tarkibida I. bo'yicha tadqiqot markazi tashkil qilindi. Bu ilm maskanlari islom dinini har tomonlama chuqur va puxta o'rganish, uning asoslari, ahkomlari, jahon madaniyatining yuksalishiga qo'shgan ulkan hissasini tadqiq qilish va natijalarini keng jamoatchilik diqqat-e'tiboriga

yetkazish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. I. fan sifatida Toshkent islom un-ti va Toshkent davlat sharqshunoslik in-tida o'qitilmoqda.

ISMOIL (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Ibrohim (as)ning ayoli Soradan farzandi yo'q edi. Ibrohim (as) Allohga duo qilib farzand ato etishini so'radi. Ibrohim (as)ning farzandga bo'lgan ishtiyoqini sezgan Sora o'zi farzand ko'rmayotgani uchun Ibrohim (as)ga o'zining Hojar ismli joriyasiga uylanishni tavsiya qiladi. Ibrohim (as) Hojarga uylangach, undan farzand ko'radi va uni Ismoil deb nomlaydi. Hojar farzanddik bo'lgach, Soraning nafsida unga nisbatan g'ayirlik ko'paya bordi va Ibrohim (as)dan uni farzandi bilan olisroq yerga olib borib qo'yishini talab qildi. Allohning irodasi va amri hamda Soraning talabiga binoan Ibrohim (as) emizikli I.(as)ni o'z onasi Hojar bilan birga bir cho'lu biyobonga, hozirdagi Ka'ba yoniga olib borib qo'ydi. Qaytib ketishi arafasida Hojarning nolasiga javoban Ibrohim (as) bu ishni Allohning amri bilan qilayotganini aytgach, u taskin topdi. Ibrohim (as) qaytgach, qoldirgan suv va oziqa tugab, Hojar o'zi va farzandi uchun suv axtarib Safo va Marva tepaliklari orasida yetti marta u yokdan bu yoqqa yugurgan (hojilarning bu tepaliklar orasida yugurish ibodatining kelib chiqishi ushbu voqea bilan bog'lanadi). Shu payt I.(as) oyog'i ostidan Zamzam bulog'i paydo bo'ladi va undan muqaddas suv otilib chiqadi. Ibrohim (as) gohida kelib ulardan xabar olib ketar edi. Alloh Ibrohim (as)ni imtihon qilish maqsadida o'zining suyukli farzandi I.(as)ni Alloh yo'lida kurbonlik qilishga amr qiladi. Ibrohim (as) bu voqeani farzandi I.(as)ga aytganida u otasiga "Parvardigor nimaga amr qilgan bo'lsa bajaravering, men roziman" - deb javob beradi. Ibrohim (as) farzandi I.(as)ni qurbonlik qilmoqchi bo'lganida Allohdan xitob kelib I.(as) o'rniga bir qo'chqorni yuborib shuni so'yishlikka amr qiladi. I.(as) voyaga yetgach, Allohning amriga binoan o'z otasi Ibrohim (as) bilan birga Ka'bani bino kldadilar. I.(as) shu atrofda yashovchi Jurhum qabilasidagi bir qizga uylanadi, lekin bu ayolning noshukur va besabrligini bilgan I.(as) ushbu qabiladan yana boshqa bir qizga uylanadi. Ulardan arab tilini o'rganadi. Rivoyatlarga ko'ra, shim. arab qabilalarining hammasi I.(as)dan tarqalgan. I.(as) 137 y. umr ko'rib, Makkada vafot etgani va onasi Hojar yoniga dafn qilingani rivoyat qilingan.

ISMOILIYLAR - shialik ichida vujudga kelgan asosiy firqalardan birining tarafdorlari. I. harakati 8-a. o'rtalarida boshlangan. 10-11-a.larda Yaqin va O'rta Sharkda keng tarqalgan, imom Ja'far as-Sodiq (q. Ja'fariylar) vorisi masalasi yuzasidan shialar o'rtasida kelib chiqqan ixtilof bilan bog'liq. I. turli davrlarda, turli mamlakatlarda har xil nom bilan atalgan: botiniylar, sab'iylar, ta'limiylar, mulhidlar va h.k. I. shakllanishi Arab xalifaligida ziddiyat va xalq qo'zg'olonlarining kuchayishi oqibatida ro'y bergan. Shialikning ba'zi tarafdorlari abbosiylar bilan hamjihat bo'lib, boshqa bir guruh shialar esa, abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirishda Ja'far as-Sodiqning to'ng'ich o'g'li Ismoilni yettinchi imom deb tan olib, uning atrofida jipslashdi. Ammo, Imom Ja'far maishatga berilgan Ismoil o'rniga kichik o'g'li Muso al-Kozimni voris etib tayinladi. Bundan norozi bo'lgan Ismoil tarafdorlari uning vafotidan (762) keyin o'g'li Muhammad ibn Ismoilni imom deb tanidi, shu tariqa imomlikni Ismoil avlodida saqlab qolish tarafdorlari o'zlarini Ismoiliylar deb atay boshladi. Muhammad ibn Ismoil vafot etgach, uning tarafdorlari o'rtasida kelishmovchilik chikdi. Ba'zilar uni oxirgi - yettinchi imom deb bilib Mahdiy sifatida qayta tiriladi, deb ishondi. 9-a. 2-yarmidan bu ta'limot tarafdorlarini qaramatiylar deb atay boshladilar. Ta'qibotlardan Suriya, Xuroson va boshqa mamlakatlarga qochgan ikkinchi guruh botiniy (mahfiy) imomlar nomini oldi.

Ularning faol davrlari tufayli Shim. Afrikada Fotimiylar halifaligiga asos solindi. 10-a. oxirida Mag'rib, Misr, Suriya, Falastin, Hijozda I. hokimiyati o'rnatildi. 11-a. oxirlarida I. o'rtasida taxt vorisligi xususida nifoq chiqib, ular nizoriylar bilan musta'liylarga bo'linib ketdi. Nizoriylar Fotimiylar xalifaligiga kirmaydigan sharqiy islom mamlakatlari (Eron, Suriya va b.)da ustun edi. Musta'liylar esa, Misr va g'arbiy islom mamlakatlarida hukmronlik qildi. Hindiston (Bombay)dagi hoz. I. jamoalari musta'liylarning ma'naviy vorislaridir. 11-a. oxirlarida Suriya, Livan, Iroq va Eronning tog'li joylarida harakat qiluvchi nizoriylar ta'qibotlardan qochib, asta-sekin Hindistonga ko'cha boshladi. 19-a.ning 1-yarmidan nizoriylarning ma'naviy rahbari Og'axon unvoni bilan yuritiladi. Nizoriylarning Hindiston va Keniyadagi qarorgohlaridan turli mamlakatlarga nizoriylar ta'limotining targ'ibotchilari yuboriladi. 17-a. boshlarida musta'liylarning ham diniy markazlari Hindiston (Gujarat)ga ko'chdi. Hindistonga borib o'rnashgan musta'liylar dovudiyalar deb, Yamanda qolganlari esa sulaymoniyalar deb atala boshladi, ular o'rtasida hech qanday aqidaviy tafovut yo'q.

Umuman, I. ta'limotiga kelganda, u ikkiga: zohiriy (tashqi) - ochiq va botiniy (ichki) - maxfiy ta'limotlarga bo'linadi. Zohiriy ta'limot shialarning umumiy ta'limotidan kam farq qiladi, u firqaning maxfiy ta'limotidan bexabar bo'lgan oddiy I. ommasiga mo'ljallangan. Botiniy ta'limotni mo'varounnahrlilik an-Nasafiy (942 y. v.e.) asoslab berdi. Unga ko'ra, mutlaq xudo o'zidan quyi bo'lgan 7 ta pog'onani ajratadi (emanatsiya), ya'ni: mutlaq xudo, olamiy aql, olamiy jon, birlamchi materiya, fazo, vaqt va komil inson (ya'ni payg'ambar). Kamolotga erishgan inson (al-inson al-komil), I. ta'limoti bo'yicha, o'zida "olamiy akd"ni aks ettirgan notiq (gapiruvchi) bo'lib, u payg'ambar maqomida bo'ladi va vahiyini insonlarga yetkazib beradi, o'zida "olamiy jon"ni aks ettirgan somit (jim turuvchi) esa, oyatlardagi botiniy mazmunni tushuntirib beradi. I. tasavvurida insoniyat tarixi Odamatodan Qoimgacha bo'lgan "buyuk davr"dir. U 7 "fitra"dan iboratki, ularning har biriga muayyan notiq (payg'ambar) to'g'ri keladi: Odam (as), Nuh (as), Ibrohim (as), Muso (as), Iso (as), Muhammad (sav). Har bir payg'ambar davrining yettinchi imomi keyingi payg'ambar (notiq)ga aylanadi. Demak, Ismoilning o'g'li Muhammad - yettinchi imom, u Qoim qiyofasida yettinchi payg'ambar bo'lib kelishi va "qiyomat qoim" gacha hukm surishi kerak. I. ta'limoti, xususan, qarmatiylar mafkurasi islom dinining o'ta so'l maslaga bo'lgan. O'rta asr tafakkurining yirik namoyandalari Rudakiy, Ibn Sino, Abu-l-Alo al-Ma'arriy va b.ga qarmatiylar mafkurasi ta'sir ko'rsatgan. Mashhur shoir va mutafakkir Nosir Xisrav esa, I.ning yirik namoyandalardan biri edi. Hoz. davrda nizoriylar Suriya, Eron, Afg'oniston shimoli, Tog'li Badaxshonda, musta'liylar Yaman, Hindiston, Pokiston, Misrda, druzlar Suriya va Livanda bor.

ISNOASH'ARIYLAR (arab. - o'nikkichilar, ya'ni o'n ikki imom tarafdorlari) - q. Imomiylar.

ISNOD (arab. - tirkak, dalil, asos) - islomda har bir hadisning tarkibiy qismi. I. -aytilgan so'zni aytuvchisiga bog'lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan I.ni bir ma'noda qo'llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo'lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to'plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko'rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanini ulamolar shu ismlarni taqqoslash yo'li bilan tekshirgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatleri shartga to'g'ri kelsa, I. to'g'ri, demak, hadis ham to'g'ri deb hisoblangan (yana q. Hadis).

ISO (as), Iso Masih (Iisus Xristos) - Qur'onda zikri kelgan payg'ambarlardan biri. I.(as) islomda Muhammad (sav)dan oldingi payg'ambar - Isoi Ruhulloh (Allohning ruhi) sifatida e'zozlanadi, shuningdek, "Masih", "Hakni so'zlovchi", "Ibn Maryam", "Allohning muqarrabi" (yaqini) deb ta'riflanadi. I.(as) yoshi 30 ga yetganida Alloh uni "Bani Isroil" qavmini hidoyatga boshlash uchun payg'ambar qilib yuboradi. I.(as)ning da'vatida shijoat va sidqidildan yordam bergan 12 nafar shogirdlari bo'lgan, ular Qur'onda "havoriylar" deb nomlanadi. I.(as)ni ko'ra olmagan gumroh qavmi undan o'z payg'ambarligini isbotlash uchun mo'jiza ko'rsatishini talab qilgan. Allohning irodasi bilan I.(as) loydan qush shaklini yasab, unga puflasa qush bo'lib uchar, tug'ma ko'r bo'lib tug'ilganlarni qo'li bilan silasa, u ko'radigan bo'lar, peslarga qo'lini tekkizsa, u tuzalar edi. I.(as) Muhammad(sav)ning dunyoga kelishini ham bashorat qilgan edi. Qur'on ta'limotiga ko'ra, I.(as) - Allohning o'g'li emas, Xudo ham emas. I.(as) - Allohning qulidir va bokira qiz Maryamning mo'jiza bilan tug'ilgan o'g'lidir. Alloh tomonidan I.(as)ga Injil nozil qilingan. Qur'onda yana ta'kidlanishicha, I.(as)ni dushmanlari o'ldirishmagan, u chormix etib qatl qilinmagan, bu hodisa ular ko'ziga ko'ringan, xolos. Aslida I.(as) tiriklayin osmonga ko'tarilgan va Qiyomat kuni arafasida Yer yuzida yana paydo bo'ladi ("Maryam" surasi). I.(as) haqida Oli Imron surasi 52-59-oyatlarda, Maryam surasi 33-37-oyatlarda, Saf surasi 6-oyatda, Moida surasi 112-115-oyatlarda bayon qilingan.

ISROILIYOT - yahudiylar va nasroniylardan o'tib qolgan oldingi ummatlarning va nabiyning qissalariga tegapshi rivoyatlar. Tavrot va Injilda vorid bo'lgan xabarlar qisman Qur'oni karimda ham zikr etilgan. Mas., Odam(as) va uning yerga tushishi qissasi, Muso(as) bilan qavmi yahudiylarga tegishli nakdlar, Iso(as) va onalari Maryam haqidagi rivoyatlar va h.k. Bularning hammasi Qur'oni karimda va'z va ibrat uchun muxtasar hodda bayon etilgan. Keyinchalik musulmonlar mana shu muxtasar xabarlarning tafsilotini avvalgi ummatlarning rivoyatlarida ko'rishgan va ularni o'rganishgan, iqtiboslar olishgan. Lekin bu ma'lumotlarning sahixdigaga ko'p ham e'tibor berishmagan. Holbuki, Alloh taolo ahli kitoblar o'zlariga berilgan Kalomni o'zgartirib yuborganlarini Qur'onning bir qancha o'rinlarida bildirgan edi. Nabiy (sav) ashobiga ahli kitob bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatib: "Ahdi kitobni tasdiqlamanglar, yolg'onchi ham qilmanglar", degan edilar. Lekin musulmonlar bunga yengil qaradilar, ma'lumot olishda e'tiborsizlik qildilar. Natijada I. tafsir kitoblaridan talaygana joy oldi. Ilarning masdari, asosan, 4 kishining nomi bilan bog'likdir. Ular Abdulloh ibn Salom, Ka'bul Ahbor, Vahb ibn Munabbah (bu ikkalasi tobe'in), Abdulmalik ibn Abdulaziz ibn Jurayj.

Ulamolar I.larni 3 qismga ajratganlar: 1. **Maqbul xabarlar.** Ularning sahihligi Payg'ambar(sav) hadislari orqali bilingan. Mas., sobiq kitoblarda zikr etilgan Hizr (as)ning ismi Buxoriy rivoyat qilgan hadisda ham uchraydi. 2. **Sukut qilinadigan xabarlar.** Ularning rost yoki yolg'onligi ma'lum emas. Bu turdagi rivoyatlarni nasihat va ibrat uchun loyiq bir suratda hikoya qilish joiz. 3. **Inkor etiladigan xabarlar.** Ular islom diniga va sog'lom aqlga xilofdir. Mas., Iso (as)ning xochga osilgani haqidagi rivoyatlar. Bu xabarlarni tasdiqlash, qabul etish, rivoyat qilish mumkin emas. Biron zarurat tufayli naql etilgan takdirda unga izoh berishlik vojibdir. Ko'pgina tafsirlar bu nosahih xabarlar tufayli ishonchlilik darajasini yo'qotgan. Allomalar o'z asarlarida I.larni to'la aniqlab berganlar.

ISROFIL - islomda to'rt bosh farishtadan biri (Azroil, Jabroil, Mikoil bilan birga) qiyomat kuni darakchisi. U ikki marta sur chaladi. Birinchi chalganida butun dunyo ostin-ustun bo'ladi. Tog'lar kul tepalarga yoki bo'yalgan junlar kabi narsalarga aylanadi. Osmondagi yulduzlar to'kiladi. Daryo suvlari bir-biriga qo'shiladi. Dunyo tep-tekis bo'ladi. Ikkinchi marta chalganda eng birinchi yaratilgan Odam (as)dan boshlab kim dunyoda yashagan bo'lsa, hammasi tiriladi va Yer (mahshargoh)da yig'iladi. I. gunohkorlarning do'zahda qiynalayotganliklarini ko'rib, ularga achinganidan kunduzi 3 marta, kechasi 3 marta yig'lar ekan. I. Bibliyada Serafiil nomi bilan ma'lum.

ISRO VA ME'ROJ - islom tarixida Muhammad(sav)ning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayrlari (isro) hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishlari (me'roj). Bu haqda Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda keng ma'lumotlar berilgan. Bu hodisa ilohiy mo'jizalar turiga kirgani uchun moddiylik va aqliy dalillar bilan chegaralanuvchi kishilar uni inkor etadi. Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad (sav) Jabroil (as) boshchiligida tuvda ko'p yillik masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytishgan. Jumladan, yetti qavat osmon oraliklarida o'zlaridan oldinga o'tgan yirik paygambarlar bilan muloqotda bo'lishgan. Jannat va do'zaxni tomosha qilishgan. 5 vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko'pgana asarlar mavjud. I. va m. kechasi islom olamida diniy bayram sifatida har yili hijriy rajab oyining 27-kechasida nishonlanadi.

ISTISLOH (arab. - manfaatlarni hisobga olish) - fiqhning qo'shimcha manbalaridan biri, uning me'yorlarini aql-idrok bilan ifodalash usuli (q. Ijtihad). I. "mutlaq manfaatlar" atamasining sinonimi. I. tushunchasi asosida musulmonlar dinini saqlash, ularni hayotda qo'llab-quvvatlash, avlodning aql-idrokli bo'lishi uchun qayg'urish, ularning davom etishini ta'minlash, mol-mulkini himoya etish g'oyasi yotadi. I. tarafdorlari fikricha, Qur'onda, sunnada aniq javoblar berilmagan masalalar yuqoridaga besh manfaatni hisobga olish yo'li bilan hal etilishi lozim.

ISTIG'FOR (arab.) - Allohdan gunohni kechirishni, afv etishni so'rash. Kimki qilgan gunoh ishlari uchun astoydil tavba qilsa, Alloh tavbasini qabul etadi, degan qat'iy ishonchga asoslanadi. Hadislardan biriga ko'ra, inson yomon ishning ortidan yaxshi ish qilsa, o'sha yomonligini yuvgan bo'ladi. Qur'oni karimda "... saharlarda istig'for aytuvchilar" (3.17), deyilgan. Ibn Kasir I.ning eng afzali sahar paytidagisi ekaniga shu oyatni dalil qilgan. Rasul (sav) deydilarki: "Alloh taolo har kecha dunyo osmoniga tushadi. Bu payt kechening oxirgi uchdan biridir. Shunda Alloh subhonahu aytadi: "So'rovchi bormi, beraman. Duo qiluvchi bormi, ijobat etaman. Istig'for aytuvchi bormi, mag'firat qilaman..." I. gunohlardan forig' bo'lishning, o'z-o'zini poklashning, tavba qilishga da'vat qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

ISTIHSAN (arab. - bir narsani yaxshi deb hisoblash, yaxshilash, ma'qullash) - fiqhga oid tushuncha; shariat masalalariga qiyosiy tatbiq etishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xulosalardan musulmonlar jamoasi uchun qaysinisi yaxshiroq, foydaliroq, ma'qulroq bo'lsa, o'shanisini qo'llash tamoyili. Buni shariatga Abu Hanifa (ra) kiritgan. Tajriba

asosida, kiyos bo'yicha qabul qilingan rasmiy qaror maqsadga muvofiq bo'lmasa yoki zarar keltirsa I. qo'llaniladi. Mas., shariat kishi o'zida yo'q narsani sotishdan qaytargan, lekin I.ga, asosan, kosiblar, zargarlarga ruhsat bergan. Zero kosib, zargar xaridor ila hali tikilmagan mahsi, qilinmagan taqinchoq uchun savdolashadi. I. tamoyili kishilarning hayotdagi ehtiyoji va urf-odatlariga moslashtirilgan.

ISHOQ (as) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri; Ibrohim (as)ning Sora ismli ayolidan tug'ilgan o'g'li. "Bani Isroil" qavmining barcha payg'ambarlari I. (as) avlodidandir. Rivoyatga ko'ra, yoshi 90 ga yetgan Sora I.(as)ga homilador bo'ladi va u tug'ilgach, unga "Yashak" (arabcha "yazxak" - "kuladi" ma'nosida) deb nom qo'yadi. Bunday nomlanishidan maqsad, ota-onasi shu yoshga yetganda farzand ko'rganini eshitgan barcha odam taajjublanib kulishi tabiiy edi. I. (as) voyaga yetgach, Rifqa nomli qizga uylanadi va undan egazak farzand ko'radi. Ular Iysu va Yaqub edilar. Rivoyat qilinishicha, I.(as) 180 yil umr ko'rgan, Madinatul Xalilga dafn etilgan. I.(as) haqida Soffot surasi 112-113-oyatlarda va Sod surasi 45-47-oyatlarda bayon qilingan.

ISHOQ ibn IBROHIM ash-SHOSHIY (? -937) - faqih. Shoshda tug'ilib, dastlab shu yerda ta'lim olgan. So'ngra Misrga borib qozilik ishlari bilan shug'ullangan, ba'zi idoralarni boshqargan. Shoshiy umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Uning "Fiqh usuli" degan asari bo'lgan. Bu asar "Usul Shoshiy" nomi bilan shuhrat topgan.

ITTIHOD (arab.- birlashish) - tasavvuf tushunchasi. So'fiyning jazavaga tushish holatida xudo bilan ruhan "qo'shilib ketishi" tushuniladi. So'fiylar xudoga bo'lgan muhabbat (ishq)ni I.ning zaruriy qismi deb qaraydi. I. turli davrda turlicha talqin qilingan. Sunniy tasavvufda I. qat'iy rad etilgan.

IFRIT (ko'pligi afarit; "qudratli", "g'alaba qiluvchi") - eng serjhd, ayyor va kuchli jinlar nomi. Ko'plikda (afarit) ba'zan jinlar va shaytonlarning umumiy nomi hisoblanadi. Qur'onda "Jinlardan I." Sulaymon (as)ga Saba malikasining taxtini keltirishga o'tlanadi (27:39). Ko'pincha folklor va xalq adabiyotida haqiqiy shaxs sifatida uchraydi (mas., "Ming bir kecha" ertaklarida). So'ngti o'rta asrlarda Misrda Ilar qatl etilgan, zo'rlab o'ldirilgan kishilarning ruhlari hisoblangan.

IFTOR (arab. - og'iz ochish, ro'zani ochish) -islomda ro'za tutish bilan bog'liq odat. Ro'za kunlari ko'pchilik ishtirokida ziyofat -iftorlik o'tkazilishi islomda savob ishlardan sanaladi. Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda "Kimiki bir ro'zadorni og'zini ochirsa, unga ham ro'za tutgan kishining savobi berilur" deyilgan. Demak, savob bo'lishi uchun ro'zador og'zini ochirish lozim ekan.

IXVON as-SAFO (arab. - sof birodarlar) - 9-a.da Basrada paydo bo'lgan diniy-falsafiy maktab. Uning vakillari o'z nomlarini e'lon qilmasdan 52 ta risola yozib tarqatgan. Ularning maqsadi falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarni yoyish bo'lgan. "Risolar to'plami" 10-a.da Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan. U chuqur falsafiy mazmunga ega

bo'lib, omma uchun emas, ziyolilarga mo'ljallangan. Bu to'plam bizgacha yetib kelgan va 1995 y.da Eronda chop etilgan. 1150 y.da xalifa Mustanjid risolalarning barchasini yondirishga buyruq bergan, lekin ko'p nusxalari saqlanib qolgan, forsiy va turkiyga tarjima qilingan. Risolalar riyoziyot va mantiq, tabiatshunoslik va ruhshunoslik hamda ilohiyot va shariatga bag'ishlangan. I.as-S. vakillari o'zi orzu qilgan insonni tarbiyalash tizimini ishlab chiqqan. I.as-S. risolalari barcha musulmon mutafakkirlari va tasavvuf ahliga katta ta'sir ko'rsatdi. 16-a. oxiriga kelib mustaqil yo'nalish sifatida yo'qolib ketgan.

ISHROQ ("sharqiy munavvarlik") -so'fiylikdagi - falsafiy ta'limot; Yahyo as-Suxravardiy (1191 y. v.e.) tomonidan ishlab chiqilgan. Yorug'lik va zulmat ramzlaridan, shuningdek, zardushtiylkdagi muqaddas kitoblardan olingan obrazlardan keng foydalanib as-Suxravardiy aslini olganda o'ziga xos ta'limot yaratgan. I. haqidagi ta'limotga asosan har qanday mavjudlikning manbasi va energiyasi "Oliy nur" (nur al-anvar; fors. - xorra) bo'lib, u o'zining borlig'i bilan birinchi maxluq - "farishta", Baxman nurini "yoritadi". I. ta'limotiga ko'ra bayon etilgan dunyo manzarasi so'fiyning o'ta berilib zikr tushishi paytida o'ta sezgir va ongli bilimga ega bo'lishi mumkinligiga isbot bo'lib xizmat qiladi. So'fiyning ruhi moddiy olamning har xil "chiqitlari"dan zohidlik tajribasi orqali poklangach, ilohiy nur bilan "nurlanadi", u "dunyoning sir-asrorlaridan" boxabar bo'ladi va o'z manbasi tomon uchib, u bilan qo'shilib ketadi.

ISHQ (arab. - muhabbat) - tasavvufda Allohga bo'lgan ishq. Allohdan o'zga har qanday mahbubga bo'lgan ishq yoki muhabbat soliklar nazdida majoziy ishq sanalgan. Tasavvufona bitilgan g'azal va boshqa turdagi she'rlarda majoziy ishq orqali haqiqiy ishq tarannum etiladi.

I'JOZ al-QUR'ON - islom aqidasiida Qur'oni karimni mo'jizakor va beqiyos ekanligani anglatuvchi atama.

IQOB (ko'pligi iqobot; sinonimlari uquba, azob, jazo, naqal) - jazolash, fiqhning eng muhim kategoriyalaridan biri. Qonunni buzganlik uchun I. faqat sud hukmi, ya'ni imom, qozi, odilona sud qiluvchi yoxud jamoat tartibini nazorat qiluvchi boshqa bir shaxsning hukmi bilan qonuniy ravishda berilishi mumkin. Jazo berish xillari deyarli to'liq suratda johiliya davridagi kundalik huquqiy me'yorlardan olingan. Barcha jazolar quyidagi turlarga bo'lingan: o'lim jazosi, undan ko'zlangan maqsad jamiyatni jinoyatchidan to'liq xalos etish; qasos oluvchi jazolar, ular ijtimoiy adolat hissini qondiriishari lozim bo'lgan; oldini oluvchi jazolar, ular evaziga kelajakda huquqbuzarliklar kamayishi ehtimoli oshadi; ibratli jazolar, ular, asosan, huquqbuzarning o'ziga ta'sir ko'rsatib, uni keyinchalik xukuqni buzishdan qaytarishga qaratilgan. Jazolash usullariga qarab, ular jismoniy, ozoddikdan mahrum qilish va quvgan qilish, jarimalar, jamoatchilik ta'siri va tavba qilish kabilarga bo'linadi. Jazo jinoyatning og'ir-engilligi qat'iy mutanosib bo'lmoga lozim. O'lim jazosi (qatl) islomga qurol ko'tarib chiqqanlarga, ya'ni isyon ko'targani uchun yoki dindan qaytish haqida va'zxonlik qilgani uchun berilishi mumkin. Agarda qo'lga tushgan jinoyatchi tavba qilsa, u holda o'lim jazosi yengilroq jazo bilan almashinadi. Qotil, ayniqsa talon-torojlik bilan bog'liq qotillikka o'lim jazosi belgilanadi.

Agarda jinoyatchi uni qo'lga olgunlarigacha bo'yin egab kelsa u holda uni qatl etmaydilar, lekin u diya to'lashi va tavba qilishi lozim bo'ladi. O'lim jazosi ko'pincha aybdorning boshini tanasidan judo qilish yo'li bilan amalga oshirilgan, biroq uni dorga osish, nimtalash va b. xil usul bilan jazolash ham mumkin bo'lgan. Hoz. vaqtda otishga hukm qilish joriy etilgan. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro xiyonat o'lim jazosining maxsus turi - toshbo'ron qilish (rajm) bilan jazolanadi.

Qasos oluvchi jazolar (qasos, qavad, sa'r) inson hayoti va salomatligiga yetkazilgan og'ir jinoyatlar: qotillik, mayib qilish, zaharlash va b. uchun beriladi. Bunday jinoyatlar uchun jazolar, agar bu bilan yanada og'irroq ziyon yetmaydigan bo'lsa, talion tamoyili (ko'zga ko'z) asosida beriladi. Bunday holatlarda, shuningdek qotillik yoxud yetkazilgan ziyonlar atayin qilinmagan bo'lsa, diya to'lash lozim bo'ladi. Agarda qotillik buyruq yoki majburlash yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, qotillikni amalga oshirgan shaxs buyruq bergan shaxsga qandaydir bog'liq yeri bor bo'lsa u holda buyruq bergan shaxs qotil hisoblanadi. Agarda jinoyat biror-bir shaxsning gij-gajlashi orqali sodir etilgan bo'lsa, u holda qotil va gij-gijlovchi teng javobgar bo'ladilar. Qasos oluvchi jazolar agarda jabr ko'rganlar yoki ularning huquqiy vorislari jinoyatchilarni afv etgan takdirda bekor qilinishi mumkin.

Oldini oluvchi jazolar (hadd) butun jamiyatga yetkaziladigan og'ir jinoyatlar va huquqbuzarliklar uchun beriladi. Hadd dindand qaytganlik va isyon uchun, agarda sud jinoyatchini qatl etishni lozim topmagan bo'lsa beriladi. Shuningdek, diniy marosim ko'rsatmalarini namoyishkorona buzgani va ularni tahqirlagani; qasamxo'rligi va og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan soxta guvohligi, huquqbuzarlik qilish uchun undagani; g'ayri qonuniy jinsiy aloqa qilgani, agarda ular o'zaro nikoxda bo'lmasalar; voyaga yetmaganlarni zo'rlagani, ichkilikbozligi, ichkilik va qimorbozlikka o'rgatgani; firibgarligi va shunga o'xshash boshqa huquqbuzarliklar uchun beriladi. Hadd jazosi - qamchin yoki kaltak bilan 40 tadan 100 tagacha urish bilan amalga oshiriladi. Aybdor o'lib qolmasligi uchun jazo ijrosi bir necha xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Sud qaroriga ko'ra hadd qo'shimcha mikdorda kaltaklash, jarima, ozodlikdan mahrum qilish va mahalliy udumlarda ko'zda tutilgan boshqa jazolar bilan yanada qattiqroq bo'lishi mumkin.

Ibratli jazolar (ta'zir) hokimiyatga bo'ysunmaganlik, jamoat tartibini buzganlik, atayin birovning mulkidan foydalanganlik, mayda firibgarlik, savdo qoidalarini buzganlik va b. uncha katta bo'lmagan huquqbuzarliklar uchun beriladi. Ta'zir -qamchin bilan savalash yoki kaltak bilan urish (5 tadan 39 tagacha), yoxud olti oygacha qamoq yoki uy qamog'ida saqlash, yoki jamoatchilik o'giti yo'li bilan amalga oshiriladi. Bozorda qilingan o'g'irlik, agarda u jabrlanuvchiga katta moddiy zarar keltirmagan bo'lsa, bir necha marta kaltak bilan urishga hukm qilinishi yoki umuman kechirib yuborilishi mumkin. Agarda o'g'irlik malakali xarakterga ega bo'lsa, o'g'riga nisbatan hadd belgilanadi. Qayta o'g'irlik qilish chap qo'l panjalarini chopish bilan jazolangan.

Yuqorida zikr etilgan choralardan tashqari, mansabdor shaxs tomonidan qilingan jinoyat uchun uning mol-mulki musodara qilinishi mumkin. Har qanday hadd jazosiga o'sha zahoti ta'zir jazosi ham qo'llanishi mumkin, bundan tashqari u barcha jazo turlari doirasida ham ogirroq jazolanishi mumkin. Har qanday jazo huquqbuzarning qilgan ishiga afsuslanishiga mo'ljallangan. Agarda u qaysarlik qilsa, jazo qayta berilishi mumkin. Agarda u tavba qilsa, kafforat amallarini qilishi lozim bo'ladi, uni sud belgilaydi (ikki oygacha ro'za tutib berish, uzoq vaqt jinsiy aloqadan saqlanish, ahd bo'yicha haj qilish, bir kulni ozod qilishi yoki sotib olishi lozimligi, katta mikdorda sadaqa berishi va b.)- Sud tomonidan belgilangan talablar bajarilgach, kishi g'usl qilmoga lozim bo'ladi va shu paytdan e'tiboran u yana qaytadan jamiyatning odatdagi a'zosiga aylanadi. Jazoni belgalashdagi katta erkinlik sudga aybdorning shaxsiga nisbatan, ham uning

aybini e'tiborga olgan holda, ham unga nisbatan eng munosib jazo berishni ko'zda tutgan holda tabaqaviy yondashish imkonini beradi. Umuman olganda har qaysi musulmon, agarda uning aybi isbotlansa, har qanaqa jazoga tortilishi mumkin. Biroq sud uning madaniy darajasi va ijtimoiy ahvolini hisobga olishi shart va shunday jazoni tanlashi kerakki, u eng samarador bo'lgani hodda ortiqcha qattiq ham, tahqirlovchi ham bo'lmasin.

Huquqbuzarlik uchun javobgarlik insonning umumiy huquqiy qobiliyati shakllaridan biridir va shunga ko'ra barcha huquqiy qobiliyatlar (mas., yosh bolalar va aqli zaiflar) jazoga tortilmaydilar, qullar, ayollar va b. to'liq huquqqa ega bo'lmaganlarga erkin musulmon erkakka beriladigan jazoning yarmi beriladi. Jazoni teng yarmiga bo'lishni imkoni bo'lmagan holatlarda (mas., o'lim jazosi), qul xuddi erkin kishi kabi jazoga tortiladi. Agarda jinoyatchi g'ayridin bo'lib, uning jinoyati qaysi dindaligi bilan mutlaqo bog'lanmagan bo'lsa, u xuddi musulmon kabi jazolanadi; tabiiyki u tavba qilishdan ozod etiladi, albatta, buning o'rniga unga jarima to'lash yuklatilishi mumkin. Hoz. vaqtda jazoning barcha turlari shaklan saqlanib qolgan, biroq eng rivojlangan mamlakatlar qonunchilik idoralari tomonidan qabul qilingan jazo turlari, ya'ni qamoqqa olish va majburiy mehnatga jalb etish, jarimalar va jamoatchilik o'giti kabilar afzal ko'rilmogda.

IQTISOB - bu dunyo ne'matlariga erishmoq. O'zi va yaqinlarini I. doirasida zaruriy narsalar bilan ta'minlash har bir musulmonning vazifasidir, unga qad. payg'ambarlar va Muhammad (sav)ning sahobalarini savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlari ham misol bo'lishi mumkin. Hunarmandchilik va savdo yo'li bilan topilgan mablag' davlat maoshidan ko'ra sofrokdir. I. Allohning marhamatiga umid qilib (tavakkul) o'zini o'zi ta'min etishdan voz kechuvchi taqvodan afzaldir, o'z nafsini barcha narsadan tiyish - har qanday qotillik kabi gunoxdir.

IQTO' (ko'pligi iqta'ot; aqta'a fe'lidan - "kesmoq", "taqsimlab bermoq")- ma'lum hududdan xiroj olish huquqini davlat tomonidan biror shaxsga berilishi. Yer bo'lib berishlar Muhammad (sav) hayotliklari davrida ham qayd etilgan va ayniqsa Usmon (ra) davrida (644-656) keng tarqalgan. Odatda davlatga qarashli egasiz va tashlandiq yerlar merosiy va musodara qilish huquqi bilan biror kishiga xususiy mulk (muqta) tariqasida berilgan. Bu er uchastkalari qati'a deb atalib mulkka o'xshash bo'lgan, in'om etish hodisasining o'zi esa iqto' deb atalgan. Aksariyat hollarda muqta' (muqtadorlar) yerga o'zlari ishlov bermaganlar, balki yerni o'sha joydagi ijaradorlar bilan qo'shib olganlar yoki sugorishga mablag' sarflab, o'zlashtirilgan yerni ijaraga berganlar. Muqta' yerdan ushr to'lagan, unga yer solig'i deb emas balki zakot sifatvda qaralgan. Haqiqiy, mumtoz I.da, ya'ni xiroj olinadigan yer berilgan takdirda, muqta' xiroj bilan ushr o'rtasidagi farqni o'z foydasiga olgan. Ilk fiqhshunoslar (Yahyo ibn Adam, Abu Yusuf) faqat ana shunday I. shaklini biladilar.

Mo'g'ullar davrida I. istilohi rasmiy suratda ishlatilmasdan, uning o'rniga suyurg'ol - merosiy qilib berilgan yer mulki va tuyul (tiul) - vaqtinchalik yoki umrbod muddatga berilgan yerni anglatuvchi istiloxlar ishlatila boshlangan.

IHVON al-MUSLIMUN (arab. - musulmon birodarlar) - musulmon birodarlar uyushmasi (MBU) diniy-siyosiy tashkiloti a'zolari. Bu tashkilotni 1928 y.da shayx Hasan al-Banno Ismoiliya sh. (Misr)da tashkil etgan. MBU murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda so'fiy

birodarlar tashkiloti va hoz. zamon Yevropa partiyalarining unsurlari qoʻshilib ketgan. Uyushmaning asoschisi targʻib qilgan taʼlimot keyinchalik bir necha boshqa islom mafkurachilari (Said al-Qutb, Mustafo as-Siboi va b.) tomonidan rivojlantirildi. MBU faoliyati mafkura, qonun, axloqiy meʼyor va b.ning yagona manbai sifatida islom qoidalariga asoslangan "adolatli islom jamiyati"ni qurishga qaratilgan. Bu maqsadga erishish uchun, MBU rahnamolari fikricha, "taraqqiyotning islom yoʻli"dan borish kerak. MBU xayr-ehson va maʼrifatchilik faoliyatidan (1928-36) to siyosiy hayotda terror usulini keng qoʻllashda faol ishtirok etishgacha boʻlgan murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtdi. 1949 y.da Hasan al-Banno oʻldirilganidan keyin tashkilotda ajralish yuz berdi: bir qancha mustaqil guruhlar va tashkilotlar paydo boʻddi. 1954 y. Misrda bu tashkilotlarning respublika tartib-qoidalariga qarshi qaratilgan faoliyati gʻayriqonuniy, deb eʼlon qilindi. Lekin ular keyingi yillarda yashirin holatda ish koʻrib, prezident Nosir hukumatini agʻdarib tashlashga bir necha marta urindilar. 70-y.larda prezident Sadat davrida I.al-m. tashkiloti ochiq holatga oʻtib, yana faoliyatini kuchaytirdi. 70-y.lar oxiri - 80-y.lar boshida Misrda I.al-m. va unga yaqin bir necha oʻnlab tashkilotlar faol ish olib bordi. 1981 y.da Sadat ekstremistik islom guruhdaridan birining aʼzolari tomonidan oʻldirilgandan keyin, Misrda I.al-m.ning koʻpchilik tashkilotlari man etildi, rahbarlari qamoqqa olindi. 30-y.lar oʻrtalaridan boshlab MBU boʻlimlari Misrdan tashqarida ham vujudga keldi. Hozirda I.al-m. tashkilotlari bir qancha musulmon mamlakatlarida mavjud. Bu tashkilotlarning faoliyati "ixvoniylar" ("birodarlar") harakati degan umumiy nom oldi. Ixvoniylar harakati oʻzining ijtimoiy-sinfiy tarkibi hamda siyosiy va gʻoyaviy yoʻnalishi jihatdan bir xil emas. Bu harakat ichida uch asosiy yoʻnalish mavjud. Bular: "moʻtadil" Misr mafkurasining tarafdorlari (I.al-m. nomini olganlar); turli nomdagi koʻp guruhdarni oʻz ichiga olgan oʻng ekstremistlar hamda bir necha yirik xalqaro tashkilotlar (mas., 50-y.larda Iordaniyada tashkil etilgan Islom ozodlik partiyasi va b.); "islom sotsializmi" mavqeida turuvchi "islom demoqratlari"dir. Bu harakatning gʻoyaviy-siyosiy yoʻli hozir mustaqillikka erishgan yosh mamlakatlarda har xil qoʻporuvchilik ishlarini amalga oshirish va davlatlar oʻrtasida nizolar chiqarishga qaratilgan.

- J -

JABARIYLAR (arab. jabr soʻzidan - zoʻrlik ishlatish, majbur qilish maʼnosida) - 7-a. oxiri - 8-a. boshida islom ilohiyotida paydo boʻlgan oqim tarafdorlari. J. islomda taqtsiz masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biri hisoblanadi. J. ahdi sunna val jamoada tan olingan takdir masalasini inkor qiladi. J. inson takdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qoʻygan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yoʻq, bular faqat xudoda mavjud, inson esa, ana shu faoliyatni oʻzlashtirib olish imkoniyatiga ega, degan aqidalarni ilgari surgan. Iroda erkinligi tarafdori boʻlgan qadariylarga J. qarshi boʻlgan. Shuningdek, J. turli davrlarda maʼlum muddat hokimiyat tepasida boʻlgan xalifalarga taʼsirini oʻtkazib, siyosiy hayotda muhim rol oʻynagan. Natijada oʻziga qarshi oqim va mazhablarga tazyiq oʻtkazgan. J.ni hokimiyat tepasida turgan umaviylar qoʻllab-quvvatlab, ularga qarshi boʻlgan diniy firqa va siyosiy guruhlarini taʼqib ostiga olgan. **JABROIL** - islomda toʻrt bosh farishtadan biri (Mikoil, Isrofil, Azroil bilan birga). Alloh amrlarini Paygʻambarlarga yetkazib, vahiy keltiruvchi (xabar beruvchi), samoviy ofatlarni yer yuzida ijro qiluvchi farishta; barcha Paygʻambarlarga jumladan Paygʻambarimiz (sav)ga ham xudo tarafidan kelgan vahiydar farishtalar ulugʻi J. orqali kelgan. J. Allohning irodasi bilan Muhammad (sav)ga Qurʻon oyatlarini yetkazib bergan Qurʻoni karimda J. "muqaddas ruh" "olijanob elchi" nomi bilan tilga olinadi Qurʻondan keyingi rivoyatlarda J.ni avvals Muhammad (sav) hayotlaridagi oʻrni batafsil bayon qilingan. U Rasulullohga meʼroj kechasi hamroh boʻlib, u zotni ehtiyot qilgan va yoʻl yoʻriqlar koʻrsatgan, harbiy yurishlarda va ilohiyotga doir munozaralarda koʻmaklashgan J. boshqa Paygʻambarlar tarixida ham muhim oʻrin tutgan. Alloh taolo Odamatonini yaratish uchun J.ni tuproq keltirishga yuborgan, J Odamoto jannatdan quvilganida unga gʻamxoʻrlik qilgan, Nuh (as)ni xalos boʻlishiga yordamlashgan va Ibrohim (as)ning oʻgʻillarini qutqargan, Yusuf (as)ni koʻp tillardan boxabar qilgan, Dovud (as)ga sovut yasashni oʻrgatgan Sulaymon (as)ga yordamlashgan, Zakariyo (as)ga Yahʻyo (as)ni tugʻilishini bashorat qilgan va b. **JAZAVA** (arab. "jazaba" soʻzining buzilgan shakli) - kuchli asab qoʻzgʻalishi, oʻz xatti-harakatlarini nazorat qilolmay qolish xayolot va voqelik oʻrtasidagi muvozanatning yoʻqolishi natijasida yuzaga keladigan holat J-ning eng koʻp turlari odatda shialikdagi "shaxsey-vaxsey"d,a uchraydi. Tasavvuf istilohida esa, J. tariqat ahlining ilohiy ishq taʼsirida shavku zavqqa tulishi, zikr va samoʻ asnosida oʻzidan ketish holatlari sifatida talqin etiladi.

"JAMOATI ISLOMIY" - Hindistonda 1941 y. barpo boʻlgan umumhindiston partiyasi. 1948 y. uning asosida mustaqil "Jamoati islomiy hind" tarkib topdi. Hoz. vaqtda u soʻl islom oqimlarining umumiy gʻoyaviy uyushmasi sifatida Pokiston, Hindiston va Bangladeshda (1971 y.dan) faoliyat olib borayotir. "J.I."ning nazariy dasturini pokistonlik Abul Aʻlo Mavdudiy (1981 y.v.e.) ishlab chiqqan. Partiyaning nizomiga koʻra, rahbariyat tarkibi islomiy qoida - mushovara (maslahat) asosida tuziladi. Tashkilotni barcha aʼzolar tomonidan saylangan amir boshqaradi. Partiyaga aʼzolik cheklangan. Unga "shaxsiy va ijtimoiy hayotda shariat qonunlariga qatʼiy rioya qiladigan", sinov muddatini oʻtagan hamda qasamyod qilgan shaxslar qabul etiladi. Mavdudiy taʼbiri bilan aytganda, Pokistonning atigi 4-5% aholisi haqiqiy musulmon xisoblanishi mumkin. Shu boisdan partiyaning goʻla huquqli aʼzolari soni uncha katta emas (2500-3000), ammo uning asosiy kuchini behisob "tarafdorlar" va "xayrixohlar" tashkil etadi. "J.I." ijtimoiy jihatdan zyolilar, talabalar, kichik mulkdorlar va shahar quyi tabaqalari hamda

harbiylarning eskilikni yoqlovchi toifalaridan tarkib gopgan. Partiyaning asosiy maqsadi - islom davlatini tuzishdir. Bunday davlat tuzumini Mavdudiy "teodemoqratiya" deb atadi va u "yangi tipdagi (ya'ni o'ziga o'xshagan) ulamolar tomonidan boshkdrilishi kerak". A. Mavdudiy vafot etgach, partiyaga Mian Mohammad, Rafur A.hmad va Mavdudiyning o'g'li - Mavlono Faruqiy rahbarlik qilmoqda.

JANABA, j u n u b ("ifloslanish"; sinonimi najasa) - ifloslantiruvchi xatti-harakatlar yoxud holatlar natijasida diniy marosimdagi nopoklik. J. masalalari fiqhning ibodat bo'limida talqin etiladi. Ifloslantiruvchi narsalarga quyidagilar kiradi: a) inson tanasidan chiqargan barcha narsa, jumladan uning axlati, siydik, maniy, qusug'i, yiring, hayz qoni, ba'zi mazhablarga ko'ra yaradan oqqan qon, kesilgan soch va tirnoklar va b.; b) harom o'lgan hayvon, ishlov berilmagan teri, shox, ichak va b.; v) vino va b. mast qiluvchi va gangituvchi moddalar (agarda ular tibbiy maqsadlarda ishlatilmasa); g) cho'chqa, vahshiy hayvon va qushlar go'shti; d) ko'rinishi va hidi badbo'y, yaramas bo'lgan barcha narsalar. Ifloslanib qoluvchi holatlarga, yuvilmagan o'likka, agarda u shahid ketmagan bo'lsa qo'l tekkizish, qon oqishi, jinsiy aloqa, hayz ko'rish, tug'uruq, og'ir kasallik, ayniqsa bemor hushidan ketgan bo'lsa, olis va uzoq safarga chiqish, shuningdek, inson o'z xohish-irodasidan tashqari u yoki bu man etilgan narsaga qo'l urib qo'yishi kabilar kiradi. Kundalik jihozlar, uy-joy va kiyim boshning ifloslanib qolishi xuddi o'shanday holatlarda yuz beradi, mas., xonadonga daydi it kirib qolsa, idishga vino kuyilsa yoxud unga cho'chqa go'shti solinsa, kiyimga qon tegsa va b. Agarda ifloslanish gunoh ish yoki qonunga xilof faoliyat bilan bog'lanmagan holatlarda sodir bo'lsa, mas., qassob yoki ko'nchining ishi bilan bog'liq holatda ro'y bersa, g'usl qilish bilan poklaniladi. Agarda u qandaydir man etilgan xatti-harakatlar oqibatida sodir bo'lgudek bo'lsa, mas., g'irt mast bo'lguncha vino ichilsa, man etilgan aloqada bo'lsa va b., u holda gusldan tashqari tavba qilish zarur bo'ladi va kafforat berishi lozim. Ifloslangan narsalar va xonalar yaxshilab tozalanadi, yuviladi va shamollatiladi, bunda ifloslanishdan xalos bo'lish niyatini tasdiqlovchi duolar o'qiladi.

JANDA - q. Xirqa.

JANNAT (arab. - bog', bo'ston, uchmoh; fors. - behisht; dor us-salom, dor ul-baqo, dor ul-oxir, dor ul-muqoma, dor ul-muttaqin, bog'i eram, firdavs, illiyun va b. nomlari bor) — taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joy. Qur'onda J. haqida bir necha yerda bayon qilingan (47: 15-55: 46-78; 76: 11-22). Diniy aqida bo'yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holidan ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga Alloh tomonidan J.dan joy beriladi. J.dagi hayot abadiy, bezavoldir. J.dagilarni Alloh turli ne'matlar bilan ta'minlaydi. U yerda g'am-g'ussa va tashvish yo'q. Odamlarning yaxshi ko'rgan barcha narsasi muhayyo etiladi, hatto juftlari ham birga bo'ladi. Qur'onda J. daraxtzor ostidaga ariklarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta'riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo'lmaydi. Diniy ta'limotda ta'kidlanishicha, J.da havzi Kavsar mavjud bo'lib, uning suvi oq va sovukligi hamda xislatlari ta'riflanadi. Havzi Kavsardan J. axli suv ichadi.

Islom diniga ko'ra, J.ning sakkiz darvozasi bor. Bular Payg'ambarlar, shahidlar, siddiq bandalar va saxiylar; namozxonlar; zakot beruvchilar; amri ma'ruf, nahyi munkar qilgan mo'minlar; nafsu shahvatini jilovlab yurganlar; haj va umra qilganlar; Alloh yo'lida jiddu

jahd qilganlar; taqvodorlar va ota-onasini rozi qilganlar va ro'zadorlar kiradigan darvozalardir. J.ni qo'riklovchi farishta "Rizvoni jannat" deb ataladi. J.da eng oliy ne'mat - Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi.

JANOZA - islomda dafn etish marosimi; mayyit, murda, tobut. Qur'onda J. to'grisida hech qanday ko'rsatma berilmagan. Fiqhga oid asarlarda J.ga batafsil tavsif berilgan. J. marosimi turli musulmon mamlakatlarida turlicha bo'lib, islomgacha bo'lgan davrda ushbu xalqlarda mavjud bo'lgan tegashli urf-odatlar bilan qorishib ketgan. Biroq, amalda hamma yerda rioya qilinadigan asosiy qoidalarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'lim yaqinlashib kelayotganini sezgan musulmon kalimai shahodat keltirishi lozim. Agar uning o'zi buni amalga oshira olmasa, uni boshqa odam qulog'iga shivirlab aytishi lozim. Bemor "Yesin" surasini o'qishi yoki eshitishi kerak. O'lim sodir bo'lgandan keyin murdaning yuzi qiblagga qaratib qo'yiladi. Undan so'ng murdani odatda maxsus odam - g'assol yuvadi (g'usul qiladi). G'usuldan so'ng murda 2-5 qavatdan iborat toza matoga o'ralib kafanlanadi. Kafanlik odatda, oq, yashil, qora mato bo'lishi mumkin. Murdaning ko'zini yumib, engagi bog'lanadi. Tizzalari bir-biriga bog'lanib, qo'llari ko'kragiga buklab qo'yiladi. Shundan so'ng uyida yoki masjidida marhumga J. namozi o'qiladi. O'z joniga qasd qilgan va dinsizlarga J. o'qilmaydi (9:84/85). Chaqaloq loaqal bir marta ovoz chiqarib yishagan bo'lsa unga J. o'qiladi. "Shahid ketganlar" g'usul qilinmaydi va qanday kiyimda qazo qilgan bo'lsa, o'sha kiyimda dafn etiladi. J. o'qilmaydi. Agar o'lim ertalab sodir bo'lgan bo'lsa, o'sha kuni (imkon boricha, kun botgunga qadar), agar kunduzi yoki kechasi vafot etgan bo'lsa ertasiga dafn etiladi. Ayollar odatda, dafn marosimida qabristonga borishmaydi. Ularning qattiq ovoz chiqarib yig'lashlari ham man etiladi. Qabrga mayyitning yaqin qarindoshlarini tushirishadi va uning yuzi qiblagga qaratib qo'yiladi. Qabr imkon boricha kengroq qilib kavlanadi, uning yon burchagida tuynuk bo'lib, undan pastga qaragan lahadga tushiladi. Unda e'tiqodga ko'ra, Munkarnakir savol-javobga kelganda mayyit "o'tira oladigan" bo'lishi lozim. Buning uchun kafandagi bog'ichlar ham bo'shatib (echib) qo'yiladi. Dafn marosimi Qur'on sura (odatda 1, 2, 18, 36, 44, 97-sura)larini o'qish bilan yakunlanadi.

JANOZA NAMOZI - vafot etgan musulmonlar uchun jamoat bo'lib o'qiladigan namoz. Mayyit yuvilib, kafanlanadi, masjidga keltiriladi. Jamoatning oldiga yuqoriroq yerga qo'yiladi. Imom jamoatning oldiga o'tib J.n.ni o'qiydi. J.n.ni o'quvchi kishi avval: "Niyat qildim ushbu marhum uchun J.n.ni o'qimoqqa, iqtido qildim ushbu imomga. Xolisan lillohi Taolo", deb niyat qiladi. Imom baland ovoz bilan, qolganlar imomga iqtido qilib ichda "Allohu Akbar" deb qo'llarini bog'laydi. Iqtido qilib o'quvchi ichida takbir aytib qo'llarini bog'laydi. So'ngra ovoz chiqarmasdan "Sano"ni o'qiydi: "Subhanakalohumma va bihamdika va tabarokasmuka va ta'ala jadduka va la ilaha g'oyruk". So'ngra imom bilan birgalikda takror takbir aytiladi. Lekin qo'llar ko'tarilmaydi. Solli va Barik duolari o'qiladi. Takror yana qo'llar ko'tarilmagan holda takbir aytiladi, janoza duosi o'qiladi. Janoza duosini bilmaydiganlar esa, Qunut duosini yoki duo niyati bilan Fotiha surasini o'qisa ham bo'ladi. So'ngra imom bilan birgalikda takror takbir qilinib oldin o'ngga, keyin chapga salom beriladi. J.n. o'qilib bo'lganidan keyin mayyit mozorga olib boriladi, qabrga qo'yiladi, ruhdariga bag'ishlab Qur'on tilovat va duo qilinadi.

JA'FAR as-SODIQ, to'liq ismi Ja'far ibn Muhammad Abu Abdulloh (taxm. 700-765) - shialiqdagi ja'fariylik mazhabi asoschisi, shialarning 6-imomi. "Sodiq" laqabini to'g'ri so'z bo'lganligi uchun olgan. Madinada tug'ilgan. J.as-S. nasabi ota tomondan hazrat Aliga, ona tomondan hazrat Abu Bakr Siddiqqa. borib taqaladi. J.as-S. siyosiy faoliyatda mutlaqo qatnashmagan, imomlikka da'vogarlik ham qilmagan. U hokimiyat uchun qurolli kurash olib borishning dushmani edi, o'z qarindoshlarining (739-740 y.larda Zayd ibn Alining Kufada, 762 y. Muhammad an-Nafs az-Zakiyning Hijozda) chiqishlarini qoralagan. Lekin diniy fanlar (hadis, tafsir, fiqh)ni o'rganishda oilaviy an'anani davom ettirgan va "mo'tadil" shialarning ma'naviy rahbari bo'lgan. U fiqh va ilohiyot masalalari muhokama qilinadigan majlislar tashkil etgan. Rasululloh avlodlari (ahdi bayt)ning eng ko'zga ko'ringan olimlaridan biriga aylangan. J.as-S. din usullarini ishlab chiqqan. Uning kimyoga oid bir necha risolalari bo'lgan. Hoz. ba'zi musulmon ulamolari J.as-S. "arab ilmiy an'anasining otasi" degan fikr bildiradilar.

JA'FARIYLIK - shialikdagi diniy-huquqiy mazhab. Unga Ja'far as-Sodik, asos solgan, deb hisoblasalar-da, aslida 9-10-a.larda bir necha mujtahid va ilohiyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan. J. sunniylikdaga 4 mazhab (hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik va hanbaliylik) qatori islomda 5-diniy-huquqiy mazhab (imomiylar) deb tan olingan. J. imomiylik yoki isnoash'ariylar deb ham yuritiladi. Shialikdagi imomiylik mazhabi o'zining shariat hukmlarini Imom Ja'far as-Sodiq(ra) fiqhidan olgani uchun J. deb nomlanadi. Bu mazhabda ijthod eshiklari ochiq hisoblanib mujtahid Qur'on va sunnatga tayangan holda ijthod qilishi mumkin. J. mazhabining sunniylikdagi mazhablardan asosiy farqi: ja'fariylar qiyosni Qur'on, sunna, ijmo'dan keyingi shariat manbai ekanligini rad qiladi, shialikdagi imomlar naqlarinigina tan oladi, vaqtinchalik nikoh (mut'a)ga yo'l qo'yadi, xavf paydo bo'lgan chog'da o'z e'tiqodlarini yashiradi, ijthod (diniy va huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikr yuritish)ga imkon yaratadi. J. 16-a. boshlaridan Eronda hukmron diniy-huquqiy mazhabga aylangan.

JAHANNAM - q. Do'zax.

JAHM ibn SAFVON, Abu Muhriz (? - 745) - mashhur ilohiyotchi, jabariylar vakili, voiz. Umaviylarning Xurosondaga noibi Nasr ibn Sayyorga qarshi qaratilgan qo'zg'olonda qatnashib asirlikka tushgan va qatl etilgan. J.i.S. musulmonlar an'analarida Qur'onning yaratilganligi g'oyasini birinchi bo'lib aytgan Joid ibn Dirhamning shogirdi. U qazo va qadarga ishonish tarafdori bo'lib, antropomorfizm (xudoni insonga o'xshash qiyofada deb bilish)ning dushmani edi. J.i.S. ta'kiddashicha, insonning ixtiyori o'zida emas, uning xohishi va orzulari amalga oshmaydi, u mustaqil harakat qilishdan mahrumdir. Imon-Alloh haqidagi bilimdir, imonsizlik -Alloh haqida hech narsa bilmaslikdir. Agar inson Allohni tanigan-u, so'ngra so'zda undan yuz o'g'irgan bo'lsa ham, u imonli bo'lib qolaveradi. Imon (Alloh haqidagi bilim) payg'ambardan oddiy musulmongacha - hamma uchun birdir. Mu'taziliylar kabi J.i.S. ham xudoni ko'z bilan ko'rish imkoniyatini rad qildi, Qur'onning yaratilganligani va vahiy kelguncha aqliy bilim zarurligini e'tirof etdi. U Alloh imkoniyatlarining ham chegarasi borligi haqida mulohaza yuritdi. Vafotidan keyin uning nomi bilan ataluvchi jahmiya ilohiyot maktabi shakllandi. 9-a.da sunniylik va mu'taziliylik oqimlariga mansub ilohiyotchilar bu ta'limotni "rad etuvchi" juda ko'p asarlar yozdilar. Ular ichvda Ahmad ibn Hanbal, Ibn Qutayba, Dorimiy va b. bor edi.

JIZYA (arab. - jon solig'i) - dastlab arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, O'rta Osiyo) da musulmon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon soligi. J. balogatga yetganlarga solingan (qariyalar, ayollar, bolalar, kul va ishga yaroqsizlar esa J.dan ozod qilingan). J., asosan, pul va natura tarzida undirilgan. J. 3 xil bo'lib, yilda bir marta olingan. Ishga yaroqli er kishidan 12 dirham, o'rta holdan 24 dirham, boydan esa 48 dirham olingan. Zero, musulmon davlati, musulmon bo'lmagan fuqarolarni ham huquqlarini himoya qilishi, ularni tashqi va ichki tajovuzdan saqlashi lozim. Shuning evaziga undan J. olinadi. 48 dirham beruvchi har oyda 4 dirhamdan, 24 dirham beruvchi har oyda 2 dirhamdan, 12 dirham beruvchi har oyda 1 dirhamdan beradilar. Agar ular islomni qabul qilsalar J.dan ozod qilinganlar.

JIN (arab. to'silgan, ya'ni odamlar ko'zidan to'silgan narsa; ko'pligi - ajina) - Alloh yaratgan uch toifadagi aqlli mavjudotlardan biri (farishtalar va odamlar bilan bir qatorda). Qur'oni karim nozil bo'layotgan paytda arab qabilalari J.larga maxfiy, noravshan xudolar deb e'tiqod qilardilar. Ular J.larning nasabi Alloh taologa yetib boradi, uning J.lardan sheriklari bor, degan buzuq e'tiqodga ham bo'ysunishardi. Shuningdek, arablar J.lar g'oyibdan xabardor, folbin va munajjimlarga osmon sirlarini aytib turishadi, degan o'yda edilar. Arablarda J.larning hukmi yer yuzida o'tadi, degan xom xayol bo'lib, agar ulardan birortalari ma'lum bir yerga borib yotib qolmoqchi bo'lsalar, "Ushbu joyning xo'jayin J.idan panoh so'rayman", degan ma'nodagi duoni qilishardi. Hoz. vaqtgacha kishilarda yuqoridagi aytiladiganlarga o'xshash turli-tuman buzuq, bid'at-xurofotdan iborat tushunchalar mavjud va ular bu yolg'on e'tiqodga bo'ysunadilar. Islom ilohiyotchilari J.larning mavjudligini tan oladilar. Shu bilan birga J.lardan kutiladigan mavhum qo'rqinch va xavfu xatarni ham rad etadi. J.lar haqiqatda bor mavjudotlar bo'lib, asli o'tdan yaratilgan. J. so'zining lug'aviy ma'nosi avval aytilganidek, to'silgan degani, ya'ni odamlar ko'zidan to'silgan narsa. Shu sababli ham u insonlarga ko'rinmaydi. Ular o'zlari ko'rinmay turib, odamlarni va b. narsalarni ko'rishlari mumkin. Shu bilan birga turli shakllarga kirishlari ham mumkin. J.lar erkak va ayol jinsiga mansub, dashtu biyobonlar, tog' va o'rmonlarda yashaydi. Ular bir necha toifadan iborat, g'ul, ifrit, silot toifasidagilari mashhur. Shaytonlar J.larning yovuzlaridir. Qur'onga ko'ra, Muhammad (sav)ni Alloh insonlarga ham, J.larga ham yuborgan. J.larning bir qismi Rasululloh tomonidan o'qilgan Qur'on tilovatini eshitib, dinga e'tiqod qo'ygan va islomni targ'ib qilgan. Ularning ichida ham xuddi odamlarga o'xshab imonsiz-imonli, yaxshiyomon, adashgan va hidoyatda yurganlari, firibgar va soddalari bor. J.lardan ham Qur'onga, Payg'ambar (as)ga imon keltirib yaxshi yo'lda yurganlari jannatga, imonsiz bo'lib yomon yo'lda yurganlari do'zaxga tushadilar. Ular odamlarga hech qachon yordam bera olmaydilar va g'oyib sirlarini bilmaydilar, chunki Qur'oni karim nozil bo'lgandan so'ng ular bu xislatlardan mahrum bo'lganlar. "Saba'" surasida bir guruh J.lar Sulaymon (as)ga xizmatkor bo'lganliklari, u zot hassaga suyanib turib vafot etganliklaridan so'ng ham tirik, kuzatib turibdi, deb o'ylab, mashaqqatli ishda davom etganliklari haqidagi oyatlar bor.

Islomdan avvalgi vaqtda Jlar osmonga chiqib maloikalarning o'zaro suhbatlarini, jumladan yaqin kunlarda sodir bo'ladigan ba'zi ishlar haqidagi ma'lumotlarni yashirin eshitib, yerdaga folbinu munajjimlarga birga o'nni qo'shib yetkazishar edi. Oradan ancha vaqt o'tib, osmon xabariga quloq osgani chiqsalar, ularni yulduzlardan uzilib chiqqan uchqunlar urib haydaydigan bo'lib qolibdi. Ular yerga o'z qavmlari huzuriga qaytib,

"Nima bo'ldi ekan, bizni uchqunlar quvadigan bo'lib qoldi-ku? deyishadi. Shunda ba'zilari, dunyoda ulkan, olamshumul o'zgarish bo'lgan bo'lsa kerak, deyishadi. Mashriq mag'ribni kezib bizdan osmon xabarini to'sgan narsani qidirish zarur, degan qarorga kelib, safarga o'tlanadilar. Rivoyatlarda naql qilinishicha, Nasibin nomi bilan ataluvchi joyda yashovchi J.lardan yetti nafari Payg'ambarimiz (sav) bomdod namozini qiroat qilayotganlarini eshitib to'xtashgan, bizdan osmon xabarini to'sgan narsa shu, deb o'z qavmlariga qaytib, bo'lgan hodisani aytadilar. Shunda Alloh taolo O'z Payg'ambariga "Jin" surasini nozil qildi.

JIRJIS - musulmon rivoyatlarida zikr etilgan shaxs. Allohga e'tiqod qiluvchi falastinlik taqvodor, Iso (as) havoriylaridan birining shogirdi. J. e'tiqodi yo'lida zolimlardan panoh izlab Iroqqa, zolim, butparast Mosul podshosi huzuriga keladi. Podsho uni e'tiqodidan qaytarish uchun turli azoblarga soladi, lekin J. ularga osonlikcha bardosh beradi. Shunda uni qayta-qayta qatl qiladilar, lekin har bir qatldan so'ng Alloh uni tiriltirgan. J. uchun Alloh yana boshqa mo'jizalarni ham namoyish etadi - kambag'al bechora kampirning o'lgan ho'kizlarini tiriltiradi, o'liklarni qabrdan turg'izadi, yog'och kursilarni daraxtga aylantiradi va b. Pirovardida Alloh mal'un podsho va uning shahrini yo'q qilib tashlaydi. J. haqidagi rivoyatlar xristianlikdagi avliyo Georgiy haqidagi rivoyatlar bilan hamohangdir. Musulmonlarda u Hizr va Ilyos nomlari bilan birga keladi.

JIHOD, g'azavot (arab. - g'ayrat qilish, kuchni ishga solish) - din yo'lida kurash. Dastlab J. deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan. Bu kurashga nisbatan Qur'onda Muhammad (sav)ning Makka va Madinada kechgan xayot faoliyatlariining muayyan shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda gurlicha ko'rsatmalar bor: 1) ko'pxudoliklar bilan mojaroga bormaslik va ularni okdlik va odob bilan haqiqiy dinga og'dirish; 2) islom dushmanlariga qarshi mudofaa urushi olib borish; 3) g'ayridinlarga hujum qilish, lekin muqaddas oylarda harbiy harakatlar olib bormaslik; 4) ular bilan har vaqt va hamma joyda kurash olib borish. J. so'zi lug'atda urush ma'nosini anglatmaydi, buning uchun arab tilida "qitol" so'zi ishlatiladi. J. so'zining lug'atdagi xususiyatidan kelib chiqib J.ning turlari ham ko'paygan. Islomda J. ma'nosi avvalo urush ma'nosida emas, Allohning diniga so'z bilan da'vat qilish ma'nosida yuzaga kelgan. Insonning havoyi nafsining kuyiga kirmaslik, uni yengab shariatga muvofiq yashash uchun jon jahdi ila qilgan harakati, haq so'zni joyini topib aytmoqligi J.ga kiradi. Farzandni ota-onasi xizmatida bo'lishi ham J.dir. Islomning dastlabki o'n uch yili davomida Muhammad (sav) boshliq sahobalar Makkada urush ma'nosi bo'lmagan J.ni olib borganlar. O'sha vaqtda Alloh taolo musulmonlarning mushriklarga qarshi kuch ishlatishini man qilgan edi. Shu bilan birga ulardan yetgan azob-uqubat va ozorlarga sabr qilishga amr qilgan ham edi. Faqatgina xijratning ikkinchi yili (mil. 624 y.) Qur'oni karim ta'biri bilan aytilganda 'O'zlariga qarshi urush ochganlarga ularga zulm qilingani uchun (urushga) izn berildi". Islomda J. hukmi sharoitga qarab o'zgarib turadi. Dunyoda fitna bo'lmasligi uchun, Alloh dinning ustun bo'lishi uchun qilinadigan J. farzi kifoya hisoblanadi. Bunda dunyo bo'yicha Islomni tarqatish, Allohning dini yo'lidagi g'ovlarni yo'qotish uchun J. qilinadi. Kimki Islom da'vati yo'lga to'siq bo'lmasa, erki o'zi bilan - xohlagan diniga e'tiqod va amal qilishi mumkin. Agar dushmanlar biror musulmon yurtiga urush qilib, bostirib kirsalar, J. hamma musulmonlarga farzi ayn bo'ladi. J.ga ko'ra agarda musulmonlar yurtiga tashqaridan hujum bo'lmasa, balog'at yoshiga yetmaganlar, aqli norasolar, xizmatkorlar, ayollar, bemor-zaiflar, safar aslahalari

bo'lmagan kishilar, shaharning eng yaxshi faqihlari, ota-onasi J.ga qatnashishga rozilik bermaganlar va qarz bergan kishining ruhsatini olmagan qarzdor J.dan ozod qilingan. Urushayotgan tomonlarning o'zaro munosabatlariga nisbatan J.ga ko'ra raqib qarorgohida ayollar va balog'at yoshiga yetmaganlar musulmonlarga qarshi kurashmayotgan bo'lsa, ularni o'ldirish man etilgan. Katta yoshdagi erkaklar harbiy asirga aylantirilgan. Shu bilan birga hanafiylar bu qoidani harbiy ishga va avlod (zurriyot) qoldirishga noqobil bo'lgan kishilarga (keksalar, rohiblar va b.) tatbiq etmaganlar. Harbiy asirlarga nisbatan imom uch xil yo'l tutgan: qatl etish, tovon evaziga ozod qilish, qulga aylantirish. Agar u harbiy asirni qatl etishga hukm qilmoqchi bo'lsa, to bu qaror amalga oshmaguncha asirni qiynoqkd solish va jismonan mayib qilishga hech bir kimsaning haqqi bo'lmagan. Islomni qabul qilgan asirlarni o'ldirishga ruhsat etilmagan. Barcha mazhablarga binoan musulmonlar yashaydigan hududga olib o'tishni iloji bo'lmagan raqibning mol-mulki yo'q qilinishi lozim bo'lgan (biroq chorva-mol xususida yagona bir fikrga kelinmagan). Oxirgi paytlarda Yaqin va O'rta Sharkdagi ba'zi diniy ekstremistik guruhlar to'g'risida so'z yuritilganda ko'pincha J. so'zi ishlatilmoqda (mas., Misrdagi "Jihad", Livandagi "Islom jihodi" va h.k.). Aslida J. Alloh yo'lga, islom dinini yoyish maqsadiga butun kuch va imkoniyatlarni sarf qilish ma'nosini anglatib kelgan va ba'zida muayyan shartlar bo'lgandagina harbiy kuch ishlatishni ham taqozo etgan. Shu ma'noda J.ni "muqaddas urush" deb talqin qilish odat tusiga kirib qolgan. Turkiya, Kavkaz va Markaziy Osiyoda J. ko'proq "g'azavot" nomi bilan ma'lum bo'lgan. 9 - 10-a.lardan J. yanga mazmun bilan to'ldirildi: Alloh yo'lida o'zni takomillashtirish tushunchasi (ya'ni ma'naviy J.)ga 4 J. - qilich J.i, qalb J. i, qo'l J.i va til J.i haqidagi tasavvurlar qo'shildi. Milliy-ozodlik harakatlari davrida J. goyasidan mustamlakachilikka qarshi kurashda foydalanildi. Umuman, hoz. zamon musulmon nazariyotchilari J.ni islomni tinch yo'l bilan yoyish, uni tashqi tazyikdan himoya qilish uchun musulmonlarning kuch va g'ayratlarini safarbar etish vositasi deb ta'riflaydi. Mo'tadil islom (ahli sunna val jamoa) tarafdorlarining e'tiqodiga ko'ra, kuch ishlatish - "kichik J.", har bir mo'min-musulmonning o'z nafi bilan kurashi va ma'naviy barkamollik yo'lidagi sa'y-harakati esa, "buyuk J." hisoblanadi. Hoz. kunda xalqaro maydonda islom dini bilan niqoblangan terrorchilar J.dan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanmoqdalar.

JOBIR ibn ABDULLOH, to'liq ismi Jobir ibn Abdullo ibn Amr ibn Harom al-Xazrajy al-Ansoriy as-Sulamiy (? - 697) - sahoba. Otasi Abdullo ibn Amr va uning o'zi Rasululloh (sav)ning xizmatlarida bo'lgan. J.i.A. Rasululloh bilan birga 19 ta g'azotda ishtirok qilgan. Umrining oxirida Madinada, Masjidi Nabaviyda halqa tashkil kdlib dars bergan. "Sahih al-Buxoriy" va "Sahih Muslim" kitoblarida uning rivoyatida 1540 ta hadis keltirilgan.

JOIZ (arab. - ijozat berilgan, yo'l berilgan) - shariatdagi muboh tushunchasining sinonimi.

JOYNAMOZ - namoz o'qiladigan to'shama. J. ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil, deb tasavvur qilinadi. J. turli matodan tayyorlanadi. J.ning bosh tomoniga burchak (mehrob) shakli tikilgan bo'ladi. Katta-kichikligi har xil. Namoz o'qishda o'rni kelganda pokiza gilam yoki chopon, qiyiqcha kabilardan ham foydalanish mumkin. J. ustida namoz o'qish ilk islom davrida keng tarqalmagan, balki yerda,

bo'yrada ham namoz o'qilavergan. Hozirda J. keng ko'lamda qo'llanishidan qat'i nazar, zarurat taqozo qilgan paytlarda pok tuproq yoki o'tloq ustida ibodat qilish mumkinligi nazarda tutilishi lozim. J. tayyorlash - musulmon mamlakatlarda amaliy san'atning an'anaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. J.dan asosiy maqsad namoz o'qiladigan joy pokiza bo'lishini ta'minlashdan iborat.

JOLUT - Qur'ovda zikr etilgan shaxs. Tolut (Saul)ga dushman qo'shin boshlig'i. Qur'onda aytilishicha, Tolut J.ga qarshi oz sonli qo'shin bilan otlangan, biroq Alloh taoloning yordami bilan zafar qozongan. J. Dovud (as) tomonidan o'ldirilgan (2:249/250-251/252). Musulmon rivoyatida bu urush haqida ancha batafsil berilgan. J. to'g'risidagi rivoyatlar kelib chiqishi jihatidan turli (barbar, xananey, odiy, samudiylerden) bo'lsa-da, lekin u Falastinning tub aholisi vakili sanaladi. Musulmon rivoyati J. shaxsi atrofida isroilliklarning ko'shni xalqpar bilan kurashi haqidagi boshqa rivoyatlarni xam guruhlashtirgan.

JOME MASJID - Islom mamlakatlarida shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e'lon qilinadigan, haftalik juma, hayit namozlari jamoa bo'lib o'qiladigan maxsus bino. Shahar tashqarisida musallo, namozgoh. Juma masjid, guzar (mahalla) masjidlariga nisbatan uning tuzilishi salobatli. Urta Osiyoda J.m.ning umumiy tarhi murabba yoki to'g'ri to'rtburchaqli xonaqoh bo'lib, bir (old yoki yon) tomoni, ikki (jan. va sharqiy yoki shim. va sharqiy) yoki uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Xonaqoh tomi gumbazli yoki to'sinli. Ayvon va xonaqoh kattaligi to'sinlar soni va qatori bilan belgilangan, ba'zan xonaqoh 1, 2, 4 gumbazli, ayvonlar atrofi qator ustunli, burchakda azon aytishga mo'ljallangan mezana va hovli o'rtasida hovuz bo'lgan. Buxoroda birinchi J.m. 713 y. Qutayba ibn Muslim tomonidan ta'sis etilgan. J.m. uchun mahalliy majusiylar ibodatxonasi moslashtirilgan. 14-15-a.larda J.m. qurilishiga davrning mashhur me'mor va muhandislari safarbar qilingan.

JOMIY, Abdurahmon Nuriddin ibn Ahmad (1414-1492) - fors-tojik shoiri, mutafakkiri va mutasavvifi. Nishopur yaqinidagi Jom sh.da, ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Nizomiddin Ahmad shayx ul-islom mansabiga tayinlangach, oilasi bilan birga Hirotga ko'chib keladi. Bu yerda J. arab tili, ilohiyot, tasavvuf, adabiyot asoslarini o'rganadi. Tahsilni oxiriga yetkazish maqsadida Samarqandga borib, Ulug'bek madrasasida o'qiydi. Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari allomalarning ma'ruzalarini tinglaydi. Ulamo Fazlulloh Abullaysdan Qur'on, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha saboq oladi. Bahouddin Naqshband sulukiga mansub shayx Sa'diddin Koshg'ariyga murid bo'lib, hurmatini qozonadi va qiziga uylanadi. Hirotga qaytib, darvishona hayot kechiradi, o'z daromadi hisobiga bu yerda ikki madrasa va xonaqoh, Jomda bir masjid qurdiradi. J. Hirot naqshbandiylik tariqatining piri va murshidi bo'lgan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy J.ni o'zlariga pir va ustoz deb tanishgan. J. uchta devon tuzgan, "Haft avrang" ("Yetti taxt") dostonlar turkumini yarattan. Shuningdek, diniy-falsafiy mazmundagi asarlar ham J. ijodiyotida katta o'rin egallaydi. "Payg'ambarlikka dalillar", "Naqshband ta'limoti haqida risola", "Zikr shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola", "Xojalar tariqati haqida risola" va b. asarlarida islom dini, gasavvuf, falsafaning asosiy masalalari yuzasidan o'z fikrlarini bayon etadi. Jumladan, "Muqaddas dargohdan esuvchi

tso'stlik shabadalari" asari tasavvuf tarixini o'rganishda muhim manba sanaladi, unda 616 nafar mutasavvif hayoti va faoliyati to'g'risida muxtasar ma'lumotlar bor. Navoiy bu asarni J. vafotidan so'ng to'ldirishlar bilan turkiy gilga tarjima etgan.

J. asarlarida diniy-tasavvufiy mazmun, Allohni tanish va bilish bilan bog'liq haqiqat majoziy yo'lda ifodalangan. J. Allohni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etadi, uni go'zal mahbub qiyofasida tasvirlaydi. Alloh minglarcha ko'zguda, turli qiyofa va ko'rinishda namoyon bo'ladi. J. hayot, inson go'zalliga, tuyg'u va ehtiroslariga tasavvufiy ma'no beradi. "Ahrorlar uchun tuhfa" asarida tasavvufga oid atamalarni izohlaydi.

J.ning din, xususan tasavvuf, arab tiliga oid asarlari qayta-qayta nashr etilgan, keyingi davrlarda ham madrasalarda darslik va qo'llanma vazifasini o'tagan.

JOHIZ, al-Johiz Abu Usmon Amr ibn Bahr taxm. 767-868) - basralik arab mutafakkiri. Mu'taziliylar oqimi nazariyotchilaridan biri. "Al-johiziya" deb nom olgan ilohiyot maktabining asoschisi. J. yunon tabiat falsafasi g'oyalari ta'sirida moddaning abadiyligi va xususiyatlarining doimiy o'zgarib turishi haqidagi fikrlarni bayon qilgan. J. tirik va noorganik jismlar o'ziga xos tabiiy xususiyatlarga ega, deb hisoblaydi. J. insonning iroda erkinligini tabiiy intilish sifatida talqin etgan. Aql-idrok beradigan dalillarni islom akidalariga tatbiq etish tarafdori bo'lgan. Hayvonot olamiga bag'ishlangan 10 jildli "al-Hayavon" nomli, arab tili notiqligiga oid "al-Bayon vat-tabyin", baxil odamlar hayotidan olingan hajviy hikoyalar yozilgan "al-Buxalo" kabi asarlari hoz. kungacha yetib kelgan.

JOHILIYA (arab. bilimsizlik holati, jaholat) - arablar tarixining islomdan ilgarigi davriga berilgan nom. Aniqroq qilib aytganda, odamlar hayotida Iso (as) bilan Muhammad (sav) oralig'idagi payg'ambarsiz o'tgan davr tushuniladi. J. tushunchasi Qur'onning bir necha suralarida uchraydi ("Oli-Imron", 154; "Moida", 50; "Ahzob", 33; "Fath", 26). J. atamasining paydo bo'lishiga muayyan sabablar bor edi. Zero, islomdan oldingi arablarning ko'pchiligiga "jahil" tuyg'usi xos edi. Bu boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda bo'lishda o'z ifodasini topardi (qasos olish zarurati, go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish, o'zga qabila vakiliga dushman sifatida qarash va b.). Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo'ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o'sha davrni haqli ravishda J. deb atagan. Bundan tashqari, J. davri arablarining diniy tasavvurlari ham kam taraqqiy qilgan, sodda holda bo'lgan. J. arablari narigi dunyoga ishonmasdi. Islom g'alabasidan so'ng ular "dahriy"lar yoki "mushrik"lar (Allohgacha boshqa xudolarni sherik qiluvchilar) degan nomlarni oldi.

JUBBAIY, Abu Ali Muhammad ibn Abdulvahhob (850-915) - Basra mu'taziliylarining peshvosi al-Ash'ariyning o'gay otasi va murabbiysi. Jubba sh. (Xuziston)da tugalgan, Basrada Abu Yoqub ash-Shaxxomdan ta'lim olgan, uning vafotidan (880 y.) so'ng mu'taziliya maktabining peshvosi sifatida ustozlari o'rnini egallagan. J.ning asarlari saqlanib qolmagan. Umuman uning qarashlari mu'taziliylar an'anasi ruhida bo'lgan.

JUVAYNIY, Abul Ma'oliy Abdulmalik ibn Abdulloh, Imom al-Xaramayn (1028-85) - ash'ariy kalomining yetuk namoyondasi, G'azoliyning ustozlari. Nishopur yaqinidagi Azozvar qishloga (Juvayn tumani)da tug'ilgan. Nishopurda Abul Qosim al-Isfaroiniy (1059 y. v. e.) rahbarligida kalom va usul ud-dindand, otasidan esa - fiqhdan saboq

olgan. Otasi vafotidan so'ng 19 yoshli J. otasi o'rniga shofi'iy fiqhi mudarrisi vazifasini egallagan. Saljuqiylar vaziri al-Qunduriy tomonidan ash'ariylarga quvg'in uyushtirilgan chog'da J. Hijozga qochib borib, Makka va Madinada yashagan (1058-62), shu tufayli Imom al-Xaramayn ("ikki muqaddas masjid imomi") faxriy unvonini olgan. Vazir Nizomulmulk davrida ash'ariylarni quvg'in qilish to'xtatilgan. J. Nishopurga qaytgan, vazir unga atab Nizomiya madrasasini ta'sis etgan. Shu madrasada J. shofi'iy fiqhining eng yaxshi bilimdoni sifatida shuhrat qozongan va umrining oxirigacha shu yerda dars bergan. J.ning kalomga oid asosiy asari "ash-Shomil"dan bizgacha uning uchdan bir qismi yetib kelgan, uning qisqartirilgan nusxasi -"al-Irshod" deb ataladi. Umuman olganda J. Ash'ariy, Boqilloniyy va Abu Ishoq al-Isfaroiniy (1027 y. v. e.)larning g'oyalarini rivojlantirgan.

JUMA (arab. - jam bo'lish) - musulmonlar solnomasida oltinchi kun nomi. Islom dinida "sayyid ul-ayyom" - kunlarning ulug'i sifatida e'zozlanadi. J. kuni peshin namozi o'rniga J. namozi o'qiladi. Imom-xatiblar namoz oldidan yarim soat chamasida mav'iza (diniy va'z) o'qiydilar. So'ng ikki bor azon aytilib, katta jamoat bilan namoz ado etiladi. Musulmon mamlakatlarida J. kunini dam olish kuni deb belgilaganlar. Mufassir ulamolarning rivoyatlariga ko'ra, Alloh taolo yahudlarga shanba kunida boshqa ishlarga mashgul bo'lmay, faqat ibodat ila shug'ullanishni buyurgan. Nasorolar esa, yakshanba (voskresene) kunini faqat ibodat uchun belgilab olganlar. J. kunini islomdan oldin arablar "aruba" deb ataganlar. Birinchi bo'lib, bu kunni J. deb atagan kishi Ka'b ibn Luay. Buning sababi, Madinaga payg'ambar (as) kelishlaridan oldin, ansorlar (madinaliklar) "yahudlar va nasorolar 7 kunda bir bor to'planib ibodat qiladilar. Kelinglar, biz ham bir kun to'planib Allohga shukur va zikr aylaylik, yahudlar shanbani, nasorolar yakshanbani ixtiyor qilishgan, biz "aruba" kunini olaylik", deb aytishdi. As'ad ibn Zaroraning uyida to'planib, 2 rakaat namoz o'qib, zikr aytganlar. Shu kuni to'planganliklari sababli, J. deb ataganlar. Islomda birinchi J. shu kuni bo'lgan. Bu voqea "Jumua" surasi nozil bo'lmasdan oldin bo'lgan, Ammo haftada bir kun dam olish bo'lsa, bundan taxm. 150-170 y. ilgari, ko'pchilik kishilar ishlaydigan korxonalar paydo bo'lganda, soatbay ish kunlari joriy qilinganda, haftada bir kun dam olish kunini nasorolar - ruslar o'zlarining ibodat uchun ajratilgan kunini tiklashgan. Keyinchalik musulmonlar ham dam olish kunini J. deb belgilaganlar.

JUNAYD BAG'DODIY, Abul Qosim al Junayd ibn Muhammad al-Qavoririy al-Hazzoz al-Bag'dodiy (? - 910) - tasavvufdagi 2 asosiy oqimdan biri - junaydiya asoschisi. J. fors bo'lib, Bag'dodda (yoki Naxovand sh.) tug'ilgan va butun umri shu yerda o'tgan. Go'dakligida otadan yetim qolib, tog'asi, so'fiy Sari as-Saqatiy (867 y. v.e.) qo'lida tarbiyalangan. Shofi'iy huquqi va hadislarni mashhur faqih Abu Savra Ibrohim al-Bag'dodiy (854 y. v.e.)dan o'rgangan. Tasavvufda J.ning ustozlari Sari as-Saqatiy va al-Xoris al-Muhasibiy (taxm. 781-857) bo'lgan. Ular Bag'dod so'fiylik maktabi asoschilari hisoblanib, Allohning yagonaligi (tavhid) va psixologik tajriba va his etish asosida Uni bilish darajasi haqidagi ta'limotni ishlab chiqqanlar. J. so'fiylikni doimiy ruhiy poklanish va turli qarashlar kurashi vositasi deb bilgan. Uning fikricha, so'fiyning hayoti Allohning yagonaligani bilish yo'lvda tinimsiz sa'y-harakat qilish, o'zini Allohga abadiy tobe ekani va uning oldida o'zini naqadar ojiz ekanini his etishdan iborat. J.ning bir asari - "Rasoil" saqlanib qolgan. Unda J.ning maktublari, so'fiylikka doir maqola, risolalari jamlangan bo'lib, ularning bir qismi Qur'onning ayrim oyatlariga sharh shaklida yozilgan.

JUNUJIRDIY, Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad al-Junujirdiy al-Marvaziy; laqabi Abdon (835-906) - shofi'iylikdaga yirik faqih, muhaddis; Marv muftiysi va shofi'ylari peshvosi. Marv viloyatidagi Junujird (Genugird) qishlog'ida tug'ilgan. Sam'oniyni yozishicha, J. Iroq, Shom (Suriya), Xijoz va Misr shaharlari bo'ylab ko'p yillar sayohat qilgan va o'sha yerlardagi allomalardan shofi'iya fiqhidan saboq olgan. Xususan, u imom al-Mozijiyning shogirdi bo'lib, uning shofi'iylikdagi mu'tabar manba hisoblangan "al-Muxtasar" kitobini birinchi bo'lib Marvga keltirgan. Vataniga qaytgach, Xurosondagi eng yirik shofi'iylikdan sanalgan va keng shuhrat qozongan. 900 y. haj safari oldidan somoniylar amiri Ismoil ibn Ahmad qabulida katta ehtirom bilan kutib olingan. Sam'oniylar J.ning 20 ta ustozini va 12 shogirdini sanab o'tgan va fiqh va hadisga doir 3 asari borligini qayd etgan. Marvda, Tannurgaron qabristoni orqasida, Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy raboti qarshisida dafn etilgan. 12-a.da uning qabri ziyoratgoh joy bo'lgan.

JURJONIY, Ali ibn Muhammad, laqabi as-Sayid ash-Sharif (1339-1413) - so'nggi kalam vakili, mutakallim. Astrobod yaqinidagi Tagu sh.da tug'ilgan. Astrobodda ta'lim olgan, mudarrislik faoliyati bilan shug'ullangan, O'rta Sharq shaharlari bo'ylab ko'p sayohat qilib, Kugbiddin ar-Roziy at-Taxtaniy, al-Fanariy, Muborakshoxlardan saboq olgan. Taxm. 1374 y. Sheroz sh.ga kelgan, shahar Amir Temur tomonidan egallangach (1387), Samarqandga ko'chib ketib, bu yerda yashagan, 20 y.ga yaqin Temur saroyida ijod qilgan. Temur vafotidan so'ng (1405) Sherozga qaytib, shu yerda vafot etgan. J. "Mavokif al-Ijyiga sharh" va falsafiy atamalar lug'ati - "at-Ta'rifat" muallifi.

JU'AL ibn SUROQA, Ju'ayl, Ji'ol, Juffol, to'liq ismi Ju'al ibn Suroqa ad-Damriy al-Riforiy (7-a.) - ilk muhojirlardan. Faqir bo'lgani uchun Suffa ashobi orasidan joy olgan. Hazrati Payg'ambar (sav) Banu Musta'liq g'azvasiga ketayotganlarida Ju'alni Madinada o'rinlariga vakil qilib qoldirganlar. Zotur-Riqo g'azvasidan qaytayotganlarida esa, zafar mujdasini Madinaga yetkazish vazifasini unga topshirganlar. Ju'al bani Kurayza g'azvasida bir ko'zidan ayrilgan. Ju'al Janobi Rasululloh (sav)ga nihoyatda bog'lanib qolgan edi. Uning mustahkam imon egasi ekaniga Hazrati Payg'ambar shohidlik berganlar. Hunayn g'azotidan keyin o'ljalar taqsimoti chog'i Rasululloh Aqro' ibn Hobis bilan Uyayna ibn Xisnga 100 tadan tuya berib, Ju'alga hech narsa bermagan edilar. Sababini so'ragan bir sahobiyga, Aqro' bilan Uyaynani Islomga isintirish uchun ortiqcha o'lja berganlari, Ju'alning esa, imoniga tayanganlarini aytganlar. "Ju'al bulardaqasidan bir dunyo kimsalarga teng keladi", deganlar. Tabuk g'azvasida Hazrati Payg'ambar (sav) bir mo'jizalari ila qornini to'yg'izgan uch sahobiyning biri Ju'al edi.

JO'YBOR XOJALARI, J o' y b o r shayxlari- naqshbandiylik tariqatining vakillari. Ularning J.x. nomini olishi Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo'ybor degan yerga ko'chib kelishi bilan bog'likdir. J.x. o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodi deb hisoblaganlar. J.x.dan Abu Bakr Sa'dga va uning avlodlariga somoniylar davrida Buxoroning shayx ul-islomi degan mansab beriladi. Abu Bakr Sa'dning nevarasi Muhammad Islom J.x.ning iqtisodiy va siyosiy jihatdan katta nufuzga ega bo'lishida

muhim o`rin tutgan. U 16-a.ning 50-y.larida Shayboniylar davlatidagi toj-taxt uchun bo`lgan kurashlarga aralashib, o`z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam beradi. Bu davrga kelib J.x.ga Buxorodagi Sumiton qishlog`i in`om etiladi. J.x.ning ota-bobolari Buxorodagi Chor Bakr mozoriga qo`yilganligi uchun 16-a.dan boshlab J.x. bu joydagi qabrlar ustiga hashamatli maqbara kurib, ziyoratgohga aylantirishgan. Bu ziyoratgohdar katta vaqf yerlariga ega bo`lib, ularga J.x. merosxo`rlar tariqasida egalik qilishgan va bu yerlar J.x. xo`jaligining rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qilgan. J.x. katta yer-mulkka, yuzlab qullarga, ko`plab chorva mollarga, sug`orish inshootlariga, savdo korxonalariga ega bo`lganlar. Ularning savdo karvonlari 16-a.ning 2-yarmidayoq xorij bilan savdo aloqalari olib borgan. Mustahkam iqtisodiy poydevorga ega bo`lgan J.x. shayboniylar davlatining siyosiy hayotida juda katta rol o`ynagan. Ingliz sayyohi A. Jenkinson 1559 y.da Buxoroda bo`lib, bu yerdaga ruhoniylarning rahbarlari bo`lgan J.x. haqida shunday degan edi: "Buxoroda diniy rahbar bor. Unga qiroлга nisbatan ko`proq kuloq soladilar, u o`z xohishi bilan qirolni o`rnidan olib, boshqasini qo`ya oladi". J.x. 17-a.ning 1-yarmida mamlakatda paydo bo`lgan qiyin siyosiy vaziyatdan so`ng o`zlarining oldinga mavqeini yo`qotganlar.

- K -

KABIRA (arab. katta, yirik) - islomda eng katta va og'ir gunoh. Islomda gunoxlar katta - K. va kichik - sag'iraga bo'linadi. Ulamolalar qaysi gunohlar K. va qaysinisi sag'ira ekani xususida fikrlari turlicha. Gunohi K. - hadd jazosiga loyiq, ya'ni, shariatda jazosi belgilab qo'yilgan gunoh yoki do'zaxga kirishga, la'natga va g'azabga sazovor qiladigan gunoxlar K.. gunoxdardir. Sag'ira (kichik) gunoh esa: "Bu dunyoda haddga loyiq emas, u dunyoda do'zax, la'nat va g'azab ila qo'rqitilmagan gunoxlardir. K.ning eng birinchisi va Alloh tomonidan kechirilmaydigani - kufr (Allohni inkor etish) va shirk (Allohga biror narsani teng qilish)dir. K.ning turlari ko'p. Mas., ota-onani norozi qilish, bironing joniga nohaq qasd qilish, sehr-jodu bilan shug'ullanish, yolg'on guvohlik berish, tuhmat yoki bo'hton qilish, zinokorlik, o'g'rilik, sudxo'rlik, farz ibodatlarini bajarmaslik, harom qilingan narsalarni iste'mol etish va h.k. Shirk va kufrdan boshqa gunoxdar qiyomat kuni Alloh tomonidan kechirilishi yoki ular uchun ma'lum me'yorda jazo berilishi mumkin. Mo'min odam gunohi K. qilishi bilan kofir bo'lib qolmaydi. Agar o'sha ishni halol sanasa kofir bo'ladi. Yoki Alloh halol qilgan narsani harom qilsa, kofir bo'ladi. Shuningdek, gunohi K. tufayli ularni kofirga chiqarish ham to'g'ri yo'qdan chiqishdir. Ahli sunna va jamoa biror kishini gunohi K. qilgani uchun kofir qilmaydilar Murji'iyalar gunohi K. qilganni kofir qilmaydilar va imon bo'lsa, gunohi K. zarar qilmaydi, deb hisoblaydilar. Xorijiyalar esa gunohi K. qilganni kofir, deydilar Mu'taziliylar gunohi K. qilganni iymondan: chiqaradilar va kufrga kirgazmaydilar.

KAVSAR (arab. mo'l-ko'l) - islomga ko'ra jannatdagi ajib bir daryo yoki hovuzning nomi Qur'oni karimdagi 108-sura ham K. deb ataladi. Tafsir va hadislarda aytilishicha K.ning suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo'lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik ko'rmaydi. Shuningdek, qiyomat kuni jannat nasib etgan mo'min-musulmonlar mazkur K suvidan ichishlari to'g'risida bashorat beriladi. K. surasi Qur'on suralar ichida eng qisqasi bo'lib, 3 oyatdan iborat.

KAYSONIYLAR - 7-a.da shialar orasidan ajralib chiqqan firqa tarafdorlari Shialarning 3-imomi Husayn 680 y.da Karbals yaqinida halok bo'lgandan keyin, 4-imomnr e'tirof etishda ular orasida ixtilof yuz bergan: ularning bir qismi Husaynning o'g'li Ali (Zayn al-Obidin)ni imom deb tanisa boshqa guruhi Husayn o'g'illarining juda yoshligi va rahnamolikka qobil emasligini sabab qilib ko'rsatib, Alining Banu Hanifa qabilasidan o'lja sifatida olingan kanizagidan tug'ilgan, janglarda ishtirok etib tanilgan o'g'li Muhammad (637-700)ni 4-imom deb e'tirof qilgan. Barcha manbalarda onasi mansub bo'lgan qabila nomiga nisbat berilib u Muhammad ibn al-Hanafiya deb ataladi. Uning tarafdori bo'lgan shialar yaqin safdoshi Muxtor ibn Abu Ubayd rahbarligida 685 y.da Kufada qo'zgonon ko'tarib, umaviylarga zarba bergan, Husaynni o'ldirganlarning ko'pini jazolagan. Qo'lga tushirilgan Kufa xazinasidagi pullarni isyonchilarga taqsimlab bergan. Bu isyonda Abu Amr Kayson faol ishtirok etgan (firqaning nomi shundan). Keyinchalik ichki ixtiloflar natijasida isyonchilar yengilib, Muxtor halok bo'lgan (687). Muhammad ibn al-Hanafiya bevosita qo'zg'olonda ishtirok etmagan. K. Alini payg'ambar qizi Fotimaga uylangani uchun emas, o'ziga xos imomlik xislati uchun imom deb taniydi, shu sababli imomlik payg'ambar avlodiga o'tishi shart emas deb hisoblab, Alining ikki o'g'li (Hasan va Husayn)dan keyin imomlik 3-o'g'liga o'tishi kerak, degan g'oyaga asoslangan edi. K.

firqasi kamayib, keyinchalik (9-a. o'rtalarida) tamoman yo'qolib ketgan, shialarning ko'pchiligi tomonidan Ali Asqar 4-imom sifatida tanilgan.

KALIMAI SHAHODAT (arab. - guvohlik kalimasi) - islom dinidagi 5 asosiy arkonning birinchisi. Unga ko'ra "Allohdan o'zga iloh yo'q. Muhammad Uning rasulidir" -degan kalimani til bilan aytib, dil bilan tasdiq etish shart qilingan. Bu kalimani inson til bilan aytsa-yu, dili bilan tasdiqdamasa, ya'ni o'zi ishonmasa, unday kishi islomda munofik, hisoblanadi. Lekin, dilida ishonmasa-yu, tili bilan aytishdan bosh tortsa, u ham shar'an musulmon hisoblanmaydi. Demak, mo'minlikning 2 sharti bo'lib, ularning birinchisi - Muhammad (sav)ning Alloh tomonidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqrор etish, ikkinchisi - shu xabarlarni dil bilan tasdiq etishdir. Sunniy-hanafiy ta'limoti shundan iborat. Lekin ba'zi islomiy aqida va oqimlar bunga xilof ravishda imonning sharti 2 ta emas, 3 ta deb, ibodat va amallarni to'la bajarishni -imonning uchinchi sharti sanashadi. Bu bilan ular ko'pchilik musulmonlarni kofirlar safiga qo'shib qo'yishadi. Vaholanki, imon bilan kufr e'tiqodiy masalalar turiga, amaliy ibodatlar yoki gunoh va jinoyatlar alohida boshqa masalalar turiga oiddir. Imon bilan birga amal ham bo'lsa, nur ustiga nur. Amal qilmasa yoki gunoh ishlarni qilsa, (moturidiylik aqidasi qo'ra) kofir bo'lmaydi, balki gunoxdor bo'ladi.

KALOBODIY (yoxud al-Kaloboziy), Abu Bakr Muhammad ibn Ishaq al-Buxoriy (? - 990/995 y.) - hanafiy mazhabining mashhur faqih, tasavvufga doir arab tilida yozilgan eng dastlabki tartibli asarlardan birining muallifi. Buxorodagi Kalobod mahallasida tug'ilib, shu yerda yashagan va vafot etgan. Muhammad ibn Fadldan huquqdan ta'lim olgan va so'fiy shayx Qosim Forisning shogirdi bo'lgan. K. yozgan besh yoki olti asardan bizgacha ikkitasi yetib kelgan: Payg'ambar (as)ning axloqqa doir ba'zi hadislariga yozilgan qisqacha sharh - "Ma'oniyy al-axbor" va "at-Ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf" - islomning dastlabki uch asri davrida islom tasavvufini o'rganishda asosiy hisoblangan asarlardan biri. Kitob keyingi davr so'fiylari tomonidan yuqori baholangan, xususan, shayx Yahyo as-Suxravardiy al-Maqtul (1191 y. v.e.) bu hakda "Agar at-Ta'arruf bo'lmaganda edi, biz so'fiylikni (tasavvufni) bilmagan bo'lardik", degan. Bu bizgacha yetib kelgan so'fiylar qarashlari tizimi va tajribasi bayon etilgan birinchi asar bo'lib, unda tasavvufdagi g'oyalarni islomdaga u bilan tutashmagan qoidalar bilan kelishtirishga harakat qilinmagan, sufizm to'lig'icha musulmonchilik doirasidaligi va tizim sifatida u o'zining dindorligi bilan shubha tug'dirmasligini tushuntirishga harakat qilingan. Asar 75 bobdan iborat bo'lib, ularni uch qismga ajratish mumkin: 1-(1-4, 64-75-boblar) tarixiy: so'fiy va tasavvuf tushunchalarini belgilash, eng muhim shaxslar, ularning so'fiylikdagi jasoratlari haqidagi hikoyalar va afsonalar; 2-(5-30-boblar) apologetik (madh etuvchi): sufizm qarashlari tizimi, uning "chinislomiy"ligini isbotlash; 3-(31-63-boblar): sufizm amaliyoti, zohidlik yo'lining asosiy bosqichlari, darvishlar orasida qabul qilingan texnik atamalar. K. asariga ko'plab sharxdar yozilgan. Ayniqsa, uning zamondoshi va ehtimol shogirdi Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad al-Mustammiy (1042 y. v.e.) tomonidan fors tilida yozilgan "Nur al-muridin" kitobi mashhur bo'lgan. Bu sharh sufizm tarixi bo'yicha manba sifatida original asardan deyarli qolishmaydi. Uning nusxalaridan biri 1081 y. ko'chirilgan bo'lib, u bizgacha yetib kelgan fors qo'lyozmalari ichida ikkinchi eng qad. qo'lyozma hisoblanadi.

KALOM (arab. - ravon nutq, jumla, gap, soʻz) - islom ilohiyot ilmi. 8-a.da arab xalifaligida paydo boʻlgan. K. islom diniy taʼlimotini asoslashga harakat qiladi. K. tarafdorlari mutakallimlar deyiladi. K. turli diniy-siyosiy guruhlar (xorijiyalar, qadariylar, jabariylar, murjiʼiyalar va h.k.) paydo boʻlishi bilan bogʻliq bahslar jarayonida vujudga keldi va taraqqiy qildi. Ulamolar ilmi K.ning taʼrifida ham bir necha xil fikrlar aytganlar. Eng qad. taʼrif Abu Nasr Forobiyga tegashli boʻlib, u, "Kalom sinoati ila millatning asoschisi aytgan chegaralangan gap va ishlarga nusrat berilur va unga xilof qilgan barcha soʻzlarni behudaga chiqarilur", degan. Ilmi K. haqida Razoliy quyidagilarni aytadi; "U bir ilm boʻlib uning maqsadi ahli sunnaning aqidasi ahli bidʼatning tashvishidan muhofaza qilish va qoʻrikdashdir. Alloh taolo Oʻz bandalariga Oʻz paygʻambari tilida haq aqidani ilqo qildi. Unda ularning dini va dunyosining salohi bordir. Shuningdek, uning haqida Qurʼon va xabarlar nutq qildi. Soʻngra shaytonlar oʻz vasvasasi ila bidʼatchilarga sunnatga xilof ishlarni ilqo qildi. Ular oʻsha ishlarni gapirdilar va ahdi haqning aqidasi buzmoqchi boʻldilar. Bas, Alloh bir toifa mutakallimlarni paydo qildi va ularning himmatini tartibga solingan kalom ila sunnatning nusрати yoʻlida harakatga soldi. Shu orqali axli bidʼatning sunnatga xilof ravishda chiqargan aldamchiliklari fosh qilinadi. Ana shunday ilmi kalom paydo boʻldi". Ilmi K. paydo boʻlgan vaqtga kelib aqidaga oid masalalarga avvalgi vaqtlarga oʻxshab faqat Qurʼon va sunnatdan dalil keltirish bilan kifoyalanib boʻlmay qolgan edi. Qarshi taraf aqliy dalil ham keltirishni talab qilar edi. K.ga xos uslub va mavzular majmui birinchi bor al-Jaʼd ibn Dirham (742 y. qatl etilgan) ijodida uchraydi. U doimo aql-idrokka tayanish talabini ilgari surdi va faqat inson salohiyati ojizlik qilgan hollardagina Qurʼon oyatlarini ramziy-majoziy maʼnoda talqin qilish mumkin, deb hisobladi. Uning shogirdi Jahm ibn Safvon (745 y. qatl etilgan) ustozining gʻoyasini davom ettirdi. Jahmning qarashlari muʼtaziliylarga yaqin boʻlgani bois odatda bu ikki taʼlimotni bir-biridan farqlamaydilar. Muʼtaziliylarning K.i 9-a.ning 1-yarmida ravnaq topdi. Ammo, xalifa al-Mutavakkil (847-861) davrida quvgan ostiga olindi.

Maʼlum vaqtgacha sunniylikda muʼtaziliylarning falsafiy dalillariga qarshi kurashda gʻoyaviy kurol rolini oʻynashi mumkin boʻlgan aqidalar tizimi mavjud emas edi va faqat Qurʼon hamda hadislarga havola kilish bilan cheklanilardi. Aynan muʼtaziliylar oʻzlarining mantiqiy-falsafiy isbotlash uslublari bilan haqiqiy islom yoʻli shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatdi. Bunday tizim 10 a.ga kelib ishlab chiqildi va uni K.ni aqidaparastlar bilan murosaga keltirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan al-Ashʼariy (873-935) va al-Moturidiy (870-944) amalga oshirdilar. Natijada K.ning ashʼariy va moturidiylik maktabi vujudga keldi.

Mashhur musulmon ulamolari ilmi K. haqida oʻz zamonlari va bilimlariga qarab turlicha fikr biddirganlar. Imom Abu Hanifa ilmi K.da "al-Fiqhul Akbar" nomli kitob yozgan va "dindaga fiqh ilmdagi fiqhdan afzaldir. Chunki, dindagi fiqh asldir. Ilmdagi fiqh farʼdir. Asl farʼdan afzalligi maʼlumdir" degan. Imom Molik, Ahmad ibn Hanbal, Jaloliddin Suyutiy va Ibn Abdul Barriar ham bu ilm haqida salbiy fikrda boʻlganlar. Imom Abul Hasan al-Ashʼariy ilmi K.ni madh etib kitob yozgan. Imom Gʻazoliy oʻrtacha yoʻl tutgan va ilmi K.da yaxshi taraf ham salbiy taraf ham borligani taʼkidlab, u bilan faqat mutaxassis olimlar mashgʻul boʻlishi kerakligani uqtirgan. Bu fikrlarni tadqiq qilib oʻrgangan olimlar, ilmi K.ni, xususan, undagi adashuvlarni tanqid qilganlar. Uni madh qilganlar esa, foydali taraflarini eʼtiborga olganlar. Shuning uchun uning ijobiy taraflaridan koʻp narsani oʻrgansa boʻladi, deydilar.

Boqilloni (1013 y. v.e.), al-Juvayniy (1085 y. v.e.), ash-Shahristoniy (1153 y. v.e.) va ar-Roziy (1209 y. v.e.)lar ashʼariylik maktabining yirik namoyandalardir. Ashʼariylar zohiran oʻzlarini muʼtaziliylarga qarshi qoʻyib, hanbaliylar bilan murosaga qilishga intilgan

bo'lsalar-da, dunyoqarashi bo'yicha mutaziliylarning aql-idrokka asoslangan yo'lini davom ettirdi. K.ning ikkinchi yirik maktabi -moturidiylik ham mustaqil tarzda taraqqiy etdi. Ash'ariylar maktabi asosan shofi'iylik orasida tarqalgan bo'lsa, moturidiylik hanafiylik doiralarda ko'plab tarafdorlarga ega bo'ldi va xususan, Movarounnahr musulmonlarining asosiy aqidasiqa aylandi.

13-a.dan K. Ibn Sino asos solgan sharq falsafasi bilan yaqinlasha boshladi. Natijada, Ibn Xaldun ta'biri bilan aytganda, K. va falsafani bir biridan ajratish mushkul bo'lib qoldi. Bu hol Baydoviy (1286 y. v.e.), Isfahoniy (1349 y. v.e.), Ijiiy (1355 y. v.e.), Taftazoniy (1390 y. v.e.), Jurjoniy (1413 y. v.e.)lar ijodida o'z ifodasini topdi. Yangi va eng yangi davrlarda Jamoliddin Afg'oniy, Muhammad Abdu, Ahmad Amin, Hasan Hanafiy kabi musulmon islohotchilarining asarlarida K. va ayniqsa, mu'taziliylar g'oyalari mafkuraviy asos vazifasini bajarib keldi. Vaqt o'tishi bilan islom olamida faqat axli sunna va jamoaning ilmi K. bo'yicha ta'limotlari hukm suradigan bo'ldi. Falsafa va b. fikriy mazhablar chiqqanidan keyin ilmi K. istilohining o'zi ham iste'moldan chiqib ketdi.

KARBALO - Iroqdagi shahar, Karbalo muhofazasi (gubernatorligi)ning ma'muriy markazi, Furot daryosi vodiysida, Bag'doddan 85 km jan.-g'arbda. Shialikdagi musulmonlarning ziyoratgohi. Ali ibn Abu Tolibning o'g'li Husayn ibn Ali hokimiyat uchun kurashda 680 y.da K. yaqinidagi jangda halok bo'lgan, K.da dafn qilingan, keyinchalik bu yerda maqbara barpo etilgan va shialar uchun ziyoratgoh bo'lib qolgan. Imom Husayn maqbarasi bir necha marta buzib tashlangan, keyinchalik salobatli inshoot majmui qurilgan. K. har yili muharram oyida motam marosimi o'tkaziladigan markaz hisoblanadi.

KAROMAT (arab. - karomat, ikrom qilinish, yuqorilik, sharaf) - islom istilohiga ko'ra, aqlni lol qoldiradigan g'ayritabiiy hodisalar. Shu hodisalar payg'ambarlardan namoyon bo'lsa - mo'jiza, aziz-avliyolardan sodir bo'lsa - K. deyiladi. G'ayridin, kufr ahdidan sodir bo'lsa, seyr-jodu, ko'zbaxshilik (fokus) yoki istidroj (vaqtincha omadli bo'lish) deb ataladi. Mas., Muso payg'ambar qo'lidagi hassasini toshga urganda undan suv otilib chiqqani, kerak bo'lganda u ajdahoga aylanib, seyrgarlar yasagan ilonlarni yutib yuborgani mo'jizadir. Muhammad (sav)ga berilgan mo'jizalarning eng ulug'i - Qur'oni karim sanaladi. K.lar tasavvuf shayxlari, tariqat peshvolari, aziz-avliyolarning uzoq masofani oz muddatda bosib o'tishlari, suv ustida, havoda bemaolol yura olishlari, hojatlari zudlik bilan ravo bo'lishi va b. bilan izohlanadi. K. 2 xil bo'ladi: birinchisi -asliy; ikkinchisi - kasbiy. Asliy K. quyidagi oyatda ifodasini topgan: "Batahqiq, biz Bani Odamni mukarram qildik. Ularni kuruklik va dengazda ko'tardik. Ularni pok rizklar ila rizqlantirdik" (al-Isro surasi, 70-oyat). Ushbu K. mo'min bo'lsin, kofir bo'lsin, bashariyatning hamma a'zolari uchun umumiydir. Kasbiy K. quyidaga oyatda ifodasini topgan: "Albatta sizning Alloh huzurida mukarramrog'ingiz, taqvodorrog'ingizdir" (Hujurot surasi, 13-oyat). Bu K. taqvodor mo'minda hosil bo'ladi. Odatdan tashqari ishlarga K., deyishlik majoziydir. Chunki, Alloh taolo o'sha ishlarni taqvodor mo'minning ikromi uchun uning tomonidan sodir etadi. K.ning zohir bo'lishidagi hikmat: K. sodir bo'lganidan so'ng valiyning ishonchi yana ham ziyoda bo'lib, dunyodagi zuhdi-taqvosi kuchayib, havoyi nafs da'vosi yo'qolishidir.

KARROMIYLAR - ilohiyot oqimi. 9-13-a.larda Bag'dod xalifaliganing markaziy va sharqiy viloyatlarida tarqalgan. Asoschisi -Abu Abdulloh Muhammad ibn Karrom (806-869). Seyistonda tug'ilgan, Nishopur, Balx, Marv, Hirot kabi shaharlarda ta'lim olgan. 5 yil Makkada istiqomat qilgan. Ibn Karrom o'z yurtiga qaytayotib, Kudusda xonaqoh barpo qilgan. Seyiston va Xurosonda o'z ta'limotini targ'ib qilgani uchun zindonga tashlangan. Quddusda vafot etgan.

K. fikricha xudo - butun borliqning birlamchi asosi, u muayyan jismga ega. Xudo - barcha narsalarning yaratuvchisi, ammo inson o'z faoliyatining natijalariga ta'sir ko'rsata oladi. Mu'taziliylar kabi K. ham inson onga mustaqil ravishda, ya'ni vahiy yordamisiz, yaxshilik va yomonlikni farq qilishga qodir, deb uqtirdilar. Shuningdek, murji'iyalar singari K. biror insonni musulmon deb tan olish uchun u Allohni til bilan e'tirof etsa kifoya, amal bilan tasdiqlashi shart emas, deb hisoblaydi. Ya'ni "La iloha illallohu Muhammadun rasululloh" kalimasini aytgan har bir inson - musulmondur. Ibn Karromning "Kitob as-sirr" va "Azob al-qabr" nomli (bizgacha yetib kelmagan) asarlari va "xudo jismga ega" degan tushunchasi hukmron islom oqimi ulamolarning keskin tanqidi va ta'qibiga uchradi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng K. barham topdi.

KASB ("ega bo'lish", "o'zlashtirish") - diniy-axloqiy kontseptsiyani anglatuvchi atama. Uning tarafdorlari qadariylar va jabariylar ta'limotlariga nisbatan kelishuvchan mavqeni tutish maqsadida inson xatti-harakatini Alloh tomonidan "yaratilishi"ni, lekin inson tomonidan "o'zlashtirilishi"ni ta'kidlaganlar.

KAFAN - dafn oldidan marhumning jasadi o'raladigan oq mato. Islomiy aqidaga ko'ra, musulmon erkak uchun 3 bo'lak, ayol uchun 5 bo'lak mato ila K.lab dafn etish tiriklar zimmasidagi muqaddas burchlardan (farzi kifoya) hisoblanadi. Klashdan oldin albatta mayyit yuviladi. Shahidlar yuvilmaydi va K.lanmaydi, balki o'z kiyimlari bilan dafn etiladi. K.siz ko'mib yuborilganlar uchun marhumlar emas, balki unga sababchi kishilar javobgar sanaladi.

KAFORAT, kafforat- qilingan gunoh uchun evaz to'lash yoki gunoh kechirilishi uchun beriladigan mablag'. Mas., har bir musulmon ramazon oyida biron sabab bilan ro'za tutmagan bo'lsa, evaziga boshqa vaqt ro'za tutgan. K. tushunchasi shariat ahkomlarida muhim o'rinni egallab, unda yolg'on qasam ichish, biror shaxsga nohaq ozor yetkazish kabi holatlarda o'z gunohini yuvish uchun ma'lum mikdorda sadaqa qilish belgilangan. Mas., bir kishi biror ishni qilaman yoki biror ishni qilmayman deb Alloh nomi ila qasam ichgan bo'lsa, lekin qilaman deganini qilolmasa, qilmayman deganini qilib qo'ysa, shariatga ko'ra, u bir qudni ozod qilishi yoki kishini to'ygazishi yoki kiyintirishi lozim. Yuqorida aytilganlarning xech birini qilishga kodir bo'lmasa, 3 kun ro'za tutishi lozim. Shunda u. Allohning nomi ila ichgan qasaminish uddasidan chiqa olmaganligi gunohiga K. bergan bo'ladi.

KASHSHIY, Abu Muhammad Abdulhamid (Abd) ibn Humayd al-Kashshiy (? - 863) - yirik mufassir, muhaddis, faqih, adib. Kesh (Shahrisabz)da tug'ilgan. Fiqhshunoslikdagi maktab asoschisi, undan ta'lim olish uchun huzuriga ko'plab mamlakatlardan olimlar

kelishgan. Sam'oniylar K.ning 2 ustozlari va 14 shogirdi borligini qayd etib o'tgan. Fiqh, adabiyotshunoslik, Qur'on tafsiriga oid 7 asar yozgan.

KA'BA (arab. - kub, to'rt burchak) - islom dinining eng muqaddas ibodatxonasi.

Baytulloh (Allohning uyi) deb ham yuritiladi. Uni ziyorat qilish - haj va umraning asosin amallaridan biri.

K. Makkadagi eng katta Masjidi Haramning markazida joylashgan bo'lib, 10x12x15 (bal. 15 m va poydevori 12x10 m) o'lchamdagi bino. Odatda, K.ning usti qora mato (kisva) bilan qoplangan bo'ladi, unga Qur'onning Makka va hajga oid oyatlari zarhal bilan yozib qo'yilgan. K. devorining tashqi g'arbiy burchagida "Qora tosh" ("Hajar al-asvad") joylangan. Shim.-sharqiy devordagi eshik ham choyshab bilan qoplangan va yerdan chamasi 2 m baland o'rnatilgan. K.ning ichi tavof qilinganda devorga narvon qo'yiladi. Ichkarida uchta ustun bo'lib, shiftiga sirlangan ko'pdan-ko'p chIroq osilgan.

Devorning eshik bilan "Qora tosh" oralig'idagi qismi al-multazam deyiladi, uning yonida Allohga ayniqsa yoqadigan duolar o'qiladi. Shim.-g'arbiy devorning tomidan tilla suvi yugurtirilgan tarnov ko'rinib turadi, u al-mizob yoki mizob al-rahma deb ataladi. Shu tarnov bilan g'arbiy burchak oralig'i qibla hisoblanadi. Shim.-sharqiy devor yonidagi yarim doira shaklidagi devor (al-xatim) al-hijr (yoki hijr Ismoil)ni to'sib turadi, hojilar tavof vaqtida bu joyga kiritilmaydi; Ibrohim (as) zamonida bu joy K.ning bir qismi bo'lgan; bu yerga Ismoil (as) va uning onasi Hojar dafn etilgan, deb rivoyat qiladilar. Devor qarshisida maqom Ibrohim deb atalgan inshoot bo'lib, undagi toshda odam izlari ko'rinadi. Aytishlaricha, Ibrohim (as) K.ni qayta tiklayotganida shu tosh ustida turgan. "Qora tosh" yaqinida esa Zamzam bulog'i bor. Rivoyat qilishlaricha, Muhammad (sav) 25-30 yoshlarida bu yerdagi ta'mirlash ishlarida qatnashganlar.

Odamatoning uchinchi o'g'li Shis (as) tomonidan qurilgan, Ibrohim (as) tomonidan ta'mirlangan va Muhammad (sav) tomonidan kofirlardan tozalangan K. Yasrib (Madina)da qibla deb e'lon qilingach, uning ahamiyati juda oshib ketdi (o'shangacha Kuddusga qarab ibodat qilinar edi). K. islomning alohida din sifatida shakllanishida g'oyat katta vazifani bajardi.

Muhammad (sav) boshchiligidagi musulmonlar 629 y.da Makkaga kichik haj qilgan, 630 y.da esa, ular Makkani egallab, Maryam va Iso (as) tasviridan boshqa barcha sanam va tasvirlarni olib tashlaganlar, suvrat va yozuvlarni o'chirganlar. 630 y.da Abu Bakr (ra) boshchiligida birinchi haqiqiy musulmon haji ado etiladi. Muhammad (sav) 631 y.da haj amallariga boshchilik qiladilar. Xalifa Umar (ra) davrida K. yonidagi uylar buzib tashlandi va uning atrofida Masjidi al-Haram qurildi. 683 y.da K.ni Umaviylar qo'shinlari o'qqa tutdi. Keyin u qayta tiklanib, kengaytirildi (va uning yoniga al-hijr qo'shildi. 929 y.da Qarmatiylar Makkaga hujum qilib, "Qora tosh"ni olib ketdi. Oradan 20 y. o'tgandan keyin bu toshni qaytarib olishga muvaffaq bo'lindi. Asta-sekin K. tevaragida turli inshootlar, jumladan, asosiy musulmon mazhablarining minbarlari tiklandi. 20-a.ning 50-60-y.laridagi katta ta'mirlash vaqtida bu inshootlar olib tashlandi. K. butun dunyo musulmonlarining eng muhim markazi va birlik ramzi bo'lib keldi, hozir ham shunday bo'lib turibdi. Islom dinidagi barcha oqimlar uning muqaddasligi va alohida ahamiyatini tan oladilar. Har yili dunyoning barcha mamlakatlaridan musulmonlar haj ibodatini ado etish uchun bu yerga keladilar.

KISVA - Ka'ba devorlarini yopib turadigan choyshab. Paxta aralashgan sakkiz bo'lak qora shoyi matodan tikiladi. Devorning yuqori qismi uchdan bir bo'lagani yopib turuvchi K. parchasiga Qur'oni karimning: "Albatta odamlar ibodat qilishlari uchun qurilgan

birinchi uy - Makkadagi muborak va butun olamlar uchun hidoyat (mayog'i) bo'lgan Ka'badurki..." degan oyati (3:96) zarhal yozuvda bitilgan. Shuningdek, K.ga Qur'onning yana boshqa sura va oyatlari yoziladi. Ka'baga kiriladigan eshik maxsus zarhal bilan qogshangan bo'lib, unga ham Qur'on oyatlari bitilgan. Muhammad (sav) hayotliklarida K. Yamanda tayyorlanardi. Xalifa Umar zamoniga kelib K. Misrda to'qiladigan bo'ldi. Xalifa Ma'mun (813-833) davrida K. har yili uch marta yangilab turilgan. Xalifa Mutavakkil (847-861), esa har ikki oyda Ka'batullohga yangi K. yuborgan. Xalifa Umar boshlab bergan an'ana davom ettirilib, K. 1924 y.gacha Misrda tayyorlandi. Har yili yangi K. haj safariga chiqqan misrlik ziyoratchilar bilan birga Makkaga keltirilardi. Avvalgi K. devordan olinib, Ka'ba xazinabonlari va Makka sharifi ixtiyoriga topshirilardi. 1443-1452 y.lari Shohruh Mirzo Misr K.si bilan birga Movarounnahrda tayyorlangan maxsus ka'bapo'sh yopilib turishiga erishgan. 1925 y. qirol Abdul Aziz Makkada ixtisoslashgan fabrika ochib, unda qora rangli tabiiy shoyidan K. tiktirdi. Shundan boshlab Ka'ba K.si faqat Saudiya Arabistonida tayyorlanadi. Saudiya Arabistoni podshohi Fahd ibn Abdul Aziz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga tuhfa qilgan K. - Ka'bapo'sh parchasi hozir Imom Buxoriy yodgorlik majmuida masjid devoriga osib qo'yilgan.

KOMIL INSON - tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa yetishgan (yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh K.i.da o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek ko'rib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihati: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga qo'shadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favkulodda ahamiyati ana shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va maqsadidir. K.i. haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn al-Arabi tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan O'rta Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va b. tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekiston mustaqshshikka erishgach, K.i.ni voyaga yetkazish milliy istikdol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib qo'yildi. Prezident I.Karimov asarlarida K.i.ni voyaga yetkazish vazifalari atroflicha bayon etilgan.

KOTIB - yozayotgan kishi, qayta ko'chiruvchi, yozuvchi, mirza - amaldor. Dastlab K. - o'qimishli kishilar bo'lgan, ular Muhammad (sav)ning so'zlari, farmoyishlari va maktublarini yozib borganlar. Musulmon Davlatida boshqaruv tizimining murakkab va kengtarmoqli bo'g'imi rivojlanishi jarayonida turli mansab pog'onasidagi amaldorlar - devondagi mirzalardan tortib idora boshliqlarigacha K. deb atalgan. Oliy K.lar guruhi (K. as-sirr, K. al-insho, K. al-jayn) devonni tashkil etgan. Keyinchalik K. atamasini o'rta va quyi darajadagi (oliy darajadagilar uchun vazir nomi paydo bo'ldi va b.) amaldorlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan. K.lar uchun qo'llanmalar, ularni madh etuvchi va haqorat qiluvchi asarlar yaratildi. Ko'pgina shaxslar ularning avlodlariga ham o'tadigan al-K. unvoniga ega bo'lishgan. K.lar amaliy yozishmalar va bejamdor devon uslubining rivojlanishiga imkon tug'dirganlar va bu bilan musulmon olami xalqlarining adabiyotiga ta'sir ko'rsatganlar.

KOHIN - g'oyibdan xabar beruvchi, bashoratgo'y. Islomdan avvalgi Arabistonda vasvasa holatida Alloh yoki uning vakili -farishta yoki jin bilan muloqot qilgan odam

shunday deb atalgan. Qabila odamlari biron-bir ish kishidan oldin uning oqibati qanday bo'lishini K.dan so'rashgan. Qabiladoshlari Muhammad (sav)ni ham dastlab K. - folbin deb o'ylashgan. Qur'on oyatlarida (52:29; 69:42) ularning shubhalariga javoban Muhammad (sav) K. - folbin ham, majnun ham emasligi alohida ta'kidlangan. Umuman islom an'anasida K.lar kelajak haqda yolg'on so'zlovchilar sifatida talqin qilinadi. Ularga qarshi islom tarafidan qattiq kurashish tavsiya etiladi.

KUBRO, Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (laqablari: "Najmiddin" ("Dinning yulduzi"), "Kubro" ("Ulug'"), "Abduljannob" ("Dunyodan chetlanuvchi, parhez etuvchi"), "Valiytarosh" ("Valiylarni tarbiyalovchi")); 1145-1221) — shayx, so'fiylikning mashhur vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi. Xiva (Xorazm)da tug'ilgan. Yoshligidanoq hadis VA kalomni o'rganadi, ilm istab Misrga boradi U yerda shayx Ro'zbixon Vazzon al-Misriydan ta'lim oladi va uning qiziga uylanadi, Keyinchalik Tabriz, Hamadon, Dizfulga kelib ilohiyotdan saboq oladi. Misrga qaytgach. Ro'zbixon K. to'la komil inson bo'lib yetishdi deb hisobladi va unga o'z vataniga qaytishni maslahat beradi. K. Xorazmga kelgach, xonaqox kuradi va o'z diniy maktabini yaratadi. K.ning shogirdlari orasidan tasavvufning tanikli nazariyotchilari, so'fiylik bo'yicha mumtoz adabiyot vakillari yetishib chikdi. K. mg'ul bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo'lgan, Uning qabri xonaqohi bilan birga Ko'hna Urganchda. Bilishning K.ga xos tasavvufiy yo'li bo'yicha inson o'z mohiyati bilan kichik olamdir, u katta olam bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo, ilohiy sifatlarni yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday kamolotga erishish uchun ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. K. ana shu kamolotga erishish asoslarini ishlab chikdi. K. o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etgan. Ulardan asosiylari: "Favoix al-jamol va favotih al-jalol", "O'n usul", "Risolat al-Xoif al-hoim min lavm al-loim" va b. Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada chop etilgan. 'U Qur'onga so'fiylar nuqtai nazaridan sharh berishni oxirigacha yetkaza olmadi, bu ishni shogirdlari tugalladilar. Tasavvuf ta'limotining rivoji va keng tarqalishida katta omil bo'lgan. K. merosi respublikamizda mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi. 1995 y.da O'zbekistonda K. tavalludining 850 yilliga nishonlandi. "Najmiddin Kubro" (Toshkent, 1995), "Sharhi risolayi odobul zokirin" (Urganch, 1997) kitoblari nashr etildi.

KUBROVIYLIK — tasavvuf tariqati. 13-a. boshida Xorazmda Najmiddin Kubro asos solgan. K. tasavvufning O'rta Osiyodagi maktabi bo'lib, ma'naviy vorislik zanjirini Ma'ruf al-Karxiy (816 y. v. e.) orqali Abu Bakr yoki Ali ibn Abu Tolibga taqaydilar. K.da tariqat a'zolarining yagona tashkiliy tizimi bo'lmagan. Ularni ta'limotning ruhi va maqsadi birlashtirgan. Kubroning shogirdi Sayfiddin Boharziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Suktariy qishlog'ida tashkil etilgan xonaqoh N. Kubro nomi bilan atalgan. Bu yerda K. tariqati 18-a.ning oxirlarigacha keng tarqalgan edi. Uning a'zolari Kubro g'oyalarini Xitoyning g'arbiy chegaralarigacha yoydi. Keyinchalik K.ning bir qancha mustaqil shaxobchalari vujudga keldi. Bular -firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya oliya, ig'tishoshiya, zahabiya, nurbaxshiya. K. ta'limotiga ko'ra, har bir kishi kamolotga erishish uchun 10 asosga tayanmog'i kerak. 1. Tavba - o'z xohishi bilan Haq taologa qaytish; Xudoning amrisiz, kishining o'z ixtiyori bilan Xudoni sevishi, o'zining "men"idan kechishi. 2. Zuhd fi dunyo - barcha dunyoviy narsalardan tiyilish. 3. Tavakkal - barcha ishlarni qilishda Xudoning mehribonligi va qudratiga umid bog'lash. 4. Qanoat - hayot

kechirishda oz narsa bilan qanoatlanish, mo'tadillik, tuban mayllardan ozod bo'lish. 5. Uzlat - tanholikda bo'lish, ruhni mustahkamlash, his-tuyg'ularni jilovlash. Uzlatga ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi. 6. Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr) - Xudoning ismini yod qilib turish, butun qalbni U bilan to'ldirish. Shundagina pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razilliklar kishi ko'ngliga yo'l topa olmaydi. 7. Tavajjuh -butun vujud bilan Xudoga murojaat qilish, Unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligani his etmaslik. 8. Sabr - o'z ixtiyori bilan mashaqqatlar chekib bo'lsa ham, nafs doirasidan o'zini olib qochish. To'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozim. Shundagina dil kuduratlardan poklanadi, ruh nafs natijasida zanglab qolgan bo'lsa, jilo topadi. 9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) - qalb poklangani va tuban ehtirolardan xoliligini tuyib, xotirjam bo'linganini eslab xayolga cho'mish, Xaq taolo rahm-shafqatini kutib turish holati. 10. Rizo - so'fiy endi xudo uni sevib qolganligani, Alloh ko'nganligini sezadi, uning uchun ana shu muhimdir. Xudoga bo'lgan muhabbat so'fiyning shaxsiy his-tuyg'u sifatini yo'qotib, yangi ko'rinishda -Allohning istak-xohishi tarzida namoyon bo'ladi. Rizolik maqomi Haqqa yetishganlikni bildiradi. Hozir ham K. ko'rinishlarini uchratish mumkin.

KULINIY (yoki al-Kulayniy), Muhammad ibn Ya'qub Abu Ja'far (? - 941 y. may) - imomiylik muhaddisi va faqihi, imomiylik (ja'fariya) huquqini birinchi bor ishlab chiqqan alloma. Rey sh. yaqinidagi Kulin, yoxud Kulayn qishlog'ida tug'ilgan, bu yerda uning otasining mozori mashhur bo'lgan. Hayotining asosiy qismini Rey va Qumda o'tkazgan, bu shaharlar o'sha davrda shia ulamolari markazlari sanalgan. Umrining so'nggi yillarini Bag'dodning Bob al-Kufa r-nida o'tkazgan va o'sha yerda vafot etgan. Imomiylik an'anasi K.ni 'imomiylik tariqatini "yangilovchi" (mujaddid), iloqiyot va fiqh sohasida yirik olim sifatida biladi. Bunday yuksak bahoga u 20 yil umrini bagishlagan asosiy asari - "al-Kafi fi usul ad-din" tufayli erishgan. Bu shialik (imomiylik)dagi hadislar to'plami bo'lib, unda 16 mingga yaqin hadis bir tizimga solingan. Asar saqlangan bo'lib, bir necha bor nashr qilingan. U 30 kitobdan iborat bo'lib, har bir "kitob" ko'plab boblarga ajratilgan, ularda hadislar mavzuga qarab taqsimlangan. Mavzuga qarab taqsimlanmay qolgan hadislar har bir "kitob" so'nggida alohida bobga - "Bob an-navodir"ga birlashtirilgan. K. asari imomiylik mafkurasining g'oyaviy asoslarini ishlab chiqishda juda muhim rol o'ynagan. Shialikda u, "Sahih Buxoriy" sunniylikda o'ynagan roldan xam yuqoriroq mavqeiga ega bo'ldi, zero u shia imomiylik tomonidan turmushning barcha sohalari bo'yicha eng e'tiborli qo'llanma deb qaralgan. Manbalar "al-Kafi"dan tashqari al-K.ning yana besh asari nomini, jumladan "Kitob ar-radd ala-l-karamita" va "Kitob ar-rijal"ni qayd etishgan, bular saqlanmagan. Hoz. shia olamida, avvalo Eron va Iroqda "al-Kafi" va uning muallifining nufuzi baland; K.ning Bag'doddagi qabri hanuzgacha saqlanib, qadamjoga aylangan.

KULOH - qad. bosh kiyim. Qalin, dag'al (ko'pincha jun) matodan konussimon shaklda, ichiga paxta solib tikilgan. K.ni ko'pincha qalandarlar, shayxlar kiygan.

KURSAVIY Abu Nasr (1776, Kurs, Tatariston - 1812, Istanbul) - islomdagi islohotchilik harakati va tatar ma'rifatparvarligining asoschisi. Mahalliy madrasada saboq oldi. 19-a. boshida Buxoroga keladi va Niyozkuli at-Turkmaniy (naqshbandiya - mujaddadiya tariqatining mashhurshayxlaridan biri) ko'lida tahsil oldi. Buxoro madrasalaridagi o'quv

tizimini isloh qilish bo'yicha o'z dasturini ishlab chikdi. Aqoid va Kalom masalalarida Buxoro ulamolari bilan tortishib qoldi. Yirik ilohiyotchi olim Sa'daddin at-Taftazoniy (1390 y. v.e.) kitobiga yozgan sharhida K. o'z fikrini oshkora bayon qildi. 1808-09 y.da Buxoro amiri Haydar huzurida bo'lgan ulamolar majlisida o'z qarashlarini qat'iyat bilan himoya qilsa ham, u dahriylikda ayblandi va qisqa muddat tutqunlikda saqlandi. Buxorodagi mudarris ustozlarining talabi bilan ozodlikka chiqarildi. K. o'z yurti - Qozon yaqinidaga Yuqori Kurasa qishlog'iga qaytib, mahalliy madrasada mudarrislik qildi. U o'z qarashlarini mashhur "Al-Irshod lil-ibod" risolasida bayon qildi. Makkaga haj safari paytida Istanbulda vafot etdi va o'sha yerda dafn qilindi. K. g'oyalari hayotlik chog'ida unchalik shuhrat topmadi. 19-a. 2-yarmida Marjoniyning asarlari orqali K.ning islom ilohiyotchisi va ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqatuvchisi ekanligi tan olindi. Turkistonda uning qarashlarli keng tarqalgan va ko'plab tarafdorlari bo'lgan.

KURSIY (arab. - ikki qadam, o'rindiq, taxt, tayanch, kursi) - islom manbalarida Arshning ikkinchi nomi, yetti qavat osmondan tashqari alohida sakkizinchi osmon ham tushuniladi. Qur'oni karimning Baqara surasidagi 255-oyat "Oyat al-Kursiy" deb nomlangan. Unda "Allohning Kursiysi Yeru osmonlardan ham kenglik qiladi" - deyilgan. Uning tafsirida ba'zi olimlar Arshning keng va kattaligi Yeru osmonlarni o'z ichiga sig'dirgudek hajmda deb bilsa, ba'zilari Yeru osmonlar, ularning ichi va tashqarisidagi barcha narsalardan xabardor bo'lish Allohning ilmidir, deb hisoblaydi. Bu kabi bahslar Qur'oni karimdaga ayrim oyatlar mazmunini Muhammad (sav) hadislarida sharhlanmay qoldirilgani bois vujudga kelgan. Bunday holatda tafsir yozgan olimlar o'zlarining akd va fikrlari doirasida izoh berishlari tabiiydir.

KUTTOB (oromiychadan olingan arabcha so'z) - alifbo va Qur'on o'qitiladigan boshlang'ich maktab. O'rta asrlarda K. so'zi keng qo'llanilgan. endilikda esa Arabiston, Misr va Tunis bilan cheklangan. Boshlang'ich ("Qur'on o'qitiluvchi") maktab uchun boshqa nomlar (maktab, mekteb va b.) bo'lgan va hozir ham bor. Unga joy sifatida biron-bir jamoat binosining xonasi yoxud hovlisidan foydal anishgan.

"KUTUB us-SITTA" - sahixdigi darajasiga ko'ra eng mo'tabar sanalgan 6 hadis kitobi. Payg'ambarimiz(sav)ning hadislarini jamlashga ko'p ulamolar qo'l urishgan. Shu niyatda bir qancha hadis kitoblari yaratilgan. Lekin bu to'plamlarning barchasi ham birdek qiymat kasb etmagan. Keyingi davr olimlari bu kitoblardagi hadislarning sahihlik darajalarini o'rganishgan va 6 hadis to'plamini e'tiborga molik topishgan. Ular "K.us-s." nomi bilan mashhur. Mo'tabar to'plamlarning peshqadami so'zsiz Imom Buxoriynint "Al-jome' as-sahih" asaridir. 2-mo'tabar manba Imom Muslimnit "Sahih"idir. Imom Muslim to'plamni tuzishda Buxoriyga ergashgan, qiyos olgan. Zero, ular ustoz-shogird edilar. Doruqutniy bu 2 ulug' imomga "Odamlar uchun kuyosh va oy" deb ta'rif bergan. Ular yaratgan to'plamlar esa "Sahihayn" (Ikki sahih) ismi ila mashhurdir. Lekin, bu 2 asar sahih hadislarini to'la qamrab olmagan. Qolgan 4 imomning hadislarini quyidagilar: Abu Dovudnng "Sunan"i, Termiziynnt "Sahih"i, Yaasoshning "Sunani Kubro" asari va Ibn Mojaning "Sunan" hadislar to'plamidir. Bu bitiklarning sahihlik darajasi xuddi shu tartibda. "K. us-s."da payg'ambarimiz(sav)ning sahih hadislarini to'plangandir.

KUFR (arab.- satr, to'smoq; inkor etmoq) -imonsizlik; Islomni tan olmaslik yoki uning amallarini bajarmaslik. K.ga jiddiy gunohlar va jinoyatlar: shirk keltirish, namozdan voz kechish, sehergarlik, zinokorlik, o'z joniga qasd qilish, ichkilikbozlik, qimor o'ynash va b. kiradi. Shuningdek, olimni o'z obro'siga ishonib mo'min-musulmonlarni hak yo'ldan chalgatib boshqa yo'lga boshlashi ham K.ga kiradi. K.ga munosabat islomning dastlabki davridan boshlab turlicha bo'lgan. 7-a.ning 2-yarmida xorijiyalar ularga qo'shshshagan har bir musulmonni kofir, ya'ni dinga ishonmovchi, uni rad etuvchi deb hisoblashgan. 7-8-a. boshida murji'iyalar tarkibidan "mo'tadil" oqim ajrab chiqib, ularning fikricha K. sodir etgan kishi kofir bo'lmaydi va u musulmonlar safidan o'chirilmaydi, uning qilishi haqida faqat Qiyomat kuni Allohgana hukm chiqara oladi. K. turi uchta:

1. Haqiqiy K. Dilida ham, tilvda ham o'zining kofirligini iqror etish. Bunday odamlar haqiqiy kofirlardir.
2. Inodiy K. Allohning haqligini, Muhammad (sav)ning haqiqiy payg'ambar ekanligani bila turib, qaysarlik qilib va arzimagan sabablarni ko'rsatib imon keltirmaslik. Bunga mal'un shaytonning va Abu Tolib (Muhammad (sav)ning amakilari)ning Klari misol bo'la oladi. Zero, shayton Allohning zotu sifatini yaxshi bila turib, Uning farmonini bajarmadi. Odam (as)ga sajda qilmay tavqi la'nat va K.ga ega bo'ldi. Abu Tolib esa, asosan, o'z qo'lida o'sib voyaga yetgan Muhammad (sav)ning rostgo'yligi va haqiqiy payg'ambarligini yaxshi bilsa-da, tengqurlari, badavlat, nufuzli mushriklar oldida xijolat bo'lib qolmaslik uchun o'shalar imon keltirmaguncha men ham imon kalimasini aytmayman, deb olamdan o'tdi.
3. Hukmiy K. Ba'zan shariatga xilof ishlarni qilish yoki kufr so'zlarini bilib-bilmay gapirib qo'yish sababli K.ga hukm qilinuvchi holat. Mas., bir musulmon odam Qur'onni tepsa yoki shariatni masxara qilsa yoxud "namoz farz emas", "to'ng'iz go'shti harom mas" kabi rad so'zlarini aytsa, musulmonchilikning boshqa hamma ko'rsatmalarini bajarayotgan bo'lsa ham, u kofir deb hukm qilinadi. Xoh haqiqiy, xoh hukmiy kofir bo'lsin, umr bo'yi qilgan toat-ibodatlar bekor bo'ladi, nikohi buziladi. Shunday holatga tushib qolgan odamga yaxshi nasihat etib, tavba qilish va nikohini yangidan o'kdtib olish tavsiya etiladi. Hoz. vaqtda K. tushunchasidan mutaassib musulmon jamoalari (mas., "Ixvon al-muslimun"), shuningdek, siyosiy kurashda (Eron-Iroq mojarosi) keng foydalanilmoqda.

KO'XAKIY, Sulton Muhammad Hofiz Ko'hakiy (Ko'ykiy) Toshkandiy (1490, Toshkent viloyati, Parkent - 1572, Toshkent) - tarixchi, huquqshunos, Tarjimon, geograf, etnograf, matematik, faylasuf va mudarris. Ali Qushchining nabirasi, parkentlik ziyoli Mirzo Kamoliddinning o'g'li. Arab va fors tillarini, adabiyotni mukammal bilgan. Bir qancha mamlakatlarga, chunonchi Misr, Iroq, Suriya, Yaman, Saudiya Arabistoni, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkiston (Qashqar, Xo'tan, Yorkent, Turfon, Rulja)ga sayohat qilgan. Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa) ning yozishicha, u 1528 y. Bobur huzuriga elchi bo'lib borgan, 1569 y. esa Boburning nabirasi Akbar uni qabul qilib, bobosini ko'rish sharafiga muyassar bo'lgan tabarruk kishi sifatida ko'p e'zozlagan. K. Toshkentning Sag'bon ko'chasidagi o'z hovlisiga kurdirgan madrasada mudarrislik qilish bilan birga o'ndan ortiq asarlar yozgan, chunonchi "Risola fiy fann at-tafsir val-usul val-furu' val-mantiq val-kalom" ("Tafsir, usul, furu', mantiq va kalom ilmlari xususida risola"), "Tarixi oli Chingaz" ("Chingazxon xonadoni tarixi"), "Sharhu odob al-munozara" ("Munozara odobi kitobiga sharh"), "Favoid ziyoiyya" ("Munavvar foidalar") shular jumlasidandir. Shuningdek, u tarixchi Muhammad ibn In'om (10-a.) ning 2 jildli "Tarixi Turkiston" asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, uning

qabri Qaffol Shoshiy maqbarasiga kiraverishda, o'ng tomonda. Hozir K. kurdirgan madrasa ta'mirlangan bo'lib, u joylashgan mavze Hofiz Ko'ykiy mahallasi deb ataladi.

- L -

LAVHUL MAHFUZ (arab. - muhofaza qilingan lavh) - Alloh insoniyatning taqdirini yozgan ulkan kitob; diniy manbalarga ko'ra, oq durdan yasalgan, uzunligi yer bilan osmon oraliq'icha, eni Mashriq bilan Mag'rib oraliq'icha, ikki sahifadan iborat. Uning yonida yozuv qalami bo'lib, uning ham kattaligi Lavhga mos keladigan shaklda. U bir ulkan farishtaning ko'kragiga o'rnatilgan bo'lib, ustki qismi Arshi a'loga bog'lab qo'yilgan. Alloh taolo hamma narsadan oldin mazkur Lavh bilan Qalamni yaratib, to qiyomatgacha yaratadigan narsalarini va bo'lajak ishlarni, ilohiy kitoblarni, takdir va qazoni ham Lavhga bitib qo'ygan. "Ra'd" surasining 39-oyatiga ko'ra, Alloh taolo undagi yozuvlardan xohlaganicha o'chirib, xohlaganicha o'zgartirishlar kiritib turadi. L.M. to'grisida Qur'oni karimning Buruj surasi 22-oyatida, Zuxruf surasi 4-oyatida ("Ummul Kitob" nomi bilan), Yosin surasi 12-oyatida (Imom nomi bilan) ham kelgan. Rasululloh (sav): "Albatta, Alloh lavhul mahfuzni oq durdan yaratgandir. Uning sahifalari yoqutdandir. Qizildir. Qalami nurdir. Kitobi nurdir. Unda har kuni Alloh uchun 360 lahza bor. Uning kengliga osmon bilan yerning orasicha. Har kuni unga 360 marta nazar soladi. Xalq qiladi. Rizq beradi. O'ldiradi. Tiriltiradi. Aziz qiladi. Xor qiladi. Xohlagan narsasini qiladi" -deganlar. (Tabaroniy "Mu'jamul kabir"da rivoyat qilgan). Qur'oni karim Alloh taolo huzuridaga L.Mda saqlangan. Bu esa, uni Alloh taolo naqadar zo'r qadrlaganini ko'rsatadi. Alloh taolo yetadigan har bir musibat -kasallik, ochlik, kambag'allik, o'lim va b., ular yuzaga chiqishidan avval ham L.M.da, Allohning ilmiga sobit bo'lishini ta'kiddagan.

LAYLATUL-QADR (arab. - qadr kechasi) -islom aqidasi ko'ra, ramazon oyining 26-dan 27-ga o'tar kechasi. Bu kechani ulug'lanishi Qur'oni karimning shu kechada nozil etila boshlagani, bu kechada qilingan ibodat ming oylik ibodatdan afzal ekani to'grisida Qur'onda bashorat berilgani bilan izoxlanadi. Unda aytilishicha, bu kechada osmon farishtalari Jabroil hamrohligida Yerga tushib, tong paytigacha bir yillik bo'ladigan ishlar rejasini tuzadilar. Ular tuni bilan yana musulmonlar uchun istig'for aytib, gunohlarini kechirishini so'rab, Allohga iltijo qilar ekanlar.

al-LOT - qad. Arabistonning butun hududi (Nabateya, Palmira, Xiro, Yaman)da islomdan avvalga davrda topiniladigan ayol - sanam, ayniqsa, Hijozda mashhur bo'lgan, Vajj vohasidagi Toif yaqinida al-L. sanamining ramzi - oq tosh joylashgan. Mana shu tosh va uning yonidagi sajdagoh ziyoratgoh hisoblangan, vodiy muqaddas joy sanalgan. Al-L. Toifda yashovchi saqif qabilasining bosh ma'budasi hisoblangan, lekin, unga Makkadagi qurayshiyalar ham uchta ma'buda (al-Lot, al-Uzza, Manat) qatori topinishgan. Al-L. sanami Makkadagi sajdagohda turgan. 631-632 y.larda saqifiylar islomni qabul qilishgandan so'ng al-L. sajdagohi buzib tashlangan, sanamning bezaklari va xazinasi sahobalarning qarzlarni to'lashga sarflangan.

LOHUT va NASUT - "inson tabiati" (nasut)ga qarama-qarshi qo'yiladigan "ilohiylik, ilohiy tabiat". Har ikki atama Qur'onda uchramaydi. Islomga ular ehtimol suryoniy xristianlar orqali kirib kelgan. Musulmon ilohiyotida L. va N.ning o'zaro nisbati masalasi, ularning bir shaxsda uyg'unlashuvi mumkinligini da'vo qilgan so'fiylik ta'limoti vujudga kelishi munosabati bilan ko'ndalang bo'lgan. 8-9-a.larda bunday ta'limotni "ashaddiy" shialar va ba'zi so'fiylar, jumladan al-Bistomiy va al-Halloj rivojlantirganlar. L. va N.

istilohini ham amalda al-Halloj iste'molga kiritgan. Al-Halloj ta'limotiga ko'ra, L. va N.ning birlashuvi inson bilan xudo o'rtasidagi o'zaro sevgi jarayonida amalga oshiriladi.

LUT (as) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. Harron sh. (Mesopotamiya) da tavallud topib, Ibrohim (as) bilan birga Falastinga borgan. Sadum, Amura va uning atroflaridagi yerlarda chorvachilik bilan shugullangan. Payg'ambarlik darajasiga yetishgach, odamlarga pand-nasihatlarni qilgan, Allohning birligiga imon keltirishga chaqirgan. Biroq, axloqi buzuvchi Sadum aholisi bachchavozlik odatini tark etmay, L.(as)ning o'zini bu yurtdan haydab chiqarmoqchi bo'ladi. Farishtalar unga oilasi va imonli kishilar bilan birga (xotinidan tashqari, chunki xotini Allohning qahriga uchragan edi) shahardan chiqib ketishni buyurganligi rivoyat qilinadi. Qur'onning "Hijr" surasi, 61-65-oyatlari va 74-oyatida bayon qilingan. L. (as) ma'lum masofaga yetib olgach, shahar ostin-ustun qilib yuborilgani, qavm ustiga sopol tosh yog'dirshtgani bayon etilgan. Hozir bu dinsiz qavm yashagan shahar o'rnida dengiz mavjud bo'lib, u "O'lik dengaz" va "Lut oroli" deb nomlanadi.

LUTFULLOH, Chustiy bin Fathulloh (taxm. 1485, Fargona vodiysi, Axsikent mavzesi - taxm. 1571) - natsshbandiylik tariqatining mashhur namoyandasi. Axsikentdagi madrasada tahsil oladi. Ilmini takomillashtirish maqsadida Samarqandga keladi. Ba'zi manbalarda Xoja Ahrorning xalifasi Muhammad Qozi huzurida 6 yil tarbiyalangani va sulukni o'taganligiga aytiladi. L.ga Mahdumi A'zamning istagi bilan "Farg'ona va Toshkentdagi barcha naqshbandiylik birodarlari" ishonib topshirilgan. L. bir necha marta yashash joyini o'zgartirgan. O'zining aytishicha, "qishloq ahlining fitnasi oqibatida" ko'chishga majbur bo'lgan. Oxiri Chustga kelib, muqim bo'lib qoladi. Bu yerda dehqonchilik bilan tirikchilik o'tkazadi. U shayboniylar orasida nufuz orttirishga muvaffaq bo'ladi. Shu bois o'sha davrda davlatdagi ko'pgana ichki nizolarni bartaraf etishga, saroydagi ayrim bek va amirlarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini cheklab qo'yishga erishdi. Movarounnahrda kubroviylik tariqati yoyilgan bo'lib, L. uning vakillarini ko'p marta rofiziylar (islom yo'lidan chetga chiqish)da aybladi. L.ning izdoshlari ko'p edi. Ular Toshkent, Farg'onadan tashqari Hisor hamda Movarounnahrning boshqa chekka viloyatlarida 20-a.ning boshlariga qadar faoliyat ko'rsatgan. L.ning ijodiy merosi haqida ma'lumotlar kam. Manobalarda uning o'z o'quvchilariga tanbih tarzida yozilgan 2 ta kichik risolasi tilga olinadi. L.ning qabri qaerdaligi aniq emas. Ba'zi manbalarda u Chustga (bu yerda uning maqbarasi bor), boshqa manbalarda Hisorga dafn etilgan deyiladi.

LUQMON (as) - Qur'onda tilga olingan donishmand (31-"Luqmon" surasi). L. (as)ning payg'ambar ekani haqida rivoyat mavjud. Nakd qilishlaricha, L. (as) ming yil umr ko'rgan bo'lib, Alloh u zotga narsa va voqea-hodisalarning mohiyat-haqiqatiga bexato yetish va eng to'g'ri hukm chiqara olish ne'matini, ya'ni hikmatni ato etgan ekan. Qur'onda L. (as)ning o'g'liga qilgan pand-nasihatlari (Allohga shirk keltirmaslik, yaxshi amallar qilish, namoz o'qish, sabr-toqatli bo'lish, kibr-havoli, maqtanchoq bo'lmaslik kabilar) keltiriladi. L. (as) haqida rivoyatlar ko'p. Shulardan biriga ko'ra, L. (as) Od qavmidan bo'lib, uni L. (as) ibn Od deb atashgan. Rivoyatlarda aytilishicha, Arabistonda yashagan ana shu xalq Allohning g'azabiga uchrab kurg'oqchilikka duchor bo'ladi. Xalq bu ofatdan qutulish maqsadida o'z vakillarini Makkaga yomgar so'rab, duo qilish uchun

yuboradi. Ularga L. (as) boshliq bo'ladi, lekin u Allohdan o'ziga uzoq umr so'raydi. Alloh L. (as)ga yettita burgut umriga teng keladigan umr ato etadi. O'rta Osiyo xalqlari orasida L. (as) buyuk hakim, dono, bilimdon inson timsoli sifatida mashhur bo'lgan.

- M -

MAVLAVIYLAR, mavlaviya- so'fiylik tariqati. Taxm. 1240 y.da Jaloliddin Rumiylar Ko'niya sh.(Kichik Osiyo)da asos solgan. Rumiyni ko'pincha "mavlon" ("janob") deb atashgan. Shundan tariqat nomi olingan. Tariqat faoliyati Eron, so'ngra Turkiya hududi bilan cheklangan. M. tariqatiga avval shahar aholisining o'rta va quyi qatlamlari, keyinroq xos tabaqalari kirgan. M. o'z mavlaviyaxon va takyalariga ega bo'lib, bu yerda zikru samo' qilishgan. Boshqa tariqatlardan farqli o'laroq, M. jamoa bo'lib, musiqa tinglash, kuylash va gar aylanib zikr tushish marosimiga alohida e'tibor berishgan. M. fikricha, mutlaq ruh - Ilohning inson qalbidagi zarrasi musiqa ta'sirida, zikr tushish paytida tiniklashib, poklanadi, ya'ni o'z o'zagaga yaqinlashadi, Allohga o'z muhabbatini to'laroq ifodalashiga yordam beradi. M. "gardi darvishlar" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. M.ning birinchi rasmiy boshlig'i shayx va xalifa unvonini olgan Hisomiddin Hasan Chalabiy (taxm. 1264 y.v.e.) edi. Rumiyning o'g'li, Sulton Valad (1226-1312)ni uning vorisi, tariqatning amaldagi tashkilotchisi, deb hisoblash mumkin. Sulton Valaddan boshlab M. rahbarlik lavozimi - asosan katta o'shi Ulug' Orif Chalabiy (1272-1320) orqali -vorislik lavozimiga aylangan. M. ilk Usmonli turk sultonlari davrida (14-a.) Kichik Osiyo bo'ylab tarqalib, juda mashhur bo'lib ketgan. M. tariqati Turkiyada to 1925 y.ga qadar faoliyat ko'rsatgan va shu yili Kamol Otaturk dekreti bilan tarqatib yuborilib, barcha yerlari, ko'chmas mulki va bankdagi mablag'i musodara qilingan.

MAVLO (ko'plikda - mavoli) - 1) rahnamo, homiy, janob (Qur'onda Alloh haqida: 3:150/143; 8:40/41 va b., odatda mavlon - "bizning janob", "xojamiz" shaklida); 2) homiylikdagi shaxs, ko'pincha ozod etilgandan so'ng xojasi yoki uning merosxo'rlariga ma'lum darajada qaramlik rishtalarini saqlab qolgan qul; uning zimmasiga sobiq xojalariga yordamlashish yoki ularni himoya qilishdek ma'naviy majburiyat yuklatilgan, u uylanmoqchi bo'lsa, ularning roziligini olishi lozim bo'lgan, bevosita merosxo'rlari bo'lmagan takdirida uning mol-mulki xo'jayiniga o'tgan. Islom futuhotlaridan so'ng tobe etilgan viloyatlarning arab bo'lmagan aholisi M. deb atala boshlandi, bu aholi go'yo arablar himoyasi ostiga olingan deb hisoblana boshlandi. Umaviylar davrida arab bo'lmagan mavolilar salmoqli ijtimoiy tabaqani tashkil etib, ko'pgina ommaviy harakatlarda, xususan, abbosiylar davridagi harakatlarda katta rol o'ynaganlar. Shu davrda qaramlikning ikki asosiy shakli ko'zga tashlanadi: shaxsly (homiy-xo'jayindan) va guruhly (qachonki M. to'la huquqli bo'lmagan a'zo sifatida qabilaga qo'shilsa), bu shakl haligacha o'rganilmagan. Xuroson qo'shinida 7 ming kishidan tashkil topgan Mlarning maxsus otryadi mavjud bo'lgani alohida holat bo'lib, ular maosh va yegulik olmasalar-da, arablar bilan bir qatorda harbiy harakatlarda ishtirok etishgan, shu bilan bir qatorda boshqa M.lar o'zlarining homiylari bilan birga jang qilganlar. Umar II davrida ularning huquqlarini boshqa jangchilar bilan tenglashtirishga urinib ko'rilgan. Abbosiylar davlat to'ntarishidan keyin, barcha musulmonlar - arablar va arab bo'lmaganlar teng huquqqa ega bo'ldilar. Shundan so'ng guruhly qaramlik yo'q bo'lgan bo'lsa kerak va M. alohida ijtimoiy guruh sifatida ahamiyatini yo'qotadi. M. arab va xalifalik hududidagi mahalliy madaniyatlar bilan uyg'unlashuvi asosida o'rta asr musulmon madaniyatini shakllanishida katta rol o'ynadilar. Musulmon ilohiyoti va huquqining ko'pgina namoyondalari M.lardan chiqqan (Abu Hanifa, an-Naxa'iy va b.). 10-13-a.larda ayrim hokimlar unvonida uchraydigan mavlo amir al-mo'minin yoki falonchining M.si kabi iboralar ko'p hollarda faqat tobelikni izhor etishni anglatgan.

MAVLONO (arab. - bizning janob) - O'rta Osiyo, Afg'oniston va Pokistonda eng yuqori lavozimdagi amaldorlar, yozuvchi, olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z. M so'zi hurmat ma'nosida shaxs nomlaridan avval aytilgan (mas., Mavlono Alisher Navoiy, Mavlono Jomiy, Mavlono Muqimiy va b.). O'rta Osiyoda o'rta asrlarda qo'llanilgan.

MAVLUD, mavludan-nabiy (arab. -tug'ilish, payg'ambarning tug'ilgan kuni) -Muhammad payg'ambar(sav)ning tug'ilgan kunlari, bayram. M. Rabi al-avval oyining 12-kuni nishonlanadi. Musulmon mamlakatlarida M. kuni duolar, payg'ambar(sav) sha'niga madhiyalardan iborat she'rlar o'qiladi, sadaqalar beriladi, ruhoniylarning yig'ilishlari o'tkaziladi. Ko'pgina arab mamlakatlarida, shuningdek, bizning diyorumizda ham M. kuni va oyida Imom Barzanjiy qalamiga mansub arab tilida yozilgan "Mavludun-nabiy" qasidasini o'qish uchun masjid va xonadonlarda maxsus marosimlar o'tkaziladi.

MADINA (arab. - shahar, to'liq arab. nomi -Madinat Rasululloh yoki Madinat an-nabiy - payg'ambar shahri) - Saudiya Arabistonining shim.-g'arbiy qismidagi shahar. Hijoz viloyatida. Xalq uni M.i munavvara -Nurafshon shahar deb e'zozlaydi. Makkadan 400 km shimolda joylashgan. M.ga asos solingan vaqt noma'lum. Qad. Yasrib (Yatrib) ilk o'rta asrlardan boshlab M. deb atalgan. 622 y. Muhammad (sav) Makkadan M.ga ko'chib o'tganlar (q. Hijra) va qolgan umrlari shu yerda kechgan. Harbiy harakatlarga rahbarlik qilish, Makka ziyoratiga borish uchungina shaharni tark etganlar. M.da musulmonlar jamoasi (umma) tuzilib, islom mustaqil din sifatida shakllandi; 7-a.dan boshlab M. musulmonlarning Makkadan keyingi eng katta ziyoratgohi hisoblanadi. M. 632-656 y.larda Arab xalifaligining poytaxti bo'lgan. Umaviylar va abbosiylar davrida Hijozning ma'muriy markaziga aylangan. 10-a.dan boshlab esa, Misrga tobe bo'lgan. 1517 y.da turklar Misrni bosib olgach, M. Usmonli turk saltanatiga, 1919 y.da esa, Hijoz qirolligiga qo'shib olingan. Oradan 5 yil o'tgach, M.ni Ibn Saud qo'shinlari zabt etdi. 1932 y. bu shahar Saudiya Arabistoniga qo'shib olingan. M. atrofi ilgari mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, sakkizta darvozasi bor edi. Hozir ular buzilib ketgan. Hojilarga hajdan so'ng M.i munavvaraga borib, Muhammad(sav)ning qabrlarini ziyorat qilish rasm bo'lgan. M. markazida Rasulullohning uylari (Harami sharif) va maqbaralari bor, Maqbara ustiga katta masjid kurilgan (656). Shahar aholisi, asosan, savdo, ziyoratchilarga xizmat qilish, ibodat qilish uchun zarur buyumlar (tasbeh, joynamoz, ziyoratchilar uchun maxsus kiyimlar) i.ch. bilan mashg'ul. Aholining bir qismi xurmo va sabzavot yetishtiradi. Bugunga M. ham ko'hna, ham navqiron shahar. Saudiya Arabistonining deyarli barcha qatnov yo'llari M. shahri bilan bog'liq. Shahar eng zamonaviy aloqa vositalari bilan jihozlangan. 1961 y. Islom universiteti ochildi. Shaharning tub aholisi 0,5 mln. kishidan iborat. Shaharda aerodrom bor. M. shahriga haj mavsumida jahonning turli mamlakatlaridan millionlab musulmon ziyoratchilari qadam ranjida qilishadi.

MADOINIY Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Abu Sayf (9-a.ning 1-yarmi) - tarixchi va adib. Basrada ta'lim olgan. Birmuncha vaqt Madoin (Mesopotamiya)da turgan (M. nisbasi ham shundan), Bag'dodda yashagan. Ibn an-Nadim "Fehrist" ("Mundarija") nomli asarida M. to'g'risida eslatib o'tgan. M. islom, xalifalik tarixi, bosqinchilik urushlari, qo'zg'olonlar hamda o'lka va shaharlar, tarixi, Muhammad (sav)

tarjimai hollari, adib va shoirlar haqida 239 ta asar yozgan. M. asarlari keyingi asrlarda yozilgan arab tarixchilarining kitoblariga asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. "Axbor al-xulafo" ("Xalifalar xabarlarini"), "Axbor quraysh" ("Quraysh qabilasi xabarlarini"), "Kitob futuh ash-Shom" ("Shom-Suriyaning bosib olinishi haqida kitob"), "Axbor shuaro" ("Shoirlar solnomasi"), "Tarix al-buldon" ("O'lkalar tarixi") kabi asarlar muallifi.

MADRASA (arab. - dars o'qitiladigan joy, darsxona) - islomda o'rta va oliy maxsus diniy o'quv yurti. Yaqin va O'rta Shark mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida M. haqidagi ilk ma'lumotlar 10-a.ga oid bo'lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. 11-a.dan boshlab yetakchi o'quv yurtiga aylangan, bungacha ta'lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek, mehmonxonalar, kutubxonalar, kasalxonalarda olib borilgan. M.lar vaqf hisobiga ta'xis etilgan. M.da mudarrislar va b. xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o'quv jihozlari (daftar, kitob, kalam va b.) va turar joy bilan ta'minlangan. M.lar 11-12-a.larda O'rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida bo'lgan. M.ga maktabni tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. O'rta Osiyodagi Mlarda arab va fors tilida yozilgan - Qur'on, hadislar, shariat qonunlari o'rgatilgan. Ayrim Mlarda tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, geografiya va b. fanlar o'qitilgan. Hozir jahondagi ko'p xorijiy musulmon mamlakatlarning M.larida diniy ta'lim bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'qitiladi. Yana q. Diniy o'quv yurtlari.

MAJLIS (ko'pligi - majolis) - o'tirish joyi; predmet ma'nosida - o'rindiqlik, kursi; kengash, yig'ilish joyi; mashg'ulotlar o'tkaziladigan xona (masjid, madrasa va b.da); auditoriya; dars, ma'ruza; dars, ma'ruzani yozib borish; qabul, audientsiya (qabul marosimi); qabul zali; kengash, yig'ilish, uchrashuv, kompaniya. Turkiya va Eronida yangi davrda M. vakolatli muassasani (parlament, palata, kengash) anglatadigan bo'lgan; hozir ham shu ma'noda bir qator arab va musulmon mamlakatlarida qo'llaniladi.

MAJUSIYLIK - 1) Majusiy - quyosh yoki olovga sig'inuvchi odam. Islom dini kelmasdan burun ajam xalqdari M. e'tiqodiga mansub edilar. M. kalimasi kuyosh yoki olovga sig'ingan kishilarda hozirga qadar atama sifatida qo'llaniladi. 2) yakkaxudolik (monoteizm) paydo bo'lgunga qadar vujudga kelgan diniy e'tiqodlar, marosim va bayramlarni ifodalash uchun ishlatilgan.

MAZDAKIYLIK, al-Mazdakiya (fors. mazdakiyon) - mazdakiylar, 5-a. oxiri - 6-a.da sosoniylar Eronida vujudga kelgan va islomning dastlabki asrlarida xalifalikning Sharqiy qismida mavjud bo'lgan zardushtiylik tarikatlaridan birining nomi. Asoschisi Mazdak (ism yoki faxriy laqab) sharafiga shunday nom olgan. M. Zardushtakon nomli "ashaddiy" manixeylik (moniylik) tariqatidan kelib chiqqan bo'lib, bu tariqat ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 3-a.da, boshqasiga ko'ra esa, 5-a.da vujudga kelgan. Uning muxlislari ezgulikning yovuzlik ustidan uzil-kesil g'alaba qozonishiga ishonganlar. M. tarafdorlari odamlar o'rtasidagi mulkiy va tabaqaviy tengsizlikni yo'q qilishni rejalashtirganlar. Tabaqaviy tengsizlikni yo'qotishning samarali usuli sifatida xotinlarni umumiy deb e'lon qilganlar. M.ning ijtimoiy shiorlari Eron aholisining keng qatlamlarida tarqalgan. 6-a. boshida urug' zodagonlari va zardushtiylikning oliy kohinlariga qarshi keng xalq harakati avj olgan. Xusrav Anushirvon tomonidan M. harakati tor-mor etilgach (taxm. 530 y.), Mazdak

tarafdorlari Sosoniylar davlatining borishi qiyin bo'lgan chekka tumanlariga qochganlar. M. islomning dastlabki asrlarida ham mavjud bo'lgan, bu hakda ash-Shahristoniy, Yoqut, Rashididdin, Hamdulloh Qazviniy va b. aytib o'tishgan. Musulmon tarixchilarining bir qismi M. g'oyasining asosiy unsurlarini o'zlashtirib olgan xurramiylarni M. bilan aynan bir deb hisoblaganlar. Zardushtiylardan M. muqaddas olovga e'tiqod qilmasligi bilan ajralib turadi. M. tarafdorlari arablar va mulkdorlarga qarshi 8-9-a.da ko'tarilgan harakatlarda (Abu Muslim, Sunbod mug', Muqanna, Bobak harakati va b.da) ko'pincha xurramiylar, shialar va xorijiyalar bilan birga faol ishtirok etishgan.

MAZOLIM (hukm al-mazolim, yoki nazar al-mazolim - g'ayriqonuniy harakatlarni ko'rib chiqishning qisqartmasi) - qilingan adolatsizlik ustidan tushgan shikoyatni davlat boshlig'i yoki uning vakili tomonidan ko'rib chiqilishi, appelyatsiya (shikoyat) sudi. Islomda M. tartibi johiliyat davrida nohaq chiqarilgan hukm ustidan qabilalararo va qabila doirasida o'tkazilgan ajrimlarga borib taqaladi. Islomning dastlabki davrlarida bu tartib kam o'zgargan. Lekin shikoyat arizasi berish mumkin bo'lgan yagona shaxs xalifaning o'zi bo'lgan va shu tufayli xohlagan paytda unga murojaat qilishgan. Umaviylardan bo'lgan to'rtinchi xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) shikoyatlarni eshitish uchun alohida kunlarni belgilagan va ularni hal etishni o'zining qozisi Ibn Idris al-Azdiyga topshirgan, o'zi esa, uning chiqargan qarorini tasdiqlagan. Bunday tajriba xalifa Umar ibn Abdulaziz davrigacha (717-720) saqlangan, bu xalifa shikoyatlarni o'zi ko'rgan. Biroq, undan keyinga xalifalar avvalgi holatga qaytib, bu vazifani qozi va vazirlarga topshirishgan. Xalifa Mahdiy (775-785) shikoyatlarni o'zi ko'rgan, al-Muhtadiy davrigacha (869-870) shunday bo'lgan, keyin esa, shikoyatlarni xalifaning ishonchli kishisi sifatida vazirlar ko'rgan. Hoz. paytda musulmon mamlakatlarida an'anaga ko'ra, M. deb huquqni nazorat qilish organlari va apellyatsiya (shikoyat) sudlariga aytiladi.

MAZHAB (arab. - yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot), shariat mazhablari — islomda diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari. 8-9-a.larga k.elib shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik - fiqh sohasida juda ko'p M.lar yuzaga kelgan. Hoz. vaqtda sunniilikda to'rtta M. - hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik (M.lar nomi ularning asoschilari: Abu Hanifa (Imomi A'zam), Molik ibn Anas, Shofi'iy, Ibn Hanbal nomidan olingan), shialikda bir M. -ja'fariylik (asoschisi - Ja'far as-Sodiq) saqlanib qolgan. Shariat M.lari diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikdagi to'rttala M. ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. M.lar umuman an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofi'iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) M.lari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning huquqiy hayotida ja'fariylik M.i o'z mavqeini ma'lum darajada saqlab kelmoqda. O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda hanafiylik M.i keng yoyilgan.

MAKKA - musulmonlarning muqaddas shahri. Saudiya Arabistonining g'arbida, Qizil dengaz sohilidan 80 km uzoqlikda tog'lar orasida joylashgan bu shaharni arablar Umm ul-Qurro, Umm ul-Madoin, ya'ni shaharlar onasi deb yuritadilar. Qur'onda "Bakka" nomi

bilan kelgan. U Hijozning ma'muriy va savdo markazi, musulmonlar haj qiladigan - musulmonchilikning beshinchi ahkomi bajariladigan joy. Qur'oni karim 114 surasining 86 tasi Makkada nozil bo'lgan. M.da Ka'ba bilan bosh masjid - Harom masjidi bor. M. - islom dinining Muhammad payg'ambari (sav)ning vatanlari, arablarning qad. ziyoratgohi. Musulmon rivoyatlariga ko'ra, M.da Odamato va Momohavo hamda Shis, Ibrohim, Ismoil va Hojar yashaganlar. Makka sh.ga qachon asos solingani ma'lum emas. Ilk bor Zamzam bulog'i tevaragida aholi yashash maskanlari paydo bo'lgani haqida ma'lumot bor. Islomga qadar Makka majusiy arab qabilalarining diniy hamda Sharq bilan O'rta dengaz bo'yidagi davlatlar o'rtasidagi muhim savdo markazi bo'lgan. Islom vujudga kelishidan ko'p asrlar ilgari Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi arab qabilalarining ziyorat markazi bo'lib, unda qabila xudolarining sanamlari saqlangan. Shahar birinchi marta yunon tarixchisi Ptolemey asarlarida Makoraba nomi bilan tilga olingan va bu yerda mil. 2-a.da ibodatxona mavjudligiga aytib o'tilgan. Makkada payg'ambar Muhammad (sav) tavallud topganlar va shu yerda islom targ'ibotini boshlaganlar. Muhammad (sav) 622 y. o'z sahobalari bilan Makkadan Yasrib (keyinchalik al-Madina deb ataladigan) shahriga hijrat qilganlar. Rivoyatga ko'ra, qad. Jurhum, Xuzo'a qabilalari, 4-a. oxiridan esa, Quraysh qabilasi ko'chib kelib yashay boshlagan. 6-7-a. o'rtalarida Ka'badan 800-900 m shim.-sharqqa va taxm. 500 m jan.-g'arbga cho'zilgan vodi bo'ylab aholi istiqomat qilardi. Markazda, Ka'badan jan.rokda bozor bo'lgan. Turar-joylar devorlar bilan o'ralgan katta hovlilardan iborat bo'lib, hovli ichida qavmi qarindosh oilalarning imoratlari joylashgan. O'sha vaqtda M.da 6-7 ming aholi yashagan. M.da sug'orish uchun suv yo'qligi, muqaddas hududda dehqonchilik va ov bilan shug'ullanish man qilingani ustiga atrofdaga qabilalar uchun muqaddas hisoblangani tufayli qurayshlarning savdo bilan mashg'ul bo'lishiga to'g'ri kelgan. Shahar aholisi asosan diniy marosimlar uchun zarur bo'lgan buyumlarni tayyorlagan va hajga kelganlarga xizmat qilgan. Muhammad (sav) M.dan chiqib ketgach, Madinadagi yangi masjidni Ka'baga qarshi qo'ya boshlaganlari yo'q, aksincha, uni Ka'ba (qibla)ga to'g'rilaganlar. 630 y. musulmonlarning M.ni fath etishlari shaharning muqaddas markaz sifatidagi alohida mavqeini tiklabgana qolmay, uni yangi maqomga ko'tardi; haj qilish marosimida Ka'bani tavof qilish bilan birga Arafot tog'iga ko'tarilish ham qo'shiddi; M.ni ziyorat qilish islomning asosiy ruknlaridan biri hisoblanadi.

Umaviylar davrida M. rivojlandi va qiyofasi butunlay o'zgardi: bir qavatli imoratlar o'rnida ko'p qavatli uylar va qasrlar qad ko'tardi. M. ma'murlari suv yig'iladigan inshootlar bunyod etdilar, osma quvurlar o'tkazdilar, shahar atroflarida bog'-rog'lar paydo bo'ddi. Xalifalikning hamma tomonidan kela boshlagan mablag'lar, shuningdek, ziyoratchilardan tushgan daromad makkaliklarni imtiyozli musulmonlar guruhiga aylantirdi. Ka'ba 624 y. qibla deb e'lon qilinganidan keyin Ka'baga tomon qarab ibodat qilina bopshagan.19-a. boshigacha M.ni G'arbiy Arabistonda hokimiyatni amalga oshirgan davlatlarning noiblari boshqarib kelganlar, lekin shaharning ichki hayotida ko'p narsalarni shariflar (Muhammad (sav) avlodlari) hal qilardi. Ma'lumki, Bag'dod xalifaligi inqirozga uchranganidan so'ng Makka fotimiylar, ayyubiylar va mamluklar qo'l ostiga, keyinchalik - 1517 y.da Usmonli turk saltanati tobeligiga o'tdi. 1925 y.dan Saudiya Arabistoni tarkibida. Islom dini amal qilayotgan 14 a.dan ortiq vaqt davomida M. g'ayridinlar uchun yopiq shahar hisoblanadi, ammo 18-a.dan e'tiboran yevropalik ayrim tadqiqotchilar musulmon ziyoratchilari niqobida unga kira boshlaganlar. 20-a. boshigacha M. abbosiylar davridagi hududga teng joyni egallab kelgan, doimiy aholisi 50 ming kishidan oshmagan. Hoz. vaqtda M.ning tub aholisi salkam 0,5 mln. kishini tashkil etadi, shahar avtomobil yo'llari orqali tashqi dunyo bilan bog'langan.

MAKRUH (arab. - rad etilgan, qoralangan, nomaqbul) - shariat hukmlaridan biri (farz, mandub, muboh, harom bilan birga). Qat'iy taqiq qilinmagan, lekin nomaqbul hisoblangan va rad etilgan amallar M. hisoblangan. M. -Payg'ambarimiz (as) qaytargan ish demakdir. Har bir musulmon M. ishlarni qilishdan saqlanishi lozim. M. ishni gunohidan qo'rqib qilmagan kishi savobli, qilavergan kishi gunoxli bo'lur. M. ishlarning Mligini inkor qilgan kishi imondan chiqmasa-da, gunohkor bo'lur. M. ishlar uchun jazo belgilanmagan. M. amallarga diniy burchni bajarish paytdagi ba'zi holatlar, xasislik, berahmlilik, dabdabalik va isrofgarchilikka moyillik, oilaviy va ijtimoiy burchga mensimaslilik bilan qarash, birovni yo'q yaxshi sifatlar bilan maqtash, boshqa dindagilar, balog'atga yetmagan bilan nikohga kirish va b. kiradi. Mazhabga ko'ra, M.ga aslida man etilgan ba'zi taom va ichimlik turlari kiradi. M. tushunchasi halol bilan haromni ajratib berishi bilan islomiy axloqning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

MAKTAB - yozishadigan joy; boshlang'ich maktab; yozuv stoli, kabinet, idora, byuro. Boshlang'ich ("Qur'on" o'qitishdan) maktabni anglatuvchi istiloh sifatida M. kuttobning sinonimi holida qo'llanilgan; to'g'ri, shunday holat ham qayd etilganki (11-a.da Nishopurda), M.da 5 yoshdan boshlab faqat eng sodda ta'lim, kuttobda esa - 10 yoshdan e'tiboran keyinga ta'lim berilgan. 18-20-a.da M. so'zi ko'pincha usmoniyalar Turkiyasida, Volga bo'yi, Qrim va O'rta Osiyoda ishlatilgan. Arab mamlakatlarida esa, uni boshqa so'z bilan (Kuttob va b.) ifodalashgan.

MALAKUT - oliy ilohiy hokimiyat, Allohning g'oya va qarorlari, uning ilohiy sirlari (asror)ning oliy olami. Qur'onda M. istilohi Allohning oliy hokimiyati ma'nosida kelgan va u oddiy, "erdagi" hokimiyatdan butunlay o'zgacha (6:75; 7:185/184; 23:88/90; 36/83). M. bilan odatda jabarut (ilohiy qudrat) tushunchasi ham bog'liq. M. va jabarutga inson aqli bovar qilmaydi, biroq ular predmet sifatida "Quyil", moddiy olamda aks etgan. Ular mukammallik va doimiylik bilan ajralib turadi, hoz. va kelajak hayot haqidagi bilimlarni o'zlarida saqlaydilar. "Olam al-M." (M. olami) va M.ning o'zi qo'shimcha sinonim sifatida ishlatiladi. Jabarut odatda M. va mulk o'rtasidagi mavqeni egallaydi va M. g'oyalarini mulkda amalga oshishida vositachi bo'lib xizmat qiladi. M., jabarut va mulk Qur'onga qilingan o'rta asrlardagi sharxlarda, sunniylar, shialar, so'fiylarning asarlarida ko'p uchraydi. Ularni qo'llashdagi farqlarga qaramasdan, ularning asosiy ma'nosi, mazmuni odatda o'zgarishsiz qolgan.

MALOIKA - q. Farishta.

MALOMATIYLAR (arab.- ta'na ahli, ta'naga qoluvchilar) - so'fiylik tariqatlaridan birining tarafdorlari. M. ta'limotining asosiy qoidalarini Hamdun al-Kassor (884 y. v.e.) ishlab chiqqan. Al-Muhosibiy, Abu Yazid al-Bistomiy va Sahl at-Tustariy kabi Iroq zohidlarining qarashlari mazkur ta'limotning shakllanishida muhim rol o'ynagan. M. harakati umuman yagona tashkiliy tuzilmaga ega bo'lmay, mustaqil mahalliy to'garaklar shaklida edi. Dastlab Nishopurda yuzaga kelib, g'arbga - Iroq va Suriyaga, sharqqa - Movarounnahr va Turkistonga tarqalgan. M. ayrim ruhoniylarning o'z taqvodorligini boshqalarga pesh qilib, ibodat va marosimlarni yuzaki, namoyishkorona bajo etishiga e'tiroz bildirishgan. Vaqt

o'tishi bilan M. tariqati yo'qolib, uning tarafdorlari qolmadi. Bu ta'limotning ba'zi jihatlari naqshbandiylik tariqatida namoyon bo'lgan.

MAMLUK ("egallik qilinadigan kishi") - qul, sinonimi abd, lekin undan farkli o'laroq hech qachon ko'chma ma'noda qo'llanilmaydi (mas., "Allohning kuli" kabi). Dastlab M. - tug'ma quldan farqli ravishda faqat qo'lga kiritilgan qul. Qur'onda bir marta abd mamluk (16:75/77) shaklida uchraydi. M.lar deb harbiy qo'shinda xizmat qiluvchi qul-jangchilar atalgan. Ular ko'pincha yuqori harbiy lavozimlarni egallab, bu bilan hatto ozodlikka ham erishganlar. 9-a.dan g'ulom (o'smir, qul-jangchi) so'zining sinonimi sifatida, lekin odatda oq gulomlarga nisbatan qo'llanilgan; 12-13-a.larda M. atamasi Suriya va Misrda g'ulom istilohini siqib chiqargan. Ayyubiylardan bo'lgan M. amirlari 1250 y. Misrda hokimiyatni qo'lga olgan bo'lib, ular 14-a. o'rtalarigacha rasman Abbosiylardan bo'lgan xalifalarning amirlari hisoblanganlar, so'ngra mutlaqo mustaqil hukmdorlarga aylanishgan. 1250-1290 y.larda hukmronlik qilgan sultonlar M.larning Bahriy sulolasiga mansub; Burjiy M.lari (1382-1517) o'zaro qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'lanmaganlar, ular • guruhbozlik asosida birlashganlar. Butun mana shu davr mobaynida qullardan chiqqan sultonlar o'z qo'shinlarini M.lar - turklar va kavkazliklardan to'ldirganlar. Usmoniyar tomonidan Misr bosib olingach (1517 y.), M.lar mamlakatning harbiy mulkdor yuqori tabaqasi sifatida saqlanib qolishgan; Istanbuldan tayinlanadigan posho mamlakatni mamluk amirlaridan tashkil topgan kengash yordamida boshqargan. 1805 va 1811 yillarda turk lashkarboshisi, albanlardan bo'lgan Muhammad Ali Qohirada mamluklarning barcha rahbarlarini qirib tashlagan.

MANOT - qad. arab ma'budasi; Nabateya, Suriya va Hijozda, ayniqsa, e'zozlangan; takdir va o'lim ma'budasi bo'lgan. Qora toshdan ishlangan sanami va sajdagohi Makkadan Yasribga boradigan yo'ldagi Qudaydada joylashgan. Yasribdagi Avs va Xazraj qabilalari M.ga ayniqsa qattiq topinganlar. Ular Makkadagi Ka'ba qatori M.ning sajdagohini ham ziyorat qilganlar. M. Arabistonning eng qad. ma'budalaridan hisoblanib ko'pgina kishi nomlari tarkibiga ham qo'shilgan. Makkada uchta ma'buda (al-Lot va al-Uzza qatorida)dan biri sifatida topilgan. Qudaydadagi sajdagoh Muhammad (sav) topshiriqlariga ko'ra 630-31 y.da buzib tashlangan.

MANDUB (arab. - tavsiya etilgan, lozim topilgan) - shariat hukmlaridan biri (farz, muboh, makruh, harom bilan birga). Dindorlar uchun bajarish lozim topilgan, tavsiya etilgan, lekin majbur hisoblanmagan amallar M. hukmiga kiritilgan. Ixtiyoriy bajariladigan bir qancha urf-odatlar M. hisoblanadi, ular mohiyatan sunna qo'ygan talablardan keyin turadi, ba'zan ular ayni mazmunda ham talqin etiladi.

MANOQIB (arab. - fazilatlar) - tasavvuf tushunchasi. Biror ulug' zotning fazl va martabasini maqtab, ta'rif-tavsif qilish. Ko'pincha shu haqdagi risola yoki asar tushuniladi. Mas., "Manoqibi Xoja Ahror" (Xoja Ahror ta'rifi), "Manoqibi Shoh Abdulloh" (Shoh Abdullohning ta'rif va tavsifi) va h. k.

MANSUR ibn NUH I, Abu Solih (? - 976) - somoniylardan bo'lgan Xuroson va Movarounnahr hukmdori (961-976). As-Sadid ("dono", "tadbirkor") laqabi bilan mashhur bo'lgan. Davlatni mustahkamlash maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirgan. Bu ishda unga vazirlari Bal'amiy va Utbiylar yordam bergan. Buvayhiylar ustidan qozongan g'alabasi uning shuhratini oshirgan. Uning topshirig'iga ko'ra Bal'amiy Tabariyning "Tarix ul-anbiyo va-r-rusul va-l-muluk va-l-xulafo" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi") nomli asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan va boyitgan.

MANSURIYLAR, al-Mansuriya - "o'ta" shialikdagi jamoa; Abu Mansur al-Ijliy izdoshlari. Abu Mansur sahroyi va savodsiz bo'lgan. Shialarning 5-imomi Muhammad al-Boqir vafotidan so'ng (732 y.) u Kufada da'vat bilan chiqqan, o'zini shu imomning vorisi (xalifasi), ishonchli vakili deb e'lon qilgan. So'ngra u payg'ambarlikka da'vo qilib, go'yo Alloh uni o'ziga yaqin olib suryoniy tilida uni o'g'lim deb atagan. Payg'ambarlik uning olti avlodida davom etajagi, so'ngtisi Mahdiy bo'lishini da'vo qilgan. Alloh yerga o'z "xabarchilari"ni yuborishni to'xtatmasligani targ'ib qilib, Abu Mansur o'zini yerga qulab tushgan "osmonning bir parchasi" (kisf, shundan M.ning boshqa nomi - kisfiylar) deb e'lon qilgan. Osmon deganda Muhammad (sav) urug'lari - hoshimiylar, yer deganda esa -shialar tushunilgan. Uning da'vosi: Alloh Muhammad (sav)ni Qur'on bilan, uni esa - Qur'on sharhi bilan yuborgan.

Abu Mansur va uning izdoshlari jannat, do'zax, qayta tirilish kabilarni majoziy ma'noda talqin qilib, amalda ularni inkor etganlar. Iroqda Yusuf ibn Umar as-Saqafiy noibligi davrida (738-742) Abu Mansur va M.ning bir qismi qo'lga olinib qatl etilgan. Tirik qolganlariga uning o'g'li al-Husayn rahbarlik qilgan, u ham payg'ambarlikni da'vo qilgan. Uning izdoshlarini husayniylar deb atashgan. Ularning faoliyati o'ttiz yilcha davom etgan. Xalifa al-Mahdiy davrida (775-785) al-Husayn qo'lga olinib xalifa huzuriga keltirilgan va uning buyrug'iga ko'ra xochga tortilgan. Xalifa undan qolgan juda katta boylikni musodara qilib, izdoshlarini ta'qib etib qatl ettirgan.

M. ta'limoti Iroqda faoliyat olib borgan "o'ta" shialarning boshqa ta'limotlari kabi o'ziga yahudiy-xristian dinlari unsurlarini kiritgan. Jumladan, Abu Mansurning da'vosiga ko'ra Alloh birinchi bo'lib Iso (as)ni yaratgan.

MARVAZIY, Abul Fadl Muhammad ibn Muhammad as-Sulamiy al-Marvaziy, al-H a-k i m a sh-sh a h i d (? - 945) - hanafiylikdagi yirik imom, muhaddis va faqih. Sam'oniyning ma'lumotlariga ko'ra, u Buxoro qozi kaloni bo'lgan, somoniylar amiri Nuh ibn Nasrga fiqhdan ta'lim bergan. Amir uni bosh vazir etib tayinlagan. Sam'oniy M.ning 14 ustozini nomini keltirib, M. 60 ming hadisni yoddan bilganligini va doimo vaqtini diniy kitoblar va ibodatda o'tkazganligi va davlat ishlariga juda oz vaqt ajratganligini yozgan. Bu harbiylarning noroziligiga sabab bo'lgan va ko'tarilgan isyon natijasida o'ldirilgan. Fiqhga doir 8 ta asar yozgan, ular Abu Hanifa kitobidan so'ng eng e'tiborli kitoblar sanalgan.

MARJONIY Shahobiddin (to'liq nomi: Shahobiddin bin Bahouddin bin Subhon bin Abdul Karim al-Marjoniy) (1818, Qozon sh. yaqinidagi Yapanchi qishlog'i, - Qozon, 1889) -yirik ma'rifatparvar va faylasuf, tarixchi va ilohiyotchi olim, tatar xalqi ilmiy tarixining asoschisi. 1838-43, 1845-49 y.da M. "Ko'kaldosh" va "Mir Arab", 1843-45 y.da Samarqanddagi "Sherdor" madrasalarida o'qidi va dars berdi. S.Ayniyning yozishicha, amir Nasrulloning ta'qibvdan so'ng qisqa muddat Samarqandda yashadi. U Buxoro va

Samarqandda arab va fors tillarini puxta o'rgandi, sharq falsafasi va tarixi bilan chuqur tanishdi, matematika va astronomiya bilan shug'ullandi. U "Ko'kaldosh" madrasasining boy kutubxonasi bilan unumli foydalandi. M. Buxoroda olim sifatida shakllandi va Kursaviy ilmiy merosi bilan tanishdi. U Kursaviyning islomdagi islohotchilik faoliyatini davom ettirib, Buxoro madrasalaridagi o'rta asrlarga xos o'quv tizimini tanqid qildi, Ahmad Donish bilan hamkorlikda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda jonbozlik ko'rsatdi. M. Buxoroda "Movarounnahr mashhur ulamolarining ahvoli va ishlari" hamda Kursaviyning Buxorodaga faoliyati va mahalliy hokimiyat bilan murakkab munosabati to'g'risidagi asarini yozdi. Turkiston tarixi va geografiasiga oid ko'plab asarlari mavjud, xususan, uning 10-12-a.da Movarounnahr xonaqolari va tasavvufning ahvoli, Turkistondan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqidagi tadqiqotlari diqqatga sazovor.

1850 y.da Qozondaga katta Jome' masjidi imomi, 1867 y.da muhtasibi etib tayinlandi. Ayni paytda Qozon tatar o'qituvchilari maktabida dars berdi (1876-1884). Qozon un-ti huzuridagi Arxeologiya, tarix, etnografiya jamiyati a'zosi bo'lgan dastlabki musulmon olimlaridan. M. o'zining falsafa va ilohiyotga oid asarlarida diniy islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini rivojlantirdi. 30 dan ortiq yirik asarlar, jumladan 7 jildli "Vafii yat al-aslaf va taxiyat al-axlaf", 2 jildli "Mustafod al-axbar fi axvali Kozon va Bulg'or" asarlarining muallifi. Kursaviy, M., Ahmad Donishning islom dinini isloh qilish va ma'rifatparvarlik g'oyalari keyinchalik jadidchilik harakatining vujudga kelishida muayyan darajada xizmat qildi

MARONIYLAR, al-Maruniyun (al-mavorina) - Shim.-G'arbiy Suriya va Shim. Livan aholisi orasidan 5-8-a.larda ajrab chiqqan etnokonfessional xristian-uniat guruhi tarafdorlari. Suriyalik zohid Maron yoki Marun (4-5-a. boshi) nomidan. M. marosimlari suryoniy xristianliganing g'arbiy (yakoviylar) va sharqiy (nestoriylar) tarmoqlari bilan uyg'unlashib ketgan. Ibodatda hozirda o'lik suryoniy tili qisman qo'llaniladi. Ijtimoiy tashkilotida islomning ta'siri bor (mas., cherkov vaqfi, ba'zi sunniy huquqiy me'yorlar va b.). Yuhanno Marun (taxm. 700 y. v.e.) M.ning birinchi patriarxi, ularning mustaqil cherkovining asoschisi hisoblanadi. 7-a. oxirida M.ning aksariyati Suriyadan Livanga ko'chgan. 12-13-a.larda M. salibchilarni qo'llab-quvvatlagan, Rim kuriyasi bilan aloqa bog'lagan, natijada uniya (ittifoq) barpo etilgan (18-a.da uzil-kesil). 17-18-a.larda M. yashaydigan hududlar Usmoniylar imperiyasining bir qismi bo'lgan Livan amirligiga qo'shib olingan. M.ning ba'zi dunyoviy zodagonlari yer mulklari - iqtolarga ega bo'lishgan. Hukmronlik qilayotgan amirlarning Shibahlar sulolasi xristianlikning maroniy tarmog'ini qabul qilganlar. Usmoniylar M.ga amalda muxtor jamoa-millat maqomini berishgan, u rasman 1841 y. e'tirof etilgan. Yahudiy katoliklar Yaqin Sharqqa suqilib kirayotganlarida, M.ga suyanishga harakat qilishgan, shu maqsadda tog'li Livandagi jamoalar o'rtasidagi nizolardan foydalanishgan. 19-a.da maroniylar cherkovi mamlakatdagi eng yirik mulk egasiga, patriarx esa, eng obro'li rahbarlardan biriga aylangan. "Milliy pakt" (1943)ga ko'ra, Livan prezidenti faqat M.dan bo'lishi mumkin, bundan tashqari boshqa muhim lavozimlar ham M. ixtiyoriga berilgan. M.ning aksariyati qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat, sanoatda band. Livandan tashqari M.ning ozgana qismi doimiy ravishda Suriya, Kipr, Isroil, Iordaniyada ham yashaydi. M.ning ko'pchiligi muhojirlikda. Ular Livanda konfessional tuzumni saqlab qolish uchun kurashib, etnik mojarolarni keltirib chiqarmoqda, M.ni arab dunyosidan ajratib olishga intilmoqda.

MARYAM - Qur'onda tilga olingan taqvoli, siddiqa ayol, Iso payg'ambarning onasi, xristianlikdagi Mariyaga to'g'ri keladi. Islom ta'limotiga ko'ra, u taqvoli, mo'mina ona, jannatdagi ayollarning rahnamosi. Qur'oni karimning 19-surasi "Maryam" deb ataladi. M.ning otasi Imron "Bani Isroil" qavmi ichida eng obro'li kishilardan edi. Uning xotini Hanna befarzand edi. Hanna Allohga iltijo kilib, farzand ato etishni so'radi va agarda farzandli bo'lsa, ushbu farzandni Alloh yo'lida Baytul Maqtsis xizmatiga vaqf (nazr) qilishini niyat qildi. Alloh unga qiz farzand ato etdi va uni Maryam deb nomladi. Odatda ibodatxonalaridagi xizmatlarni erkaklar bajarganidan u o'z nazri, qizining takdiri qanday bo'lishini o'ylab, hayron qoldi. M. yoshligidayoq otasi vafot etdi, endi uning tarbiyasini kimdir o'z kafolatiga olishi kerak edi. M.ni tarbiyalash xolasining eri Zakariyo (as) payg'ambarning chekiga tushadi. U qachon M.ning xonasiga kirsa, u yerda qishda yoz mevalari, yozda qishda bo'ladigan noz-ne'matlarni ko'radi. "Bu narsalar senga qayoqdan keldi?" deb so'raganida M.: "Bular Alloh huzuridandir" deydi. Ibodatxona xizmatiga nazr qilingani uchun doimo shu yerda bo'lib, umrini faqat toat bilan o'tkazar edi. U odamlarga aralashmas, ibodatxonada yolg'iz qolib toat bilan band bo'lardi. Kunlarning birida, M. ibodatxonada toat bilan mashgul bo'lib turganida, Alloh taolo unga Jabroil (as)ni yuboradi. M. o'z ahdi-oilasidan chetga -kun chiqar tomonga borib, ulardan berkinib olgan paytida, Jabroil: "Parvardigoringning senga bir pokiza o'g'il hadya qilish uchun (kelgan) elchisidirman" deydi. Bundan M. taajjublanib: "Axir men turmushga chiqmagan bo'lsam yoki fojira ayol bo'lmasam, qanday qilib men farzandli bo'lishim mumkin" - tseydi. Shunda Jabroil (as): "Aytganing to'g'ri, lekin Alloh aytdiki: "Bir go'dakni otasiz yaratish menga oson, bu meni ulug' qudrat egasi ekanligimning belgisi bo'lur", deydi. Shunday qilib, Iso Alloh iroda etgani uchun otasiz yaratildi. To'lg'oq azobi uni bir xurmo tsaraxtining yoniga olib bordi (va u xurmo shoxiga osilgan holda ko'zi yorigach), dedi: "Qaniydi, mana shu kundan ilgariroq o'lib ketsam-u, butunlay unutilsam edi". Shunda xurmo daraxtining ortidagi Jabroil nido qildi: "G'amgan bo'lma, Parvardigoring (oyoq) ostingdan bir ariq oqizib qo'ydi. (Mana shu kurib qolgan) xurmo shoxini silkitgan, u senga yanga xurmo mevalarini tashlar. Endi sen yeb-ichgin, shod-xurram bo'lgin". M. bolasini ko'targan holda qavmiga kelganda ulardan ta'nalar eshitadi. Shunda beshikdagi go'dak Iso tilga kirib deydi: "Men Allohning bandasidirman. U zot tez kuvda menga Kitob - Injil ato etadi va meni payg'ambar qiladi".

MASJID, machit (arab. - sajda qilinadigan joy) - musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. M.lar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan. Juma va hayit namozlari esa, jome M.larda o'qiladi. Birinchi M.ni Madinada Muhammad(sav) qurdirganlar. M.lar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. M.larning to'rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'ladi. Ayrim yirik M.lar mehrobining o'ng tomonida va'zxonlik uchun mo'ljallangan minbar, ba'zilarida esa, Qur'on o'qiladigan maxsus joylar ham bo'ladi. Ba'zi M.lar huzurida maktablar ham bo'lgan bo'lib, ularda o'g'il bolalarga Qur'on o'qish o'rgatilgan. M.larda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o'qib, turli diniy masalalar bo'yicha va'zxonlik qiladi. O'zbekistonda 2000 ga yaqin M. bor.

MASJIDI KALON, Jome' Masjidi - Buxorodaga eng yirik me'moriy yodgorlik. Minorai kalon yonida taxm. 15-a.dan qurila boshlangan (arxeol. qazilmalar natijasida bino ostidan 12-a.ga oid qad. masjid qoldikdari topilgan). Masjid (127x78 m) to'g'ri

to'rtburchak tarxli. Keng hovli (130x80 m) atrofidagi bostirma yo'laklar (galereya) 288 ta yassi gumbaz bilan berkitilgan. Gumbazlarni chortoq shaklida 208 ustun ko'tarib turadi. Ustunlarning bir qismi ostiga keyinchalik alohida poyustunlar ishlangan. Sharq tomondagi buyuk peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan alohida ajralib turadi. Shu peshtoq orqali masjidning katta xonaqoh-maqsurasiga kiriladi. Xonaqohning baland gumbaziga zangori koshinkor bezak bilan pardozi berilgan. Xonaqohdagi mehrob bezaklari koshinkorlik san'atining yuksak namunasidir. Unda usta Boyozid Puroniy nomi saqlangan. Hovliga qaragan peshtoq oldidagi sahnda ko'p qirrali mo'jaz bir ko'shk (pavilon) bor (uni qurishda usta Shirin Murodov qatnashgan, 20-a.). Masjid atrofi baland va qalin devor bilan o'ralgan. Uning bir qismi sirkor gasht bilan, ba'zi yerlari oq, ko'k va zangori koshin bilan bezatilgan. Maydonga qaragan bosh tarzi markazida peshtoq, qanotlari toqi ravokdarga bo'lingan. Peshtoqning naqshinkor bezaklari deyarli saqlanmagan, ba'zi joylari suvab yuborilgan. M. k. tomlari (gumbazlari) tuzatilib, ustun poyalari betonlashtirildi. Hovli atrofida ravoqli devorlar tuzatildi. Tashqi peshtoq to'la ta'mir etildi.

MASIH ("muqaddas yog` surilgan") - kutqaruvchi, xaloskor. Qur'on va musulmon aqidalarida M. - Iso (as)ni anglatuvchi atama, uning ismidan avval qo'yiladi yoxud alohida qo'llaniladi. Qur'onning Madina davridagi Iso (as)ni xristianlar ilohiylashtirishlarini inkor etadigan suralarida uchraydi. (3:45/40; 4:157/156,171/169,172/170; 5:17/19,72/76,75/79; 9:30-31). M. istilohi Iso (as) haqidagi hshsoyalarda, Muhammad (sav)ning tushlarida, Iso (as) bu yerga qaytib tushishida, uni qiyomat kunidagi ishtirokida qo'llaniladi. Dajjolni shuningdek, al-Masih al-Kazzob va al-Masih ad-Dajjol deb ham atashadi.

MATN (arab. - bel, tekst (o'zbek. matn)) -hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya'ni ma'nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari.

MAHDUM (arab. - xizmatga yollovchi odam, janob) - pir va ustozlarga beriladigan laqab. Odatda, pir va ustozlarga o'z muridlari va shogirdlari xizmat qilishgan. M. atamasi ba'zi joylarda pir, ustoz va ulamolarning o'g'illariga nisbatan ham ishlatilgan. Naqshbandiylik tariqati shayxlaridan Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy "Mahdumi A'zam", ya'ni "Ulug` Mahdum" laqabi bilan mashhur bo'lgan.

MAHDUMI A'ZAM (Buyuk hazrat; asl ismi Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy, 1463/64-1542) - movarounnahrlik alloma, yirik diniy arbob, naqshbandiylik piri. Farg'ona vodiysining Koson sh.da tugilgan, ilk ta'limni shu yerda olgan. Madrasani bitirgach, Shayx Mir Sayyid Aliga shogird tushadi, so'ng Shoshga kelib, Xoja Ahrorning shogirdi Muhammad Qozi (1516 y. v. e.) M.A.ni shogird qilib oladi va tez orada o'ziga xalifa etib tayinlaydi. Manbalarga qaraganda, u ustozini bilan Hirotga safar qiladi, Abduraxmon Jomiy bilan uchrashadi. 1503 y. Buxoroga ko'chib keladi. Biroz vaqt o'tgach, Axsikatga borib naqshbandiylik tariqatini targ'ib eta bopshaydi. Muhammad Qozi vafotidan so'ng tariqat shayxlari M. A.ni o'z peshvolari sifatida e'tirof etishdi va uning shuhrati Movarounnahr hamda uning atrofida mamlakatlarga yoyildi. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Bobur uni chukur hurmat qilgan va M. A.ga ruboiylar

bagashlagan. M. A. ham shoir haqidagi "Boburiya" risolasini yozib, Hindistonga jo'natgan. Shayboniy sultonlari va hokimlari M. A. ni o'zlarining piri deb bilganlar. M. A. tasavvuf nazariyasi va amaliyoti, xususan, naqshbandiylik ta'limotini rivojlantirish sohasida barakali faoliyat ko'rsatdi. Uning "Asror un-nikoh" ("Nikoh sirlari"), "Ganjnoma", ("Boylik haqida risola"), "Risolatun sam'iyatun" ("Samo' risolasi"), "Bayoni zikr" ("Zikr bayoni"), "Risola-i silsila-i Xojagon" ("Xojagon silsilasiga oid risola"), "Me'roju-l-oshiqiyn" ("Oshiklar me'roji"), "Murshidu-s-solikiyn" ("Soliklar murshidi"), "Risola-i Naqshbandiyya", "Risolatun vujudiyatun" ("Vujudlar haqida risola") kabi 30 dan ortiq risolasi bor. U o'z asarlarida ulamolar, so'fiy shayxlar va davlat arboblari orasidagi munosabatlarga to'xtalgan. Tariqat odobu qoidalarida murid va shayx munosabatlari o'zaro hurmat-izzat asosida qurilmog'i lozimligani uqtiradi. M. A. fikricha, tariqat a'zolari xalqqa yaqin bo'lib, uning dardlari va ehtiyojlariga qayg'udosh bo'lsa, bu ham tariqatga, ham xalqqa foydalidir. M. A. asarlari Uzbekiston FA Sharqshunoslik in-ti xazinasida saqlanmoqda.

MAHDUMI A'ZAM MAJMUASI -Samarqand viloyati Dahbed q.dagi me'moriy yodgorlik (16-19-a.lar). Majmua mashhur shayx, so'fiylar namoyondasi Mahdumi A'zam nomi bilan bog'lik, Asli farg'onalik bo'lgan ul zot Samarqand hokimi Jonibek Sulton tomonidan Samarqandga taklif etilgan. O'g'li Iskandar Sulton uni o'zining piri deb e'zozlagan. Mahdumi A'zam 78 yoshida shu Dahbed q.da vafot etgan. 1610 y.da Yalangto'sh Bahodir boshchiligida xonaqoh va dahma qurilgan. 17-a.da esa katta masjid qad ko'targan. Keyinchalik Mahdumi A'zam avlodlari ham shu yerga dafn qilingan. Nodir devonbegi tomonidan atrofi devor (bal. 1,4 m) bilan o'ralib, ta'mir ishlari olib borilgan. Majmua shim.da hazira, jan.da keng ayvonli katta masjid, yonida kichik masjid, sharqida darvozaxona, chillaxona va hujralardan tashkil topgan. Katta masjid-xonaqoh 6 ustunli, 12 gumbazli, ayvoni 2 qatorli 14 ustundan iborat. Kichik masjidga uzun yo'lak orqali o'tilgan. Masjid 2 ustunli, vassa shiftli, ayvoni 4 ustunli, poyustunlari toshdan ishlangan. Haziradagi Mahdumi A'zam saganasi (bap. 1,7 m) kulrang marmar bilan qoplangan. Pastki qismidaga 9 ta marmar toshtaxtalar Mahdumi A'zam avlodlari, Yalangto'sh Bahodir va uning qizi Iqlimaga tegishli bo'lib, keyingi yillardagi ta'mir vaqtida hammasi bir joyga to'plangan. M.A.m. yaqinida minora va keng hovuz joylashgan. 1998 y.da majmua kayta tiklanib, atrofi obodonlashtirildi.

MASHRAB Boborahim (1640-1711) - o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandasi, shoir, bastakor, sozanda va hofiz. Xalq ichida "Devona Mashrab", "Eshon Mashrab", "Shoh Mashrab", "Mardi xudo", "Avliyoi Haq", "Sohib karomat" kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Ijodiy merosi "Devonai Mashrab" qissasi, turli tazkira, bayoz va majmualar orqali yetib kelgan. M. Namanganda bo'zchi Valibobo oilasida tug'ilgan. 7 yoshida mullaga o'qishga berilgan. 1665 y.da Mulla Bozor Oxundga shogird tushgan. So'ngra Yorkentda, qashqarlik Ofoqxo'ja eshon xizmatvda ilohiyot bilan shugullanib, 7-8 yil mobaynida tariqat sulukini o'tadi. Ibrohim Adham va Mansur Hallojni g'oyibdan piri komil deb bildi. Ijodda Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Imomiddin Nasimiy yo'lidan bordi. Lutfiy, Navoiy g'azallariga naziralar yozdi, muxammaslar bog'ladi. M. she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri Allohga bo'lgan ishqdir. Uning so'fiyona she'rlarida ilohiy ishq dardi inson iztirob va amlari, orzu-umidlari bilan hamohangdir. M. ta'kidlashicha, odam zotining asosiy nuqsoni "nafsu hirs balosi"ga muhtalo bo'lganligidir, bu nuqson uni ilohiy fazilatlardan mahrum etadi, axloqan tubanlashtiradi, o'tkinchi mayl-istaklarni

uygʻotadi, insoniy xislatlardan, haqiqat, maʼnaviyat va maʼrifatdan yiroqlashtiradi. "Nafs ajdahosi" komidan xalos boʻlganlar uchun esa, faqat Alloh - Hakdir, haqiqatdir. Shu bois inson faqat Allohni sevishi, unga oshiq boʻlishi, komil inson boʻlishga astoydil intilishi, bu mashaqqatli yoʻlda barcha uqubatlarga chidashi lozim. Barcha yaxshilik, ezgulik - Allohdandir, binobarin Uni sevgan kishi oʻz yaqinlarini, ota-onasini, el-yurtini, jamiki yaxshi odamlarni ham sevadi. M. umrining soʻngga 20 yili darbadarlikda oʻtgan, oʻz vatanida haqgoʻy, isyonkor shoir, qalandar sifatida mashhur boʻlgan. M. turli maʼrakalarda, xalq orasida mutaassib ruhoniylarni, zulmkor hokim-amaldorlarni achchiq kinoya va nafrat bilan tanqid qilgan. Ulamolara fatvosi va Balx hokimi Mahmud Qatagʻon hukmi bilan M. dahriylikda ayblanib, Kunduz sh.da dorga osiladi. M.ning shaxsiyati va ijodiyoti oʻzbek adabiyoti rivojiga barakali taʼsir koʻrsatdi, gʻazallari el xotirasida muhrlanib qoldi. Mustaqillik davrida M. tavalludining 350 yilligi nishonlandi (1992). Namangan sh.da Mashrab bogʻi va haykali barpo etildi. M.ning tasavvufiy ruhdagi oʻnlab sheʼrlari, "Mabdai nur" asari moʻtabar manbalar asosida birinchi bor nashr etildi.

MASHHAD (arab. - shahid boʻlgan joy) -Erondagi shahar. Muhim tarixiy-madaniy va diniy markaz. Shialar rivoyatiga koʻra, ularning 8-imomi Ali ar-Rizo shu joyda xalifa buyrugʻi bilan oʻldirilgan, keyinchalik maqbara qurilgan. M. imom Ali ar-Rizo maqbarasi tufayli shialarning uch muqaddas shaharlaridan biri (Najaf va Karbalo bilan birga) va ziyoratgohi hisoblanadi. M.da abbosiylardan Horun ar-Rashidning qabri bor. Aholisi, asosan, toʻqimachilik bilan shugʻullanadi. Sanoati rivojlangan boy shahar.

MASHHAD - shahid koʻmilgan yer, aziz insonlar - Muhammad (sav)ning qarindosh-urugʻlari va sahobalari, shia imomlari, yirik diniy arboblara, avliyolar mozorini anglatuvchi keng tarqalgan nom. Boshqa nomlari - kubba, maqom, mozor, imomzoda. Odatda M. - ziyorat qilinadigan joy, bir avliyo uchun baʼzan bir necha joydagi qabr koʻrsatiladi. M. istilohi muqaddas qabrlar joylashgan shaharlar nomlarida ham qoʻllaniladi, mas., Mashhad Ali (Najaf), Mashhad al-Husayn (Karbalo), yoxud shahar nomiga aylanadi - Erondagi Mashhad (Mashhad ar-Rizo).

MAʼZUN ("ruhsat olgan") - xoʻjayinidan savdo-hunarmandchilik faoliyati, jumladan uning ishlarini boshqarishga ruhsat olgan qul. Ruhsat etilgan doirada u oldi-sotdi, qarz olish va berish, garovga olish va berish, ruhsat etilgan faoliyatini yurgizish uchun zarur boʻlgan erkin yurish huquqini olgan. Boshqa hollarda uning huquqiy ahvoli oʻzgarmagan. Ruhsat etilgan faoliyati davomida u qarzdor boʻlib qolsa, agarda xoʻjayini uning uchun qarzni toʻlashni istamasa u holda kul sotilishi mumkin. Xoʻjayin ruhsatnomani bekor qilish huquqiga ega, lekin u masjid yoki bozorda bu haqda xalqqa eʼlon qilishi lozim. M. orttirgan mulk baʼzi huquqshunoslarning srikricha, unga tegishli hisoblangan, boshqalarning fikriga koʻra esa, xoʻjayinning mulki sanalgan.

MAʼARRIY Abu-l-Alo Ahmad (973-1057) -arab shoiri va mutafakkiri. Maarrat an-Nuʼmon sh.da (Suriya) qozi oilasida tugʻilgan. Bolaligida chechak kasaliga yoʻliqib, koʻzi xiralashadi, soʻng butunlay koʻrmay qoladi. Qurʻoni karimni yod olib, hofiz boʻlib yetishadi. Ilmini oshirish maqsadida uzoq safarlarga chiqadi. Zamonasining mashhur adib va olimlaridan hadis va tafsir ilmini, sheʼr sanʼati va falsafani oʻrganadi. Umrining

oxirigacha zohidlikda, uzlatda yolg'iz yashasa-da, ilm ahdi orasida obro'-e'tibori juda baland edi. Uni ko'rish, undan saboq olish uchun Sharq mamlakatlaridan o'nlab ilmsevar kishilar uyiga kelib turishardi. M.ning ikki she'riy devoni, "Chaqmoqtosh uchqunlari", "Farishtalar haqida risola", "Tavba haqida risola" asarlari, Buxturiy, Mutanabbiy va b. shoirlar ijodiga sharxlari bizgacha yetib kelgan. M.ni mashhur qilgan "Ixtiyoriy majburiylik" ("Al-Luzumiyyat") nomli ilk lirik-falsafiy devoni 5000 ga yaqin baytdan tuzilgan yaxlit asar bo'lib, unda har bir she'r o'zidan keyin keluvchi she'r bilan mavzu va fikr jihatdan hamohangdir. M. o'z ijodining bosh mavzuini: "Men she'rlarimda faqat Oliy zotni (ya'ni Allohni) ulug'layman, zero u boshqalarga rahmat ulashib, o'zi hech bir maqtov-madhiyaga muhtoj emasdur", deb ta'riflagan edi.

M. fikricha, har bir inson ma'naviy jihatdan o'zini o'zi takomillashtirib borishi lozim. "Tavba haqida risola"da shoir o'z davridagi tamagir mansabdorlar, nodon kishilar, shuhratparast adib-shoirlarni o'tkir hajv qiladi. Asar qahramoni jannatlar va do'zaxlar ichra sayr etib, u joylarda o'zining yaxshi va yomon zamondoshlarini uchratadi, ularni bir-bir tavsiflaydi. Dante (14-a.) "Ilohiy komediya"ni yozishda mazkur risoladan foydalangan bo'lishi mumkin. M. merosi islomiy madaniyat, ijtimoiy-falsafiy va diniy tafakkur cho'qqilaridan biri bo'lib, o'zidan keyingi arab, fors, turk tasavvuf shoirlari ijodiga barakali ta'sir etgan.

al-MA'OD ("qaytish") - kelajakdagi hayot, oxir zamondan keyingi hayot (ba'zi jihatdan oxiratning sinonimi). Al-M. tushunchasi oxir zamon (as-sa'a), o'liklarning tirilishi (al-qiyama), Allohning odamlarni sud qilishi (yaum ad-din, as-sual), odamlarni jahannam va jannatga tushishlaridan tarkib topgan. Al-M. haqidagi tasavvur - islomning eng asosiy aqidalaridan biri.

Musulmonlar o'rtasida keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, oxir zamon bo'lishidan avval ad-Dajjol paydo bo'ladi, yovuzlik kuchlari Yerda g'alaba qiladi, sharq tomondan ya'juj va ma'juj paydo bo'ladi, Yer qa'ridan so'zlovchi qandaydir bir hayvon chiqadi, Yer uzra tutunlar buralab ko'kka bo'y cho'zadi, Quyosh g'arbdan chiqadi. So'ngra Iso (as) va al-Mahdiy Dajjolni yengishadi, Yer yuzida adolat o'rnatiladi, so'ngra esa, as-sa'a (soat) muddati kelib, unda yaum al-qiyama (o'liklarni tirilishi kuni), yaum ad-din (sud kuni), yaum al-hisob (hisob kuni) va b. sodir bo'ladi. Isrofil (as) sur chaladi, yulduzlar yerga qulaydi, dengizlar to'lib-toshadi, tog'lar joyidan qo'zg'aladi va barcha insonlar halok bo'ladi.urning ikkinchi sadosi bilan qachonlardir Yerda yashagan barcha insonlar qayta tirilib bir yerga to'planishadi (al-mahshar). So'ngra ular Alloh oldvda qattiq terga botib (al-araq) uzoq vaqt turadilar (al-mauqif). Alloh odamlarni qilgan a'moli bo'yicha so'roqqa tuta boshlaydi (as-sual), farishtalar odamlarni barcha yaxshi va yomon a'mollari yozilgan kitoblarni keltiradilar. So'ngra qilingan gunoh va yaxshi a'mol tarozuga tortib ko'riladi (al-mavazin).

Katta hovuz (al-haud) yonida odamlarni Muhammad (sav) kutib olib, ayrim, arzimas gunohlar qilgan ba'zi taqvodorlar uchun Allohdan shafqat qilishini so'raydilar. Shuning uchun ba'zi gunohkorlar uchun jahannam abadiy bo'lmasligi mumkin, ayrim insonlarni esa, jannatga tushishdan avval uning darvozasi oldida kutishiga to'g'ri keladi. Barcha insonlarning jahannam ustidan tortilgan soch tolasidek ingichka ko'prikdan (as-siroat) o'tishlari lozim bo'ladi: gunohga botganlar undan pastga qulaydilar, taqvodorlar esa, hech qanday to'siqsiz jannat bog'larigacha o'tib oladilar.

"Aqoidun Nasafiy" nomli sunniy aqidalarning to'plamida (12-a.) musulmon esxatologik (oxirat zamonga oid) ta'limotining asosiy va e'tirof etilgan belgalari deb quyidagilar atalgan: al-ba's (tirilish), vazn (gunohkorlarni tarozuda tortish), kitob (a'mol yozilgan

kitob), as-sual (so'roq), al-haud (Muhammad (sav) quduklari), as-sirot (jahannam ustidagi ko'prik), jahannam, jannat. Oxir zamon alomatlar: Dajjolning paydo bo'lishi, Yerdan hayvon (maxluq)ning chiqishi, ya'juj va ma'jujning paydo bo'lishi, Iso (as)ning qaytib kelishi, Quyoshning g'arbdan chiqishi. Umuman olganda al-M. kontseptsiyasi islomni boshqa monoteistik dinlar bilan birlashtiradi. O'rta asrlarda uning yanada kengroq tafsilotlar bilan boyib borgani arablar, shuningdek, islomni qabul qilgan boshqa xalqlarning qad. e'tiqodlaridan olingan tafsilotlarni qo'shilgani bilan izoxdanadi.

MA'RIFAT (arab. - bilish, anglash, idrok etish) - tasavvuf tushunchasi; tasavvufdagi maqomlardan biri; solik ma'naviyatining kundan-kunga ortib borishi, koinot va tabiat ilmu hikmatidan, shuningdek, insoniy va ilohiy sir-asrorlardan voqif bo'lib borishi. Hadisi sharifda: "Kimki o'zini yaxshi tanisa, Parvardigorini ham, albatta, tanib oladi", deyilgan. Ya'ni, inson o'zining tuzilishi, murakkab tarkibi, jismoniy va ruhoniylar vujudini qanchalik chukur tafakkur bilan o'rganib, bilib borsa, Allohning ulug' hikmati va beqiyos qudratining buyuk ekanini shunchalik idrok etadi. Inson o'zidagi kamchilik va xatolarni qancha ko'p sezib iqrar etsa, Allohning benuqson komil zot ekanini shuncha payqab oladi. Har bir inson o'z M. ini bilimiga karab yuqori darajalarga ko'tarishi mumkin.

MA'UNA - rost imonlari, go'zal e'tiqodlari sababidan kulfat va mashaqqatlardan xalos bo'lishlari uchun avom musulmonlar tomonidan sodir bo'ladigan g'ayrioddiy ish.

MAQBARA (arab. marqad, turbat) - biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut (dahma, sag'ana). Mlar hashamatli murakkab imoratlar taklidida taraqqiy topdi. Bunday hashamatli M.lar yaratilishi qad. Misr exromlarida Fir'avnni ilohiylashtirish bilan buyuk va o'lmas degan g'oya olib borilgan. O'rta Osiyoda dastlab kabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat kurish man etilgan bo'lsa-da 9-a.dan xalifalar sharafiga M.lar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham 9-a.dan maxsus M.lar qurish odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli M.lar qurilgan. Oddiy M. gumbazli chorsi xonadan iborat bo'lgan, unga peshtokdi eshik orqali kirilgan. Ba'zan xonaning 4 tomoni ravokdi-chordara shaklida bo'ladi, keyinchalik M. kurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go'rxona, tagxona-sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo'lgan.

MAQOM (arab. - joy, o'rin, manzil) -islomda so'fiylikka xos tushuncha, har bir so'fiy bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar. Tariqatlarda M.larning soni har xil keltiriladi, lekin ko'p hollarda 4 M. tilga olinadi: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat (q. Tasavvuf). Lekin, tasavvufning ayrim yirik namoyandalari M.larni ko'proq deb hisoblagan. Mas., Fariduddin Attor 7 maqom, G'azoliy 9 maqomni ta'riflagan. Har bir M. ham o'z navbatida bir necha kichik bosqichlarga bo'linadi (ayrim so'fiylarda bu bosqichlar 8 dan 10 gacha ko'rsatilgan) va ular manzil deb ataladi.

MAQSURA ("To'silgan") - xalifa, hokim yoki boshqa yuqori mansabdor shaxslarni olomondan to'sib turish maqsadida shaharning jome' masjidida mehrob va minbar yonida o'rnatilgan o'yma yog'och panjarali ravon (pavilon) yoki oddiy panjara bilan

to'silgan joy. Uni joriy qilishni Muoviya (661-680) bilan bog'laydilar, u hayit namozlarida tiqilinch paytida sodir etiladigan suiqasdlardan o'zini saqlamoqchi bo'lgan; 7-a. oxiri - 8-a. boshida M. eng yirik noibliklar markazlarida paydo bo'lgan, so'nfa yirik ma'muriy markazlardagi barcha jome' masjidlariga tarqalgan. Asta-sekin bu istilohni qo'llash ham o'zgargan, M. deb masjiddagi har qanday to'silgan, ajratib qo'yilgan joy, mas., ayollar namoz o'qiydigan panjarali ayvon yoxud xazina saqlanadigan ravon (pavilon) atala boshlangan. Zamonaviy masjidlarda odatda M. yo'q.

MAHDIY (arab. - Alloh tomonidan to'g'ri yo'lga yetaklanuvchi) - islomda zamona oxir bo'lganda yerga qaytib kelib adolat o'rnatadi, deb tasavvur etiladigan payg'ambar. Shialikda M.ga e'tiqod qilish katta o'rin egallagan.

MAHDIYLIK - zamona oxir bo'lishi va Imom Mahdiyning kelishi haqidagi diniy ta'limot. Zamona oxir bo'lganda "yashiringan imom" yerga qaytib kelib, adolatli tuzum o'rnatadi, degan e'tiqod dastlab shialar o'rtasida kelib chiqqan. Keyinchalik bu ta'limot sunniylarga ham o'tgan. Islom mamlakatlarida M. g'oyalaridan ayrim davlatga qarshi harakatlarning rahnamolari ham foydalangan. Mas., Eronda bobiyar qo'zgononining boshlig'i Ali Muhammad (q. Bob) va 1881 y.da Sudanda dehqonlar va ko'chmanchilarning isyoniga rahbarlik qilgan Muhammad ibn Axmad (1848-85) va b. o'zlarini al-Maadiy deb e'lon qilgan.

MAHMAL (mihmal, mahmil) - keng ma'noda tuyaning ustiga o'rnatilgan taxtiravon; unda boy sayyoxdar, odatda ayollar olib yurilgan. M. ash-sharif, yoki oddiy M. - hashamatli bezatilgan bo'sh taxtiravon, muqaddas shaharlar Makka va Madina (al-Xaramayn) ustidan siyosiy homiylik ramzi. 1266 y.dan va tanaffuslar bilan 1952 y.gacha bir qator musulmon davlatlari (Misr, Iroq, Suriya, Yaman) Makkaga hajga yuborilayotgan asosiy hojilar karvoni qatorida M.ni ham qo'shib jo'natganlar. Bu an'ananing paydo bo'lishi mamluk sultoni Beybars (1260-1277)ning Bag'dodni mo'g'ullar tomonidan bosib olinganidan so'ng (1258) xalifaning ayrim imtiyozlariga merosxo'r bo'lishi, Misr va Yaman bilan raqobatda (1258-1282) kisva jo'natish huquqini qo'lga kiritishga intilishi bilan bog'liq. Bu amaliyotga rioya etish, u yoki bu mamlakat tomonidan Makkaga M. jo'natishdan bosh tortish davlatning qudrati yoki siyosiy obro'sining oshgani yoki zaiflashganini, musulmon hukmdorlariningo'zaro raqobatini aks etgiran. An'ana bir necha bor vahhobiylarning qarshiligi tufayli to'xtab qolgan. Musulmon xalqlari orasida M. - haj marosimlarini bajarishni ifodalovchi eng muqaddas ramzdir. M. alohida tuya yoki maxsus vagonda tashilib karvonning markazi bo'lib xizmat qilgan. M.ni Makkaga jo'natish, u yerda uni shaharning ko'zga ko'rinarli yeriga, so'ngra uni Arafot tog'i etagiga o'rnatish, M.ni xojilar karvoni bilan qaytib kelishi xalq bayramiga aylanib ketgan. M. - baraka keltiruvchi deb hisoblangan. M. jo'natish amaliyoti bekor qilingandan keyin u bilan bog'liq udumlar xotiradan o'chib bormoqda.

MAHR (turkcha mehr; sinonimi sadoq) - teng huquqli nikoh (zavoj) tuzilgan paytda xotiniga ajratib beradigan mulk. M. to'lash - shunday nikohning asosiy sharti bo'lib, nikoh munosabatlari uchun xotinga to'lanadigan haq sifatida qaraladi. M. faqat xotinga tegashli bo'lib, xotinning eri vafot etsa yoxud eri taloq etib beva qolgudek bo'lsa, uni

moddiy ta'min etgan. Ozmi-ko'pmi qiymatga ega va mulk huquqi joriy etilgan barcha narsa M. bo'lishi mumkin. Eng kam M.mikdori 10 dirham (30 g kumush), eng ko'pi cheklanmagan. M. quda tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi. M. mikdori va uni to'lash shartlari alohida nikoh bitimi (sig'a)da aytiladi. M. nikoh shartnomasi tuzilgan zahoti berilishi (mahr mu'ajjad) yoki bo'lib-bo'lib, yoxud ajralish paytida (mahr mu'ajjal) berilishi mumkin. M.ning katta qismini kuyov albatta to'y kuni qimmatbaho buyumlar, bezaklar, kiyimlar va b. (sadoq) ko'rinishida olib kelishi shart bo'lgan, bu ham nikoh shartnomasida alohida qayd etib o'tilishi lozim. M. kelinning vasiysi yoki ishonchli odamiga (vakil ota), odatda otasi yoki qarindoshlarining kattasiga berilishi mumkin, zero bordi-yu ajralish sodir bo'lsa kelin o'sha xonadonga qaytib borishi mumkin bo'lsin. Biroq M. bevosita kelinni o'ziga ham berilishi mumkin, u holda M. kelinning shaxsiy mulki hisoblanib, kelin uni to'la huquqdi egasi bo'lgan. M.ni o'z vaqtida to'lamaslik xotinga to u to'liq to'lanmaguncha shartli ajralish (fash) huquqini bergan. Bordi-yu, er vafot etib qolsa, to'lanmagan M. uning mulkidan tegashli M. ajratilib xotinga beriladi. Xotin bundan tashqari erining merosidan ham ulush olish huquqiga ega. Bordi-yu, ayolning ixtiyori bilan nikoh bekor qilinsa (xul) va ikki tomon bir-birini qarg'ab, la'natlab ajralishsa (li'an) va M. to'lanmagan bo'lsa, xotin kishi M.dan mahrum etiladi. U yoki bu shaklda M. to'lash odati hozirgacha islom mamlakatlarida saqlanib qolgan. Ba'zi mamlakatlarda M. mikdorini biroz cheklash yo'lida hukumat tomonidan qonuniy chora-tadbirlar ko'rilmogda. M. faqat islomga xos, shuning uchun uni qalin bilan aynan deb bilish xatodir. Qalin, garchi tashqi tomondan M.ga o'xshasa-da, u islomni qabul qilgan ko'p xalqlarning qadimdan qolgan urf-odati hisoblanadi.

MAHRAM (arab. - qarindosh) - shariatga xos tushuncha; ayol kishi yuzi ochiq holda ko'rishishi mumkin bo'lgan erkak yaqin qarindoshlar. Shariatga ko'ra, ayolning otasi, o'g'illari, aka-uka, amaki, buva, tog'a, qaynatasi M., undan yiroq turgan erkak qarindoshlar va yot erkaklar nomahram hisoblanadi. Ayol kishining M. doirasiga kirgan erkaklar bilan nikoh qilinishi taqiqlangan. Ayolga uylanishi mumkin bo'lgan erkaklar nomahram hisoblanadi.

Ayol har bir oilaning or nomusi, himoyaga muhtoj inson. Shu boisdan payg'ambarimiz (as) ayollar safarga M.siz chiqmasinlar, deganlar.

MAHSHAR (arab. - to'planish, yig'ilish joyi) - sunniylikdagi oxirat va shialikdagi ma'od aqidasi bilan bog'liq tasavvur. Islom an'anasida dunyo tugagach (q. Oxirat), insonlar tirilib, o'rnidan turib (q. Qiyomat) to'planadigan va so'roq qilinadigan kun, deb tasavvur etiladi. Shundan M. kuni oxirat kuni yoki qiyomat kuni mazmunida tushuniladi.

MEROS (sinonimlari irs, virasa, virs, tarika, turas) - mol-mulk, huquq va majburiyatlar egasi vafot etishi bilan ularning boshqa shaxs ixtiyoriga o'tishi. M.ning barcha majmuasi, jumladan meros bo'yicha o'tadigan narsalarni belgilash, merosxo'rlarni ko'rsatish, uni olish va taqsimlash tartibi asosan johiliyat davridagi Arabiston o'troq aholisining huquqiy me'yorlaridan olingan va Qur'onda tasdiqlangan. M. ilm al-faroidning alohida huquqiy sohasi hisoblanadi. M. tushunchasiga o'lganning mulkini olishdan tashqari uning qarzlarini to'lash, uvdan qolgan majburiyatlarni bajarish, vasiyatini ijro etish, o'lgan kishi oilasini o'z qaramog'iga yoki vasiyiligiga olish va b. kiradi. Merosxo'rlar o'rtasida qolgan mulkning kamida uchdan ikki qismi taqsimlanadi, vasiyat bo'yicha esa, ko'pi bilan

uchdan biridan mahrum etish mumkin. Marhumning M. olish huquqiga ega bo'lgan qarindoshlari uch toifaga bo'linadi: a) 1-darajadagi eng yaqin qarindoshlar: ota-onasi, xotinlari, farzandlari; b) 2-darajadagi qarindoshlar: bobolar va buvilar, aka-uka va opa-singillar, nabiralar; v) 3-darajadagi qarindoshlar: amaki, tog'a va amma-xolalar, ammavachcha, amakivachcha, xolavachchalar. Bunda qondosh va o'gay qarindoshlar o'zaro teng huquqqa ega, boqib olingan bolalar qondoshlar bilan teng deb belgilanadi. 2-darajadagi qarindoshlar 1-darajadagi qarindoshlar yo'q bo'lsa, M.ga ega bo'lishlari mumkin, 3-darajadagi qarindoshlar agarda 1- va 2-darajadaga qarindoshlar yo'q bo'lsa, M.ga ega chiqishlari mumkin.

M. taqsimlanish paytida, bu jarayon boshlanishidan avval vafot etgan shaxsning mulkidan u ijaraga olgan, shartnomaga ko'ra uning ixtiyorida bo'lgan barcha narsalar ajratib qo'yiladi, qarzlari to'lanadi, xotinlarga mahr ajratiladi, xo'jayini vafot etgach, ozod qilinishga va'da berilgan qullar ozod etiladi. So'ngra barcha qolgan mol-mulk baholanadi va undan vasiyat bo'yicha mahrum etilgan qism ajratiladi; faqat shundan so'nggina u merosxo'rlar o'rtasida ularning ulushiga qarab taqsimlanadi.

ME'ROJ - q. Isro va me'roj.

MEHROB (arab. - sajdagoh) - 1) masjidning Makka (Ka'ba) tomonidagi devori ichiga taxmon shaklida qurilgan joy. M. islom dinining dastlabki davrlaridan har bir masjidida mavjud. U namoz o'qiladigan tomon (qibla)ni belgilash uchun xizmat qiladi. 2) Arablarda majlislarining to'ri. 3) Uyning to'ri.

MIKOIL, Mekoil - islomda to'rt bosh farishtadan biri (Azroil, Jabroil, Isrofil bilan birga). Diniy an'anada koinotni moddiy ta'minlovchi farishta hisoblanadi. U Qur'onda Jabroil bilan bir qatorda tilga olinadi (2-sura 92-oyat). Rivoyatlarda aytilishicha, M. Jabroil bilan birga Odamatoga birinchi bo'lib sajda qilgan, Muhammad (sav)ning ko'ksilarini yorib, yuraklarini poklagan. Musulmonlarga Badr jangda boshqa farishtalar bilan birga yordam qilgan.

MILLA - din, diniy jamoa. Qur'onda M. istilohi bilan majusiylik (18:20/19; 14:13/16), yahudiylik va xristianlik (2:120/114), Ibrohim (as)ning haqiqiy dini, uni yahudiylar, xristianlar va majusiy-arabiylar tomonidan buzilgani (6:161/162; 2:128/122; 130/124; 3:95/89; 4:125/124 va b.), Muhammad (sav) tomonidan tiklangani va u zotning izdoshlarini birlashtirgani anglatilgan. M. Rasululloh (sav) tomonidan diniy belgilariga ko'ra birlashgan kishilar uyushmasini anglatgan (q. Umma), Qur'ondagi istilohlar qatorida turadi. M. istilohining ikki xil ma'noda (din -uyushma) ekani Muhammad (sav) zamondoshlari bo'lgan shoirlar ijodida, o'rta asr musulmon adabiyotida (mas., Tabariy, Ibn Xaddun), o'rta asr hukmdorlari unvonlarida (mas., ilk G'aznaviyalarda) ko'zga tashlanadi. Istiloh "yo'nalish", "tariqat" ma'nosida ham ishlatilgan [mas., al-Hallojda]. Usmoniylar saltanatida 15-a. 2-yarmidan M. istilohi bilan (millat shaklida) davlat tomonidan rasman e'tirof etilgan va cheklangan muxtoriyat huquqini olgan diniy jamoalar (grek-pravoslav, arman-figorian va yahudiylar jamoasi) anglatilgan. Yangi davrda M. istilohi eski, Qur'ondagi ma'nosi bilan birga "xalq", "millat" kabi ma'noga ega bo'ldi.

MINBAR - masjidida imom vaʼz aytadigan baland joy, keng zinapoyali supa. Birinchi M. baland oʻrindiqli boʻlib, unga 2 zina bilan chiqilgan, Muhammad (sav) 628-629 ylarda vaʼz oʻqiganlarida unda oʻtirganlar. Shu yagona M.dan birinchi uch xalifa foydalangan, faqat Ali davrida Kufada ikkinchi M. paydo boʻlgan, keyinchalik Muoviya davrida Damashqda yana bir M. vujudga kelgan. Umaviylar davlat boshqaruvining oxirigacha M. taxt singari hokimiyat ramzi sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi. Vaʼzxonga kafedra boʻlib xizmat qilgan birinchi M. 748 y.da, Marvda Abu Muslim gʻalaba qilgandan keyin paydo boʻldi; shu vaqtdan boshlab siyosiy hokimiyat ramzi boʻlmay qoldi.

MINORA (arab. - mayoq) - asosan, masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qurilgan baland inshoot. Muazzin M.ga chiqib, azon aytadi - namozxonlarni ibodatga chaqiradi. Baʼzi M.lar shaharga, maʼlum bir meʼmoriy majmuaga koʻrk va salobat beruvchi yodgorlik sifatida ham quriladi. Mas., Samarqand, Xiva (Islomxoʻja madrasasining minorasi, Kalta minor) va Buxorodagi (Minorai Kalon) M.lar.

MINORAI KALON (Katta minora) Arslonxon minorasi - Buxorodagi meʼmoriy yodgorlik. Muhandis va meʼmor Baqo loyihasi asosida Arslonxon qurdirgan (1127). M.k. oʻrnida avval ham minora boʻlgan, u kulab tushgach, hoz.si mustahkam qilib qayta qurilgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. Yer sathidan 9 m chukur, bal. 50,0 m, kursisi qirrador, tanasi gʻoʻlasimon, tepasi gumbazli davra kafasa-koʻshk bilan bogʻlangan. Minora yuqoriga ingachkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pilpoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga oʻtiladigan koʻprikcha boʻlgan. M.k.ning oʻzagi ham, bezagi ham chorsi gʻisht (27x27x4-5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak gʻishti oʻrniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil xandasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari gʻishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik toʻkilib ketgan). M.k. shu turdagi qad. inshootlar orasida alohida oʻrin tutadi. Shaqlarning oʻzaro monandligi va mutanosibliga, handasiy uygʻunlik, ajoyib koʻrk va mahobatlilik M.k.ga chinakam goʻzallik bagʻishlaydi. Tanasi va muqarnaslari taʼmir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib taʼmirlangan (1960). Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan M.k.da taʼmirlash ishlari olib borildi (1997). M.k. Buxoro sh.ning noyob va koʻhna yodgorliklari qatoridan markaziy oʻrin egallagan.

"MIR ARAB" MADRASASI - Buxorodagi diniy oʻquv yurti. Malakali diniy mutaxassislar tayyorlaydi. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. Yamanlik amir Abdulloh tomonidan Buxoro xoni Ubaydullaxon inʼom qilgan mablagʻ hisobiga qurilgan (1530-36); madrasa amirning laqabi bilan Mir Arab deb atalgan. Shoʻrolar davrida faoliyati vaqtincha toʻxtatilgan, 1945 y.da yana giklangan. Oʻquv muddati 4 y. Oʻquv yurti kunduzgi boʻlimiga 15 yoshdan 35 yoshgacha boʻlgan oʻrta va toʻliqsiz oʻrta maʼlumotli kishilar qabul qilinadi. Diniy fanlarni, arab tilini uqitish Oʻzbekiston musulmonlari idorasi gomonidan tuzilgan reja asosida, umumtaʼlim fanlarni oʻqitish esa, respublika Xalq taʼlimi hamda Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari tomonidan maktab va oʻrta maxsus

o'quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar asosida olib boriladi. O'quv mashg'ulotlari ma'ruza, seminar tarzida o'tkaziladi. Darslar o'zbek va arab tillarida olib boriladi. Talabalarga ingliz, rus va fors tillari ham o'rgatiladi. O'quv rejasi va dasturlari talablarini to'liq bajargan, bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabalarga diplom beriladi.

MIR DOMOD, Mir Muhammad Boqir ibn Shamsiddin Muhammad al-Husayniy al-Astrobodiy (? - 1631/32) - shia ilohiyotchisi za faylasuf, Isfahon falsafa maktabi asoschisi. Astrobodda, mashhur shia oilasida tug'ilgan. Tusda ta'lim olgan, shoh Abbos I davrida (1587-1629) Isfahonga borib saroyda xizmat qilgan. Ilohiyot va falsafa bilan ko'p shug'ullangan. Najafda vafot etgan. M.D.ning ma'naviy dunyosi Ibn Sino falsafasi, as-Suxravardiyning ishroq teosofiyasi va shialikdagi imomat kontseptsiyasi ta'sirida shakllangan. Olimlar o'rtasida M.D. "Uchinchi muallim" ("Birinchii muallim" - Aristotel va "Ikkinchi muallim" - al-Forobiydan so'ng) unvonini olgan. Ishroq g'oyasi doirasida Isfahon maktabi vakillari shialikdagi uzlarining ta'limotlarini yaratganlar. M.D. ko'p asarlar yozgan. Ularning orasida eng mashxurlari - "Kitob ar-ravashix as-amaviya", "ar-Risala al-xal'iyah", "al-Jizavat" bo'lgan.

MIR KULOL Buxoriy (taxm. 1288, Buxoro yaqinida (hoz. Kogon tumani)gi Suxor qishlog'i - 1371) - xojagon-naqshbandiya silsilasining yirik namoyandasi, buxorolik yetti purning oltinchisi. Xoja Muhammad Boboyi Samosiydan tahsil olgan. Kulolchilik bilan shug'ullanganligi sababli Mir Kulol nomi bilan mashhur. "Silsilai Sharif"da 15-halqaning piri sifatida kelgan. Uning 114 xalifasi bo'lib, Bahouddin Naqshband, Shamsuddin Kulol (Amir Temurning piri), Orif Deggaroniy eng mashhurlari sanalgan. Uning hayoti haqida "Maqomati Mir Kulol" kitobi yaratilgan. Tug'ilgan qishlog'ida dafn etilgan Qabri ustida maqbara o'rnatilgan.

MIR SAID BAHROM MAQBARASI -Karmanadaga me'moriy yodgorlik (10-11-a.lar) Bir xonali murabba tarxli (4,5 x 4,5 m), gumbaz tomli. Somoniylar davri me'morligiga xos uslubda pishiq g'isht (21 x 21 - 3 sm)da bezakli qilib terilgan. Peshtoqi 3 qismdan iborat, hoshiyali. Sharafasi va ikki yon tomoni mayda g'ishtlardan terilgan. Ravoq hoshiyasida kufiy yozuvida Qur'ondan oyatlar bitilgan Tabadoniga yoy shakldagi o'yma panjara ishlangan. Ustungo'shasiga g'ishtlar juft-juft qilib "qo'sh" uslubida terilgan. Yon va orqa devorlari bezaksiz. Ichki gumbaz osti bag'ali sakkiz qirrali ravoq (5 g'ishtin ustun)ga tayangan. Peshtoqi pishiq g'isht (26,5 x 26,5 5 sm)dan qayta terilgan. Maqbara bir necha bor ta'mir etilib (1960-70 ylar), dastlabki ko'rinishini yo'qotgan. Maqbara me'moriy qismlarining o'zaro aniq nisbati naqshlarining ixchamligi bilan ajralib turadi

MIHNA - "sinov". 833 y.dan boshlab abbosiy xalifalari Ma'mun, Mu'tasim va Vosiq davrida mavjud hokimiyatga nisbatan xolis yoki noxolis ekanliklarini bilish maqsadida ilohiyotchilar M.ga duchor qilinganlar Qur'onni o'z vaqtida yaratilganini (hudus al-Qur'on) e'tirof etganlar xolis deb hisoblanganlar, buning aksini aytganlar esa, qatag'on qurbonlariga aylangan. M. avvalambor Bag'dodda o'tkazilgan, uning qurbonlaridan biri Ahmad ibn Hanbal bo'lgan. Xalifa al-Mutavakkil 849 y. Qur'onning kelib chiqishi haqidagi har qavday munozarani man etishi bilan M.ga chek qo'yilgan.

MOZOR (arab - ziyorat qilish joyi) - o'tmishdagi mashhur shaxslar, xususan, aziz-avliyolar dafn etilgan joy. Islom dinigga ko'ra, ulug' zotlarning qabrlarini ziyorat kilib. ularning ruhlarini duoi xayrlar bilan xotirlash savobli ishlardan hisoblanadi, Lekin, marhum aziz-avliyolar qabriga sig'inish, ulardan madad so'rash, farzand, shifo tilash shar'an man etiladi. M.da hojat so'ralganda faqat Allohning o'zidan so'rash lozim.

MOL (ko'pligi amvol) - xususiy, mulk (o'troq arablarda - "pul", "boylik", badaviylarda - "tuyalar", "chorva"). O'rta asr mualliflarining tushuntirishlariga ko'ra, M. to'rtta kategoriyaga ajraladi: "soqov" (qimmatbaho toshlar va pullar), "so'zlovchi" (qullar va chorva), tovarlar va ko'chmas mulk. Tor ma'noda M. - moliya, pul mablag'lari (moliya va soliqlarga doir ko'p risolalar ham shunday atalgan - "Kitob al-amvol"), shundan bayt- ul-mol va mol al-muslimin (barcha musulmon jamoasiga tegashli mablag'lar); ba'zi hollarda M. natural soliqlardan farqli ravishda pul bilan to'lanadigan soliqlarni anglatgan. U yoki bu shaklda M. musulmon xalqlarining barcha tillariga o'tgan. I.ch. yoki savdoga qo'yilgan mablag'lar ra's al-mol (asosiy mablag'lar, sarmoya), daromad esa, - g'alla, ribh deb atalgan. Hozirda ra's al-mal so'zi "sarmoya" istilohining aynan mazmunini beradi.

MOLIK ibn ANAS Abu Abdulloh (713-795) - faqih, muhaddis, molikiylik mazhabining asoschisi. Madinada tug'ilgan. Bolalikdan diniy ilm oldi, Qur'oni karimni o'rgandi. Islom huquqini puxta egallab, "Madina imomi" unvoniga sazovor bo'ldi. M.i.A. biror siyosiy oqimga ergashmasa-da, hokimiyatning saylab qo'yilishi qoidasini afzal hisoblardi, lavozimlarga ma'muriy tayinlanishlarga qarshi edi. M.i.A. Muhammad (sav) sahobalari aytgan hadislarni muayyan mavzularga ajratib, "al-Muvatta'" ("ommaviy, barchaga tushunarli" ma'nosida) deb atalgan to'plam tuzdi. Muhaddis buning uchun 40 y. umrini sarfladi. Bu ilk hadis to'plamlaridan biri bo'lib, bir necha ming hadisni o'z ichiga olgan. M.i.A. mudarrislik faoliyati bilan shuullangan. Shogirdlari orasida taniqli muhaddis Muhammad Shayboniy (805 y. v.e.), shofi'iylik mazhabi asoschisi Muhammad ibn Idris Shofi'iy (820 y.v.e.) bo'lgan. M. i. A.ning ijtimoiy-siyosiy qarashlari asosida hokimiyat xalifa qo'lida bo'lishi, xalifa esa qurayshiylardan saylanishi, alohida vakolatli shaxslardan tashkil topgan guruh (sho'ro) uni tasdiqlashi kerak, degan fikr yotadi. Umuman u Muhammad (sav) davridagi an'analarni yoklab chiqqan, ya'ni "ashob al-hadis" ("hadis tarafdorlari") oqimining yirik namoyandasi bo'lgan. Umrining oxirida zohidlikka berilgan va uzlatda yashagan.

MOLIKIYLIK - sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri. Molik ibn Anas asos solgan. M. Madinada paydo bo'ldi, Arabiston ya. o.ga, keyin Misr, Shim. Afrika va Andalusiyaga tarqaldi. Molik ibn Anasning "al-Muvatta'" ("ommaviy, barchaga tushunarli" ma'nosida) asari M. ta'limotining asosiy manbai hisoblanadi. M. tarafdorlari Muhammad (sav) hayotliklari vaqtida ilk islomda shakllangan fiqh me'yorlarini tan oladi, fiqhning asosiy manbai sifatida Qur'on va sunnaga tayanadi, Madinaning savodli aholisi yakdillik bilan ma'qullagan qoidalarnigana ijmo' deb hisoblaydi. Shu bilan birga musulmonlarning umumiy manfaatlariga javob beruvchi shariat hukmlariga monelik qilmaydi. Hoz. vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviya

nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta'siri bor. U Liviyaning bir qator jinoyat qonunlari asosini tashkil etadi.

MOMOHOVO (qadimiy yahudiycha "havvo" -hayot manbai) - Odamatoning xotini, birinchi ayol va inson zotining onasi. Injilda Yeva nomi bilan ma'lum. M. Odamatoning qovurg'asidan yaratilgan, deb sharhdanadi. U Iblisning so'ziga kirib, Odamatoni man qilingan mevani totib ko'rishga undaydi. Shu gunohi uchun M. jannatdan quvilib, yerda yashashga mahkum etiladi. Ular Makka yaqinida yana uchrashishadi. M. Odamato o'limidan ko'p o'tmay qazo qiladi va uning yoniga dafn etiladi. Nakd qilishlaricha, M. gunohlari tufayli ayollar jismoniy azob chekishga -homilador bo'lish, tug'ish va h. k.ga mahkum etilgan. M.ning gunohiga qaramay taqvodor ayollar jannatga tushishi xususida Alloh va'da qilgan.

MOTURIDIY, Abu Mansur al-Moturidiy (to'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy; 870-944) - buyuk imom, fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. "Imom al-xudo", "Imom al-mutakallimon" ("Hidoyat yo'li imomi", "mutakallimlar imomi") nomlari bilan ulug'langan. Samarqandning Moturid qishlog'i (hoz. Jomboy tumani)da tavallud topib, to umrining oxirigacha shu yerda yashagan, bu yerda katta bog` ham barpo etgan. M. Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida o'qidi, mahalliy hanafiy faqihlardan ta'lim oldi, keyin o'zi fiqh va kalom ilmlaridan dars berdi. Vasiyatiga ko'ra, Samarkanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. M.ning asosiy asarlari "Kitob at-tavhid" ("Yakkaxudolik haqidagi kitob") "Ta'vilot ahl as-sunna" ("Sunniylik an'analari sharhi")dir. "Kitob at-tavhid" bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotining birinchi asari hisoblanadi. Kitobning kalom ilmi ta'rifi berilgan muqaddimasida bilimning uch manbai: hissiy (sezgi) a'zolari vositasida, nakd-rivoyatlar vositasida va aql-idrok vositasida axborotlar olish mumkinligi haqida gapiriladi. M. sof din doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta'kidlaydi. M. ilohiyotchi olim sifatida muhim aqidaviy masalalar - juz'iy ixtiyor, e'tiqod, oxirat hayoti kabilarni qamrab oluvchi risolalar bitdi. "Ma'xaz ash-shari'a", ("Shariat asoslari sarasi"), "Kitob al-usul" ("Diniy ta'limot usuli kitobi"), "Kitob al-jadal" ("Dialektika haqida kitob") kabi asarlari shular jumlasidandir. M. Abu Hanifa qarashlarini tushuntirib berib, uni rivojlantirdi. Abul Hasan al-Ash'ariy (873-935) ishlab chiqqan islom aqvulasi asoslarini takomillashtirib, uni sunniylik e'tiqodiga kirib qolgan noto'g'ri, g'ayri sahih aqidalardan tozaladi. M. ilmiy merosini butun dunyo qiziqib o'rganmoqda. Uning asarlari ayrim qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan va qisman tadqiq qilingan. Jumladan allomaning Qur'onni to'g'ri o'qish uchun mo'ljallangan "Ta'vilot al-Qur'on" asari va uning uzviy davomi hisoblanmish "Irshod al-mubtadiyn fiy tajvidi Kalomi rabbul-olamin ("Qur'on o'qishga kirishganlar uchun qo'llanma") kitobi hozirda O'zR Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Gettingen (GFR) universitetining prof. Rudolf Ulrich "al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" asarini 1997 y. nemis tilida nashr ettirdi. Uning o'zbek tilidagi nashri ham tayyorlandi (Toshkent, 2001). O'zR Vazirlar Mahkamasining Qaroriga binoan 2000 y.da M. tavalludining 1130 yligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Toshkent va Samarqandda M. ta'limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi, Samarqandda alloma qabri ustida yodgorlik majmuasi barpo qilindi.

MOTURIDIY YODGORLIK MAJMUI, Imom al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi (2000) munosabati bilan, O'zR Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Samarqand sh. markazida bunyod etilib, ramziy maqbarasi o'rnatilgan (hududi taxm. 4 ga). Yodgorlik Registon ansambli yaqinida. Vobkent, G'ijduvon va Buxoro ko'chalari oralig'ida joylashgan. Bosh kirish qismi Vobkent ko'chasidagi xiyobon orqali. Loyihaga ko'ra 3 qismga (markaziy, bog' va xo'jalik) bo'lingan, ular o'zaro bir-biri bilan xiyobonli yo'lka orqali bog'langan. Loyiha o'qi manzarali mujassamotda yaratilib, maqbara binosiga tutashgan. Sharsharali favvoralar xiyobonli yo'lka markazida qurilib, atrofi obodonl ashtirilgan.

Yodgorlikning me'moriy loyihasi va badiiy yechimida o'zbek milliy mahobatli san'atining eng yaxshi an'analari qo'llanilgan. Maqbara pishiq g'ishtdan, murabba tarxdi (12x12 m), shifti gumbazli (bal. 15 m), poygumbazi 24 kichik ravoqchalarga bo'linib, ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Panjaralar yuqorisi murakkab tuzilishdagi muqarnaslar bilan to'ldirilgan. Xona markaziga qo'yilgan saganada arab yozuvida buyuk olimning so'zlari bitilgan.

MOTURIDIYLIK - kalomdagi oqim, Abu Mansur Moturidiy asos solgan. 9-a. oxiri -10-a.da Movarounnahrda ismoiliylar aqidalariga qarshi javob tarzida vujudga kelgan. Bu ta'limot rivojlanib, 13-a.dan keyin Movarounnahr hududidan chiqib, musulmon Sharqi mamlakatlariga yoyildi. Saljuqiylar hukmronligi davrida hamma joyda islom aqidalarida M. tatbiq qilindi. Sunniylikning hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiluvchilarning barchasi aqida bobida imom Moturidiy, uning shogirdlari hamda izdoshlari yozib qoldirgan asarlarga tayanib ish ko'rdilar. Islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shim. Afrikada bu ta'limot hozir ham o'rta va oliy diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinmoqda.

M.ning keng yoyilishiga uning mo'tadillik yo'lini tutgani, aqidaviy masalalarda Qur'on, hadis va aqlu idrok, mantiq hamda haqiqatga eng yaqin turgani sabab bo'ldi. Imom Moturidiy tarafdorlari bilishda faqat aqlga suyanish kerak, degan mu'taziliylardan farqli o'laroq, aql bilan naqlni qo'shib foydalanish zarur, deb hisoblaganlar. Mu'taziliylar Qur'onni yaratilgan desalar, moturidiylar uni qadim, azaliy, deb biladilar. Imon-e'tiqod xususida M. ta'limoti, ayniqsa, diqqatga sazovor. Mu'taziliylar imonning shartlari 3 ta, ya'ni til bilan iqror, dil bilan tasdiq va amal bilan ijro etish, desalar, M.da imonning shartlari 2 ta, ya'ni til bilan iqror etish va dil bilan tasdiqlash, amallarning o'rni esa boshqa, deb ta'rif qilinadi. M. har bir insonning taqdiri Alloh tomonidan belgalab qo'yilganiga qaramay, u o'z xatti-harakatlari uchun javobgardir, deb biladi. Inson imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar berib qo'yilgan. U o'z xatti-harakatlarida ixtiyorlidir.

MUAZZIN (arab. - "da'vat etuvchi", "chaqiruvchi", azon aytuvchi) - masjidida azon aytib, namozga chorlovchi shaxs; xalq tilida "so'fi" deb ham ataladi. M. uchta asosiy vazifani ado etadi: namozxonlarni to'playdi, imomni chaqiradi va namoz boshlanganligini e'lon qiladi. Ushbu uch majburiyat vaqt o'tishi bilan ma'lum o'zgarishlarga uchragan. Dastlab M. musulmonlar yashaydigan uylarni aylanib chiqib ularni shu tariqa namozga to'plashi lozim bo'lgan. Minora paydo bo'lishi bilan M. azonni uning tepasiga chiqib aytadigan bo'lgan. Ilk islom davrida shaharning jome masjidida namoz paytida

hokimning o'zi imomlik vazifasini bajargani tufayli M.ning zimmasiga namozxonlar to'planganlaridan so'ng hokimni chaqirish ham yuklatilgan. Bu tajriba 8-a. o'rtalarigacha davom etgan. Ibodat boshlanganligani e'lon qilish uchun maxsus chaqirish - iqoma xizmat qilgan, u orqali dastlabki vaqtlarda masjidga hokim kelgani bildirilgan. M. ilk islom davrida hokimning xizmatkori va yordamchisi hisoblangan. Davr o'tishi bilan azon aytish murakkablashgan, o'z tarkibiga kalimai shahodatni kiritgan va ibodatning o'ziga xos turiga aylangan. Shunga muvofiq M.lik ham yangacha talqinga ega bo'lgan. Uning faoliyat doirasi kengaygan. 7-a. oxiridayoq Misrda M. zimmasiga tunda qo'shimcha namozlarni o'qish yuklatilgan. Bundan tashqari 9-a.ning ikkinchi yarmida M.ning maxsus xonasida namozxonlar tunda Qur'ondan sura, oyatlarni tilovat qilishlari lozim bo'lgan, 12-a.ning ikkinchi yarmida, Salohiddin davrida M. kechki azon paytida aqida o'qiy boshlagan, 14-a. boshidan esa, juma kunlari ertalab minorada zikr tushilgan. Muhammad (sav) huzurlarida ikki M. - habash cho'ri o'g'li Bilol ibn Raboh va Abu Bakr (ra)ning mavlosi Ibn Umm Maktum bo'lishgan. Shuning uchun masjidlarda ikki M. bo'lishi maqtovga sazovor deb bilingan. Biroq kichik masjidlarda M.ning vazifasini ko'pincha imomning o'zi bajargan va bajarmoqda. M.lik vazifasi ko'pincha merosiy bo'lgan. Xalifa Usmon (ra) davrida (644-656) M.lar maosh oladigan bo'lishgan. O'rta asrlarda Mlar tashkilot (korporatsiya)ga birlashganlar, uning tepasida rais al-Muazzinin turgan. M. vazifasini tahoratsiz, mast, aqli noraso kishilar va ayollar bajarishi mumkin emas. Minoralar paydo bo'lishi bilan nazariy jihatdan M.ni balandlikdan turib masjid atrofidagi uylarning haramiga va ichkari qismiga ko'z tashlamasligi uchun ko'zi ko'r bo'lishi afzal deb bilingan. Hoz. paytda musulmon mamlakatlarida M.lar ovoz-kuchaytirish moslamalaridan foydalanadilar.

MUALLAQ TOSH - Aqso masjidi yaqinidagi Qubbatus Saxra masjidi ichidagi tosh. Quddus (Isroil) sh.da. Rivoyatlarga qaraganda, Rasululloh tosh orqali Buroqqa chiqqanlar. Ushbu M. t.ning hajmi taxm. 7-8 kv. metr keladi. Uning pastki qismida 2 kishi sig'adigan g'orcha bor. G'or ichiga kirilsa, 7 kishi sig'adigan joy bo'lib, u yerga joynamoz to'shab qo'yilgan, kirgan odam ikki rakaat namoz o'qib chiqadi. Ushbu tosh atrofi 1 m balandlikda panjara bilan o'rab qo'yilgan. Rasululloh osmonga ko'tarilganlarida tosh ham orqalaridan ergashib, havoga ko'tarilgan-u, payg'ambar "to'xta" deganlarida, u yerdan 2 m ko'tarilganicha qolavergan. Musulmonlarga bu toshni muqaddaslashtirish yoki ziyorat qilish buyurilmagan.

MUBORAK KECHALAR - ba'zi musulmonlar muqaddas hisoblab, maxsus nishonlaydigan kechalar. Bular - rag'oyib, baroat, me'roj va qadr kechalaridir. Rag'oyib - Payg'ambarimiz (sav)ning javharlari otalaridan onalariga tushgan kun deb e'tiqod qilinadi va u rajab oyining ilk juma kechasiga to'g'ri keladi; baroat (sha'bon oyining 15-kechasi) - poklanshtadigan, gunohlar kechiriladigan tun sifatida; me'roj - rajab oyining 27-kechasi payg'ambarimiz (sav) me'rojga chiqqanlari uchun nishonlaniladi, ya'ni, toat-ibodat ila mashg'ul bo'linadi. Aslida, bulardan faqat bittasi - Qadr kechasigina payg'ambarimiz tomonidan kutilgan va toat-ibodat bilan o'tkazishga buyurilgandir. Qolganlari keyingi davrlar "mahsuli" bo'lib, bid'at amallar hisoblanadi. Qolaversa, bu kechalarning qaysi kunga to'g'ri kelishi xususida ixtiloflar bor. Xullas, Alloh taolo afzal qilgan, Payg'ambarimiz (sav) muborak bilgan ma'lum bir oy, kecha, kunlar bor - ramazon oyi, ikki hayit, juma kunlari, qadr kechasi. Bu borada ham Payg'ambarimiz (sav) va sahobalar izidan borish eng to'g'ri yo'ldir.

MUBOH (arab. - umumiy, ixtiyoriy ish-harakat) - shariat tushunchalaridan biri. Unga ko'ra, qilish va qilmaslik barobar bo'lgan amal. Uni qilgan kishiga ham, qilmagan kishiga ham savob ham, gunoh ham yo'qdir. Harom bo'lmagan, man qilinmagan (qaytarilmagan) ishlarning hammasi M.dir. Mas., o'tirish, turish, yurish, yotish, uxlash, halol taomlarni yeyish va b. M. amallarning adadi behisob. M. bilan joiz tushunchasi mazmunan bir.

M. masalasi fiqhning ahkom bo'limi tomonidan talqin qilinadi. Mazhabga ko'ra, bir xil xatti-harakat M. yoki M. bo'lmasligi mumkin. Hoz. islom jamiyatida M. muammosi ancha dolzarbdir, chunki u jamiyat hayotidagi va maishiy turmushdaga yangi hodisalarni qabul qilish yoxud rad etish bilan bog'likdir. Chunonchi, artistlik va badiiy ijod ayniqsa, rassomlik va musiqa bilan bog'liq ko'plab savollar xususida anchadan buyon munozaralar mavjud. "Ortiqcha dabdaba deb bilinadigan narsalar" tushunchasini belgilash, cho'chqa terisi va moyidan foydalanib tayyorlangan import mahsulotlar (poyabzal, kosmetika)ni ishlatish mumkinligini anikdash, yevropacha kiyinish, ayniqsa, ayollarni shunday kiyim kiyish imkoniyatlarini belgilash, bo'sh vaqtdan foydalanish va b.ni aniklash juda murakkab bo'lib kelmoqda. Har bir mamlakatda umumiy sharoitdan kelib chiqib M.ning eng kam cheklanishlari ustidan nazorat qilish kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. M. masalalarini hal etishda huquqning ratsional manbalari (istihson, istisloh va b.)ni jalb etish katta ahamiyatga ega.

MUDARRIS (arab. - dars beruvchi) - madrasa o'qituvchisi. M.lar muayyan ilohiyot fanidan dars bergan. Hozir madrasalar va diniy un-tlarda faqat diniy ilmlardan emas, dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham M. deb ataladi.

MUJASSIMIYLAR, al-Mujassima ("jismlantiruvchilar") - Allohni jism sifatida tasavvur etuvchi turli aqidaviy maktablar izdoshlarining umumiy nomi. M. nomi ko'pincha al-mushabbihaning sinonimi sifatida qo'llanilgan. Shia aqidasi asoschilaridan bo'lgan Hishom ibn al-Hakam (814 y. Bag'dodda v.e.) Allohni jism sifatida belgilab, U uch o'lchov birligi (uzunlik, kenglik, balandlik) bilan cheklangan, jism xususiyatlariga (rang, hid, harakat va b.) ega deb hisoblagan.

MUJOHID (arab. - e'tiqod uchun, muqaddas ish uchun kurashchi; aynan - jihod urushining ishtirokchisi) - Sharkdagi barcha musulmon mamlakatlarida ishlatiladigan tushuncha. Ilk islomda va o'rta asrlarda M. xudo yo'lida jang qiluvchi, deb talqin etilgan. Yirik islom ruhoniylari yoki tashkiloglari biror urushni jihod (g'azavot) deb fatvo bergan holdagina ana shu urush qatnashchilari M. hisoblangan. Hoz. davrda musulmon mamlakatlarida demokratik harakatlarga va milliy hukumatlarga qarshi olib borilayotgan reaksiyon harakatlari ishtirokchilari o'zlarini M. deb ataydilar.

MUJTAHID (arab. - intiluvchi, g'ayrat qiluvchi) - o'rta asrlarda islomda ijthod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy va huquqiy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs. Sunniylarda diniy huquq mazhablarining asoschilari, shialarda yuqori martabali ruhoniylar va diniy xuquqshunoslar M.lar deb

ataladi.

Islom ulamolari ittifoqiga ko'ra, payg'ambar (as)ning ko'p sahobalari ham M. bo'lganlar. Chunki, keyinga avlodlar ulardan islomning avvalidagi fikhiy ilmlarni olganlar. 8-a.ning ikkinchi yarmidan boshlab mazhab asoschilari va ularning usullarini ishlab chiqqan izdoshlari M. deb atala boshlangan. M.lar uch darajaga ajratilgan: 1. Shariat darajasidagi M. (muftahid fi-sh-shar); u amaliyotda qo'llagan manbalarni o'zi aniqlagan, o'zi sharxlagan. U hech kimning e'tirozini qabul qilmasligi mumkin bo'lgan. 2. Mazhab darajasidagi M. (muftahid fi-l-mazhab); u har qanday masalani faqat o'z mazhabi asoschisi manbalariga suyangan holda hal etgan. 3. Ayrim masalalarni yechish darajasidagi M. (muftahid fi-t-tarjih); u o'zidan avvalgi M.lar hal etmagan masalalarni tadqiq etish huquqiga ega bo'lgan. Agarda ko'rilayotgan masala bo'yicha hukmlar bir necha bo'lsa, u o'zining ilmiy salohiyatiga ko'ra, ulardan birini quvvatlashi mumkin bo'lgan. M. darajasiga da'vogar faqih fikhiy bilimlarni mukammal egallagan, boshqa Mlar bilan bo'ladigan munozaralarda va ommaviy chiqishlarda o'z qarashlarini himoya qilishi lozim bo'lgan. Undan tashqari M. arab tilini mukammal egallagan, Qur'on va uning tafsirlarini yod olgan, kamida uch ming hadisni sharxlari bilan bilishi shart bo'lgan. M. odob-axloqi, turmush tarzi namunali bo'lishi lozim. Hatgo islomning dastlabki davrlarida ham faqihlar ijthodning birinchi va ikkinchi darajasiga kamdan-kam hollarda erishganlar. Ko'pincha ular vafotidan so'ng ular shu darajada e'tirof etilgan. 11-a.dan boshlab "ijthod eshiklari yopilgach", bu umuman mumkin bo'lmay qoldi. Sunniylikda oliy darajadagi M.lar deb mazhablar asoschilari e'tirof etiladi. Hoz. vaqtda buyuk muftiylar, yirik jamoalar (qavmlar) rahbarlari, diniy universitetlar rektorlari va b. ba'zan uchinchi darajadagi M. leb e'tirof qilinadi.

MUKOTAB - fiqhda o'zini o'zi sotib olishi haqida yozma bitim tuzgan kul (cho'ri). Bitim to'lov miqdori, to'lov muddati va shartlarini belgilagan. Bitim imzolanganidan e'tiboran xo'jayin qulga bo'lgan egalik huquqining bir qismidan mahrum bo'lgan (faqihlarning iborasiga ko'ra, qul "xo'jayinning mulkidan chiqadi, lekin uning egalik huquqidan chiqmaydi"). Bitim imzolanganach, cho'ri xo'jayin uchun begona ayol maqomini oladi, xo'jayin u bilan birga yashash huquqidan mahrum bo'ladi va bunga amal qilmasa jinoiy javobgarlikka tortiladi.

M. erkin harakat qilish va iqtisodiy faoliyat yuritish, xususiy mulk sotib olish huquqiga ega bo'lgan (faqat kul sotib olish emas), bitim imzolanganidan keyin tug'ilgan farzandlar, bitim shartlari bajarilgach, erkin, ozod bo'lganlar. Biroq, M. xo'jayinning rozilgisiz turmush kura olmagan. Agarda M. navbatdaga badal yoki so'nggi to'lovni berishni kechiktirsa, unga qo'shimcha muddat berilgan, uvdan so'ng esa, bitim bekor qilingan. Agarda to'lovlar o'z vaqtida to'lanib kelinayotgan bo'lsa, u holda hatto xo'jayin va M.ning bir paytda vafot etishlari ham bitimni bekor qila olmagan - barcha huquq va majburiyatlar har ikki tomonning merosxo'rlariga o'tgan

MULK, M i l k (ko'pligi - amlak) - ma'nodosh bo'lgan va ko'pincha aralash holda qo'llaniladigan istiloxdar (MLK o'zagidan -"ega bo'lmoq"). Mulk ham cheklanmagan hokimiyat (jumladan, podsho hokimiyatini) va shak-shubhasiz xususiy egalikni, ham mana shu xususiy egalik ob'ektini, milk esa - faqat xususiy egalik ob'ektini anglatadi. Xususiy egalik huquqi meros, sotib olish, in'om, xususiy egalik ob'ektini yaratish (buyumlar yasash, unumsiz yerni o'zlashtirish, foydali qazilmalar qazib chiqarish va b.) va harbiy o'lja sifatida bosib olish yo'li bilan vujudga keladi. M. muddatga ega emas,

shuning uchun topib olingan buyumning egasi noma'lum bo'lsa, topgan kishining xususiy mulki bo'la olmaydi - uni xayriya maqsadlariga berish yoki sarflash lozim bo'ladi (bundan qad. xazinalar mustasno). Tashlandiq egasiz yer, uni qayta ishlagan shaxsning xususiy yeriga aylanadi - bu holda yer o'z mohiyatini yo'qotgan, foydasiz bo'lib qolgan va shuning uchun xususiy egalik ob'ekti bo'la olmaydi deb hisoblanadi. Biroq, amalda tashlandiq yer ko'pincha oldi-sotdi ob'ektiga aylangan, demak uning egasi hayotligida yerga ishlov berilmagan hodda ham xususiy egalik huquqi bekor qilinmagan. Soliq belgilashdagi farqlar, soliq maqomining o'zgarishlari yerga xususiy egalik huquqiga ta'sir qilmagan. Butun o'rta asrlar tsavrida katta-katta mulk yerlari davlat boshliqlari ixtiyorida bo'lib kelgan. Musulmon huquqiga ko'ra, M. nafaqat moddiy ob'ektlar, balki turli huquqlar (mas., kanaldagi suvdan olinadigan ulushga bo'lgan huquq) ham bo'lishi mumkin, ularni ham sotib olish va sotish, garovga berish ham mumkin bo'lgan. Faqat musulmon kishi uchun foydasiz yoki man etilgan narsalargana (vino, cho'chqa va b.) xususiy egalik ob'ekti bo'lishi mumkin emas.

MULLA - O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida musulmon odatining bilimdoni, din xizmatchisi, diniy maktab o'qituvchisi; savodli, ilmi odam.

MULLA SADRA, Sadridin Muhammad ibn Ibrohim Sheroziy (taxm. 1572-1640) - Eron ilohiyotchisi, faylasuf va so'fiy, safaviylar Eronidagi shialikning g'oyaviy rahnamosi, faylasuflarning Isfahon maktabi peshvosi Mir Domodning eng yaqin shogirdlaridan biri. O'zining izdoshlari orasida Sadr al-muta'allihin - "teosoflar rahbari" nomi bilan ham mashhur. Boshlang'ich ta'limni Sherozda olgan, Isfahonda davom ettirgan, uzoq yillar shayx Bahouddin Amiliy (1621 y. v.e.)ning muridi bo'lgan: tafsir, shia hadislari, fiqh va b.ni o'rgangan, so'ngra mustaqil dars berishga ijozat olgan. Falsafa ilmida M.S.ga Mir Domod ustozlik qilgan Imomiy ilohiyotchilar uni hikmat va irfonga berilib ketganlikda ayblab, ta'qib etishgani uchun M.S. to'qqiz (yoki o'n bir) yil Qum yaqinidagi Kohak qishlog'ida yashirin hayot kechirgan. M.S. Kohakdan Sherozga qaytib, qokimning taklifiga ko'ra Sherozdagi katta madrasada mudarrislik qilgan. M.S. Sheroz falsafa maktabiga rahbar bo'lgan, bu maktab Isfahon maktabi bilan bir qatorda Eronning muhim ilmiy markaziga aylangan. M.S. o'z muridlaridan to'rtta shartga so'zsiz amal qilishni: boylik, dunyo lazzatlari, taqlid, itoatsizlikdan voz kechishni talab qildi. M.S. ilohiyot va falsafaga doir qirqa yaqin asar yozgan. Ibn Sinoning "ash-Shifo", Suxravardiyning "Hikmat al-ishroq", al-Kuliniy (941 y. v.e.)ning "al-Kafi fi usul ad-din" asarlariga sharhlar, shuningdek, Qur'onga batafsil tafsir yozgan, u mohiyatan ta'vil hisoblanadi. Falsafaga doir "Kitob al-asfar al-arba'a al-akliya" yozgan. Eronda M.S. hayoti va ijodiga qiziqish katta. Uning deyarli barcha asarlari va ularga sharxdar 20-a.da nashr qilingan.

MULHID - arab. xudosiz, ateist, dahriy, kofir so'zining sinonimi. Islom dinida xudosiz M. deb ataladi.

MUNAVVARQORI Abdurashidxonov (1878 -1931) - ma'rifatparvar, ulamo; Turkistonda jadidchilik harakati asoschilaridan biri. Toshkentning Shayxontohur dahasi Darxon mahallasida tug'ildi. Uning otasi Abdurashidxon mudarrislik, onasi Xosiyatxon otinlik

qilgan. M. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida va Buxoro madrasalaridan birida tahsil oldi. So'ngra Darxon mahallasi masjidida imomlik qildi. U Qur'onni yaxshi qiroat qilgani va diniy bilimlarni puxta o'zlashtirgani uchun "qori" unvoniga sazovor bo'ldi. M. ziyoli inson sifatida o'qish va o'qitish, madrasa va maktab islohotiga oid ilg'or fikrlarni ilgari surdi. U jadid maktablarini ochib, u yerda dars berdi. Shunday maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yozdi. "Tajvid" (Qur'onni qoidali o'qish) kitobi darslik sifatida qo'llanilgan. M. Turkiston xalq dorilfununini tashkil etish va unda musulmon bo'limi ochilishiga katta hissa qo'shgan.

M. "Havoyiji diniya" (1907) risolasida islom huquqi (fiqh)ning ibodat bo'limiga oid tushunchalarni sharxdab bergan. U bu asarida islom dinining yetuk bilimdoni sifatida namoyon bo'ldi. Boshqa asarlarida islom dini qoidalari, shariat ahkomlarini yoritishga katta o'rin ajratgan. 1914 y. Salim Ismoil Ulviyning Qur'on qiroati bo'yicha saboq beruvchi "Tajvid" qo'llanmasini o'zbekchaga o'garib, Orenburgda nashr ettirdi. M. "Sho'roi islomiya" tashkilotining asoschilaridan biri bo'ldi. 1929 y. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zolari bilan birgalikda kamoqqa olinib, 1931 y. Moskvada otib tashlandi. M.ning "Havoyiji diniya" asari Toshkentda nashr etilgan (1993).

MUNKAR VA NAKIR - islomiy tasavvurga ko'ra, o'lganlarni qabrda dastlabki so'roq qiluvchi, ulardan yerdaga qilmishlari to'g'risida hisobot oluvchi va qilgan gunohlariga qarab jazolovchi farishtalar. M. va N. taqvodor bo'lgan mayyitlarni to qiyomat bo'lgunga qadar tinch qo'yadi, gunohkorlarni esa, aksincha, Alloh qancha xohlasa, shuncha azoblaydilar. M. va N. nomlari hadislarda eslatiladi, Qur'onda esa, bu farishtalar tilga olinmaydi.

MUNOFIQLAR (arab. - ikkiyuzlama) - islom tarixiga xos tushuncha. Dinni yuzaki qabul qilib, o'zi esa, avvalgi qabilaviy diniga sig'inishni davom ettirgan arablarga nisbatan qo'llanilgan. M. istilohi Qur'onning Makka davriga xos ilk suralarida ko'p tilga olingan, Madina davrida o'zini islomni qabul qilgan qilib ko'rsatib, janglarda musulmonlarga yordam bermagan qabilalar ham M. deb atalgan. Munofiklik Qur'oni karimning ifodasiga ko'ra, Allohga ishonmaganliklari holda musulmonlarning huzurida o'zlarini imonli qilib ko'rsatishdir. Alloh taolo M. haqida Baqara surasining 8-16-oyatlarida bayon qilgan. Shuningdek, Qur'oni karimda M.ning kirdikorlarini bayon qilib bergan alohida sura (63) ham mavjud. Hadisga ko'ra, "...M.ning uch belgasi bor: gapirganda yolg'on so'zlaydi, bergan va'dasiga vafo qilmaydi, omonatga xiyonat qiladi".

MURJI'IYLAR (arab. - kechiktirmoq, muddatni cho'zmoq) - ilohiyot oqimi tarafdorlari. 7-8-a.larda paydo bo'lgan. Xalifalikda umaviylar hokimiyatiga qarshi kurash kuchaygan davrlarda ilohiyotda gunohkor va uning taqdiri masalasi muhim o'rin olgan. Katta gunoh qilganni darhol jazolash tarafdori bo'lgan xorijiyarlarga qarshi M. uni kechiktirishni yoqlab chiqqan. Ularning nomi shundan olingan. Siyosiy kurashda xorijiyar umaviylar hokimiyatiga karshi turgan, M. esa, umaviylarni himoya qilgan. Umaviylar inqirozga uchrab, abbosiylar hokimiyatni egallagach (750), bu oqim ta'qib qilingan va yo'qolib ketgan.

MURID (arab. - ergashuvchi) – ixtiyoriy ravishda izdan boruvchi, shogird. Tasavvufda tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma'nosida ishlatiladi. M. shayx, pir, murshid oldida o'z zimmasiga muayyan majburiyatlar oladi, ular bilan pinhona ishonchli munosabatlar o'rnatadi va ularning irodasiga bo'ysunadi. Umuman M. atamasi so'fiy va hatto oddiy musulmon ma'nolarini ham anglatadi.

MURIDCHILIK - so'fiylikning Shim. Kavkazda yoyilgan shakli. M. so'fiylik ta'limotining zohidlik, murshidlik va imomat g'oyalariga asoslangan. M. 19-a.da o'ziga xos diniy-siyosiy va harbiy uyushma sifatida tarqalib, G'ozni Muhammad, Hamzat, Shomil kabi imomlar rahbarligida tog'liklarning Rossiyaga qarshi urushida namoyon bo'lgan. Imomlar bu urushga diniy tus berib (g'azovot e'lon qilib), islom dini va shariatga asoslangan teokratik davlat - imomlik tuzishga uringanlar. Lekin, tog'liklarning olib borgan bu kurashlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan. M. diniy mutaassiblikka asoslangan mafkura sifatida maydonga chiqqan.

MUROBITLAR (arab. - rabotda yashovchilar) Shim. Afrikadagi zohid, darvishlarning harbiylashgan diniy jamoasi a'zolari. 11-12-a.larda M. Marokashni zabt etgan va Al-Murobitun sulolasi va davlatiga asos solgan. Keyinroq musulmon avliyo, yo'lboshchilarini yoxud darvish jamoalarining tashkilotchilarini ham M. deb atashgan.

MURTAD (arab. - orqaga qaytgan, chekingan) islom tarixida dindan qaytgan, undan voz kechgan, chekingan odam. Bunday odamlar eng katta gunox (q. Kabira) qilgan hisoblanib, o'limga hukm qilingan.

MURSHID (arab. - yo'l ko'rsatuvchi) -tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz.

MUSAYLAMA (asl ismi Maslama: 633 y. v.e.) - Arabiston ya.o.da Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng, payg'ambarlikni da'vo qilganlardan biri, Yamoma vohasida yashagan Bani Hanifa qabilasining diniy rahnamosi. Xalifa Abu Bakr (ra) davrida u mutanabbiylar (soxta payg'ambarlar) safiga kiritilgan va musulmonlarning bu qabilaga qarshi jangada halok bo'lgan. Musulmonlarga qarshi kurashgani uchun keyingi davr diniy adabiyotida uni kamsitish maqsadida M. (Maslama ismining arabcha kichraytirilgan shakli) deb atalgan.

MUSALLO (arab. - namoz o'qish joyi; fors. - namozgoh) - 1) dastlab, masjid so'zining sinonimi, so'ngra ro'za va kurbon hayitlarida namoz o'qiladigan joy. Bu joy shahardan tashqaridagi ochiq maydon bo'lib, hayit kuni minbarni ham olib chiqishgan. M. O'rta Osiyo (Buxoro)da 20-a.ning boshigacha mavjud bo'lgan. 2) Joynamoz, sathi tiz cho'kib, sajda qilish va M.ga burun va peshonani tekkizish uchun etarli bo'lishi shart. Qiblaga qaratiladigan tomoniga mehrob tasviri ip yoki ipak bilan tikilgan bo'ladi. Ammo namoz o'qish uchun albatga M. bo'lishi shart emas, uning o'rnida kiyim-kechak, hatto daraxt barsharini ham ishlatish mumkin, toza-pokiza joy bo'lsa, kifoya.

MUSANNAF (arab. - tanlab olingan, tanlangan) - hadis to'plamlarining maxsus turi. Unda hadislar musnad turidagi to'plamlardan farq qilgan holda mavzular bo'yicha to'plangan bo'ladi. Shuning uchun ma'lum soha yoki mavzuga oid hadisni qidirib topish M. to'plamlarida nisbatan osonroq bo'lgan. Musnad tarixan ilgariroq, M. esa, keyinroq vujudga kelgan. Buxoriy, Muslim, Ibn Moja, Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy hadis to'plamlari M. turidagi to'plamlarning eng mashhurlaridan hisoblanadi

MUSLIM (arab. - o'zini Allohga bag'ishlagan) - musulmon. M.ning ko'plik shakli (muslimun)ni buzib talaffuz qilinishi tufayli Eronda "musalmon", O'rta Osiyoda "musulmon", Rossiyada "basurman" atamalari kelib chiqqan.

MUSNAD (arab. - asoslangan, dalillangan, ya'ni isnodga asoslangan) - 1) hadis to'plamlarining ilk turi. M.da musannafdan farq qilgan holda, hadislar ularni bir-biridan eshitgan shaxslar silsilasiga asoslangan holda (har bir hadis uni xabar qilgan shaxsning ismi bilan bog'langan holda) joylashtirilgan. Shariatning ilk vakillari - molikiylik va hanbaliylik mazhablarining asoschilari Molik ibn Anas va Ibn Hanbalning hadis to'plamlari M. turidagi to'plamlardir. Musnad 3 xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Sanadlarning bir-biriga bog'lanishi.
2. Kitoblarning nomi, mas., Musnad Ahmad ibn Hanbal.
3. Umumiy shaklda, hadis roviylarining o'zidan yuqorisidagilar ham M. deb ataladi.

MUSO (as) - Qur'onda nomi tilga olingan payg'ambarlardan biri. Misr iodshosi (Fir'avn) Ramses II davrida tavallud topdi. Rivoyatga ko'ra, Ramses II folbinlari "Bani Isroil" qabilasida bir go'dak tug'ilib, u voyaga etgach, podshohning taxtdan ketishiga sabab bo'ladi deb aytganlar. Shunga ko'ra, Fir'avn amri bilan barcha tug'ilgan o'g'il farzandlar qatl etila boshlagan. M. (as)ning onasi Alloh amri bilan uni bir sandiqqa solib, Nsht daryosiga tashlaydi. Bu hakda Qur'onda Qasos surasi, 7-11-oyatlarda bayon qilingan. Bolani Fir'avnning xotini topib olib tarbiya qildi. Yosh M. (as) bir misrlik bilan urishib uni o'ldirib qo'yadi va Madyanga qochadi (Qasos surasi 12-51-oyatlar) u yerda uylanadi. Ba'zi rivoyatlarda M. (as) Shuayb (as)ning qiziga uylanganligi aytiladi. Bir necha yildan so'ng Misrga qaytadi. Yo'lda qorong'ida adashib qolib, olov ko'rinayotgan joyga yaqinlashadi. Bu yerda Alloh nidosini eshitadi va u payg'ambarlikka ixtiyor etiladi. Unga yolg'iz Allohga ibodat qilib, Fir'avn va uning xalqini iymonga da'vat etish buyuriladi. M. (as)ga birodari Xorun yordamchi qilib beriladi. Misrga qaytib kelgan M. (as) zolim Fir'avnni hidoyatga chaqirib, pand-nasihatlari qiladi. Biroq, Fir'avn va atrofidaogilar M. (as) so'zlarining rostligi, haqiqatan ham payg'ambar ekaniga ishonmaydilar. M. (as)ning qo'lidagi tayoqning ilonga aylanishi, cho'ntagidan qo'lini chiqarganda, oyna kabi yaltirab ko'zlarni qamashtirishi kabi mo'jizalarini shunchaki "sehr" deb hisoblaydilar (A'rof surasi 106-126-oyatlar). Fir'avn M. (as)ning qavmi bo'lmish "Bani Isroil"ga nisbatan tazyiqni kuchaytiradi. Shunda Alloh Misrga turli ofatlar yubordi. M. (as) o'z qavmi bilan yurtni yashirincha tark etib, Falastin tomon ketadi. Fir'avn ularning izidan tushadi, lekin qo'shinlarini Qizil dengiz yutib yuboradi (Yunus surasi 90-92-oyatlar). M. (as) Muhammad(sav)ning o'tmishdoshi bo'lgan haqiqiy payg'ambar sifatida ulug'lanadi. Unga

Tavrot kitobi nozil etilgan. Biroq yahudiylar, bu kitobdagi ma'lumotlarni, nasihatlarni buzgan, deb nakd qilinadi. M. (as) Nabu tog'iga borib, o'sha yerda vafot etgan.

MUSTAKRAH (arab. noloyiq, nomaqbul hisoblangan) - uni qilgandan ko'ra qilmagani yaxshiroq bo'lgan amallar. Taomni katta-katta yeyish, ko'chada ovqatlanish, baland ovozda kekirish, uvlab esnash kabilar M.ga kiradi.

MUSTAHAB (arab. - sevilgan, yoqtirilgan) - shar'iy amal; uni bajargan kishi savobli bo'ladi, bajarmagan kishi gunohkor bo'lmaydi. Shar'iy hukmlar kitoblarida mo'min-musulmonlar qilipshari ma'qul bo'lgan o'nlab M. amallar (nafl namozlarini o'qish, nafl ro'zasini tutish, sadaqalar berib yurish, turmushda oddiy odob qoidalariga rioya etish, atrofdagi odamlar uchun turli foydali ishlar qilish va h. k.) ko'rsatib o'tilgan.

MUSULMON - q. Muslim.

MUSULMON BIRODARLAR - q. Ixvon al-muslimun.

MUSHAF (arab. - sahifalangan) - xalifa Abu Bakr Siddiq, (ra) davrida Qur'onni kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozilgan to'plami, sahifalangan Qur'on. Xalifa Usmon ibn Affon (ra)ning davrida ko'chirilgan Qur'on nusxalari M.lar deb nomlangan. Keyinchalik kitob shaklidagi Qur'onning har bir nusxasi M. deb nomlanavergan. Shu ma'noda M.larning tahoratsiz ushlab, ular bilan tahoratxonaga kirish man qilinadi. Toshkentda O'zbekiston musulmonlari idorasida saqlanadigan Qur'onning qad. qo'lyozmasi (7-a.) ham M. nusxalaridan biridir.

MUTAASSIBLIK - o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish. M.ka yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlar jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadi. Insoniyat tarixida bunday e'tiqoddan g'arazli maqsadlarda foydalanilgan. M.ning paydo bo'lishiga diniy ziddiyatlar, shuningdek, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmagani ham sabab bo'lishi mumkin. Islom dini M.ga xayrixohlik bildirmaydi. Aksincha, teran o'ylashga, boshqalarga nisbatan murosali bo'lishga chaqiradi.

MUTAVALLI (arab. - ishboshi, boshqaruvchi) - islom tarixida vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaddor. Vaqf yerlarini ijaraga berish, vaqf mulkida xo'jalik ishlarini yuritishni ham M. bajargan. Xorijiy Sharq mamlakatlarida M.lar hozir ham bor, ular vaqflarni boshqaradi. Ayrim musulmon mamlakatlarida M. yirik ziyoratgohlar (maqbara, mozor va b.)ni, ulardan keladigan daromadlarni ham boshqaradi. O'zbekistonda masjidning xo'jalik va moliya ishlarini boshqaruvchilar M. deyiladi.

MUTAKALLIMLAR - musulmon ilohiyot olimlari. Ular islom diniy-aqidaviy ta'limoti - kalomni asoslab bergan. Hoz. islom ruhoniylari va ulamolariga nisbatan M. atamasi qo'llanilmaydi, u tarixiy tushunchaga aylangan (yana q. Ash'ariylar).

MUT'A (arab. - vaqtincha foydalaniladigan narsa) - shialikdagi ma'lum mablag' evaziga qilinadigan muvaqqat nikoh. M. asosida shialik shariati qozi tasdiqlagan rasmiy shartnoma asosida erkaklarga vaqtincha xotin olishga ijozat beradi. M.ning muhlati 1 kundan 99 y.gacha belgalanishi mumkin. M. nikohdik xotin va undan tug'ilgan bolalar qonuniy xotin va undan tug'ilgan bolalardan huquqiy jihatdan cheklanganroq bo'lgan. Qiz bolaga M. nikohidan o'tish taqikdangan. M. nikohi shialik tarqalgan xorijiy mamlakatlarda hozir ham amalda, lekin u ko'pincha yashirin qilinadi. Ahli sunna val jamoaning to'rttala mazhabida ham M. harom deyilgan. Ya'ni, M.ni zino-noshar'iy jinsiy aloqa deb e'tiborga olingan. Bunga Qur'on va sunnatdan dalillar keltirilgan.

MUFID, ash-Shayx Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad al-Ukbariy al-Horisiy (948 yoki 950-1022) - shialikdagi mashhur ilohiyotchi va faqih, imomiylikning nazariyotchisi va faol targ'ibotchisi. Otasi Vosit sh.da o'qituvchi bo'lgan, uning birinchi laqabi - Ibn al-Mu'allim ("muallimning o'g'li") shundan. Bag'dodda mashhur ilohiyotchi, faqihlardan ta'lim olgan. Mohir suxandon bo'lgan M. imomiy ilohiyotchilar peshvosiga aylangan. Uning targ'ibotchilik faoliyati Buvayhiylar rahnamoligida o'tgan, shu tufayli imomiylik aqidalari Iroqda, ayniqsa Bag'dodda keng tarqalgan. Bu esa, shialar va sunniylar o'rtasida qonli to'qnashuvlarga olib kelgan. Diniy nizolarga barham berish uchun xalifa shialarning g'oyaviy rahbari M.ni Bag'doddan badarg'a qilishga majbur bo'lgan. M. Bag'dodda vafot etgan, o'z hovlisiga dafn etilgan, bir necha yildan so'ng uning hoki al-Mashhad (al-Kozimayn)ga ko'chirilgan. Uning qabri hozirgacha ziyoratgoh sanaladi. M. 200 ga yaqin asar yozgan (shundan 25 tasi saqlangan). Uning bir qancha asarlari imomiylik nazariyasi, ilohiyot va fiqh, Qur'on tafsiri va hadislar, shialar tarixi, imomlar hayoti va b. ga doir.

MUFTI, muftiy (arab. - fatvo beruvchi, diniy masalalarda qaror chiqaruvchi) - shariat bilimdoni. M. diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin qilib berish, shariatni tatbiq etish borasida hal qiluvchi huquqqa ega. Odatda, uning fikr va qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun qo'llanma hisoblanadi. Ilk bor M.lar hokimlar va qozilar huzuridagi maxsus maslahatchilar sifatida xalifa Umar II (717-720) tomonidan Misrda tayinlangan. Har bir musulmon mamlakatda bosh M. bo'lib, u katta obro'ga egadir. M. davlat muammolariga oid (diniy jihatdan) ham, sof diniy masalalar bo'yicha ham (mas., diniy bayramlar va ro'zaning boshlanish vaqti haqida) qarorlar chiqaradi. So'nggi paytlarda aksar musulmon mamlakatlarida dunyoviy hokimiyat va aholi keng ommasining turmushdagi, iqtisodiyot hamda siyosatdagi ko'p yangiliklarga munosabati M.ning qanday fatvo chiqarishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Musulmon mamlakatlarida M.lik hukumat tayinlaydigan rasmiy lavozim hisoblanadi. O'zbekiston musulmonlari idorasiga ham M. boshchilik qiladi. U Ulamolar kengashi yig'ilishida 5 yil muddatga saylanadi

MUSHABBIHA (arab. - o`xshatuvchilar, o`xshatish tarafdorlari) - islom ilohiyotida xudoni odamga o`xshatib tasvirlaydigan ta`limot (antropomorfizm). Islom ilohiyoti - kalom tarafdorlari M. tarafdorlarini rad etib, ularga qarshi kurash olib borgan va ularni sanamga sig`inuvchilar deb qaragan (yana q. Tashbih, Mujassima).

MUSHRIKIYLIK, mushriklik (arab. -sheriklik, - xudoning sheriklari bor, degan tushunchadan) - ko`pxudolikning arab qabilalari o`rtasvda islom vujudga kelishidan oldin keng tarqalgan sodda shakli. Mushrikiy qabilalar turli sanam, tosh va h.k.ga, shuningdek, bir qancha erkak va ayol xudolarga e`tiqod qilgan. M. tushunchasi Qur`onda xudoni yakka deb e`tirof etmay, uning sheriklari bor, ya`ni xudolar ko`p, deb tasavvur qilinadigan qabilaviy dinlar ta`limotiga nisbatan ishlatilgan. Muhammad (sav) yakkaxudolik ta`limotini targ`ib qilib, M.ni qoralaganlar, islom ta`limoti M.ka qarshi kurash jarayonida shakllangan (yana q. Shirk).

MU`ATTILA ("mahrum etuvchilar", "inkor qiluvchilar") - mu`attiliylar, mu`taziliylarning nomlaridan biri. Ular mushabbihadan farqli ravishda "ilohiy sifatlar"ni mavjudligani inkor etishgan, bu esa, ulamolar tomonidan oxir-oqibatda Allohning o`zini inkor etishga, xudosizlikka olib keladi deb hisoblangan. Har holda o`rta asr musulmon ilohiyotchilari M. deb Allohning yuborgan elchisi, o`liklarni qayta tirilishini, Yaratuvchini inkor etganlarni aytishgan. Biroq, ilk M. faqat Allohning o`zini emas, balki sifatlarini inkor etishgan, shuning uchun ularni hoz. ayrim tadqiqotchilar fikricha, ateist (xudosiz) deyish to`g`ri emas.

MU`TAZILIYLAR, mu`tazila (arab. -ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) -islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri. 8-a. o`rtasida Arab xalifaligida vujudga kelgan. Asoschilari Vosil ibn Ato (699-748) va Amr ibn Ubayd (762 y. v.e.). Ular o`z guruhi bilan ustozlari Hasan al-Basriy (728 y. v.e.) maktabidan ajralib chiqqan. M. Qur`onni diniy haqiqatning manbai deb e`tirof etadi, uni so`zma-so`z emas, majoziy talqin qiladilar, rivoyatlarga ko`r-ko`rona ishonishga qarshi chiqadilar. M. qadariylarning inson iroda erkinligi haqidagi ta`limotini rivojlantirdilar va asosladilar. Ular 9-a.da o`zlarining aqidalar tizimini yaratdilar. Bungacha islomda davlat dini va barcha uchun majburiy deb e`tirof etilgan yagona aqidalar tizimi bo`lmagan. Chunki, dastlabki ikki yuz yillik davomida islom turli fikr, maktab, mazhab, huquqiy firqalar yig`indisidan iborat bo`lgan. Shuningdek, xalifalar diniy, siyosiy muxolifatdaga harakat (xorijiylar, shialar va b.)ga qarshi kurashuvchi mafkuraviy qurolga zarurat sezayotgan edi. Shuning uchun xalifa Ma`mun (813-833) M. ta`limotini davlat dini deb e`lon qildi. Xalifa farmoni bilan barcha qozilar, ilohiyotchilar, amaldorlar shu e`tiqoddami yoki yo`qmi, sinab ko`rildi. M. aqidasini (xususan, Qur`onning yaratilganini) tan olmaganlarni ishdan bo`shatdi, hatto o`lim jazo chorasini qo`lladi. Maxsus jazo muassasasi - "mihna" tashkil etdi. Ammo, majburiy choralarga qaramasdan M. ta`limoti xalifalikda umuman qabul qilinmadi, xalifa Mutavakkil (847-861) davrida esa, M. ta`limoti "shakkoklik" deb e`lon qilindi. M. aql-idrokni ilohiyot asosi deb e`tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan, o`zlarini yakkaxudolik (tavhid) va adolat (adl) tarafdorlari, deb atagan. M.ning asosiy g`oyalari vaqti kelib shia ilohiyotchilari tomonidan o`zlashtirib olindi. Keyinchalik Iroq va Eronda 11-12-a.larga, O`rta Osiyoda 13-14-a.larga kelib yo`qolib ketgan.

MUQQARRABUN (arab. - yaqinlashtirilganlar) - Qur'onda to'rt bosh farishta (Jabroil, Azroil, Mikoil, Isrofil)ning umumiy nomi. Islom aqidalarida ular Allohga eng yaqin farishtalar deb ta'riflanadi.

MUG'AYRA ibn SHU'BA (? - 666) -sahobalardan. Kufadaga saqafiy qabilasidan. Umar (ra) uni Basra hokimi etib tayinlaydi. Yarmuk jangida bir ko'zidan ayrilgan, Nihovand va Qodisiyya janglarvda ishtirok qilgan. Keyin Kufa hokimi bo'lib, shialar va xorijiyalar orasida yuz bergan fitnalarni bostirgan.

MUG'IYRIYLAR, al-Mug'iriya - "o'ta" shialar jamoasi, Mug'iya ibn Sa'id al-Ijliy izdoshlari. Xolid ibn Abdulloh al-Kasriyning Iroqdagi noibliigi davrida (724-738) Mug'iya Kufada o'zini "payg'ambar", Muhammad ibn Abdullohni mahdiy deb ochiqdan-ochiq da'vo qilib chiqqan.

Noibning amriga ko'ra, Mug'iya va uning bir guruh izdoshlari qo'lga olinib, gulxanda yoqilgan (736 y.). Mug'iya tarafdorlari Ja'far as-Sodiqning imomligini tan olmaganlar, ularning fikricha, imom Muhammad al-Boqir (732 y. v.e.) imomlikni Mahdiy kelishigacha Mug'iyraga vasiyat qilgan. 762 y. imomlik uchun kurashda Muhammad ibn Abdulloh halok bo'lgan, biroq M. va unga imom sifatida qasamyod qilgan abbosiy shialarning bir qismi uning vafot etganini inkor etganlar, ularning fikricha, uning qiyofasidagi shayton o'ldirilgan, uning o'zi esa, tog'larga yashiringan va aynan uning o'zi, Muhammad (sav)ga ismdosh bo'lgani tufayli, Mahdiy sifatida qaytadi. Shundan ularning boshqa bir atalishi - muhammadiylar kelib chiqqan.

MUHADDIS (arab.- hadis rivoyat qiluvchi) -hadislarni to'plash, saralash va sharxlash bilan shug'ullangan ilohiyotchi. Muhammad (sav) vafotlaridan keyin hadislarni to'plash keng an'anaga aylana boshlashi natijasida ilohiyotchilarning bir qismi bu sohada ixtisoslashgan va ular M.lar deb nom olgan. Hadis to'plamlari islom an'anasida e'tibor qozonib, M.lar (mas., Muhammad al-Buxoriy, Muslim'ibn al-Hajjoj, Ibn Moja va b.) islom tarixida mashhur bo'lib ketgan. Islomda hadis Qur'ondan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi.

MUHAMMAD (sav), Ahmad ibn Abdulloh (570/571 - 632) - islom dini payg'ambari va musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisi. Musulmonlar e'tiqodiga ko'ra, Allohning oxirgi payg'ambari va uning elchisi. U zot orqali odamlarga Qur'on nozil qilingan. Islom ta'limotiga ko'ra, M. nomlarini aytgan yoki eshitgan kishi "sallalohu alayhi vasallam" (sav) - "unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin" yoki "alayhissalom" - "unga salmlar bo'lsin" deb salovat aytib qo'yish vojib hisoblanadi. Quraysh qabilasining hoshimiylar urug'iga mansub, Makkada uncha boy bo'lmagan, lekin Makka zodagonlariga yaqin oilada tug'ilganlar. M. (sav)ning bolalik va o'smirlik yillari haqidagi ma'lumotlar juda kam. M. (sav) go'dakliklaridayoq yetim qolganlar; otalari Abdulloh - payg'ambar (as) tug'ilmaslaridan avval, olti yoshliklarida esa - onalari Omina vafot etgan. So'ng M. (sav)ni o'z tarbiyasiga olgan bobolari Abdulmuttalib ham ko'p o'tmay olamdan o'tadi. Yetim bolani tarbiya qilishni amakilari Abu Tolib o'z zimmasiga oladi. 12 yoshlarida M. (sav) bir muddat Abu Tolibning podasini boqadilar, keyin tijorat ishlariga jalb qilinganlar. 21 yoshlarida Abu Tolib M. (sav)ni Huvaylid ibn As'adning qizi, badavlat beva ayol

Xadicha xonadoniga dastyorlikka beradi. Xadichaning savdo ishlari bilan shug'ullangan M. (sav) Suriyaga safar qilganlar. xususan. Xalab va Damashq shaharlariga boradilar. M. (sav) 595 y. 25 yoshda 40 yoshlarga borib qolgan Xadichaga uylanganlar. Xadicha hayotligada M. (sav) boshqa xotin olmaganlar. M. (sav)dan Xadicha uch o'g'il (Qosim, Tohir, Tayyib) va to'rt qiz (Ruqiya, Zaynab, Ummu Kulsum, Fotima) ko'rgan. O'g'illari go'dakligidayoq vafot etgan. Qizlaridan Fotimagana M. (sav) avlodlarini davom ettirgan. Xadicha vafotidan so'ng M. (sav) bir necha bor uylanganlar (lekin, Oishadan boshqa bokira qiz xotin olmaganlar), ulardan farzand ko'rmaganlar. Faqat joriyalari Moriyadan Ibrohim ismli o'gil bo'lgan. U ham juda yoshligida nobud bo'lgan. M. (sav) qirq yoshga to'lganlarida o'zlarini boshqacha seza boshlaganlar. Yolg'izlikni qo'msab, Makka yonidagi Hiro tog'ida joylashgan g'orga borib ibodat bilan mashg'ul bo'lar, o'yga tolardilar. Taxm. 610-y.da M. (sav) Makkada o'zlarining xudodan vahiy olayotganlarini e'lon qiladilar. Buni birinchilardan bo'lib Xadicha, M. (sav)ning amakivachchalari Ali ibn Abu Tolib hamda asrandi g'illari Zayd ibn Horisa e'tirof etib imon keltirishgan. Ko'p o'tmay, Makkaning eng nufuzli savdogarlaridan Abu Bakr, Zubayr, Talha, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf va Usmon ibn Affon M. (sav)ning chin payg'ambar deb tan olishgan. M. (sav) izdoshlari jamoasi dastlabki paytlarda 50 kishidan oshmagan. Makkaning qolgan aholisi, ayniqsa, nufuzli qurayshiylar esa, M. (sav) ta'limotlarini ochiqdan-ochiq dushmanlik bilan qarshi olgan. Buning natijasida M. (sav) tarafdorlaridan 11 xonadon (50 ga yaqin odam) Habashiston (hoz. Efiopiya)ga ko'chib ketgan. M. (sav) jamoalariga jasur jangchilar sifatida tanilgan Hamza bilan Umarning qo'shilishi jamoaning mavqeini oshirdi. Ayni vaqtda quraysh zodagonlarining M. (sav) va u zotning tarafdorlariga dushmanligi yanada kuchaydi. 620 y.da Xadichaning, so'ngra Abu Tolibning vafotidan so'ng Makkada vaziyat yomonlashadi, M. (sav) muayyan xatar ostida qoladilar. Har yilgi an'anaviy Makka ziyoratiga kelgan Yasrib (hozirgi Madina sh.)lik Avs va Xazraj qabilalarining vakillari M. (sav) bilan uchrashib, sodiqlik bildirishadi va yordam qilishga va'da berishadi, M. (sav)ni Yasribga ko'chib borishga da'vat qilishadi. Avval M. (sav)ning izdoshlari (ashoblar) o'z oilalari bilan quraysh zodagonlaridan maxfiy ravishda guruh-guruh bo'lib ko'chadi. Oxirida M. (sav)ning o'zlari Abu Bakr (ra) bilan jo'nab ketadilar. 622 y.da yuz bergan bu ko'chish payti (arab. xijra)dan musulmonlar erasi - hijriy yil hisobi bolshanadi. Dastlab, ko'pchilik Makkalik musulmonlar, keyinchalik M. (sav)ning o'zlari ham Yasribga ko'chib o'tishgan (Rabiul avval oyining 12 yoki 8-sanasi yoki 622 y.ning 24 yoki 22 sent.ida). Yasrib Madinat an-Nabiy ("Payg'ambar shahri") yoki shunchaki, Madina deb atala boshlandi. M. (sav) jamoaning oddiy da'vatchisidan siyosiy yetakchisiga aylanganlar. Asta-sekin Makkadan M. (sav) bilan birga ko'chib kelgan musulmon - muhojirlar va madinalik musulmon ansorlar M. (sav)ning asosiy tayanchlari edilar. Shanba o'rniga musulmonlar uchun jamoa bo'lib namoz o'qiladigan juma kuni belgilanadi. Ka'ba muqaddas haj ziyoratgohi deb e'lon qilinadi. U islom dinining asosiy ziyoratgohi, ibodat qiluvchilar o'sha taraf (Qibla)ga qarab ibodat qiladigan bo'ldilar. Madinada birinchi masjid, M. (sav) uylari quriladi, musulmon arkonlari (aqoid) -ibodat, tahorat, ro'za, namozga chorlash - azon xayr-ehson ehtiyojlari uchun zakot yig'ish qoidalari ishlab chiqila boshladi. M. (sav) Allohning elchisi, odamlarga ilohiy yo'l-yo'riq va qonunlarni yetkazuvchi payg'ambar deb taniladilar. Madinada M. (sav) atroflariga birlashgan muhojir va ansorlardan iborat musulmonlar jamoasi (umma) vujudga keldi. Bu jamoa Arabistonda azaldan hukm surib kelgan qon-qarindoshlikdan iborat urug'-qabilachilik birlashmalari asosida emas, balki yagona diniy ta'limot asosida vujudga kelgan edi. Umma diniy ruhdagi uyushma bo'lib, M. (sav) ayni vaqtda jamoaning ham diniy, ham dunyoviy, ham harbiy rahbari edilar. Hijradan so'ng bir necha yil davomida Madina va atrofdagi arablar islomni qabul qilib, jamoaga a'zo bo'lib kirishdi. Shahardagi

yahudiylar musulmonlar bilan tuzgan ahdnomani buzgani uchun qisman haydab chiqarildi, bir qismi qirib yuborildi. Shunday qilib, M. (sav) diniy ta'limot, marosimlar va jamoani uyushtirishning asosiy tartib qoidalarini shakllantirganlar. Bu qonun-qoidalar keltirilgan vahiyalarda kisman M. (sav)ning va'zlari, xatti-harakatlari va qarorlarida o'z aksini topdi.

Madina davrining avval boshidan jamoani jipslashtirish va uni kengaytirishning shakllaridan biri makkalik mushriklarga qarshi kurashish edi. 623 y. musulmonlarning Makka savdo karvonlariga hujumlari boshlandi. Makkaliklarga qarshi uyushtirilgan iqtisodiy urush, ular farovonliganing asosiy manbai bo'lgan savdo karvonlari ishini chippakka chiqardi. 624 y.da Badr qudukdari oldida, (q. Badr jangi) 625 y.da Uhud tog'i etagida (q. Uhud jangi) janglar bo'ldi. 626 y.da makkaliklar madinaliklarga uzil-kesil zarba berish maqsadida yirik harbiy safarga o'tlanishdi. M. (sav) Madinani uzoq qamal sharoitiga tayyorladilar, shahar atrofiga chukur xandaqlar qazildi va u yerlarga kamonchi o'qchilar joylashtirildi. Qattiq to'zonli shamollar qamal qiluvchilarni toliqtirdi, ular orasida nizolar boshlandi. Natijada Madina qamali bekor qilindi, bu g'alaba Madina jamoasini yanada jipslashtirish bilan birga, unga yangi-yanga badaviy qabilalarning qo'shilishiga olib keldi. Hijraning 6-yilida makkalik quraysh zodagonlari mavjud muammolarni kelishuvchilik yo'li bilan bartaraf etish uchun M. (sav) bilan tengma-teng muzokara olib borishga majbur bo'lishdi. Xususan, Xudaybiyada muhim bitim tuzildi: unga ko'ra, makkaliklar kelgusi yili Madina musulmonlarining Ka'ba ziyoratiga to'sqinlik qilmaslik, ular Makkaga kelgan kunlari shahardan tashqariga chiqib turish majburiyatini oldi. Madinaliklar o'z navbatida bundan buyon Makka karvonlariga tegmaydigan bo'ldi. Bu davrga kelib makkaliklarning G'arbiy Arabistondagi siyosiy ta'siri tobora zaiflasha boshlagan edi. Shu sharoitda Makka hukmron doiralari M. (sav) jamoasi bilan munosabatlarni mustahkamlash zarurligini tushuna boshladi, Madinaga qarshi kurashning yetakchilaridan biri bo'lgan Abu Sufyon M. (sav) tarafiga o'tdi. 630 y.da Makka M. (sav)ga jangsiz taslim bo'ldi, islomning diniy markaziga aylandi. Ka'ba ichidagi butlar va sanamlar buzib tashlandi, u yangi dinning eng muqaddas sajdagohiga aylantiriddi, bu yerga ziyorat (haj) qilish bu dinning shartlaridan biri deb e'lon qilindi. Makkaliklarning o'zlari esa M. (sav) jamoalariga qo'shildi. Bu hol M. (sav) jamoalarining badaviylarga ta'sirini yanada kuchaytirishda va ular o'rtasida islomni kengroq yoyishda muhim ahamiyat kasb etdi. 631 y.da ko'p qabilalar M. (sav)ga bo'ysundi va islomni qabul qildi. Hijraning 10-yili (632 y. martida) M. (sav)o'z oila a'zolarini olib, Madina atroflaridagi 100 mingdan ortiq kishi bilan Makkaga birinchi va oxirga marta ziyorat (haj)ga bordilar. Buni islomda hajjat ul-vado' deyiladi. Mana shu ziyorat Makkaning islom diniy markazi sifatidagi mavqeini uzil-kesil hal etdi. O'shandan buyon o'tgan barcha asrlar davomida musulmonlar Makkani ziyorat qiladi. Ana shu ziyoratdan uch oy keyin uzoq davom etmagan kasallikdan so'ng M. (sav) Madinada vafot etadilar. Payg'ambar (as)ni o'z hujralariga dafn qilishgan, maqbaralari keyinchalik u yerda qurilgan katta masjid ichiga olingan, musulmonlarning ziyoratgohiga aylantirilgan. M. (sav)ning hayotlari va tarjimai hollari Siyrdyaa, u zotning so'zlari va qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar Hadislarda bayon etilgan. Islom ta'limotida M. (sav) komil inson sifatida ta'riflanadilar. Sunnada payg'ambar (as)ning hayotlari barcha musulmonlar uchun namuna bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Islom an'anasida M. (sav) hech qanday g'ayritabiiy, ilohiy xususiyatga ega emasliklari, balki hamma kabi oddiy odam, lekin Allohning chin va oxirgi paygambarlari ekanliklari qayd etiladi. M.(sav)ning shaklu shamoillari, siyratu sifatleri, insoniy fazilatleri, boshqa payg'ambarlardan farq etadigan xususiyatlari to'g'risida birga yurgan, suhbatlaridan bahramand bo'lgan sahobalar hamda nikohida bo'lgan ayollari tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida ko'plab

asarlar bitilgan. Ulardan Abu Iso Termiziyning "Shamoili nabaviya", Muhammad Busiriyning "Qasidai burda", Abu Ja'far Barzanjiyning "Mavlidin-Nabiy", Muhammad ibn Solihning "Muhammadiya", Mavlono Mu'inning "Siyari sharif", Akbarobdiyning "Nodirul-me'roj", Sayyid Mahmud Taroziyning "Shirin kalom", "Nurul kalom", "Nurul-basar" va b. ko'plab mualliflarning asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Imom Termiziyning "Shamoili nabaviya" kitobi ular ichida kadimiyligi va rivoyatlarining sahixdigi bilan ajralib turadi. Unda M.(sav)ning jismoniy va axloqiy xususiyatlariga batafsil ta'rif berilgan. Mas., ikki kiftlari o'rtasida "Muhammadun-Rasululloh" deya bitilgan muhri nubuvvatlari bo'lgani, soch-soqollarining oku qorasi nechta bo'lganidan tortib, kiyim-kechaqlari, oyoq kiyimlari, taqqan uzuklari, qilich-qalqonlari, salla-choponlari, yegan va yoqtirgan taomlari, ovqatdan oldin va keyin o'qigan duolari, suv ichishlari, xushbo'y narsalarni iste'mol qilishlari, so'zlashish odoblari, xulq-odoblari, kulish va hazil-mutoyibalari, musiqa va she'riyatga munosabatlari, ibodat va riyozatlari, tilovat va munojotlari, yotish-turishlari, tibbiyotga munosabatlari, kundalik tirikchiliklari, nomu laqablari, umrlarining mikdori, xastalik va vafotlari, qoldirgan meroslari va b. sifatlari to'g'risida alohida-alohida bob va fasllar orqali bayon etilgan. Jismoniy tuzilishlari to'g'risida jumladan shunday naql qilinadi: "Ul zotning bo'ylari unchalik novcha ham, past ham emas, bosh, qo'l, oyoq va kiftlari yo'g'on, yuzlari qizg'ish, ko'zlari katga, oqi juda oq, qorasi o'ta qora, o'tkir, sochlari quloqlarining yumshoqdarigacha yopib, yelkalariga tegib-tegmay turar, bo'yinlari sochlari orasidan tovlanib, go'yo kumush ko'zadek ko'rinib turar, terlasalar, marjondek terlaridan muattar hvd taralar, biror kishiga qayrilib qaramoqchi bo'lsalar boshlarinigana burib qaramay, balki butun gavdalari bilan o'girilib qarar edilar. Old tomonlarini qanday ko'rsalar, orqa tomonlarini ham shunday ko'rar edilar. M.(sav)ning soylari yer uzra namoyon bo'lmas edi.

MUHAMMAD SHAYBONIY, to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Hasan (749-805) -faqih, musulmon huquqshunosligini bir tizimga solib, tartib beruvchilardan biri. Vosit sh.(Iroq)da mavlo oilasida tug'ilgan. 14 yoshidan 18 yoshigacha Abu Hanifa mashg'ulotlariga qatnagan, so'ngra bir muncha payt Abu Yusufdan saboq olgan. 20 yoshida Kufaning jome masjidida va'z aytgan. Sufyon as-Savriy (777-78 y.v.e.) va Abdurahmon al-Avzo'iy (774 y.v.e.) ma'lumotlaridan foydalanib hadislarni o'rgangan. 3 yil mobaynvda Madinada Molik ibn Anas ma'ruzalarini tinglagan. Iroqqa qaytib kelgach, M.Sh. Bag'dodning eng e'tiborli faqihlaridan biriga aylangan. 792-93y.larda zaydiylar imomi Yah'yo ibn Abdullohni qo'llab-quvvatlagani uchun xalifa Horun ar-Rashidning qahriga uchragan. Biroq, keyinchalik xalifa o'z qarorgohini Furotga ko'chirishga jazm qilganida xalifa M.Sh.ni xalifaljnning yangi poytaxti - Rakka sh. qozisi etib tayinlaydi. 805 y. Xurosonga yo'l olgan xalifa Horun ar-Rashid M.Sh.ni o'zi bilan olib ketgan. Xalifa uni Xuroson qozisi etib tayinlamoqchi edi. Biroq, u yo'dda, Ray sh. yaqinida vafot etgan. M.Sh. juda katta sa'y-harakat qilib, asarlarida Abu Hanifa ilmiy merosini to'plagan. Shu bilan birga uning qarashlari ko'p hollarda Abu Hanifanikidan farq qilgan. M.Sh. fiqhga ovd al-Mabsut (2-nomi - Kitob al-asl fi-l-furu) to'plamini tuzgan va unga Kitob az-ziyodatni qo'shimcha qilgan; fiqhga doir katta ma'lumotnoma - Kitob al-jome al-kabir va kichik ma'lumotnoma - Kitob al jome as-sag'irni, shuningdek, harbiy huquqqa oid asar va b.ni yozgan. M.Sh. imom Molik ibn Anasning al-Muvatta asarini tuzuvchi va sharxlovchisidir. M.Sh. shogirdlari orasida eng mashhuri shofi'iy mazhabi asoschisi Muhammad ash-Shofi'iy hisoblanadi.

MUHARRAM (arab. - taqiklangan, muqaddas) - qad. arablarning Oy taqvimvda, shushshgdek, musulmonlarning hijriy yil hisobida birinchi oy. M. islomdan ilgari ham arablarda muqaddas oy hisoblangan, bu oyda qabilalar o'rtasidaga urush-janjallar va qon to'kishlar taqiqlangan. Bu M. oyining nomidan ham ko'rinib turadi. M. oyining birinchi o'n kunida shialar imom Husaynni yodlab motam tutadi, turli diniy marosimlar o'tkazadi (q. Ashuro). Islomda M. urush man qilingan to'rt oyning biridir.

MUHOJIR ("hijrat qilgan") - Makka fathiga qadar Muhammad (sav)ga ergashib Madinaga ko'chib borgan musulmon. Dastlabki yillarda M.lar soni yuzga yaqin erkak bo'lgan. Badr jangida 70 ga yaqin kishi qatnashgan. Ular musulmon jamoasining eng sara qismini tashkil qilgan. Ular imon, e'tiqod yo'lida qarindoshlik rishtalarini uzib, uy-joy, mulklarini tashlab Rasululloh (sav)ga ergashganlar. Dastlabki davrda M.larning ko'pchiligi badavlat dindoshlari xayriyalari hisobiga qashshoq yashaganlar (Qur'onda saxiylikka qilingan ko'plab da'vatlar shu bilan bog'liq), lekin, yahudiylarning Banu Nadir qabilasi ko'chirib yuborilgach, ular uy va yerlarga ega bo'lishgan, o'lja hisobiga boyiy boshlashgan. Umar I ularga boshqa musulmonlarga qaraganda kattaroq maosh belgilagan (qancha ilgari hijrat qilgan bo'lsa shuncha ko'p); o'lja taqsimotida ularga ko'proq ulush ajratilgan. Hatto 8-a. boshidagi Misr hujjatlarida M.larga atalgan ta'minotlar alohida qayd etib o'tilgan. Xalifalik taxtiga da'vogarlarning barchasi M.lar ichidan chikgan. Muhammad (sav) M.lar qatoriga Makkadan Habashistonga ko'chg'an va 629 y. Madinaga qaytib kelgan musulmonlarni ham kiritganlar, lekin Umar I maosh belgilash chog'ida ularni oliy darajaga kiritmagan, zero, ular dastlabki janglarda qatnashmaganlar. Keyinchalik ularni M. deb atashmagan.

MUHOKAMA - sud jarayoni. Sud yuritish tartibi islomda, asosan, 8-a. o'rtasiga kelib shakllangan. U uchta tamoyilga asoslangan: jarayonda tomonlarning shaxsan ishtirok etishi, jarayonning oshkoraligi, jarayonning uzluksizligi. Jarayon og'zaki olib borilmog'i lozim, yozma guvohliklar va dalillar esa, xotira uchun yozuv sifatida qaralgan, ularning haqqoniy ekani guvohlar (shohidlar) tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan. Tomonlarning o'zlari ayblov yoki da'vo qo'zg'atganlar va o'zlari himoya qilganlar. Agarda tekshiruv lozim bo'lsa, uni qozi yoki uning vakshsh olib borgan. Agar tomonlardan biri jarayonda ishtirok qila olmasa, uning nomidan vakil qatnashgan, lekin unga albatta qozining ruhsati lozim bo'lgan. Tomonlar tashqaridan taklif etilgan huquqshunoslar ko'magidan foydalanishlari mumkin bo'lgan, ular jarayonda advokatlik vazifasini bajarishgan, lekin, sud uchun ular faqat guvoh hisoblanishgan. Keng oshkoralikni ta'minlash uchun jarayon shunday joyda o'tishi kerakki, u yerda xalq to'plana olsin: maydonda, hokim yoki qozining uyi oldida, maxsus xona (mahkama)da va b. Sud shtati doimiy bo'lmagan: qozi o'z xohishiga ko'ra unga kotib, tarjimonlar, xabarchilar va b.ni kiritgan, ularga sudning umumiy xarajatlaridan pul to'lagan. Sud jarayoni vaqtida haqiqat, yoki tomonlarning biri boshqasini haq ekanini e'tirof etishi, yoki guvohlarning ko'rsatmalari, yoxud tomonlarning biri qasam ichib o'z hakdigiga ishontirishi yo'li bilan aniqlangan. Jarayon quyidagi tartibda o'tkazilgan: ayblov yoki da'vo qo'zg'atilgach, qozi tomonlarning kelish imkoniyatlarini hisobga olib ishning ko'rilish joyi va vaqtini tayinlaydi. Jarayon boshlanishida ayblovchi tomon o'z ayblovi yoki da'vosini izhor etib, imkoni boricha dalillar va guvohlarning ko'rsatmalarini keltiradi, ayblanuvchi tomon o'zini himoya etuvchi dalil, asoslarni keltiradi. Bordi-yu, tomonlardan biriga qo'shimcha dalillar to'plash uchun vaqt zarur bo'lsa, jarayon shu davrga kechiktirilishi mumkin.

Agarda na dalillar, na guvoxlarning ko'rsatmalari tomonlardan birining haq ekanini isbotlay olmasa, tomonlar qasam ichiriladi, bunda ayblovchi tomon birinchi bo'lib qasamyod qildiriladi. Bordi-yu, mana shu barcha imkoniyatlar ham samara bermasa, tsa'volar isbotlanmasa, jarayon to'xtatiladi. Agarda ayblovchi tomon jarayondan so'ng qo'shimcha dalillar topgudek bo'lsa, u yangi jarayonni boshlashi mumkin bo'lgan. Hozirgi davrda bunday sud jarayonlari, asosan, urf-odatni buzish bilan bog'liq, oilaviy va ba'zi mulkiy munosabatlar (merosxo'rlik va mulk gaqsimoti, vasiylik, topshiriq, mahr to'lash ustidan nazorat va b.)ni ko'ruvchi diniy sudlardagina olib boriladi. Murakkab zamonaviy usullarni qo'llash bilan bog'liq tekshiruvni talab qiluvchi barcha ishlar diniy sudlar tomonidan ko'rilmaydi.

MUHOSIBIY, Abu Ali al-Horis ibn Asad al-Anaziy (taxm. 781-857) - bag'dodlik ilohiyotchi, so'fiylikning birinchi nazariyotchilaridan biri. Basrada tug'ilgan. Hadislar va fikrni mashhur alloma Yazid ibn Horun (821 y. v.e.)dan va Abu Ishoq al-Kurashiy degan shaxsdan o'rgangan. Yoshligida Bag'dodga ko'chib o'tib, o'qishni mustaqil davom ettirgan. U zohidona turmush kechirgan, otasi qoldirgan katta merosdan voz kechgan, zero, u mutaziliylarning "inson irodasi erkinligi" haqidagi ta'limoti tarafdori bo'lgan. M.ning taqvodor va bilimdonligi unga katta shuhrat keltirgan va uning atrofida ko'plab shogirdlar to'planishiga olib kelgan. Biroq, taxm. 846 y. Ibn Hanbalning o'zi boshchiligida hanbaliylarning unga qilgan quvginlari oqibatvda u o'z va'zlari va darsini to'xtatishga majbur bo'lgan.

Uni bid'atda ayblashgan va Bag'dodni tark etishga majbur qilishgan. U qolgan umrini butunlay darveshona hayot kechirib, har qanday ijtimoiy faoliyatni to'xtatgan, qashshoqlikda vafot etgan.

M. ("Qalblar va xotiralar") asarida so'fiylik "psixologiyasi"ning asosiy qoidalarini ta'riflab bergan. Shaxs o'z-o'zini kamolotga yetkazishining asosiy vositasi o'z-o'zini kuzatuv va o'zini nazorat qilishi (muroqaba va muhosaba) deb bilgan. Laqabi Muhosibiy shundan olingan, ya'ni "o'zini-o'zi nazorat qiluvchi, o'ziga-o'zi hisob beruvchi". M. 30 dan ziyod asar yozgan, ulardan mashhurlari "Kitob ar-ri'aya li-huquq Alloh" ("Allohning haqlariga rioya qilish"), "Kitob at-tavahhum" va "Kitob al-ba's va-n-nushur" ("Qayta tirilish va yig'ilish kitobi"), so'fiylikka qadam qo'yganlar uchun o'g'itlar sifatida "Kitob al-vasaya" ("Tavsiyalar kitobi") va b.

M. Bag'dodning mashhur so'fiylari an-Nuriy (907 y. v.e.) va al-Junayd (910 y. v.e.) va b.ning ustozlari bo'lgan. Uning qarashlarini al-G'azoliy qabul qilib, ularni yuqori baholagan. "Kitob ar-ri'aya" butun musulmon olamida keng mashxur bo'lib, uni muridlar uchun "shart bo'lgan adabiyotlar" sifatida tavsiya etishgan.

MUHTASIB (arab. - nazorat qiluvchi) - o'rta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlari va shariat qonunlarining bajarilishi, odamlarning jamoat joylarida yurish-turishi ustidan nazorat qiluvchi amaldor. Shariat tizimiga xos mansabdor shaxslar toifasiga kirgan. O'rta Osiyoda bunday amaldorlar rais deb atalgan. M.lar bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilish, urf-odatlarning bajarilishini kuzatish, diniy vazifalarini bajarmagan kishilar (mas., ramazon oyida ro'za tutmaganlar)ni jazolashga hukm chiqarish va o'sha yerning o'zida hukmni ijro ettirish kabilar bilan shug'ullangan. M.ni odatda davlat boshlig'i tayinlagan va u qozi bilan barobar ish ko'rgan. Ammo, M. ma'muriy jihatdan qozidan pastroq lavozim hisoblangan va undan ancha kam maosh olgan. M. shaharni non bilan ta'minlash, taqchil

paytlarda uning bahosini ma'lum chegaradan oshirmaslik, shuningdek, kemalar va hatto hammol, yuk tashuvchi hayvonlarga qancha yuk ortilganini ham tekshirib turish va h.k. bilan shug'ullangan. M. lavozimi ayrim xristian davlatlari (Quddus qirolliga, Armaniston)da ham bo'lgan. Yaqin-yaqin vaqtlargacha (1920 y.ga qadar) Buxoroda M. turli vazifalarni bajarib kelardi. O'zbekiston musulmonlari idorasvda masjidning moddiy va ma'naviy faoliyatini nazorat qilib turuvchi muhtasiblik bo'limi mavjud.

MO'MIN (arab. - e'tiqod qiluvchi, dinga ishonuvchi) - ilk islom davrida Madina jamoasi (q. Umma) a'zosi. Shar'iy amallarni to'kis bajaruvchi shaxs esa, muslim deb atalgan. M. va muslim lug'aviy jihatdan bir-biridan tafovut qilingan. Keyinchalik ular bir mazmunda tushuniladigan bo'lgan. Qur'onda M. so'zi Allohning sifati va dindor e'tiqodining ichki, axloqiy tomonini aks ettiruvchi alohida tushuncha sifatida besh joyda qo'llanilgan. Ulamolar kimni M. qatoriga kiritish haqida turli fikrlarni bildirganlar. Chunonchi, axli sunna va jamoa "qalban ishongan" (akd bi-l-qalb), o'z imonini ochiq, barchaga e'lon qilib (iqror), chin niyat bilan yaxshi, solih amallarni qiluvchini M. deb hisoblaydi. Murji'iyalar bo'lsa, qalban ishongan va o'z imonini ochiq, barchaga e'lon qilgan kishi (solih amal qilmasa ham) M.dir, deydilar. M.ning mana shu ikki asosiy mohiyati haqidagi fikr boshqa tariqat va oqimlar tomonidan e'tirof qilingan. M. -oddiy xalq tilida yuvosh, muloyim odam degan ma'noni ham bildiradi.

MO'JIZA (arab. - aqlni ojiz qoldiruvchi hodisa) - payg'ambarlarning haqiqatan ham Alloh tomonidan bandalarga yuborilgan elchilar ekaniga dalil-hujjat sifatida yuz beradigan g'ayri tabiiy hodisa. Mas., Muso (as)ning hissasi tayoq sifatida qo'y haydashdan tashqari, kerak paytda boshqa shaklga kirib, daryoga ko'prik bo'lar, yoki ajdarga aylanib payg'ambar foydasiga xizmat qilar edi. Qo'llari qo'yniga suqib olingach, tunda yo'lni yoritishdek yog'du sochar edi. Iso (as)ga og'ir, bedavo kasalliklarni ham bir nafas bilan tuzatish, murdalarni tiriltira olish kabi mo'jizalar ato etilgan. Muhammad (sav) esa, bir necha o'nlab mo'jizalarga ega bo'lganlar. Ularning ichida eng ulug'i - o'qish, yozishdan mutlaqo xabari yo'q savodsiz (ummiy) shaxsning Qur'oni karim oyatlarini yoddan tilovat etishi va ularning nazm va mazmun jihatidan bashariyat imkonida yo'q oliy darajada aytilgan ilohiy vahiy ekanidir. G'ayritabiiy hodisalar deganda havoda bevosita uchish, suv betida yurish, uzoq masofani bir lahzada bosib o'tish, jonsiz narsalarni gapirtirish, zarur hojatlarning ravo bo'lishi, duosining ijobat etilishi kabi ishlar nazarda tutiladi. Bu xildagi hodisalar aziz-avliyolardan sodir bo'lsa u karomat deyiladi.

MO'TABAR JOYLAR, qadamjolar-dindorlar muqaddas deb hisoblagan va ziyorat qiladigan joylar. Bular - payg'ambar, shayx, eshon, avliyolar nomlari bilan bog'liq deb hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan maqbara, buloq, daraxt yoki tepaliklar, g'or va b.dir.

- N -

NABIY (arab. - ko'pligi anbiyo, ilohiy xabar keltiruvchi) - payg'ambar, Allohning farmoyishini insonlarga yetkazib beruvchi vositachi shaxs. N.larga ishonish islom dini aqidalaridan biri hisoblanadi. O'zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga (ya'ni Alloh elchisiga) ato etilgan kitob va shariatga amal qilmoqqa buyurilgan payg'ambarlar N.lar deyiladi. Nlarning hech biri rasul bo'la olmaydi, ammo rasullarning har biri N. nomi bilan ham ataladi. Allohdan vahiy olib turuvchi shaxs Qur'onda Muhammad (sav)ning rasul (elchi) degan ismi bilan bir qatorda eng asosiy sifatlaridan (nomlanishlaridan) biri. Qur'onda, shuningdek, undan avval o'tgan qad. payg'ambarlar, jumladan, birinchi payg'ambar Odamato haqida ko'p zikr qilingan. Muhammad (sav) esa, eng oxirgisi bo'lib, "hotam an-nabiyin" - "payg'ambarlar muhri" deb ataladilar. Qad. payg'ambarlar Allohga imon keltirishga chaqirganlar hamda Muhammad (sav)ning dunyoga kelishlarini bashorat qilganlar. Rivoyatlarga ko'ra, ularning soni 124 ming. Biroq, Qur'onda 25 tasining nomi zikr qilingan. Ulardan ko'pining qo'shimcha nisbalari bor. Mas., Ibrohim (as) Xalilulloh (Allohning do'sti), Iso Ruhulloh (Allohning ruhi), Muhammad Rasululloh va h.k. To'qqizta payg'ambar alohida ajratib ko'rsatiladi. Ular Nuh, Ibrohim, Dovud, Yaqub, Yusuf, Ayyub, Muso, Iso, Muhammad. Ulardan bir nechasiga muqaddas kitoblar: Musoga Tavrot, Dovudga Zabur, Isoga Injil, Muhammad (sav)ga Qur'on nozil qilingan.

NAVOIY, Nizomiddin Mir Alisher (1441 -1501) - ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri, davlat arbobi. Hirotida tug'ildi. Temuriylar davrida yashab, temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. 4-5 yoshlarida maktabga bordi, Qur'oni karim va hadislar uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir qildi. N. "yoshlik va yigitlik zamonida doimo darvishlar suhbatining talabgori edi" (Xondamir). Uning hayoti va ijodiy faoliyatida yirik shoir, Hirot naqshbandiylik tariqatining yetakchi vakili Abdurahmon Jomiy bilan uchrashuvi katta iz qoldirdi. Jomiyning ustoz-pir hisoblab, uning tasavvufi tarixi va namoyandalari haqidagi bir necha asarini turkiy tilda qayta yaratdi. 1466-68 y.larda N. Samarqandda yashab taniqli fiqhshunos Xoja Fazlulloh Abullaysdan saboq oldi. Shoirning fiqh ilmini sinchiklab o'rgangani badiiy ijodida ham, ijtimoiy faoliyatida ham asqotdi. N. o'z umri davomida musulmonlik tartib-qoidalariga, islom ko'rsatmalariga to'la amal qildi. Ayni vaqtda payg'ambarlar, so'fiylar, mashoyixlar hayoti, ularning yashash tarzlari xususida ma'lumot beruvchi "Nasoyimul-muhabbat" ("Muhabbat shabbodasi"), "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va hakimlar tarixi") kabi asarlar yaratdi. N.ning "Xamsa" asariga kirgan dostonlarda, devonlarda so'fiylar, darvishlar, oriflar xislatlarini ta'riflovchi g'azallar, muxammaslar, qitalar, boblar bor. N. bu zotlarni Xudo va payg'ambardan keyin tilga olib, ularni Alloh bilan insoniyat orasidagi vositachi, ruhiy va ma'naviy olam posbonlari sifatida e'zozlaydi. N. muqaddas kitoblardagi ilohiy fikrlardan o'z ijodida foydalanib, ularni maxsus risolalar uchun manba sifatida qabul qildi. Chunonchi, "Arbain" ("Qirq hadis"), "Nazmul-javohir" ("Gavharlar tizimi"), "Mahbubul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani"), "Munojot", "Sirojul-muslimin" ("Musulmonlar chirog'i") kabi kitoblari Qur'oni karim va hadisi shariflar ta'sirida yuzaga keldi. Ularda shariat axkomlari, Alloh sifatleri, islom arkonlari va aqidalari xususida so'z yuritdi, bu bilan islom ta'limotining ommalashishiga, ravnaq topishiga katta hissa qo'shdi. N. vazir va hokim lavozimlarida ishlaganida ham, keyin ham badiiy ijod bilan shug'ullanish barobarida masjid va madrasalar, xonaqoh va rabotlar bunyod etish, ilm-san'at ahdlarini tarbiyalash yo'lida

sa'y-harakatlar qildi. Hirotdagi Jome masjidi va uning huzuridagi madrasa, "Xalosiya" xonaqosiga, Astrobod, Mashhad, Marv singari chekka o'lkalardagi qurilishlarga ham mablag'larini ayamadi. O'z jamg'armasidan 4 ta katta madrasa, 25 dan ortiq masjid va xonaqoh, 50 dan ortiq rabot va h.k. kurdirdi. N.ning elga inoyat va marhamati ro'za oyida, hayit kunlarida ayniqsa beqiyos bo'lar edi. Shoir "Vaqfiya" asarida bu jarayonni deyarli qonunlashtirib qo'ygan. Keyingi yillarda N. asarlarini tadqiq qilish va nashr etishda yangi bosqich boshlandi. Uning ijodiga tasavvufning ta'siri, asarlarida so'fiylik g'oyalarning badiiy talqini masalalarini o'rganishga kirishildi.

NAVRO'Z - Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining kad., an'anaviy Yangi yil bayrami. Tarixiy manbalarda N. katta bayram sifatida Ahomaniylar davridan nishonlab kelinadi. Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" asarida N. bayramining urfga aylanishini qad. pahlaviy kitoblaridagi ma'lumotlarga asoslanib Eron eposining qahramoni shoh Jamshidga bog'laydi. Markaziy Osiyo, Eron va Afg'onistonga islom dini tarqalgach, bu o'lkalarda N.ni bayram qilish avvalgidek tantanali bo'lmasa-da, ammo butunlay yo'qolib ham ketmadi. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari 9-10-a.larda arab xalifaligi asoratidan kutulgach, N.ni bayram qilish yana umumxalq bayramiga aylanib rasmiylashdi. Bayram kuni mahbuslar ham ozod qilingan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ham bahor va N.ga bagishlangan xalq qo'shiqlaridan namunalar keltirilgan Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida hayotiy va diniy bayramlarning kelib chiqishi haqida yozgan. N. bayrami yangi yil birinchi oyi - hamalning birinchi kuni, mil. yil hisobi bilan har yili 21 mart kuni nishonlab kelinadi. N. bayrami bahor oyiga - q. x. ishlarining boshlanishiga to'g'ri kelgan. N.ning birinchi va OLTINCHI kunlari nihoyatda tantanali o'tkazilgan. N. bayrami 80-y.lar o'rtalarida asossi; ravishda diniy bayram va marosimlar qatorida man qilindi. Keyinroq bu bayram boshqa qadriyatlar qatorida tiklandi. Xoz. N respublikada umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi va dam olish kuni deb e'lon qilingan.

NAJAF, Mashhad Ali - Iroqdagi shahar, Kufadan 10 km g'arbda, Mesopotamiya vodiysi va sahro chegarasida joylashgan ziyoratgoh, An'anaga binoan Kufa atrofida, hoz. N, joylashgan yerda Ali ibn Abu Tolib (kv) dafn etilgan. Umaviylar hukmronligi davrida qabr o'rni sir tutilgan, shu tufayli keyinchalik N.dagi turli joylar Ali dafn etilgan yer deb belgilangan. Rivoyatga ko'ra, sag'ana xalifa Horun ar-Rashid (786-809)ning ko'rsatmasiga binoan qurilgan. Ibn Havqalning xabar berishicha, Mosul hokimi, hamdoniylardan bo'lgan Abul Xayja uning tepasiga katta gumbaz o'rnatgan, 10-a. oxirida esa, maqbara kurilgan. 11-a. o'rtasida maqbara sunniylar tomonidan yondirib yuborilgan, lekin tez orada qayta tiklangan. 14-a. boshiga kelib shaharda so'fiylar xonaqosi paydo bo'lgan. 1326 y. N.ga geograf Ibn Battuta kelib uni batafsil ta'riflagan: jumladan u shaharning oltin darvozalari, maqbaraning oltin chiroqtsonlari, hashamatli gilamlari va darpardalarini qayd etgan. O'sha davridayoq N. Iroqning eng muhim shaharlaridan hisoblangan. Hoz. N. - shialik ilohiyotining yirik markazi, ziyoratgohi. Ayniqsa, ashuro kunlari va hazrati Ali vafot etgan kun nishonlanayotgan vaqtda N. gavjum bo'ladi. 1964-1978 ylarda bu yerda Erondan quvg'in qilingan oyatulloh Ruhullo Humayniy yashagan

NAJMIDDIN KUBRO MAQBARASI -Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (14-a. 20-30-y.lari). So'fiylikdagi kubraviylik oqimining asoschisi, shoir, olim va shayx Najmiddin Kubro nomi bilan bog'liq. Maqbara 3 xona (Najmiddin Kubro sag'anasi joylashgan katta xona, bir necha qabrlari bo'lgan kichik xona va ziyoratxona)dan iborat. Miyonsaroy va xonalar gumbaz tomli, o'zaro bir-biri bilan bog'langan. Bosh tarzi chuqur ravoqli, peshtoqgumbazli, koshinkori naqsh bilan hoshiyalangan, yozuvlarida qurilgan yili saqlangan. Peshtoq yuqorisi muqarnasli sharafa bilan yakunlangan. Peshtoq devorlari va sag'ana oq, ko'k, havo rang va jigarrang koshin bilan qoplangan. Yog'och o'ymakorligida ishlangan eshigiga islmiy naqsh tushirilgan. Katta xonaning ichki gumbaz osti bag'ali qalqonsimon, 16 qirrali, 4 burchagi toquravoqli, ganchkori murqarnaslar bilan bezatilgan. Xona o'rtasidagi sag'ana o'ziga xos milliy uslubda ishlangan. Bu keyinchalik Xorazm me'moriy yodgorliklarida namuna sifatida keng qo'llanilgan. N.K.m.da Xorazm me'morligida musavvir va koshinpazlar tomonidan erishilgan barcha yutukdar namoyon bo'lgan.

NAJJOR, al-Husayn ibn Muhammad (? -taxm. 845) - mashhur ilohiyotchi; uning izdoshlari o'zlarini najjoriylar yoki husayniylar deb atashgan. Qum sh.da tug'ilgan, duradgorchilik qilgan N. munozara qilishga o'chligi bilan shuhrat qozongan, ayniqsa, Basra mu'taziliylari rahbari an-Nazzom (835/836 yoki 845 y.v.e.) bilan QIZEIN munozara olib borgan va shulardan biri chog'ida vafot etgan. Shahristotynning fikriga ko'ra, Rey va uning atrofidagi ko'pchilik mu'taziliylar N. ta'limotiga amal qilganlar. Ibn an Nadim N.ning 20 ga yaqin asari nomini keltirib o'tgan. Ba'zi masalalarda u sunniylar bilan, ba'zilarida esa, mu'taziliylar bilan birga bo'lgan. Xususan, barcha mu'taziliylar kabi u "abadiy ilohiy sifatlar"ni inkor etgan, buning uchun uni sunniy-sifatiylar tanqid qilganlar. Shu bilan birga u mu'taziliylarning inson irodasi erkinligi haqidagi aqidasi rad etgan va sunniy-sifatiylarning Alloh -inson xatti-harakatlarining ijodkori va harakat qilish imkoniyati harakat bilan bir paytda sodir bo'ladi, degan fikriga qo'shilgan. Uni jabariy deb ham atashgan, chunki, u dunyoda faqat Alloh xohlagan narsagana bo'ladi, deb hisoblagan. Aqoidning xususiy masalalari bo'yicha najjoriylar ichida o'zaro ixtilof paydo bo'lgach, ular ayrim guruhdarga bo'linib ketishgan, ularning orasida burgusiylar, za'faroniylar va mustadrikiylar mashhur.

NAZAR - mushohadaga asoslangan mulohaza, nazariy qarash. Bu ma'noda fiqhda ra'y va qiyos terminlari ishlatilgan. Kalomda N. deganda, asosan, ma'lumdan noma'lumga eltuvchi muhokama tushunilgan va shu ma'noda unga bahs, fikr, tafakkur, istidlol so'zlari ma'nodosh bo'lib xizmat qilgan. Shunga ko'ra, ularning ilmi ko'pincha "ilm an-nazar va-l-istidlol" deb nomlangan. Falsafada nazariya va amaliyotning o'zaro nisbatiga asosan nazariy aql (al-akd an-nazariy) va amaliy aql (al-akl al-amaliy) farqdangan, fanlarni esa, nazariy (ulum nazariya-fizika, matematika, metafizika) va amaliy (ulum amaliya-etika, uy-ro'zg'or yuritish, siyosat)ga ajratganlar.

NAZZOM, Abu Ishoq Ibrohim ibn Sayyor (? -835-36 yoki 845) - mu'taziliylarning Basra maktabi mashhur namoyandasi; uning izdoshlari o'zlarini an-nazzomiya (nazzomiylar) deb atashgan. N.ning asarlari saqlanmagan, uning qarashlari shogirdi al-Johiz asarlarida keltirib o'tilgan. N.ning fikricha, barcha narsalar bir paytda yaratilgan (jumlatan); jismlar cheksizlikkacha bo'linadi, shuningdek, harakatdagi jism bir yerdan ikkinchi yerga,

o`rtadagi masofani chetlab sakrashi (tafra) haqida; hissiy qabul qilinadigan sifatlarning jismga egaliga; jismlarning o`zaro birikishi (mudoxala) haqidagi qarashlari ma`lum. Johizning guvohlik berishicha, N. va uning izdoshlari "itlar va xo`rozlar ustida olib boriladigan tajribani namoz va Qur`on o`qishdan..., haj va jihoddan afzal ko`rishgan", "choryorlar"ni qoralaganlar, mashhur muhaddislar Abu Hurayra va Abdulloh ibn Mas`udlarni soxta hadis aytganlikda ayblaganlar.

NAZR (arab. - so`z berish, va`da qilish, kuchayish) - islom fiqhida biror savobli ishni bajarishga ahd qilish va uni og`zaki yoki yozma ravishda ifoda etish (mas., falon ishinni bitirsam yoki sogayib ketsam, Alloh yo`liga bir qo`y so`yib, qurbonlik qilaman kabi). Islomda N.ga tashviqot yo`q. Ammo, N. qilgan odam uni bajarishi shart hisoblanadi. Agar bajarmasa bir vojib amalni tark etgan hisoblanib, or gunohkor bo`ladi. Keyinchalik xalq o`rtasida N. so`zi xayr, sadaqa, ehson qilish ma`nolarida ham ishlatila boshlagan (mas., masjid, mozor yoki tilanchiga N. berish kabi). Islomga ko`ra, N. imkoni bor kishi uchun vojib. Moddiy yoki jismoniy jihatdan bajarishga qodir bo`lmagan odam N. qilmasligi lozim.

NAMOZ (fors., arab. - salat) - islom ko`rsatmalari bo`yicha bajariladigan maxsus ibodat turi; islomdagi besh rukndan biri. N. musulmonlarga me`roj kechasi (q. Isro va me`roj) farz qilingan birinchi ibodatdir. Bir kecha-kunduzda besh mahal (bomdod, peshin, asr, shom, xufton) N. o`qish farz hisoblanadi. N. o`qish "Allohu akbar" deb takbir aytish bilan boshlanib, sano, Qur`on oyatlaridan tilovat qilish, tasbeh va duolar o`qish, ruku`, sajda, tiz cho`kib o`tirish, salom berish kabilar bilan yakunlanadi. N.da bajariladigan barcha amallar birlashtirilib, yozma holda Muhammad Shayboniy (805 y.v.e.) tomonidan qayd etilgunga qadar, N. o`qish tartibini bir xillikka keltirish ustida o`tgan 150 yil mobaynida sa`y-harakatlar qilingan. Qur`on oyatlari va hadisi shariflarda N.ning ahamiyati, fazilatleri haqida gapirilib, uni mukammal ado etishga tashviqot qilinadi. N.o`qish uchun namozxonning badan va kiyimlari hamda o`qish joyi pok bo`lishi shart. N. Makkadagi Ka`ba ibodatxonasiga qarab o`qiladi. Uni o`qishda maxsus to`shama -joynamozdan foydalaniladi. N.ni kishi bir o`zi yoki jamoa bo`lib o`qishi mumkin, lekin juma kunidagi juma N.ini masjidda o`qish tavsiya etiladi. Jamoa bo`lib N. o`qiganda namozxonlar qator turadi, ulardan biri (odatda imom, lekin u ishtirok etishi shart emas) imomlikka o`tadi. N. paytida gapirish, yeyish, ichish, kulish, dunyo ishi bilan yig`lash, yo`talish, turli harakatlar qilish va b. mumkin emas. Kasal va nogaronlar N.ni o`zlariga kulay holatda o`qiydilar.

Islomdagi mazhablar ko`rsatmalarida N. o`qish qoidalarining bir-biridan fark qiladigan jihatlari bor. O`zbekistonda N. asosan hanafiylik mazhabiga muvofiq o`qiladi. Mamlakatimizda N. o`qish uchun barcha qulayliklar mavjud bo`lgan ikki mingga yaqin masjid faoliyat ko`rsatmoqda.

NARIGI DUNYO - oxirat, boqiy dunyo. Diniy aqidaga ko`ra, bu dunyo foniy, ya`ni qachondir tugaydi va undan keyin qiyomat qoyim bo`ladi, oxirat-boqiy dunyo boshlanadi. Barcha odamzod qayta tirilib, Alloh huzurida yorug` dunyoda qilgan yaxshi-yomon ishlari to`g`risida hisobot bergandan so`ng jannat yoki do`zaxga mahkum bo`lishi oxirat ishlaridan deb talqin etiladi. Qur`on va hadislarda oxirat to`g`risida juda ko`p eslatib o`tiladi. Zero, N.d.da qilmishlaridan hisobot berishiga ishongan odam, albatta,

yovuzlikdan qaytib, ezgulikka moyil bo'ladi. N.d. yoki oxiratni inkor etish islomda shakkoklik hisoblanib, imonidan mahrum bo'lishiga olib keladi.

NASAFIY, Abu Hafs Najmiddin Umar ibn Muhammad (1069-1142) - tarixchi, faqih, tilshunos, muhaddis, mufassir olim. Uning musulmon qonunshunosligaga doir "Manzumatun Nasafiya fil-xilofiyut" ("Kelishmovchiliklar borasida Nasafiyning nazmiy asari"), "Aqoyid un-Nasafiya" ("Islom aqidalari Nasafiy tazminida"), shariat qonunlari va Qur'oni karim sharhiga doir "Al-yavoqit fil-mavoqit" ("Qulay vaqtlar xususida yoqutlar"), 3 kitobdan iborat (100 bosma taboq hajmida) "Taysir fit-tafsir" ("Tafsir etishdagi qulayliklar"), shuningdek, tasavvufga doir "Risomayi Najmiya" kitobi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular yetarli tadqiq etilmagan. Musulmon olamida Abu Hafs Nasafiy asarlariga qiziqish qadimdan katta bo'lgan. Uning "Manzumatun-Nasafiya" asariga zamondoshi Alovuddin Abulmujohid Muhammad Samarqandiy (vafoti 1157 y.) "Xasrul masoyil va kasrud-daloyil" ("Masalalarning cheklangani va dalillar kasri") deb, nomlangan tafsir bitgan. Sohibqiron Amir Temur davri olimlaridan Sa'duddin Mas'ud ibn Umar Taftazoniy (vafoti 1390) N. asarlariga "Sharhi aqoyid un-Nasafiya" nomli tafsir yozgan. N.ning "Al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand" ["Samarqand ulamolari xotirasiga doir qand(dek shirin kitob)"] nomli asari, asosan, samarqandlik mashhur kishilar hayoti va faoliyati hamda ular rivoyat qilgan hadislariga bag'ishlangan bo'lib, unda Movarounnahr tarixi, geogr., toponimikasi hamda Islom tarixiga doir muhim ma'lumotlar mavjud. Asarga kiritilgan mashhur shaxslar tarjimai holi arab alifbosi tartibida joylashtirilgan bo'lib, uning bizgacha to'liq yetib kelmagan qo'lyozma nusxasining "xo"dan "kof" harflarigacha bo'lgan qismigina saqlanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, bu asar mustaqil yurtimiz o'tmishiga doir bo'lak manbalarda uchramaydigan ma'lumotlarga ega ekanligi boisidan nihoyatda muhimdir. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti N.ning ushbu asarini "Samarqandiya" nomi ostida chop etgan (2001).

NASAFIY, imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy (? - 1310) - imom, fiqhshunos, muhaddis. Ustozi Muhammad ibn Abdusattor al-Kardariy bo'lgan. N. fiqhga doir ko'plab asarlar yozgan. Olimning "Kanz ud-daqiq" asari ayniqsa, mashhur. Musulmon huquqshunosligi asoslari, hanafiylik va shofi'iylik mazhablarining o'ziga xos jihatlari haqidagi bu risola Nasrulloh ibn Muhammad ibn Jammod al-Irdi Kermoniy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. N.ning "Madorikat-tanzil" tafsir kitobi ham mashhur. Uni ta'lif etishda imom Zamaxshariyning "Kashshof" tafsiridan istifoda qilgan. N. tafsiri hoz.gacha ulamolar va ilmi toliblar o'rtasida shuhrat topib kelmoqda va undan islom o'quv yurtlarida qo'llanma sifatida foydalanilmoqda. N. hayotining so'nggi yillarida Bag'dodda mudarrislik qilgan va o'sha erda vafot etgan. N. asarlari O'zRFA Sharqshunoslik in-tining qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanmoqda.

NASORO (arab. - nasroniy so'zining ko'pligi; masihiylar, xristianlar). Qur'oni karimda Iso payg'ambarga ergashgan dindorlar shu nom bilan atalgan. Bu so'zning kelib chiqishiga sabab - Iso Masih Nosira nomli shaharda tug'ilgan bo'lib, uni Nosiriy deb atar edilar. Unga ergashgan kishini esa, nasroniy deb yurita boshlaganlar. N. Iso Masihni ilohiylashtirganlari uchun islom dini nuqtai nazarida shirk axlidan hisoblanadilar. Zero, islomda Alloh taologa hech bir narsani tenglashtirish hatto o'xshatish mumkin emas. N. esa, Iso payg'ambarni uchta muqaddas kuch -iloxlardan biri deb e'tiqod qiladi. Shuning

uchun ham Qur'oni karimning ko'pdan-ko'p oyatlarida N. haqida batafsil to'xtab o'tiladi va Muhammad (sav)ni e'tirof etishga da'vat qilinadi.

NASX (arab. - bekor qilish) - Qur'on oyatlaridan ayrimlarining qiroati va yozuvini o'zgarishsiz saqlagan holda, ularni faqat amaldan qoldirish, tatbiq etmaslik. Shu kabi oyat - "mansux", uni bekor qiluvchi oyat - "nosix" deb ataladi. Islom tarixiga ko'ra, Qur'on oyatlari yaxlit emas, balki vaqti-vaqti bilan, zarurat va ehtiyojga ko'ra 23 y. mobaynida nozil qilingan. Bu asnoda shariatning ayrim hukmlari oyat va hadislar ko'rsatmasi bilan yangilanib turgan. Shuning uchun ba'zi oyatlar mazmuni bir-biriga zid tuyuladi. Bunday vaqtda ulardan qaysi biri keyin nozil qilingan bo'lsa, o'shanisi nosix, oldin nozil qilingani esa, mansuxdir. "Baqara" surasining 106-oyatiga yozilgan tafsirlarda N. haqida mufassal ma'lumotlar berilgan.

NAQIB (arab. - boshliq, yetakchi, rais) - o'zlarini Muhammad (sav) avlodlarvdan deb hisoblaydigan sayid (o'zbeklar orasida -to'ra)lar jamoalarining yetakchilari, rahbarlarining lavozimi. N. lavozim sifatida o'rta asrlarda xalifalar hukmronligi davrlarida vujudga kelgan, hukmdorlar N.lar orqali sayidlar jamoalari bilan muomala qilgan. N.lar xazinadan ta'minlab turilgan. Keyinchalik N.lar sayidlar jamoalari va avlodlarining rahbarlari, ularning hayoti va turmushida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rahnamolari sifatida ish ko'rgan. Xorijiy mamlakatlarda Nlar hozir ham bor, ular sayidlar jamoalari hayotini boshqaradi, ular nomidan davlat hokimiyati vakillari bilan muomala qiladi. N.lik lavozimi avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan.

NAQSHBANDIYLIK - tasavvuf tariqatlaridan biri. Bahouddin Naqshband asos solgan. N. ta'limotining asosida "ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru, dast ba kor") shiori yotadi. Unga ko'ra, dilni Alloh bilan bog'lagan hodda kasbu hunar va qo'l mehnatini aslo tark etmaslik kerak. Faqirona yashash, xayr-ehson hisobiga emas, o'z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Bu g'oya tariqat asoslanadigan o'n bir qoidada ham o'z ifodasini topgan. Turonzamin tasavvufida zikr tushishning ikki usuli amalda bo'lgan. Biri - zikri lisoniy, ikkinchisi - zikri xufiya. N.da zikri xufiya amalda bo'lib, bunda zikr tushayotgan solik so'zlarni til bilan talaffuz qilmaydi, ovoz chiqarmaydi, so'zlar faqat dilda aytiladi. N. o'zidan oldingi oqimlardan bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. N. tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq qoidalarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Bu esa, N.ning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini taminladi. N. O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq halklarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egalladi. Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq Rijduvoniy N. tariqati rivojiga hissa qo'shdilar. 15-a.da Xoja Ahror bu tariqatning eng yirik rahnamosi bo'lib maydonga chikdi. Temuriylar davrida mashhur shaxslar N. pirlariga murid bo'lgan edi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar N. tariqatida edilar. Ular o'z asarlarida N. ta'limotini targ'ib etdilar. N. O'rta Osiyodan tashqari, Kichik Osiyo, Kavkaz, Kurdiston, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya va hatgo AQShda keng tarqaldi. Ayrim musulmon mamlakatlarida hozir ham bu tariqat katta mavqega ega.

NE'MATULLOH VALIY, Amir (sayid) Nuriddin Ne'matulloh ibn mir (sayid) Abdulloh (laqabi - Shoh Ne'matulloh Valiy) (1330-1431) - so'fiy, shoir; ne'matullohiylar so'fiylik tariqati asoschisi. N.V. sunniy -shofi'iy bo'lib, o'z shajarasini shialarning 5-imomi Muhammad al-Boqir orqali (21-bo'g'imda) Muhammad (sav)ga yetkazgan. Halabda tug'ilgan, Iroqda, so'ngra Makkada - shayx Abdulloh al-Yofe'iy (1298-1367) qo'lida tahsil olgan, 7 yildan so'ng uning xalifasi bo'lgan. Iroq, Misr, Tabriz, Ardabil, Movarounnahrda bo'lib, turkiy qabilalar orasida islomni faol targ'ib qilib, uni yoygan. Uzining zohidona turmush tarzi (40, 100 kunlik ro'za tutish, ma'lum muddat to'liq sukutga ketishi va b.) bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Samarqand va Qarshida bir muddat yashagan. Amir Temurga (1336-1405) uning va'zlari yoqmagan, shundan so'ng N.V. Hirotga ketib, amir Imodiddin Hamza al-Husayniy al-Hiraviyning qiziga uylangan. Hirotidan u Yazdga, u yerdan Ko'hbanon muzofoti (Kermon viloyati)ga o'tgan. Keyingi o'ttiz yillik umrini Yazd, Sheroz va Kermonda, so'nggi 25 y.ni esa, Mohon qishlog'i (Kermon atrofida)da o'tkazgan. Bu yerda u darvishlar uchun alohida binosi bo'lgan katta xonaqoh va masjid qurdirgan. Uning maqbarasi hozirgacha ommaviy ziyorat qilish joyi hisoblanadi. N.V. tasavvufga doir 544 ta risola yozganligiga ma'lum, shundan 110 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Bundan tashqari u 1541 g'azalni o'zida jamlagan katga Devon tuzgan, N.V. ta'limotida arab mistitsizmi (Ahmad ash-Shoziliy va Abu Madyon), Ibn Arabiyning vahdati vujud ta'limoti, Najmiddin Kubro g'oyalari va xojagon tariqati qarashlari aralash bo'lgan. So'fiylik tajribasida u al-Junayd va Boyazid al-Bistomiy yo'lidan borgan. N.V. fikricha, so'fiy 6 bosqich (marhala)ni bosib o'tishi lozim. Bular - faqr, mehr, taslim, vara', rido va fano bo'lib, shundan so'ng so'fiy Allohga qo'shilib ketadi. N.V. hunarmand va dehqonlar mehnatini madh etgan.

NE'MATULLOHIYLAR - shialikdagi so'fiylik tariqati tarafdorlari. Shialarning 5-imomi Muhammad al-Boqir avlodidan hisoblangan sayid Ne'matulloh Valiy (1330-1431) asos solgan. U Samarqand, Hirot, Yazd va ko'proq Kermonda yashagan. Xonaqohi va maqbarasi o'sha yerda. Sulton Shohruh (hukmronlik davri 1405-1447) N. va ularning piri Ne'matullohni o'z panohiga olgan. 16-a.da Eronda shialik hukmron mafkuraga aylangach, N. tariqati keng tarqalib, asosan shaharlarning savdo-hunarmand doiralari o'ziga jalb qildi. N. siyosiy faolligi, davlatning ichki hayotiga ta'sir ko'rsatishi bilan boshqa tariqatlardan ajralib turardi. N.ning Hindistonda ham tarafdorlari bo'lgan. Bu yerdaga N. tariqatiga a'zo bo'lgan har bir shaxs ismiga Ali shoh qo'shimchasi qo'shilishini shart qilib qo'yganlar, boshqa jihatdan Erondagalardan farq qilinmagan. N. Ali (kv) va tariqat asoschisi Ne'matulloh Valiyga sadoqatli bo'lishga qasamyod qilib, o'z zikrlarida Ali (kv) va yashiringan imom-mahdiyni madh etishgan. Tariqat a'zosi bosqich (taslim, zuhd, faqr, rido, mahabba, fano, vafo)dan iborat yo'l (marhala)ni bosib o'tishi kerak bo'lgan. N.dagi qutb lavozimi merosiy bo'lgan. 19-a. o'rtalarida ko'plab guruhlarga bo'linib ketgan. Uning tarafdorlari Eronda hozir ham bor.

NIZOMIY GANJAVIY Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf (1141-1209) — ulug' ozarbayjon shoiri va mutafakkiri. Ganja sh. (Ozarbayjon)da tug'ilgan. Yeshlik chog'laridan insonparvarlik, mardlik, o'zaro yordam shiorlariga amal qiluvchi axiylar jamoasiga kirgan. N.G.ga shuhrat keltirgan "Xamsa" ("Besh doston") asarida (1173-1203 y.lar) shoirning teran diniy-falsafiy qarashlari aks etgan. "Xamsa"ning birinchi qismi "Mahzanul asror" ("Sirlar xazinasi") deb ataladi. Doston Xudoga munojot, Muhammad (sav)ga na't (maqto'v) bilan boshlanadi. Alohida boblarda Xudoi taolo tomonidan insonning yaratilishi,

uning jannatdan kuvilish, tavba-tazarrulardan so'ng poklanishi va aziz zotga aylanishi tasvirlanadi. Muhammad (sav) hayotiga oid boblarda me'roj voqeasi badiiy tarzda yoritiladi. Shuningdek, unda Muso (as), Iso (as) va b. payg'ambarlar boshidan kechgan ayrim voqealar ifodalanadi. Doston boshdan oxirigacha so'fiyona ruh bilan sug'orilgan, tasavvuf ruknlari ibratli masallar, rivoyatlar, ramziy hikoyatlar orqali tavsif qilingan. Turkiy va forsiy adabiyotlarda N. G.ning bu asariga javoban 40 dan ortiq doston yaratiddi. Jumladan, Alisher Navoiy "Hayratul-abror" dostonini undan ilhomlanib yozgan.

NIKOH, zavoj ("turmush kurish", uylanish; sinonimlari zavoj, urs) - tenghuquqli nikoh. Islomda N. tartibi johiliyat davrida oila-huquqiy munosabatlar asosida shakllangan va islomning dastlabki davrlarida batafsil ishlab chiqilgan. Islomda N. Allohga xush keladigan amallardan sanaladi, unga har bir kishi, hatto jamiyatda teng huquqli bo'lmaganlar, aqli norasolar ham haqlidurlar, agarda buni ular uchun xojalari, vasiylari va vositachilar hal etsalar. Musulmon kishi nasoro Vki yahudiy ayol bilan N. tuzishi mumkin, lekin musulmon ayol faqat musulmonga erga tegashi mumkin xolos. N. uchun cheklashlar juda oz, lekin o'zaro N.dan o'tayotganlarga bir-birlariga yosh va jamiyatdagi mavqei bo'yicha mos kelishlariga rioya etishlari tavsiya etiladi. Birinchi N.da kelinning roziligani olish talab qilinmaydi, otasi yoki vasiysi rozi bo'lsa bas, beva yoki erdan ajrashgan ayol vositachi (vakili) orqali roziligini o'zi bildiradi. N.dan o'tayotganlarning o'zaro qarindosh-urug'chilik yaqinligi yon tomondagi qarindoshlik bo'yicha uchinchi darajadan yaqin bo'lmasligi lozim. Bir avloddan tarqalgan qarindoshlar o'rtasidagi N. umuman taqikdangan. Tutashgan qarindoshlik ikkinchi darajadan yaqin bo'lmasligi kerak. O'z kuli yoki cho'risi bilan N. o'qitish man etiladi, lekin xojaning cho'risi bilan birga yashashga ruhsat qilinadi. Begona qullar bilan N.ga ruhsat etiladi, shuningdek, xojalari ruhsati bilan qullar o'rtasidagi N.ga ham izn berilgan. N.ning birinchi bosqichi - kelishish, unashtirish (xitba) bo'lib, unda kuyov o'zi yoki vakili orqali kelinning otasi, vasiysi yoxud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va N. shartnomasi (sig'a)ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlar - kelinni kuyov xonadoniga uzatish (zifof) va to'y tantanalari (urs, valima). Bular oldinma-ketin bo'lishi ham mumkin, chunki, agarda kelin hali balog'at yoshiga yetmagan go'dak bo'lsa, uni uzatish to 13-15 yoshga to'lmaguncha kechiktiriladi. Valima vaqtida sig'a aytiladi va mahr yoki uning bir qismi (sadoq) to'lanadi. Mana shu barcha bosqichlarda faqat kelinga qilingan sarf-xarajatlarni (mut'a) hisobga olmaganda N. hech qanday oqibatsiz to'xtatilishi mumkin. So'nggi bosqich - amalda er-xotin bo'lish (nikoh), shundan keyin N. amalga oshgan hisoblanadi. N.ning zaruriy shartlariga mahr to'lash, ayolni boqish va unga uning oilasining mavqeiga qarab muomala qilish, erlik vazifalarini ado etish va farzandlarini boqish kiradi. Erning teng huquqli N.da bo'lgan xotinlari, ya'ni ular uchun mahr to'langan xotinlari to'rttadan oshmasligi lozim. Shuning uchun erkak to'rtta xotini ustiga yana xotin olmoqchi bo'lsa, ulardan bittasi bilan ajralishi kerak. Xotin kishi N.da o'z xuquqini to'la saqlab qoladi, unga tegishli mulkka erining hech qanday haq-huquqi yo'q va faqat uning roziliga bilangina eri ishonchli kishi sifatida uning ishlarini yuritishi mumkin. N.ni qanday o'tkazish quda tomonlarning boy-kambag'alligaga, ularning jamiyatdagi mavqeiga va mahalliy urf-odatlariga bog'liq bo'lgan. Hozirgi vaqtda ko'pchilik musulmon mamlakatlarda N. o'qitish nikoh notariusi (ma'zun) tomonidan amalga oshiriladi. Ko'pgana islom mamlakatlarida garchi bunday N.larning umumiy foizi hech qachon baland bo'lmasa-da, poligam N.larni cheklashga, hatto umuman man etish yo'lida sa'y-harakatlar qilinmoqda.

NOJIYA ("Najot topganlar") - to'g'ri yo'ldan boruvchi, haqiqiy dinga e'tiqod qiluvchi musulmonlar jamoasi. Hadislarga ko'ra, Muhammad (sav) musulmonlar jamoasi 73 jamoaga bo'linib ketadi, shundan 72 tasi "halok bo'lib" do'zaxga tushadi va faqat bittasi "xalos bo'lib" (najiya) jannatga tushadi, deganlar. Bu - Rasululloh (sav) va u zotning sahobalari amal qilgan e'tiqodga ergashuvchi ahli sunna val jamoadir.

NOMAHRAM - q. Mahram

NOSUT - oromiycha "inson tabiati". Dastavval "o'ta" shialar orasida tarqalgan. Ular Alini, o'zlarining imomlarini va goyaviy rahbarlarini ilohiylashtirganlar va Alloh yoki "ilohiy ruh" (ruh iloh) N.ga joylashishi mumkin deb da'vo qilganlar. Bu istilohni shialardan al-Halloj olgan va uni tasavvuf ta'limotiga singdirib yuborgan. N. va "ilohiy tabiat" (lohut)ning o'zaro nisbati masalasi bo'yicha ko'p asrlardan beri ulamolalar o'rtasida munozara davom etib kelmoqda.

NUBUVVAT (arab. - payg'ambarlik) - shialik ilohiyotiga xos tushuncha, uning 5 aqidasi biri. Payg'ambar va uning vazifasini aqida sifatida tan olish va unga ishonish (q. Shialik).

NUR - ilohiy haqiqat, diniy bilimni ifodalovchi ilohiy nur haqidagi tushuncha. Islom dini tomonidan qad. dinlardan (yahudiylik, xristianlik) va yunon gaostiklaridan o'zlashtirilgan. Qur'onda N. - Allohning o'zini ham anglatgan ("osmonlar va yer nuri") (24:35) va Uni o'z payg'ambari Muhammad (sav) orqali yuborgan vahiy-lari nuri (61:8-9; 64:8). Ustiga ustak bu - "toza nur", "nur ustiga nur", uni olovga qiyoslab bo'lmaydi, u yerdan tashqarida paydo bo'lgan. Musulmonlar an'anasida N. - Allohning ko'plab sifatlaridan biri.

NUR MUHAMMADIY (fors. nur-i Muhammadiy; "Muhammad nuri") - Muhammad (sav)ning qalin nur taratuvchi nuqta ko'rinishidagi ruhlari azaldan mavjud bo'lganligi haqidagi ta'limot; oldindan belgilangan barcha ruhlar shundan kelib chiqqan. Bu ta'limot mualliflari uni Qur'onning "nurli oyati"dan (24:35) olib, uni "ilohiy nur" haqidagi ta'limot bilan bevosita bog'lashgan.

NURBAXSHIYA - shialik ichidagi so'fiylik tariqati; 15-a. boshida kubroviylik tariqatidan uning shialikdagi tarmog'i sifatida ajralib chiqqan. Asoschisi - sayyvd Muhammad ibn Muhammad Nurbaxsh (1392-1464), bahreynlik arab bo'lgan. U o'z shajarasini shia imomi Muso al-Kozimga bog'lagan. Shia shayxi Xoja Ishoq al-Xuttaloniyning muridi bo'lgan. Qur'on va "barcha fanlar"ni yaxshi o'zlashtirgani uchun ustoziga unga Nurbaxsh laqabini hamda o'zining vafot etib ketgan ustoziga Kubroviylar shayxi sayyid Ali al-Hamadoniyning hirqasini berib, xonaqohga bosh bo'lishni topshirgan. Nurbaxsh tarafdorlari uni adolat o'rnatish uchun kelgan imom-Mahdiy va xalifa deb e'lon qilganlar.

Iroqda uning sha'niga atab tangalar zarb etilgan va xutbalar o'qilgan. Uning dovrug'i Kurdiston, Ozarbayjon, Gilonga tarqalgan. Temuriylardan Shohruh davri (1405-1447)da N. tariqati qattiq quvg'in ostiga olingan. Nurbaxsh qolgan umrini Ray viloyatidagi kichik qishlokda shogirdlari orasida o'tkazgan.

N. g'oyalari Eronda safaviylar ta'limotini qaror topishiga zamin hozirlagan. N. ta'limoti Muhammad Nurbaxshning "ar-Risolat al-i'tiqodiya" va "al-Fiqh al-axvat" kabi asarlarida bayon etilgan. N. ta'limoti negizida ikki imomlikka e'tiqod qilish yotadi: haqiqiy (haqiqiya) va qo'shimcha (idofiya), ularni shuningdek, "katta jihod" va "kichik jihod" deb ham ataydilar. Imomning tashqi va ma'naviy sifatleri majmuasi "kichik jihod" deb ataladi. Haqiqiy imom, qo'shimcha sifatlarga ega bo'lib valiy darajasiga ham yetishi lozim. Bunga faqat Ali ibn Abu Tolib (kv) erishgan. "Kichik jihod" belgilarini valiylik bilan uyg'unlashuvi, Nurbaxshning fikricha, "katta jihod"ni tashkil qilgan. Nurbaxsh Muhammad (sav) davrlaridagi urf-odatlarini tiklash va saqlab qolishga, "yanga udumlar"ni (bid'at)ni bekor qilishga da'vat qilgan.

NURIDDINBASIR, shayx Nuriddin Basiro, Qutbi chaxordaxum(?-1248) - O'rta Osiyolik mashhur shayxlardan, mutasavvif. "Kutbi chaxordaxum" ("O'n to'rtinchi qutb") nomi bilan mashhur bo'lgan. Shayx Zayniddin bobo Kuyi Orifoniyning shogirdi, xalifasi bo'lgan. "Samariya"da aytilishicha, shayxlikda tugallanib, eng so'nggi bosqichiga mingach, yo'l boshchisining g'aybiy ishorati yuzasidan, onasi bilan birga No'jkent (Toshkent yaqinidagi qishloq)dan Samarqandga ko'chib kelgan. N.B.dan "Sizning zamoningazda qutb kimdir?", deb so'ralganda u: "birodarim Abdullo o'n uchinchi kutbdir, biz o'n to'rtinchimiz", deb javob bergan. "Basir" atalishiga sabab, u onadan so'qir tug'ilgan bo'lsa ham valiylikning nuri bilan barcha ko'rguliklarni ko'rar edi. N.B. qabri Samarqandning Chokardiza qabristonida, Novadon ariga bo'yida joylashgan.

NUSAYRIYLAR, alaviylar- shialikka mansub firqalardan birining tarafdorlari. 9-a.da yashagan Muhammad ibn Nusayr Basriy rahnamo bo'lgan. N.ning asosiy aqidasi shialarning birinchi imomi xalifa Alini ilohiylashtirish (shundan "alaviylar" nomi kelib chiqqan), unda xudoning o'zi mujassamlangan deb ishonishdan iborat. Ularning diniy ta'limoti va marosimlariga xristian dini va ayrim qadimiy e'tiqodlar ta'sir etgan. Xristianlikdagi muqaddas uchlik (troitsa) kabi, N. ham Muhammad, Ali va Salmon al-Forisiyni Xudoning uch xil namoyon bo'lishi, deb e'tiqod qiladi. Islom aqidasi zohiri va botini (sirti va ichi) bor deyishadi va shu orqali uni buzishga harakat qilishadi. Barcha harom narsalarni halol sanashadi. Ular o'z falsafalarini yunon, hind, fors va nasroniy falsafalaridan jamlashgan. Ular Kuyosh, Oy va yoritqichlarga sig'inadilar, jonning ko'chib yurishiga ishonadilar. Ularning e'tiqodida yana quyidagilar asosiy o'rin tutadi: N.ning bir qismi Alini oyda yashaydi deb e'tiqod qiladi, ba'zilar esa, Quyoshda yashaydi deydi. N. Muhammad (sav)ni Ali yaratgan deb e'tiqod qiladi. Hajni e'tirof qilmaydi. Zakotni boshqa musulmonlardek belgilamaydilar, balki xums (beshdan bir qism) beradilar. N.ning bayramlari quyidagilardir: Navro'z -bahor bayrami, Yeadir bayrami, mubohala bayrami, Qurbon hayiti va shuningdek, nasroniylarning cho'qintirish, barbarlik, Isoning tug'ilgan kuni, xoch kabi bayramlarini ham nishonlaydi. Hukmron diniy oqimlar tomonidan asrlar davomida ta'qib qilingani sababli N. o'z e'tiqodlarini sir tutadi, marosimlarini kechalari, maxfiy ado etadi. Ularda namoz, ro'za va b. islom marosimlari, masjid kabi ibodatxonalar yo'q. N. hozir Suriya va Turkiyada bor.

NUMON ibn BASHIR, to'liq ismi An-Nu'mon ibn Bashir ibn Sa'laba ibn Sa'd al-Ansoriy al-Xazrajiy (taxm. 623-683) -sahoba. Onasi - Amra bint Ravoha (Abdullo ibn Ravohaning sinshisi) sahobalardan bo'lgan. N.i.B. juda ko'plab hadislarni rivoyat qilgan va ko'plab tobe'inlar undan hadislarni rivoyat etgan. Muoviya ibn Abu Sufyon zamonida (661-680) Xums va Kufada amir bo'lgan. Xalifa Yazid ibn Muoviya (680-683) vafotidan so'ng, xalqni Abu Bakr Siddiq, (ra)ning nabirasi az-Zubayrga bay'at qilishga chaqirgani uchun Xums aholisi undan norozi bo'lib o'ldirgan.

NUH (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Injildaga Noyga to'g'ri keladi. Qur'onga ko'ra, Alloh N.(as)ni o'z qavmiga payg'ambar qilib yuborgan. N. (as) o'z qavmi ichida uzoq umr ko'rди, ya'ni, 950 yil yashadi (Ankabut surasi, 14-oyat). U turli iloxlarga, butlarga sig'ingan qavmini to'g'ri yo'lga boshlab, faqat Allohga ibodat qilishga da'vat etdi. Lekin qavm uning so'ziga kirmadi, uni masxara qildi. N.(as)ning da'vatiga hatto o'zining xotini va bir farzandi ham ishonmadi. Shunda N.(as) Allohdan yordam berishni, kofirlarni jazolashni so'radi (Shuaro surasi, 118-119-oyatlar). Alloh uning iltijosini qabul etib, N.(as)ga kema yasashni va barcha jonivorlardan bir juftdan olib kemaga joylashtirishni buyurdi. Keyin osmondan juda ko'p yomg'ir yog'dirdi, yerning hamma tomonidan ham suv chiqartirdi. Osmon suvi bilan yer suvi qo'shilib ulkan to'fon paydo bo'ldi. To'fonda barcha kofirlar halok bo'ldi, faqat kemadagilar sog' qoldilar. To'fon boshlanishidan oldin N.(as)ning farzandlaridan biri kemaga chiqmadi. N. (as)ning otalik mehri qo'zg'ab, o'g'lini kemaga chiqishga undadi. Allohga kufr keltirgan farzand esa, otasiga rad javob aytib imon keltirishdan yana bosh tortdi va toqqa chiqib jon saqlamoqchi bo'ldi, lekin u ham halokatga uchradi (Hud surasi, 45-47-oyatlar). Suv pasaygandan keyin kema Judiy tog'i ustida to'xtadi. Kema tog' tepasiga kelib to'xtab, yer to'fon suvini yutib bitirgach, Alloh N. (as)ni kemadan yerga tushishga buyurdi. N. (as) va unga imon keltirgan kishilar kemadan tushishdi. Bu zamin Musil degan yurt edi. N. (as) qissasini bayon qiluvchi "Nuh" surasi ham nozil bo'lgan.

- O -

ODAMATO (as) - Qur'onga ko'ra, Alloh tomonidan yaratilgan yer yuzidagi birinchi odam va inson zotining otasi. Alloh O. (as)ni loydan o'zining yerdagi o'rinbosari (xalifa) sifatida yaratib, unga o'z ruhidan jon ato etgan. O. (as) Abul-bashar (insoniyat otasi) deb ham ataladi. Islomda O. (as) birinchi payg'ambar hisoblanadi. Alloh O. (as)ga barcha narsalarning nomlarini o'rgatdi va bu bilan O. (as)ni farishtalardan yuqori qo'ydi (Baqara surasi, 32-33-oyatlar) va farishtalarga O. (as)ga bosh egib sajda qilishni buyurdi. Faqat Iblis sajda qilishdan bosh tortdi (Sod surasi, 73-78-oyatlar). Iblis takabbuligi va sarkashligi tufayli jannatdan quvildi. O. (as) jufti haloli Momohavo bilan jannatda yashab, ularga barcha ne'matlardan yeyishga ruhsat berildi, faqatgina bir daraxtning mevasidan yeyish taqiklandi (A'rof surasi, 19-21-oyatlar). Iblis O. (as) bilan Momohavoni aldab taqiklangan daraxt mevasini yediradi. Buning jazosi evaziga ular jannatdan chiqarilib, ularning avlodlari yerda yashashga va mehnat qilishga mahkum etiladi.

OISHA (ra) (613-678) - Muhammad(sav)ning xotinlari, birinchi xalifa Abu Bakrning qizi. Laqablari Siddiqa, unvonlari Ummul-mo'minin (Mo'minlar onasi)dir. Muhammad (sav) vafotlaridan keyin O. (ra) xalifalik hokimiyatiga nomzodlar o'rtasidagi munozaralarda faol ishtirok etgan. O. (ra) payg'ambarning safdoshlari Talha va Zubayr tomonida turib Ali tarafdorlariga qarshi chiqqan.

Islom tarixida hazrati O. (ra)ning ilm jihatdan mavqei juda balanddir. O. (ra) bevosita Muhammad (sav) bilan birga yashagani tufayli juda ko'p hadislarning roviysi hisoblanadi. Sahobalar ba'zi oilaviy munosabatlarga doir murakkab masalalarni O. (ra)dan so'rab bilib olar edilar. Abu Bakr, Umar va Usmon (ra) zamonlarida fatvolar ham bergan. O. (ra) tafsir, hadis, fiqhni mukammal bilgan, arab tili va adabiyotidan yaxshi xabardor bo'lgan. Hazrati O. (ra) nihoyatda qanoatli ayol bo'lib, butun hayoti davomida bir juftgina oyoq kiyim, bir nechtagina ko'ylak kiyganlari rivoyat qilinadi. Mil. 678 y. 13 iyulda vafot etgan, janozasini Abu Hurayra (ra) o'qigan. Madinadagi Baqiy qabristoniga dafn qilingan.

OLLOH - q. Alloh

OLTINXON TO'RA, Sayyid Mahmud Taroziy - ulamo, adib, tarjimon. To'liq ismi Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy (1894 y.da Avliyo ota (Turkiston) - 1991-92). Dastlabki ta'limni padari buzrukvoridan, so'ngra Shayx ibn Kamol Nosirxon To'ra Kosoniydan, davrining boshqa yetuk olimlaridan oldi. Arab, fors, turk tillarining barcha lahjalarini mukammal egalladi, mudarris bo'lib yetishdi. Sho'ro tuzumining ziyolilarga, ilm axllariga o'tkazgan nohaq zug'umi sababli mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1932 y.dan Kobul sh.da istiqomat qila boshladi. Bir muddat Afg'oniston maorif vazirligida maslahatchi lavozimiga tayinlandi. So'ng Hindistonning Bombay sh.dagi masjidda imom-xatib bo'lib xizmat qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlangandan keyin Saudiya Arabistoniga ko'chib borib, umrining oxirigacha (1991-92) Makka va Madina shaharlarida yashab ijod etdi. O.t. Ka'batulloh joylashgan Harami sharifda, Madinadagi Masjid an-nabaviyda mudarrislik qilib, Qur'on va hadislardan saboq berdi.

O.t. tafsir, hadis, fiqh, adabiyot va ilmning boshqa sohalariga oid asarlar muallifi va tarjimonidir. U Qur'oni karimni zamonaviy o'zbek tiliga ilk bor tarjima qilib, tafsir yozdi. Bu kitob Hindiston, Pokiston va Saudiya Arabistonida qayta-qayta chop etilgan. Shuningdek, olim Qur'onning ayrim suralarini ham tarjima va tafsirlari bilan alohida holda nashr qildirgan. Imom an-Navaviyning Payg'ambar hadislariga bag'ishlangan "Riyoziy us-solihiyin" nomli 4 jildli asarini, Imomi A'zamning "Fiqh al-akbar", "Nur ul-basar", "Aqid islomiya", "Hizb al-A'zam" kabi kitoblarini arabchadan o'zbek tiliga o'girdi. O'zbek, arab, fors, urdu tillarida diniy ma'rifiy mazmunda risolalar, tasniflar, ruboiylar yozdi. O.t. tomonidan at-Termiziy qalamiga mansub "Kitob ash-shamoil an-Nabaviya" asarining o'zbek tiliga qilingan tarjimasi so'nggi yillarda Toshkentda arab va hozirgi o'zbek imlosida qayta-qayta nashr etildi.

OMIN (arab., somiycha - qabul et, ijobat qil) - islom, yahudiy va masihiy dinlarida dindorlar o'rtasida "qabul etsin", "ijobat bo'lsin" ma'nosida ishlatiladigan so'z. Qur'oni karimdagi Fotiha surasi tilovat qilib bo'lingach, o'qigan va eshitganlar "O." deb qo'yish lozimligiga haqida hadisi sharifda ko'rsatma berilgan. Lekin uni imom qiroati jahriy bo'lgan namozda baland ovoz (jahr) bilan yoki o'z ichida (xufya) aytish kerakligiga to'g'risida ulamolar turli ijthod qilganlar. Hanafiylik mazhabiga ko'ra, "O." so'zini xufya aytish sunnat. Muhammad (as) va sahobalari uni baland ovoz bilan aytganlari xususida kelgan hadislariga Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi ulamolari aniklik kiritib, shunday dalil keltiradilar: "Duo va iltijolar aslida xufya, ya'ni past ovozda aytilishi lozim (A'rof surasi, 55-oyat). Shu bilan birga O.ni namozda xufya aytilgani haqida hadislar ham bor. O.ni oshkora aytish kerak deganlar keltirgan hadislar Payg'ambar (sav)ning aytganlari haqidadir. U kishi esa, imom bo'lgan hollarida aytganlar.

OMON ("xavfsizlik") - musulmonlar tomonidan dushmanga, odatda nomusulmonga beradigan xavfsizlik kafolati. Qur'onda bu atama yo'q, uning o'rniga "jivor" ("homiylilik", "himoyalash majburiyati") istilohi ishlatilgan. Muhammad (sav)ning arab qabilalariga yo'llagan nomalarida "jivor" bilan birga, shu ma'nodagi zimma (q. Zimmiy, a hli zimma) istilohi ishlatilgan. O. fath etilganlarning hayoti va mulklari daxlsizligi kafolati ma'nosida Xolid ibn Validning Damashq bilan tuzgan bitimida (634 y.) uchraydi. O.ning zimmadan farqi shundaki, u - keyingi o'zaro majburiyatlarni belgilamasdan turib afv etilishdir. Musulmon kishi faqat bir yoki bir necha ma'lum shaxslarga O.lik berishi mumkin va uni boshqa musulmonlar bekor qilishga haqlari yo'q. Faqat imom yoxud uning vakiliga butun shahar aholisi yoki uning garnizoniga O.lik bera olishga hakdidur. Islom fatxdari davrida u sulh tuzishning dastlabki shartlaridan hisoblangan. O.dan daxlsiz noma, xat shaklida nomusulmonlarni musulmon mamlakatlarida bo'lishi (shuningdek, ziyoratga keluvchilar, savdogarlar, sulh davrida dushman tomon harbiylari) xavfsizligini kafolatlovchi hujjat sifatida foydalanilgan. O.ning bu shakli Yevropa davlatlarini Usmonli turk saltanati bilan sulh munosabatlari o'rnatilishida asos bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda O. - asir tushilayotgan vaqtda afv etishni, kechirishni so'rab qilingan iltijo.

OSIY (arab. - isyon qiluvchi, itoatsiz, gunohkor) - diniy aqidaga ko'ra, Allohning buyruqlari, Payg'ambarning sunnat va ko'rsatmalariga rioya qilmaydigan, buyurilgan vazifalarni bajarish o'rniga ularni butunlay yoki qisman tark etadigan, shar'an taqikdangan ishlarni qiladigan shaxs. O. bandalarning taqdiri Allohga havola etiladi. Ahli

sunna val jamoa aqidasiga ko'ra, O. banda agar kufr yoki shirkka ketmagan bo'lsa, har qancha katta-kichik gunohlariga qaramay musulmon-mo'min sanaladi, ya'ni kofir bo'lib qolmaydi, balki gunohkor hisoblanadi. Boshqa ba'zi diniy oqimlarga ko'ra, O. banda kufrga mahkumdur. O.ning qilgan ba'zi gunoxlari uchun bu dunyoda hadd - shar'iy jazo belgilangan. Misol uchun araq ichganga darra uriladi. O.ning qilgan har bir gunohi uchun u dunyoda alohida jazolar belgilangan. O. o'z gunoxlaridan chin dildan tavba qilib, ularni qayta takrorlamasa, kechirilishi va'da qilingan.

OTIN, Otinoyi - O'rta Osiyodagi diniy maktablarda qizlar o'qituvchisi. O.lar ayollar o'rtasidagi diniy marosimlar (mas., mavlud, amri ma'ruf, nahiy munkar va b.) o'tkazishda boshchilik qilib, ularga diniy ta'lim berish bilan ham shug'ullangan.

OFOQXO'JA, Oppoqxo'ja (1625, Kumul, Sharqiy Turkiston - 1695, Qo'qo'n qishlog'i, Qashqar viloyati) - islom va tasavvuf ilmining yirik targ'ibotchilaridan biri va Yorkend xonligida taxtda o'tirgan xo'jalarning dastlabkisi; Turkiston tasavvuf ilmining rahnamolaridan Mahdumi A'zamning avlodi. O.ning ismi Hidoyatullo bo'lib, u xalq orasida hurmat belgisi bo'lgan "Ofoq" ("Yorug' dunyo" yoki "yorug'lik egasi") -xo'ja nomi bilan mashhurdir. O. yoshligida otasi Muhammad Yusuf ibn Eshon Kalon bilan turli shaharlarda yurib bilim va tarbiya olgan. 1638 y.da Qashqarga kelib, otasi vafotidan so'ng bu yerdagi oqtog'lik xo'jalarga bosh bo'lgan. 1670 y.da Yorkend xonligida yuz bergan ichki kurashlar natijasida O. Qashqarni tark etib Turkiston shaharlarida, qalmoqlar (oyrotlar) orasida va Xeshi yo'lagadagi (Xesi-tszoulan) viloyatlarda diniy targ'ibot ishlari bilan shug'ullangan. 1678 y.da Tibetga borib 2 yilga yaqin yashagan va bu yerdaga Budda dini vakillari bilan yaqin aloqada bo'lgan. 1680 y. Tibet zodagonlari yordamida oyrotlar xoni bilan tanishgan. 1681 y.da qalmoqdar tomonidan Yorkend xonligi taxtiga o'tqazilgan. Uning jasadi Yog'du deb nomlangan joydagi ota-buvalari qabri yoniga dafn etilgan. Shundan boshlab ushbu qabriston "Ofoqxo'ja mozori" deb nomlanib, ziyorat maskaniga aylangan.

OFOQXO'JA MAQBARASI - Qashqar sh.dagi tarixiy yodgorliklardan biri. Shaharning sharqiy-shim.dagi Qo'qon qishlog'ida joylashgan. Xitoy adabiyotida "Shyangpeymu" ("Iparxon mozori") deb ataladi. Binobarin, Iparxon Ofoqxo'janing evarasi bo'lib, uning otasi manjur istilochilariga qarshi chiqqanligi sababli uning aka-ukalari, opa-singillari va yaqinlari bilan birga Pekinga olib ketilgan. Uning tengsiz go'zalligi uchun xonning unga ko'zi tushgan. Ammo u begona el xoqoniga itoat qilishdan bosh tortib yosh olamdan ko'z yumgan. Mavjud rivoyatlarga ko'ra, Iparxonning jasadi Pekindan olib kelinib mazkur maqbaraga dafn etilgan. O.m. ilk bor 1664 y.da qurilgan. Ofoqxo'ja vafotidan so'ng qayta qurilgan. Maqbara atrofidagi katta mozor ham Ofoqxo'ja mozori deb ataladi. U yerda Qashqarda o'tgan ko'pgina yirik shaxslar ham abadiy makon topgan. Maqbaraning tashqari tomonida 4 burchagida 4 ta minora qurilgan. Har bir minoraning bal. 18 m. Maqbaraga kiradigan eshik devordan sal oldinga chiqarib qurilgan bo'lib, uning 2 yonida eshik atrofidagi peshtokdan bir oz chiqib turgan yarim minora joylashtirilgan. Maqbara devorining qalinligi 1 m bo'lib, 4 tomoniga darchalar ochilgan. Qurilgandan beri maqbara ko'p marta ta'mirlangani bois u yaxshi saqlanib kelmoqda. Maqbaraning bal. 27 m, katta gumbaz bilan yopilgan. Qabr zalining kengligi 35x27 m, unga jami 5 avlodning vakillari bo'lmish 72 kishi dafn qilingan. Shular ichida eng kattasi Ofoqxo'janing buvasi Eshon-

Kalon, otasi Muhammad Yusuf, Ofoqxo'ja va b.dir. Qabrlar ustidagi sag'analar bir-biriga yaqin qilib joylashtirilgan. Sag'analar bir kattalikda emas. Ularning hajmi dafn etilgan kishining yoshi va martabasining ulug'ligiga qarab belgilangan. O.m. tarkibida ko'chadan kiradigan katta darvoza, uning atrofida bog', hovlida ikkita katta hovuz, madrasa, katta va kichik masjidlar mavjud.

OXIRAT (arab. - oxirgi kun, dunyoning tugash kuni) - diniy tushuncha. O. haqidagi tasavvurlar barcha dinlarga xosdir. Islomdagi O. haqidagi tasavvur va rivoyatlar yahudiylik, xristianlik va ba'zi Sharq xalqari diniy rivoyatlariga qisman o'xshab ketadi. Qur'onda O. kuni osmon yorilishi, dengizlar toshishi, insonlarning tirilib o'rnidan turishi, so'roq qilinishi, gunoh va savobning o'lchanishi, ularning yo jannatga, yo do'zaxga jo'natilishi tafsilotlari va sh.k. keng berilgan. O. so'zining sinonimi - ma'od. Musulmon ilohiyotida O. kontsepsiyasining ishlab chiqilishi ikki yo'nalishda olib borilgan. Birinchisi - O.ni (uni shuningdek, dor ul-baqo ("abadiy, boqiy dunyo") deb ham atashadi) va yerdagi hayotni (uni shuningdek, dor ul-fano ("o'tkinchi, foniy dunyo") deb ham atashadi) bir-biriga qarshi qo'yishda ko'rindi. Bu yo'nalish so'fiylar, zohidlar orasida keng tarqaddi, ko'p shoirlarning sevimli mavzusiga aylandi. Ikkinchi yo'nalishda - O. haqidagi tasavvurlar yanada oydinlashtirishda, jannat va jahannam, o'liklarning tirilishi, ularning so'roq qilinishi va b. ishlab chiqilgan. Ular islom aqidining muhim belgilari bo'lib qoldi.

OYAT (arab. - ilohiy belgi, mo'jiza) -Qur'on suralarining bandlari. Islomga ko'ra, O. Allohning o'z elchisi Muhammad(sav)ga vahiy qilib, bandalarga qo'llanma sifatida yuborgan farmoyishi, mo'jizasi. Qur'onning 7-a.ga oid ilk nusxalaridayoq suralar O. larga bo'lingan va har sura doirasida tartib bilan raqamlangan. O.lar qad. arab tilida, bir qismi saj' bilan yozilgan. Ayrimlari qisqa iboradan, ba'zilari bir necha jumladan tashkil topgan. Suralarda O.larning soni turlicha (mas., eng qisqa O. "Yosin" bo'lib, 2 harfdan iborat, 103, 108, 110-suralar faqat 3 O.dan, eng uzun 2-sura 286 O.dan iborat). O.larni bir-biridan ajrata bilish, ularning boshlanish va tugash joylarini anglab yetish ma'nolarni yaxshi tushunib yetishga va b. bir qancha ishlarda yordam beradi. Qur'on O.lari tartibi Alloh tomonidan belgilanib Payg'ambar (as) nazorati ostida amalga oshirilgan. Qur'on qiroatida O.lar tartibini o'zgacha qilish qat'iy man qilingan. Fuqaholar "Bismillahir rohmanir rohiym"ni qaysi suraning O.i ekanligi haqida turlicha ijtimohga borganlar. Shofi'iylik mazhabi ulamolari "Bismillahir rohmanir rohiym" har bir suraning bir O.i hisoblanadi, deydilar. Hanafiylik mazhabi ulamolari "Bismillahir rohmanir rohiym" suralarning orasini bo'lib turuvchidir, deydilar. Ana shu turlichalik oqibatida O.lar soni haqida ham turlicha sanokdar kelib chiqqan. Avvallari Qur'on O.lariga raqam qo'yish odati mutlaqo bo'lmagan. Shuning uchun ham islomiy kitoblarda, falon suraning falon raqami, O.i degan gaplar hech uchramaydi. Qur'on O.lariga raqam qo'yish yaqinda chiqqan od atl ardandir.

Suralarni matnga hech qanday o'zgartish kiritmagan holda O.larga taqsimlash va raqamlash 20-a. boshlarigacha davom etgan. Shuning uchun Qur'onning har bir davr va muhitdagi nashrlaridagi O.lar soni turlichadir. Qur'on O.larining soni 6236 ta ekani ko'proq manbalarda qayd etilgan. Ayrim O.lardan masjidlar, islom mamlakatlaridagi rasmiy idoralar va xususiy uylarning ichki va tashqi bezagi sifatida foydalaniladi. Qabrtoshlarga ham O. yozish uchrab turadi. Bir qancha O.lar va ularning qismlariga mo'jizakor, sehrli kuch sifatida qaralib, ulardan tumor qilingan; bunday O.lar Oyatul hafz (himoyalovchi O.), Oyatush shifo (shifo O.) deb ataladi.

OYATULLOH (arab. - Alloh mo'jizasi) -shialikda mustaqil fatvo berish huquqiga ega bo'lgan din olim (mujtaxid)larining unvoni. O. istilohi shu ma'noda 19-a. ikkinchi yarmida ishlatila boshlagan, 20-a. 40-y.laridan esa, keng qo'llanilmoqda. O.lar dindorlar orasida katta obro'ga, shialik tarqalgan davlatlarda (Eron, Iroq) siyosiy ta'sirga ham ega. O. unvoni yuzlab ulamolarda bor. Ulardan bir nechasi "Oyatullohi uzmo" ("Buyuk O.") eng yuksak obro'ga ega bo'lgan bittasi "Marjai taqlid" ("Taqlid qilinadigan inson") deb ataladi va u barcha shialarning oliy rahnamosi deb taniladi (yana q. Humayniy).

OG'AXON - ismoiliylar oqimidagi nizoriylar firqasi rahbarining unvoni. O'rta asr oxirlaridan boshlab nizoriy ismoiliilar o'rtasida o'z rahnamolarini tirik xudo deb bilish, uning amr-farmonlarini so'zsiz ado etish, unga nazr-niyozlar keltirib berish odat tusiga kirgan. O.lar sulolasiga 18-asrda eronlik boy Abul Hasan asos solgan. U o'zini shia imomlarining vorisi deb da'vo qilgan. O. qarorgohi Bombay (Hindiston) shahrida joylashgan. Ismoiliylar boshlig'i Sulton Muhammadshoh (1877-1957) mashhur Olardan biri hisoblangan. U G'arbiy Yevropa hukmdorlari bilan til biriktirib ish olib borgan, Angliyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini yokdab chiqqan. O.lar boshqa mamlakatlarda yashaydigan ismoiliylardan ham zakot olib turadi.

- P -

PAYG'AMBAR (fors. - xabar keltiruvchi) -islom aqidasi ko'ra, Alloh bilan uning bandalari o'rtasidagi elchi; Allohning buyruq va ko'rsatmalarini vahiy orqali qabul etib, ularni o'z ummatiga to'la-to'kis yetkazuvchi vakil. P. bilan Alloh o'rtasida elchilik qiluvchi farishta ham borki, uning nomi Jabroildir. Ba'zida Alloh taolo P.ga bevosita vahiy yuborishi va bevosita gaplashishi ham mumkin. Qur'oni karimda quyidagi P.lar nomi zikr etilgan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Ya'qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zul-Kifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, Alyasa, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammad alayhissalom. Ana shu va b. o'tgan P. larning barchasini tasdiq etib, ularning barhaq P. bo'lib o'tganliklariga ikkilanmay imon keltirish har bir musulmon zimmasidagi imon shartlaridandir. Demak, P.larning birinchisi - Odam (as) oxirgisi - Muhammad (sav)dir. Ulardan keyin to qiyomat kunigacha boshqa P. kelmaydi. Lekin Muhammad (sav)dan keyinga o'tgan davrda ham bir necha soxta Plar paydo bo'lgani ma'lum. P.lar katta-kichik gunohlardan pokdirlar. Illo, ba'zi kichik yanglish, sahu xatolar sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Aziz-avliyolarning hech biri P. darajasiga yeta olmaydi.

PARANJI (arab. hijob - yoping'ich) -islomda odatga kirgan ayollar yoping'ichining o'zbeklar va tojiklar orasida tarqalgan turi. Ayollarning gavdasini, yuz-ko'zini yashirib turishga xizmat qilgan. P. uydan tashqarida yopinilgan. P.ning old tomoni to'rsimon chachvon (chimmat; tojikcha chashmband -ko'zto'sar) bilan berkitilgan. Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarda bunday yopingachlarning juda ko'p turlari (mas., Eron va Afg'onistonda chodira, turkmanlarda yashmal va h.k.) tarqalgan. Paranji yopinib yurish odati deyarli qolmagan bo'lib, u ayrim marosimlardagina foydalaniladi.

PARIXON (fors. - pari vositasi bilan davolovchi) — bemorlarni go'yoki pari, jin, ruhlar vositasi bilan davolashga urinuvchi shaxs. P.ning da'vosiga ko'ra, bemorga jin yoki alvasti tekkan bo'lib, ularni u haydar yoki qayta tegmasligi uchun ko'ndirar emish. Sodda odamlar P.larga nazr-niyoz berib, tovuq, uloq, qo'zi kabilarni qurbonlik qiladi. Aslida islomiy aqida bo'yicha, g'ayritabiiy kuchlar ta'sirida betob bo'lgan bemorlar Qur'on va hadislarda ko'rsatilgan uslublar bilan shifo talab qilishi lozim. Aks holda folbin, azayimxon va P.larga ixlos qo'yish natijasida imonlaridan ajrab qolishlari mumkin.

PESHIN (fors. - peshin, tush payti) — besh vaqt o'qiladigan namozning biri. 4 rakaat sunnat, 4 rakaat farz va 2 rakaat sunnat o'qiladi. P. namozi Quyosh qiyomdan og'a boshlashidan to asr namozining boshlang'ich vaqtigacha bo'lgan paytda ado etiladi.

PIR (fors. - kekxa, qari) - so'fiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Shuningdek, har bir murid o'z murshidini ham P. deb atagan. Aholi orasida "P." tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi.

- Q -

QABALA (ko'pligi qabalot) - odatda, davlatga nisbatan moliyaviy majburiyat. 8-a.da Misrda ayrim shaxs tomonidan bugun jamoa uchun oldindan davlatga soliq to'lab qo'yish majburiyati (ma'zun), shuningdek, badaviylarga belgilangan ma'lum yerlardan tirikchilik qilish. So'nggi o'rta asrlarda Q. - soliklar to'plash (odatda shahar, savdo) huquqini davlatdan ijaraga olish. Q. so'zi musulmon xalqlari tiliga "qarz majburiyati" ma'nosida kirgan, ruscha "kabala" so'zi shundan.

QABBONIY Muhammad Hishom (1945, Livan) islom nazariyotchisi, naqshbandiylik namoyandaligidan biri, shayx. Tibbiyot va islom huquqi fanlari doktori. Q. Amerikadagi "Musulmonlar hamkorligi" harakati rahbari, "as-Sunna" jamg'armasi hamda "Kamilat" nomli musulmon ayollari tashkilotining raisi, Amerika inson huquqlari bo'yicha kengashining, shuningdek, AQSh Davlat departamentining diniy erkinlik masalalari bo'yicha maslahatchisi. Q. "Islom arkonlari va imon" qomusi, "Naqshbandning so'fiylik tariqati" kabi asarlarida islom dinining bugungi kundagi dolzarb masalalarini taxlil qiladi. U o'z asarlari va chiqishlarida diniy niqobdagi terrorchilik va turli buzg'unchilik xatti-harakatlarini qoralaydi. Q. 2000 y. 15-18 sent.da Toshkentda YUNESKO rahnamoligida o'tgan "Jahon dinlari - tinchlik madaniyati yo'lida" mavzuidagi xalqaro anjumanda ishtirok etdi. Q. xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, mo'tadil, zamon talablariga javob beradigan islomni targ'ib etish tarafdori.

QADARIYLAR (arab. - takdir) - islomdagi ilk ilohiyot oqimlaridan biri (qadariya) tarafdorlari. Islom ilohiyotining shakllanish davrida bir qancha aqidaviy masalalar qatori taqdir va iroda erkinligi masalasi ham jiddiy tortishuvlarga sabaq bo'lgan. Dastlabki davrlarda islomda takdirning oldindan ilohiy belgilanganligi to'fisidagi tasavvur asosiy o'rin egallagan edi, chunki, taqtsirga ishonish o'sha davrdagi jihod urushlari uchun qo'l kelar, shuningdek Muhammad (sav)ning Allohning elchisi (rasuli) ekanliklarini tan olish orqali xalifalar hokimiyatining qonuniyligini asoslash uchun xizmat qilar edi. Keyinchalik (7-a. oxirlarida) taqdirga ishonuvchilar orasida ichki ziddiyat sezila boshlagach, K paydo bo'ldi (ulardan faqat Ma'bad va Ato ibn Jassor nomlarigana ma'lum). Q. inson iroda erkinligini yokdab chikdi, taqdiri azal tarafdori bo'lgan jabariylarga qarshi kurash olib bordi. Ular odillik xudoning asosiy sifatlaridan biri degan fikr asosida gunohni xudo oldindan belgilagan bo'lishi mumkin emas, xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, demak, inson iroda va faoliyat erkinligiga ega, shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga keldi. Ularning ta'limotini 8-a. oxirlaridan mutazshshylar davom ettirdi.

QAZO VA QADAR - islomda mo'min-musulmonlar e'tiqod qilishi lozim bo'lgan masalalardan biri. Ulamolar "qazo" va "qadar"ni quyidagacha ta'riflaydilar: "Qazo - Alloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo'lishini azaldan bilishidir". "Qadar - o'sha narsalarning Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishidir". Ahli sunna val jamoa mazhabiga binoan balog'atga yetgan musulmonga Alloh taolo bandalarning hamma ishini, maxluqotlarga bog'liq narsalarni avvaldan bilishiga imon keltirishi vojib bo'ladi. Q. va Q. Allohga imon keltirish asosidagi islom aqidalaridan biri

hisoblanadi. Ana o'sha sifatlarning biri - Alloh ilmi, u ilmning chegarasizligi, Alloh irodasining shomilligi va qudratining komilligidir. Alloh taolo hamma narsani biladi. Uyasi ichida g'imirlayotgan chumolining harakatini-yu, o'z falakida harakat qilayotgan sayyoralarini ham biladi. U zotning ilmidan hech narsa goyib bo'lmaydi. Dunyodagi har bir zarrani ham va uning harakatini ham bilib turadi. Shuningdek, Alloh taolo qiyomatgacha nima bo'lishini biladi. Agar ularni bilmasa, U zotning sifati kamoliyasiga nuqson yetgan bo'ladi. Ana o'sha ilohiy ilm, "qazoi-qadar" deb ataladi. Bunda johil kishilar o'ylaganidek, Alloh tomonidan bandani majbur qilish yo'q, balki, Alloh taolo tomonidan banda nima qilishini oldindan bilish bor. Chunki, Allohning ilmi chegara bilmasdir.

O'tgan ulamolardan al-Xatgobiy quyidagilarni aytadi: "Ko'pchilik odamlar Q. va Q.ni Alloh taolo tomonidan O'zi takdir qilib qo'ygan ishlarga bandani qahr ila majbur qilish, deb hisoblaydilar. Q. va Q.ning ma'nosi, bandalarning kelajakda bo'ladigan ishlarini Alloh tomonidan muqaddam bilib turilishidir". Shu yerda "Ilmgaga bog'liq bo'lsa - tushunarli, ammo hamma narsa Allohning irodasi bilan, Uning xal qilishi bilan bo'ladi-ku? U holda bandaga nima qoladi? - degan savol paydo bo'ladi. Bu savolning javobi 2 qismga bo'linadi:

1-qism - dunyodagi insonning daxli yo'q narsalar. Dunyoda bir xil ishlar borki, ular faqat Alloh taoloning irodasi va qudrati bilan bo'ladi. Bu ishlarga insonning hech qanday daxli yo'q. Misol uchun, inson aqlining o'tkir yoki o'tmas, gavdasining turlicha, mijozining har xil bo'lishi, chiroyli yoki xunukligi, tug'ilish vaqti va joyi, ota-onaning kim bo'lishi, o'zining erkak yoki ayolliigi, nasldan-naslga o'tadigan ba'zi sifatlari hamda shunga o'xshash bir qancha ishlari borki, ularga insonning hech qanday daxli yo'q. Inson bu narsalardan mas'ul ham emas. Misol uchun, uni hech kim, nima uchun qomating uzun yoki qisqa bo'lib qolgan, deb so'roq-savol qilmaydi. Shuningdek, nima uchun falon kuni tug'ilding, falon kuni o'lding, ham demaydi. Bularning hammasi Allohdan. Bu turdagi qadarga imon keltirish har bir musulmonga vojib.

2-qism - inson tomonidan sodir etilgan ish va amallarga bog'liqsir. Bularda insonning daxli bor, u bu ishlarda o'z mayli, akdi, xohishi, ixtiyori va harakati bilan ishtirok etadi. Masalaning nozik joyi shu yerda. Xuddi shu turdagi ishlarni qandoq baholash kerak? Qadimdan bu savolga turli javoblar berilgan. Yunon faylasuflari orasida ham bu haqda ko'p ixtiloflar bo'lgan.

Keyinchalik musulmonlar ichida ham bu hakda turli fikrlarni aytganlar bo'lgan. Mu'taziliylar, "inson o'z amalini o'zi hal qiladi, bunga Alloh aralashmaydi", deganlar. Bu esa, Allohning barkamollik sifatlariga nuqson bo'lib tushadi. Agar mu'taziliylar aytgan gap to'g'ri deyilsa, dunyoda Allohning irodasidan, qudratidan, Uning xoliqpigidan tashqari narsalar ham bor bo'lib qoladi. U holda Alloh taoloning irodasi shomil, qudrati cheksiz, xoliqligi yagona bo'lmaydi. Jabariylar esa aksincha, inson bu dunyoda dengizga tashlangan cho'pdek gap, deydilar. Ularning fikricha, inson hech bir narsani o'z ixtiyori bilan qilmaydi, balki, hamma narsani Allohning majburlashi ila amalga oshiradi. Agar jabariylar gaplari to'g'ri, deyilsa, Alloh taoloning adolat sifatiga putur yetadi. U zot taolo odil emas, jabr qiluvchi bo'lib qoladi. Chunki, bandani Allohning O'zi har narsaga majbur qilib, keyin so'roq-savol qilib, "nima uchun bu ishni qilding", deya jazolashi jabrdir. Ushbu 2 mazhab ham bir yoqlamalikka o'ta berilgan, keyin o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketdi. Musulmonchilikning sof aqidasi esa, Ahli sunna val jamoa mazhabqda o'z aksini topgan. Bu aqidaga binoan, insonning ixtiyoriy amallari, Alloh xalq qilgan narsalar jumlasidandir. Chunki, dunyoda Alloh xalq qilgan - yaratgan narsadan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas. Lekin bu inson o'z ishini majbur bo'lib qiladi degani emas. Chunki, inson bir ishni amalga oshiradigan bo'lsa, o'sha ish 2 narsaga bog'liq bo'ladi: 1) uni amalga oshirish

uchun zarur bo'lgan omillar; 2) insonning o'sha ishni amalga oshirish uchun yo'nalishi. Inson ayni ushbu ikkinchi narsa, ya'ni ishni amalga oshirish uchun yo'nalishi tufayli iroda va ixtiyor egasi hisoblanadi va ana shu irodasi, ixtiyori uchungina javobgar bo'ladi. Tashqi omillarni yaratish va vujudga keltirishda uning daxli yo'q.

"Qadar" so'zi o'lchov ma'nosini anglatadi. Islom aqidasi esa, Alloh taolo azalda o'z ilmi va irodasi ila har bir narsani o'lchovli qilib qo'yganiga e'tiqod qilishni bildiradi. Ammo, ushbu oddiy tushunchaning buzib ko'rsatilishi oqibatida, Q. va Q. aqidasi turli noto'g'ri tushunchalar aralashib ketgan. Zamon o'tishi bilan, turli omillar sababli islomiy tushunchalarga har xil buzuvchi fikrlar, bid'at-xurofotlar aralashib ketgan. O'sha islomiy tushunchalar ichida eng ko'p buzilgan, hatto teskari ma'noga aylanib ketay degani, Q. va Q. tushunchasidir. Aslida esa, bu aqida juda sof va oson tushuniladi. Har bir narsa Alloh taoloning xohishi, ilmi, qazoi qadari ila joriy bo'ladi. Allohning xohishi hamma xohishlardan g'olib. Allohning irodasi hamma irodalarda aks etgandir. Allohning qazosi hamma hiylalardan g'olib kelgandir. U zot xohlagan narsasini qiladi. U zot zinhor zolim emasdir. Har bir yomonlik va zulmdan muqaddasdir. U zot qilgan ishidan so'ralmas, ular so'ralurlar. U zot har bir aybu nuqsandan pokdir.

Qazodan murod shar'iy qazosi emas, borliq qazosidir. Qazo, iroda, amr, izn, kitob, hukm, harom qilish va kalimotlarning har biri 2 qismdan iboratdir:

1) Kavniy; 2) Shar'iy. Bu 2 qism ham Qur'oni karimda zikr etilgandir. Allohning qazosini hech bir zot rad qila olmas. Allohning hukmini hech kim ortga sura olmas. Allohning amriga hech kim g'olib kela olmas. Balki, U zotning O'zi g'olibdir. U zot yakka-yu yagonadir, qahhordir. Xohlaganicha xukm qiladi. Hamma o'zi xalq qilingan narsaga muyassardir. Amallar - nihoyasiga qarab e'tiborlidir. Baxtiyor - Allohning qazosi ila baxtli bo'lgandir. Baxtsiz - Allohning qazosi ila baxtsiz bo'lgandir. Alloh har bir odamga O'zi azaldan o'sha odam yaratilganidan keyin qilishini bilgan ish va amallarni oson qilib qo'yadi. Amallarnin e'tibori oxiriga qarab bo'ladi. Ya'ni hayotining oxirida ahli jannatlarnin amalini qilgan bo'lsa, axli jannatlardan bo'ladi. Agar ahdi do'zaxning amalini qilgin bo'lsa, ahli do'zahdan bo'ladi. Nekbaxtlik ham badbaxtlik ham Allohning inson bu dunyoga kelganidan so'ng qiladigan amallarini bilishi asosida, "Allohning qazosi" bilan bo'ladi. Qadar - yaxshilik va yomonlikni, musibat va rahmatni, xursandchilik va xafalikni, o'lim va hayotni, kufr va imonni, boylik va kambag'allikni, hidoyat va zalolatni hamda boshqa hamma narsalarni Alloh tomonidan tayin qilishdir. Bu taqdirning hikmatini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Qadarga imon keltirish - insonga keladigan borliqdagi mavjud yoki oxiratda bo'ladigan har bir narsa Allohning takdiri, ilmi irodasi va belgilashi bilan bo'lishiga imon keltirishdan iboratdir. Ahli sunna val jamoaning aqidasi, har bir narsa Allohning Q. va Q.i bilan bo'lishidir. Alloh bandalar amallarini xalq qilishidir.

QAZO NAMOZI - o'z vaqtida o'qiy olmay keyin o'qilgan namoz. Q. n.ni o'qiydigan kimsa azon aytmaydi, ammo takbir - iqomat aytadi Lekin, qazo namozlarida faqat farz o'qiladi Xufton namozidagi vitr namozi ham qazo sifatida o'qiladi.

1 kunning 5 vaqt namozi qazo bo'lgan bo'lsa ularni bomdod namozidan boshlab xufton namozigacha o'z tartibi bilan qazosi o'qiladi

QALANDAR - tasavvuf yo'lga kirib darbadarlik va xayr-ehson bilan kun kechiruvchi kishi. Q. istilohi so'fiylarning asarlarida zikru samo' orqali Allohga ruhan yaqinlashib, faqru fanoga va haqiqatga erishish maqsadida o'z jismini va qalbini poklashga intilgan darvishlarga nisbatan qo'llanilgan. Q. muayyan jamoa (suluk)ga birlashib, uning

ta'limotini targ'ib etgan, o'z murshidi (shayx, eshon yoki piri)ning ko'rsatmalarini bajarishi shart hisoblangan. Urta Osiyoda Qlarning faoliyati bilan boshliq qalandarxona va xonaqoxlar mavjud bo'lgan.

QALANDARLIK - so'fiylik-zohidlik harakati. Malomatishshr zo'xddlik maktabining goyalari ta'sirida yuzaga kelgan. Keyinchalik tsarbadar-gado darvishlar birodarligi (tariqati) ham Q. deb atalgan. Q. Xurosonda va O'rta Osiyoda 11 -a. boshlarida yuzaga kelib, dastlab aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lmay, tarafdorlari kam edi. Keyinchalik ommalashib, sharkda Fargonadan tortib, g'arbda Iroq va Shom (Suriya)ga qadar keng tarqalgan. Naqshbandiylik, yassaviylik, kubroviylik Q.ning mashhur suluklari hisoblangan. Q. suluklarining ga'siri Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Afrikaning ayrim mamlakatlarida hozir qam seziladi.

QALB, yurak, dil- ilohiyot va tasavvuf tushunchasi. Qur'oni karimda "Q." so'zi 133 marta uchraydi. Q. insonning diniy qaqiqatlarni anglab oladigan, imon va taqvodorlik xislatlari jo bo'lgan a'zosi sifatida tavsiflanadi. Qur'onga ko'ra, Alloh gunoxkor, imonsiz, zolim kimsalarning Q.ini muhrlab qo'yadi (10:74/75; 7:101/, ularni o'z marhamatidan, haqiqatni bilishdan mahrum etib, do'zax azobiga mahkum qiladi. Tustariy, Balxiy, Nuriy, Termiziy, Razoliy kabi allomalar fikricha, Q. inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi; Q. Alloh bilan inson muomala qilib turadigan joydir; Q. narsalarning tub mohiyatini ko'ra oladi; xudojo'ylar Q.i billur singari tiniq, gunoxkorlar Q.i esa, aksincha, zang bosgan (83:14) va u haqiqatdan yiroqdir. Q. inson xatti-xarakatlarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, savob amallar uni nurga to'ldiradi, yomon amaplar esa, aksincha, xiralashtiradi. So'fiy o'z Q.ini "yumshatib", ilohiy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'zini tayyorlab borishi, dunyoviy istaklardan voz kechishi zarur. Q. tushunchasi zikr bilan chambarchas bog'likdir. Zikrda til bilan birga insonning barcha a'zolari qatnashadi, Q. esa, ular ichida eng muhimi sanaladi. Zikr tufayli Alloh so'fiyning Q.idan joy olib, bajaradigan barcha amallarining birdan-bir sababi va harakatlantiruvchi kuchiga aylana boradi.

QARMATLAR - ismoiliylarning asosiy shohobchalaridan biri tarafdorlari. Q. harakati 9-a. oxirida Jan. Iroqda vujudga kelgan, Suriya va Yamanga tarqalgan, dehqonlar, ko'chmanchi badaviylar va hunarmandlardan tashkil topgan. Harakat o'z nomini uning rahbari va tashkilotchisi Hamdon ibn al-Ash'asning laqabi Qarmat (yoxud Qarmatuya, Qirmit)dan olgan. Uning ma'nosi manbalarda turlicha ("kalta oyoq", "qizil ko'z" va b.) izoxdangan. Biroq, Hamdongacha ham Qarmatiya nomi bor edi, bu esa, Hamdon o'z laqabini o'sha davrda mavjud bo'lgan shialikning biron-bir tashkiloti nomidan olgan deb hisoblashga asos bo'ladi. Ular abbosiylar xalifaligiga qarshi qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan. Q. yerga jamoa egaligini, umumiy (qullardan tashqari) tenglik g'oyalarini targ'ib etishgan. Ular islom marosimlarini bajarmagan, shariat qoidalarini tan olmagan, ularda masjidlar bo'lmagan. Q. musulmonlarning ziyoratgohlari (mas., Ka'ba va u yerdagi "qora tosh" - hajar al-asvad)ni bid'at deb hisoblagan. 899 y. Q. Bahraynni bosib olib, al-Aqsoda (Sharqiy Arabiston) o'z davlatini tuzgan, bu davlat 11-a. oxirigacha mavjud bo'lgan. 930 y. haj vaqtida Q. Makkaga hujum qilib, uni talon-toroj etishgan, hajga borganlarni o'ldirishgan, bir qismini qul qilishgan, u yerdagi "Qora tosh"ni parchalab, o'lja qilib olib ketishgan (20 yildan so'ng qaytarilgan). Bu hol keng xalq ommasini Q.dan

chetlashtirgan. 11-a. oxiri -12-a. boshlarida Iroq va Eronda ularga qarshi shiddatli kurash boshlangan va Q. harakati bostirilgan. Keyinchalik Q. ismoiliylarning boshqa qo'limlariga qo'shilib, yo'qolib ketgan.

QASOS (arab. birovning qilgan ishiga o'xshash ish qilish. Birov yurib o'tgan yo'ldan izma-iz yurish) - qasddan odam o'ldirganni ham, o'zi qanday qilib o'ldirgan bo'lsa, shunday qilib o'ldirish.

Q. olish islomdan oldingi johiliyat davrida ham bo'lgan, ammo, ularda adolatsiz ravishda, tarafkashlik ruhida bo'lgan. Misol uchun, "Ular bizdan 1 kishini o'ldirsa, biz ulardan 10 tasini o'ldirib Q. olamiz, ular bizning qulimizni o'ldiribdi, biz ulardan hur kishini o'ldirib Q. olamiz, ular bizdan ayol kishini o'ldiribdi, biz ulardan erkak kishini o'ldirib o'ch olamiz", qabilida edi. Qur'onda Alloh taolo Q. olishda adolat bo'lishini, haddan oshmaslikni uqtirib: "Ey imon keltirganlar! Sizga o'ldirilganlar uchun Q. farz qilindi: hurga-hur, qulga-qul, ayolga-ayol. Kimga o'z birodaridan bir narsa afv qilinsa, bas, yaxshilik ila so'ralsin va ado etish ham yaxshilikcha bo'lsin. Bu Robbingazdan yengillik va rahmatdir. Undan keyin kim dushmanlik qilsa, unga alamli azob bor", degan (2:178). Ya'ni, qasddan odam o'ldirganlardan Q. olish farz qilindi.

Lekin oyati karimaga binoan, odam o'ldirgan shaxsni qasos uchun, albatta, o'ldirish shart emas, balki o'likning egalari kechib yuborsa, o'ldirmay qo'yib yuborsa, o'rniga xun puli olsa ham bo'ladi. Bunda o'lik egasi haqqini yaxshilik bilan so'rashi lozim, aybdor taraf ham ularning haqqini yaxshilik bilan ado etishi zarur. Q. o'rniga xun puli olishni joriy qilish ham Parvardigori Olam tomonidan berilgan yengillik va rahmlilikdir. Q. olishda kishilar uchun hayot bor ekan. Q. qalbdagi nafratni qondirish emas, balki oliy maqsad - hayot davomiyligi uchun. Q. olish yo'lga qo'yilsa, inson hayotini saqlab qolishda katta ish qilingan bo'ladi. Chunki, har bir odam boshqa birovni o'ldirsa, Q.iga o'zining ham o'ldirilishini biladi va hech qachon odam o'ldirishga qo'l urmaydi. Bir kishining hayotiga qasd qilish, umuman, hayotga qasd qilish bilan barobardir. Jinoyatchi bir kishining hayotiga qasd qilsa, umuman, hayotga qasd qilgan bo'ladi. Shuning uchun buning jinoyati kuchli bo'lib, Q. olinadi. Q. olish haqidagi hukmning o'zi jinoyatchini hushiga keltirib qo'yadi. Oz sonli qotillardan Q. olish, ko'plab begunoh kishilarning hayotini saqlab qoladi.

QAFFOL SHOSHIY (to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Qaffol ash-Shoshiy al-Kabir; 904-976) - shofi'iylik mazhabining yetakchi olimlaridan biri, muhaddis, faqih, adib, shoir. Hazrati Imom (qisqacha - Hastimom) nomi bilan mashhur. Manbalarga ko'ra, u og'irligi 0,5 g keladigan ajoyib qulf-kalit yasagani uchun "Qaffol" ("Qulfchi") laqabi berilgan. Chukur bilimi, ulkan ishlari evaziga Imom al-Kabir (ulug' imom) deb ta'riflangan. Shosh (Toshkent)da hunarmand oilada tug'ildi, bolalik va yoshlik yillari shu yerda o'tdi. Taniqli muhaddis va ilohiyotchi Haysam ibn Kulayb qo'lida ta'lim oldi. Arab Sharqi mamlakatlari bo'ylab uzoq safarda bo'ldi, ancha vaqt Bag'dodda yashadi. Mashhur imom Abul Abbas Ahmad ibn Umar ibn as-Surayjiy (850-918)ning shogirdi bo'lgan. Xalifalikda turli lavozim, vazifalarni ado etgan. Q.Sh. Movarounnahrda, xususan, Shoshda shofi'iylik mazhabini targ'ib etib, diniy bilimlarning tarqalishiga, shariat asoslari qaror topishiga hissa qo'shdi. Uning qonunshunoslik, mantiq kabi sohalarga oid "Odob al-bahs" ("Bahs odobi"), "Husni jadal" ("Dialektika go'zalligi") kabi asarlari islom olamida ma'lum va mashhur bo'lgan. Q.Sh. she'rlar ham yozgan. Ulardan ayrim parchalar olim as-Subkiyning "Tabaqot ash-Shofi'iya" ("Shofi'iylik mazhabi darajalari") kitobi orqali

saqlanib qolgan.

Q.Sh. Toshkentda vafot etgan. Uning qabri ustiga Temuriylar avlodidan G'ulom Husayn maqbara kurgan (1541-42). Bu maqbara o'tgan asrda ta'mirlandi. Q.Sh. me'moriy yodgorligi tabarruk qadamjo hisoblanadi.

QA'DA (arab. - o'tirish) - 1) namozning bir qismi, o'tirgan holda ibodat kdgshsh holati; 2) o'zbeklarda vafot etgan yaqin kishisini xotirlash munosabati bilan ayollar tomonidan o'tkaziladigan odat.

QIBLA (arab. "qarshi tomonda turgan narsa") - musulmonlar namoz vaqtvda qarab turadigan tomon. Dastlab Muhammad(sav) va uning tarafdorlari Quddus (Ierusalim) tomonga qarab namoz o'qishgan. Hijriy 2-yili (624) Makkadagi Ka'ba (Baytulloh) Qur'on oyati ila (2; 144) barcha musulmonlar uchun Q. qilib belgilangan. Islomda Q. muqaddas hisoblanadi. Har bir musulmon qaerda bo'lmasin, albatta, Q. tomonga qarab namoz o'qiydi. Masjidlarda mehrob Q. tomonga qaratib o'rnatiladi. Islomdagi ko'p marosimlar ham, odatda, Q.ga qarab bajariladi. Marhum ko'milganda ham yuzi Q.ga qaratib qo'yiladi. Islom shariati Q. tomonni ulug'laydi, Q. tomonga oyoklarni uzatib o'tirish va yotish odobsizlik hisoblanadi. Bizning O'zbekistonga nisbatan Q. jan.-g'arb tomonda bo'lib, kompas mili G'arb nuqtasidan 14 gradus chap tomonga qaytishi kerak. Q. qaysi tomondaligani bilolmagan va so'rashga odam topa olmagan kishi taharriy qiladi, ya'ni dili tortgan tomonni hech ikkilanmay Q. deb jazm qilib o'qiy beradi, keyin Q. aniqlansa ham qayta o'qimaydi.

QIYOMAT (arab. - o'liklarning tirilishi, tik turish, o'rindan turish) - dunyoning tugashi haqidagi diniy ta'limot. Islomda oxirat aqidasi tashkil etadi. Bu ta'limot Qur'on suralarida oxirat kunining boshlanishi bilan bog'liq dahshatli hodisalar, barchaning halok bo'lishi, keyin odamlarning tirilishi, o'rindan turishi, birma-bir so'roq qilinib, savob va gunoxlar o'lchanishi, shunga qarab odamlarni jannatga yoki do'zaxga kiritilishi, do'zax azoblari va jannat rohatlari va sh.k.da batafsil bayon etilgan (yana q. Oxirat).

QIYOS (arab. - taqqoslash) - shariat manbalaridan biri (Qur'on, sunna, ijmo'dan so'ng 4-si). Q.da dastlabki 2 manba - Qur'on va sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etilgan. Mas., araqning shayton ishi ekanligi, urush-janjali, adovat chiqarishi sababidan, u Qur'oni karimda man etilgan. Arakdan boshqa mast qiluvchi ichimliklar haqida biror narsa aytilmagan. Lekin mujtahid ulamolar mast qiluvchi ichimliklarning hammasida ham araq kabi salbiy natijalar bo'lishini hisobga olib, unga Q. qilganlar va harom deb hukm chiqarganlar. Q. faqihlar huquqini kengaytirib, shariatni turmushning turli tomonlariga tatbiq etishga imkoniyat bergan. Shu bilan birga Q. islom dinini zamon va taraqqiyot ila yonma-yon yurishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Q.ning manba sifatida kiritilishi shariatning huquq tizimi sifatida shakllanishi va ruhoniylar, faqihlar mavjud munosabatlarni himoya qilishdagi mavqeining oshishidan dalolat berar edi. Islom huquqshunosligida hozirda ham Q.ga amal qilinadi.

QIROAT (arab. - o'qish) - islom an'anasida Qur'on oyatlarini tajvid qoidalariga rioya qilgan holda, o'ziga xos ohangda o'qish. Q.lar ichida islom olamida eng ko'p tarqalib, singab ketgani - Imom Hafs (805 y. v.e.) rivoyati bilan naql qilingan Imom Osim (744 y. v.e.) Q.idir. Qur'oni karimning barcha mamlakatlarda qayta-qayta nashr etilayotgan Misr nashri (1919, 1923, 1928) aynan mana shu Q.ga asoslangan. Bizning diyorimiz musulmonlari o'rtasida ham qadimdan shu Q. ta'lim berib kelinadi. Qur'onni tajvid qoidalariga mos hodda eng yoqimli ohangda Q. qilish bo'yicha Misr qorilari dunyoda birinchi o'rinda. Q. bilan tilovat o'rtasidagi farq shuki, Q. ilohiy oyatlar, vahiyini o'qishga ham, inson tomonidan bitilgan yozuv va she'rlarni o'qishga ham qo'llanaveradi. Tilovat esa, asosan vahiy etilgan oyatlarni o'qishga ishlatiladi.

QOBIL VA HOBIL - Odam (as)ning farzandlari; ularning qissasida ko'pgina ibrat va hikmatlar bo'lganidan, Qur'oni karimda zikr qilingan. Qobil qalbi xasta, yomonlikka moyil, tama' va gunohga intiluvchi, haq hukmiga unamay sarkashlik qiladigan inson edi. Uning ukasi Hobil esa, haqqa bo'ysunuvchi, solih, taqvoli edi. Q. va H. o'rtasida paydo bo'lgan ixtilof yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash bo'lib, Qobil o'z ukasi Hobilni qatl qilishi bilan tugaydi. Ular orasida ixtilof paydo bo'lishining sababi haqida 2 xil rivoyat keltirilgan. 1-rivoyatda aytilishicha, "Hobil qo'ychilik bilan Qobil esa, dexqonchilik bilan mashg'ul edi. Ulardan har biri o'zidagi bor narsani Alloh yo'lida kurbonlik qilishga jazm etadi. Hobil qo'ylarining ichidan eng yaxshisini qurbonlikka tanladi. Qobil esa, kurbonlik uchun sifati eng past bo'lgan bug'doydan ajratadi. Ikkalasi ham Alloh uchun atagan kurbonligini bir joyga qo'ydilar. Shunda osmondan o't tushib Hobilning atagan qurbonligini yedi-yu, Qobilning qurbonliga qoldi. Qobil ukasi Hobilning kurbonligani Alloh qabul etib, o'zining qurbonligani qabul etmagani uchun unga nisbatan hasad qilib, o'z ukasini o'ldiradi".

2-rivoyat esa quyidagicha: "Odam (as) har farzand ko'rganida 1 o'g'il va 1 qiz tug'ilar edi. Ilgari tug'ilgan o'g'il farzandiga 2-vaqtda tug'ilgan qizni olib berar va shu tarzda insonlar ko'payar edi. Xuddi shunday Q. va H. ham 1 qiz bilan egaz tug'ildilar. Qobil bilan tug'ilgan qiz nihoyatda chiroyli edi. Odam (as) qoidaga ko'ra, bu qizni Hobilga bermoqchi bo'ldi. Lekin Qobil bunga ko'nmay: "Bu mening singlim, o'zim olaman, Hobil ham o'z singlisini olsin. Bu ishni siz o'z fikringaz bilan qilyapsiz, Alloh sizni bunga buyurgani yo'q", deb e'tiroz bildirdi. Shunda Odam (as) u ikkoviga qarata: "Siz ikkovingiz ham Alloh yo'lida qurbonlik qilinglar, qaysi biringazni qurbonligangaz qabul bo'lsa, bu qizni o'shanga berurman", dedi. Alloh osmondan olov tushirdi. Bu olov Hobilning qurbonligani yutgach, akasi Qobil uni hasad qilib o'ldirdi". Bu hakda Moida surasi 27-31 oyatida bayon qilingan.

QODYONIYLIK - q. Ahmadiya.

QODIRIYLAR, qodiriya- so'fiylik tariqati. 12-a.da Iroqda Abdulqodir Giloniy (1077-1166) asos solgan. Q.ning markaziy qarorgohi Bag'dodda. Bu maskanga Abdulqodir qabri ustiga qurilgan madrasa, rabot va masjid kirib, Bag'dodning asosiy qadamjolaridan biri hisoblanadi. Q. qarashlari jihatdan sunniylik oqimiga mansub, ular alohida guruhlardan tashkil topgan. Q. tasavvuriga ko'ra, tariqat asoschisining tariqatga a'zoligi davom etaveradi, u tariqat tarafdorlarini vositachi orqali boshqaradi. Q.ning bir guruhi Abdulqodir Giloniyni ilohiylashtirgan. Q.da hamma a'zolar uchun majburiy bo'lgan

alohida tasavvuf yo'li yo'q. Hoz. vaqtda Sharqiy va Shim. Afrikada, Sudan, Iroq va Pokistonda Q.NING mavqei kuchli (Iroq va Pokistondagi Q. guruhi Bag'doddagi maskanni tariqatning markazi deb e'tirof etadi). Q.ning tashkiliy asosi mustaqil mazgil (xonaqox, rabot, zoviya) hisoblanadi, uni boshqarish an'ana bo'yicha nasldan naslga o'tadi. Q.ning ijtimoiy tarkibi har xil bo'lgan. Ular jamoa bo'lib (samo, xadra, layliyo), ovoz chiqarmasdan alohida (zikri xafiy) holda hamda baland ovozda (zikri jali) umumiy zikr tushishgan. Tariqat a'zolari boshlariga kigaz telpakcha kiyib yurgan. Telpakchada Q.ning timsoli -uch qator gulbargli yashil gul bor. Abdulqodir Giloniy sharafiga har yili bo'ladigan tantanalar ularning asosiy bayramidir.

QODISIYA JANGI - Sa'd ibn Abu Vaqqos qo'mondonligi ostidagi islom qo'shini bilan Xuroson hokimi Rustam ibn Farruhzod qo'mondonligidagi sosoniylar qo'shini o'rtasida Xira yaqinidagi Qodisiya qishlog'i yaqinida sodir bo'lgan jang (636 y. sentyabr; boshqa ma'lumotlarga ko'ra, dekabr oyi yoki may oyining oxiri, iyunning boshi). Q.j. uch kecha kunduz davom etgan va islom lashkarining g'alabasi bilan tugagan. Musulmonlar qo'lga Eronning davlat bayrog'i tushgan. Bu bayroq qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bo'lib, uni 1 mln. oltin dirhamga baholashgan. Q.j.da b ming arab jangchisi va 10 ming fors askari halok bo'lgan. Sa'd ibn Abu Vaqqos jangdan so'ng 2 oy davomida Qodisiyada qolib, Umar. (ra)dan keyingi harakat rejalari haqida tegashli farmon kutgan.

QOZI (arab. - tayin qiluvchi, xukm chiqaruvchi) - musulmonlar amaldor-hakamining umumiy qabul qilingan nomi, hukmdor tomonidan tayinlab, shariat asosida sudlovni bajaradi Dastlabki Q.larni xalifa Umar ibn Xattob Madina, Basra, Kufada tayinlagan. Shundan so'ng Q.lar yirik shaharlar va viloyatlarda. harbiy yurishlar vaqtida esa, qo'shinlarda ham tayinlana boshlagan. Q.ni faqat xalifa tayinlashi mumkin edi, u oliy huquqiy nufuzli odam hisoblanadi. Q.ning hukmi ustidan xalifaga shikoyat qilish mumkin bo'lgan, bunday shikoyat natijasida Q. ishdan bo'shatilishi mumkin edi. 8-a.ning 2-yarmida oliy Q. - qozi ul-quzot lavozimi joriy qilindi, unga xalifa nomidan xalifalikdagi barcha Q.larni tayinlash va ularning hukmi yuzasidan da'volarni qabul qilish xuquqi berildi.

Xalifalikdan mustakdl musulmon davlatlari paydo bo'lishi bilan bu davlatlarning hukmdorlari o'zlari Q. va qozi ul-quzotlarni tayinlay boshladilar. Biroq, xalq va ko'p faqihlar ko'z o'ngida xalifaning tasdiqdashisiz ularning tayinlanishi haqiqiy hisoblanmagan va bu xildagi tasdiqlashni talab etish tartibi, hamma joyda bo'lmasa ham, 12-a.gacha saqlanib qolgan. Amalda Q, lavozimini o'z obro'siga dog' tushirmagan. idrokli va shariatni yetarlicha biladigan. yaqqol ko'rinib turgan jismoniy nuqsoni bo'lmagan sog'lom har bir musulmon egallashi mumkin bo'lgan. Q. davlat gaznasidan ta'minlab turilgan. O'z shahri yoki viloyatidaga barcha fuqarolik va jinoiy ishlarni olib borish. jamoatchilik axloqi saqlanishini nazorat qilish, zarur bo'lgan takdirda odamlar va mulkka vasiylikni tayinlash, vaqf mulklarini nazorat qilish, jamoat binolari va inshootlar, yo'llar, ko'chalar va maydonlarning holatini kuzatib turish, meros bo'linishini va vasiyatga rioya qilinishini, Q. hukmlari to'g'ri bajarilishi va to'g'ri jazo belgilanishini kuzatish, huquqni muhofaza qilish idoralari va turma nozirlarini nazorat qilish, zakot, sadaqa va b. jamoat mablag'lari to'g'ri yig'ilishi hamda taqsimlanishini kuzatib borish kabi ko'p ishlar Q-ning vazifasiga kiradi. Qo'shinlar Q.si bulardan tashqari hukmdor nomidan muqaddas urush (jihod) e'lon qilishi, qo'lga kiritilgan harbiy o'ljani baholashi va uning to'g'ri taqsimlanishini kuzatishi kerak. Qo'shinlar Q.si harbiy huquqni yaxshi bilishi

lozim.

Ayrim hollarni hisobga olmaganda, Q.lar faqihlar orasidan chiqqan. Garchi, Q.lik nasldan naslga o'tishi mumkin bo'lmasa-da, ko'pincha bunday lavozimga ko'p yillar davomida bir oila vakillari tayinlanib kelgan. 8-a.dan boshlab Q. faqihlar va muftilarga o'xshab alohida kiyim kiygan, bu tartib ko'p mamlakatlarda hozirgacha saqlanib keladi. Hoz. vaqtda Q. shariat sudlariga rahbarlik qiladi, bu sudlar urf-odat, oila, xususiy va qisman jinoyat huquqiga taallukli ishlarni ko'rad

QORA TOSH (arab. al-Hajar al-asvad) - musulmonlar ziyorat qiladigan tosh. Kumush chambar bilan birlashtirilgan bir necha bo'lakdan iborat. U Ka'ba devorlaridan biriga tashqarvdan joylashtirilgan. Makkaga hajga borgan musulmonlar Q.t.ni o'pib yoki qo'l tekkizib ziyorat qiladi. Q.t. islomda mo'tabar hisoblangan narsalardan biri. Shariatga ko'ra, umra yoki haj ziyoratiga borgan odam Q.t.ni o'pishi yoki qo'lining ichki tarafi bilan unga ishorot qilib, so'ng qo'lini o'pishi (istilom) sunnat amallardan hisoblanadi.

QORI (arab. - o'quvchi) - Qur'onning barcha suralarini yod olgan va qiroat bilan o'qiydigan kishi. Q.larni tayyorlaydigan maktablar (qorixonalar) musulmon mamlakatlarda keng tarqalgan.

QORIXONA - qorilar tayyorlanadigan diniy o'quv yurti. Dastlab arab mamlakatlarida, keyinchalik O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Qlar odatda eski maktablar qoshida va katta mozorlar yonida ochilgan. Q.ga eski maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o'g'il bolalar qabul qilingan. Q.lar xususiy bo'lib, domlalar daromadi bolalar hisobiga bo'lgan. Q.da bolalar 3-4 yil o'qitilgan. O'qish jumadan tashqari har kuni ertalabdan kechgacha davom etgan. Diniy bayram kunlari mashg'ulotlar to'xtatilgan. Q.da, asosan, Qur'oni karim suralari yodlatilgan. Qur'onni yod olgan bola Q.ni tugatgan hisoblangan. O'rta Osiyoda, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qonda Q.lar ko'p bo'lgan.

QOSHONIY (yoki al-Qoshiy), Kamoliddin Abdurazzoq ibn Ahmad (? - 1329) - yirik mutasavvif va sharxlovchi. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar oz. Qoshonda tug'ilib o'sgan. Nuriddin Abdusamadning shogirdi, Ibn Arabiy va uning vahdati vujud ta'limotining ashaddiy muxlisi bo'lgan. Mana shu asosda u vahdat ash-shuhud ta'limoti asoschisi va Ibn Arabiyning tanqidchisi Alo ud-davla Simnoniy (1336 y. v.e.) bilan yozma munozaraga kirishgan va unda, Jomiyning so'zlariga qaraganda, g'olib chiqqan. Ibn Arabiy, Ansoriy, Ibn al-Faridning tasavvufga oid asarlariga sharh yozgan. Q.ning mustaqil asarlari jumlasiga Qur'onga yozilgan kamida 2 sharh, "Latoif al a'lom", "Risola fi-l-qada va l-qadar", so'fiylikka doir terminlarning mashhur lug'ati "Istilohot as-so'fiya" va b.ni kiritish mumkin. Ibn Arabiyning ko'plab g'oyalari Q.ning mohirona sharxlari tufayli keyinga avlod so'fiylariga yetib kelib, keng tarqalgan.

QO'IM - shialik aqidasi ko'ra, g'ayriqonuniy hokimiyatga qarshi ko'tarilib (qo'im) yer yuzida adolat o'rnatish uchun kelishi kutilayotgan "Payg'ambar oilasi" a'zosi (Oli Muhammad)ni anglatuvchi atama. Mahdiylik g'oyalari shialik muhitida islomning butun tarixi mobaynida rivojlanib va singdirib kelindi. Q. haqidagi tasavvur 8-a. boshida

Muhammad ibn al-Hanafiya (taxm. 700 y. v.e.)ning "qaytishini" kutgan kaysoniyalar muhitida paydo bo'lgan. 8-a.ning taxm. 70-y.laridan Ali(kv) xonadonidan bo'lgan Q.ning qaytishi g'oyasini ilk ismoiliylar, xususan, muborakiylar - Muhammad ibn Ismoil ibn Ja'far imomligi tarafdorlari targ'ib qila boshladilar. Qarmatlar ularning g'oyaviy izdoshlari edi.

Imomiylar va ismoiliylar muhitida Q. ko'pincha Mahdiy ("to'g'ri yo'ldan boshlovchi") bilan aynan bir deb hisoblanadi. Bu - Ali xonadoniga mansub "yashirin" imom Qiyomatga yaqin paydo bo'lishi lozim. Kelishi kutilayotgan Mahdiyga ishonish shialikdagi asosiy aqidalardan biri. Agarda sunniylar uchun kutilayotgan Mahdiy - "Payg'ambar (as)ning so'nggi o'rinbosari (xalifasi) bo'lsa, shialar uchun Q. Mahdiy - "ilohiy ko'rsatma"ga ko'ra, to'la hokimiyatga ega bo'lgan va mutlaq begunoh hukmdor. Bu - "mavjudlik kugbi" (kutb al-vujud), u tufayli yerda hayot mavjud.

QUBBAT as-SAXRA ("Qoya gumbazi") -Quddusdagi al-Harom ash-Sharif markazidagi, qadimdan e'zozlanib kelingan qoya ustidagi gumbazli masjid, Ibrohim (as) Ismoil (as)ni shu qoya ustida qurbonlikka keltirishga jazm etgan. Musulmon an'anasi uni isro' va me'roj voqeasi bilan bog'laydi. Q. as-S. islomning eng muqaddas ziyoratgohlaridan, o'rta asrlarda muqaddasligi bo'yicha 3- (Makka va Madinadaga masjidlardan keyin) bo'lgan. Abdulmalik davrida qurilgan (686-691). Musulmon diniy me'morligining eng noyob yodgorliklaridan biri. Qoya uzra diametri 20,5 m va bal. 30 m bo'lgan tumbaz qad ko'targan. Bu yerda Muhammad (sav)ning mo'yi muboraklari saqlanadi. Salib yurishlari davrida Q. as-S. cherkovga aylantirilgan, bu davrdan xotira sifatida yog'och ayvon (minbar) saqlanib qolgan bo'lib, u Qur'on qo'yiladigan taglikka aylantirilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Q. as-S. o'zining ulug'vorligi bilan Quddusdagi xristian cherkovlarini o'z soyasida qoldirib ketish maqsadida qurilgan.

QUDDUS, Bayt ul-Muqaddas, Bayt ul-Makdis, Ierusalim (arab. - al-Quds) -xristianlar, yahudiylar va musulmonlarning muqaddas shahri. Q.da arab madaniyatiga oid yodgorliklar: Qubbat as-Saxra (7-a.), al-Aqso masjidi (8-a.) va b. bor.

QURAYSH - Makkada yashagan arab qabilasi. Shu qabilaning hoshimiylar xonadonida Muhammad(sav) tugilganlar. Qdiniy yozuvlar, dunyoviy adabiyotlar va og'zaki rivoyatlarda ko'proqtilga olinadi. Qur'onning 106-surasi Q. nomi bilan ataladi. Islomning paydo bo'lishi arafasida Q. zodagonlari savdo-sotiq tufayli ancha boyigan, Makkada pul muomalasi, sudxo'rlik, qul savdosi kuchaygan. Islom paydo bo'lib, markazlashgan davlat vujudga kelishi bilan Qlar katta siyosiy mavqega ega bo'lgan.

QURBON HAYITI - q. Hayit

QURBONLIK (arab. manosik - yaqinlik. xudoga yaqinlashuv) - xudoga yaqinlashish VA uning rahm-shafqatiga sazovor bo'lish uchun xudo yo'lga jonlik so'yish. Dastlabki davrlarda ko'p xalqlarda, jumladan, islomdan ilgarigi arablarda qullarni, o'z farzandlarini qurbon qilish odati bo'lgan Qur'onning 108-Kavsar surasida xudo jannatdagi kavsar hovuzini ato etgani uchun jonliq so'yib Q. qilish haqida so'z boradi Muhammad (sav)ning

tarjimai hollari hisoblangan Siyrada Zamzam bulog'i suvi kamayib turganda Muhammad (sav)ning bobolari Abdulmuttalib suvni ko'paytirishni xudodan tilab o'z o'g'illaridan birini Q.ka atagani haqida rivoyat saqlanib qolgan Davrlar o'tishi bilan insonni qurbon qilish odatini hayvonni qurbon qilish odati egallagan. Qur'on bo'yicha Ibrohim (as) Allohning buyrug'iga ko'ra, o'z o'g'li Ismoil (as)ni qurbon qilishga qaror qilganda, Alloh uni to'xtatib, bolaning o'rniga qo'chqor so'yishni buyurgan (37:99-107). Islomda Q. haj marosimining qat'iy va majburiy qismlaridan biriga aylangan: hajda ishtirok etganlarning har biri bittadan jonliqni Q qilishi shart. Bu talab islomda farz deb belgilangan. Hajda ishtirok etmagan musulmonlar esa, haj kunlari qurbon xayitini bayram qiladi. O'sha kuni har bir o'ziga to'q-g'aniy musulmon Q. qilishi lozim hisoblanadi Islom ta'limotiga ko'ra, Q. qilishi vojib bo'lgan musulmon nisobga (zakot berishga) qodir bo'lishi lozim. Ammo, nisobga ega bo'lmagan kishi Q. qilsa savob olib, qilmasa gunohkor bo'lmaydi. Q. uchun so'yiladigan hayvon - qo'y, mol, tuya Bir qo'yni bir kishi Q. qilishi mumkin. Mol tuyani esa, bir kishidan to yetti kishigacha bir bo'lib Q. qilishlari mumki

QUR'ON (arab. - o'qimoq, qiroat qilmoq jamlash) - musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Q. o'zidan oldin nozil bo'lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlarini o'zida jamlaganiga ishorat bordir. "Ulumul Qur'on" ilmi ulamolari Q.NI quyidagacha ta'riflaydilar: "Q. - Alloh taoloning Muhammad (sav)ga vahiy orqali nozil qilgan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan, ojiz qoldiruvchi kalomidir". Tavotur ila naql qilingan, degani esa, kalomni yolg'onga chiqarib bo'lmaydigan darajada ko'p sondaga kishilar tomonidan naql qilinishiga aytiladi. Ularning hammalari ishonchli odamlar bo'lib, biror og'iz yolg'onga yaqinlashmagan, ko'pliklari jihatidan yolg'onga kelishib olish imkonlari ham yo'q bo'ladi. Q.ning birinchi kalimasidan oxirgi kalimasigacha, aynan xuddi shu tariqada nakd qilingan.

Q.ni Allohdan vahiyning amiyini - ishonchli sohibi bo'lmish, Jabroil (as) Muhammad (sav)ga naql qilgan. Muhammad (sav)ga Q. oyatlari Jabroil (as) tomonidan qandoq yetkazilishini ko'pchilik sahobalar o'z ko'zlari ila ko'rib, kuloklari ila eshitib turganlar. Buning ustiga har safar vahiy nozil bo'lgandan so'ng, Muhammad (sav), menga mirzalarni chaqiringlar, deganlar va vahiy yozuvchi sahobalar kelganlaridan so'ng, Jabroil (as)dan oyati karimalarni qandoq qabul qilib olgan bo'lsalar, shundoq qilib o'qib berganlar. Mirzalik qiluvchi sahobalar oyatlarning har bir harfini ulkan ehtimom ila yozganlar, boshqa sahobalar esa, ana shundoq ehtimom ila yod olganlar.

Muhammad (sav) 40 yoshga yetganlarida Makka atrofidagi tog'lardan biridaga Hiro nomli g'orda Q.ning birinchi oyatlari nozil bo'la boshlagan. Bu jarayon Makkada o'n uch yil, Madinada o'n yil, hammasi bo'lib yigirma uch yil davom etgan.

Q. suralardan iborat, sura Q.ning bir bo'laga bo'lib, uch yoki undan ko'p oyatni o'z ichiga oladi. Q.da 114 ta sura bo'lib, har birining o'z nomi bor. Ba'zi suralarning ismi suraning avvalidagi so'zdan olingan. Ba'zilariniki esa, o'sha surada zikri ko'proq kelgan narsalarning nomiga qo'yilgan.

"Sura" so'zi lug'atda, qo'rg'on, manzil va sharaf ma'nolarini anglatadi. Ulamolar istilohida esa, sura - Qur'on oyatlarining boshlanish va tugashi belgilangan mustaqil toifasidir. Boshqacha qilib aytganda, Q. oyatlarining qo'rg'on ila o'ralgandek, bir toifasiga sura, deyiladi. Q. karimdagi eng qisqa sura Kavsar surasi bo'lib, uch oyatdan, eng uzun sura Baqara surasi bo'lib, 286 oyatdan iboratdir. Q. suralari ikki qismga bo'linadi: 1. Hijratdan avval tushgan suralar - "Makka suralari" (Makkada tushgan) deyiladi. 2. Hijratdan keyin tushgan suralar - "Madina suralari" (Madinada tushgan) deyiladi. Muhammad (sav) Q. oyatlarini farishtadan eshitib, yodlab olar edilar. Keyin boshqa

musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olishardi. Shu bilan birga, yozishni biladigan odamlar, shu jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b kabi kishilar o'zlariga muyassar bo'lgan xurmoning po'stlog'iga, yapaloq toshlarga, katta suyaklarga, teriga, qog'ozga va shunga o'xshash narsalarga Q.ni yozib borganlar. Payg'ambar (sav) ularga yangi tushgan oyat qaysi suradan ekanini va qaerda turishi lozimligini ko'rsatib berganlar. Shunday qilib, yigirma uch yil davomida Q. farishta orqali tushib ham bo'lgan. Payg'ambar (as) va sahobalar yodlab ham bo'lishgan hamda yozishni biladiganlar yozib ham bo'lishgan. Muhammad (sav) hayotlik vaqtlarida, yana vahiy tushib qolar, degan umidda Q. jamlab kitob shakliga keltirilmagan. U kishining vafotlaridan keyin Q. kishilarning qalbida va yozgan narsalarida qoldi. Muhammad (sav)dan so'ng musulmonlarga Abu Bakr (ra) boshliq etib saylandi. Uning davrida dindan qaytganlar bilan musulmonlar orasida qattiq janglar bo'ldi. O'sha janglarda Q.ni to'liq yod olgan ko'plab qorilar shahid bo'ldilar. Shunda Umar Abu Bakrga, qorilar o'lib ketaversa, Q.ga zarar yetishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakliga keltirib jamlab qo'yish kerak, degan maslahatni berdi. Abu Bakr Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib, bu ishni amalga oshirishni unga topshirdi. Chunki, Zayd ibn Sobit Payg'ambar (sav) bilan juda ko'p birga bo'lgan, Q.ni eng yaxshi yod olgan va uni payg'ambar huzurida yozgan, Payg'ambar vafot etadigan yillari Jabroil farishtaga Q.ni avvalidan oxirigacha o'qib o'tkazganida birga bo'lgan edi. Zayd ibn Sobit, Umar ibn Xattob (ra) va b. Q. karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning mustahkam, ishonchli bo'lishiga harakat qilib, masjidida: "Kimning qo'lida yozilgan Q. bo'lsa va uni Payg'ambar huzurlarida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin, Q.ni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi", deb e'lon qiddilar. Ular masjidida o'tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniklik bilan bir yildan ortiq vaqtda Q.ni jamladilar. So'ng ko'pchilikka ko'rsatdilar, hamma rozi bo'ldi. Shunday qilib, Zayd va Umar mashaqqatli urinishlardan keyin Q.ni kiyik terisidan ipshangan sahifalarga yozib bo'ldilar va uni belidan bog'lab, Abu Bakrning uyiga qo'yib qo'yidilar. U kishi olamdan o'tgandan keyin sahifalar Umarning uylarida, u kishidan so'ng esa, qizlari va payg'ambarning xotinlari Hafsa binti Umar huzurida qoldi. Vaqt o'tishi bilan Islom davlatining chegarasi kengayib, ko'plab xalqlar ham musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paygandan so'ng Q.ni o'qishda turlicha kelishmovchiliklar chiqa boshladi. Bu holatni ko'rgan o'sha vaqtda xalifa Usmon ibn Affon Hafsadani Abu Bakr davrida sahifalarni so'rab olib, undan olti nusxa ko'chirishga buyruq berdi.

Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxaga bittadan qori qo'shib jo'natdi va hammaga faqat shu nusxadan Q.ni ko'chirish va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq berdi.

Usmon (ra) Makkaga bir dona mushaf bilan birga Abdulloh ibn Soibni yubordi. Shomga bir dona mushaf bilan birga Mug'iyra ibn Shihobni yubordi.

Kufaga bir dona mushaf bilan birga Abu Abdurrahmon Silmiyni yubordi. Basraga bir dona mushaf bilan birga Omir ibn Abdul Qaysni yubordi.

Madinada qolgan mushafdan odamlarga qiroat ta'limi berishni Zayd ibn Sobitga topshirdi. Usmon (ra) o'zlariga bir dona mushaf oddilar. Bu mushaf Imom mushaf deb nomlangan. Keyinchalik, nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina Usmon davrida yozilgan nusxalarga suyanish joriy bo'ldi. Oxiri kelib, har bir nusxaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nusxa Mushafi Usmonga muvofikdir, deb yozib qo'yiladigan bo'ldi.

Shundoq qilib, Q.ning harflarini yozib uslubi bir xilligi ham saqlab qolindi. Bu ma'nodagi ehtiyotkorlik shu darajaga yetdiki, Q.ning harflariga biror nuqtachalik ham o'zgarish kirmasin, degan qasd ila ulamolar, mushaf ichiga gul, daraxt bargi va shunga o'xshash

boshqa narsalarni mutlaqo qo'yib bo'lmaydi, aks holda, o'sha narsalar sahifaga yopishib qolsa, shubha paydo bo'lishi mumkin, deb fatvo chiqardilar.

Zamon o'tishi bilan olib borilgan maslahatlardan so'ng, kishilar Q.ni xato o'qimasliklari va Q. qiroati haqida turli ixtiloflarga tushmasliklari uchun, mushaflarga fatha, kasra, zamma alomatlari qo'yish kerak, degan fikrga to'xtaddi. Bunda ham asl harflarga zarra o'zgarish alomati kirmaslik shartlari ishlab chiqildi. Tarixda bu ish Q.ni nuqtalash, nomi ila sobit bo'ldi. Chunki, mazkur o'ta ahamiyatli ishni hazrati Alining amrlariga binoan amalga oshirgan olim Abul-Asvad ad-Dualiy yuqorida zikr qilingan alomatlarni harflarning usti, osti va o'rtasiga qo'yilgan nuqtalar ila ifodalagan edi. Keyinchalik, zamon o'tishi bilan, vaziyat taqozo qilganda, boshqa alomatlar ham xuddi shunday ehtiyotlik va aniqlik bilan qo'yib chiqildi. Zamon o'zgarib, texnik taraqqiyot davri kelganda, Q.ni texnik jihozlar vositasida chop etish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Ulamolar dastlab, bu ishga ruhsat bermadilar. Ular mazkur uslub ila chop etish Q.ning obro'siga to'g'ri kelmaydi, degan tushunchaga | borgan edilar. Vaqt o'tishi bilan musulmonlar ! ham chopxona ishlarini o'zlashtirdilar, Q. karimni ko'plab chop etishga ehtiyoj ortib bordi va ulamolar kerakli shartlarni qo'yib, Q.ni chop etishga izn berdilar. Q. islom diniga oid barcha hukmlarning asosiy va 1-manbaidir. Musulmon faqihlar | biror narsaning shariatdagi hukmini bilmoqchi bo'lsalar, albatta, oldin Q.ga | murojaat qiladilar. O'sha o'zlari izlayotgan] hukm haqida Q.da biror hukm bo'lsa, uni darhol I qabul qiladilar. Usha narsa Q.da bo'lmagan taqtsirdagana sunnat, ijmo', qiyosga murojaat qilishga o'tadilar. Boshqa sohalarda ham xuddi shundoq. Hatto arab tili qoidalari ham Q.dagi so'zlar va oyatlardan olingandir. Q. o'ziga e'tiqod qiluvchi xalqlar hayotida va tarixida asosiy o'rin tutgan kitobdir. Bu kitob mazkur xalqlarning ilm-ma'rifat, adabiyot, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar va dunyoqarashlari va b. narsalarda o'zining salmoqli izini qoldirgan. Hozirgacha Q. son-sanoqsiz odamlar tomonidan ishonchli tariqada naql qilinib kelinmoqda. Bu naqlda asosiy e'timod yod olishgadir. Har bir qori o'z shogirdiga har bir harf, har bir kalima, har bir oyat va xar bir surani o'z ustozidan qandoq qabul qilib olgan bo'lsa, xuddi ana shunday qilib yetkazishi shart. Shuning uchun ham har bir Q. o'quvchi musulmonning kiroat bo'yicha silsilasi Payg'ambar (sav) yetib boradi. Ana shu silsilaga suyanilmasa, ya'ni avloddan avlodga o'tib kelgan rasmiy qiroat izni bo'lmasa, Q. o'quvchi qori hisoblanmaydi. Q. qiroati to'g'ri bo'lishi uchun ustozdan tajvid ilmini o'rganish kerak. Shogird o'z ustozidan har bir so'z talaffuzini va b. kerakli narsalarni eshitadi va o'zi tayyorlanib qayta o'qib beradi. Ustozi oyat yoki surani to'g'ri qiroat qilinganiga rozi bo'lganidan keyingana boshqa oyat va suralarni o'rganishga o'tiladi.

Har bir musulmon uchun o'ziga kerakli mikdorda Q.dan yod olish farz ayndir. Har bir musulmon jamiyatda o'zlariga kerakli mikdorda Q.ni to'liq yod olgan qorilar bo'lishi farzi kifoyadir.

QUSAM ibn ABBOS, ibn Abdulmuttalib ibn Xoshim al-Qurayshiy (taxm. 624-677) - sahobalardan. Muhammad (sav)ning amakivachchalari. Otasi - Abbas ibn Abdulmuttalib - Rasululloh (as)ning amakilari. Onasi - Rasululloh (as)ning zavjalaridan bo'lgan Maymunaning singlisidir. G'iyosiddin Javhariyning yozishicha, hazrat Kusam payg'ambar (as) vafot etganlaridan so'ng ul zotni yuvganlardan biridir. Rivoyatga ko'ra, Q. ibn A. bu paytda 8 yoshda bo'lgan, uning aftu basharasi va qiliqlari butkul payg'ambar (as)ga o'xshash edi. Xalifa Ali ibn Abutolib (kv) davri (655-661)da Makka voliysi bo'lgan. Muoviya davri (661-680)da Xuroson voliysi Said ibn Usmon bilan birga O'rta Osiyoni fath etishda qatnashgan. "Samariya"da yozilishicha, Said dinni kuchaytirmoq va shariat

hukmlarini yurgazmoq tilagida Q. ibn A.ni bir necha islom qo'shini bilan birga Samarqandda qoldirgan. 677 y. sug'diylar shaharga hujum qilgan. Samarqand sh.ning Namozgohida Qusam shahid bo'lgan. Uni Banu nojiya qabristonida g'or yonida (boshqa manbalarda - G'oziyalar yonida) dafn etganlar. Sulton Sanjar Moziy zamonasida (1118 - 1157) o'sha qabristonda "Qusamiya" madrasasi solingan. U Obi mashhad arig'i yaqinida bo'lgan Amir Temur davrida ushbu mozor imorat qilinib, turli bezaklar bilan bezatilgan. Xalq orasida Shohi Zinda ("Tirik shoh") nomi bilan mashhur bo'lgan bu yodgorlik o'rta asr me'morchiligining eng noyob obidalaridan sanaladi.

QUTAYBA ibn MUSLIM, al-Bohiliy, Ab Hafis (taxm. 660 - 715) - umaviylarning Xuroson va Seyistondagi noibi (705-715) sarkarda. U 705-715 y.lar orasida Movarounnahrning katta qismini (Romiton, 707; Varaxsha, Poykend va Buxoroni, 709 Shuman, Kesh va Nasaf, 710; Koshg'ar, 713-715) Arab xalifaligiga tobe ettirgan. 715 y Qilichmozor degan joyda (hoz. Andijon viloyati, Jalolkuduyq tumanida, Andijondan 20-22 km sharqi-jan. tarafda) isyon ko'targan arab askarlari tomonidan o'ldirilgan Narshaxiyning yozishicha, "Qutaybani qabri Fargonada mashhur bo'lib u "Raboti Sarhang degan joyda, "Koh" deb ataladigan bir qishloqda joylashgan.

QUTB - tasavvufdagi eng yuqori daraja Tasavvuf falsafasiga binoan, Q. komil inson Allohning yer yuzidagi "xalifasi", uning insoniyat bilan aloqasida vositachi. So'fiylikda Q. va b. yuqori martabalarga erishgan shu kabi zotlar haqidagi qaydlar Tustariy va Hakim Termiziy (9-a.) asarlarida uchraydi. 10-11 a.larga kelib, barcha so'fiylar Q.ni tan olishgan, deyish mumkin. Ular dunyoda bir vaqtning o'zida faqat bir Q. yashashi mumkin deb hisoblashgan. Shu bois Q.ni "zamon qutbi" "zamon sohibi" va "zamon mard" deb tavsiflashgan. So'fiylar fikricha, Q. dunyoda Allohga ma'qul keladigan tartibotni saqlab turishga da'vat etilgan. Q. oddiy insonlar kabi oila quradi, molu dunyo to'playdi payg'ambarlarning xalifalari sifatida xalqni to'g'ri yo'lga yo'llab turadi. Lekin odamlar ularning Q. ekanligini sezmaydi. Q haqidagi ta'limot Ibn Arabiy va uning izdoshlari tomonidan bayon qilingan.

QUSHAYRIY, Abulqosim Abdulkarim ibn Havozin (986-1072) - xurosonlik ilohiyotchi va so'fiy, tasavvufdagi mumtoz risola "ar- Risola fi ilm at-tasavvuf" ("Tasavvuf ilmi haqida risola") muallifi. Nishopur atrofidagi Ustuv mavzesida dehqon-arab oilasida tug'ilgan. Bolalikdan harbiy san'atdan (furusiya, isti'mol as-siloh), arab tili, adabdan ta'lim olgan. O'smirlik chog'ida Nishopurga borib mashhur so'fiy-ash'ariy Abu Ali ad-Daqqoq bilan uchrashgan va tez orada uning sevimli shogirdiga, so'ngra esa, kuyoviga aylangan. Ustozining maslahatiga ko'ra, Q. Abu Bakr at-Tusiydan shofi'iy fiqhini, so'ngra ash'ariya kalomini o'sha davrning yirik allomalari Ibn Furoqa va Abu Ishoq al-Isfaroiniylardan o'rgangan. Ad-Daqqoq vafotidan so'ng Q. uning madrasasida so'fiylar majlisiga (majlis at-tazkir) rahbarlik qilgan. 1046 y. hajdan qaytgach, Q. madrasada hadisdan saboq bera boshlagan (majlis al-imlo) va tez orada Nishopurning eng ko'zga ko'ringan diniy arbobiga aylangan. Taxm. 1048 y.dan e'tiboran rahbarlaridan biri Q. bo'lgan ash'ariy-shofi'iy guruhi nishopurlik hanafiylar tomonidan qattiq quvg'in ostiga olingan. Hanafiylarni saljuqiylar vaziri al-Kunduriy qo'llab-quvvatlagan. Q. qamoqqa olingan, so'nfa tarafdorlari tomonidan ozod qilinib, Bag'dodga ketgan, u yerda xalifa al-Qoim saroyida hadis ilmidan dars bergan. 1063 y. vazir xalifa g'azabiga uchrab, so'ngra qatl

etilgan (1064). Q. Nishopurga qaytgan. Q. islomiy ilmga doir 20 dan 30 tagacha, jumladan 2 ta tafsir, hadislar, so'fiylik nazariyasi va amaliyotiga doir asarlar yozgan. Uning "ar-Risola fi ilm at-tasavvuf" asari so'fiylar uchun qo'llanma bo'lgan va shunday bo'lib kelmoqda.

- R -

RABOT - 1) 7-10-a.larda Kichik va O'rta Osiyo hamda Shimoliy Afrikaning musulmonlar va xristianlar (yoki butparastlar) yonma-yon yashagan hududlarida vujudga kelgan harbiy istehkomlar yoki qal'alar. R.larda istiqomat qilgan musulmonlar odatda ko'ngillilar sifatida g'ayridinlarga qarshi urushlarda qatnashganlar. 11-12-a.larda Marokashda paydo bo'lgan al-Murobitun harakati va davlati o'z nomini R. atamasidan olgan. Ayni vaqtda Eronda R. o'zining harbiy ahamiyatini yo'qotdi va darvish-qalandarlarning qarorgohi -xonaqohlarga aylandi. Keyinchalik R.ning aynan shu ma'nosi butun musulmon dunyosiga yoyildi. 2) O'rta asrda musulmon shaharlari ichkarisidaga omborxonalar, karvonsaroylar yoki shahar tashqarisidagi bozorlar.

RAVSHANIYLAR - Afg'onistonda vujudga kelgan islom dinidagi firqa. Boyazid Ansoriy (1525-1572) ta'limoti asosida pushtu dehqonlarining mahalliy hukmdorlar va boburiylar siyosatiga qarshi harakati kuchaygan. Piri Ravshan deb nom olgan (firqaning nomi shundan) Boyazid Ansoriy, so'ngra uning o'g'illari va nabiralari rahbarligidagi bu harakat 17-a.ning 30-y.larigacha davom etgan, keyin bostirilgan. R. an'analarini islom an'alaridan birmuncha farq qilgan. R. harakati pushtu xalqi milliy ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan, o'z davrida bu xalqning yirik shoirlari Arzoni, Davlat, Muxlis va b. R. tarafdori edi. Ularning va R. ba'zi rahnamolari adabiy merosining pushtu adabiyotida muayyan o'rni bor.

RAJM - toshbo'ron qilish, faqat zino qilganlik uchun qo'llaniladigan qatl turi. R. haqidagi masala to'raligicha fiqhning ukubot bo'limiga tegashlidir. R. johiliyat davridagi huquqiy normalardan qabul qilinib, Qur'on va sunna bilan tasdiqlangan. R. faqat sud hukmiga binoan, qozi yoki uning vaqilining nazorati ostida amalga oshiriladi. Maxsus ajratilgan yerda to'plangan kishilar mahkumga qarata tosh otib, uni o'lguncha toshbo'ron qiladilar. Agarda zino guvoxlar ko'rsatmalari bilan aniqlangan bo'lsa, birinchi toshlarni guvoxdar otishi lozim, agarda zinokor o'z gunohiga iqror bo'lsa - imom yoki qozi otishi kerak bo'ladi. Jazolanuvchi o'zini chetga tortmasligi yoki qochib ketmasligiga uchun bog'langan yoki tizzasi yoxud beligacha yerga ko'milgan bo'lmog'i lozim. Ayol kishi qatl etilayotgan paytda uni chachvon bilan yaxshi o'ralgan bo'lishiga va o'layotib badani ochilib qolmasligiga e'tibor berish talab qilinadi. Agar zinokorning aqli noraso ekanligi aniklansa, qatl bekor qilinadi. Agarda homilador ayol jazoga tortilishi kerak bo'lsa, unda ba'zi mazhablarga ko'ra, to ayol tug'gunicha qatl qoldiriladi, boshqasiga ko'ra esa, emizish davri tugaguncha yoxud qatl umuman bekor qilinadi. Zinoni isbot qilish amalda juda murakkab bo'lganligi tufayli barcha zamonlarda kamdan-kam hollarda R. jazosi qo'llanilgan. Kishini ko'cha-kuyda hech kanday tekshirishsiz va sudsiz toshbo'ron qilingani haqida keng tarqalgan tasavvurlar g'irt cho'pchakdan boshqa narsa emas.

RAKAAT (oddiy tilda rakat; arab. - muayyan vazifalarning namozda takrorlanishi) - islomda namozning asosiy qismi, namoz o'qishda bajariladigan muayyan harakatlar va ular bilan qo'shib o'qiladigan duolar majmui. Har R. bir necha ibodat harakatlarini o'z ichiga oladi: qo'l ko'tarib takbir aytish, tik turish, belgacha egilish (ruku'), boshni yerga qo'yish (sajda), tiz cho'kish (qa'da) va yana tik turishdan iborat bir tartibdagi

harakatlardan tashkil topadi. Bir R. tugagach, yangi R. boshlanadi. Har bir namoz ma'lum mikdordagi Rlardan iborat, ulardan bir nechasi farz, yana bir nechasi sunnat deb belgilangan.

RAMAZON - hijriy yil hisobining to'qqizinchi oyi. Islom dinida R. oyida Alloh Muhammad (sav)ga Qur'onni vahiy qilgan deb talqin etiladi. Shu sababli, R. muqaddas oy hisoblanadi, bu oy davomida dindorlarga ro'za tutish buyuriladi.

R. - arablarda islomdan avvalgi to'rt muqaddas oydan biri; dastlab yoz fasliga to'g'ri kelgan. Islom dini joriy etilishi arafasida Makkada R. oyida yaxshi amallar qilish (tahannus) an'ana bo'lgan. R. oyining 27-kuniga o'tar kechasi Muhammad (sav)ga birinchi vahiy kelgan (q. Laylat ul qadr). R.da ro'za tutish hijratdan 17-18 oy keyin, ya'ni qibla tomon o'zgartirilgandan bir oydan so'ng joriy etilgan.

R. bilan bog'liq ko'p sanalar ichida Rasululloh (as)ning nabiralari Husash tavallud topgan kun (6-kun), Muhammad (sav)ning zavjalari Xadicha vafot etgan kun (10-kun), Badr yangi kuni (17-kuni), Muhammad (sav)ning Makkaga kirib kelishlari kuni (19-kun), Ali va imom Ali ar-Rizo vafot etgan kun (21-kun), Ali tavallud topgan kun (22-kun) kabilar e'zozlanadi. Ro'zaning tugashi iyd al-fitr bayrami bilan nishonlanadi. Turli musulmon mamlakatlarida qadimgi dinlarga oid marosim, bayramlarni R.oyiga to'g'ri kelib qolishi natijasida R.ga oid marosim va an'analar ham har bir mamlakatda o'ziga xos o'tkaziladi.

RASUL (arab. - elchi) - islom an'anasida Alloh tomonidan tanlab olinib, vakil qilingan va targ'ibot yuritish, da'vat qilish vazifasi topshirilgan, ilohiy kitob nozil qilingan payg'ambar. Muhammad (sav)ga nisbatan doimo R. nomi qo'llanib kelinadi, bu hatto tashahhud (kalimai shahodat)da ham ifodalangan. Nabiy - kitob nozil qilinmagan payg'ambar. Shu boisdan ham har bir rasulni nabiy deb atash mumkinligi, ammo nabiylarni R. deb bo'lmasligi qayd qilingan.

ar-RA'Y ("qarash", "fikir", "hukm qilish") - fiqhda asosan faqihning mustaqil fikrini yoki hukmini anglatib, shunga asosan uning qandaydir huquqiy qaror chiqarishi. Ar-R. tushunchasi xalifa Umar (ra) davri (634—644)da paydo bo'lgan Umar (ra) sahobalardan Abdulloh ibn Mas'udni Iroqqa hakamlik va dindan ta'lim berish uchun jo'natayotganda "qanday ko'rsang va xohlasang" (bi-r-ra'y va n-nazar) shunday sud qilish haqida ko'rsatma bergan. Xalifa shu bilan birga ar-R. deganda qiyos bo'yicha ish ko'rish va jamoatchilik foydasi (al-maslaha) nazarda tutilishini aytgan. Abdulloh ibn Mas'udning Iroqdagi izdoshlarini "mustaqil fikr tarafdorlari" (ashob ar-ra'y) deb Madina faqihlarini "rivoyat tarafdorlari" (ashob al-hadis) deb atay boshlaganlar. Mazhablar shakllanib bo'lgach, ar-R. tushunchasi muomaladan chiqqan, uning o'rniga ijtihod yoki al-qiyos tushunchasi qo'llanilgan

ar-RAHMON (Mehribon) - Allohning ismlaridan biri (q. al-Asmo al-husno), odatda bismilloh ar-Rahmonir-Rahim (Rahimli) shaklida ishlatiladi. Har ikki ism Allohning eng asosiy sifatlaridan bo'lib, insonlarga Qiyomat kuni Allohning marhamat ko'rsatishi, mehribonlik qilishini anglatadi. Ar-R. istilohini johiliyat davrida Arabistondagi yahudiy va xristianlar yagona xudoni anglatish uchun qo'llaganlar. U Jan. Arabistondagi 4-6-a.lardagi monoteistik yozuvlarda uchraydi. Ichki va Shim. Arabistonda yashovchi haniflar

shuningdek, Muhammad (sav)ning zamondoshlari va raqiblari - "soxta payg'ambar" Abxala al-Asvad va Musaylima o'z xudolarini shunday ataganlar. Qur'onda ar-R. - Alloh va Rabb (Parvardigor)dan so'ng Xudoni anglatuvchi eng ko'p ishlatilgan atama. Qur'on nozil qilinishining Makka davrida Muhammad (sav) xudoni asosan ar.-R. deb ataganlar. Ar-R. ko'plab shaxs nomlari tarkibiga kirgan (mas., Abd ar-Rahmon, "Rahmonning kuli", ya'ni "xudoning kuli").

RIBO (arab - sudxo'rlik) - pulga foyda (foiz) olish - sudxo'rlik. Islomdan ilgari arablar orasida R. keng tarqalgan edi. Ilk islomda savdo qilish va u orqali foyda ko'rish keng rag'batlantirilgani holda, pulga foyda olish qat'iy taqiklangan va bu taqiq Qur'onda ham o'z ifodasini topgan (2 : 276). Hozir ham musulmon mamlakatlaridagi bank va moliya ishlarida ushbu taqiqqa amal qilinadi (q. Islom taraqqiyot banki).

REVGARIY Xoja Orif, Mohitobon (12-a. o'rtasi - Shofirkonning Revgar qishlog'i - 1259) - xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti pining ikkinchisi.

Abdulholiq G'ijduvoni (Xojai jahon)dan tasavvuf ta'limotini o'rgangan. Ular G'ijduvon bilan Shofirkon o'rtasidagi Ro'yibinon qishlog'ida uchrashib, suhbatlashib turganlar. G'ijduvoniyaning 4-xalifasi sifatida ustoz vafotidan so'ng xojagon silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da "11-halqaning piri" sifatida zikr etiladi. "Qutbul avliyo" "Valiylar yo'l boshchisi" unvoniga sazovor bo'lgan. Xoja Mahmud Anjirfag'naviyga ustozlik qilgan. Shofirkon sh.da dafn etilgan. Qabri ustidagi maqbara va atrofdagi masjid mustaqillik yillarida ta'mirlangan. R. mozori obod ziyoratgoh sifatida mashhurdir. Tasavvufning o'zak masalalari xususida so'z yuritilgan "Orifnoma" risolasi o'zbek tilida ham nashr qilingan (T., 1994). Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul R. haqida "Xoja Orif Mohitobon" esseni yozgan (T., 1996). As.: Orifnoma, T., 1994.

RIDDA (arab. - orqaga qaytish, chekinish) - musulmon bo'lib yurgan odamning o'z ixtiyori bilan islomdan qaytishi. Islom tarixida birinchi R. - ba'zi arab qabilalari orasida yuz bergan. Ular Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng islomdan chiqqanlar. R. 632 y. bevosita Abu Bakr Siddiq xalifa sifatida davlat boshqaruviga o'tirgach boshlandi va 1,5 yilcha davom etdi. Bu harakatga rahbarlik qilgan ba'zi shaxslar o'zlarini payg'ambar deb e'lon qilganlari bois, islomda ular "mutanabbiylar", ya'ni "soxta payg'ambarlar" nomini oldi. Markaziy Arabistonda Asd G'atfon, Tayy qabilalariga Tulayha, Sharqiy Arabistonda Hanifa qabilasiga - Musaylima, Tamim qabilasiga - Sajjah ismli ayol va nihoyat, Yamanda Mazhij qabilasiga Abhala yetakchilik qildi. Ular Abu Bakr davrida zakot berishdan bosh tortdi. Xalifa Abu Bakr bu harakatni R. hisobladi. R. urushlarida ayniqsa, sarkarda Xolid ibn Valid katta shuhrat qozondi. R.ni bartaraf etishda erishilgan g'alabalar ilk musulmon davlatiga butun Arabiston bo'ylab to'liq hukmronlikni o'rnatishga, keyinchalik yarim oroldan tashqariga yurishlarni boshlashga imkon yaratib berdi.

RIYOZAT (arab. - "qiynalish" "mashaqqatlanish") - tasavvufda tariqatning asosiy shartlaridan biri. Darvish, murid so'fiyning o'z istagidan o'zini tiyib, bu yo'lda qiynalishi, mashaqqat chekishi, azob uqubatlarga chidashi.

RIYOKORLIK - har qanday savobli, ezgu ishlarni, ayniqsa, xayr-ehsonni odamlar ko'rsin, maqtasin uchun, manmanlik bilan amalga oshirish. R. islomda qattiq qoralanadi Qur'oni karimda R. bilan qilingan har qanday ishning zoe ketishi haqida uqtiriladi.

RIZQ (arab. - ulush) - 1) Qur'onga ko'ra Allohning har bir insonga bergan ulushi Islom diniga ko'ra, barcha bandaning Rini Alloh belgilab bergan, o'lchab qo'ygan, kimning R. i tugasa, vafot etadi. R.ni faqat Aploh taoloning o'zigina beradi. 2) Devonga mansub kishilar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat ulushi (xalifa O'mar tomonidan 638 y. joriy etilgan va bu 8-a. oxirigacha davom etgan). Oziq-ovqat ulushi devon ro'yxatidagi jangchilarning oila a'zolariga ham belgilangan. 9-10-a.larda R. - asosan jangchilar maoshi ba'zan umuman maosh (mas., O'rta Osiyoda somoniylar davrida). Misrda 12-15-a.larda ma'lum yer maydonidan natura shaklida to'langan maosh, shundan - umuman ko'chmas mulkdan olingan daromad. 16-a.dan Usmonli turk saltanatida R. deb daromad keltiruvchi yer maydoniga, xususan vaqf yerlariga aytilgan.

RIFO'IYLAR - so'fiylik tariqati a'zolari. O'rta asrlarda vujudga kelgan. Bu tariqatga basralik Sayyid Ahmad Rifo'iy (1182 y. v.e.) asos solgan. R. Yaqin Sharkda, xususan, Eronda keng tarqalgan darvishlardan iborat bo'lgan. Ular hozir ham mavjud.

ROBIA al-ADAVIYA (713/714-801) - Basra zohidlarining taniqli vakilasi. Bolaligida cho'ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo'yligi va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil sahroda yolg'iz yashagan. R.A. Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan. Allohdan hech bir tama' - manfaat ko'zlamay, uni mutlaq sevish - inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanligini zohidlardan birinchi bo'lib ta'kidlagan. R.A. g'oyalari keyingi avlod so'fiylari orasida keng tarqalib, Bistomiy, Halloj, Ibn Farid, Ibn Arabiy va b. so'fiylar ta'limotining asosini tashkil etgan. R.A. taqvodorlik, Allohni sevish namunasi deb bilinib, "avliyo" sifatida ulug'lanadi.

ROBITA ("aloqa", "rishta") - Sharkdagi tasavvufga xos bo'lgan istiloh. Murid bilan uning piri (murshid) yoki avliyo (valiy) o'rtasida paydo bo'ladigan ruhiy aloqa. Muridning butun fikri-zikrini murshid qiyofasiga jamlashi, u bilan muloqotga kirishi va o'zligini unda qo'shib ketishi bilan erishiladi. Naqshbandiylik va qodiriya tariqatlarining ayrim risolalarida R. zikrdan afzal sanalgan.

ROMITANIY Xoja Ali, Xojai Azizon (13-a. o'rtasi, Romitan tumanidagi Qo'rg'on qishlog'i - 1316/1321) - xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti piring to'rtinchisi. Xoja Mahmud Anjirfag'naviydan tahsil olgan. Uning vafotidan so'ng xojagonlik silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da 13-halqaning piri hisoblanadi. R.ning "Risilai Azizon" asari mashhur bo'lib, unda tasavvuf maqomlari xususida so'z yuritilgan. Tojik tilida bitgan she'rlarida tasavvuf g'oyalari ilgari surilgan. Xoja Muhammad Boboyi Samosiyga ustozlik qilgan. Qo'rg'on yaqinidagi Saribo'ston qishlog'ida dafn etilgan. Qabri

ustida maqbara qurilgan. G.Navro'zova va I.Qosimov "Hazrat Xoja Ali Romitaniy" risolasini nashr qilishgan (1984).

ROFIZIYLAR (arab. rofiz - tark etish, rad etish, ba'zan maslagidan qaytish ma'nolarida) - o'rta asrlarda sunniy islom ilohiyotida izchil islom yo'lidan chetga chiqqan oqimlar, xususan shialar (Abu Bakr (ra) va Umar (ra)ning xalifalik huquqini rad etganlari uchun) R. deb atalgan. Keyinchalik Alini ilohiylashtirish tarafdorlari bo'lgan firqalar (xususan ismoiliylar) shu nom bilan atalgan. Umumiy ma'noda R. imomiylar, alaviylar va zaydiylarga nisbat beriladi.

RUKN (arab. - asos, ustun), arkon ad-din (din asoslari) - islomda eng muhim sanalgan beshta vazifa. Unga "kalimai shahodat", namoz, zakot, ro'za va haj ibodatlar kiradi. R. talablarini bajarish islomda har bir mo'min-musulmon uchun majburiy-farz hisoblanadi. Lekin ba'zi istisno holatlarda bu majburiyat zimmadan soqit bo'ladi. Mas., boyligi shariat belgilagan ma'lum mikdorga (nisobga) yetmagan kishi zakot bermaydi yoki qodir bo'lmagan musulmonlar zimmasidan haj ibodati ham soqit bo'ladi. Imonning ruknlari esa, ikkitadir. Ya'ni, Muhammad (sav) Alloh tomonidan keltirgan barcha ahkomu arkon va ma'lumotlarga dil bilan tasdiq etib, til bilan iqror qilishdir.

RUMIY, Jaloliddin Muhammad ibn Bahouddin Muhammad al-Balxiy (1207-1273) - shoir, mutafakkir, mavlaviylar (mavlaviya) tariqatining norasmiy shayxi. Balx (Shim. Afg'oniston)da tug'ilgan. Otasi - Muhammad ibn al-Husayn al-Xatibiy al-Balxiy (1148-1231) Xorazmshohlar davlatida "Sulton ul-ulamo" ("Ulamolar sultoni") deb ulug'langan. 1231 y.da otasi vafot etgach, R. uning o'rniga Ko'niya madrasasining bosh mudarrisi bo'ladi. Tariqat yo'lini tutib, shoir Said Burhoniddinga shogird tushadi, so'ng qalandar-so'fiy Shamsiddin Muhammad Tabriziy bilan do'stlashib, uni o'z piri deb e'lon qiladi va aqliy izlanishlardan voz kechadi. Bu R. muridlari, ulamolar noroziligiga sabab bo'ladi va ular fatvosi bilan Tabriziy o'ldiriladi. R. bu fojidan qattiq ta'sirlanib, piringing ismi sharifini taxallus qilib, g'azallar yoza boshlaydi. R. she'rlarida insonlar irqi, millati, dini va tilidan qat'i nazar teng va hur ekanligi kuylanadi, aqidaparastlik va mutaassiblik qoralanadi. R. Ko'niya (Kichik Osiyo)da vafot etgan.

R. har bir so'fiy islom farzlarini albatta bajarishi shart, deb hisoblagan, o'zi asos solgan tariqatda she'r va musiqa tinglashni, samo' paytida gir aylanib, raqs (zikr) tushishni rasm qilgan. Bu esa, R. dushmanlari tomonidan shariat ko'rsatmapariga zid deb baholangan.

R.ning 25.500 baytdan ortiq "Masnaviyi ma'naviy" asari "tasavvufning chinakam qomusi" deb tan olingan. Unda Sharq xalqlari ogzaki ijodi namunalari - yuzlab rivoyat, afsona, masal, maqol, matal, ramziy hikoyatlar orqali islom va tasavvuf g'oyalari masnaviy turda talqin etilgan. Jomiy va Navoiy R. ijodiga yuksak baho berishgan. Mashrab esa, "Masnaviyi ma'naviy"dan ilhomlanib, "Mabdai nur" axloqiy-ta'limiy dostonini yaratgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda R.ning "Ichingdagi ichingdadur" (Toshkent, 1997) kitobi, "Masnaviyi ma'naviy" izoxdi nashrining 1-kitobi (Toshkent, 1999) va b. asarlari nashr qilindi.

RUSTUFAG'NIY, Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rustufag'niy (? - 961) - hanafiylikdagi mashhur muhaddis, faqih. Samarqand viloyatidagi Rustufag'n (Rustufagn) qishlog'ida tug'ilgan. Fiqhga doir 3 ta asar yozgan. Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandning yirik faqihlari, jumladan, Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy va Abul Qosim Ishaq ibn Muhammad al-Hakim as-Samarqandiy va b. R.dan ilmi hikmat va ilmi haqiqatdan saboq olganlar. V.V.Bartoldning fikricha, Samarqand yaqinidagi Beyli ota qishlog'ida (bu qishloq o'rta asrlardagi Rustufagn o'rnida joylashgan) R.ning maqbarasi saqlanib qolgan. RUH (arab. - jon, ko'pligi arvoh) - diniy tushunchaga ko'ra, kishi hayotida u bilan birga, vafotidan keyin esa, tanadan chiqib abadiy qoladigan ko'zga ko'rinmas narsa. Hadisi sharifda aytilishicha, ona qornidagi chaqaloq to'rt oylik bo'lgan kuni unga R. ato etiladi va umri davomida shu R. bilan bo'ladi. Ba'zi ulamolar R. - bu qon desa, boshqalari nafas deb hisoblaydi. Ayrimlar esa, R.ni latif va nafis havodan iborat deb, uni moddiy narsalar safiga kiritadi. Qur'onga ko'ra, Alloh odamzotni yaratmasdan oldinroq dastlab qiyomatga qadar keladigan odamlarning R.larini paydo qilgan. Islomda R.ning mohiyati haqida bahs yuritish man etiladi. Qur'oni karimning Isro surasida (85-oyat) R. Allohning ilmiga havola etiladigan sir ekani, R. to'g'risida odamlar juda oz ma'lumotga ega bo'lishlari ta'kidlangan.

RUHOBOD - Samarqanddagi Shayx Burhoniddin Sog'arjiy maqbarasi (14-a.). Amir Temur maqbarasining shim.da joylashgan chorqirra shaklidagi gumbazli bino. Shayx Burhoniddin Sog'arjiyni Amir Temur o'ziga ma'naviy pir deb qabul qilgan. Sog'arjiy 10-a.da Somoniylar davrida yashab, avliyolikda Kutb pog'onasiga ko'tarilgan zotdir. Uning nasli-nasabi Umar ibn Xattobga borib taqaladi.

RO'ZA (fors. - ro'za, kunduzgi ish; arab tilida "savm" deyilib, biror narsadan o'zini tiyish ma'nosini anglatadi) - islomdaga beshta rukn (majburiyat)dan biri. Har yili bir oy - Ramazon oyida R. tutish farzligi Qur'oni karimda qayd etilgan. Bunda bomdod namozi vaqtining boshlanishidan to quyosh botgunga qadar yemaslik, ichmaslik, jinsiy yaqinlik, g'iybat, chaqimchilik qilmaslik, harom qilingan narsalarga qaramaslik shart. R. sog'lom, safarda bo'lmagan, balog'at yoshidagi musulmon-mo'minlarga farz qilingan. Homilador, emizikli ayollar, safarda yurganlar, og'ir bemorlar R. tutmasligi, keyin imkoniyat tug'ilganda ado (qazo) etishlariga ruhsat berilgan. R.ga toqati yetmaydigan qariyalar, surunkali bemorlar R. o'rniga fidya sadaqasi (bir miskinni bir bor to'ydirish) berishlari mumkin. R. tutish Qur'onda belgilanganidek, insonni taqvoga, ya'ni moddiy va ma'naviy jihatdan sabr-toqatli bo'lishga, irodani mustahkamlashga o'rgatadi. R.ning ko'pgana kasalliklarga shifo baxsh etishini keyingi paytda olimlar ham tasdiqlamoqdalar. Lekin, shariat ko'rsatmalariga ko'ra, R.ni boshqa maqsadlarda emas, faqat Allohning farz qilgan ibodatini ado etib savob orttirish, taqvoli bo'lish maqsadidagana tutish buyuriladi. R. dastlab Muhammad (sav) Madinaga hijrat qilganlaridan 18 oy o'tgach farz qilingan. Agar R. qasddan ochib yuborilsa, ramazondan keyin biror kun qoldirmay oltmish kun R. tutib beradi, bunga zaiflik yoki bemorlik tufayli qodir bo'lmasa oltmish misinga taom berish bilan kafforat to'lanadi. R. bir necha turli bo'ladi: yoinki

1. Farz. Bu Ramazon oyi R.sidir.
2. Vojib. Mas., naflga kirishib, keyin buzib qo'yganda, uning qazosini tutib berish vojibdir.
3. Nafl. Dushanba, payshanba kunlarida, shavvol oyida olti kun tutilgan R.lar.

4. Makruh. Yolg'iz juma yoki shanba yakshanba kunlarida, shuningdek, ikki hayitda tutilgan R.lar.

RO'ZA HAYITI - q. Hayit

- S -

SABAIYLAR, as-Saba'iya - "o'ta" shialarning g'oyaviy o'tmishdoshlari; Abdulloh ibn Saba'ning izdoshlari. Sunniy mualliflar S.ni Ali (kv) ibn Abu Tolibni ilohiylashtirishni targ'ib qilgan islomdagi eng dastlabki guruh deb hisoblashgan. Rivoyatlarga ko'ra, Ali (kv) uni xudo deb e'lon qilgan S. guruhini gulxanda yondirishga buyruq bergan, bunga javoban S. "endi biz sening haqiqatan ham xudo ekanligingni bildik, zero faqat xudogina o't bilan jazolaydi" deganlar. S. Ali (kv)ni vafot etganligini rad etadilar, ularning fikricha, u dushmanlaridan o'ch olish va adolat o'rnatish uchun qaytib kelar emish. Ali (kv)ni payg'ambar Muhammad (sav)ning vasiyatlariga ko'ra, vorisi deb e'lon qilgan S. islomda birinchi bo'lib, Ali (kv) imomligini to'xtashi (tavaqquf) va uni Qiyomat kunigacha Mahdiy sifatida qaytishi" (ar-raj'a) haqidagi g'oyani ilgari surganlar. Bu tasavvurlar keyinchalik "o'ta" shialar, xususan kaysoniylar orasida rivojlangan, ular imomlarni "yashirin holati" (al-g'ayba) va ularni Xaloskor (al-Mahdiy) sifatida qaytib kelishi haqidagi g'oyani ishlab chiqqanlar.

SABR - g'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish; o'z ixtiyori bilan nafsni tiyish; yoqmagan narsa sodir bo'lganda Alloh taolodan qo'rqib va Uning roziligidan umidvor bo'lib o'zini tutishlik. Islomda to'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozimligi ta'kidlanadi. S.li bo'lish musulmonlarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Qur'onning bir necha oyatlarida musulmonlarning S.li bo'lishiga da'vat bor. Hadislarda inson uchun S.dan yaxshiroq va ulug'roq ne'mat ato etilmagani bayon qilingan. Tasavvufda S. turlicha talqin etiladi. S. doim kerak. Yaxshilik yetganida ham, yomonlik yetganida ham, zarar-kamchilik paytda ham, foyda-borchilik paytida ham. Yo'qchilikka S. qilish oson. Ammo borchilik, to'qchilikka hamma ham S. qila olmaydi. Aslida esa, banda og'ir paytda bardosh bilan, ne'mat yetganida shukr va yaxshilik bilan S. qilish kerak. Ulamolarning ta'kidlashlaricha, S. turli xil bo'ladi. Eng ulug' S. imon - islom talablarini bajarish yo'ldagi qiyinchiliklarga chidash. Odamlarning noo'rin tasarruflariga S. qilish. Yetgan musibatlar va ne'matlarga S. qilish va h.k. S. ko'pchilik xayol qilgandek salbiy ma'noda, ya'ni nima bo'lsa ham S. qilyapman, deb jim-harakatsiz turish emas, balki Allohning aytganini bajarish jarayonida duch keladigan mashaqqatlarni yengashdagi S.dir. Eng bosh S. havo nafs, rohat-farog'at, mansabni tark qilib, Allohning aytganiga yurishga chidamdir. Qur'oni karimda S.ga da'vat ko'p g'akrorlanadi. Chunki, Allohga toatda ham, gunoxdan saqlanish yo'lidagi to'siqlarni yengish uchun ham, zaiflik kelib qolganda ham, havo nafsni jilovlash uchun ham S. kerak va h.k. O'tgan ulamolarning S.ni umumiy tarzda uchga bo'lganlar: Birinchisi: Alloh harom qilgan narsalardan va gunoxlardan saqlanishga S. Ikkinchisi: toat va kurbat hosil qilish uchun S. Uchinchisi: yetadigan musibat va qiyinchiliklarga S. Payg'ambar (as)ning hadislarida ham S.ga ko'plab chaqiriqlar bor. A.bu Musodan rivoyat qilinadi: "Hech kimga sabrdan ko'ra yaxshiroq va kengroq ne'mat ato qilinmagan", dedilar. Rasululloh (sav): "Odamlarga aralashib, ularning ozorlariga S. qilgan musulmon, ularga aralashmaydigan va ozorlariga S. qilmaydigan musulmondan yaxshidir", deyilar. Bundan odamlarning ozoridan qo'rqib ularga aralashmay qo'yish durust emasligi chiqadi. Odamlarga aralashib ularning ozorlariga S. qilgan odam savob oladi. U o'sha aralashishi davomida ularga yaxshilik ham qilib yurgan bo'ladi. Odamlarga aralashmagan kishi esa, ko'pchilikka foyda yetkazishdan bosh tortgan bo'lishi mumkin.

SAVOB (arab. - yaxshilik, ezgulik, ajr) - diniy e'tiqodga ko'ra, xudoning marhamatiga loyiq ish va shunday ish uchun xudoning marhamati. Insonning xatti-harakati va faoliyati yaxshilik va yomonlikdan iborat bo'lib, bu islomda savob va gunoh deb ataladi. Diniy ko'rsatmalarni bajarish, inson manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatish kabilar S. hisoblanib, insonning ish kitobi (nomai a'moli)ga farishta vositasi bilan yozib boriladi. Oxiratda insonlarning S. va gunohlari tarozuda tortilib, natijalar Allohning hukmiga havola etiladi. Lekin, hadisi sharifda ta'kidlanishicha, insonning qilib o'tgan har qancha S. ishlari jannatga kirishga sabab bo'la olmaydi. Unga kirish Allohning fazli, marhamati va ehsoni xisoblanadi. S. ishlar esa, jannatga kirgandan keyin erishiladigan darajalar uchun kerak bo'ladi. S. so'zi barcha yaxshi va ezgu ishlarga nisbatan ham ishlatiladi.

SADAQA (arab. - chin dildan qilingan ehson) - xayr-ehson. S. berish haqida Qur'onda ham ta'kidlab o'tilgan. S. haqidagi masalalarni fiqhning uqubot va ahkom bo'limlari talqin qiladi. S. berish imkoni bo'lgan har bir kishi uchun zarur hisoblanadi, bu ish mandub amallardan sanaladi. Birovga S. bera olishga qurbi yetmaydigan kishilar S. olishlari mumkin. S.ning quyidagi turlari mavjud: Bir martalik xayr-ehson ko'rinishdagi S.; kafforat, ya'ni xayrli maqsadlarga sarf etiladigan jarima ko'rinishidagi S.; o'ziga to'q bo'lgan musulmonlarning daromadlaridan yo'qsil, miskinlar foydasiga ajratib beriladigan S. Dastlabki ikki holatda S. pul, ovqat, kiyim, xizmat ko'rsatish va uy-joy bilan ta'minlash, qarzdand va majburiyatdan kechish va b. shaklida bo'lishi mumkin. Uchinchi holatda S. - faqat pul bilan beriladigan, u maxsus soliqchilar tomonidan yig'ilib, markaziy yoki mahalliy xazina (bayt ul-mol)ga kelib tushgan. Bu mablag` S. deb ataluvchi zakotdan to'plangan mablag` bilan birgalikda maxsus vakolatli shaxslar tomonidan sugurta vositasi turi sifatida markaziy hokimiyat nomidan kambag'al, muhtoj kishilarga tarqatilgan. S. mablag`laridan yordam olishga kambag'allar va nogironlar haqli bo'lib, ularning bu holati to'g'risida jamoaning uch a'zosining shohidligi lozim bo'lgan. Shuningdek, biror sabab bilan xonavayron bo'lgan, qurbi yetmaydigan xarajatlar, to'lovlarni to'lashga (mas., muhtoj qarindoshlarini boqish, qarindoshi uchun diya (xun) to'lash va b.) majbur bo'lgan kishilarga ham S. beriladi va h.k. Ularning ishi yurishib ketsa, S. to'lash to'xtatiladi. S. mablag`adan urush paytida yordam bergan, lekin ulush-o'lja olmaganlarga mukofot beriladi, kulni ozod qilish uchun to'lanadigan pulning yetishmayotgan qismi (agar u kishining ishlari yurishmayotgan bo'lsa) (mukotab)ni qoplash uchun beriladi. Shuningdek, S. to'plovchi va taqsimlovchi amaldorlarga, musofirxonalarga, biror sabab bilan safarni davom ettira olmay qolgan yo'lovchilarga ham mablag` ajratiladi. Hadislar va fiqhga oid adabiyotlarda S. istilohi bilan zakot anglatilgan. S. va zakot dastlab bir tushuncha ekanligi, zakotdan qoladigan mablag`ni olish huquqiga ega kimsalar ham S. mablag`laridan foydalanish huquqiga ega bo'lganligi bilan ham tasdiq topadi. Ixtiyoriy S.ni majburiy to'lovdan farqlash uchun uni sadaqa at-tatavvu ("ixtiyoriy sadaqa") deb ataydilar. S.ning majburiy turiga zakot, xiroj, ushr, fitr, kafforat (jarima) kabilar kiradi. Ixtiyoriy S.lar esa, xudoyi, to'ylar, ziyofatlar, xayriya tashkilotlariga, jamg'armalarga beriladigan moddiy xarajatlardan iborat. Odatda S. deganda faqat muhtojlarga, gadolarga beriladigan narsa tushuniladi. Lekin diniy istiloxda S. xayr-ehsonning barcha turlari uchun qo'llanilaveradi. Islomda S. qilishga ko'p targ'ibot qilinadi. Uning savobi, fazilati va foydasi to'g'risida Qur'on va hadislarda ta'kidlangan.

SADR (arab. - old, ko'krak) - musulmon mamlakatlaridagi turli mansabdor shaxslarga beriladigan unvon. Bu unvon ba'zan din peshvolariga ham berilib, ularga butun davlatning yoki biror viloyatning vaqf ishlarini boshqarish vazifasi yuklatilgan. Mas., 12-13-a.larda Buxoroda hukmronlik qilgan burhoniylar Sadri jahon nomi bilan mashhur bo'lgan. 16-a.dan Usmonli turk saltanatida va 19-a.dan Eronda eng yuqori mansabdor shaxs (vaziri a'zam) S. (to'lig'i Sadri a'zam) deb atalgan. 20-a.ga kelib bu unvon tugatilgan. Anjuman va ilmiy majlislarda to'rdan joy berilib, suhbatni boshqargan olim kishini ham qadimdan Sadri majlis deb atab kelinadi.

SAJDA (arab. - ibodatda yerga egalish, yerga bosh qo'yish) - namoz o'qishdagi holatlardan biri. Har bir rakaatdagi oxirga harakat, bunda namoz o'qiyotgan dindor tiz cho'kkan holda oldinga egilib boshini yerga qo'yadi (ya'ni S. qiladi) va uch bor subhana robbiyal a'lo deb tasbeh o'qiydi.

SAJJODA ("ta'zim qilmoq", "tiz cho'kmoq", boshqa nomlari: musallo, bisat, xasir, xumra (arab.), joynamoz (fors.), namozlik (turk.) -q. Joynamoz.

SAJOX - soxta payg'ambar ayol. O'zini xudoning elchisi deb e'lon qilgan va islomni qabul qilgan arablarning bir qismini yo'ldan urishga erishgan. S. tag'libiylar orasida voyaga yetgan va ular orasida tarqalgan xristianlikdan yaxshi xabardor bo'lgan. Muhammad (sav) hayotliklari chog'idayoq u xudoni "bulutlar egasi" deb atab, undan xabarlar kelayotganini bildirgan. "Vahiylar"ni qofiyali saj' usulida, maxsus minbardan turib aytgan, ibodatga chaqiruvchi muazzini ham bo'lgan. Iroqdan S. bir guruh tarafdorlari bilan o'zining qadrdon tamim qabilasi hududiga ko'chib o'tgan, u yerda qabilaning o'zaro kurashayotgan qismini birlashtirishga muvaffaq bo'lib, ularni harbiy yurishlarga boshlab boradigan siyosiy rahbarga aylangan. Bir necha muvaffaqiyatsizliklardan so'ng 633 y. tamimiylar Yamomaga bostirib kirganlar. Bu yerda hanifa qabilasi boshlig'i, "payg'ambar" Maslama (Musaylima) ichki nizolarni tinchitish va musulmonlarning hujumlarini qaytarish bilan band edi. U Yamomadan olinadigan ikki hosilning yarmini berish evaziga tamimiylardan qutulgan. S. bilan Maslama o'rtasida yana qandaydir bir vaqtinchalik shartnoma ham tuzilgan. Musulmon rivoyatlariga ko'ra, ular o'rtasida nikoh shartnomasi tuzilib, musulmonlar bilan bo'lgan jangda S. Maslama yonida halok bo'lgan. Aslvda esa, S. Yamomaga qilingan yurishdan so'ng Iroqqa qaytib, keyinchalik o'sha yerda islomni qabul qilgan.

SAID ibn ZAYD (taxm. 600-671) - sahoba, makkalik ilk musulmonlardan. Asharai Mubashshara axlidan. Otasi Zayd Banu Adaviy urug'idan bo'lgan. Saidning bobosi johiliya davrida Makkadaga boshliqdardan hisoblangan. S. ibn 3. Umar (ra)ning pochchasi edi. Zavjasi Fotima bilan ikkisi Umar (ra)dan avval musulmon bo'lishgan, Habashistonga ham birga ko'chishgan. Talha bilan birga Shomga jo'natilgani uchun Badr jangida qatnashmagan. Lekin g'animatlardan uning ulushi ajratilgan. Boshqa janglarda qatnashgan. Xalifa Abu Bakr Siddiq davrida Shom fathida ishtirok etgan. S. ibn 3. saxiy, ibodatga qattiq berilgan, taqvo sohibi, mujohid bir zot bo'lgan. Dunyo ishlariga ahamiyat

bermagani uchun biror vazifa olmagan. Madina yaqinidagi Aqiq degan joyda vafot etgan. S. ibn 3. Rasuli Akramdan to'rt hadis rivoyat qilgan.

SAID ibn al-OS (625-679) - sahoba. Islom amirlaridan. Umar (ra) huzurida tarbiya topgan. Usmon (ra) uni Kufaga amir qilib tayinlagan. Hazrat Usmon (ra)ga qarshi uyushtirilgan fitnada uni himoya qilgan. Usmon (ra) shahid bo'lganidan so'ng (658) Makkaga ketgan. Muoviya xalifalik zamonigacha (661) u yerda qolgan, so'ng to umrining oxirigacha Madinaga voliy bo'lgan. Tabariston (Eronning shimolida) fathida qatnashgan. Usmon (ra) huzurida bo'lib, Qur'oni karimni jamlash va kitob holiga keltirishda faoliyat ko'rsatgan. Uning Madinada qurgan qasri hozirgacha saqlanib qolgan.

SAYID OTA, Sayid Ahmad ibn Sayid Abu Bakr (? - 1292 yoxud 1311) - yassaviya tariqatining yirik vakili. Toshkentda tavallud topib, ta'lim olgan. Zangi otaning 2-xalfasi (shogirdi). S.o. nafaqat solih amallari, tariqat yo'lida chekkan zaqmatlari, balki jihodda ishtirok etganligi bilan ham mashxur. Umrining oxirida Toshkentdan Orolga ko'chib borib, o'sha yerda vafot etgan.

SAYYID - qabila boshlig'i, janob, rahbar. Arabistonda johiliyat davrida qabila zodagonlari vakili, boshlig'i. Qur'on va hadisda bir necha ma'nolarda kelgan. Ba'zi hadislarda insonga nisbatan rabb ("janob") istilohini S. istilohi bilan almashtirish lozimligi aytilsa, boshqa bir hadislarda keltirilishicha, Rasuli Akram (sav) o'zlarini S. deb atashlarini man etganlari, chunki S. - faqat Allohdir deganlari rivoyat qilinadi. Asta-sekin shialar tashviqoti ta'sirida S. istilohi Payg'ambar (as) avlodlariga, Xusayn avlodlariga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan. Ular musulmon jamiyatida imtiyozli ijtimoiy tabaqani tashkil qilib, dindorlar orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishgan. Xalq S.larni ko'pincha avliyolar qatoriga qo'ygan. Avliyo ayollarni Sayyida deb atashgan. S. istilohi musulmon hukmdorlarining rutbalarida keng qo'llanilgan. Bu bir tomondan Payg'ambar (as) bilan qarindoshlikka da'vogarlik qilish bilan bog'liq bo'lsa (Dehli Slari, Buxoro amirlari, Xiva xonlari va b.), ikkinchi tomondan S.ni johiliyat davridagi ma'nosini saqlab qolishda va uni qo'llashda ko'rinadi, xususan S. istilohi musulmonlar hukmronlik qilgan Ispaniyada 10-11-a. boshlarida hukmdor devoniga qurilgan (S.; as-Sayyida al-Kubro, as-Sayyida al-Valida - "hokim onasi"), Bahrayndagi Qarmatlar davlatida oqsoqollar kengashining 6 a'zosini anglatgan, Masqatn sultonliga hukmdorlari S. deb atalgan (18-a.). Ba'zi musulmon mamlakatlarda (mas., Yaman) S. tabaqasi o'z mavqeini saqlab qolgan.

SAYFIDDIN BOHARZIY (1190, Xurosonning Boharz qishlog'i - 1261, Buxoroning Fathobod qishlog'i) - kubroviylik tariqatining yirik namoyandasi, shayx. Movorounnahr va Xurosondagi diniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. Hirot va Nishopur madrasalarida o'qigan, Xorazm va so'ngra Buxoroda muqim yashagan. Najmiddin Kubroning sevimli shogirdi bo'lib, bu tariqatni ustozlari vafotidan so'ng yanada rivojlantirdi. S.B.dan kubroviylik tariqatining hind tarmog'i - firdavsiyya boshlanadi. S.B. mo'g'ullar istilosi va hukmronligiga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Uning xapq ommasi o'rtasidagi kuchli nufuzidan cho'chigan mo'g'ul hukmdorlari u bilan kelishishga intilganlar. "Tarixi Banokatiy" (15-a.) asarida yozilishicha, mo'g'ul xon (qoon)lari Munkexon (1251-1257), Hulaguxon (1256-1265) va Hubilayxon (1259-1294)larning

onasi Buxoroda maxsus madrasa va xonaqoh kurdirib, unga juda ko'p qishloqlarni vaqf qilgan va mutavalli qilib shayx S.B.ni tayinlagan. Chingizxonning nevarasi, Oltin O'rda xoni Barakaxon (1255-1266) Buxoroga maxsus kelib, S.B.dan islom dinini qabul qilgan va unga murid tushgan. U musulmon bo'lgan, o'ziga Barakaxon ismini olgan. Barakaxon Shim. Kavkazdan Sibirgacha cho'zilgan ulkan davlati hududida islom dinini joriy qilgan, masjid va madrasalar kurdirgan. Bu voqeadan so'ng S.B.ga "Shayx ul-olam" darajasi, Buxoro sh.ga esa, "Buxoroyi Sharif" unvoni berilgan. S.B. qabri Buxoro yaqinidagi Fathobodda bo'lib, 1261 y.da dahma kurilgan. Ibn Battuta 1333 y. bu yerda bo'lganligini yozib qoldirgan. Keyinchalik Chig'atoy ulusi xoni Bayonkulixon (1348-1358) va Turon hukmdori Amir Temur tomonidan dahma atrofida Boharziy maqbarasi va xonaqosi hamda katta ziyoratxona kurilgan (14-a.).

SALAFIYLAR, As-Salafiya (salaf -"ajdodlar", "o'tmishdoshlar") - islomning turli davrlarida ilk musulmon jamoasi "solih ajdodlar" (as-salaf as-solihun) e'tiqodi va turmush tarziga rioya etishni da'vat etib, keyingi davrda kiritilgan barcha yangiliklarni, jumladan, Qur'onni majoziy-ramziy talqin etishdan boshlab musulmon dunyosini G'arb bilan aloqasi natijasida kirib kelgan yangiliklarni bid'at deb e'lon qilgan musulmon din arboblarning umumiy nomi.

S.ga barcha sahobalar, tobeinlar, taba'a tobeinlar, mazhab sohiblari va axli sunna val jamoa e'tiqodidagi yirik olimlar kiradilar. G'arb adabiyotida S. mafkurasini ta'riflashda "traditsionalizm", "fundamentalizm", "tiklashchilik" (gevalism) kabi terminlar ishlatiladi.

SALLA - musulmonlarda boshga o'raladigan mato. Faqat erkaklar o'raydi. Oq, yashil, kul rang matolardan, ko'pincha dokadan iborat bo'lib, do'ppi, kuloh ustidan o'raladi (Hindiston, Pokistondagana S. bosh kiyimsiz o'raladi). Shim. Afrika, G'arbiy Osiyo va O'rta Osiyo, qisman Kavkazda keng tarqalgan. S. o'rash usullari, matosi kishilarning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligiga qarab belgilangan (mas., shialik ruhoniylari qora, sayyidlar va hojilar yashil matodan S. o'raganlar). O'tmishda S. musulmonlik belgisi hisoblangan, ulamolar, namozxonlar uchun majburiy bo'lgan. Ba'zi holatlarda S. kafanlik o'rnini bosishi ham mumkin. Madaniyat taraqqiyoti, zamonaviy kiyimlarning keng tarqalishi tufayli S. hatto musulmon mamlakatlarida ham urfdan chiqib qolayotir. Islomda S. bilan namoz o'qishga targ'ib qilingan.

SALMON al-FORSIY, Abu Abdulloh Salmon al-Forisiy (? - 658) - sahoba; Rasululloh (sav)ning mavlolaridan. Asli isfahonlik. Din qidirib safarga chiqqan. Majusiy dinidagi otasidan qochgan. Avval nasroniy diniga kirib, bir necha vaqtdan keyin Madinaga borib, islom dinini qabul qilgan. 627 y.dagi Xandak, jangida aynan S. al-F. Muhammad (sav)ga Madina sh. atrofiga xandaq qazishni va unga kamonchilarni joylashtirishni maslahat bergan. Arabistonda ilgari ko'rilmagan bu yangi taktik usul makkaliklar harbiy kuchining asosiy zarbdor qismini tashkil etgan badaviylar otliq qo'shinining jangovarlik imkoniyatlarini ancha pasaytirgan. Bu ular uchun kutilmagan hol bo'lib, sarosimaga solgan, natijada musulmon qo'shini zafar qozongan. S. al-F. tasavvufning asoschilaridan biri hisoblanadi. Shialar S. al-F.ni Alining sodiq safdoshi sifatida juda qadrlaydilar. Madoin sh. (Iroq)ga hokim bo'lganda, bo'yra to'qib sotib, o'z mehnati evaziga tirikchilik

o'tkazgan; maoshini muhtojlarga sadaqa qilgan. Rasuli Akram (sav)dan ko'plab hadislar rivoyat qilgan.

SALOT - bir kunda, muayyan vaqtlarda ko'rsatilgan tartib va shartlar asosida qilinadigan ibodat. S. 5 ta islom ruknlarining eng muhimidir (yana q. Namoz).

SAMOSIY Xoja Muhammad Boboyi (13-a. oxiri, Romitan tumanidagi Samos qishlog'i - 1340/1354) - xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti pirning beshinchisi.

Xoja Ali Romitaniydan tahsil olib, uning vafotidan so'ng xojagonlik silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da 14-halqaning piri sifatida keladi. U sayyid Mir Kulol Buxoriyga ta'lim bergan. Bahouddin Naqshband tug'ilgach, uch kunlik chaqaloqni ma'naviy farzandlikka qabul qilib, shogirdi Mir Kulolga Bahouddin tarbiyasi bilan shug'ullanishni topshirgan. S. haqida "Maqomati Mir Kulol", "Maqomati Shohi Naqshband", "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida muhim ma'lumotlar bor. Samos qishlog'ida dafn etilgan. Qabri ustidagi maqbara, atrofdagi masjid va toshquduq mustaqillik yillarida ta'mirlangan.

SAMO' - 1. "tinglash, quloq solmoq". Hadisshunoslik va arab musulmon adabiyotida hadislar va to'liq asarlarni tinglovchiga yetkazish usullaridan birini anglatuvchi texnik istiloh. S. quyidagi jarayondan iborat: muhaddis yoddan yoki yozilgan matnga qarab roviylar va isnodga suyangan holda hadisni aytadi, tolib hadisni eshitib, esda saqlab, uni ovoz chiqarib qaytaradi: material to'g'ri o'zlashtirilganiga ishonch hosil qilgan muhaddis tolibga uni boshqalarga yetkazishga ijozat (ijoza) beradi. Yangi hadisni o'rganishda bu jarayon qaytarilgan; tolib hadisni yozib olishi ham mumkin bo'lgan. Asarlar S. usuli bilan qismlarga ajratilgan holda o'zlashtirilgan. S. o'zlashtirish, yetkazishning samarali va yaxshi usuli hisoblangan, shuning uchun adabiyotda ko'pincha unga havola (ishtiboh) kdlinadi. 2. Qo'shiq, musiqa tinglash; darvishlarning zikr majlislarida gir aylanib, jo'shib raqs tushishlari. S. ikki xildir: 1) so'z tinglamoq; S.ning birinchi xilida tasavvufga oid biror so'z tinglanib, undan ibrat va saboq olinadi, bunda S. poklik va qalb huzuri bilan eshitilmog'i lozim. 2) kuy tinglamoq; bunda musiqa tinglash ruh ozig'i sifatida e'tirof etilgan. Shunda ruh yuksak maqomlarga parvoz qiladi, deb hisoblangan.

SAM'ONIY, Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyy (1113-1167) -muhaddis, tarixchi, adabiyotshunos. Marvda tugilgan. S.ning ajdodlari butun islom olamida mashhur muhaddis, faqihlar bo'lishgan. Marvdagi mashhur olimlardan saboq olgan. Dastlab sayohatini S. amakisi Ahmad ibn Mansur as-Sam'oniyy bilan birga Nishopurga qilgan. So'ngra Xuroson, Movarounnahr, Iroq, Xijoz, Suriya va Tabariston shaharlari bo'ylab uzoq safarda bo'lgan; 8 yil Bag'dodda yashagan, u yerdan 2 marta Makkaga haj qilgan. Ray, Hamadon, Damashq, Kufa, Basra, Tus, Quddusda bo'lgan. Sayohati davomida S. olimlar bilan uchrashib, ulardan saboq olgan, o'z asarlari uchun material to'plagan. 1143-44 y.da S. Marvga qaytib, al-Amidiya madrasasida dars bergan. Keyingi yillarda u o'g'li Abduraxmon bilan O'rta Osiyo shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. S. fiqh, hadis, arab tili tilshunosligi, grammatikasi, adabiyotiga doir 50 dan ziyod asar yozgan. S.ning ayniqsa tarix va geografiyaga doir asarlari qimmatlidir. Uning "Kitob ul-

ansob"("Nisbalar kitobi")da Xuroson va Movarounnahrda yashagan yuzlab muhaddislar, mufassirlar, faqihlar haqida noyob ma'lumotlar keltirilgan.

SAM'ONIY, Abul Muzaffar Mansur ibn Muhammad as-Sam'oni (1035-1096) -mufassir, muhaddis, faqih, qozi, adib. Tarixchi Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning bobosi. Marvda tug'ilgan. Yoshlikdan hadislarini o'rgangan va ota-bobolari singari fiqhda qodiriya oqimiga mansub bo'lgan. Uzoq yillar Xuroson, Iroq va Xijoz sh.lari bo'ylab sayohat qilgan va 1069 - 70 y.da Makkada shofi'iy'larga qo'shilgan. Sayohati davomida 100 dan ortiq eng yirik muhaddislardan 1000 ta eng sara hadislarini to'plagan. 50 dan ziyod shogirdi bo'lgan. Fiqh, hadis, tilshunoslikka oid 10 ta asar yozgan.

SANAVIYA - dualistlar. Borliqning ikki oliy ibtidosi - yorug'lik va zulmat, xudo va shayton va b.ni tan oluvchi g'ayriislomiy ta'limot (zardushtiylar, moniychilar, mazdakiylar, daysoniylar) vakillarining islomda atalishi. Islomning ichida esa, S.ga ba'zan Allohndan o'zga qandaydir oliy ibtido borligani da'vo qilgan ta'limot vakillari kiritilgan. Mu'taziliylar Allohni mohiyatidan farkli o'laroq abadiy sifatlar egasi deb hisoblaganlari uchun sifatiylarni S. qatoriga kiritganlar; qadariylar inson o'z xatti-harakati "ijodkori" deb ta'lim berganlari uchun mu'taziliylarni S. deb hisoblashgan; falsafa dunyoni abadiy deb hisoblagani uchun S.ga mansub deb qoralangan. Shuningdek, ismoiliylar, xususan qarmatlarni ikki turdagi "yorug'lik" - "yorqin" (nur sha'sha'ani) va "xira" (nur zulmani) mavjudligi haqida ta'lim berishgani tufayli S. qatoriga qo'shishgan.

SANUSIY (yoki Snusiy), as-Sayyid (Sidi) Muhammad ibn Ali al-Mujoxiriy al-Hasaniy al-Idrisiy (taxm. 1791-1859) - shim. afrikalik so'fiy, sanusiylar tariqati asoschisi. Mostag'ananim sh. (Jazoir) yaqinidagi Turs mavzeida tug'ilgan. Nufuzli so'fiylik tariqati - tijoniya peshvosi Ahmad at-Tijoniy (1815 y. v.e.)ning qarashlari unga katta ta'sir ko'rsatgan. 1829 y. S. safarga chiqib, mudarrislik qilgan, turli so'fiylik tariqatlari zikrlarida qatnashgan, Qohira va Makkada bo'lib, xidriylar yoki xadiriylar (xidriya, xadiriya) tariqat peshvosi shim. afrikalik so'fiy Ahmad ibn Idrisga shogird tushgan. Ustozi molikiy faqihlar quvg'inidan xalos bo'lish uchun Makkani tark etib, Jan. Arabistondagi Sobiya sh.ga yashiringanda, S. unga ergashgan. Ahmad ibn Idris vafotidan so'ng uning izdoshlari ikki tariqat barpo etganlar, ulardan biriga S. bosh bo'lgan. 1840 (yoki 1843 y.) S. tariqatlar o'rtasidagi nizo oqibatida Makkani tark etishga majbur bo'lgan. Kirenaikaga kelib zoviyalar qurdirgan S. sanusiylar tariqati markazi etib Jagbubni tanlagan. Uzoqni ko'zlovchi siyosiy va mohir tashkilotchilik qobiliyati S.ni mahalliy qabilalar orasida obro'sini ko'targan. Jagbubdagi as-S. qabri ustiga hashamatli maqbara qurilgan. U yaqin vaqtlargacha sanusiylarning bosh ziyoratgohi bo'lib kelgan. S. ta'limoti asosida ilk islom davridagi "poklik"ga qaytish yotgan, lekin shu bilan birga u so'fiylik va undagi avliyolarga e'tiqod qilishni rad etmagan. S.ning so'fiylik qarashlaridaga xarakterli xususiyat payg'ambar Muhammad (sav)ga sajda qilish bo'lib, uning fikricha, sanusiylar doimo o'z ibodatlarini u zotga bag'ishlashlari (aurod, ahzob), uni belgilangan mikdorda (40 tadan 100 gacha) qaytarishlari kerak bo'lgan. S. va uning izdoshlari o'z tariqatlarini "Muhammadiy" (at-tariqa al-muhammadiya) deb atashgan.

SANUSIYLAR - shim. afrikalik so'fiylik tariqati tarafdorlari. Sanusiya tariqatiga 1837 y.da Makkada jazoirlik Muhammad ibn Ali Sanusiy asos solgan. Tariqatning markazi Kirenaika (Liviyaning g'arbiy viloyati) ga ko'chgandan keyin uning faoliyati kengaydi. S.ning asosiy maskani Jagubda, keyinchalik Kufra vodiysida bo'lgan. Sanusiy o'z targ'ibotida izchil e'tiqodli ulamolarni ham, Misr va Turkiya diniy islohcilarini ham tanqid qildi, Yevropa ta'sirining tarqalishiga qarshi chiqdi, "ilk islom sofligiga" qaytishga chaqirdi. Sanusiy qarashlarining shakllanishiga vahhobiylar qarashlari hamda so'fiylik g'oyalari katta ta'sir ko'rsatdi.

S. mustamlakachilikka qarshi kurashda faol ishtirok etdi, ayni vaqtda tariqat rahbarlari ko'pincha mustamlakachilar bilan ham hamkorlik qilib turdi. Liviya mustaqillikka erishgandan keyin (1951) tariqatning rahbari Muhammad Idris Sanusiy qirollik taxtini egalladi. 1969 y. inqilobida uning hokimiyati ag'darilgandan keyin S.ning ta'siri bir muncha pasaydi.

SARAXSIY, Abu Hafs Umar ibn Muhammad ash-Sheroziy as-Saraxsiy (1058-1135) - mufasssir, muhaddis va faqih. Saraxs viloyatidagi Sheroz qishlog'ida tug'ilgan. Marvda yashagan va Abul Muzaffar Sam'oniyning shogirdi bo'lgan. S. fiqhda ixtiloflarga doir Zta asar yozgan. Umrining oxirida kambag'allarga dars berib, Qur'on tilovati bilan mashg'ul bo'lgan. Marvdagi Sijdon qabristoniga dafn etilgan.

SARAXSIY, Abul Abbos Muhammad ibn Abdurrahmon ad-Dog'uliy as-Saraxsiy (? - 975 yoki 999) - shofi'iylikdagi mashhur muhaddis, imom va faqih. Saraxsda tug'ilgan. Buxoro va Nishopurda hadislardan ta'lim olgan, Saraxsda va'zlar o'qigan. Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra birinchi bo'lib shofi'iylikni Saraxsda targ'ib etgan. Iroqda bo'lgan. Movarounnahr va Xurosonda uning 8 shogirdi, Iroq va Marvda 3 ta ustoz borligi qayd etilgan. "Al-Mu'jam" hadislar to'plami muallifi.

SAFAVIYA - so'fiy-darvishlik tariqati. 13-a. oxirida Eron Ozarbayjonida paydo bo'lgan. Asoschisi - shayx Safiy ud-din Ishaq (1252-1334). S. dastlab o'z tarafdorlarini hukmdorlarning jabr-zulmlaridan himoya qiladigan diniy jamoa sifatida shakllangan. 15-a.da S. rahbarlari Ardabil hukmdorlariga, S. esa ular hokimiyatining tayanchiga aylandi. Qizilboshlar S. shayxlarining harbiy tayanchi bo'lgan. S. tarafdorlari shialikdan mafkuraviy kurol sifatida foydalangan. 1499 y. Ismoil I (1487-1524) boshchiligida S. tarafdorlarining Oq Qo'yunli davlatiga qarshi harakatlari g'alaba qilgandan so'ng safaviylar davlati (1502-1736 yillar) tashkil topdi, shialik bu davlatning rasmiy dini deb e'lon qilindi. Safaviylar davlati tarkibiga Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Eron, hozirgi Afg'oniston (Balx viloyatidan tashqari), Iroq Arabistoni (vaqt-vaqti bilan) va b. kirgan edi. Bu davlat Usmonli turk imperiyasi va o'zbek xonlari bilan uzluksiz urush olib borgan.

SAFVON al-JUMAHIIY, Abu Vahb Safvon ibn Umayya ibn Xalaf ibn Vahba al-Jumahiy al-Qurayshiy al-Makkiy (? - 661) -sahobalardan. Johiliyatda ham, islomda ham quraysh qabilasining ulug'laridan edi. Makka fathidan so'ng islomga kirgan. Yarmuk g'azotida qatnashgan. Makkada vafot etgan. 13 ta hadis rivoyat qilgan.

SAFIYA bint HUYAY, Safiya bint Huyay ibn Axtab al-Xazrajiyya (? - 670) - Rasululloh (sav)ning xotinlaridan biri. Johiliyat davrida zodagon oilada tarbiya topgan. Madina axlidan bo'lib, yahudiy diniga kirgan. Yahudiy qabilasidan bo'lmish Bani Qurayzalik Sallom ibn Mishkami unga uylangan, keyin undan ajralib, Kinona ibn ar-Rabiga turmushga chiqqan. Kinona Haybar jangida halok bo'lgan. Undan so'ng Rasululloh uni o'z nikoxdariga olganlar. 10 ta hadis rivoyat qilgan. Madinada vafot etgan.

SA'D ibn ABU VAQQOS, to'liq ismi Molik ibn Vahb ibn Abdumanof al-Qurayshiy Zahriy (taxm. 590-674) - sahoba, makkalik ilk musulmonlardan. Asharai Mubashsharadan, Muhammad (sav)ning qo'riqchilaridan biri. Quraysh qabilasidan, Rasuli Akramning onalari Omina kabi Bani Zahra urug'idan bo'lgan. Madinaga ko'chib borgan muhojirlardan. Rasulullohning barcha g'azovatlarida qatnashib, u kishining hurmatlariga sazovor bo'lgan. Royat jasur, mard inson, mohir mergan hisoblangan. Uhud jangida Rasuli Akramning yonlarida turib jang qilgan Sa'd mingdan ortiq o'q otgan. Eronga yuborilgan qo'shinga lashkarboshi etib tayinlangan. Unga shuhrat keltirgan Qodisiya jangida (636y.) Rustam boshchiligidagi 40 ming kishilik fors qo'shinlari yengilgan. So'ng Madoin (Ktesifon) sh.ni hujum bilan olgan va Sosoniy shoxlarining behisob xazinalarini qo'lga kiritgan. Ma'lum muddat Eron va Iroq noibi bo'lgan. Umar (ra) zamonida (638 y.) Kufa sh.ni qurgan. Usmon (ra)ning fojiali o'limidan so'ng biror ishga qo'shilmagan, xalifalikka da'vogarlik qilmagan. Jamal va Siffin janglarida ishtirok etmagan. Muoviya huzuriga chaqirtirilganda bormagan. Madina tashqarisidagi uyida 84 yoshda vafot etgan. Vasiyatiga binoan, Badr jangida kiygan va 55 y.dan beri asrab kelgani - jundan to'qilgan bir jubbasini bilan kafanlangan.

SA'Y - Safo va Marva tepaliklari orasida chopish, umra va haj marosimlari shartlaridan biri. S. tavofdan so'ng bajariladi. S. taxminlarga ko'ra, Safo va Marva tepaliklarida turgan Isofa va No'ila ma'budlariga sajda qilishning mustaqil marosimi bo'lgan. Musulmon an'anasida S.ning kelib chiqishi haqida bir necha fikrlar bor. Shulardan biriga ko'ra, nomi zikr etilgan tepaliklar Odamoto va Momohavoning dam olish joylari bo'lgan ekan, shuning xotirasi sharafiga S. bajo etiladi. Boshqa bir fikrga binoan Ibrohim (as) S.ni bajo etib Allohga ibodat qilish marosimini ado etgan. Uning yo'lga Iblis turib olgan va Ibrohim (as) qochishga majbur bo'lgan. Hojar va uning o'g'li Ismoil (as)ning azob-uqubatlari haqidagi fikr eng ko'p tarqalgan. Chanqoqlikdan nobud bo'layotgan Ismoil (as)ni kutqarish uchun Hojar suv izlab yetti marta Safo va Marva oralig'ida chopgan. Tavof qilgach, ziyoratchi Masjid al-Haromdan chiqib chap oyog'i bilan qadam bosishni boshlab Safo tepaligiga ko'tariladi, yuzini Ka'baga o'giradi, Allohga iltijo qilib, o'ziga shafqat qilishni va balo-qazolardan saqlashni so'raydi, so'ngra tepalik etagiga o'rnatilgan ustun (mil)gacha pastga tushadi, u yerdan Marva etagidagi boshqa bir ustungacha chopadi, shundan keyin shu tepalikka ko'tariladi. U yerda Ka'baga qarab duo o'qiydi va Safoga qaytadi. S. yetti marta bajariladi. Agarda ziyoratchi "kichik haj" (umra)ni ado etayotgan bo'lsa, unda S.dan so'ng ehrom holatidan chiqadi. Agar umradan so'ng haj qilinadigan bo'lsa, ziyoratchi haj tugaguncha ehrom holatida qoladi. S. haj marosimining muhim sharti (rukn al-haj) hisoblanadi, uni bajarish vojibdir. Biroq S.ni bajarmaslik hajni bekor qilmaydi, kafforat uchun kurbonlik qilinsa bas.

SAHIH (arab. ishonchli, to'g'ri) - eng ishonchli deb hisoblangan hadis nomi. O'rta asrlarda hadislarni to'plash bilan shug'ullangan muhaddislar ularni din nuqtai nazaridan haqiqiy va nohaqiqiylikni ajratish (ya'ni, kodifikatsiya qilish) bilan shug'ullanib, hadislar asoslangan isnodni tekshirish yo'li bilan sahih (ishonchli), hasan (yaxshi) va zaif (zaif, kuchsiz)dan iborat uch toifaga bo'lgan, ulardan sahihlarni to'plam qilganlar. Shu munosabat bilan ba'zi to'plamlarning nomi ham S. deb atalgan (mas., "S. i Buxoriy", "S. i Muslim"). S. hadis deb: uning sanadi to oxirgi muhaddisga qadar o'rtada uzilib qolmagan, sanadning biror tabaqasidagi roviyning ma'naviy nuqsoni bo'lmagan (kar, soqov, duduq yoki akd zaiflik, yoki yolg'on gapirib qo'yishlik kabi illatlar bo'lmagan), sanadning biror tabaqasida roviy yolg'izlanib qolmagan va barcha sanaddagi roviylarning ishonchliligi elga mashhur bo'lgan kishilarning rivoyatiga aytiladi.

"SAHIHI BUXORIY" (asl nomi "al-Jomi' as-sahih" - "Ishonchli to'plam") - oltita ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tuzgan. Islom dini tarixiga oid eng mukammal manbalardan hisoblanadi. To'plamga Muhammad (sav) va uning sahobalari haqidagi hadislardan tashqari islom huquqshunosligi (fiqh), marosimchiligi hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid hadislar ham kiritilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoriy 600 mingga yaqin hadislarni to'plab, ulardan faqat 7250 tasini "ishonchli" deb hisoblab kitobiga kiritgan. "S. B." keyinchalik musulmonlar orasida katta obro' qozongan va musulmon mamlakatlarida ko'plab nashr etilgan. Toshkentda Imom Buxoriyning "al-Jomi' as-sahih" asari to'rt jildda (1-jild - 1991, 2-jild - 1996, 3-jild - 1994, 4-jild - 1992), 2-nashri esa 1997 y.da chop qilindi.

"SAHIHI MUSLIM" - oltita ishonchli hadis to'plamidan biri, Abul-Husayn Muslim ibn Hajjoj al-Kushayriy an-Naysoburiyning shoh asari. Imom Buxoriyning "Sahih"idan keyin ikkinchi o'rinda turadi. To'plamga muallif o'zi yig'ib yod olgan 300 mingta hadisdan 12 mingtasini tanlab kiritgan. Buning uchun u 15 yil umrini sarflagan. Imom Muslim o'z ishiga o'zi baho berib: "Mabodo, Yer yuzidagi olimlar 200 yil hadis yozsalar ham shu mening to'g'shamimdagi hadislardan oshirib yoza olmagan bo'lur edilar" - degan. Shunday bo'lsa ham ba'zi munaqqid ulamolar to'plamdagi 132 ta hadisning sahihligida shubha borligani bayon etib tanqid qilganlar. Tanqid qilingan hadislar ichida Imom Buxoriy to'plamida ham rivoyat etilgan bir xil mazmundaga 32 ta hadis bor. Ibn Hajar al-Asqaloniy bu hadislarni oqlab Imom Buxoriy "Sahihi"ga yozgan sharhida javob aytgan.

"SAHIHI TERMIZIY", "Sunani Termiziy"- oltita ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Iso Muhammad Termiziy yozgan. "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"), al-Jomi' ul-kabir" ("Katta to'plam") nomlari bilan ham yuritiladi. "S.T." Imom Termiziyning 20 yil davomida o'zga yurtlarda hadislarni o'rganib, yig'ib, so'ng ustoz va zamondoshi Imom Buxoriy bilan maslahatlashib yig'gan to'plamidir. U tartibi eng ixchamligi, takrori eng ozliga bilan ajralib turadi. Unda boshqa hadis kitoblarida uchramaydigan xususiyatlar bor. Chunonchi, har bir bobning hadisi zikr qilingandan keyin, xuddi shu bobga tegishli hadis rivoyat qilganlarning ismlari sanab o'tiladi; fiqhiy masalalarda faqihlarning fikr-karashlari zikr qilinadi; har bir hadisning ishonarlilik va zaiflik darajasi aniqab beriladi va "sahih" ustiga "hasan" belgasi ("juda sahih", "beshak sahih" ma'nosida) kiritiladi. "S.T."

kitobida Imomi A'zam mazhabi jihatlarini e'tiborga olingan 6 jildidan iborat "S.T." 1-jildining o'zbekcha tarjimai 1999 y. Toshkentda nashr etildi.

SAHOBALAR (yoxud as-sahoba, sohib -"tarafdor"ning ko'pligi - ashob) - Muhammad (sav)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo'lgan yoxud g'azotlarida qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (sav)ni loaqal bir marotaba, garchi go'daklik chog'ida bo'lsa ham ko'rgan barcha kishilar S. deb atala boshlagan. S. Arabistondan tashqaridagi o'lkalarni fath etishga kirishgan ilk musulmon qo'shinining o'zagini va eng sobit qadam, qatiyatli qismini tashkil etgan. S.ning oliy qatlamini muhojirlar va ansorlar tashkil qilgan; ular dastlabki xalifalarni saylashga ta'sir ko'rsatganlar, ularni noiblik va oliy darajadagi lashkarboshilik mansablariga tayinlashgan. Xalifalikda S.ning imtiyozga ega ekanligi ularga to'lanadigan katta maoshda (641-y.dan to'lana boshlangan) ham ko'ringan: - ularga yiliga 3-5 ming dirham to'langan, xolbuki jangchilarning asosiy qismi faqat 300 dirhamga yaqin maosh olgan. S. erkaklarning umumiy mikdori Umar I davrida 10 ming kishini tashkil etgan. S.ning islom tarixidagi alohida ahamiyati shundaki, Muhammad (sav) vafot etganlaridan so'ng, ular Rasululloh (sav)ning ta'limotlarini hammalari bir bo'lib saqladilar, ularning Payg'ambar (as) so'zlari va ishlari haqidagi hikoyalari (hadislar), shuningdek, shaxsiy o'rnaqlari va fikrlari islom axloqiy ta'limoti - sunnaning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etdi. S.ga bo'lgan hurmat, ehtirom keyinchalik ularning qabrlarini e'zozlashga va S.ning fazilatlarini haqida asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Hadislarni to'plash va isnoddarni tanqidiy tarzda tahdil etish zaruriyati 9-a.da hadis roviylarining tarjimai hollariga oid lug'atlarni yaratilishiga sabab bo'ldi, bu lug'atlarda eng faxrli o'rinni S. egalladi. Bunday lug'atlar ichida eng yirigi Ibn Hajar al-Asqaloniy (15-a.)ning "al-Isoba fi tamyiz as-sahoba" lug'ati Muhammad (sav) bilan aloqador bo'lganligi qayd etilgan 12 mingdan ziyod shaxs ismlarini qamrab olgan.

SEHR - g'ayritabiiy kuchlarni bo'ysundirib, ular yordamida mo'jizalar vujudga keltiruvchi xatti-harakat yoki duolar; afsun, jodu; shar'iy ta'rifi - g'aroyib ishlarni qilishga qodir bo'lish uchun malaka hosil qilishni o'rgatadigan ilm. Qur'onda payg'ambarlik S.ga qarama-qarshi qo'yiladi va S. bilan shug'ullanish gunoh hisoblanadi (20:69-72). Islom yuzaga kelishining dastlabki davrida Muhammad(sav)ning raqiblari uni sehrGAR, targ'ibotini sehrGARlik deb kamsitmoqchi bo'ddi. Qur'onga ko'ra, S. Alloh tomonidan Bobilda 2 farishta - Horut va Morutga yuborilgan (2:102). Bu farishtalar odamlarni yo'ldan ozdirish uchun S.dan foydalangan. Bu bilan haqiqiy bilimni Alloh berishi, S. esa, yolg'on ekanligi ta'kidlanadi. SehrGAR turli uslublarni ishlatib, kishilarga ta'sir o'tkazuvchi shaxsdir. Qur'oni karimda S. to'g'risida kelgan oyatda erkakni xotindan ajratuvchi ishlarni qilguvchilar ham sehrGAR ekanligi aytilgan.

Imom Nasoiy Abu Hurayradan rivoyat qilgan hadisda Payg'ambar (sav): "Kimki tugun tugab unga dam ursa, sehr qilgan bo'ladi. Kim sehr qilsa, shirk keltirgan bo'ladi", deganlar. Qur'onda sehrGARlarning ishi kufr ekanligi aytilgan. Hanafiy ulamolar fikricha, sehrGARning tavbasi qabul qilinmaydi. Uni qatl qilish vojibdir. Uni tavba qilishga chorlab o'tirilmaydi. Chunki, u jamiyatda fasod tarqatadi. Boshqa fihiy mazhablar ham shunga yaqin hukmlarni chiqarganlar. Ba'zi ulamolar, e'tiqodi mustahkam kishilardan ba'zilari odamlardan S.ni qaytarish uchungina uni o'rganib qo'ysa joiz, deganlar.

SIDDIQ (arab. — "chin dildan tasdiq etib ishonuvchi") - tasavvufda payg'ambarlikdan keyin turadigan eng yuqori valiylik martabasi. Bu martaba birinchi bo'lib, xalifa Abu Bakr (ra)ga nasib bo'lgan. Umuman siddiqlik martabasiga erishgan valiylik martabasi: 1. Abu Bakr Siddiq. 2. Salmon al-Forisiy. 3. Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr. 4. Ja'far as-Sodiq. 5. Boyazid Bistomiy. 6. Abulhasan Haraqoniy. 7. Shayx Abulqosim Gurgoniy. 8. Abu Ali Formadiy. 9. Shayx Abu Yusuf Hamadoniy. 10. Abdulholiq G'ijduvoni. 11. Xoja Orif Revgariy. 12. Xoja Mahmud Anjirfag'naviy. 13. Xoja Azizon Romitaniy. 14. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy. 15. Sayyid Amir Kulol. 16. Bahouddin Naqshband. 17. Mavlono Ya'qub Charxiy. 18. Xoja Ahror. 19. Muhammad Qoziy.

SIYRA (arab. - hayot yo'li, tarjimai hol) - Muhammad(sav) hayot yo'lini bayon qilishga bag'ishlangan, ilk islom davrida vujudga kelgan diniy-tarixiy asarlarning umumiy nomi. Dastlab Slar ko'p bo'lgan, ularning anchasi yo'qolib ketgan. Ulardan Voqidiy (747-823)ning "Kitob al-mag'oziy" ("Harbiy yurishlar kitobi") va avvalgi S.larni umumlashtirgan Ibn Ishoq va Ibn Hishomning "Siyrat Rasul Alloh" ("Alloh elchisining hayot yo'li") asarlari bizgacha yetib kelgan. S.lar ilk islom tarixini tadqiq qilishda asosiy manba hisoblanadi.

SILSILA (arab. - zanjir, halqa) -tasavvufda tariqat mashoyixlarining ikki xil nisbiy bog'lanishlari: 1) har bir shayx o'z piri (shayxi, murshidi)ning ustoz, ustozining ustoz va ular ajdodlarini birma-bir to Muhammad(sav)ga qadar nomma-nom bayon qilishi; 2) har bir shayx o'z ota-bobolari (etti pushti) kimlar bo'lgani va qaysi mashhur zotga borib taqalishini isbotlab beradigan shajara. S. pir va murid o'rtasidagi barqaror munosabatga asoslanib, 12-a. oxiri va 13-a. o'rtalarida so'fiylik tariqatlarining tashkiliy tuzilishi rivojlanishi bilan mustahkamlandi. Hadislardagi isnod tizimi ham S.ga bevosita ta'sir o'tkazgan.

SIROT (arab. - yo'l) - islom manbalarida Sirotul Mustaqim - qiyomat kuni jahannam uzra tortilgan qilko'prik; fors va turkiyzabon xalqlarda Pulsiro ("Sirot ko'prigi") deb yuritiladi. Diniy manbalarga ko'ra, jannatga eltuvchi yagona yo'l mazkur ("soch tolasidan yupqa, shamshirdan o'tkir") Pulsiro bo'lib har bir banda undan yurib o'tishga majbur etiladi. Ba'zilar chaqmoq uchqunidek tez, ba'zilar uchkur otdek, ba'zilar sekinroq o'tsa, ba'zilar qulab jahannamga ravona bo'ladi.

SIFAT - ilk marta mutaziliylar tomonidan "ilohiy atributlar" (sifatlarni) anglatish uchun qo'llanilgan termin. Kalom rivojlanishining dastlabki bosqichlarida S.ning ekvivalenti bo'lib, ma'oniy ("ahamiyatlar", "ma'nolar", "g'oyalar") termini xizmat qilgan. Ba'zi mutakallimlar (Jubba'iy, Boqilloni, Juvayniy va Faxriddin ar-Roziy) S. termini o'rniga ahvol ("holatlar") terminini ishlatishgan, shu tufayli ularni ashob al-ahvol ("holat tarafdorlari") deb atashgan.

SIFATIYLAR, as-Sifatiya - "ilohiy sifatlar" (sifat Alloh yoki as-sifat)ni e'tirof etuvchilarning umumiy nomi. "As-Sifat" terminini bu ma'noda dastlab mu'taziliylar "nu'ut" termini o'rniga muomalaga kiritganlar. Mu'taziliylar Allohning sifatleri va

mohiyati haqidagi masalani musulmon ilohiyotining bosh aqidasi aylantirganlar. Allohning yagonaligidan kelib chiqqan holda mu'taziliylar "ilohiy sifatlar"ni mustaqil mavjudligini inkor etganlar, ular faqat Uning mohiyatining oddiy ko'rinishi xolos, mohiyati bilan bu xususiyatlar bo'linmas yaxlitlikni tashkil qiladi, deb hisoblaganlar. S.dan ba'zilar "ilohiy sifatlar"ni maxluklar sifati bilan tenglashtirgan, shuning uchun ularni mushabbihiylar (inson qiyofasiga o'xshatuvchilar) deb atashgan. Boshqa birlari "ilohiy sifatlar"ni g'oya, "ilohiy substantsiya"da mavjud bo'lgan moddiy bo'lmagan reallik deb hisoblashgan.

SIFFIN JANGI - Yuqori Mesopotamiyada, Frot daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (kv) qo'shini bilan Shom (Suriya) hokimi Muoviya qo'shini o'rtasida sodir bo'lgan jang (657 y. yozi). To'qnashuvga 656 y. uchinchi xalifa Usmon (ra) o'ldirilishi munosabati bilan Ali (kv) va Muoviya tarafdorlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo'lgan. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo'lgan Muoviya xalifalik taxtini egallagan Ali (kv)dan aybdor jinoyatchilarni topshirishni talab qilgan. Muoviyaning janjalni hakamlik sudi yordamida tinch yo'l bilan hal qilish haqidagi taklifini Ali (kv) qabul qilishi bilan jang to'xtatilgan. Sudda Muoviya vakili Ali (kv)ning taxtdan voz kechishiga roziligani olishga erishgan. Ali (kv) qo'shinining bir qismi uni g'alabani qo'ldan boy berganlikda ayblab, qo'shinni tark etgan. Bu guruh xorijiy harakatini boshlab bergan.

SOBI'IYLAR (yoki as-Sobi'a), as-Sobi'un - ahl ul-kitob va ahl uz-zimma kategoriyalaridan biri, dindorlar bilan majusiylar orasidagi mavqeni egallagan va shu tufayli musulmon jamoasining "homiyliga"dan foydalangan diniy jamoa. Qur'onda S. yahudiylar va xristianlar qatorida qayd etilib kelgan, ular Allohga va Qiyomat kuniga ishonganlari uchun Allohning marhamatiga erishib majusiylardan ajratilganlar (2:62/59; 5:69/73; 22:17). Xalifalik vujudga kelgach, Shim. Mesopotamiyadagi Harron diniy jamoasini S. deb atashgan (8-11-a.lar). Harron S.lari gnostik ta'limotlar ta'siri bilan qad. Mesopotamiyaning osmon sayyoralariga sajda qilishni saqlab qolganlar. Ular musulmon dunyosiga johiliyat davridagi Mesopotamiya madaniy merosining ko'p jihatlarini, jumladan tibbiyot va alkimyo sohasidagi ko'pgana bilimlarni yetkazganlar. 9-10-a.larda Xarron S.i Bag'dodda paydo bo'lib, xalifa saroyida muhim rol o'ynay boshlagan, ularning ko'pchiligi kotib, tarjimon, tabiblik bilan shug'ullanishgan. Ular orasvdan mashhur faylasuflar (Sobit ibn Qurra), tarixchilar (Ibrohim va Hilol as-Sabi) chiqqan. 11-a.da bu S. alohida jamoa sifatida barham topgan. Hozirgi vaqtda S. nomi faqat Jan. Iroqdagi mandeylar jamoasiga nisbatangina qo'llaniladi.

SOLIMIYA - Basrada 10-11-a.da mavjud bo'lgan ilohiyotchilar va so'fiylar maktabi, Sahl at-Tustariy izdoshlari. Unga at-Tustariyning eng yaqin safdoshi Abu Abdulloh Muhammad ibn Solim (909 y. v.e.) asos solgan. Ba'zi bir xususiy masalalardan tashqari uning qarashlari ustozinikidan farq qilmagan. Muhammad ibn Solim qat'iy zohidlikni targ'ib etgan: o'zini to'liq Alloh irodasiga topshirish (tavakkul), sinoatlarga bardosh berish, turmush qurmaslik va b. S. unga Muhammad ibn Solimning o'g'li Ahmad ibn Solim rahbarlik qilgan paytda uzil-kesil shakllangan va ta'sirchan bo'lgan. Unga ba'zi masalalarda (xususan inson irodasi erkinligi va takdirni oldindan Alloh tomonidan belgilanganligi o'rtasidagi nisbat haqida) Basra mu'taziliylariga yon bosgan molikiy

mazhabidagi ilohiyotchi va soʻfiylar kirgan. Bagʻdodning mashhur olimlaridan Abdulqohir al-Bagʻdodiy, Abul Muzaffar al-Isfaroiniy, ular bilan bir qatorda soʻfiy-hanbaliy Abdulqodir Jiloniy as-Solimni al-Halloj qarashlariga xayrihoxligi uchun qattiq tanqid qilishgan va uni "Allohni insonda mujassam boʻlishi" (xululiy) tarafdorlari qatoriga kiritganlar. Bundan ilgariroq uni mashhur soʻfiy-shofiʻiy Ibn Hafif tanqid qilib "Ibn Solimni rad etish" (ar-Radd ala Ibn Solim) asarini yozgan.

SOLIK (arab. yoʻlchi, yoʻldan yuruvchi) -tasavvufda suluk - tariqatni ixtiyor qilib, uni oʻzlashtirish harakatiga tushgan, lekin hali biror maqom yoki martabaga erishmagan murid. S. oʻziga xos odob-qoidalar majmuiga rioya etsagana, tariqat ahli sirasidan joy olgan.

SOLIH (as) - Qurʻonda zikri kelgan paygʻambarlardan biri. Qurʻonga koʻra, Samud qavmini hidoyatga boshlash uchun paygʻambar qilib yuborilgan. Hijoz bilan Shom orasida Hijr degan joyda yashovchi bu qavm nafsoniy lazzatlarga berilgan, huzurbaxsh ichimliklar ichib, shohona uylarda yashab yurar, oʻzlari yasab olgan butlarga sigʻinar edi. S. (as) ularni yolgʻiz Allohga ibodat qilishga chaqiradi. Biroq qavm hidoyat yoʻliga yurish oʻrniga S. (as)ni masxara qila boshlaydi, unga qarshi adovatni kuchaytiradi va haqiqatdan ham paygʻambar boʻlsang, bizga moʻjiza koʻrsat deb daʻvo qiladi. Shunda S. (as) Allohdan oʻziga bir moʻjiza berishini soʻrab duo qiladi. Alloh S. (as)ning duosini ijobat qiladi va S. (as) moʻjiza koʻrsatib xarsang toshdan tuya chiqaradi. Va S. (as) Samud qavmini moʻjiza qilib berilgan tuyaga ozor bermaslikka chaqirib, Samud qavmi suv olib ichadigan havzadan bir kun tuya suv ichishini va bir kun Samud qavmi suv olib ichishini bildiradi (Qamar surasi 27-28-oyatlar). Ammo, Samud qavmi xiyonat qiladi va tuyani soʻyib yuboradi, shuningdek, S. (as) va uning oilasini yoʻqotishga qasd qiladi. Ammo, osmondan kuchli yashin yuborilib, ular halok etiladi. S. (as) oʻziga imon keltirgan kishilar bilan birga Falastindagi Ramla degan joyga borib, umrining oxirigacha shu yerda yashaydi (Zoriyot surasi 44-oyat).

SOGʻONIY (toʻliq ismi Roziyyuddin Hasan ibn Muhammad as-Sogʻoniy (577, Lahor - 650) - lugʻatshunos olim, faqih va muhaddis. Gʻaznada voyaga yetgan. 615 y. Bagʻdodga kelgan, bu yerda bir muddat yashagach, Hindistonga ketgan. Haj ziyoratini oʻtash uchun Makkaga, u yerdan esa Yamanga borgan, soʻng tagʻin Bagʻdodga qaytib kelgan. Lugʻat ilmiga doir 2 jildli "Majmaʻul-bahrayn" va "Sihohi Javhariy"ni mukammallashtirib, olti jildli bir asar yozgan. Bundan tashqari "ash-Shavorid", "an-Navodir fil-lugʻa", "Sharhi abyotil-mufassal", "Durrus-sahoba fi mavozii vafoyotis-sahoba", "Sharhi sahihi Buxoriy" (muktasar); hadisga doir "Misbohud-dujo", "Mashorikul-anvorin-Nabaviyya min sihoihil-axboril-Mustafaviyya" kabi asarlar yaratgan. 2246 hadisdan iborat boʻlgan bu kitobni Buxoriy va Muslimdan tanlab tuzgan, abbosiy xalifalaridan Muntasirning kutubxonasiga tuhfa etgan. S. uydirma hadislarga doir ikki risola yozgan, bu xususda juda talabchanlik bilan bahs yuritgan. Bagʻdodda vafot etgan, vasiyati boʻyicha Makkaga dafn etilgan.

SOHIB az-ZAMON ("Zamon sohibi") - Ali (kv) xonadoniga mansub boʻlgan kutilayotgan imom, qoim Mahdiyning sifatlaridan biri. S. az-Z.ning toʻlaqonli hukmdor sifatida

"qaytishi", shialik ta'limotiga ko'ra, "ilohiy amru farmon"ning g'alabasi va yer yuzida adolat o'rnatilishidan darak beradi.

SOHIB as-SAYF ("Shamshir sohibi") - Ali (kv) xonadonidan bo'lgan kutilayotgan imom, qoim Mahdiyning sifatlaridan biri; uning hukmdorlik ramzi shamshir hisoblangan. S. as-S. "qaytishi" bilan shialar yer yuzidan zolimlik va adolatsizlik yo'qoladi deb hisoblaydilar. Faqatgina u qurol bilan zo'ravon hukmdorlarga qarshi chiqish va dindorlarni ularni ag'darishga da'vat qilish huquqiga ega.

SUBAZMUNIY, Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad as-Subazmuniy al-Xorisiy al-Kalaboziy al-Buxoriy; laqabi U s t o z (872-952) - xanafiylkdagi yirik faqih, muhaddis. Buxoro vshyuyatidagi Subazmun (Sabazmun) qishlog'ida tug'ilgan. Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra, u somoniylar amiri Ismoil ibn Ahmadning saroy faqih bo'lgan va saroyda fiqhga doir turli masalalarni yechish bilan mashg'ul bo'lgan, shu sababdan Usto deb nom olgan. S. Xuroson, Iroq va Hijoz bo'ylab sayohat qilib, ilmi adabdan dars bergan. Sam'oniyni uning 12 ustoz va 7 shogirdini sanab o'tadi. Fiqhga doir 3 asar yozgan.

SUDUR ("chiqish") - musulmon ilohiyoti va falsafasida Alloh tomonidan olam yaratilishi jarayonini ifodalovchi terminlardan biri. Razoliyni fikricha, olam yaralishining yagona sababi Allohning ixtiyoriy xohishidir. Alloh har bir onda bu sababiyatni yangidan yaratadi va istagan paytda voqelarning odatdagi rivojlanishini o'zgartirib yubora oladi.

SULAYMON (as) - Qur'onda zikri kelgan payg'ambarlardan biri, adolatli va dono hukmdor, Dovud (as)ning o'g'li. S. 13 yoshida taxtga o'tiradi. Yetuk bilimli, har bir ishda hukm chiqarishda otasidan ko'ra olimroq bo'ladi. Rivoyatga ko'ra, u jamiki insu jin va hayvonlaru qushlar olamiga ham podshoxlik qilgan. Uchar shamollar ham uning ixtiyorida bo'lib, istagan joyga bir zumda eltib qo'ygan. S. (as) payg'ambarga berilgan mo'jizalardan biri mis bulog'i bo'lib, rivoyat qilinishicha, undan suv o'rniga mis oqib yotar, payg'ambar izmidagi jinlar esa, o'sha misdan uning xohlagan narsasini yasab berishar ekan. Jinlarning S. (as)ga qasrlar bunyod etgani, dengaz tubidan duru javohirlar olib chiqib bergani nakd etiladi. S. (as)qushlar tilini tushunganligidan, o'z qo'l ostida bir necha xil qushlarni tarbiya qilardi. Bu kushlar orasida Hudhud (Sassiqqopishak) ham bo'lib, u bir necha vaqt g'oyib bo'lgan va S. (as)ga Sabo degan yurtdagi malika Bilqisni ko'rganligi xabarini olib keladi. S. (as) Bilqisga maktub yo'llaydi va Sabo yurtining malikasi Bilqisni yolg'iz Allohga itoat etishga majbur qiladi (Naml surasi 20-27-oyatlar). S. (as)ning o'limi bilan bog'liq rivoyat jinlar g'aybni - kelajakda ro'y beradigan voqea-hodisalarni biladi, degan gumonlarni rad etadi: o'tirgan holidan jon taslim qilgan S. (as) tayangan asoni bir yil davomida yogoch kurti yeb u yerga qulab tushmaguncha, S. (as)ning vafot etganligini bilmasdan payg'ambar ularga buyurgan vazifa - baland qasr bino qilish ishini davom ettiravergan (Saba surasi 14-oyat). S. (as) obrazi, u va unga tobe jinlar tomonidan ro'yobga chiqarilgan g'aroyib otlar, uning hashamatli saroylari, uchar galami va b. - o'rta asrlardagi musulmon adabiyoti va folklorvda tez-tez uchraydigan mavzu. S. (as) shuningdek, musulmon olamida keng tarqalgan sehr-jodu ilmining ham yetakchilaridan biri sanalgan. Olti qirrali yulduz - S.

(as) muhri ramzi bo'lib, u jinlar va shaytonlarga berilgan farmonlarga mana shu muhrini bosgan. Olti qirrali yulduz musulmonlarda yomon ko'zdan, yovuz ruhlardan himoya etuvchi asosiy ramzlardan sanalib, binolar, idishlar, tangalarda naqshi tushirilgan.

SULAYMON BOQIRG'ONIY (taxm. 1186 y. v.e.) - mutasavvif, shoir. Uni "Hakim ota" deb ham ataganlar ("Boqirg'oniy" adabiy taxallusi, tug'ilgan joyiga ishora). Ahmad Yassaviy ta'limotining davomchisi. She'rlarining tili va ruhi A. Yassaviy ijodiga g'oyat hamohang bo'lib, tasavvuf, din, shariat aqidalari shoirona targ'ib qilinadi. "Bibi Maryam kitobi", "Oxir zamon kitobi" kabi dostonlar muallifi. She'rlari "Boqirg'on kitobi" nomi bilan to'plam qilingan. Bu kitob 1877 y. va undan keyin yana 2 marta Qozonda, 1991 y. Toshkentda nashr etilgan.

SULAMIY, Abu Abdurahmon Muhammad ibn Husayn (937 yoki 942-1021) - Xuroson so'fiylik maktabining yirik vakili, ko'plab asarlar muallifi. Nishopurda tug'ilgan. S. xirqani otasidan olgan, lekin uni so'fiy bo'lib shakllanishida bobosi Ismoil ibn Nujayd - mu'tadil malomatiy katta ta'sir ko'rsatgan. Hadislar va fiqhni u as-Sibaiy, al-Asamm, ad-Daraquniy va b.dan o'rgangan. S. ko'p sayohat qilgan, jumladan Iroq, Suriya, Hijoz va xalifalikning sharqiy viloyatlarida bo'lgan. Uzoq vaqt Bag'dodda yashagan. Nishopurga qaytib kelib, o'zining katta uyini kutubxonaga aylantirgan va uni so'fiylar ixtiyoriga topshirgan. S. vafotidan keyin ham so'fiylar undan foydalanishni davom ettirganlar. S. asos solgan so'fiylar dargohi (duvayra so'fiya) uning nomi bilan atalgan. S. 100 dan ziyod asar yozgan, shundan 30 ga yaqini saqlanib qolgan. Eng mashhurlari - "Tabaqot as-so'fiya" 9-10-a.lardagi so'fiylar haqida qimmatli manba sanaladi. S. ko'plab shogirdlar qoldirgan, ularning orasida uning ishini davom ettirgan al-Kushayriy va xurosonlik mashhur tarixchi olim al-Bayhaqiylarni ko'rsatish mumkin.

SULUK (arab. - yo'l) - solikning tariqat yo'lini o'tish jarayoni. Ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan muridning ruhiy-axloqiy kamolotga erishish yo'li.

SULH (arab. - yarashish, kelishuv) - musulmonlar bilan fath etilgan viloyatlar aholisi o'rtasida tuziladigan tinchlik bitimi; shahar bilan tuzilgan bitim shartlari butun mamlakat yoki shaharga tobe viloyatga taallukdi bo'lgan. Bitimni musulmon lashkarboshi va bir necha guvoh, mahalliy aholi nomidan - hokim, shahar komendanti, yepiskop yoki o'sha paytda shaharni boshqarayotgan boshqa shaxslar imzolashgan. S.ga ko'ra, aholining hayoti va mol-mulki daxlsizligi, cherkovlar va shahar devorlari saqlab qolinishi kafolatlangan, buning evaziga aholi jizya yoki xiroj to'lashi, harbiy harakatlarda musulmonlarga yordam ko'rsatishi, tunash uchun joy berishi va uch kunlik oziq-ovqat bilan ta'minlashi lozim bo'lgan. Har bir viloyatdan olinadigan soliq turlicha bo'lgan. Qutayba ibn Muslimning Samarqand bilan tuzgan bitimi (712 y.)da S. shartlari batafsil sanab o'tilgan.

"SUNANI ABU DOVUD" - oltita ishonchli hadis to'plamidan biri. Muhaddis Sulaymon ibn al-Ash'as ibn Ishaq ibn Bashir ibn Shaddod ibn Amr Abu Dovud al-Azdiy as-Sijistoniyni shoh asari. Ungacha hadis to'plamlari "al-Jomi'" yoki "al-Musnad" deb

nomlangan bo'lsa, u o'z to'plamini "as-Sunan" deb atadi va unga sunnati saniyya va shar'iy ahkamlarni mavzular bo'yicha boblarga bo'lib yozib chikdi.

"Sunan"da 4800 ta hadis rivoyat qilingan. To'plam 35 fasl, 1871 bobdan iborat. Unga uchta olim tomonidan uch xil sharh ham bitilgan.

"SUNANI DORIMIY" - to'qqizta ishonchli hadis to'plamlaridan biri. Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiyning shoh asari. "Sunan"ning 2 jildidan iborat nashri 1996 y. Bayrutda chop etilgan. Uning 1-jildi Imom ad-Dorimiyning tarjimai holi, nasabi, ustoz va shogirdlari, asarlari, olimlarning u haqda aytgan so'zlaridan iborat. Asarning asosiy qismi muqaddima va 23 kitobdan (ular o'z navbatida 1263 ta boblardan) tashkil topgan. "Sunan"da jami 3503 hadis rivoyat qilingan. "S.D."ni ba'zi olimlar 6 ishonchli hadis to'plamiga (Ibn Mojaning "Sunan"i o'rniga) kiritishni taklif etganlar.

"SUNANI ibn MOJA" - oltita ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid Ibn Moja al-Qazviniyning shoh asari. Asar 32 fasl, 1500 bobdan iborat. Ibn Moja o'z to'plamini fiqhiy masalalarga xos mavzularga bo'lib chiqqan. "Sunan"dan jami 4000 ta hadis joy olgan. Ulamolar ushbu "Sunan"ni mashhur olti ishonchli hadislar to'plamlari qatoriga qo'shish yoki qo'shmaslik masalasida uzoq tortishganlar. Zero, ularning oltinchisi sifatida Imom Dorimiy to'plamini kiritish tarafdorlari ham talaygana edi. Nihoyat, Ibn Mojaning "Sunan"i oltinchi o'rinda ishonchli to'plamlar safiga kiritildi.

"SUNANI NASOIY" - oltita ishonchli hadis to'plamidan biri, Abu Abdurahmon Ahmad ibn Aliy ibn Shuayb al-Xurosoniy an-Nasoiyning shoh asari. Nasoiy birinchi bo'lib "as-Sunan al-kubro", ya'ni, katta hadislar to'plamini yozgan. So'ngra Ramla amirining iltimosiga binoan uni qisqartirib, eng ishonchli hadislarni qoldirib, unga "as-Sunan as-Sug'ro" - kichik to'plam yoki "al-Mujtabo", ya'ni tanlangan hadislar to'plami deb nom qo'ygan. Ulamolar fikricha, "Sunan" nomi bilan yozilgan barcha hadis to'plamlaridagi hadislarning hammasi sahih emas, balki ularda zaif hadislar ham mavjud. "Sunan"ga Imom Jaloluddin Suyutiy, shayx Abul-Hasan Muhammad al-Hanafiy as-Sindiy va Shayx Sirojiddin Umar ash-Shofi'iy sharh bitgan.

SUNNA, sunnat (arab. - odat, an'ana, xatti-harakat tarzi) - islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad (sav)ning so'zlari, amallari va xatti-harakatlari. S. muhaddislar istilohida, quyidagicha ta'rif qilinadi:

"Payg'ambar (sav)dan asar bo'lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimai holga tegishli ma'lumotlar "Sunnat" deyiladi.

1. "Gap" - bunga Payg'ambar (sav)ning turli holat va munosabatlarda gapirgan gaplari kiradi. Buni "qavliy (gap) sunnat" deyiladi.
2. "Ish" - Payg'ambar (sav)ning qilgan ish-amallaridir. Misol uchun tahorat qilish, namoz o'qish, haj qilish va b. Buni, "amaliy (ish) sunnat" deyiladi.
3. "Taqrir" - bir narsaga iqror bo'lish, uning to'g'riligini tasdiqlash - ma'qullash ma'nosini anglatadi. S.dagi taqrir esa, Payg'ambar (sav)ning sahobai kiromlar tomonidan sodir bo'lgan ba'zi narsalarni ma'qullashlaridan iboratdir. Ma'qullash, gap bilan ma'qul, deb aytish yoki inkor qilmay, indamay qo'yish bilan ham bo'ladi. Buni "taqiriy sunnat"-

deyiladi.

4. "Xalqiy" - tana tuzilishidagi sifatlar. Payg`ambar (sav)ni ko`rgan kishilar u zotning bo`y-bastlari, tana tuzilishlari, sochlari, ko`zlari va b. a`zolarini batafsil vasf qilib berganlar. Bu ma`lumotlar ham rivoyat bo`lib muhaddislarga, ular orqali islom ummatiga etib kelgan. Mas., Imom Termiziyning "Shamoili Muhammadiyya" asari, aynan shu masalaga bag`ishlangan alohida kitobdir. 5. "Xulqiy-axloqiy sifatlar". Sahobai kiromlar Payg`ambar (sav)ning sabrlari, hilmlari, shijoatlari, saxiyliklari kabi barcha axloqiy fazilatlarini ham rivoyat qilib qoldirganlar. Bu hakdagi ma`lumotlar ham S.ga kiradi. 6. "Tarjimai hol". Payg`ambar (sav)ning muborak hayotlari. Bu bobga tegashli rivoyatlar to`plamini "Siyrat" ham deyiladi. Muhaddis ulamolar ushbu olti bandga tegashli har bir ma`lumotni atroflicha, chukur o`rganib, so`ngra o`z kitoblariga kiritganlar. S. islom uchun, musulmonlar uchun o`ta muhim manbadir. S. islom shariatida Qur`oni karimdan keyingi ikkinchi masdar-manba ekanligini Alloh taolo va Uning Rasuli Payg`ambar (sav) aytgandir. Bu - musulmonlarning asrlar osha amal qilib kelayotgan ishi. Bu — sog`lom aql va tafakkur taqozosi. S. - hadis ma`nosi Allohdan, lafzi Payg`ambardan bo`lgan vahiydir. Dinu diyonat, shariat va b. ma`nolarda Payg`ambarimiz o`z shaxsiy fikrlarini emas, Allohning vahiyini o`z iboralari bilan takdim etganlar. S. Qur`oni karim bilan chambarchas bog`likdir. Shuningdek, S.ning tarixi Qur`oni karim va islom tarixi bilan birdir. S. 7-a. o`rtalarida yig`ila boshlangan. Bir yarim-ikki asr davomida hadislar juda ko`payib ketgan. Hadisshunoslikning "oltin asri" - 9-a.ga kelib bular tartibga solingan va din, axloq, fiqhning muqaddas manbaiga aylangan. Bulardan Buxoriy (810-870) va Muslim (817-875) to`plamlari eng obro`li hisoblanadi. S.da tarixiy asosga ega bo`lmagan ayrim rivoyatlar mavjudligi bilan birga, arab xalifaliganing dastlabki ikki asrida islom dinining tadrijiy taraqqiyoti va turli ijtimoiy qatlamlarning axvolini ko`rsatadigan tarixiy ma`lumotlar ham o`z ifodasini topgan.

SUNNIYLIK (sunna so`zidan) - q. Ahli sunna val jamoa.

SURA (arab. - tizma, qator, qo`rg`on, manzil va sharaf ma`nosida) - faqat Qur`onga. xos tushuncha, uning bo`limlari S. deyiladi, uni shartli ravishda bob bilan taqqoslash mumkin. Ulamolar istilohida esa, S. - Qur`on oyatlarining boshlanish va tugashi belgilangan mustaqil toifasidir. Boshqacha qilib aytganda, Qur`on oyatlarining qo`rg`on ila o`ralgandek bir toifasiga S., deyiladi. Qur`on S.lardan iboratdir, S. Qur`onning bir bo`laga bo`lib, uch yoki undan ko`p oyatni o`z ichiga oladi.

Qur`onda 114 ta S. bo`lib, ulardan har birining o`z nomi bor. Ba`zi Slarning ismi S.ning avvalidagi so`zdan olingan. Ba`zilariniki esa, o`sha S.da zikri ko`proq kelgan narsalarning nomiga qo`yilgan. Qur`oni karimdagi eng qisqa S. Kavsar S.si bo`lib, uch oyatdan, eng uzun S. Baqara S.si bo`lib, 286 oyatdan iboratdir. Qur`on S.lari ikki qismga bo`linadi: 1. Hijratdan oldin tushgan S.lar - "Makka S.lari" (Makkada tushgan) deyiladi. 2. Hijratdan keyin tushgan S.lar - "Madina S.lari" (Madinada tushgan) deyiladi.

SO`FIY - so`fiylik tariqatiga mansub shaxs, murid; "Tasavvuf" va "so`fiy" so`zlarining o`zagi va mazmuni to`g`risida olimlar fikri turlicha. Bu so`zlar arabcha "suvf" (jun, po`stin) so`zidan kelib chiqqan, degan fikr ko`pchilik ulamolar tomonidan ma`qullangan. Chunki, tasavvuf yo`liga kirganlarning ko`pchiligi o`zlarini xilvatda tutish bilan birga egailariga po`stin kiyib yurishar edi. Lekin so`fiylar orasida po`stin kiymaydiganlari,

quroq, hirqa yoki boshqa xildagi kiyim kiyib yuradiganlari ham bo'lgan. Ammo, po'stin kiyishga odat qilgan so'fiylar ko'pchilikni tashkil qilgan.

SO'FIYLIK - q. Tasavvuf.

SUFRIYLAR, as-Sufriya - xorijiyarning uch asosiy jamoalaridan biri. 7-a. 2-yarmida Basra (Iroq)da vujudga kelgan. Asoschisi -Ziyod ibn al-Asfar, jamoa uning otasi ismidan "sufriylar" (sufir - asfarning ko'pligi) deb atalgan. Xalifa Yazid ibn Muoviya davri (680-683)da S. Basra atrofida Abu Bilol Mirdas rahbarligida qo'zg'olon ko'targanlar. 681 y. Mirdas o'ldirilib, uning tarafdorlari qirg'in qilingach, Solih ibn Musarrih Basrada S.ning g'oyaviy rahbari va boshlig'i bo'lgan, u umaviylarni ag'darib tashlashga va hukmron doiralardan qasos olishga da'vat etgan. 695 y. Dajla (Tigr) daryosi yuqori havzasida S. qo'zg'olon ko'tarishgan. Solihning o'limidan so'ng (696 y.) qo'zg'olonga rahbarlikni Shabib ibn Yazid qo'lga olgan. S. O'rta Iroqqa tarqalib, Madoinni egallashgan va unda mustahkam o'rnashib olishgan. Biroq ikki jangda ko'p talafot ko'rgach, Shabib azrakiylar bilan qo'shilish maqsadida Kermonga chekinishiga qaror qilgan. Daryodan kechib o'tish chog'ida Shabib cho'kib ketgan, shundan keyin S. ko'zg'oloni tezda bostirilgan (697 y.). S. jamoasining vujudga kelishi xorijiyar o'rtasidagi diniy-siyosiy ixtiloflar bilan bog'liq. Xorijiyar kimni "kofir" deb hisoblash lozim va ularga qanday munosabatda bo'lish kerak degan masalada ixtilofga borishgan. Azraqiylardan farqli ravishda S. qo'zg'olonda qatnashmagan dindoshlarini kofir sanamaganlar: ular azraqiylar tomonidan o'z dushmanlarining ayol va bolalarini o'ldirishlarini qoralaganlar, lozim bo'lganda o'z e'tiqodlarini yashirish (at-taqiya) mumkin deb hisoblashgan.

SUXRAVARDIY (Shahob ad-din Yahyo as-Suxravardiy; 1155-1191) - Eron tasavvuf faylasufi, "porlash" (ishroq) haqidagi ta'limot asoschisi, shu tufayli uni Shayx ul ishroq deb ham atashadi. E'tiqodsizlikda va ismoiliylikni targ'ib qilishda ayblanib Saloh ad-din amri bilan Halab sh.da qatl qilingan. S. falsafiy qarashlariga zardushtiylik kuchli ta'sir etgan. U borliqqa xilma-xil tezlikdagi ranglar majmui sifatida qaradi, ularni esa, Avesto qahramonlarining nomi bilan atadi. S. o'ziga xos qorishiq ta'limot yaratdi, bu ta'limotda zardushtiylik belgilari bilan birga tasavvufga oid qarashlar qo'shib ketgan edi. S. juda ko'p g'oyalarni so'fiylik merosidan olgan, biroq u amalda so'fiy bo'lmagan, balki musulmon falsafasiga yaqinroq turgan. Uning g'oyalari Eron mutafakkirlari orasida keng tarqalgan.

SUXRAVARDIYLIK, suhravardiya -so'fiylik tariqati. 12-a. oxiri - 13-a. boshida Iroqda, Ikki daryo oralig'i hududida zohidlik maktabi doirasida tarkib topgan Aslida S.ni yaratgan kishilarning aksariyati arablardan emasdi. An'anaga binoan S musulmon zohidlik tarixida tuzilgan dastlabki birodarlik tashkilotidir. U shofi'iylik mazhabiga mansub o'ta sunniylik yo'lini tutgan. O'z silsilasini Ziyovuddin Abu Najib Suxravardiy (1097-1168)dan boshlab Ahmad al-Razoliy (1126 y. v.e.) va Junayd al-Bag'dodiy (910 y. v.e.) orqali Ali ibn Abu Tolibga (661 y. v.e.) bog'lagan. S. shaharliklar tariqati bo'lib, a'zolari soni savdo-hunarmand ahli va jamiyatning o'qimishli qatlamlari hisobiga ko'payib borgan Zohidlik falsafasi va diniy amaliyoti (tariqati)ning mustaqil yo'li bo'lgan S asoschisi Shihobiddin Abu Hafs Umar Suxravardiy (1145-1234/35) hisoblanadi. U so'fiylikka oid bir necha

kitoblar va maktublar, jumladan, "Avorif al-maorif asarini yozgan. Bu kitob keyingi davrlarda yashagan barcha so'fiylarning avlodlari uchun axloq va amaliyot bo'yicha qo'llanma sanalgan Keyinchalik S. Hindiston (Sind, Panjob Mo'lton, Gujarot)da tarqalgan va chishtiylik bilan bir qatorda eng ta'sirli tariqat sanalgan, dastlabki davrda bu mamlakatga kelib qolgan kamsonli musulmonlarni birlashtirishda muhim rol o'ynagan.

SUHUF (arab "sahifa" so'zining ko'pligi) -Qur'onning dastlab to'plangan ilk qo'lyozmasi Manbalardagi ma'lumotlar bo'yicha, Muhammad (sav) vafotlaridan bir yil keyin - 633 Y.DA xalifa Abu Bakr Qur'onni xilma-xil yozuvlardan va uni yodda saqlagan kishilardan olgan va to'plashni oxirgi davrlarda Rasulullohga kotib bo'lib xizmat qilgan Zayd ibn Sobitga topshirgan. Tayyorlangan qo'lyozma S. degan nom olgan. S. yozuvlari va qorilar og'zidan tinglab yozilgan mushafklar soni 4 yoki 5 ta ekani to'g'risida turli rivoyatlar bor. Bu ish uchinchi xalifa Usmon (ra) xalifaligi davrida amalga oshirilgan.

SUYUTIY (to'liq ismi Jaloliddin Abulfazl Abdurrahmon Suyutiy, (? - 1505) -islom ulamosining eng buyuklaridan biri. Zamonasidagi mavjud fanlarning har biriga oid asarlar yozganligi bilan mashhur bo'lgan mujtahidlardan. Ajdodi Misrga ko'chib borib, Suyut qasabasida o'rnashib qolgan. Otasi Qohira qozisi edi. S. ham Qohirada tug'ilgan. Besh yoshida otasi vafot etgan. Otasining do'stlaridan biri uni o'z himoyasiga olib, ta'lim-tarbiya bergan. U sakkiz yoshidayoq, Qur'onni yod bilgan. Tahsilni tugatgach, Shom, Hijoz, Yaman, Hind kabi ilm markazlariga borib, mumtoz olimlarning suhbatidan bahramand bo'lgan. Qohiraga qaytib kelgach, Shayxuniya madrasasida saboq bera boshlagan va shuhrati har tarafga yoyilgan. Shayxuniya mudarrisligidan ketgach, uzlatga chekinib, hayotini ta'limga bag'ishlagan. Tafsir, hadis, fiqh, tarix, tarjimai hol, adabiyot va b. ilmlarga oid "Xusnul-muhodara" nomli asarida ta'kidlashicha, uch yuzdan oshiq asar yozgan. "Mu'jamul-matbuotil-arabiyya"ning muallifi S.ning 92 matbu (chop etilgan) asari haqida bahs yuritadi.

- T -

TABARIY, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir (839-923) - arab tarixchisi, faqih, tafsirchi. Asli Tabaristonning Amul sh.dan, badavlat xonadonda tug'ilgan. Yetga yoshida Qur'onni yoddan bilgan, sakkiz yoshvda jamoa namozida imomlik qilgan, to'kqiz yoshida hadislarni yozib bora boshlagan. Umrining ko'pini Bag'dodda o'tkazgan. T. arab xalifaligiga tobe bo'lgan ko'pgina mamlakatlarni aylanib chiqqan. T. rasmiy lavozimlardan voz kechib, butun umrini ilmga bag'ishlagan. U o'rta asr fanining birmuncha sohalarini, xususan, fiqh hamda tarixni mukammal egallagan, Qur'on va hadis bo'yicha yirik asarlar yaratgan. T. asarlarida islom va arab xalifaligi tarixi keng yoritilgan. "Tarixi Tabariy" asari muhim tarixiy manba hisoblanadi. Shuningdek, u Qur'onning 30 jilddi yirik tafsiri muallifi. Bag'dodda T. "Jaririya" (otasi nomidan) huquq maktabiga asos solgan. Uning tarafdorlari Ibn Hanbal qarashlarini tanqid qilganlar.

TABARONIY, to'liq ismi Abulqosim Sulaymon ibn Ahmad at-Tabaroniy (873, Tabariya qasabasi (Shom) - 973, Isfahon) -yirik muhaddislardan biri. Sahih hadislarni yig'moq, uchun Yaman, Misr va b. islom ilm markazlarini Kezib chiqqan. Hofiz Abu Nuaym kabi tanikli muhaddislar uvdan hadis rivoyat etganlar. Asmoi sahobaga doir "Mo`jami kabir", "Vasiyat", "Sag'ir" nomli mo'tabar asarlar yozgan.

TABAQOT (tabaqaning ko'pligi; "qatlam", "avlod", "daraja") - ma'lum bir vaqt oralig'ida yashagan shaxslar, "avlodlar tarjimai holi" (biografiyasi). Arab tarixshunosligida T. Biografik janrning maxsus tarmog'ini tashkil etib, unda material xronologik tartibda, avlodlar bo'yicha, eng dastlabkisidan so'nggisigacha (Muhammad (sav)ning safdoshlari - sahobalar, so'ng ularning shogirdlari va b.) joylashtirilgan. Regaonal tamoyilga ham rioya qilingan - material shaharlar, alohida mavzelar va Xalifalikning viloyatlari (ba'zan butun islom dunyosi tegrasida) bo'yicha taqsimlangan. T. adabiyoti hadis ilmi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. U isnodning haqqoniylik darajasini aniqlashda ma'lumotnoma rolini o'ynagan. Bizgacha T. turidagi yetib kelgan eng ilk asar Ibn Sa'd (784-845)ning "Kitob at-tabaqot al-kabir"dir. Asarda hadislar aytgan 4250 shaxs (sahobalardan boshlab)ning tarjimai holi keltirilgan. Islomning dastlabki davrida T. asosan hadis bilimdonlari va faqihlarga atalgan. Biroq, madaniy ehtiyoj va ilm-fan taraqqiyoti keyinchalik turli kasb va darajadagi shaxslarning (shoirilar, adiblar, kotiblar, vazirlar, tilshunoslar, tabiblar, donishmandlar, va'zxonlar, qorilar, faqihlar, so'fiylar va b.) avlodlarini xronologik tartibdagi T.lari paydo bo'lishiga imkon berdi.

TABLIG' (arab. - xabar yetkazmoq, tushuntirmoq) - biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. 'Tablig''chilar jamoasiga 20-a.ning 20-y.larida Hindistonda Muhammad Ilyos asos solgan. Oqimning maqsadi aholini yoppasiga islomlashtirishga erishish. Har o'n "tablig''chini bir amir boshqaradi. Hozirda ushbu oqim Pokistonda keng tarqalgan. Juda sayoz diniy bilimga ega bo'lgan "tablig''chilar 90-y.larning boshida O'zbekistonda ham faoliyat ko'rsatishga harakat qildi.

TAVAKKUL ("tavakkal" soʻzidan - "biron-bir zotga umid bogʻlash", "ishonish") - oʻzini Alloh irodasiga topshirish, faqat u beradigan rizqqa umid bogʻlash. T. amallari zohidlar va soʻfiylar orasida keng yoyilgan. Ular Qurʼonga asoslanib, T.ni imon bilan bogʻlashgan, Allohdan chinakam umidvor boʻlgan insongana kundalik turmush tashvishlaridan voz kechishga, Alloh yoʻlida xolis xizmat qilishga qodir, deb hisoblashgan. Keyinchalik soʻfiylik yoʻli (tariqat)ning boshlangʻich maqomlaridan biri T. istilohi bilan atala boshlandi. T. soʻfiylikning boshqa bir maqomi - "qoniqish" (rido) bilan ham bogʻlangan. T.ga amalda rioya etish soʻfiyning deyarli har qanday mehnat faoliyatini toʻxtatib qoʻyishida ham namoyon boʻlardi. Faqixlar va ilohiyot olimlarining aksariyati bu masalaga boshqacha yondashgan. Ular fikricha, T. mehnatdan butunlay voz kechishni bildirmaydi, yaʼni inson ishlashi, tijorat bilan shugʻullanishi mumkin. Ammo, bu kabi ishlarni hayotning asosiy maqsadi qilib qoʻymay, shu bugungi ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli darajada ishlab topish, ertanga kun haqida oʻylamaslik kerak va h.k.

TAVBA (arab. - qaytish, pushaymon boʻlish) -tasavvufda soliqning tariqat sari qadam qoʻyishidan oldin qilgan barcha gunoxlaridan tavba qilib, kelajakda biror gunoh ishni qasddan qilmaslikka azmu qaror etishi. T. solikning 1-maqomi sanaladi. Alloh tomonidan T. qabul boʻlishining 2 sharti bor: 1) yomonlikni bilmasdan qilish; 2) T.ni kechiktirmaslik. Kimki T.ni kechga sursa, insoniy fazilatlaridan mahrum va aksincha T. qilishga shoshilsa, oʻzini isloh qilgan boʻladi. T. - insonning oʻzini oʻzi tarbiyalashida muhim axloqiy vosita sanalib, yomonlikdan yuz oʻgirib, yaxshilik sari qadam qoʻyishga, ezgu ishlar qilishga undab turuvchi xislat sanaladi.

TAVOF (arab. - atrofida aylanmoq) - Kaʼba atrofida aylanish jarayoni. Haj va umra marosimlari tarkibiga kiradi. Umra qiluvchilar 1 marta, hajga kelganlar 3 marta (T. al-qudum, T. az-ziyora va T. al-vadoʻ) T. amalini ado etadi. Bundan tashqari, Makka ahli va uning mehmonlari Kaʼbaga yuksak izzat-ehtrom yuzasidan boshqa paytlarda ham, ayniqsa, juma kunlari va ramazon oyida uni T. qiladi. T.ning shartlari namozning shartlari kabidir. T. qiluvchi Kaʼbaga Bob as-Salom darvozasi orqali oʻng oyogʻi bilan kiradi. T. qilishda masjid sahnining oʻrtasida turgan Kaʼbaga yaqinlashilgach, uning Qora tosh joylashtirilgan burchagaga kelib, qoʻlini unga qarata choʻzadi va imkoniyat boʻlsa oʻpadi (taqbil yoki istilom qiladi). Shundan soʻng Kaʼba atrofida soat miliga qarshi tarzda yetti marta aylaniladi. Har safar maxsus duolar oʻqiladi. Keyin Kaʼba eshigi oldidagi Multazam degan joyga suyanib, Allohga iltijo qilinadi. Gunoxdar kechirilishi soʻraladi. Pirovardida ikki rakaat nafl namoz oʻqiladi.

TAVROT (qad. yahudiycha "Tora" - qonun) -islom akddasi boʻyicha Allohning Muso (as)ga Jabroil orqali tushirgan ilohiy kitobi. Qurʼonda T. haqida bir qancha oyatlar bor. Ulardan birida quyidagilar aytiladi: "Biz Tavrotni nozil qildik. Unda hidoyat va nur bor. U bilan U zotga taslim boʻlgan Paygʻambarlar, Allohning kitobini muhofaza qilishga mukallaf boʻlgan robboniylar va axborlar yahudiy boʻlganlarga hukm yuritarlar. Ular bu kitobga guvoh qilinganlar. Odamlardan qoʻrqmanglar, Mendan qoʻrqinglar. Mening oyatlarimni arzon bahoga sotmanglar. Kim Alloh nozil qilgan narsa ila hukm yuritmasa, oʻshalar kofirlardir". (Moida 44) Qurʼonga koʻra, Injildagi kabi T.da ham Ahmad ismli "yahudiylardan boʻlmagan paygʻambar"ning dunyoga kelishi haqida aytilgan. 8-10-a.larda T. bir necha bor yunon (mas., Xunayn ibn Ishoq), qad. yahudiy (Saadiya Gaon)

va lotin tilidan arabchaga tarjima qilingan. Keyinchalik T.ning qibtiy, suryoniy, qad. yahudiy tilidan nasorolar va samariylar o'zlarining ehtiyojlari uchun tarjimalar qilishgan. Taxm. 9-a.dan musulmon mualliflari T.ning Muhammad (sav)ning payg'ambarliklari haqidagi xabar keltirilgan qismini dalil qilib keltira boshlashgan. T.ni asrlar davomida talqin va qayta talqin etish natijasida iudaizmning yana bir muqaddas kitobi Talmud (qad. yahudiy tilida ta'limot) shakllangan, unda iudaizm aqida va marosimlari batafsil yoritilgan. Shuning uchun Talmud yahudiy diniy jamoalarida kenfoq amaliy rol o'ynaydi. T.ning asosiy aqidalari va rivoyatlari muayyan tarzda Qur'onda ham uchraydi.

TAVHID (arab. - yakkaxudolik) - umumiy ma'noda yakkaxudolik haqidagi ta'limot (q. Vahdoniyat). Shar'iy istilohda esa, T. -islomda Allohga shirk keltirishning turli ko'rinishlaridan voz kechish va Alloh subhanahu va taoloning zotida ham, sifatlarida ham, ishlarida ham, ismlarida ham, hukmlarida ham sherigi yo'q, deb e'tiqod qilishdir. T. Qur'on va sunnat ulamolari nazdida uch qismdan iboratdir: Sifatlar T.i, Robbilik (Parvardigorlik) T.i va Ilohiylik (ibodatga sazovorlik) T.i. So'ngra Ilohiylik T.ining o'zi yana ikkiga bo'linadi: Isbot va ma'rifatdagi T. hamda talab va qasddagi T. T. islomda (sunniylikda ham, shialikda ham) rasman e'tirof etilgan aqidalarning birinchisi, mohiyatan, asosiy va markaziy aqida. Mazmunan shunday tasavvurni ifoda etgani uchun Qur'onning 112-"Ixlos" ("Poklanish") surasi ham ba'zan T. deb yuritiladi.

TAJALLI (ko'pligi tajalliyot) - "xudoning namoyon bo'lishi", Allohning dunyoda namoyish etishi. T. tushunchasini dastlab basralik zohid Raboh ibn Amr al-Qaysiy (796 y. v.e.) kiritgan.

Mashhur so'fiy Saxl at-Tustariy (896 y. v.e.) T.ning uch turini farqlagan: a) ilohiy mohiyatning namoyon bo'lishi (tajalli az-zot), yoki ilohiy vahiy (mukashafa); b) ilohiy mohiyatning o'z sifatlarida namoyon bo'lishi (tajalli sifat az-zot), yoki nur taratish (maudi'an nur); v) ilohiy hukmning namoyon bo'lishi (tajalli hukm az-zot), yoki kelajak hayot (al-axira va ma fiha). Al-Hallojga ko'ra, Alloh doimo insonlarga narsa va atrofdagi hodisalar ko'rinishida namoyon bo'ladi (yatajalli), lekin Uni faqat ozgina mumtoz insonlarga tanishlari mumkin.

T. atamasini so'fiylar - vahdati vujud ta'limoti tarafdorlari keng ishlatganlar

TAJVID - Qur'onni qiroat bilan o'qish; bunday o'qish tartibi va tegishli Qur'on ilmi (ilm at-T.)- T. qadimdan ijro san'ati hisoblangan, uni asosan professional qorilar egallashgan va u avloddan avlodga o'tgan; uning eng sodda usullari boshlang'ich maktab va madrasalarda o'qitilgan. T.ning uch turi farklanadi: sekin (tartil), tez (xadr) va o'rta (tadvir) maromda o'qish. T.ga ko'plab risolalar bag'ishlangan.

TAJSIM (jassama fe'lidan -"mujassamlamoq") - mujassamlash, Allohni jism ko'rinishida tasavvur etish; ko'pincha at-tashbihning sinonimi sifatida ishlatiladi. T. izdoshlarini al-mujassima deb atashadi.

TAKBIR (arab. - ulug'lash) - islom an'anasida Allohni ulug'lash bilan bog'liq bo'lgan (arab. Allohu akbar - Alloh buyukdir) iborani talaffuz etish. Bu faqat azon va namoz

vaqtida aytiladigan ibora bo'lmay, ayni vaqtda duo -ibodatning bir shakli ham hisoblanadi. T. musulmonlar qoidalariga binoan go'shti taom uchun mo'ljallangan molni so'yish paytida ham aytiladi. T. iborasi tushirilgan bezak diniy inshootlar (masjid, madrasa, xonaqox va b.) naqshining asosini tashkil etadi, u amaliy san'atda, husnixat ilmida keng qo'llaniladi. Ilk va o'rta asrlarda islom mamlakatlarida T. jangchilarning jangovar da'vati bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi paytdagi musulmon diniy-siyosiy guruhlar T.dan shior o'rnida ham foydalanishadi.

TAK'YAXONA - shia yo'nalishiga mansub musulmonlar ibodatxonasi, masjidi.

TALAB al-ILM - ilm izlash, ilmga intilish. T. al-I. har bir musulmonning eng muhim vazifalaridan ekanligi ma'lum qilingan bo'lib, asosan hadislar va fiqhni o'rganishga qaratilgan; T. al-I.ni konkret shakllari va uni amalga oshirish islomning tegishli yo'nalishi (mazhabi)da ilmning ta'rifi va ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga bog'liq bo'lgan. T. al-I. uchun sayohat qilish (rixla) tavsiya etilgan, munosib yosh deb, garchi ma'lum cheklanishlar bo'lmasa ham yoshlik yillari hisoblangan.

TALOQ (arab. - qo'yib yubormoq, ajralmoq) - shariatga ko'ra, nikohning bekor qilinishi. Er tomonidan shu so'zning aytilishi xotinni barcha xotinlik majburiyatidan to'la ozod qiladi. Bu holatda er tomonidan xotingga berilgan mol-mulk (mahr) xotinda qoladi, er xotinni idda muddati o'tguncha moddiy ta'minlab turishi kerak. Shariatda 2-T.dan keyin ham er-xotinni qaytadan yarashtirishga ruhsat etiladi (Qur'on, 2:229). 3-marta T.dan keyin esa, shariat bunga yo'l qo'ymaydi. T. qilingan xotin boshqa erga chiqishi uchun belgilangan idda muddatini o'tashi kerak. Er 3 marta T.dan keyin yarashmoqchi bo'lsa, xotin boshqa erga birga yashash niyatida turmushga chiqishi, 2-er xotinni T. qilsa yo vafot etsa, xotin idda muddatini o'tagandan so'ng qayta nikoxlash mumkin. Bolalar onasi bilan qolishi mumkin, xususan o'g'il bolalar 7-8 yoshgacha, qizlar turmushga chiqish vaqtigacha (13-15 yoshgacha). Mana shu muddat orasida ota ularni moddiy ta'minlab turmog'i lozim bo'ladi.

TALHA ibn UBAYDULLOH (taxm.594-656) - sahoba, makkalik ilk musulmonlardan. Asharai Mubashsharadan Quraysh qabilasining Banu Tamim urug'idan bo'lgan. Talha islomga kirgan paytlari mushriklardan ko'p zulm ko'rgan. Badr jangidan boshqa ham g'azovotlarda Muhammad (sav) bilan birga bo'lgan. Badr jangida Rasuli Akram uni quraysh karvoni haqida ma'lumot keltirish uchun Shomga yuborganlari sababli bu jangda qatnashmagan, biroq o'ljalardan unga ulush ajratilgan. Uhud jangida, Rasuli Akramning yonlaridan jilmagan, hatto dushman tarafidan payg'ambarimizga serpalgan bir qilichni qo'li bilan qaytarib, qattiq jarohat olgan. Usmon (ra) vafotidan so'nggi voqealarda Oisha tomonida bo'lgan. Jamal jangi (656)da yaralanib, Basrada vafot etgan. Talha payg'ambarimizdan 38 ta hadis rivoyat qilgan.

TANZIH ("poklash", "barcha yaramas va nomunosiblikdan xoli deb hisoblash") - Allohga nisbatan har qanday tavsiflar (ausaf) va ta'riflar (xudud)ni inkor etishni anglatuvchi musulmon ilohiyotidagi istiloh; chunki Alloh yaratgan maxluklar orasida Unga o'xshashi

yo'qdir (Qur'on, 42:11/9). T. istilohining ziddi (antonimi) bo'lib at-tashbix, istilohi ishlatilgan. T.ning sinonimi sifatida taqdis va tasbih istiloxlari qo'llanilgan.

TANOSUX, tanosux al-arvoh(arab.) - ruhning ko'chib yurishi haqidagi diniy ta'limot. T. xaqidagi tasavvurlar juda qadimdan ma'lum bo'lgan. O'lganlarning ruhi (joni) yangi tug'ilgan insonlarda, hatto hayvon va o'simliklarda qayta mujassamlanishi haqidaga tasavvurlar diniy e'tiqodning ilk shakllari (animizm) bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. U ba'zan qadimgi diniy va falsafiy ta'limotlarda (mas., Yunonistonda metempsixoz, brahmanizm va hinduizmda sansara nomi bilan) keng tarqalgan. An'anaviy islom ilohiyoti T.ni rad etadi, lekin undan o'ta yiroqlashgan ayrim firqalar (mas., ismoiliylarning ba'zi shaxobchalari)da T. qisman e'tirof qilingan.

TARIQAT (arab. - yo'l, usul) - so'fiylikka xos tushuncha. Uch ma'noda ishlatiladi: 1) umuman so'fiylik yo'li; 2) so'fiylikning muayyan tarmog'i, yo'nalishi; 3) so'fiylik bosqichlaridan biri. Lekin T.ni so'fiylik yo'nalishlari (suluklari), tarmoqlari ma'nosida qo'llash kengroq tarqalgan. So'fiylikning bosqichi sifatida T. so'fiylar oldiga qo'yiladigan o'ziga xos talablar majmuasini, xilma-xil ruhiy-jismoniy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. T.ga qadam qo'yish - tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pir-murshid (eshon)ga topshirishdan boshlanadi. Undan keyin T. yo'lida so'fiy yana bir necha bosqich (maqom)larni, jumladan doim kambag'allikda, tasodifiy rizq hisobiga yashash (faqr), tarki dunyo qilish (zuhd), har narsani faqat xudoga solish (tavakkul), uni sevish va unga intilish (muhabbat, shavq) va b. bosqichlarni o'taydi. So'fiylikning ba'zi yo'nalishlari insonni nafaqat zohidlik, balki mutaassiblik yo'lga ham yetaklaydi. So'fiylikda T.lar g'oyatda ko'p bo'lgan. Hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan qodiriya (Eron va Afg'onistonda), rifo'iya (Eron), tayfuriya (arab mamlakatlari), mavlaviya (Turkiya), chishtiya (Hindiston, Pokiston), bektoshiya (Turkiya), safaviya (Eron) va b. shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda esa, ilgaridan naqshbandiylik, kubroviylik, yassaviylik T.lari tarqalgan.

TARKIDUNYOCHILIK - odamlardan, tashqi dunyodan, shuningdek, jamiyat va oiladan ajralib yashash, kimsasiz joylarga bosh olib ketish, darbadarlikda hayot kechirish. Islomdan boshqa yirik dinlar (brahmanizm, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik)ga ham xos xususiyatdir. Uning mohiyati - din yo'lida riyozat chekish. Tarkidunyo qilganlar odamlardan uzokda va g'orlarda hayot kechirishgan, o'zlarini xilma-xil uqubatlarga duchor qilganlar, och-yalang'och yashaganlar va h.k. Ayniqsa, uylanish, avlod qoldirishga, kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga nafrat bilan qarashgan. T. islom dinida o'rta asrlarda keng tarqalgan, so'fiylik oqimlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Ular faqir, darvish, qalandar (arab., fors. - qashshoq, darbadar, gado ma'nosida), zohid deb atalgan. Ular gadolik va xayr-ehson bilan kun kechirganlar. Ilgari O'rta Osiyoda ham T. keng yoyilgan, darvipshar, qalandarlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxonalar va xonaqoxlar mavjud bo'lgan.

TAROVIIH (arab. - xordiq chiqarish, tin olish) - ramazon oyi davomida kechalari o'qiladigan qo'shimcha namoz. T. namozi 20 rakaat, xufton namozidan keyin o'qiladi.

Uni masjidida jamoa bilan o'qish sunnatdir. Jamoatga kelishga imkoniyatlari yo'q kishilar uylarida o'qisalar ham bo'ladi.

TAROZIY, Sayyid Abu Nasr Mubashshir (1896, Avliyoota - 1977, Qohira) - ulamo, adib. Toshkentdagi "Abulqosim", Buxorodagi "Mir Arab" madrasalarida o'qidi. Taniqli ilohiyotchi shayx Muhammad al-Asaliy ash-Shomiy (Shomiy domla)dan saboq oldi. 20-y.lar boshida avj olgan xudosizlikka qarshi "Qur'on va nubuvvat" ("Qur'on va payg'ambarlik") kitobini yozdi. T.ning o'zbek tilidagi bu kitobi fors, arab tillarida yozilgan boshqa asarlari bilan birga ko'p o'tmay sho'rolar tomonidan musodara qilindi. T. "Ulamoi Turkiston" jamoasining jurnali -"Izoh ul-Marom" tahririyatida ishladi (1923), Taroz sh. diniy idorasiga rahbarlik qildi, maktablar ochib islom dinini targ'ib etdi. Uning bu faoliyati sho'rolarga yoqmas edi. T. 1930 y. Vatanini tark etishga majbur bo'ldi, umrining oxirigacha muhojirlik (Afg'oniston, Misr)da yashadi. 1960 y. Misr Prezidenti J.A. Nosir uni shaxsan qabul qilib, Turkistonni ozod qilishga qaratilgan siyosiy faoliyatini to'xtatishni talab qildi. Shundan so'ng T. faqat ilmiy-ijodiy ish bilan shug'ullandi. T.ning islom ilohiyotiga oid 47 asari bor, uning diniy mavzudagi maqolalari Misr, Saudiya Arabistoni, Suriya, Iroq, Livan, Hindiston, Yaponiya, Pokiston, Indoneziya, Afg'onistonda chop etilgan.

TASAVVUF, so'fiylik - islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Bu atama va undan yasalgan mutasavvif (so'fiy, "so'fiylik qiluvchi") va so'fiy (tasavvuf izidan boruvchi) so'zlarining kelib chiqishi xaqida turli taxminlar bor. Lekin hozir umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko'ra, tasavvuf - suvf - "jun", "po'stin" so'zidan olingan. Ilgari zamonda tarkidunyo qilgan zohid, "o'zini xudoga bag'ishlagan odam" odatda dag'al jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurgan. T.ga asos solgan tarki dunyochilik tasavvufiy kayfiyatlar islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi. Har qalay, Muhammad paygambar (sav)ning ayrim safdoshlari Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (7-a.ning 2-yarmida vafot etganlar) singarilarga ana shunday kayfiyat xos bo'lgan, deb hisoblaydilar. Biroq islomdagi zohidlik oqimi taxm. 8-a.ning o'rtalari - 9-a.ning boshlarida shakllana boshlagan deyish to'g'ridir. Odatda, bu oqimga hadislarni to'plovchi (muhaddis)lar orasidan chiqqanlar, sayyor baxshilar va nasihatgo'y voizlar (qussos), qori-yu qurrolar, jihad qatnashchilari (Vizantiya bilan chegara urushlari nazarda tutilmoqda), taqvodor hunarmandlar va savdogarlar, shuningdek islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi qo'shilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlarning, birinchi navbatda xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk so'fiylik, aniqrog'i zohidlar va tarkidunyo qilganlarning o'ziga xos xususiyati Qur'on matni mazmuni ustida mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislari ko'rsatmalariga qat'iy rioya etish, ko'p marta qo'shimcha namoz o'qish, bedorlik va ro'za tutish, har qanday dunyoviy narsalardan yuz o'girish, kundalik hayotda taqvoli bo'lish, xususan ruhsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qat'iy ajratish, dunyoviy va harbiy hukumatlar bilan hamkorlik kilishdan voz kechish, o'zini taqtsiri ilohiyga topshirish (tavakkul) kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va tavba qilish kayfiyati, berganiga shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr-toqatlilikdan iborat edi. So'fiylik ta'limoti inson qalbidagi eng nozik o'zgarishlarni ham chuqur mulohaza

bilan o'rganish, odamlardagi botiniy tuyg'ularga hamdard bo'lishga o'rgatardi. Shu sababli ham T. asoschilaridan biri nozik ruhshunos, "qalb va fikrlar" hamda insoniy niyatlar to'g'risidagi "fan"ning yaratuvchisi Hasan al-Basriy hisoblanishi bejiz emas. Basralik zohidlar - Hasan al-Basriyning shogirdlari va izdoshlari Raboh ibn Amr, Robiya al-Adaviya, ad-Daroniy (8-a. oxiri - 9-a. boshi)larning da'vat va xutbalari kishida xudoga astoydil muhabbat, unga yaqinlashishga intilish tuyg'ularini paydo qildi. O'sha paytdan boshlab bu tuyg'ular so'fiylik g'oyasining o'ziga xos xususiyati va farkli belgisi bo'lib qoldi. 9-a. davomida T. nazariyasi va amaliyoti ustida faol ish olib borildi. Bir qancha so'fiylik maktablari paydo bo'ldi, ular orasida Basra maktabidan tashqari Bag'dod va Xuroson maktablari ham birmuncha ta'sirga ega edi. Ularning vakillari inson va uning Xudoga munosabati qanday bo'lishi kerakligi haqidagi ta'limotni yaratdilar. Ruhiiy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berdilar. Bu yo'l 4 bosqichdan iborat: 1-bosqich - shariat. Bunga ko'ra, T. ahli avvalo shariatning barcha talablariga bo'ysunishi kerak. Shundan keyin 2-bosqich - tariqatga ko'tarilish mumkin. Bunda muridlar o'z pirlari - murshidlarga itoat etishi, o'z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart. Bu bosqichdan o'tganlar yuqoriroq, 3-bosqich - ma'rifatga ko'tariladilar, bunda koinotning birligi Xudoda mujassam bo'lishi, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligi aql bilan emas, qalb bilan anglab yetiladi. 4-bosqich -haqiqat hisoblanib, zohid "shaxs sifatida tugab" "haqiqat"ga, xudoga yetishadi, unga singab ketib abadiylikka erishadi. Bunga so'fiylar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar -sig'inish va ibodatlar orqali intiladilar. So'fiylar xudoga yetishish mumkinligi haqidagi fikrlari, shariat tomonidan buyurilgan amallarni bajarishdan bosh tortishlari tufayli goh-gohida ma'murlar ta'qibiga ham uchrab turadilar (at-Tustariy, Hakim at-Termiziy, an-Nuriy). Mashhur mutasavvif Husayn Mansur Halloj "anal haq" (men haq, men xudo) degani uchun Bag'dodda xalifa tomonidan dorga osildi (921). O'z yurti Tabaristonda katta obro' qozongan Abu Yazid Bistomiy ham shakkoklikda ayblanib, qatl etilgan edi (873). T.ga sunniylarning rahnamolari tomonidan bunday munosabatda bo'lish ularni ehtiyotkorlikka, murosali yo'llar izlashga majbur etdi. Ular Qur'on va sunnaga sodiqliklarini e'lon qilaverdilar, "tiyiqsiz" safdoshlarining keskin fikrlaridan uzoqlashib, o'z maslaklarini niqobladilar. Bag'dodlik al-Junayd (910 y. v.e.) ana shunday mavqeda turgan so'fiy edi. U "mo'tadil" deb atalgan so'fiylik an'anasini boshlab berdi. Bunday an'ana tarafdorlari keyin "keskin" yoki "ekstatik" so'fiylikka qarshi turdi. Ilk T.ning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar: mayda savdogarlar, hunarmandlar va h.k. tashkil etgan edi. Ular ichida diniy ta'limot olganlari ko'p uchramasdi, shunday bo'lsa-da, o'zlarini "so'fiylik fani" nazariyotchilari deb bilardilar. T.ning ilk bosqichidayoq ma'naviy ustoz (shayx, murshid, pir) rahbarligida so'fiylik nazariyasi va amaliyotini egallash muhim hisoblangan, busiz boshlovchi so'fiy (murid) akd-hushi va sog'lig'ini yo'qotishi mumkin edi. Shayxga butunlay bo'ysunish, barcha diniy va dunyoviy masalalarda uning obro'sini tan olish talabi uni muridlar ko'z o'ngida boshqa odamlardan ustun qilib qo'yardi. Yirik so'fiy ustozlarni valiy deb atay boshladilar. Bunda shialarning imomlar to'g'risidagi ta'limotining ta'sirini ko'rish mumkin. Muridlar, ularga ergashib oddiy xalq bu odamlarning "adashmasligi", Alloh nazar qilganligi, karomat ko'rsatishga, payg'ambarga kelgan vahiyning "yashirin" ma'nosini izoxlab berishga qodirligi, xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqida gapira boshladilar. Bularning hammasi xalq og'zaki ijodida, shuningdek, T. nazariyotchilari (mas., Hakim at-Termiziy)ning asarlarida o'z ifodasini topdi. So'fiy bilimlari va barakasining shayhtsan muridga o'tishi uzoq ta'lim jarayonida amalga oshirilgan, saboq berish tugagach, shogird ustozdan so'fiylik jandasi (xirqa)ni olgan, bu o'ziga xos "shahodat" vazifasini o'tagan va mustaqil targ'ibot olib borish huquqini bergan. Odatda muridlar turli joylardan kelgan bo'lib, o'z makonlariga qaytib borganlar, u yerda so'fiylik to'garaklari va manzillari (zoviya, xonaqoh) tashkil

qilib, o'zlari shogird tayyorlay boshlaganlar. Bularning hammasi T.ning tez tarqalishiga olib kelgan.

10-a. oxiri - 11-a. boshlarida T.ga oid kitoblar yozildi. Ular orasida at-Tusiy (988 y. v.e.), al-Kalabodiy (990 yoki 995 y. v.e.), Abu Tolib al-Makkiy (998 y. v.e.), as-Sulamiy (1021 y. v.e.) kabilarning bizgacha yetib kelgan asarlari bor. Bu mualliflar T.ga doir bilimlarni tartibga soldilar, so'fiylik istiloxlarini tushuntirib berdilar. T.ni izchil islom ta'limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olinishida Razoliy, Abdulqodir Giloniy (Jiloniy)ning (1161 y. v.e.) xizmati katta. 12-a. o'rtalari - 13-a. boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalarda, xususan shaharlarda T. tariqat (suluk)lari vujudga kela boshladi. Bag'dodda paydo bo'lgan dastlabki suxravardiya va qodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi.

Tariqatlar tariqat nomi berilgan kishilar -Umar as-Suxravardiy va Abdulqodir Giloniydan ham ko'ra, ko'proq ularning shogirdlari va izdoshlari tomonidan vujudga keltirilgan, bu hol umuman tariqatlarning shakllanish jarayoni uchun xarakterlidir (mas., shoziliya, mavlaviya, badaviya va h.k.)-Tariqatlarning vujudga kelishi bilan T.ning ta'siri yanada kuchaydi. Ko'pincha ma'murlar tariqat va zoviyalar rahbarlarining qo'llab-quvvatlashini istab, ularga turli imtiyozlar berdilar, hatto faoliyat yuritishi uchun pul ajratdilar. Ayni vaqtda ko'p so'fiy rahnamolar dunyoviy ishlarga aralashmasdilar, ma'murlar bilan bevosita aloqada bo'lmasdilar va moddiy yordamidan bosh tortardilar (chishtiya). Umuman so'fiylar xalq ommasini bilan yaqinlashishga harakat qilardi.

Har qaysi alohida mintaqada so'fiylik tashkilotlarining faoliyati mahalliy xususiyatlar va an'analar ta'sirida bo'ldi. T.ning ko'p qoidalari tub ahshi o'rtasida ildiz otgan majusiylik ko'rinishlari: ajdodlarga sig'inish, animizm, sehrgarlik kabilar bilan qo'shilib ketdi (shoziliya, qodiriya). Hindistonda so'fiylik mafkurasiga buddaviylik va hinduizm qoidalari o'z ta'sirini o'tkazdi (14-16-a.lar). T. g'oyalarining 12-13-a.larda musulmonlarning turli qatlam va ijtimoiy guruhlari o'rtasida keng tarqalishi munosabati bilan uning ichki farqlanishi yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Asosan xalq ommasining ma'naviy ehtiyojlariga qaratilgan "amaliy" T. bilan birga so'fiylik ta'limotining birinchi navbatda o'qimishli musulmonlar manfaatlarini ko'zlovchi quruq muhokamaga asoslangan jihati yanada rivojlandi. Bu "falsafiy" T.ning asosiy qoidalarini Ibn Arabiy bayon qilib berdi. U o'z falsafiy qarashlari bilan "vahdati-vujud" g'oyasini keng ko'lamda tarqatdi. "Falsafiy" T. 13-14-a.larda yuksak cho'qqiga ko'tarilgach, keyin o'z mavqeini yo'qota bordi. "Komil inson", "borliqning birligi" (vahdati-vujud), "Mutlaqning o'zini namoyon qilishi - jilolanish" (tajalli) va "nurlanish" kabi g'oyalar bahs va munozaralar manbai bo'lib qoldi (mas., vahdati mavjud va vahdati vujud tarafdorlari o'rtasidagi tortishuvlar). T. g'oyalari nazariy risolalardagina emas, shu bilan birga ko'pdan-ko'p she'riy asarlarda o'z ifodasini topdi. So'fiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors she'riyatiga (Jaloliddin Rumiy, Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), shuningdek, ma'lum darajada arab she'riyatiga singib ketadi. Turkiy xalqlarning (birinchi navbatda Alisher Navoiy), Bolqon ya.o., Shim. Hindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folklori to'g'risida ham shu gaplarni aytish mumkin.

T.ning o'zgaruvchanligi va yot ta'sirlarga "ochiqligi" uni turli-tuman oqimlarga bo'linib ketishiga olib keldi. T. avval boshda mo'min-itoatkorlik va dunyo halovatidan kechishni targ'ib qilgan bo'lsa, butun tarixi davomida bir necha bor isyonkorlik va Mahdiylik harakatlarining [Andalusiya'dagi "muridlar isyoni" (12-a.), Anatoliya (Anadolu)da shayx Badriddin (1416 y.da o'ldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiylik, shoziliylar va h.k.]ning, keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi kurash (sanusiylar, qodiriylar, Shomil) mafkurasiga aylandi. T. ko'pchilik musulmon rahnamolari tomonidan

e'tirof etilgandan so'ng uning himoyasi ostida eng keskin mavqeidagi turli xil jamoa va oqimlar -hurufiylik, ahd-i haqq va h.k. ish olib bora boshladi. Anatoliyada, keyin esa Bolqonda, O'rta Osiyo va Eronda aralash so'fiylik -shialik ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matullohiya, kubraviya, xalvatiya, zahabiya) tarqaldi.

T. tarafdorlari soni ortishi bilan uning tartibotlari rasmiylasha bordi, tariqatlarning tuzilmalari murakkablashib, ichki hayoti qat'iy belgilab qo'yila boshladi. Tariqat boshlig'i o'z vazifalarini avvalgidek bevosita emas, ko'p sonli vositachilari (xalifa, muqaddam) orqali amalga oshirdi. Dunyoviy hokimiyatlar qo'llab-quvvatlashini istagan shayxlar tobora ularga bog'liq bo'lib qola boshladi. Ayrim mamlakatlarda (Misr) tariqat rahbarlari amalda hukmron doiralar va yirik yer egalari bilan qo'shilib ketdi. Bunday salbiy hodisalarga norozilik tarzida malomatiylar an'analar tiklana boshladi, biron-bir tariqatga aloqasi bo'lmagan darbadar darvishlar ko'paydi. 19-20-a. boshida T. musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o'ynashda davom etdi. Musulmon olamining u yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu rol ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharkda jamiyatning yoppasiga din ta'siridan chiqib boshlashi, xo'jalik va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish T.ning mavqeiga hamma joyda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida T. diniy-siyosiy doiralar tomonidan keskin tanqidga uchradi. Yosh avlodning ko'pchiligi T.ni o'z mamlakatining qolokdigi sabablaridan biri deb bildi, uni taraqqiyot va gullab-yashnash yo'lidagi g'ov deb hisobladi. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tariqatlar faoliyati qisman yoki butunlay man qilindi. Garchi T. o'zining avvalgi obro'sini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saqlab kelmoqda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmoqda. 20-a.da ham yangi suluklar paydo bo'lganligi T.ning yashovchashshidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoidagi al-alaviya (asoschisi Ahmad al-Alaviy, 1934 y. v.e.), Tunisdagi al-madaniya (asoschisi Muhammad al-Madaniy, 1959 y. v.e.), Qohiradagi al-Hamidiya-ash-shoziliya (asoschisi Salama ar-Radiy, 50-y.lar oxirida v.e.)ni kiritish mumkin. Hozirgi davrda so'fiylik "yo'li"dan borish uning muxlislariga (shayx va uning yaqin safdoshlari bundan mustasno) o'z jamoat vazifalarini bajarishiga xalaqit bermaydi. So'fiylar orasida (ularning ko'pchiligini hamon kuyi ijtimoiy tabaqalar tashkil etadi) birmuncha "obro'li" kasb vakillari: o'qituvchilar, turli darajadagi davlat xizmatchilari, uchuvchilar va h.k. bor. Ularning tariqatga a'zoligi ko'p jihatdan oilaviy an'analar bilan bog'liq bo'lib, chuqur ichki e'tiqod oqibatida emas.

TASBIH (arab.) - 1) "Subhonalloh" ("Alloh har qanday sherikdan pok" kalimasini aytish); 2) duolar va ibodat so'zlarini hisoblash uchun ishlatiladigan munchoq shodasi. T. ishlatish keng tarqalgan barcha dinlarda uchraydi, dindorlik va taqvodorlik belgisi hisoblanadi. Musulmonlarda 33 bor subhonalloh, 33 bor alhamdulillah va 33 bor Allahu akbar kalimalari ushbu tasbeh bilan sanaladi.

TAFSIR (arab. - bayon qilish, ochib berish va ravshan qilish) - inson qudrati yetguncha Qur'oni karimdagi Allohning murodini o'rganadigan ilm. Bu ilm Payg'ambar (sav)ning davrida yuzaga kelgan. U kishi odamlarga Qur'onning ma'nolarini bayon qilar, sahobalarning Qur'on oyatlari ma'nosi to'g'risidagi savollariga javob berar edi. Sahobalarga T. ilmi Payg'ambar (as)dan meros qoldi. Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'ud, Ubay ibn

Ka'b va b. T. ilmida mashhur bo'lganlar. Tobeinlar esa, T.ni sahobalardan o'rgandilar. Va ulardan ko'plari bu ilmda shuhrat qozondilar. Mas.: Mujohid ibn Jabr Makkiy, Ikrima, Said ibn Jubayr, Ato ibn Abu Roboh va b. Sahobalar va tobeinlar asrida T. og'zaki rivoyat va naql shaklida bo'lib, ta'lif qilib yozilmagan edi. T.dan birinchi kitob yozgan shaxs Abdulmalik ibn Juraydir (8-a.). Keyinchalik Muhammad ibn Jarir Tabariy, Yahyo ibn Salom, Abu Bakr Nisoburiy va b. mufassirlar shuhrat topdilar. T. ilmi kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir necha qismlarga bo'lingan: Birinchi qism - "T. bil ma'sur". Bu qismdagi T.da mufassir Qur'on oyatlarini rivoyat qilgan sahih hadislar va sahobalarning qavllari bilan T. qiladi. Bu uslubda yozilgan T.larning mashhurlari quyidagilar:

Muhammad ibn Jarir Tabariyning "Jomi'ul bayon fi tafsiril Qur'on", Abu Muhammad Husayn ibn Mas'ud ibn Muhammad Bag'aviyning "Ma'olimut tanzil", Imodiddin Ismoil ibn Kasirning "Tafsirul Qur'onil azim", Jaloliddin Suyutiyning "ad-Durrul mansur fi-t-tafsir bil ma'sur" kitoblari. Ikkinchi qism - "T. bir-ray". Bu qismda mufassir o'z fikri va ijthodi ila T. qiladi va u ikkiga, joiz va g'ayri joizga bo'linadi. Joiz bo'lgan ray bilan T. qilishda mufassir ishonchli masdarlarga suyangan holda jaholat va zalolatdan uzokda bo'lib T. qiladi. Joiz bo'lmagan qismda esa, mufassir jaholat, bid'at va zalolat bilan T. qiladi, shuning uchun ham barcha allomalar bu navdagi T.ni man qilganlar. Joiz bo'lgan ray bilan qilingan T.lardan; Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxriddin Roziyning "Mafotihul g'ayb", Nasriddin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzoviyning "Anvoruttanzil va asrorut-ta'vil", Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiyning "Madorikut tanzil va haqiqut ta'vil" kitoblari.

Uchinchi qismi - "T.i ishoriy". Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma'nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan T. qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Bu qismga doir T.lar: Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning "G'aroibul Qur'on va rag'oibul Furqon", Sheroziyning "Aroisul bayon fi haqiqil Qur'on" kitoblari.

Keyinchalik T.ning yo'nalishlari ko'payib ketdi. Misol uchun Qur'ondagi hukm oyatlarini alohida T. qilish yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishdagi T.lar "Ahkom oyatlari tafsiri" deb nomlandi. Bu yo'nalishdagi qad. T.lardan hanafiy olimlardan Jassosning "Ahkomul Qur'on" va b. ulamolar yozgan T.lardan "Tafsiroh Ahmadiya" kitoblarini misol qilib keltirsa bo'ladi. Zamonaviy ulamolardan Muhammad Ali Saisning "Tafsiru oyotil ahkom" va Muhammad ALI Sobuniyning "Ravoi'ul bayon fi tafsir oyotil ahkom" kitoblari misol bo'la oladi. Shuningdek, madaniy T.lar ham yozildi. Ularda Qur'on oyatlari madaniyat tushunchasi asosida T. qilindi. Bu xildaga T.larga Sayyid Qutb (1966 y. v. e.)ning "Fi Zilolil Qur'on" va Muhammad Javod Mug'niyaning "Tafsir Koshif" kitoblari misol bo'ladi. Ilmiy T atamasi ham paydo bo'ldi. Bu turdagi T.larda oyatlarda kelgan ma'nolar ilmiy kashfiyotlarga mosligi haqida fikr yuritiladi. Bu yo'nalishdagi Tlar ichida eng mashhurlaridan biri Javohiriyning "Tafsir javohir" kitobidir. Ko'pchilik ulamolar bu kitobni T.dan uzoklashib ketganlikda tanqid ham qiladilar.

O'zbekiston hududidan chiqqan ba'zi mashhur T.chilardan avvalo Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud: Moturidiyni ko'rsatish mumkin. U zotning aksariyat muallafotlari tavhid ilmida, ya'ni ilmi kalomda bo'lgan. Imom Moturidiy o'zlarining "Ta'viloh ahdis sunna" NOMLI tafsirlarida ilmi kalom ulamolari yo'lidan borganlar va Qur'oni karim oyatlarini aqidada Ahli sunna val jamoa mazhabini qo'llab T. qilganlar.

Keyingilari Imom Abu Lays Samarqandiy bo'lib, u zot Imom Hodiyni nomi bilan mashhur bo'lganlar, Imom Abu Lays Samarqandiy ko'plab kitoblar ta'lif qilganlar. T kitoblarini esa, "Bahrul ulum" deb nomlaganlar va bu T. "Tafsir bil ma'sur" toifasidandir. Ulug' Imom Zamaxshariy turli ilmlarga doir ko'plab kitoblar tasnif qilganlari va eng

mashhur muallafotlaridan biri "Kashshof an haqiqit tanzil va uyunil aqovil fi vujuhit ta'vil" T. kitobi bo'lib, u ko'pchilikka "Kashshof" nomi bilan mashhurdir.

Imom Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayin Roziyning "Mafotihul g'ayb" nomli T. kitoblari ilm ahdi o'rtasida oyatlar orasidagi munosabatlarni va suralar o'rtasidaga bog'lanishlarni bayon qilish va b. bir qancha imtiyozlari bilan mashhur bo'lgan. Imom Abul Barokot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy. O'zlarining "Madorikut tanzil" nomli T. kitoblarini ta'lif qilishda Imom Zamaxshariyning "Kashshof" T.laridan istifoda qilganlar.

Imom Nasafiyning "Madorikut tanzil" nomli bu kitoblari hozirgi kunimizgacha ulamo va tolibi ilmlar orasvda zo'r e'tibor bilan shuhrat topib kelmoqda va ko'pgina islom o'quv yurtlarida qo'llanma sifatida ishlatib kelinmoqda.

Qur'on T.i bilan shug'ullanadigan kishida bo'lishi zarur shartlar: Birinchi shart: Sof e'tiqoddi bo'lish. Chunki, e'tiqod masalasi o'ta nozik ish ekanligi hammaga ma'lum. E'tiqod masalasida nuqsoni bor kishi T. qilsa, T. ham nuqsonli chiqishi turgan gap. Shuning uchun ham e'tiqodida "Ahli sunna val jamoa" mazhabidan ozgina og'ish bor shaxsga T. qilishga izn berilmagan yoki undoq odam qilgan T. yo'q qilingan. Ikkinchi shart: Havoi nafsga ergashishdan xoli bo'lish. Boshqacha qilib aytganda, T.chi bo'lish niyatidagi shaxs tarafkashlik dardiga chalingan bo'lmasligi kerak. Aks holda, uning ishida xiyonat sodir bo'lishi hech gap eas. Shuning uchun ham, qadariya, rofiza, mu'tazila kabi toifalarga mansub shaxslarning T.lari qabul qilinmagan.

Uchinchi shart: Arab tilini o'ta yaxshi bilmoq. Bu hech qandog' izohga o'rin qo'ymaydigan shartdir. Qur'on arab tilida nozil bo'lgan, arab tilini yaxshi bilmay turib, Qur'onni bilaman, deyish mutlaqo noo'rindir. Arab tili nahv, sarf, maoniy, bayon, badiy', fasohat kabi bir qator ilmlarni o'z ichiga oladi. To'rtinchi shart: Qur'onga bog'liq ilmlarni yaxshi bilmoq. Mazkur ilmlarga jumladan: Qiroatlar ilmi, ilmi Tavhid, ilmi Sababi nuzul, ilmi Nosix va mansux, ilmi Om va xos, ilmi Mutashobih va b. bir qancha ilmlar kiradi.

Beshinchi shart: Avvalo Qur'onni Qur'on bilan T. qilmog'i shart. Chunki, bir ma'no Qur'oni karimning bir joyida umumiyroq zikr qilingan bo'lsa, boshqa bir joyida batafsilroq bayon qilingan bo'ladi, bir oyatda qisqa ishora qilib ketilgan narsa ikkinchi oyatda kengaytirib tushuntiriladi. Shuning uchun Qur'oni karimni yaxshi va chuqur anglashda uning oyatlarini bir-biriga solishtirib o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Oltinchi shart: Qur'onni sunnat bilan T. qilmoq. Payg'ambar (sav)ning sunnati Qur'onning sharhi va tatbiqi bo'lib kelgan. Shuning uchun Qur'onni T. qilmoqchi bo'lgan shaxs Payg'ambar (as)ning sunnatlarini juda ham yaxshi bilmog'i shartdir. Yettinchi shart: T.ni Qur'onning o'zidan yoki Payg'ambar (sav)ning sunnatlaridan topmasa, sahobalarning gaplariga qaytmoq. Chunki, sahobai kirom (ra)lar Qur'oni karimning nozil bo'lishiga shohid bo'lgan, o'sha davrda Payg'ambar (sav) bilan birga yashagan, Qur'onni aniq tushunib yetgan kishilardir. Sakkizinchi shart: Agar T.ni yuqorida zikr qilingan masdarlardan birortasida ham topa olmasa, tobe'inlarning T.iga qaytish. Chunki tobe'inlar, sahobalardan dars olgan avloddirlar. Sahobalardan keyin Qur'oni karimni eng yaxshi biladigan avlod ham o'sha kishilardir.

To'qqizinchi shart: O'tkir fahmli bo'lmoq. Bu sifat, bir ma'noni ikkinchisidan ustun qo'ya bilish va shariat maqsadlariga mos ma'nolarni istinbot qilish uchun kerak bo'ladi.

Mufassir odoblari quyidagilardan iborat: -Yaxshi niyatli va sog'lom maqsadli bo'lmoq. - Husni xulkdi bo'lmoq. -Ilmiga amal qilmoq.

-Ma'nolarni naql qilishda sodiq va aniq bo'lish.

-Izzatini bilmoq. -Haqqo'y bo'lmoq. -Viqorli bo'lmoq. -Tavozu'li va halim bo'lmoq. -Og'ir-bosik, va salmoqli bo'lmoq. -Peshqadam olimlarni o'zidan ustun qo'ymoq. Qur'onni tarjima qilishga dastlab ruhsat berilmagan. Ulamolar bir ovozdan Qur'onni tarjima qilib

bo'lmaydi deganlar. Ularning fikricha, Qur'on ilohiy, mo'jiza kalom bo'lib, unga o'xshash arabcha kalom keltirish imkoni bo'lmaganidan keyin, uning maqsadini boshqa tilda, ayni shaklda bayon qilish imkoni ham yo'q edi. Qur'on saviyasida bo'lmagan narsani Qur'on, deb atash esa, mutlaqo mumkin emas. Eng muhimi, Qur'on tarjimasini, degan da'vo bilan kishilarni haqiqiy Qur'ondan uzokdashtirish xavfi tug'ilishi mumkin edi. Shuning uchun ham, qadimda boshqa tillarda Qur'onga yozilgan T.lar yoki tushuntirishlar boru, ammo, Qur'on oyatlarining bevosita tarjimalari yo'q.

Birinchi bo'lib g'arb xalqdari Qur'onni o'z tillariga tarjima qilishni boshladilar. Ana o'sha tarjimalarni nafaqat mustamlakachilar, balki, ularning tilini biladigan ba'zi musulmonlar ham o'qiy boshladilar. Ushbu va b. omillar ulamolarni Qur'on ma'nolarini tarjima qilish masalasini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Musulmon ulamolar Qur'on ma'nolarining tarjimasini haqida fatvo chiqardilar va bunday tarjima uchun kerakli shartlarni ham bayon qildilar. Mazkur shartlar, ko'r'on ma'nolari tarjimasini uning T. dek narsadir, degan tushuncha asosida qo'yilgan edi. Shu bilan birga ma'nolar tarjimasiga T.ga qo'yilgan shartlar ustiga qo'shimcha shartlar ham qo'yildi. Ulardan ba'zilari quyidagilar:

- Tarjimon arab tilini o'ta yaxshi bilishi bilan birga tarjima qilinayotgan tilni ham juda yaxshi bilishi shartligi.

- Tarjimani, Qur'on tarjimasini emas, balki, Qur'on ma'nolari tarjimasini, deb atash va tushunish lozimligiga. Chunki, islom ta'limotiga ko'ra, Qur'onni ayni o'zidek tarjima qilish umuman iloji yo'q narsa va insonlar nafaqat tarjima, balki, arab tilida ham Qur'onning biror oyatiga o'xshash matnni keltira olmaydilar.

- Mazkur ma'nolar tarjimasidan faqat Qur'on ma'nolarini tushunishdagi yordamchi sifatida foydalanish mumkinligi.

- Ma'nolar tarjimasini ibodatda qiroat qilish, ulardan hukm chiqarishga harakat qilish, tarjimalar atrofida ixtiloflar qilish mutlaqo mumkin emasligi.

- Qur'on ma'nolari tarjimasini yozganda, albatta, arabcha oyatlar bilan birga yozish. Chunki, shunda asl matnning qudusiyati balqib turadi. Qolaversa, tarjimaning aniqligani har doim tekshirish imkoni bo'ladi. Keyingi yillarda Qur'on ma'nolari o'zbek tiliga ham tarjima qilindi. Hozirgacha ikkita to'la ma'nolar tarjimasini bor. Alouddin Mansur va Abdulaziz Mansurov tomonidan qilingan tarjimalar.

Manbalar: Tafsiri Tabariy. Tafsiri Kurtibiy. Mabohis fii ulumil Qur'on-Subhi Solih. Mabohis fii ulumul Qur'on-Manno' Qatton. Nuzulul Qur'on alo sab'ati axruf Manno' Qatton. Manohilul irfon fi ulumil Qur'on-Abdul aziym az-Zarqonsh. Itqon fii ulumil Qur'on-Jaloliddsh Suyutiy. Burhon fii ulumil Kuron-Zartshiy. An-Nabaul azim-Abdulloh Daroz. Zohira Qur'oniya-Molik va b.

TAFTAZONIY, Sa'diddin Mas'ud ibn Umar (1322-1390) - kalom ilmining taniqli namoyandasi. Niso sh. (hoz. Turkmaniston) yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. Al-Ijiiy va Kutbiddin ar-Roziiy kabi ulamolardan arab tili, ilohiyot, mantiq, nutq san'ati asoslarini o'rgangan.

30 yilga yaqin Movarounnahr va Xuroson shaharlarini kezib, madrasalarda islom falsafasi, kalom, mantiq ilmidan dars bergan, mazkur fanlar sohasida asarlari bilan mashhur bo'lgan. Amir Temur taklifi bilan Samarqandga kelib, umrining oxirigacha saroyda yashagan.

Eng mashhur asari - "Tahzib al-mantiq va-l-kalom", ("Mantiq va kalomdagi tuzatishlar") Jaloliddin Davoniy va Kurdistoniy sharxdari orqali, "Maqosid at-tolibin" ("Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari") kitobi esa o'zining sharxdari bilan bizgacha yetib kelgan. T. Qur'on tafsirining ham muallifidir.

T. o'z asarlarida ilmi kalomning muhim mavzularidan biri - insonning iroda erkinligi masalasiga kengroq to'xtaladi. Uning fikricha, olijanoblik xislati va xayrli ishlar aslida Allohning mohiyatidan kelib chiqadi va U insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga buyuradi. Yomon xulq, gunohdar esa inson uchun xos bo'lmay, shular vositasida sinovdan o'tkazib turiladi. Binobarin, Alloh o'z bandalariga ikki yo'lni ko'rsatadi, ya'ni inson xayrli, sharafli ishlar qilib, savob oladi yoki nomatlub ishlar bilan mashg'ul bo'lib, gunohga botadi va shunga yarasha jazosini oladi. T.ning ta'kidlashicha, Alloh tomonidan kishilarga ko'proq xayrli ishlarigana buyurilgan, g'ayri sha'riy ishlar esa, insonning o'z irodasiga bog'likdir. Shu boisdan ham Alloh yomon xulq-atvorli odamlarni qilmishiga ko'ra jazolaydi. Shuningdek, T. islom falsafasi - kalomga mantiqiy xulosalarni tatbiq etib, ilohiyotning fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

TASHAHHUD - q. Kalimai shahodat.

TASHBIH, (arab. - o'xshatish) - xudoni odamlarga o'xshatib ta'riflaydigan ta'limot (antropomorfizm). Ilk islom ilohiyotida vujudga kelgan. Qur'onning ko'p suralarida xudo ham eshitadi, ko'rib turadi, ushlaydi, jazolaydi deb ta'riflanadi. Alloh taolo o'zi yoki Rasuli vasf qilganidek, o'xshatmasdan vasf qilinishini yaxshi ko'radi. U bizga o'xshab eshitadi, bizga o'xshab ko'radi, kabi gaplar aytilishi joiz emas. Ilk islom ilohiyotchilari ichida T. tarafdorlari xudoning qiyofasini insonga o'xshatib talqin etganlar. Ular mu'taziliylarning xudo hech qanday sifatga ega emas degan ta'limotiga (bu ta'limot islom tarixida ta'til, uning tarafdorlari muattila deb nom olgan) qarshi chiqqanlar. Ta'til - Alloh taoloning sifatlarini inkor qilishdan iboratdir. Ularning ikkovlari ham botildir. Chunki, ta'til qiluvchi, yo'qqa ibodat qiladi. T. qiluvchi esa, sanamga ibodat qiladi. T. va ta'tilga qarshi kalom tarafdorlari, xususan Ash'ariy qattiq kurash olib borgan. T. va ta'til ta'limotlari va ularning tarafdorlari bo'lgan mushabbiha va mu'attila alohida ilohiyot oqimiga aylangan emas, balki muayyan oqimlar (mas., mu'taziliylar)ga mansub ilohiyotchilar ta'limotining bir tomoni sifatida ma'lum bo'lgan. Kalom hukmron mafkuraga aylangach, bu ta'limotlar yo'qolib ketgan.

TA'VIL (arab. - izoxlash, asl ma'nosiga qaytarish) — ayrim murakkab oyatlar mazmunini o'z bilimi doirasida izoxlash. Ma'lumki, Qur'oni karimda o'nlab "mutashobih" va "muqattaot" deb nomlanuvchi oyat va iboralar borki, ularning tub ma'nolarini Alloh taolodan o'zga hech kim aniq bilmaydi. Bu to'g'rida Oli Imron surasining 7-oyatida bayon etilgan. Lekin, shunga qaramay, ba'zi tafsir ulamolari ularni T. etishga urinib ko'rganlar. Hanafiy-moturidiy mazhabi bo'yicha bu kabi oyatlarni T. qilish, sharxlash yoki izoxlash shakkoklik hisoblanadi. Kim T. yo'li bilan yoki boshqa yo'l bilan Alloh taoloning sifatlarini manfiy-salbiy qilishdan saqlanmasa, shuningdek, Allohning sifatlarini Uning mahluklari sifatiga o'xshatishdan saqlanmasa, hakdan toygan bo'ladi va hech qachon poklanishga erisha olmaydi. Bu mu'taziliylarga va ko'rish masalasida ular bilan hamfikir bo'lganlarga raddiyadir. Shuningdek, Allohni Uning maxluqotlaridan biror narsaga o'xshatadiganlarga raddiyadir. T. qilganlar ham o'zlariga yarasha javob aytib: "Agar biz ularga aniqlik kiritmasak, chalasavod kishilar turlicha fikrga borib, odamlarni chalg'itib yuborgan bo'lur edilar" - deydi. Imomi A'zamning sifatlardagi mazhabi - o'tgan sahobalar, tobe'inlar va taba' tobe'inlar jumhurining mazhabidir. Qisqasini aytganda, bu asrning eng yaxshi mazhabi bo'lib, sifatlarda T. qilmaslik, ularni T. nomi ila qadariya va

mu'attila mazhablariga o'xshab inkor ham qilmaslikdan iboratdir. Keyingi paytda T. so'zi tafsirlash, sharhlash kabi ma'nolarda ham ishlatilmoqda.

TA'ZIYA (arab. - yupatish, hamdardlik bildirish) — azador kishiga tasalli berish, ahvol so'rash. T.da marhumning oila a'zolari va yaqinlariga qarindoshlari, do'st-yorlari, qo'shnilar, hamkasblari tomonidan hamdardlik bildiriladi. Islomda marhumning janoza namozida, dafn marosimida qatnashish, T. bildirish savob ishlardan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, mo'minlar barchalari bir-birlari ila birodardirlar. Bu birodarlikni Qur'on oyatlari va Payg'ambar (as) hadislar ham qo'llab-quvvatlaydi. Mo'min kishi qanchalik solih, e'tiqodli, ibodatli bo'lsa ham baribir gunoxdan xoli bo'lmaydi. Faqat Alloh va uning payg'ambarlarigina gunohsizdirlar. Birodar degani aka-uka, tug'ishgan deganidir. Bunday holat ularning bir-birlariga xayrixox ekanliklarini taqozo etadi. Payg'ambarimiz (as) "bir mo'minning ikkinchi mo'min birodari orqasidan, g'oibona qilgan duosi qabul bo'lishga yaqin" deganlar. Vafot etgan birodarga eng kerakli va foydali narsa uni duo qilish, gunohini Allohdan so'rash. Janoza va T.dan maqsad aynan shunday duodir. Binobarin, janoza Payg'ambarimiz (as)dan qolgan sunnat. Bir birodarning ikkinchi birodardagi haqqi hisoblanur. T.ning muddati va adadi 3 kun ichida bir bor T. bildirish. Mabodo bu uch kun ichida T. bildiruvchining imkoniyati bo'lmasa yoki T. bildiradigan birodar safarda bo'lsa, bu muddatdan so'ng bildirsa ham joizdir.

TA'LIMIYLAR - qarmatlarning ikkinchi nomi. Bularda firqaga yangi kirganlarga ta'lim berish qattiq qoida asosida olib borilgani sababli, ular T. nomi bilan ham atalgan.

TA'TIL ("mahrum qilish, mahrum deb hisoblash") - musulmon ilohiyotchilari tomonidan ba'zi ta'limotlarni ta'riflash uchun qo'llaniladigan istiloh. Bu ta'limotlarga ko'ra, 1) dunyo Yaratguvchidan mahrum (ta'til al-olam anas-soni'), "ba'zi dahriylar"ning da'vosiga ko'ra, olam tasodifan yaratilgan deb hisoblash; yoki 2) Yaratguvchi yaratishdan mahrum (ta'til as-soni' anas-sun'), dahriylar dunyoning abadiy ekanligani da'vo qilishlari kabi; yoki 3) Yaratguvchi sifatleri, ismlari, ta'riflaridan mahrum deb hisoblash (ta'til al-bori' an as-sifat va-l-asmo va-l-ahkom), "ba'zi qadimgi faylasuflar"ning, shuningdek, "o'ta" shialar va botiniylarning ta'limotiga ko'ra; yoki 4) Yaratguvchi Uzining mohiyati va ijobiy ma'nodagi sifatlaridan mahrum (ta'til al-bari' an as-sifat az-zatiya va-l-ma'naviya), sharqiy peripatetiklar (mas., Ibn Sino) ta'limoti Allohga faqat munosabatdor (sifat al-idafa) va salbiy (sifat al-salb) xususiyatlar xos deb da'vo qiladilar; yoki 5) Yaratguvchi faqat o'ziga xos azaliy sifatlardan mahrum (ta'til al-bori' an as-sifat al-azaliya az-zotiya al-qo'ima bi-zotih), mu'taziliylarning at-tavhid ta'limotiga ko'ra; yoki 6) Qur'on va sunnaning matniy mazmuni undagi ma'nodan mahrum qilinadi (ta'til zavohir al-kitob va-s-sunna an al-ma'oniyy allati dallat alayho), qachonki mazmunan "ravshan" bo'lgan muqaddas matnlar ramziy-majoziy talqin etilsa (at-ta'vil). Mana shu barcha ma'nolarda T. istilohi Allohni yuqoridagi 3-5 moddalardagi sifatlardan, ismlar va ta'riflardan "mahrum" qilgan mutafakkirlarni ta'riflashda ishlatiladigan al-mu'attila istilohi kabi nojo'ya ma'no kasb etdi. Bu mutafakkirlarning o'zlari esa, tegashli nuqtai nazarlarini at-tanzih deb baholab uni at-tashbihga qarshi qo'yganlar.

TAYAMMUM (arab.) - tahoratning bir turi. Suv bo'lmaganda qum yoki tuproq bilan tahorat qilib, ramziy poklanish. Suv bo'lmaganda yoki suv bo'lsa ham undan foydalanish kasallikka olib kelsa, suvni olish imkoniyati yo'q hollarda T. g'usl hamda tahoratning o'rniga o'tadi. T. qilish Qur'on oyatlari va sunnat ila sobit bo'lgan. Payg'ambarimiz "agar ummatim o'n yil suv topa olmasa T. kifoya qiladi", deganlar. T.ning 4 ta farzi bor. 1. Niyat. 2. Yer jinsidan bo'lgan toza tuproq, 3. Ikki qo'lni tuproqqa yoki yer jinsidan bo'lgan narsaga yoki ura changgi chiqadigan ko'rpa, yostiqlik va b. toza matoga bir bor urib, yuziga surtadi. 4. Ikkinchi bor yana ikki qo'lni urib, ikkala qo'lni tirsagi ila qo'shib surtadi.

TAQVO (arab. - saqlanish, parhezkorlik, xudodan qo'rqish) - islomda dindorlikni ifodalovchi tushuncha. Qur'oni karim va hadisi shariflarda T. bir necha mazmunlarda keladi. Mas., Allohdan qo'rqish, do'zahdan saqpanish, parhezkorlik va b. Odatda dinga juda berilgan, o'zini harom va shubhalardan saqpab yuruvchi odam taqvodor deb atalgan. Allohga T. qilish undan qo'rqishdir. Allohdan qo'rqish esa, gunoh ishlarni tark etish va b. savob ishlarni ko'plab qilish bilan sodir bo'ladi. Islom dinini bir tomonlama talqin qiluvchilarda taqvodorlik to'g'risida noto'g'ri tushuncha shakllangan. Aksarilar T.ni tarki dunyo qilish, qorong'i xonaga kirib zikru ibodat bilan mashg'ul bo'lish deb tushunadilar. Hazrati Umar (ra)dan T. nima, deb so'raganda, arablar sertikon maydondan yalang oyoq bo'lib, tikondan saqlanib o'tib ketishni T. deb ataydilar, deganlar. Xayotda gunoh ishlar ham xuddi tikonlarga o'xshaydi, kim ulardan ehtiyot bo'lmasa, ozor chekadi, ulardan saqlanib yurgan kishi esa, T. qilgan bo'ladi. Oqibatda T. inson qalbidagi holatga aylanadi. Bu holat qalbni hassos qilib, har doim Allohdan qo'rqish sezgisi bilan yashaydigan qilib qo'yadi.

TAQDIR (arab. - oldindan belgalangan hayot yo'li), q i s m a t - inson hayoti va faoliyatini hamda olamdagi barcha hodisalarni Alloh irodasiga bog'lovchi diniy tasavvur. Islomda (sunniylikda ham, shialikda ham) rasman e'tirof etilgan aqidalardan biri. T.ga ishonish barcha dinlarga xosdir. Lekin ularning har birida o'ziga xos xususiyatlar bilan talqin etiladi. Islomda T. xudoning qudrati tarzida namoyon bo'ladi. Qur'onda "odamlar faqat xudo xohlaganinigina xohlay oladilar", "xudo o'z istaganini qiladi" degan oyatlar bilan ta'kidlanadi. Islomda T. masalasida qadariylar bilan jabariylar o'rtasida tortishuvlar bo'lgan, kalomda o'rtacha yo'l topishga harakat qilingan. Mutakallimlar taqdirni inson iroda erkinligi bilan kelishtirishga harakat qilgan, bandaning gunohlardan xoli bo'lishi, uning diniy e'tiqodiga, diniy faoliyatiga - savob ish, xayr-ehson qilishga bog'liq deb bilgan.

at-TAQIYA (taqiya; "aql bilan ish ko'rish"; "ehtiyotkorlik") - "aql bilan ish ko'rib o'z dinini yashirish"ni anglatuvchi termin. Shialikning yetakchi tamoyillaridan biri. Musulmon ilohiyotchilari uchun at-T.ga ruhsat etilishiga asos bo'lib Qur'on va Payg'ambar sunnati xizmat qiladi; ularning talqiniga ko'ra, Qur'on o'ta zarur hollarda dindan yuzaki ravishda qaytishga (16:106/108), kofirlar bilan do'st tutinishga (3:28/27), diniy ko'rsatmalarni buzishga (6:119; 5:5) izn bergan. Ilohioyotchilar at-T.ning mumkinligi haqida misol tariqasida Rasululloh (sav)ning birinchi safdoshlaridan biri Ammor ibn Yosirning qilgan ishini keltiradilar, unga ko'ra, Ammor garchi islomdan yuzaki ravishda qaytgan bo'lsa-da, ammo, qalbida Alloh va uning rasuliga bo'lgan imonini asrab qolgan. Sunniy

musulmonlar uchun at-T. faqat nazariy ahamiyatga ega. U faqat musulmon uchun o'lim xavfi tug'ilgan chog'idagana lozim, shunda ham u fikran izoh berishi kerak bo'ladi. Hoz. islom olamida, shialar ozchilikni tashkil etgan mamlakatlarda (Livan, Pokiston, Afg'oniston va b.) at-T. tamoyili o'z kuchini saqlab qolgan.

TAQLID (arab. - boshqaga ergashish) - islom an'anasida nufuzli ta'limot yoki shaxsni to'lig'icha e'tirof etish va unga ergashish qoidasi. Islom ilohiyotida 11-12-a.dan keyin ulamolarga diniy ta'limot sohasida mustaqil fikr yuritish (ijtihad) man etilgan bo'lib, faqat ilgarigi mujtahidlar ta'limotiga ergashish, taqlid qilish huquqi qoldirilgan. Bu qoida T., unga amal qiluvchi ulamolar (mujtahidlardan farq qilgan holda) muqallidlar deb yuritilgan.

TAHAJJUD (tahajjada fe'lidan - bedor bo'lmoq, bedorlik) - tungi namoz yoki tunda Qur'on o'qish. T. amaliyoti, xuddi istilohning o'zi singari Qur'onda qayd etilgan (17:79/81; shuningdek, q. 51:17; 25:64/65; 76:25/26; 11:114/116; 73:1-4). Muhammad (sav)ning Makkada yashagan davrlarida tungi ibodat farz sanalgan va musulmonlar tunning ko'p qismini ibodatda o'tkazganlar. Biroq Madinada T.ning farzligi bekor qilingan (q. Qur'on 73:20). Shunga qaramasdan islomda tungi ibodatlar saqlanib qolgan. Ayniqsa, ramazon oyida, tarovih (birligi - tarvixa - orom olish) o'qish maqtovga sazovor amallardan hisoblanadi. Tungi namozga bir yoki bir necha (13 tagacha) rakaat qo'shib o'kilishi (bunda umumiy rakaatlar soni toq bo'lishi kerak bo'lgan) ham ma'qullangan. Bunday namozni vitr (toq, juft emas) deb atashgan. Hanafiyalar fikricha, vitr farz sanaladi. Boshqa mazhabdagilar uni ma'qullashadi, biroq farz emas, deb hisoblashadi. Tungi ibodat juft rakaatlardan tashkil topsa uni shaf' ("juft") deb ataladi. Vitr yoki shaf'ni tunning xohlagan paytida amalga oshirish mumkin, lekin u bir kechaning o'zida ikki marta o'qilmasligi shart. Muazzin tungi ibodatga ikki marta chaqirishi va u "ibodat uyqudan afzal" so'zlari bilan boshlanishi lozim

TAHORAT - namoz o'qish, ibodat, qiroat oldidan yuvinish, poklanish. Bunday poklanish odati deyarli barcha dinlarda bor. Islomda T.ning ikki turi mavjud: vuzu' - kichik tahorat - qo'l-oyoq va yuzni yuvish; g'usl - katta tahorat - to'la yuvinish, cho'milish. T.ning to'rtta farzi, ya'ni qilinishi zarur qismi bor. Yuzni, ikki qo'lni tirsak ila qo'shib yuvmoq, boshning to'rtidan bir qismi miqdoriga mash tortish - ikki qo'lni ho'llab surtish, ikki oyoqni to'pig'i ila qo'shib yuvish.

TERMIZIY Abu Iso, Imom Termi-z i y (to'liq nomi Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulamiy Bug'iy Termiziy; 824/825 - 892) - mashhur muhaddis. Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ildi. Yoshlik chog'laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyok ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Marv va b. shaharlardaga mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini o'rgana boshladi. T. hadis o'rganish va ularni YIEISH uchun 20 y. o'zga yurtlarda bo'ldi. Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, ko'p hadislar xususida fikr almashdi. Bu uchrashuv va buyuk alloma bilan besh yil birgalikda yashashi T. hayotida katta o'rin tutdi, "al-Jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam" yoki "Sunani Termiziy") asarining yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. T. hadisning sahixdigani aniklashda yana bir bosqichga ko'tarildi. Agar Imom Buxoriy har bir

hadisning ishonchliligini belgilashda barchadan ustun bo'lsa, T. hadisning darajasini aniqlashda "sahih"dan keyin "hasan" bosqichini ham kiritdi. Hasan - zaif bo'lmasa-da, sahixdan darajasi pastrok hadislarga nisbatan berilgan baho. U hadisning qonunshunoslikka qanday taalluqli ekanini ham ko'rsatdi. Imom Muslim va Imom Abu Dovudlar bilan ham suhbatlashgan. T. "Jomi' as-sahih"dan tashqari "Shamoili Nabaviya" ("Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatleri"), "Kitob uz-zuad" ("Zohidlik kitobi") "Asmo' us-sahoba" ("Sahobalarning ismlari"), "al-Asmo' val-kuno" ("Ismlar va kun'yalar"), "Kitobul-ihal" ("Illatlar kitobi") va b. asarlar yozgan. "Shamoili Nabaviya" ("Shamoili Muhammadiya", Toshkent 1991), "Sunani Termiziy" (Toshkent, 1999) kitobi o'zbek tilida chop etilgan. T. fiqhga oid kitob ham yozgan, lekin u bizgacha yetib kelmagan. 1990 y.da T. tavalludining 1200 yilligi O'zbekistonda keng nishonlandi.

TERMIZIY al-Hakim, Hakim Termiziy (to'liq nomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy) (9-a. oxirida vafot etgan) - so'fiylikning yirik vakili. Termiz sh.da tug'ilgan. O'zi yozgan "tarjimai holi"ga ko'ra, 8 yoshidan boshlab diniy ilmlar bilan shugullangan. 28 yoshida haj ziyoratidan qaytgach, so'fiylik yo'liga kiradi. Abu Turob Naxshabiy, Yahyo Jalla Ahmad ibn Xadravayh va b. so'fiylarni T.ning piri deb hisoblaydilar. T. asarlari (ular 80 ga yaqin) so'fiylik tarixini o'rganishda ahamiyatlidir. Ularda jon, uning holatlari va harakatlari, insonning o'zini takomillashtirishi, tuban tug'ma hirs-tuyg'ularini jilovlab, o'z-o'zini poklashi zarurligi haqidagi fikrlar bayon etilgan, bu esa, keyingi davrlarda yashagan so'fiylarga kuchli ta'sir o'tkazgan. T. fikricha, aql-zakovat o'zlashtira oladigan eng oliy bilim - ma'rifat yoki hikmatdir, bu - inson qalbini yorituvchi "ilohiy nur"dir. Turfa ilmlarni o'qib-o'rganish jarayonida uni egallash mumkin, ammo, asl ma'rifat Allohning o'zi yarlagagan zotlargagina nasib bo'ladi. T. so'fiy-avliyolarni ayni shunday zotlar sirasiga kiritadi. Ilm-fanning turli sohalarida mashhur bo'lgani uchun zamondoshlari T.ni "al-Hakim" deb ulug'lashgan.

TERMIZIY YODGORLIK MAJMUASI - Termiz qal'asining shim.-g'arbida barpo etilgan me'moriy yodgorlik (10-14-a.lar). Termiziy al-Hakim maqbarasi qad. xonaqoh hujralaridan biri bo'lib, alloma shu yerda faoliyat yuritgan: muridlari, shogirdlari va b. darvishlarni qabul qilgan, ular bilan suhbatlashgan. Shu xonaqoxda dafn etilgan. Qabr ustiga Amir Temurning o'g'li Shohruh davrida katta qabrtosh o'rnatilgan. Hakim at-Termiziyning "Jome' al-usul" asari O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

TIJONIYA - Shim. Afrikadagi nufuzli so'fiylik tariqati. 18-a. oxirida Ahmad at-Tijoniy (1737-1815) asos solgan. U o'z ta'limotida Ibn Arabiy (1240 y. v.e.) qarashlariga tayangan. Tijoniy o'zini "oliy qutb" (qutb al-aqtob) va ayni vaqtda "Muhammad valiyligi muhri" (xatm al-vilaya al-muhammadiya) deb e'lon qilgan. Shunga asosan, u o'zini mutlaq "benuqson" (al-isma) ekanini, T. ta'limoti va ibodatlarini bevosita Muhammad (sav)dan olganligani da'vo qilgan. T. tarafdorlari o'zlarini "Alloh tomonidan mumtoz hisoblangan" deb sanab, boshqa musulmonlarni "adashganlar" deb hisoblaganlar. 20-a. 20-y.larida Marokash, Jazoir va Tunisda T.ga qarshi chiqishlar bo'lib, uning mavqei ancha pasaygan. Shunga qaramay, arab olamida, shuningdek, afrikaliklar orasida bugungi kunda ham T. tarafdorlari anchaganadir

TILOVAT - ko'proq Qur'on o'qish ma'nosida ishlatiladi (q. Qiroat).

TOAT (arab. - itoat qilish, bo'ysunish) -Allohga e'tiqod qilish, xatti-harakat yoki itoat etishni namoyon qilish, diniy majburiyatlarni ado etish. O'rta asr sunniy ulamolari T.ni ilohiy amrga rioya etish yoki mos kelish (muvofaqat al-amr) deb ta'riflashgan va uni bir necha darajaga bo'lishgan. T.ning insonni Alloh oldida taqvodor (mo'min) qiluvchi va unga jannatni va'da etuvchi eng yuqori darajasi - bu dinning asosi (usul ad-din)ni Allohning yagonaligi, ilohiy adolatni takdiri azal va b.ni hamda islom dinining beshta asosiy arkonini (arkon shariat al-islom: Allohning yagonaligi va Muhammad (sav) uning payg'ambari ekanini, namoz, zakot, ro'za va haj amallarini) bilishni o'z ichiga oladi. Shariat tomonidan belgilab qo'yilgan ushbu amallar (majburiyatlar)ni ado etish ham T. deb ataladi. T.ning keyingi darajalari e'tiqod qilishning sanab o'tilgan arkonlariga amalda rioya etishni, belgilab qo'yilgan diniy majburiyatlarga nafaqat rioya etishni, balki har qanday gunoxdardan xoli bo'lish uchun qo'shimcha (navofil) majburiyatlarni bajarishni ham o'z ichiga oladi. T.ning darajalarini musulmon ulamolari insonning bu dunyodagi (jizyadan, asirlikdan ozod bo'lish, musulmon odatiga ko'ra dafn etilish, xudoning marhamatiga sazovor bo'lish va h.k.) hamda narigi dunyodaga o'rni (do'zahda abadiy qolishdan xalos bo'lish, jannatga kirish tartibi va h.k.) bilan ham bog'laganlar.

TOBE'INLAR (arab. - qaram, izdosh) -islom tarixida sahobalardan keyin ularning ishini davom ettirgan ilohiyotchilar qatlami T. deb, undan keyingi davrdagi ilohiyotchilar T.ning tobe'inlari (taba T.) deb yuritilgan. T. uch tabaqa: kubro (katta), vusto (o'rta) va sug'ro (kichik) tobe'inlar. Sahobalardan ko'proq rivoyat olgan Sa'id ibn al-Musayyab, Urva ibn Zubayr, Alqama ibn Qays - kubroga, Hasan Basriy, Muhammad ibn Sirin, Mujohid, Ikrima, Qatoda, Umar ibn Abdulaziz va b. - vustoga, ko'proq T.dan rivoyat olgan Ibrohim an-Naxaiy kabilar sug'roga kirishgan. Barcha ulamolar eng mashhur va eng fozil sifatini T.dan Sa'id ibn Musayyabga nisbat beradilar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Xafif Sheroziy aytadiki:

- 1) Madina ahdi Sa'id ibn Musayyabni;
- 2) Kufa ahdi Uvays Qaraniyni;
- 3) Basra ahdi esa, Hasan Basriyni eng afzal va eng mashhur tobe'in deb biladilar.

TOSHKENT ISLOM INSTITUTI, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti - oliy diniy o'quv yurti. 1970 y. tashkil etilgan. 1971 y. okt.dan faoliyatini boshlagan. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. Dinlar tarixi va nazariyasini chuqur egallagan, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, arab tilida so'zlasha oladigan mutaxassislar, imom xatiblar tayyorlaydi. O'qish muddati 4 yil. O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun, ta'lim haqidagi boshqa hujjatlar hamda O'zbekiston musulmonlari idorasi qaror va ko'rsatmalari asosida olib boradi. Darslar o'zbek va arab tillarida o'qitiladi. Ingliz, fors va rus tillari ham o'rgatiladi.

Respublikamiz istiqboliga qadar sobiq Ittifoqda yagona oliy islom o'quv yurti bo'lgan, unda Zakavkaze, Shim. Kavkaz, sobiq SSSRning Yevropa qismi va Sibir, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorapari uchun diniy xodimlar tayyorlangan. T.i.i. O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida o'rta umumta'lim hamda o'rta maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lgan 35 yoshgacha yoshlarni

qabul qiladi.

Bu yerda 130 talaba tahsil oladi (2003 y.). Talabalarga diniy fanlar bilan bir qatorda "Islom tarixi", "Dinlar tarixi", "Arab mamlakatlari tarixi va geografiyasi" hamda O'zbekiston tarixi kabi fanlar o'qitiladi.

TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI - oliy o'quv yurti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 y. 7 apreldagi Farmoniga binoan tashkil etilgan. Asosiy vazifasi va maqsadi - islom diniga oid boy va noyob ma'naviy-madaniy merosni chukur o'rganish, uni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish, shu sohada yuqori malakali mutaxassis xodimlar tayyorlash. Un-tning f-tlari: islom tarixi va falsafasi; shariat (fiqh), iqtisod va tabiiy fanlar. Uquv bosqichlari: bakalavriat - 4 y.; magistratura - 2 y. Un-tning kafedralari - dinshunoslik, islomshunoslik; demoqratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti; falsafa; islom huquqi; xalqaro iqtisodiy munosabatlar; sharq tillari; g'arb tillari; informatika va tabiiy fanlar; jismoniy tarbiya hamda jahon dinlarini qiyosiy o'rganish bo'yicha YuNYeSKO kafedrasini. Un-tda 500 dan ziyod talaba tahsil olmoqda (2003 y.). Un-t tarkibida Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatmoqta. Uning bo'limlari: Qur'on, tafsirlarni o'rganish; islom tarixi va falsafasi; shariat (fiqh); ma'naviyat, madaniyat va san'at; manbahunoslik va qo'lyozmalarni o'rganish. Un-tda gimnaziya va akademik litsey mavjud. Un-tda "Sharqshunoslik fanlari" sohasi bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasiga ixtisoslashgan kengash tuzilgan. Un-tda manbalar xazinasini tashkil etilgan. U mamlakatimiz va xorijda mavjud bo'lgan qo'lyozma va nodir kitoblar bilan boyitilmoqda. Sharq va G'arb tillarini o'qitish maqsadida zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlangan. Hoz. kunda un-t AQSh, Angliya, Frantsiya, Gollandiya, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari va b. davlat un-tlari hamda i. t. markazlari bilan aloqalar o'rnatgan.

TULAYHA (Talha ismining kichraytirilgan shakli) - Talha ibn Xuvaylid (7-642(645) - Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng Arabistonda paydo bo'lgan soxta payg'ambarlardan biri. T. Asad qabilasi lashkarboshilaridan bo'lib, musulmonlar bilan 626 va 627 yillarda janglarda qatnashgan. O'tkir zehni va bashorat qilishi bilan shuhrat qozongan. 631-632 y. sahroda nogahon quduq topib olgach, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. U o'ziga Alloh nomidan farishta yoki Zu-n-Nun ismli shaxs vahiy keltirishini aytgan; arablarning kelajakdagi g'alabalari, xususan ularning Suriya va Iroqni zabt etishlarini bashorat qilgan. O'z qo'l ostiga Asad, Fazora va Tayy qabilalarining bir qismini to'plab, Muhammad (sav) bilan muzokara olib borishga harakat qilgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u Madinada islomni qabul qilgan, so'ngra undan voz kechgan. 632 y. Muhammad (sav) vafotidan so'ng T. qo'shini Xolid ibn Valid qo'mondonligi ostidaga qo'shin tomonidan tor-mor qilingan. T. qochgan, yashiringan, so'ngra islomni qabul qilgan va Suriya va Iroqni fath etilishida qatnashgan.

TUMOR (arab. - o'rog'liq xat, noma, yozuv) -xalq tasavvurida g'ayritabiiy, sehrli kuchga ega bo'lgan, egasini ofat va falokatlardan, yomon ko'zlardan asraydigan ashyo, bitik. Islom aqidasi ko'ra, T.ga oyat yoki hadislardan olingan duo va iltijoga oid iboralar yozilgan bo'lsa, uni taqishning zarari yo'q. Faqat uni toza saqlash, oyoq osti qilmaslik shart hisoblanadi. Yana T.ning o'zi emas, balki unda yozilgan bitiklar sharofatidan Alloh

asraydi, deb e'tiqod qilish kerak bo'ladi. Lekin T.da mazkurlardan boshqa narsalar yozilgan bo'lsa, uning na hurmati, na xosiyati bor va shar'an joiz ham emas.

TUSIY, Nosiriddin Abu Ja'far Muhammad ibn Muhammad (1201-1273/74) - faylasuf, tabiiyotshunos va diniy-siyosiy arbob. Tus sh. yaqinidagi Jaxrunda tug'ilgan. Diniy va falsafiy ilmlarni 1216 y.dan Nishopurda, shaharni mo'g'ullar bosib olganidan keyin (1222) esa, Tusda o'rgangan. 1228-55-y.larda ismoilii hukmdorlar, jumladan, Ko'histon hokimi Nosiriddin va uning o'g'li Muiniddin saroyida xizmat qilgan. T. ularga odob-axloqqa doir "Axloqi Nosiriy" va falakiyotga oid "al-Muiniyya" risolalarini bag'ishlagan, 1255-73 y.larda mo'g'ul hukmdorlari Xuloku va Abaqa huzurida mas'ul lavozimlarni egallagan. Bag'dodda vafot etgan. "At-Tajrid" ("Nutq pokligi") va "Qavoid al-aqid" ("Aqidalar asosi") asarlari fiqh hamda kalomga bag'ishlangan. T. kalom ilmi masalalarini Aristotel falsafasi asosida hal etib, bu sohada Abu Ali ibn Sino an'anasiga rioya etgan. T. so'fiylikka qiziqish bilan qaragan, o'z davrining mashhur so'fiylari bilan yozishib turgan. Tibbiyot, riyoziyot, tabiat va ayniqsa falakiyotga oid asarlar muallifi, Marog'a rasadxonasining asoschisi sifatida shuhrat qozongan. Shia doiralarida faylasuf olim sanalib, katta obro' orttirgan.

TUSIY, Shayx at-Toifa Muhammad ibn Hasan Abu Ja'far (995-1067) - shia ilohiyotchi olimi va faqih, imomiylar namoyandasi. Imomiylar (ja'fariya) fiqhini tuzgan. Xurosonda tug'ilgan. 23 yoshida Iroqqa borib, imomiy shayxlar qo'lida besh yil tahsil ko'rgan. Keyinchalik chuqur bilimi tufayli Bag'dodda imomiylar jamoasining peshvosi deb tan olingan. Abbosiy xalifa al-Qoim bi-amrilloh T.ni ilohiyot minbariga rahbar etib tayinlagan. T. ma'ruzalaridan bahramand bo'lgan shogirdlari soni 300 ga yetgan. Shia ulamolari T. 47 asar yozgan deb hisoblaydi, ulardan 13 tasi saqlanib qolgan. Shialarning keyinga barcha avlodlari mazkur asarlarga shialik aqoidi va fiqhi bo'yicha ishonchli manba deb qaraydilar. T.ning "Tahzib al-ahkom" ("Xukmlarni isloh qilish") va "al-Istibror" ("Sinchkovlik") asarlari - shialik olamida tan olingan to'rtta hadis to'plamining ikkitasi - asosiy to'plam sanapadi. T.ning "at-Taxlis" ("Najot") asarida imomiylarning imomat haqidagi ta'limoti batafsil bayon etilgan. 20 jildli "Tafsiri Tusiy" asarida esa, Qur'ondagi ilohiyot masalalari shialar nuqtai nazaridan sharxdangan. "Al-Fihrist" ("Mundarija") kitobi shia mualliflari haqida dastlabki to'liq ma'lumotni beradi. T. nomi va asarlari hoz. Eronda juda qadrlanadi. Tehronda T. tavalludining 1000 yilligi tantanali nishonlandi.

TUSTARIY, Abu Muhammad Sahl ibn Abdulloh (taxm. 818-896) - ilk mutasavviflardan, mutafakkir. Tustar (Shushtar)da arab yoxud fors mavoli oilasida tug'ilgan. So'fiylik ta'limini amakisi Muhammad ibn Savvardan olgan. Yoshligida Basra va Obodonga borib shayx Abu Habib Hamza al-Obodoniydin ta'lim olgan. 834 y. Makkaga hajga borib, mashhur Zu-n-Nun al-Misriyni uchratgan va unga shogird tushib, g'oyaviy merosxo'ri bo'lgan. Tustarga qaytgach, T. deyarli yigirma yil zohidlikda yashagan: doimiy ro'za tutib, yolg'izlikni ixtiyor etgan, tunlari bedor bo'lgan va b. Faqat Zu-n-Nun vafotidan so'ng (860 y.) u ochiq va'z bilan chiqishga jur'at etgan va bu bilan ko'plab tarafdorlar va raqiblar orttirgan. Raqiblarning tazyiqi, siyosiy notinchlik (safforiylar isyoni, qul-zanjiylar qo'zg'oloni) T.ni Basraga ko'chishga majbur qilgan. Bu yerda u umrining oxiriga qadar solih amallar va mudarrislik bilan shug'ullangan. T.ni o'nga yaqin asarlar yozgan deb

hisoblashadi. Qur'onni majoziy talqin qilgan T. bir qator qoidalarni olg'a surgan, ular so'fiylik gnoseologiyasi, kosmogoniyasi va psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning fikricha, olam yaralishidan avval insonlarning ruhdari va xudo o'rtasida "bitim" (miysoq) imzolangan; ruhdar xudoni o'zlarining egasi, rabbi deb e'tirof etishgan (Qur'on, 7:17) va o'zlarini Uning panohiga topshirishgan. Buning evaziga ularga Qiyomat kuni "Haqning jamolini ko'rish baxti" (mushohadat al-haqq) ato etilgan.

T. shogirdi Muhammad ibn Salim va uning o'g'li Ahmad ibn Salim Basrada ilohiyot maktabi barpo etishgan, u as-salimiya deb nomlangan. Bu maktab T. qarashlarini keyinga avlodga yetkazgan.

TO'FON (arab. - suv toshqini) - yahudiy masihiy va islom dinlarining ilohiy kitoblarida naql etilgan olamning suv bosishi. Qur'oni karimning bir necha oyatlarida bu voqea Nuh payg'ambar davrida sodir bo'lgani qayd etilgan. T. balosining ro'y berishiga bois - Nuh (as) ko'p yillar mobaynida o'z qavmini Allohning yagonaligi va o'zining payg'ambarligini tasdiq etishga itoatsizlik qilmaslikka, soxta ma'budalarga sig'inmaslikka chaqiradi. Lekin qavmi unga quloq solish o'rniga uni masxara qilib kundan-kunga haddan oshaveradi. Toqati toq bo'lgan payg'ambar ular sha'niga duoi bad qilib ularga qirg'in balosini Allohdan so'raydi Duosi ijobat bo'ladi. Allohning buyrug'i b:-n u katta bir kema yasaydi va unga barcha jonivorlardan bir juftdan oladi. O'zi va oila a'zolari ham kemaga minadilar. Qolgan barcha osiy insonlar va jonivorlar T natijasida halok bo'ladi. Bu kema ko'p qavatli bo'lib, uning oldi qismi xo'rozning boshi shaklida, orqa qismi esa, uning dumi ko'rinishida bo'lgan; rivoyatlarga ko'ra, kemaga birinchi bo'lib chiqqan jonzod - chumoli so'nggisi - eshak va u bilan birga Iblis (Shayton) chiqib olgan. Kemada Odamatoning jasadi saqlangan. Bo'ron to'xtagach, Nuh (as) quruqlikni izlash uchun qarg'ani yuborgan, biroq u yer va yegulikni topgach, qaytib kelmagan. So'ngr kaptar yuborilgan, u yangi butoqcha olib kelgan Buning mukofoti evaziga kaptarga chiroyli shoda tuhfa etilgan, u shundan buyon barch kaptarlarning bo'ynini bezab turadi. Nux kemasi Judiy deb nomlanuvchi tog' ustida to'xtaydi. Keyingi ma'lumotlarga qaraganda kema qoldiqlari Ararat tog'lari ustidan topilgan.

- U -

UVAYS QARANIY (? - 657) - so'fiylikdagi uvaysiya tariqati asoschisi. Muhammad (sav) davrlarida yashagan bo'lsa ham u zot'bilan uchrashmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Rasululloh (sav) Uhud tog'i etagidagi jangda (625 y.) muborak ikki tishlaridan ajralganlarida (boshqa manbalarga ko'ra oldingi pastki jag'laridaga bir tishga tosh tegab maydalab yuborgan) bundan xabar topgan. U.Q Muhammad (sav)ga bo'lgan yuksak hurmati yuzasidan, ul zotga dushmanlar yetkazgan sitamni o'zida sinash maqsadida avval bir tishini, so'nfa shubhaga o'rin qolmasliga uchun o'zining barcha tishlarini sug'urib olgan. Muhammad (sav) unga sahobalar qatoriga qo'shilishini taklif etganlar. Uvays 70 yoshli onasidan Rasululloh (sav) huzurlariga borishga izn so'ragan. Onasi undan payg'ambar (as)dan bu hakda so'rashni maslahat qilgan. Muhammad (sav) keksa onaning xizmatini ado etish barcha narsadan a'lo ekanligini aytib, unga onasining yonida qolishga ruhsat berganlar. Muhammad (sav) vafotlari oldidan hazrati Aliga xirqalarini U.Q.ga topshirishni vasiyat qilganlar. U.Q. Ali(kv)ning Muoviya bilan bo'lgan Siffin jangada xalok bo'lgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, U.Q. Xo'tanda vafot etib, shu yerga dafn etilgan.

UZAYR - Qur'onda nomi zikr etilgan shaxs; yahudiylar uni Allohning o'g'li sanashlari musulmon aqidasi ko'ra, xuddi xristianlarning Isoni Xudoning o'g'li deyishlari kabi jinoyat hisoblanadi. Qur'onda bir marta eslatilgan: "Va yahudiylar aytdilar: "Uzayr - Allohning o'g'li". Va xristianlar aytdilar: "Xaloskor - Allohning o'g'li" (9:30). Odatda U. Bibliyadagi payg'ambar Ezra bilan aynan hisoblanadi, Yahudiylar Nuh kemasi va Tavrotni yo'qotgach, U.dan Tavrotni o'rganganlar, bu bilimni esa, U.ga Alloh tushirgan. Kema qaytgach va Tavrotning asl matni qo'lga tekkach, U. aytgan barcha narsalar to'g'riligi, unga mos kelishi aniq bo'lgan. Bundan hayratga tushgan isroilliklar U.ni ilohiy - Allohning o'g'li deb bilganlar.

UZZO ("Qudratli ayol xudo") - qad. arab ma'budasi; 5-6-a.larda Arabistonning ko'p yerlarida, xususan Hijoz, Xiro, Nabateyada U.ga topinilgan. Makka yaqinidagi Xurad vodiysi Suriya va Iroqqa boradigan savdo yo'lining boshida joylashgan bo'lib U.ga topinishning asosiy markazi hisoblanadi. U. ibodatxonasi (al-Uzzo as-Sa'ida) "muqaddas hududda" joylashgan bo'lib, unda uchta muqaddas narsa -samura (akatsiya), muqaddas tosh, bino (bayt) bo'lgan. U yerda qurbonliklar qilinib olishdan ko'mak so'rashgan, uni muntazam ziyorat qshshb turishgan. U. qurayshiylarning uchta asosiy ma'budalari (al-Lot, Manot bilan birga)dan biri bo'lib, ba'zan al-Lot va Manot U.ning qizlari deb atalgan. Makka fath etilgandan so'ng Muhammad (sav) topshiriqlariga ko'ra Xolid ibn Valid U. ibodatxonasini buzib, daraxtlarni chopib tashlagan.

UZLAT (arab. - chekinish; kishilardan chetlashish; uzlat etish - yolg'izlikni ixtiyor qilish) - xoli joy; tanholik; hech nimaga bog'lanmaslik; dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik. So'fiylar uchun Muhammad (sav)ning Hiro tog'ida o'tkazgan U.dagi hayotlari ibrat va namuna bo'lgan. Tasavvufda U. deyilganda shayx, pir, murshid rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir gushada berkinib, ibodat va zikr orqali Alloh bilan zohiran aloqa bog'lashi tushuniladi. Kamida 40 kun davom qiladigan bu

jarayonga "chilla" deyilgan. Din va tasavvufda hayotni batamom xilvatda o'tkazish lozimligi zinhor targ'ib etilmagan. Tasavvufga ko'ra, U. hayotdan qochish, kundalik turmushdan ajralib yashash, odamlardan bezish ehtiyojimas, balki ma'lum muddat ruhiy kamolotga erishib, yana faoliyatni davom ettirishdir.

ULAMO (arab. - olim so'zining ko'pligi -bilimdon) - islom ilohiyotchilari va huquqshunos (faqih)lari, shuningdek, diniy muassasalarga, sud (qozilik) mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha islom dini olimlari.

UMAVIYLAR - arab xalifalari sulolasi (661-750). Asoschisi - makkalik yirik savdogar va qurayshiyar zodagoni Abu Sufyonning o'g'li Muoviya. Qurayshlar Makkadagi badavlat qabilalardan hisoblangan. Muoviya xalifa Ali ibn Abu Tolib hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan. 658 y.da ular o'rtasida urush boshlandi. Uch oy davom etgan urush natijasiz tugadi. Ali vafoti (661)dan keyin arab zodagonlari va harbiy boshliqdar yordamida Muoviya xalifalik taxtini egallaydi. U. bir qancha ma'muriy va harbiy islohotlar (xalifa lavozimini nasliy merosga aylantirish, davlat xazinasi hamda davlat arxivini tashkil etish, arab tilini davlat tili deb e'lon qilish va b.) o'tkazdilar. Bu tadbirlar U. davlatining harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudratini oshirdi. U, poytaxti Damashqda qoldi (shuning uchun adabiyotlarda U. hukmronligi davri Damashq xalifaligi deb ham ataladi). Suriya xalifalikning markaziy viloyatiga aylandi. U. davrida arablar sharkda Tabariston, Jurjon, Movarounnahr va Sindni, G'arbda Shim. Afrika va Ispaniyaning katta qismini bosib oldilar. U.ga qarshi xalq ko'p marta qo'zg'olon qildi. 747-750 ylarda Abu Muslim rahbarligidagi qo'zg'olon natijasida hokimiyat abbosiylar qo'liga o'tdi. U. avlodi deyarli qirib tashlandi. Ulardan bir kishi - Abdurrahmon tirik qolib Ispaniyaga qochdi va u yerda U. davlatining yangi sulolasiga asos soldi. U. xalifalari abbosiylar an'anasida asosan zo'ravonlik bilan davlatni qo'liga olgan, islomning to'g'ri yo'lini buzib hukmronlik qilgan shaxslar sifatida baholandi. Abbosiylarning hokimiyatga kelishi islom hokimiyatining qayta tiklanishi deb ta'riflandi.

UMAR ibn Xattob (ra) (taxm. 585-644) -dastlabki to'rt xalifadan ikkinchisi (634-644). Islomni taxm. 616-y. qabul qilgan. Muhammad (sav)ning yaqin safdoshlaridan biri, u zot olib borgan barcha janglarda qatnashgan. Abu Bakrning xalifa bo'lib saylanishining tashabbuskori, uning yaqin maslahatgo'yi bo'lgan. Abu Bakr (ra) o'limidan avval U. (ra)ni o'z o'rniga tavsiya etgan va jamoat U. (ra)ga qasamyod qilgan. U. (ra)ning o'n yillik xalifalik davrida islom Iroq, Suriya, Misr, Liviya, Eronning g'arbiga tarqaldi. Arab-musulmon saltanati tarkib topa boshladi. Uning davrida barcha asosiy ma'muriy-huquqiy muassasalar, avvalo, soliq-o'lpon tizimi tuzildi. Bulardan eng muhimi fath etilgan yerlarni bo'lib olinishini man etilishi va buning o'rniga devon ro'yxatiga kiritilgan barcha sahobalar va jangchilarga maosh (ato) va oziq-ovqat ulushi (rizq) to'lashni joriy etish bo'lgan. Musulmonlar jamoasi tez orada ruhoniylar idora etadigan davlatga aylandi. Bu hol U. (ra) xalifa unvoniga birinchi bo'lib qo'shimcha amir al-mo'minin (mo'minlar hukmdori) unvonini qabul qilishida ham ifodalandi. U yangi musulmon yil hisobi - hijriy yil taqvimini joriy etdi (rabi ul avval oyining 16 kuni - mil. 637 y. apr.). Har yili haj amali borasidagi diniy-huquqiy farmoyish ham U. (ra)ga nisbat beriladi. Sunniylar tarixiy an'anasida U. (ra)ni risoladagidek hukmdor, ya'ni taqvodor, kamsukum, musulmonlarga nisbatan adolatli, dushmanlarga beshafqat inson, "Umari odil", hukmronlik davrini esa,

islomning "oltin asri" deb tavsiflashgan. Mil. 644 y. Basra voliysi Mug'iyra ibn Shu'baning quli nasroniy Abu Lu'lua U. (ra)ga xanjar sanchib yaralagan va shu kuni kechqurun U. (ra) 63 yoshda vafot etgan. O'limi oldidan o'z o'rniga yangi xalifa saylash uchun Muhammad (sav)ning olti nafar eng keksa safdoshlaridan iborat sho'ro tuzgan va shu kengashlardan birida Usmon (ra) xalifa etib saylangan. Vasiyatiga ko'ra, Oisha onamizning hujralariga, Rasuli Akram va Abu Bakr Siddiq yonlariga dafn etilgan.

UMAR ibn ABDULAZIZ, (Umar II), (681-720) - umaviylar xalifasi (717-720), Umar I ning evarasi (ona tomondan); musulmon mualliflari uni yakdillik bilan Umaviylar orasida yagona taqvodor xalifa deb hisoblashgan. Uning shaxsi va davlat tadbirlari haqidagi ma'lumotlar juda chalkash, chunki 9-a. 1-yarmidayoq musulmon tarixshunosligvda haqiqiy ahvol buzib talqin qilingan U. i. A.ning turmushdagi obrazi shakllangan. U. i. A. Misrda (yoki Madinada) tug'ilgan. U yerda Misr noibi bo'lgan otasi vafot etguncha (704 yoki 705 y.) yashagan; Damashqqa ko'chib o'tgach, amakisi xalifa Abdulmalikning qiziga uylangan. 706-712 (713 y.) ylarda Madina noibi bo'lgan, Abdulmalik buyrug'i bilan Muhammad (sav)ning oddiygina masjidlarini qayta qurgan, uni ancha kattalashtirgan va hashamatli qilgan, qurilishga vizantiyalik ustalar jalb qilingan. U serhasham kiyimi va xushbo'y atirlarga katta pul sarflashi bilan shuhrat qozongan, shoirlarga homiylik qilgan, o'z doirasidagi kishilardan hech bir ajralib turmagan. Xalifa bo'lgach, u rivoyatlarga ko'ra, nafaqat o'ziga tegishli xalifalik merosidan voz kechgan, balki barcha mol-mulkini va barcha qullarini sotib, tushgan pullarni xayriya maqsadlariga sarf qilgan va kuniga yegulik uchun ikki dirham bilan qanoatlangan, suvni o'zi tashigan, xotini non yopib, uning yagona libosini yuvgan. Ishonchli manbalarning birontasi bularni tasdiqlamaydi, aksincha, ma'lumki uning bir necha xotini, cho'rilari va o'n beshga yaqin farzandi, ko'plab xizmatkorlari bo'lgan. Faqat U. i. A. taxtga chiqqach, ilgariga qaraganda kamtarona turmush tarzi kechira boshlagan deyish mumkin, xolos. U. i. A. xalifalikni yemirib tashlayotgan ijtimoiy va etnik ziddiyatlarni yumshatishga uringan, shu maqsadda hayotga shariat normalarini, avvalambor soliq solish sohasidagi o'zgarishlarni birin-ketin joriy eta boshlagan. U. i. A. musulmonchilikni qabul qilganlarni jizya to'lashdan ozod etgan, jangchi-mavolilarga maosh belgilagan, bo'sundirilgan xalqlar bilan tuzilgan bitimlarga rioya etishni talab qilgan (shunga binoan, Qutayba tomonidan Samarqanddan kuvg'in qilingan sug'diylarga hakamlar sudiga shikoyat bilan murojaat qilishlariga imkon bergan), ruhoniylar va rohiblardan soliq olishni bekor qilgan. Uning davrida musulmon arablarning maoshlari oshgan, shuning uchun viloyatlardan markaziy xazinaga tushadigan mablag'lar kamayib ketgan. Natijada U. i. A. yangi bosqinchilik yurishlaridan voz kechishga majbur bo'lgan, hatto notinch Movarounnahrda arablarni olib chiqib ketish ehtimoli ham yo'q emasdi. U. i. A. xorijiylar, alaviylar va abbosiylar bilan kelishishga intilgan. U. i. A. Xunasir (Shim. Suriya)da vafot etgan va yaqin oradagi Simeon (Dayr Sim'an) monastiriga dafn qilingan, uning qarda joylashgani 13-a.dayoq noma'lum edi.

UMM al-VALAD ("go'dak onasi") - umm al-ibn ("o'g'il onasi") - erkin ayoddan farqli ravishda o'z xojasidan o'g'il tuqqan cho'ri. Johiliyatda va islomning dastlabki davrida U. al-V.ni boshqa cho'rilardan hech qanday farqi bo'lmagan: ularni sotish, almashtirish, in'om etish va b. mumkin bo'lgan. Ular maqomining o'zgarishi xalifa Umar (ra) ibn al-Xattob (634-644) bilan bog'liq, u ularni sotish va boshqalarga berishni taqiqlagan. Agarda cho'rining xojasi tug'ilgan go'dakni o'g'lim deb e'tirof etsa, cho'ri U. al-V.ga

aylangan. Aks holda esa, cho'ri va farzandi oddiy kul bo'lib qolishgan. Xojasi hayotlik chog'ida U. al-V. faqat unga nisbatangana cho'ri bo'lgan, uning vafotidan keyin to'liq ozodlikka chiqqan. Xizmat munosabatlarida U. al-V. shartli ozod qilingan qullarga (mukotab, mudabbar) tenglashtirilgan, ya'ni ishga qisman layoqatli deb topilgan. U. al-V.ni go'dak vafot etgan hollardaga maqomi to'g'risida yagona fikr yo'q: ba'zi mazhablarga ko'ra, u o'z maqomini saqlab qolgan, chunki ozod qilish haqida berilgan va'dani qaytarib bo'lmaydi, boshqa bir fikrga ko'ra, u yana oddiy cho'riga aylangan, chunki, ozod bo'lishining sharti bo'lgan go'dak vafot etdi. agar cho'ri homiladorlik chog'ida sotilgan bo'lsa va bu holat ma'lum muddatdan so'ng oshkor bo'lsa (idda), u o'zining ilgari xojasinikiga uning U. al-V.i sifatida qaytib kelgan, oldi-sotdi esa, o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblangan. Hoz. davrda U. al-V.ning maqomi bilan bog'liq barcha masalalar qulchilik singari o'tmishda qolmoqda.

UMMA (arab., o'zbek tilida uning "ummat" shakli tarqalgan - ma'lum dinga e'tiqod qiluvchilar jamoasi) - Madinada Muhammad '(sav) izlaridan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi. Shuvdan Muhammad ummati deyilganda ana shu jamoa a'zolari tushuniladi. Keyinchalik ummat umuman musulmonlar mazmunida talqin etilgan.

UMRA - islom an'anasida kichik haj. U. Qur'on oyati va Payg'ambarimiz (as) sunnatlari ila sobit bo'lgan amal. U.ni yil - o'n ikki oy bajarish mumkin. U.ning ikkita farzi bor. 1. Ehrom; 2. Ka'bani tavof qilish. Bir kishi Makkaga borganda bir necha bor o'ziga, otasiga, onasiga, yaqinlariga U. qilishi mumkin. Faqat har bir U. uchun Makkadagi hazrati Oisha masjidlariga borib, yuvinib, ehromni kimga U qilayotgan bo'lsa, o'sha kishiga niyat qilib kiyadi.

URS (sinonimi valima) - to'y tantanasi. -Nikoh to'yining bosqichi bo'lib, unda nikoh shartnomasi (siga) e'lon qilinadi va mahr yoki uning bir qismi (sadaq) to'lanadi. U. rasmiy nikohni bildiradi. Biroq, U.dan amaliy jihatdan turmush qurilguncha (nikoh) ancha vaqt o'tishi mumkin. Chunki, turmush qurayotganlar balog'at yoshiga yetmagan bo'lsalar, to'y ilgariroq o'tkazilishi mumkin.

USMON ibn Affon (ra) (taxm. 575- 656) -dastlabki to'rt xalifadan uchinchi. Umaviylar qabilasiga mansub. Makkalik boy savdogar. Muhammad (sav)ning eng dastlabki izdoshlaridan biri. Musulmonlar guruhi bilan Habashistonga ko'chgan, 623 y.da Madinaga kelgan. U. (ra) dastlab Payg'ambar (as)ning qizlari Ruqayyaga uylangan (taxm. 610), u vafot etgach, Rasululloh ikkinchi qizlari Ummu Gulsumni ham U. (ra)ga nikoxlab berganlar (623), shuning uchun "Zun-Nurayn" - ikki nurli, degan nom olgan. Umar (ra)ning o'lim oldidagi vasiyatiga ko'ra, U. (ra) yangi xalifani saylashi lozim bo'lgan sho'ro tarkibiga kirgan va ular tomonidan xalifa qilib saylangan. U. (ra) hukmronligi davrida Sosoniylar davlatini fath etish tugallandi, musulmonlarning Tunis va Kavkazorti o'lkalaridagi mavqei mustahkamlandi. U. (ra)ning buyrug'i bilan Qur'oni karim matni to'planib, bir butun (mushaf) kitob shakliga keltirildi va bu 7 mushaf turli o'lkalarga tarqatildi, Masjidi Nabaviy kengaytirilib, qayta ta'mirlandi, Rumo arig'i qazildi. Umrining oxirgi yillarida birinchi bor xalifaga muxolifat yuzaga keldi, qo'shin va viloyatlardagi zodagonlar o'rtasida U. (ra) siyosatiga qarshi norozilik kuchayib, U. (ra)

Madinada, Qur'on o'qib turgan chog'ida dushmanlari tomonidan o'ldirilgan. Uning qoni Qur'on sahifalariga sachragan. Ushbu Qur'on muqaddas yodgorlik sifatida O'zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi (yana q. Mushaf).

USUL ad-DIN (arab. din asoslari, islom asoslari) - islom shariati va dindan olingan e'tiqodiy hukmlarni bahs qiluvchi ilm. Bu ilm asl bo'lib, boshqa diniy ilmlar unga ergashadi. Bu nom Alloh taoloning "Uning asli sobitdir, far'i-shoxi esa, osmondadir" (Ibrohim surasi, 24) oyatidan olib shar'iy hukmlarni asllarga va far'larga taqsim qilingandan keyin (8-a.) kelib chiqib, uni birinchi bo'lib Imom Abul Hasan aya-Ash'ariy ishlatgan. U kishi o'z kitobini "al-Ibona an usul ad-diyona" deb nomlagan. Keyin esa, Abdul Qohir al-Bag'dodiy al-Ash'ariy (1037 y. v. e.) "Usul ad-din" kitobini yozgan. Undan oldin esa, al-Lolkoiy "Usul us-sunna" kitobini yozgan (1026 y. v. e.). Shundan keyin bu ism mashhur bo'lib ketgan. Aqid masalalari dinning asli bo'lgani uchun bu ilmning faqat nomiga emas, o'ziga ham katta e'tibor berilgan. Musulmonlar o'rtasida U. ad-d. ni o'rganish katta ahamiyatga ega bo'lgan. U. ad-d. ni bilmagan odamning ibodati ham durust bo'lmasligi hammaga uqtirilgan. U. ad-d. bilan shug'ullanuvchi olimlar katta obro'ga ega bo'lganlar. Hozirgi paytda musulmonlar ommasi ichida U. ad-d. istilohi keng tarzda ishlatilmaydi. Uning o'rniga aqid so'zi ishlatiladi. Ammo, islomiy o'quv yurtlaridagi aqid masalalarini o'rgatuvchi kulliyalar "U. ad-d. kulliyasi" deb nomlanadi.

USUL al-FIQH (arabcha - fiqh "ildizlari", asoslari) — musulmon huquqi asoslari (fiqh-huquq), huquq uslubi (fiqh-huquqshunoslik): 1) Qur'on; 2) sunna; 3) ijmo'; 4) qiyos. Ana shu to'rt "ildiz" asta-sekin barcha islom maktablari tomonidan e'tirof qilindi, ammo, so'nggi ikki "ildiz"ning ahamiyati va imkoniyatini turli mazhab namoyandalari har xil talqin qiladilar. 8-9-a.larda fikl rivojlanishi va asosiy diniy huquq maktablari rasmiylashuvi bilan birga U. al-f.ning klassik kontseptsiyasi tarkib topdi. Bu esa, huquqning asta-sekin diniy-estetik qadriyatlarga va oliy maqsadlarga bo'ysunishi, uning musulmonlar zimmasiga yuklangan majburiyatlar majmuasiga qo'shilishi natijasi bo'ldi. Ayni vaqtda ayrim musulmon faqihlar huquqiy masalalarni oqilona bir tizimga solish va shaxsiy fikr (ray) asosida hal etishga intilsa, boshqalari barcha fiqh me'yorlarini pirovard natijada xudoning vahiyi deb hisobladilar. U. al-f. kontseptsiyasining rivojlanishi avvalo, Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (820 y. v.e.) nomi bilan bog'liq. U "Kitobil-umm" to'plamiga kirgan "ar-Risola" asarida fiqhshunoslik asoslarini bayon etdi hamda birinchi bo'lib fiqhni aniq-tiniq ta'riflab, uning manbalari tizimini ishlab chikdi (q. Shofi'iylik). U. al-f.ning klassik nazariyasi shunga asoslanadiki, Qur'on va sunna (payg'ambarning hadislarini) fiqhning asosiy manbalaridir, chunki, ular aniq-ravshan fe'l-atvor qoidalarini bevosita o'z ichiga oladi yoki ularni ilohiy vahiydan anglab olishning oqilona usullarini ko'zda tutadi. Ijmo' uchinchi manba hisoblanadi, bu ibora bora-bora Qur'on va sunnada to'g'ridan-to'g'ri hal etib berilmagan masalalar yuzasidan eng e'tiborli huquqshunos - mujtahidlarning yakdil fikri deb tushuniladigan bo'ldi. Qur'on va sunnada aniq javob berilmagan savollarni o'xshashligiga qarab hal etish usuli - qiyos fiqhning to'rtinchi manbai deb e'tirof qilinadi. Bundan tashqari U. al-f.ning klassik kontseptsiyasi huquqiy yechimlarni izlashning boshqa oqilona usullaridan qo'shimcha fiqh manbalari sifatida foydalanishga yo'l qo'yadi. Qiyos kabi ular ham avval boshdan oq ko'zda tutilgan asosiy manbalari deb va ijtihodga kiritilgan aniklik deb hisoblanadi. U. al-f. nazariyasi musulmon huquqi tafakkurining turli yo'nalishlari (oqimlari) tomonidan har xil talqin etiladi. Mazhablarga xos bo'lgan qarashlardagi tafovutlar ularning fiqh manbalari, shu

jumladan asosiy manbalar haqidagi tushunchalarga ham taalluqlidir. Chunonchi, molikiylar ijmo'ni barcha mujtahidlarning emas, balki Madinada yashovchi savodli kishilarning mushtarak fikri deb hisoblaydilar. Zohiriylar va ayrim hanbaliylar payg'ambar sahobalari (choryorlar)ning yakdil fikrinigana e'tiborga oladilar. Ja'fariylarning U. al-f. haqidagi tasavvurlari o'ziga xosliga ular qabul qilgan imomat kontseptsiyasi bilan izohlanadi. Shu sababli ular sunnadan tashqari eng mo'tabar o'n ikki imomning fikriga ham murojaat qiladilar. Huquqiy masalalarni hal etishda turli aqliy usullarni qo'llash sohasida mazhablar o'rtasidagi tavofut juda yaqqol ko'rinadi. Mas., hanafiylar istihsondan, molikiylar esa, istislohdan keng foydalanadilar. Ayni vaqtda ko'pgina ja'fariylar qiyosga shubha bilan qaraydilar, ba'zilari hatto uning fiqh manbai ekanini mutlaqo inkor etadilar. Bunday tavofutlar huquq sohasidagi amaliyotning xilma-xilligini aks ettirgan, mazhablar o'zlarining fiqh manbalari haqidagi tasavvurlarini ana shu amaliyot asosida rivojlantirganlar. Umuman olganda, U. al-f.ning klassik kontseptsiyasi aksar hollarda fiqhning qaror topishi va rivojlanishidagi haqiqiy jarayonlarni o'rganishga, uning asl manbaparinu umumlashtirishni emas, balki hatto aqliy yo'l bilan, aslida ilohiy vahiy yordamida ulug'langan manbalar vositasida ta'riflangan me'yorlarni rasmiy asoslashni nazarda tutadi. Shu yo'l bilan fiqhning barqarorligiga ta'minlanadi, uning har qanday tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga muvofiqligi mafkuraviy jihatdan asoslanadi. U. al-f.ning o'rta asrlar huquqshunoslari ishlab chiqqan klassik kontseptsiyasi zamonaviy musulmon huquqshunoslari tomonidan unchalik o'zgarishsiz qabul qilingan va fiqhning nazariy asosi deb hisoblanadi. Shu sababli hoz. zamon huquqshunoslarining umumnazariy tadqiqotlari, umuman, mazkur kontseptsiyaga asoslangan bo'lib, ko'p jihatdan o'tmishga qaratilganligi va hoz. voqelikni e'tiborga olmasligi bejiz emas.

USULIY - imomiylar diniy-huquq tizimidagi oqimlardan biri. Unda shariat masalalarida qiyos va ijmo' asosida obro'li ilohiyotchilarning bergan fikrlariga asoslanish kengroq o'rin olgan. Shuning uchun U. imomiylar orasida axboriylardan ko'ra kenfoq tarqalgan.

USHR (arab. - o'ndan bir) - musulmon mamlakatlarida natura shaklida (ba'zan pul bilan) davlat foydasiga, ba'zan kambag'al, yetim-esirlar hisobiga undirilgan soliq. Har yili dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. U. olingan yer-suv "mulki ushriya" deb atalgan. Turli davrlarda U. shakli mahalliy shart-sharoitga ko'ra o'zgargan. Mas., Usmonli turk imperiyasida - o'nta, o'ntalik, salariy'a; Eron, Buxoro amirligi va b. joylarda - dahyak deb yuritilgan. Keyinchalik yangicha daromad solig'i joriy etila boshlagach, U. ba'zi joyda (1918 y. Jazoir, 1925 y. Turkiyada, 1935 y. Tunisda) bekor qilindi. Ammo ayrim musulmon davlatlarida hozir ham mavjud. Urta Osiyoda 20-a. boshigacha U. saqlangan.

UHUD JANGI (Uhud - Madina sh. yaqinidagi tepalik nomi) - 625 y. 23 martda Uhud tepapigida musulmonlarning makkaliklar bilan bo'lgan jangi. Badr jangida makkalik mushriklar mag'lubiyatga uchrach, musulmonlardan o'ch olmoqchi bo'lishgan. Makkaliklar 3000 ga yaqin jangchidan iborat bo'lib, jumladan 200 ta otlik askar, 800 ta sovut kiygan jangchi, Muhammad (sav)ning esa, 700 ta piyoda askarlari bo'lib, shulardan 100 tasida sovut bo'lgan. Makkaliklar jang maydonida yaxshi mavqeni egallagan edi. Muhammad (sav) ham askarlarini kerakli joyga joylashtirib tepalik tomonini qo'riqlash uchun 50 ta kamonchini qo'yib, ularga bu yerdan hech yerga

siljimaslikni tayinlaganlar. Jang dastlabki paytda musulmonlar foydasiga hal bo'la boshladi. Ular ayni dushmanni ta'qib etadigan paytda g'animat (o'lja) to'plashga tushdilar. Kamonchilar ham o'ljasiz qolib ketmaslik niyatida o'z turgan joylarini tashlab ketdi. Bundan foydalangan makkaliklarning Xolid ibn Valid boshchiligidagi otliq qo'shini musulmonlar qo'shini orqa tomoniga o'tib hujum qildi. Bu jangda musulmonlar ko'p talafot ko'rdi: Muhammad (sav) qurshovda qolib, yaralanganlar, 70 dan ortiq kishi halok bo'lgan. Makkaliklar esa, 19 kishisini boy berdi. Musulmonlar bu jangda raqib ustidan yengilgina g'alaba qozonamiz deb o'ylashgan edi. Musulmonlar muvaffaqiyatsizlikka uchraganligining sababi Qur'on oyatlarida bayon etilgan (3:145/152 - 169/175).

- V -

VAZIR (arab., fors.) - davlat ma'muriy boshqaruvi rahbari. Qur'onda (20:29/30; 25:35/37) bu so'zning dastlabki ma'nosi - "yordamchi" shaklida uchraydi; mana shu ma'noda u Muhammad (sav) vafotlaridan keyin xalifa tayin etish paytida muhojirlar bilan ansorlar o'rtasidagi munozarada uchraydi. Muhojirlar ansorlarga "Bizdan - amir, Sizdan - vazir" deyishgan. Abbosiylarning birinchi V.i Abu Salama bu unvonni "sulola yordamchisi" faxriy unvonining tarkibiy qismi sifatida olib yurgan. Faqat Mansur davri(754—775)dagina V. ma'muriy boshqaruv apparat rahbari ko'rinishida paydo bo'lgan. O'rta asr arab (keyinchalik fors) tarixiy va adabiy asarlarida V. sosoniylarning vuzurg framandori deb ataladi. Ehtimol ularni o'xshatishlariga "V." va "vuzurg" so'zlarini ohangdoshligi hamda abbosiylar davridagi V. bilan vuzurg framandorning vazifalari bir xil bo'lganligi ta'sir etgan bo'lsa kerak. V.ni davlat ma'muriy boshqaruvi rahbari sifatida yuzaga kelishi, so'zsiz abbosiylar davrida Eron madaniy an'analarini qayta tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan. V.ning asosiy faoliyat sohasi - ma'muriy, moliya, armiya va adliya ishlari odatda uning zimmasiga yuklatilmagan, amaldagi hokimiyat mavqei muayyan shart-sharoitga va V.ning shaxsiga bog'liq bo'lgan. 10-a.dan barcha yirik hukmdorlar, ayniqsa xalifalikning sharqiy qismidagi hukmdorlarning V.i bo'lgan G'arbda aynan shu vazifalarni ijro etuvchi kishi ko'pincha boshqa nom bilan yuritilgan. Usmonli turk saltanatida bir necha V. bo'lgan, ulardan faqat ulug' V.gana sulton huzuriga kirib axborot bera olgan. Ahmad III davri (1703-30)da faqat bir kishi V. unvoniga ega edi, keyinchalik bu unvon yirik viloyatlarning posholariga berilgan, haqiqiy vazirlik ishini esa, faqat ulug' V. olib borgan, u ayni vaqtda sulton muhrdori ham bo'lgan. Yevropa ta'siri kirib kelishi bilan V. atamasi yevropaliklarning ministriga aynan bo'lib qolgan. O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan V. istilohi qayta amaliyotga kiritildi (mas., Bosh V., Vazirlar Mahkamasi va b.).

VAKIL OTA - musulmonlarning nikoh marosimlarida kelin tarafidan tayinlanadigan vakil. V. o. kuyovga va nikoh qiluvchi (o'quvchi) domlaga qizning otasi o'rnida kafillik bergan. Nikoxda kuyov tomonning kelin mahriga beradigan mol-mulki, kuyov va kelinning o'zaro majburiyatlari V. o. huzurida e'lon qilingan. Mabodo er-xotin ajraladigan bo'lsalar, mahrnin ajrim qilishda V. o. qozi xuzurida yagona guvoh bo'la olgan. V. o. tayinlash hozir ham rasm bo'lib kelmoqda.

VALIY - q. Avliyo.

VALIULLOH AHMAD - q. Shoh Valiulloh.

VASAN (jan. arab. vsn - "chegara ustuni", "but") - johiliyat davridagi Arabistonda butparastlar topinadigan sanamlarni anglatuvchi asosiy iboralardan biri. V.dan tashqari nusub (ko'pligi ansob) va sanam (ko'pligi asnom) atamaları ham qo'llanilgan. Ansob - butlarga atab qurbonlik qilinganlarning qoni to'kiladigan toshlar, qabrtoshlar va sajdagohning muqaddas hududi (xima)ning ihtalovchi (chegaralovchi) toshlardir.

Bunday tosh ma'bud sifatida e'zozlanishi mumkin bo'lgan, biroq u kamdan-kam holatlarda doimiy topinish ob'ekti hisoblangan. Har bir manzilda ko'chmanchilar o'zlariga ma'bud sifatida yangi toshni tanlab olganlar. Mil. 4-a. o'rtalarida, asosan, Nabateya va Suriya - Falastin ta'siri ostida nusub -"tarashlanmagan tosh" - Arabistondagi o'troq aholi muhitida sanam yoxud V. - ma'budning haykal ko'rinishidagi tasviriga aylangan. Ibn al-Qalbiyning ta'kidlashicha, sanam so'zi yog'och va metallardan yasalgan butni anglatgan, V. esa, tosh haykallarni anglatadigan istiloh bo'lgan. Biroq johiliyat she'riyatida, Qur'oni karimda (6:74 va 29:17/16) va hadislarda vasan va sanam terminlari bir ma'noni anglatgan.

VASIY (ko'pligi ausiya) - vasiyatnoma ijrochisi. Islom aqidasi ko'ra, birinchi bo'lib Abdulloh ibn Sabo har bir payg'ambarning o'zining V.si, vasiyatnoma bo'yicha o'rinbosari bo'lgan, deb uqtirgan. Horun (as) Muso (as)ning V.si, havoriy (apostol) Petr - Iso (as)ning V.si, Ali ibn Abu Tolib (kv) - Muhammad (sav)ning V.si bo'lgan. Shialarning da'vosiga ko'ra, Rasululloh (sav) Ali (kv)ni o'zlariga voris ekanligi haqida bevosita ko'rsatma berganlar. V. haqidagi ta'limotni ishlab chiqish va targ'ib etishda kaysoniylar, imomiylar - isno'ashariylar jamoalari faollik ko'rsatgan.

VASIYA (ko'pligi vasaya; turkiycha - vasiyat) - 1) o'lim to'shagida yotgan kishining so'ngti irodasini ifoda etuvchi topshiriq. V. haqida Qur'onda ko'rsatma berilgan. Mol-mulkning barcha turlari, munosabatlar, ish yuzasidan topshiriqlar, qarindosh-urug'larga ko'rsatmalar xullas, "so'ngti xohish-istak"ni anglatuvchi barcha boshqa narsalar V. bo'lishi mumkin. V.ga ko'ra, harakatdagi va ko'chmas mol-mulkning ko'pi bilan 1/3 qismi aytilgan kishiga berilishi mumkin. 2/3 qismi vorislar o'rtasida meros tariqasida taqsimlanadi, V. qiluvchi agarda u boshqa merosxo'rlarning huquqlarini poymol etmaydigan bo'lsa, kimga nima qoldirayotganini ko'rsatishi mumkin. V. bo'yicha kimga mulk tegaaydigan bo'lsa, u merosxo'rlikka da'vo qilolmaydi. V. og'zaki yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin, unda 2 guvoh (shohid)ning ishtirok etishi maqbul hisoblanadi. V. o'limdan ancha avval qilinishi mumkin va V. qiluvchi uni xohlagan paytda o'zgartirishi yoxud bekor qilishi mumkin. Bordi-yu, V. noto'g'ri tuzilgan bo'lsa yoxud merosxo'rlar unga rozi bo'lmasalar, qoziga murojaat qilingan. Qozi V.ni tuzatish, bekor qilish haqida xukm chiqargan. Hozirda V. turli mamlakatlarda mahalliy odatlarga ko'ra o'ziga xos ko'rinishga ega.

VASL (arab. - "etishish", "visol") - tasavvufda "fano" maqomidan keyingi martaba, "Fano" maqomiga yetgan solik Allohning haqligi va ulug'liga to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, foniy dunyodaga borliq narsalarni unutib yuborgan bo'lsa, "vasl" maqomiga erishgan solik Allohdan o'zga barcha borlikdan ajralib, Allohga "etishgan" bo'ladi.

VA'Z, xitobat - islomda, asosan, yaxshilik va ezgulikka chaqiruvchi da'vat. V. ibrat mazmunida ham ishlatiladi. V. aytuvchilar, bu borada mutaxassis bo'lgan shaxslar "voiz" deb yuritiladi. Islomdaga ilk voizlardan biri Hasan Basriy (728 y.v.e.) bo'lgan. U garchi arab bo'lmasa-da, arab nutqining mashhur ustoziga aylangan. Odamlarning yuziga qarab fikrini, kayfiyatini sezib olar va buni V. vaqtida nazardan qochirmasdi. Islomda tajovuzkorlikka da'vat etib, yomonlikni tashviqot qilish V. hisoblanmaydi.

VAQF (arab.) - musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk. Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, masjid, shifoxona va b. V. mulki bo'lishi mumkin. O'z mulkini V.ga topshirgan shaxslar mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi. Lekin uning o'zi yoki oila a'zolari yoxud uchinchi bir shaxs V. mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanilayotganligini aniqlash uchun V. mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O'z mulkini V. mulki sifatida topshirgan shaxsning farzanddari yoki boshqa avlodlari mazkur V. mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin. V. mulkini shariat qonuni bo'yicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi. Bu tartib Sharqning ba'zi mamlakatlarida hozir ham amalda.

VAHDATI VUJUD (arab. - birlik va borliqning bir butunligi) - abadiy yagona Allohga bor, deb hisoblovchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, moddiy olam, narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning nuri, shu'lasidir. V.v. namoyandalari (Ibn Arabiy va b.) xudo butun borliqni yaratib turadi, deb hisoblashgan. V.v. ayniqsa 17-19-a.larda Hindiston va Turkistonda tasavvufning keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

VAHDATI MAVJUD (arab. - mavjudot birligi) - Alloh bilan birga yagona moddiy olam bor, deb hisoblaydigan ta'limot. Bu ta'limot tarafdorlari tabiatni abadiy deb biladi. Alloh olamning o'zida, unga singib ketgan deb qaraydi. V.m. vakillari odam bu dunyodan voz kechmay, tarki dunyo qilmay yashashga intilishi kerak degan fikrni olg'a suradi. Hindistonda V.m. qadimdan mavjud bo'lib, olamni moddiylik asosida tushunishga ustuvor tsarajada ahamiyat bergan. Shuning uchun ko'pchilik musulmon ruhoniylari bu ta'limotga shubha va ehtiyotkorlik bilan qarashgan edi. Kindiy, Forobiy, Ibn Rushd, Bedil bu ta'limotning namoyandalari hisoblanadi. V.m. namoyandalari fikricha, tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o'zaro bog'liq, dunyo hamisha o'zgarish, rivojlanish holatida turadi. V.m. tarafdorlari musulmon Sharqida tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishi uchun falsafiy asoslar yaratib berdi.

VAHDONIYAT (arab. - yakkalik, yagonalik) -Allohning yakka-yagonaligani tanish va e'tirof etish. Islomning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Yahudiylik va xristianlik yakkaxudolik g'oyasini himoya qilsa ham, bu dinlarda V. uzil-kesil shakllanmagan. Qur'oni karimda aytilganidek, yahudiy dinida Uzayr paygambar, xristian dinida Hazrat Iso xudoning o'g'li deb e'tiqod qilinadi (9:30). "Ixlos" surasida V. yaqqol va ravshan bayon qilingan. "Anbiyo" surasida esa, "Agar (osmonu zaminda) Allohdan o'zga xudolar bo'lganida har ikkisi buzilib ketar edi", deyilgan (21:22). Bu oyat zardushtiylikning ikkixudolik aqidasiqa qarshi qaratilgan edi. Ko'pxudolik e'tiqod shaklida tugab ketganiga qaramay, kishilar ongida turli ko'rinishda paydo bo'lib turadi. Hoz. zamonda islom olamida ko'pxudolik aqidasi eskilik sarqiti sifatida u yoki bu shaklda uchrab qoladi. Ko'pxudolik xalqdarni bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga olib kelgan, yakkaxudolik esa, ularni birlashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan, tor qabilachilik tuzumiga barham berib, millatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

VAHIY - diniy e'tiqodga ko'ra, Alloh taoloning o'z payg'ambarlariga farishtalar orqali yuborgan buyruq yoki ko'rsatmalari. V. aniq va ravshan qilib aytilgan. Lekin ba'zi V.lar tushda ko'rilgan ishorat shaklida ham bo'lgan. Mas., hazrat Ibrohim (as) ning tushida "o'g'ling Ismoil (as) ni qurbonlik qil" deb buyurilgani ham V. deb hisoblanadi. V. Muhammad (sav)ga farishta hazrat Jabroil orqali nozil bo'lgani Qur'oni karimda keltirilgan (53:5-10). V. farishtalar orqali yoki bevosita Alloh taolo bilan roz aytish (gaplashish) orqali ham kelishi mumkin. Payg'ambar Muhammad (sav)ga esa, V. quyidagicha hollarda tushgan: Oisha (ra) aytadilarki: 1. "Payg'ambar (sav) V.ning birinchi kelishi o'ngidan kelgan tush bo'lgan. Ko'rgan har bir tushlari uyg'oklik vaqtlarida ham xuddi tong yorugidek kelar edi. 2. Farishta o'zi ko'rinmay turib, Payg'ambar qalblariga kerakli xabarni yetkazar edi. 3. Qo'ng'iroq chalingandek ovoz chiqarib kelar edi. 4. Jabroil farishta Payg'ambarga odam shaklida bo'lib ko'rinar edilar". Shu to'g'risida "Sahihi Buxoriy" kitobida quyidagi hadisi sharif keltirilgan: "Horis ibn Hishom Payg'ambardan: "Yo Rasululloh, sizga V. qanday keladi?", deb so'rabdi. Shunda ul janob quyidagi javobni beribdilar: "Ahyonda xuddi qo'ng'iroqdek jaranglab keladi, shunisi menga qiyin. U ketgandan keyin hamma narsani men o'zimda singdirib olgan bo'laman. Gohida, esa farishta menga odam shaklida kelib so'zlab ketadi va uning aytganlarini anglab olaman". 5. Farishta o'zining asl shaklida ko'rinadi va V.ni yetkazadi. 6. Alloh taolo Payg'ambar (as)ga me'roj kechasida namozni farz qilish va shunga o'xshash ba'zi narsalarni bevosita V. qilgan. V. faqat payg'ambarlargagina nozil bo'lgan. Jabroil farishta payg'ambarlarga V. keltirishga mas'ul bo'lgan. V. tushgan paytda, agar kunlar sovuq bo'lsa ham Payg'ambar (as) terlab ketardilar, nafas olishlari tezlashardi. Sahobalardan Zayd ibn Sobit shunday hikoya qiladi: "Mening sonim Rasululloh (sav)ning sonlariga tegab turgan paytda V. tushib qoddi, uning shiddatidan sonim yorilib ketay dedi". Agar Payg'ambar (as) tuyada ketayotganlarida V. tushib qolsa, og'irlikdan tuya ham yura olmay qolar ekan. V.ni Alloh ilhom shaklida ham nozil qilgan. Buni ayrim avliyolarning hayotida uchratish mumkin. Biroq avliyolar ilhomni o'zlariga shaxsiy ko'rsatma, payg'ambarlar esa, V.ni xalqqa yetkazishi lozim bo'lgan ko'rsatma deb qabul qilgan. Johiliyat davrida (islomdan avval) butparast arablar Ka'ba ichiga Hubal nomli butni o'rnatib, undan V. (ko'rsatma) olganliklarini da'vo qilib kelgan va shu tariqa go'yo o'zlarining kundalik muammolarini hal qilgan. Islom davrida Hubal sindirib tashlandi. V.ning faqat payg'ambarlarga nozil bo'lishi musulmonlik e'tiqodini mustahkamladi. Bu borada har xil bid'at va xurofotlarni keltirib chiqarish va dinga zararli bo'lgan turli qo'shimchalarni kiritish man qilindi. Diniy tushuncha bo'yicha V. ilohiy bir kuch sifatida insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish manbai bo'lib xizmat qiladi.

VAHHOBIYLIK - islom dinining hanbaliy mazhabidagi oqim. Arabiston ya. o.ning markaziy qismida 18-a. o'rtalarida paydo bo'lgan. Asoschisi - Muhammad ibn Abdulvahhob. U 1703 y. Uyayna degan joyda, qozi oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni o'z otasidan olgach, o'spirinlik yillari Arabiston va ko'shni o'lkalar bo'ylab ko'p safar qilgan. Ibn Abdulvahhob aqoidda Ibn Taymiya, Ibn al-Qayyim va Ibn Kasirga ergashdi. Muhammad Ibn Abdulvahhob diniy targ'ibotni taxm. 1730 y.da boshlagan, o'z otasining vafotidan (1740) so'ng uni faollashtirgan, chunki ota-o'g'il o'rtasida da'vatning uslubi xususida ixtilof bo'lgan. Turk tilidagi tadqiqotlarda Ibn Abdulvahhob uzoq yillar ingliz josusi bilan hamkorlik qilgani haqida dalillar mavjud. V. tarafdorlari fikricha, faqat Alloh ma'bud va islomning manbai faqat Qur'on va Sunnadir. Muqaddas joylarni ziyorat qilish, aziz-avliyolardan duolarda shafolat yordam tilash shirk hisoblanadi. Musiqa, qo'shiq va

umuman ma'naviy taraqqiyotning boshqa ko'p ko'rinishlari "bid'at" (keyin kirib kelgan yangilik) deb sanaladi. Vahhobiylar "dinni tozalashga, Muhammad davrtdagi asl holiga keltirish"ga harakat qiladi.

V.da g'ayridinlarga, "ilk islom ahkomlaridan chekingan" musulmonlarga qarshi kurash alohida o'rin tutadi. Ularning da'vatini qabul qilmaganlarning barchasi go'yo "kofir"dirlar. Dastlabki vahhobiylar imon masalasida o'ta mutaassibchilik, siyosiy raqiblar bilan kurashda esa, oshkora ekstremizm bilan ajralib turganlar. V. ta'limoti o'sha paytdayoq norozilik tug'dirgan. Ibn Abdulvahhobni hatto Uyaynadan quvib chiqarishgan. Ammo bu ta'limot Arabiston ya. o.ning markaziy qismvda o'sha davrdagi mavjud muhit uchun qo'l kelib qoldi. Zero, bu yerda bir necha mayda sulolalar tomonidan boshqarilgan amirliklar doimo o'zaro nizolashib kelardilar. Shunday sulolalardan biri - saudiylar - taxm. 4 a.dan beri ad-Dir'iyaning o'zlariga markaz qilib olib, atrofdagi amirliklarni birlashtirishga harakat qilardilar. Amir Muhammad ibn Saud (1725-1765) bu ishda V. ta'limotidan foldalandi. Muhammad ibn Saud va uning o'g'li Abdulaziz vahhobiylar bayrog'i ostida yarim orolning katta qismini kuch bilan egallab, birinchi saudiylar davlatini barpo qildistar. Ammo bu davlat 19-a. boshida misrliklar istilosi natijasida quladi. V. Imom Sannusiy vositasida Jazoirda, Muhammad Abduh yordamida Misrda, Sharqiy Afrikaning Zanzibar mamlakatida tarqala boshladi, Sayid Ahmad esa, Panjob va Shim. Hindistonda vahhobiylar davlatini barpo qilishga uringan. Ayni vaqtda V. Arabiston ya. o.dan tashqarida - Hindiston, Indoneziya, Sharqiy va Shimoliy Afrikada yoyila boshladi. 20-a. boshida Abdulaziz ibn Abdurahmon saudiylar davlatini tiklash uchun boshlangan harakatga rahbarlik qildi va hoz. Saudiya Arabistoniga asos soldi.

V. xatarli, reaksion diniy-siyosiy oqimdir. Vahhobiylar odatda terror yoki davlat to'ntarishi yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelishga intiladilar. 19-a.ning 70-y.larida Hindiston vahhobiylari Kalkutta bosh sudyasi Normanni o'ldirish bilan "shuhrat" qozondilar. 1979 y. noyabr oyida saudiyalik vahhobiychi Juhayman al-Utaybiy guruhi musulmonlarning eng muqaddas - Makkai mukarrama sh.dagi "Masjid al-Haram"ni bosib oldi. Masjidni egallagach, bu yerga kelishi kutilgan podshoh Xolidni bandilikka olish, oralarvda bo'lgan "Mahdiy rahbarligida umumxalq qo'zg'olonini ko'tarish, dastlab Saudiya Arabistoni, so'ng boshqa mamlakatlarda ham "haqiqiy" islom g'alabasiga erishish rejalashtirilgan edi. Saudiya xukumati frantsuz jandarmeriyasining mutaxassislari yordamida ikki haftadan ortiq muddatda bu harakatni bostirdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, vahhobiylardan 117 kishi o'ldiriddi va 143 kishi hibsga olindi, ayni vaqtda hukumat kuchlaridan 127 kishi halok bo'ddi va 451 kishi yaralandi.

V. muayyan ko'rinishda O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib ular 1989 y. Namangan sh.dagi "Otavalixon" masjidini o'zlariga qarorgoh qilib oldilar, so'ng 1989-1990 y.larda Qo'qon va Andijon shaharlarida "Jome" masjidlarini zo'rvonlik yo'li bilan egalladilar. 1995 y. bu ikkala masjid faoliyati adliya boshqarmalari tomonidan to'xtatilgach, vahhobiylar respublika bo'ylab yoyilib ketdilar. O'zbekistondagi vahhobiylar uzun soqol qo'yish, namozda ikki oyoqni keng kerib qiyom turish, qo'llarni ko'krakda bog'lab turish, baland ovozda "omin" deyish bilan hanafiylik mazhabidagilardan ajralib turadilar. 1997 y. dek.da Namangan sh.da sodir etilgan qotilliklar ularning amaliy "ish uslublari" sifatida namoyon bo'ddi. O'zbekiston hukumatining izchil siyosati V. ko'rinishidagi diniy ekstremizm va aqidaparastlik yoyilishining oddini oldi.

VIDO XUTBASI - Muhammad (sav)ning vidolashuv xutbalari: 632 y. 8 martda Makkada, Arafotda. Qusvo degan tuyalariga mingan holda Arabistonning turli yerlaridan

kelgan 124 ming musulmonga qarata o'qilgan. Bu tarixiy xutba "V. x." nomini olgan bo'lib, u nafaqat yig'ilgan musulmonlarga, balki butun insoniyatga qaratilgandi.

VIJDON ERKINLIGI - ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan V.e.ga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan V.e. insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda u O'zR Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda (1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998 yil 1 mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, "hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" (31-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (4-modda). Ushbu Qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonun muayyan yoshga yetgan fuqarolarning o'z diniy ehtiyojlarini qondirish uchun diniy tashkilot tuzish, oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish tartib-qoidalarini ham belgilab bergan. Ayni vaqtda dindan davlat va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, millatlararo adovat uyg'otishda, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda ham davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l ko'yilmaydi (5-modda).

VILOYATI FAQIH - shialikda "yashiringan imom" - mahdiyning kelishi va adolat o'rnatishi haqidagi g'oyaga bog'langan tushuncha. 1979 y.dagi Eron islom inqilobi natijasida bu g'oyani amalga oshirish, amalda imom zimmasiga yuklash mumkinligi haqidagi aqidalar vujudga keldi. Eron islom jumhuriyatiga 1989 y.gacha rahbarlik qilgan oyatullo al-uzmo Ruhalloh al-Musaviy al-Humayniy ana shunday V.f. rahbari vazifasini bajardi, ya'ni u davlatning biror lavozimida bo'lmasa ham, amalda butun Eron ijtimoiy hayotiga rahbarlik qildi.

VIRD (arab. - vazifa) - tark qilmay doim bajarib turiladigan vazifa, duo; tasavvufda shayx va muridlarning kundalik o'qib yurishlari uchun zarur bo'lgan Qur'oni karim gilovati, zikr, tasbeh o'garish, duo, salavotlar. Ular kechki va tunga ibodatlar orasida ado etilib, tariqatning asosi hisoblanadi.

VOBKENT MINORASI - me'moriy yodgorlik. Buxoro sadri Burxoniddin Abdulaziz II tomonidan 1197-98 y.larda kurdirilgan. Minoraning tepa qismida devoniy xatvda "Minora 595 hijriy yilda qurib bitkazildi", deb yozilgan. "Kimki masjid qursa, o'ziga jannatdan makon kurgan bo'ladi", degan hadis ham bitilgan. O'sha davrda minoraga yondosh bir masjid va bir Madrasai sadriya mavjud bo'lib, u Movarounnahrdagi eng yirik bilim maskani bo'lgan. Minoraning bal. 38,7 m.

VOJIB (arab. - majburiyat, burch) - islomda bajarilishi zarur bo'lgan amal turi. Zaruriylik nuqtai nazaridan V. farzdan keyin, sunnat talablaridan oldin turadi. Islomda V.ni inkor etish og'ir gunoh hisoblansa-da, kofirlikka nisbat berilmaydi. "Podshohning amri vojib" degan tushuncha Qur'onda bor. Sunniylikda V.ga shariat tushunchalari bo'yicha farz bilan sunnat erasidan joy berish hanafiylik mazhabidagina e'tirof etilgan. Boshqa uch ushhabda V. alohida tushuncha sifatida qabul qilinmagan. Ularda farzdan keyin bevosita sunnatga o'rin berilgan. V.ni esa, ular farzga qo'shib yuborishgan. Binobarin ular hanafiylik mazhabidagi V.larni farz qisoblaydi. Mas., besh vaqt namoz, ro'za, zakot, qajni hanafiylar farz desa, ular farz ham, V. ham deb atayveradi.

VOIZLIK (arab. va'z - targ'ib, nutq) -va'zxonlik, notiklik. V. arablarda, umuman musulmon Sharqida qadimdan mavjud bo'lib, dabirlik, xatiblik, muzak-k i r l i k va b. ko'rinishlarga ega bo'lgan. Savlat ahamiyatiga molik yozishmalar, maktublar va b. hujjatlarni o'qib berish bilan shug'ullanuvchilar dabirlik, hayitlar, bayramlar, turli yig'inlar, juma namozlari va b. ommaviy tadbirlarda ma'naviyat, axloq-odobga oid mavzularda pand-nasihati aytuvchilar, Qur'oni karim oyatlari, Hadislarni sharhlovchilar V. xatiblik, tarixga oid narsa, voqea, hadislarni bayon etish, tushuntirish bilan shug'ullanganlar, muzakkirlik (zikr qilmoq) qilganlar. Sharqda V.ni o'rgatuvchi maxsus soha kalom ilmi, balog'a ilmi bo'lgan. Ar-Roziy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Muin Voiz, Husayn Voiz Koshifiy va b. bu sohaning yetuk bilimdoni hisoblangan.

VOSIL ibn ATO, Abu Huzayfa al-G'azzol (699-748) - mu'taziliylar oqimi asoschilardan biri. Madinada tug'ilgan, so'ng Basraga ko'chib o'tgan, bu yerda Hasan al-Basriy to'garagining faol ishtirokchisiga aylangan. Gunohi kabira qilgan kishi holati haqida Hasan al-Basriy bilan ixtilofda bo'lgani tufayli V.i.A. bir guruh maslakdoshlari bilan to'garakni tark etgan va bu bilan mu'taziliyaga asos solgan. O'z ta'limotini tarqatish uchun xalifalikning barcha viloyatlari - Mag'rib, Xuroson, Yaman, Jazira, Armanistonga targ'ibotchilarini jo'natgan. Uning targ'ibotchilari ayni vaqtda umaviylarga qarshi tashviqot ishlari ham olib borishgan va bu bilan umaviylar sulolasining ag'darilishiga imkon yaratganlar. V.i.A. Allohni inson ko'rinishida tasavvur etilishiga qarshi bo'lgan. U Qur'ondagi tegashli iboralarni majoziy ma'noda talqin etgan. Xususan, "o'z qo'ling bilan yarat" degan ibora uning fikricha, "o'z hukming bilan" deganidir, bu xuddi qo'l kaftlarini ochiq holdaligi saxiylikning ramziy belgisi, yopiqdiga esa - xasislikni ifoda etgani kabi. V.i.A. ko'plab asarlar yozgan, uning "as-Sabil ila ma'rifat al-haqq" Haq(Alloh)ni tanish yo'li asari musulmon fiqhi tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi. V.i.A. birinchi bo'lib haqiqat (al-haqq)ni bilishning 4 usuli (vujux)ni aniklab bergan: Kitob (kitob natiq), yakdil qabul qshshngan sahih hadis (xabar mujtamo alayhi), aqliy dalil (hujjat aql) va jamoaning yakdil fikri (ijmo' min al-umma). Bu tamoyillar musulmon huquqini ishlab chiquvchilar (xususan, ash-Shofi'iy) tomonidan fiqhning 4 manbai (usul)ni belgilashda juda qo'l kelgan.

VUJUD (arab. - "borlik", "bo'lishlik", "mavjudlik") - tasavvufda. Allohning borligi haqidagi aqida. Allohning bor bo'lishi o'z-o'zidan zarurligi "vojib ul-vujud" deb ataladi. Allohdan boshqa mavjudotlar esa, "mumkin ul-vujud" deb nomlanadi. Ya'ni, bu

mavjudotlar Alloh tomonidan yaratilishi ham, yaratilmasliga ham mumkin bo'lgan narsalardir.

VUZU' (arab. - yuvinish, tahorat) - islom an'anasida maxsus poklanish ibodati. Namozdan oldin yuz, qo'l va oyoqni yuvish, boshga mash tortish, tahoratning yengil shakli, ya'ni kichik tahorat. Butun tanani boshdan-oyoq yuvish esa, katta tahorat (g'usl) hisoblanadi. Zero, islomda tahoratsiz namoz o'qish, Qur'onni ushlab mumkin emas.

- X -

XABAR (ko'pligi axbor; "darak", "yangilik", "hikoya") - Muhammad (sav)ning so'zlari va xatti-harakatlari haqida rivoyat (bu ma'noda sinonimi hadis, asar) - Qur'on va hadislarda bu so'z o'zining odatdagi - "darak", "bildirish" ma'nosida qo'llanilgan; al-Buxoriy davridayoq (9-a.) ayrim hadislar axbor deb ko'rsatilgan. Shialikdagi hadislar to'plamlari ham Axbor deb ataladi.

X. istilohi, shuningdek, ayrim tarixiy voqea yoki fakt, tarjimai holga doir ma'lumot, odob-axloq yoki dunyoviy xarakterdagi ko'ngal ochdi hikoyalar ma'nosida ham ishlatiladi.

XADICHA bint Xuvaylid (taxm. 555/556-620/ 621) - Muhammad (sav)ning birinchi xotinlari. X. beva qolgan boy xotin bo'lgan. Muhammad (sav) avval X.ning savdo ishlarini boshqarganlar, keyinchalik unga uylanib, uning mablag'lari bilan savdogarlik qilganlar. X. Muhammad (sav)ga ko'p g'amxo'rlik va mehribonliklar ko'rsatgan, u zotga vahiy kela boshlaganda payg'ambarliklariga darhol ishongan, birinchilardan bo'lib islomni qabul qilgan. U Muhammad (sav)dan 4 qiz va uch o'gal ko'rgan, faqat kenja qizi Fotimadan avlod qolgan.

XAYR - yaxshilik, ezgulik; musulmon diniy, ilohiyot va falsafiy tafakkurida axloqiy va metafizik kategoriya, yovuzlik - sharning ziddi. Axloqiy jihatdan ularning sinonimi sifatida jamil yoki hasan (go'zal) va qabih (xunuk). Fiqhda yaxshilik - shariatga ko'ra, kishi intilishi kerak bo'lgan narsa, yovuzlik esa - undan qochish lozim bo'lgan holatdir. Falsafiy va ilohiyot tafakkurida dunyoda yovuzlikdan ko'ra yaxshilik ko'pchilikni tashkil qiladi va Alloh faqat yaxshilikning sababchisidir, degan qarash ustundir.

XALVATIYA - so'fiylik tariqati; 14-a. oxirida Shim.-G'arbiy Eronda shakllangan. Tariqat dastlab turkiy aholi o'rtasida vujudga kelib, O'rta Osiyo tasavvuf maktabi (Ahmad Yassaviy)ning ayrim g'oyalari va malomatiya va qalandariyaning kuchli ta'siri ostida faoliyat olib borgan. X. 50 dan ziyod mustaqil suluk va tariqatlarni boshlab bergan. X.ning asoschisi gilonlik Zohiriddin Umar al-Xalvatiy (1397 y. v.e.) bo'lgan. U o'z izdoshlari uchun qoidalar ishlab chiqqan, unga ko'ra, qat'iy ravishda zohidlikka amal qilish (zuhd) va mutlaqo ro'za tutish (imomlar soniga qarab) asoslab berilgan. Siyosiy sabablarga ko'ra, (X. tarmoqlariga Usmoniylar rahnamolik qila boshlagach) X. ta'limoti vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchrab sunniylik tariqatiga aylangan. X. ta'limoti asosini quyidagilar tashkil qiladi: ju' (ixtiyoriy ochlik), samt (sukut saqlash), sahar (bedor bo'lmoq), i'tizol (yolg'izlik), zikr, fikr (meditatsiya), rabt (murid qalbi bilan shayx qalbi o'rtasidagi aloqa) va ibodatda doimiy pokizalik. X. tariqati yashil yoki qora rangdagi to'rtburchaqli qalpoq kiyishi bilan ajralib turgan.

XALIFA (arab. - o'rinbosar, noib) - ilk islomda jamoa hayotini shariat bo'yicha tartibga solish va Alloh taolo ko'rsatmalariga musulmonlar tomonidan amal etilishini nazorat qilish uchun saylab qo'yilgan musulmon jamoasi rahbari. X. ba'zi vazifalarda vafot etgan Muhammad (sav)ning o'rinlarini bosadi, deb hisoblangan, keyingi har bir X. esa, shu

vazifada o'zidan oldingisining o'rnini bosishi kerak bo'lgan. Muhammad (sav)ning eng yaqin safdoshlari Abu Bakr Siddiq, birinchi X., keyingalari Umar, Usmon, Ali bo'lishgan. Ularni xulafoi roshidin, ya'ni to'g'ri yo'ldan boruvchi X.lar deb atashgan. Ali va Muoviya o'rtasidagi kurash davrida musulmon jamoasining bo'linishi sodir bo'lgan, Ali tarafdorlari shialikka asos solishgan. Ular musulmon jamoasida hokimiyat faqat imom hisoblangan Ali va uning avlodlariga tegashli bo'lishi lozim deb hisoblaganlar. X. unvonini shialar tan olmaydilar. Alini dastlab qo'llab-quvvatlaganlar ichidan xorijiylar ajrab chiqqan, ular X.ni saylash tamoyilini qat'iy himoya qilishgan. Sunniylikni tashkil etgan musulmonlar jamoasining aksariyat qismi umaviylar sulolasidan bo'lgan X.larni yoqlab chiqdi; bu sulola o'rniga 8-a. o'rtasida abbosiylar sulolasi kelgan. Abbosiylar asta-sekin real hokimiyatni qo'ldan boy bera boshlaganlar, 13-a.da esa, Bag'dod mo'g'ullar tomonidan bosib olingach va X.ni Qohiraga qochib ketganidan so'ng (u yerda 10-11-a.da fotimiylar hukmron edi), amalda hech qanday hokimiyatga ega bo'lmay qolishgan. 16-a.da turk sultonlari o'zlarini X. deb atay boshlaganlar, bu holat 1924 y.gacha, ya'ni Usmoniyalar saltanati tugaguncha davom etgan.

XALIFALIK - Payg'ambar (sav)dan noib bo'lib, din ishlarini, diniy ilmlarni tarqatish, Islom arkonlarini qoim qilish, jehod olib borish, unga tegishli: lashkar tayyorlash, jangchilarga maosh berish, tushgan o'ljani bo'lib berish kabi ishlarni, hozirlik ishlarini, hadd-shar'iy jazolarni qoim qilish, zulmlarni ko'tarish, amri ma'ruf, nahiy munkarni yo'lga qo'yish kabi davlat ishlaridagi rahbarlik ("Izolatul Xafo" 1-2). X. to'rt yo'l bilan sobit bo'ladi: 1-Musulmonlarga fikri va nasihati o'tadigan, axli hill va akd (halol va ish-so'zi bir) bo'lgan ulamolar, boshliqlar va askarboshilarning bay'ati bilan sobit bo'ladi. Abu Bakr (ra)ning Xlari shu yo'l bilan sobit bo'lgan. 2-Xalifa odamlarga vasiyat qilib o'z o'rniga bo'ladigan odamni tavsiya qilishi. Hazrati Umar (ra)ning X.lari shu yo'l bilan sobit bo'lgan. 3-Xalifa saylash uchun Sho'ro majlisi tuzish. X.,azrati Usmon (ra) va hazrati Ali (ra)ning Xlari shu yo'l bilan sobit bo'lgan. 4-X. shartlariga ega odamning odamlarga boshliq bo'lib olishi bilan. Payg'ambar (sav) xalifalaridan keyingi xalifalar shu yo'l bilan bo'lgan. ("Xujjatullohi Bolig'a" 2-738). Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (ra)lar roshid xalifalar va hidoyatli imomlar bo'lib, Rasululloh (sav) ularga ishorat qilganlar va odamlarni ularga itoat qilishga va sunnatlarini tutishga amr qilganlar. Hasaanning X. muddatlari olti oy. Ulardan so'ng musulmon podshohlarning birinchisi Muoviya. Hasan unga X.ni topshirgandan so'nggina haqiqiy xalifa bo'lgan. Hasanga otasining o'limidan keyin Iroq ahdi bay'at qilgan edi. So'ngra olti oydan keyin u kishi ishni Muoviyaga topshirdilar. Shu bilan Payg'ambar (sav)ning Hasan haqlarida: "Albatta, mening bu farzandim sayyiddir. Alloh uning sababidan musulmonlarning ikki katta guruhi orasini isloh qiladi", degan gaplari rostligi zohir bo'ldi (Buxoriy va Muslim rivoyat qilganlar). Keyin X. Muoviya ibn Abu Sufyonga va undan umaviylar sulolasiga o'tdi. So'ng abbosiylar va ulardan keyin usmoniyalar xalifaligi bo'ldi. X. Mustafo Kamol Otaturk tomonidan tugatildi.

XANDAQ JANGI (arab. - chuqur) -Muhammad (sav) rahbarliklaridagi musulmonlar bilan makkalik mushriklar o'rtasidaga jang. 627 y.da makkaliklar rahbari Abu Sufyon 10 mingga yaqin askar bilan kelib Madinani qamal qiladi. Muhammad (sav) tarafdorlari Madina atrofiga Salmon al-Forisiy tavsiyasi bilan xandaq qazib, shaharni himoya etadi. 3 haftalik qamaldan keyin Abu Sufyon qo'shinlari Madinani ololmay orqaga qaytadi, musulmonlar g'olib chiqadi. Bu islom tarixida X.j. deb nom oladi.

XATIB (arab. - targ'ibotchi, notiq) - masjidida juma va hayit namozi paytida xutba o'qiydigan, va'z aytadigan ruhoniy. Islom muassasalarida ko'pincha X. masjid imomi vazifasini ham bajaradi (imom-xatib deb atalishi shundan).

XATIB BAG'DODIY, to'liq ismi Abu Bakr Ahmad ibn Aliy ibn Sobit (1001-1071) - mashhur muhaddis va tarixchilardan biri. Yokut Hamaviy "Mu'jam ul-buldon"da uning ellik olti ta'lifidan bahs etadi. Kitoblarining ko'pchiligi hadis ilmiga oiddir. 20 jildli "Bag'dod tarixi"dan tashqari "al-Jome' li-odobir-roviy vas-somi", "al-Kifoya fi-ma'rifati usulir-rivoya", "Sharh divon Abi Tammom" kabi asarlari mashhurdir. Xususan, 20 jildli "Bag'dod tarixi"ni alohida qayd etish lozim. Sharqshunos Salmon Parijda bu tarix haqida 300 sahifadan iborat bir bag'ishlov nashr etgan. Ko'pgana sharxlar ham bitilgan. Vafotidan avval barcha kitoblarini vaqf etgan, boyligini xayr yo'lida ilm va hadis bilan mashg'ul bo'lganlarga bo'lib bergan

XATMI-QUR'ON - Qur'onni batamom o'qish va shu munosabat bilan o'tkaziladigan diniy marosim. Ramazon oyida, tarovih namozida Qur'oni karimni avvalidan oxirigacha tilovat qilib chiqilishi ham X.-Q. dir.

XATTOBIYLAR, al-Xattobiya - "o'ta" shialikdagi guruh; Abu-l-Xattob Muhammad ibn Ali Zaynab al-Asadiy izdoshlari. X.ning asoschisi va g'oyaviy rahnamosining da'vatiga ko'ra, ilohiy ruh to Ja'far as-Sodiqqacha bo'lgan Ali xonadoniga mansub imomlarga birin-ketin jo bo'lgan. Kufa yaqiniga chodir o'rnatib Abu-l-Xattob o'z tarafdorlarini xudo imom siymosida namoyon bo'ddi deb Ja'far as-Sodiqqa ibodat qilishga chaqirgan. Bundan xabar topgan Ja'far as-Sodiq Abu-l-Xattobdan yuz o'gargan va uni duoibad qilgan. Shunda Abu-l-Xattob ilohiy nur Aliylardan o'ziga o'tganligini da'vo qila boshlagan. Imomiylik merosiy ekanligini rad etib, imomlik - sof g'oyaviy fazilat, payg'ambarlar va imomlar ilohiy mujassamlkning ko'rinishidir, ilohiylik - bu payg'ambarlikdagi nur, payg'ambarlik -imomlikdagi nur, dunyo ilohiy nurdan mahrum bo'lishi mumkin emas va bu nur (imomlik) unga, yettinchi imomga o'tganligani da'vo qilgan. 760 y. X.ning bir qismi Muhammad ibn Ismoil tarafdorlari bilan birga Kufada abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishgan. Qo'zg'olon bostirilib, Abu-l-Xattob qo'lga olingach, bir guruh tarafdorlari bilan birga xochga tortilgan. Ularning jasadlari yondirilib, kallalari xalifa al-Mansurga jo'natilgan, xalifa ularni uch kun Bag'dod darvozalariga osib qo'yishni, so'ngra yoqib yuborishni buyurgan. Qolgan X. beshta guruhga ajrab ketishgan, ulardan biri Abu-l-Xattobning o'lganligani inkor etib, uni ilohiylashtirishni davom ettirgan, boshqalari esa, yangi saylangan imomlarni ilohiylashtirganlar. X. uchun umumiy xususiyat imomlarni ilohiylashtirish, ularning g'ayritabiiy bilimlariga ishonish bo'lgan. X. jannat va do'zaxni majoziy talqin qilganlar, o'liklarni qayta tirilishini inkor etishgan, ruhlarning ko'chishini tan olganlar. Barcha X. dastlabki uch xulafoi roshidin va sahobalarni, Alini o'z vaqtida imomlikdan chetlatganlari uchun dinsizlikda ayblashgan. X.ning g'oyaviy izdoshlari ismoiliylar -"ettichilar" bo'lib, ularning diniy-siyosiy qarashlari, o'z navbatida qarmatlar harakati mafkurasining muhim qismini tashkil etgan.

XIZR (as) (Xizir, Hazrati Xizr, Xizr buva, Xizr-Ilyos) - Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan taqvodor zot. X. (as) odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni mustahkamlash uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan payg'ambarlardan hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, X. (as) orollarda yashaydi, osmonda uchadi, hamisha dunyo bo'ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shlaridagi masjidlarda namoz o'qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho'kayotganlarni qutqaradi, yonginni o'chiradi, o'g'rilar xurujidan, jinlarning hiylalaridan, ilon chaqishidan xalos etadi va h.k. So'fiylar X. (as)ni avliyolar piri sifatida e'zozlaydi. Hazrati X. (as) qadimdan xalqlar tasavvurida odamlar mushkulini oson qiluvchi, u bilan uchrashgan kishilarga baxt ato etuvchi xudojo'y qariyadir. Xudo yorlaqagan odamlargina X. (as)ga yo'liqishi mumkin. Musulmon sharqi mamlakatlari, jumladan O'rta Osiyoda X. (as) nomi bilan bog'liq ko'plab . qadamjolar (mas., Hazrati Xizr masjidi va b.) mavjud.

XIROJ, xaroj (arab. - soliq) - 1) o'rta asr musulmon davlatlarida yer solig'i. Dastlab X.ni Arab xalifaligada faqat g'ayridinlar to'lashgan. Musulmonlar ushr solig'i to'laganlar. Keyinchalik yer egalari, asosan, musulmonlar bo'lgach, X. umumiy yer solig'iga aylangan. X. alohida shaxsdan yoki jamoadan (butun qishloq ahlidan) olinishi mumkin bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda u turli nomlarda atalgan. Usmonli turk imperiyasida X. deb musulmon bo'lmaganlardan olinadigan jon va yer soliklari aytilgan (yana q. Jizya); 2) O'rta Osiyoda o'rta asrlarda davlat yerlaridan to'plangan soliq. O'rta Osiyoda 8-a.da islom dinining tarqalishi jarayonida joriy etilgan, shariatda qonunlashtirilgan edi. Zamonaviy soliq tizimining amalga kiritilishi bilan X. yig'ish yo'qolib ketdi.

XIRQA (arab. - yamoq, quroq) - junli matodan tikilgan ustki kiyim. Asosan, so'fiylar kiygan. X. odatda so'fiylikda pirdan shogirdga o'tgan, uzoq vaqt kiyilgani sababli u ko'pincha eskirgan, quroq va yamoq bo'lgan. X. o'zbeklar orasida janda deb atalgan.

XOJA AHROR (taxallusi; asl ismi Ubaydulloh; 1404-1490) - o'rta osiyolik shayx, murshid, naqshbandiylik tariqati rahnamolaridan. Hoz. Toshkent viloyati Bog'iston qishlog'ida tug'ilgan. Uning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o'tgan. Shajarasi ona tarafidan mashhur Shayx Xovand Tahurga borib taqaladi. Toshkent, Samarqand madrasalarida tahsil olgan. X.A. ko'proq tasavvuf ilmiga qiziqadi va shu maqsadda Hirotda kelib Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zayniddin Xavofiy kabi taniqli mutasavviflar suhbatida bo'ldi. So'ng Bahouddin Naqshbandning shogirdi shayx Yoqub Charxiy (1447 y.v.e.)dan naqshbandiylik tariqati asoslarini o'rgandi. Bahouddin Naqshband ta'limotining davomchisi sifatida ruhoniylar o'rtasida katta obro'ga ega bo'ldi va "valiy" (avliyo) deb tanildi. Ayni vaqtda dehqonchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullandi. X.A. juda katta yer-suv, mol-mulkka ega bo'lib, mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida yetakchi o'rin egalladi. X.A. qalamiga mansub 3 risola - "Faqarot ul-orifin" ("Oriflar so'zlaridan parchalar"), "Volidiya", "Havroiyya" bizgacha yetib kelgan. Birinchi risolasida o'zining va ba'zi tasavvuf namoyandalarining tariqatga oid fikrlari, ikkinchi risolasida tariqat yo'liga kirgan kishining axloq-odobi, faqr va fano tushunchalari bayon etilgan. Inson zohiri va botinini pokiza qilish mavzui ham asardan joy olgan. Uchinchi risolasi mutasavvif shoir Abu Sa'id Abulxayr (11-a.) ruboiysi sharhiga bag'ishlangan.

X.A. naqshbandiylikning murshidi sifatida shuhrat qozonib, o'z davrining ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy hayotida muhim o'rin tutdi. Jomiy, Navoiy, Bobur X.A.ni o'zlariga ma'naviy pir - ustoz deb bilganlar, unga bag'ishlab dostonlar bitishgan, asarlarini o'zbek tiliga o'garishgan. X.A. Samarqandda vafot etgan.

XOJA AHROR MAJMUASI - Samarqand viloyati, Samarqand tumani Ulug'bek qishlog'idagi me'moriy yodgorlik (15-20-a.)-Xoja Ahror qabri yaqinida turli davrlarda bunyod etilgan Nodir Devonbegi madrasasi, ikki ayvon, namozgoh masjid, minora hamda hovuzdan iborat.

XOJA MUHAMMAD PORSO, to'liq ismi Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1345-1419) - O'rta Osiyoda naqshbandiylik tariqatining yirik vakili, Bahouddin Naqshbandning xalifasi (o'rinbosari). Buxoro madrasalarida Qur'on, hadis, kalom ilmlarini puxta o'rgangan. Temuriylardan Xuroson hukmdori Shohruh u bilan turli diniy masalalar bo'yicha yozishib turgan. Mirzo Ulug'bek X.M.P.ning qomusiy bilimdonligiga tan bergan. X.M.P.ga Naqshbandning o'zi ta'lim va tarbiya bergan va o'limi oldidan uni o'z o'rniga tayin qilgan. X.M.P. "Risoi kuksiya" kitobida piridan eshitgan va o'zi jamlab yurgan ibratli kalimalaridan namunalar keltirib, ularni birma-bir sharhlaydi, pirining hayoti va ma'naviy dunyosi, naqshbandiylik tariqatining asoslari haqida ma'lumotlar beradi.

X.M.P. shariat va tariqatga oid o'nlab asarlar yaratgan. Jumladan, "Qur'on tafsiri", "Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan", "Tasavvuf istilohlari haqida risola", "Murid odoblari haqida risola", "Karomatlar haqida risola", "Makka shahrining qisqacha tarixi", yetmish ikki firqa", "Maqomoti Xoja Alouddin Attor", "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asarlarida islom dini va tasavvufga oid fikrlarini bayon etadi, eng mashhur so'fiylarning faoliyati haqida ularning o'z asarlari va mulohazalari asosida hikoya qiladi. Yana bir mashhur asari - "Fasl ul-xitob bi vaslil-ahbob" ("Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob") esa, bir necha bor chop qilinib, islom ulamolari tomonidan eng ishonchli qo'llanma sifatida foydalanilgan, shariat, tariqat, diniy firqalar to'g'risida biron-bir munozara chiqqudek bo'lsa, shu asarda keltirilgan fikrlar ishonchli dalil - hujjat deb qabul qilingan. Asarda islomda bahsli hisoblangan 500 ga yaqin masala batafsil yoritilib, tavsiflab berilgan.

X.M.P. ikkinchi marta haj ziyoratidan so'ng kasallikka chalinib vafot etadi. Qabri Madinadagi "Jannatul-baqi" qabristonida

MUHAMMAD ISLOM (1493-1563) - Jo'ybor xojalaridan. Buxoro xoni Abdullaxon II ning piri. Musulmon Sharqida katta nufuzga ega bo'lgan. Hindiston, Eron, Koshg'ar, Badaxshon hokimlari u bilan xat yozishib turganlar. Shayboniylar davlatidaga ko'pgana kurilish ishlari (masjid, madrasa, xonaqoh, hammomlar, rastalar, ustaxonalar, sardobalar, kanallar va b.) uning va o'g'li xoja Sa'dning (1531-89) nomi bilan bog'liq. X.M.I.ning Buxoro, Miyonkol, Samarqand, Balx, Badaxshon, Hirot, Marv, Murg'ob, Mehna, Mashhad, Chorjo'y va Andxudda katta yer mulklari bo'lgan. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob" asari unga bag'ishlangan.

XOKSOR - so'fiylik tariqati; 18-a. oxirida jaloliya-suxravardiya tariqati (Shim. Hindistonda Sayyid Jaloliddin Husayniy tomonidan 14-a. o'rtasida asos solingan)dan mustaqil bo'lib ajrab chiqqan; o'ziga haydariya (Mir Haydariya) va qalandariyaning bir qancha guruh va jamoalarini, shuningdek, ne'matullohiylarning turli tarmoqlarini birlashtirgan.

X. ilk tarixi mavhum, chunki tariqatning adabiy an'anasi yo'q bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan turli qo'lyozma qo'llanma va ko'rsatmalar bir to'plamga keltirilib "Risolayi tariqa-yi faqr-i xoksor" deb atalgan. X. mustaqil nazarii qoida ishlab chiqmagan. O'zidan avvalgi tariqatlarning qorishmasidan iborat.

"Yo'l" to'rt bosqichdan iborat, unda 20 yoki 44 manzil (maqom) bor, odatda shulardan atigi 14 tasi, shuningdek, tolib-darvish sinashi lozim bo'lgan 12 sarhushlik holati (piyala) aytiladi. X. darvishi tariqat yo'lidan yurishi lozim, ya'ni o'ziga qanoat qilmog'i, barcha boyligini boshqalar bilan baham ko'rmog'i, ustozini doimo yodda tutishi, uni kundalik ibodatda eslashi (q. Chishtiya), sochi, mo'ylabi, qoshi va soqolini olib yurishi (hamma ham rioya etmagan) lozim bo'lgan. Hayoti davomida X. darvishi to'rtta safarni amalga oshirishga intilish lozim: a) odamlardan xudoga; b) xudodan odamlarga, so'ngra xudoga, keyin xudodan xudoga; v) xudo bilan xudoda; g) xudo bilan odamlar orasida. Tariqat a'zolari o'zlarini - tariqa-yi alaviya-yi xoksor-i husayni-yi jaloliy - deb atashadi.

XOLID IBN VALID (? - 642) - ilk islom davridagi arab sarkardasi. Dastlab musulmonlarga qarshi kurashgan. Uhud jangidan so'ng islomni qabul qilgan (629). Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng Arabiston ya.o.dagi arab qabilalarining isyonlarini bostirgan. Hirotni egallagan musulmonlar qo'shiniga qo'mondonlik qilgan, Mesopotamiyada laxmiylarni tor-mor keltirgan. Sarkarda Amr ibn al-Os bilan birga Suriya fathida qatnashgan, keyinchalik bu yerda voliy bo'lgan. Musulmonlar jamoasi oldidagi buyuk xizmatlari uchun "Sayfulloh" - "Allohning shamshiri" faxriy unvonni olgan.

XOLIDOBOZIY, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Xolidoboziy al-Marvaziy (? - 951/952) - shofi'iylikdagi yirik imom, muhaddis, faqih. Marv viloyatidagi Xolidoboz qishlog'ida tug'ilgan. Bag'doddagi al-Mansur masjidida fiqhdan ta'lim bergan. Sam'oniyni yozishicha, turli mamlakatlardan tolibi ilmlar uning huzuriga kelib ta'lim olishgan, 70 dan ziyod shogirdi bo'lgan. Keyinchalik u Misrga ko'chib o'tib, u yerdagi shofi'iylikning peshvolaridan biriga aylangan. Fiqhga doir 5 asar yozgan. Misrda vafot etgan.

XONAQOH - darvishlar, qalandarlar, shuningdek, g'arib va miskinlar to'xtaydigan, istiqomat qiladigan uy - qalandarxona, darvishxona. Musulmon mamlakatlarida zoviya, tak'ya, rabot nomlari bilan ham yuritiladi.

XORIJIYLAR (arab. - ajralib chiqqan, isyonchi) - islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida 7-a.ning 2-yarmi boshlarida vujudga kelgan. Taxt uchun kurashda Ali(kv) Muoviya tarafdorlari (umaviylar) bilan muzokara olib borishga ko'ngan. Bu hol Ali(kv) haqiqiy vorislik huquqiga ega, deb hisoblagan tarafdorlarining o'rtasida norozilik tug'dirgan. Qo'shinning bir qismi (12 ming kishi) Ali(kv)ni kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketgan va keyinchalik Ali(kv)ga ham,

umaviylarga ham bab-baravar qarshi kurash boshlagan. Ana shu guruh tarafdorlari X. deb nom olgan. X. harakati arablar tomonidan bo'ysundirilgan Iroq va Eron aholisi, oddiy arab-musulmonlar manfaatini ifodalagan. Ular o'zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblagan. X. "dindan qaytgan", deb e'lon qilingan siyosiy va goyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo'lgan. X. ta'limotiga ko'ra, xalifa tsiniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl etiladi. X. fikricha, e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahdamlanishi lozim. E'tiqod, gunohkor kishilarni jazolash masalalarida X. murji'iyatlarga qarama-qarshi turgan. Keyinchalik X. bir necha mayda guruhlarga bo'linib ketgan. Umaviy va abbosiy xalifalar 7-9-a.larda X.ga qarshi keskin kurash olib bordi. Buning natijasida X. qirib tashlandi, ularning qolganlari Shimoliy Afrikada o'z davlatini vujudga keltirdi. X. xalifalikdagi ko'pgina qo'zg'olonlar (Zinjiylar qo'zg'oloni, Abu Muslim qo'zg'oloni va b.)da qatnashgan. Hozirgi davrda X.ning ibodiyat firqasi mag'rib mamlakatlarida (Jazoir, Tunis va b.da), Ummon, Tanzaniyada uchraydi.

al-XOSSA (ko'pligi al-xavoss) - diniy-ijtimoiy termin, keng ma'noda "mumtoz shaxslar", oqsuyaklarni bildirib, al-omma (ko'pligi al-avomm) - omma, "olomon"ga qarshi qo'yilgan. Al-X. va al-A.ni o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi musulmon jamiyatining diniy va ijtimoiy bo'linmasini turli bosqichlarida amalga oshirilgan. Al-X. sifatida mujtahidlar oddiy musulmonlarga, so'fiylikdagi avliyolar boshqa musulmonlarga qarama-qarshi qo'yilgan.

XRISTIANLIK - jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Yevropa, Amerika mamlakatlarida, Avstraliyada, faol missionerlik harakati natijasida Afrika, Yaqin Sharkda va Uzoq Sharqning bir necha mintaqalarida keng yoyilgan. X. cherkovi ma'lumotlariga ko'ra, jahonda bu dinga 1 mlrd.dan ortiq kishi e'tiqod qiladi. X.ning asosiy g'oyasi xudodam - Iisus Xristos (Iso masih; q. Iso) haqidagi afsonalar bilan bog'liq. Uning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalari, cheklash va taqiqpari Bibliya va b. muqaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan. X. 1-a.ning 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy qismida yashovchi yahudiylar o'rtasida paydo bo'lgan. Ilk X. qullar va ezilgan ommaning mavjud tartib va quldorlik tuzumiga qarshi noroziligini ifodalagan. Ilk X. dastlab iudaizmdan ajralib chiqqan. Sharq dinlariga xos ayrim tasavvurlar ham unda o'z ifodasini topgan. Rim imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuli chuqurlasha borgan sari, X.dagi isyonkorlik, demokratik tamoyillar yo'qolib, sabr-chidamli bo'lish, takdirga tan berish g'oyalari birinchi o'ringa qo'yila boshlagan. Xristian jamoalarining ijtimoiy tarkibi ham o'zgargan: ruhoniylar (klir) va oddiy jamoa a'zolari (miryan)ga bo'lingan. Ayrim-ayrim jamoalar o'rtasidagi aloqalarning mustaxkamlanishi yepiskop boshliq cherkovning tarkib topishiga olib keldi. Cherkov katta boylik to'plab, siyosiy kuchga aylanib borgan. Dastlab xristianlarni ta'qib etgan Rim imperatorlari keyinchalik X. tarafdorlari bo'ldilar. 4-a.da X. Rim imperiyasida mavjud ijtimoiy tuzum va uning tartiblarini himoya qiluvchi davlat diniga aylandi. Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy qismidagi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot X. cherkovini ikkiga: katolitsizm (imperiyaning g'arbiy qismi) va pravoslaviyega (sharqiy qismi) bo'linishiga olib keldi. X.ning bu bo'linishi 1054 y.da rasman e'tirof etilgan bo'lsa-da, biroq bu jarayon 13-a.ning boshlarida tugallangan. Rossiyada X. 10-a.ning oxirida Vizantiyaning ta'sirida tarqalgan. O'rta asrda feodal tuzumga qarshi qaratilgan harakat ayni vaqtda xristian cherkoviga ham qarshi

yo'naltirilgan edi. Reformatsiya davri katolik cherkoviga qarshi kurash shaklidagi antifeodal harakatining eng cho'qqisi bo'ldi. 16-a.da Reformatsiya natijasida Yevropadagi qator cherkovlar katolitsizmdan ajralib chiqib, X.ning uchinchi asosiy oqimi - protestantizm yuzaga keldi.

XUVAHDRZODA (laqabi; asl ismi Abu Bakr Muhammad ibn al-Husayn al-Qudaydiy al-Buxoriy) (? - 1090) - buxorolik taniqli muhaddis, mufassir va faqih. Sam'oniyning yozishicha, qozi va imom Abu Sobit Muhammad ibn Ahmad al-Buxoriyning jiyani bo'lgani uchun X. deb laqab berilgan. Uning 5 ustoz va 3 shogirdi borligi manbada qayd etib o'tilgan. X. fiqh va hadisga doir 6 asar yozgan.

XUMS (arab. - beshdan bir) - islom an'anasida musulmon qo'shinlari qo'lga tushirgan o'ljalarning (q. Ranimat) beshdan bir qismi. Uni avval Muhammad (sav) ixtiyoriga, keyinchalik xalifalar xazinasiga (q. Bayt ul-mol) ajratilgan, qolgan qismini harbiy boshliqlar o'zlari va lashkarlarga taqsimlaganlar. Bu qoida ilk islom davridayoq Qur'on oyatlarida (8: 42) bayon etilgan va shu asosida amalga kiritilgan, u o'rta asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida qo'llanilgan. X. sifatida to'plangan mablag'larning beshdan bir qismi avval Muhammad (sav) va uning avlodlarini ta'minlashga, shuningdek, qo'shinlar xarajatlariga sarflangan. Xalifalar va keyinga hukmronlar davrida X. xazinaga tushgan.

XURRAMYILAR, xurramiya (fors. xurramdin - "xush, xurram e'tiqodga ega") - sunniylikka qarshi bo'lgan moniylik-mazdakiylikka xos oqimlarning umumlashma nomi. 8-10-a.larda Eronda X. shiori ostida g'alayonlar bo'lgan. Zardushtiylik muhitida - bid'atchi sekta bo'lib, nomi zardushtiylarning o'zlarini atashlari - bexdin - "yaxshi e'tiqod egasi"ga aynan mos keladi.

Nizomulmulkning ta'rifiga ko'ra, X. islom dushmani, ular nafaqat shariatni, balki umuminsoniy axloqiy normalarni ham inkor etganlar, ular barcha man etilgan narsalar joiz deb, jumladan, boshqalarning mol-mulki va hatto ayollariga egalik qilishni ham joiz deb hisoblashgan. Ular Abu Muslim, Mahdiy, Abu Muslimning qizi Fotimaning o'g'li Feruzga ibodat qilib, butun faoliyatlarini islomni buzishga qaratganlar. Ular zardushtiylarning goyaviy merosxo'ri bo'lganlar. X. mafkurasining asosini dualizm - yorug'lik bilan zulmat o'rtasidagi kurash tashkil qilgan. Ular kishilarning umumiy tengligi, soliq va majburiyatlarni bekor qilish, moddiy boyliklarni teng taqsimlashni yoqlab chiqishgan. Nazariy jihatdan X. yovuzlikka qarshi qurolli kurashni inkor etadilar, amalda esa, 8-10-a.da xalifalikdagi barcha qurolli xalq harakatlarini qo'llab-quvvatlashgan. 10-a.da xalifa qo'shinlari X. qal'alarini tor-mor keltirgach, X.ning aksariyati shialikka o'tgan. 15-a.dan keyin X. atamasi manbalarda uchramaydi.

XUTBA (arab. - targabot, nutq) - juma namozi oldidan va hayit namozidan keyin xatib (masjid imomi)ning va'zxonligi, diniy pand-nasihati. O'rta asrlarda X.ning muhim siyosiy ahamiyati bo'lgan. Namozxonlar mamlakat hukmdori ismini aytib, uning haqqiga duo qilishlari lozim edi. 9-a. 2-yarmidan ayrim xukmdorlar X.da o'z ismlarini xalifa ismidan keyin qo'shib aytilishi uchun harakat qilishgan. X.da hukmdor ismining yodga olinishi hukmdorning mustaqil ekanliganing asosiy tashqi belgilaridan biri hisoblangan. Hozir

musulmon mamlakatlarining ko'pida X.ning mazmunida dunyoviy hokimiyat va siyosat masalalarini muhokama qilish o'rin olmoqda.

XUFTON (forscha - uxlash) - 5 vaqt o'qiladigan namozning biri. Uning vaqti shom namozi vaqtining tugashi bilan kiradi. Ya'ni, taqriban kun botgandan bir yarim soat keyin kirib, bomdod vaqtigacha davom etadi. X. namozi uchun eng barakotli, kulay vaqt tunning uchdan birinchi qismi hisoblanadi. X. namozi 4 rakaat farz, 2 rakaat sunnat, 3 rakaatli vitr, vojib namozlarvdan iborat.

XO'JA (fors. xoja - xo'jayin, janob) - turli islom mamlakatlarvda turli davrlarda turlicha ma'nolarda ishlatilib kelingan faxriy unvon va murojaat shakli.

1. Misrda o'rta asrlarda X.lar - badavlat fors va b. kelgandi savdogarlar. Somoniylar (9-10-a.) va Raznaviylar (10-12-a.) davlatlarida ulug' (buzurg) X. - vazir unvoni.

Usmoniyalar saltanatida X. - ulamoni anglatgan. Sulton murabbiysi, saroy kitobdori va haram og'alari ham shunday atalgan. X. i jahon - Hindiston sultonliklarida (14-15-a.) yuqori mansabdor shaxslar unvoni. Ko'pligi xojagon -Usmoniyalar saltanatida (16-20-a.) amaldorlar sinfi nomi. X. boshi - viloyatlarda soliq xizmati boshlig'i. Hoz. Turkiyada X. - din bilan shug'ullanuvchi shaxslar va o'qituvchiga nisbatan murojaat shakli. Bir qator hoz. arab mamlakatlarida xavoja (xuvaja) - savdogarlar, birinchi navbatda nomusulmon savdogarlarni anglatadi hamda nomusulmonlarga nisbatan muomalaning yumshoq shakli.

2. O'rta Osiyoda 20-a. boshiga qadar X. - xulafoi roshidin (Abu Bakr, Umar (asosan), Usmon va Ali (uni Muhammad (sav) qizlari Fotimadan bo'lgan avlodlaridan tashqari; q. Sharif) dan tarqalgan ekanliklarini da'vo etuvchi shaxslarning faxriy unvoni. Boshqa manbalarda X.lar arablarning fathiy yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari deb hisoblanadi. X.lar islomda oqsuyaklar tabaqasi sifatida sayyidlardan keyin turib, imtiyozlarga ega bo'lganlar, ba'zi musulmon mamlakatlarida hozir ham ularning imtiyozlari saqlanib kelinmoqda. Urta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotida X.lar katta nufuzga ega bo'lganlar, juda katta yer va mulkka egalik qilganlar.

3. Abdulxoliq G'ijduvoni asos solgan Xojagon so'fiylik tariqati a'zosini anglatuvchi istiloh, keyinchalik (19-a.) kelib chiqishi mana shu tariqat bilan bog'liq bo'lgan bir necha hukmdorlar sulolasi.

4. Hindistondagi ismoiliylar-nizoriylar jamoasini anglatuvchi istiloh. Ular shuningdek, Zanjibar, Afrikaning sharqiy qismi, Hindikush (u yerda mavolis deb ham atalganlar), O'rta Osiyoning bir qancha viloyatlari, Sharqiy Eron va Fors ko'rfazi intaqasida yashaydilar.

5. Hindistonda, asosan, ismoiliy-nizoriylar, sunniylar, shia-imomiylardan tarkib topgan aholi guruhiga nisbatan ishlatiladigan istiloh.

XO'JA ALAMBARDOR - Movarounnahrda islom dinini targ'ib va tashviq qilgan zotlardan biri. Imom Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy (903-976)ning safdoshi, alambardor (bayrokdor, dinni bayroq qilib ko'tarib, tashviq etuvchi) nomi bilan tanilgan. X.A.ning taxmin qilingan qabri Toshkentning Kamolon darvozasi ortida bo'lgan. Tarixda alambardorlar ko'p o'tgan, ular xalqning yuksak e'tiborida bo'lganlar.

XO'JA ALAMBARDOR MAQBARASI -Toshkentdagi me'moriy yodgorlik (19-a.). Maqbara islom dini arboblariidan Xo'ja Abdul Aziz Alambardor nomi bilan bog'likdir. Islom fotixdari Choch (Shosh, hoz. Toshkent)ga kelganida lashkarning bayroq ko'taruvchisi - alambardori Abdul Aziz Samarqand darvoza tashqarisiga islom tugini qadagan. O'sha joy hoz. Xo'ja Alambardor qabristonining o'rtasi bo'lib, keyinroq bu yerda bir sag'ana qurilgan. Xo'ja Alambardor umrining oxirgi yillarini Isfijob (Sayram)da o'tkazadi va o'sha yerda vafot etadi. Keyinroq uning qabri yon atrofiga Ahmad Yassaviyning ota-onalari ham qo'yilgan. Demak mazkur maqbarada Xo'ja Alambardorning o'zi yo'q. Ammo ichida katta-kichik beshta qabr mavjud. Maqbara bir necha marta qayta tiklangan. Ichida o'sha vaqtda qo'yilgan islom bayrog'i tug'i hamon saqlanadi. Tug'da "Alloh" va "Muhammad" so'zlari yozilgan.

- Y -

YALANG' OCH OTA - turkiy xalqlarda qadimda shamol homiysi. 20-a. boshida etnograf A.Divaev keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, qozoqlarda shamol chaqirish marosimida ijro etiladigan qo'shiq namunasida shamol homiysi sifatida Ya.o.ga murojaat etilgan. Ya.o. nomi Toshkent atroflari hamda Jan. Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan. Uning shaxsiyati bilan bog'liq mikrotoponimlar ham mavjud. Mas., hoz. Toshkent sh. 2-Shim.-Sharq massivi ilgari Yalang'och ota deb yuritilgan.

YASSAVIY Ahmad (taxalluslari: Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy, Kul Xoja Ahmad, Qul Ahmad va b.) (1105-1166/67) - donishmand, shoir, yassaviylik tariqatining asoschisi. Sayramda tugilgan. Otasi Shayx Ibrohim uzoq yillar Yassi va Sayramda shayxlik qilgan. Ya. piri Arslonbob maslahati bilan Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniydan tasavvuf bo'yicha mukammal ma'lumot olgan. So'ngra, Turkistonga qaytib so'fiylikni targ'ib etgan. El orasida katta obro' orttirib, avliyo deb ulug'langan. "Madinada - Muhammad, Turkistonda - Ahmad" degan ovozarlar tarqalgan. Muridlari ko'payib, yassaviylik tariqati tarkib topgan. Yassida qazo qilgan. Mozori muqaddas qadamjoga aylangan. 1395-97 ylarda Amir Temur Ya.ning qabri uzra mahobatli maqbara kurdirgan. Ya. tuzgan tariqatning barcha aqidalari "Devoni hikmat" she'riy asarida bayon etilgan. Unda poklik, to'g'rilik, kamsuqumlik, mehr-shafqat, halol kun kechirish, nafsni tiyishga intilish, imonli bo'lish kabi asl insoniy fazilatlar maqtalgan. Zolimlar, poraxo'rlar, mutaassib shayxlar, johil va nodon kimsalar esa qoralangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda Ya. hayoti, faoliyati va ijodi keng o'rganilib, i.tlar yaratildi. "Devoni hikmat" 2 marta (Toshkent, 1991, 1992) ko'p nusxada chop etildi.

YASSAVIY MAQBARASI - Turkiston (Qozog'iston)dagi me'moriy yodgorlik (1389-95). Dastlab Ahmad Yassaviy qabri ustida kichik maqbara kurilgan (12-a.). Maqbarani ziyorat kdpgan Amir Temur uni qayta kurishga farmoyish bergan. Yozma manbalarga ko'ra bino loyihasini ishlab chiqishda shaxsan o'zi qatnashgan. Qurilishni Mavlono Ubaydulla Sadr boshqargan.

YASSAVIYLIK (jahriylik) - tasavvuf tariqatlaridan biri. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. Asoschisi Yassaviy Axmad. Ya. Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy ta'limotlari negizida shakllangan. Ya.da islom qonun-qoidalari (shariat), tasavvuf maslaga (tariqat), ishq ilohiy (ma'rifat), Alloh visoliga erishish (haqiqat) keng targ'ib etilgan. Unga ko'ra, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat yo'q. Bularning har biri alohida bosqich bo'lib, bir-birini to'ldiradi va takomillashtiradi. Murid o'z piri rahnamoligida mazkur bosqichlardan o'tib, ilohiy ishq sari intilishi, kamolotga erishishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Ya. da murid rioya etishi shart hisoblangan odob qoidalari bo'lgan. Ularga binoan, murid hech kimsani o'z piridan afzal ko'rmasligi, uning hamma topshiriqlarini sidqidildan, bekamu ko'st ado etishi, pand-nasihatlariga so'zsiz amal qilishi zarur. Ya.da zikru samo'ga ham katta e'tibor berilgan, jahriya (lisoniya) usuli qo'llanilgan. Pir va muridlar kundalik o'qib yuradigan maxsus kalima va duolarni baland ovoz chiqarib aytishgan. Shu bois Ya. jahriylik deb ham ataladi.

"YASHIRINGAN IMOM" - shialik ta'limotida zamon oxir bo'lganda yerga qaytib kelib adolat o'rnatadi, deb talqin qilinadigan imom (imomi Mahdiy, imomi oxir zamon). Shialik tarqalgan mamlakatlarda "Ya. i." haqidagi tasavvur hozir ham saqlanib qolgan.

YA'JUJ VA MA'JUJ - Qur'onda zikr etilgan buzg'unchi qavmning nomi. Ya. va M. haqida Kahf surasida quyidagilar aytiladi: "Ular: "Ey Zulqarnayn, albatta, Ya'juj va Ma'juj yer yuzida buzg'unchilik qiluvchilar-tsir. Biz senga xaroj bersak, biz bilan ularning orasida to'siq qilib berurmisan?" dedilar. 2 tog` orasvdaga biron gapni anglamaydigan qavm Zulqarnaynga Ya. va M.dan shikoyat etdilar. Ularning yer yuzasidagi buzg'unchiliklaridan arz qildilar. Mazkur qavm Zulqarnayndan, agar xaroj to'plab bersak, o'sha Ya. va M.lar bilan bizning oramizga to'siq qurib berasanmi, deb so'radilar. Shu bilan ularning hujumlaridan, buzg'unchiliklardan qutulmoqchi bo'ldilar. Zulqarnayn ularning bu savoliga odob bilan javob berdi: "U: "Robbim menga bergan imkoniyat yaxshidir. Bas, siz menga kuch ila yordam bering. Siz bilan ularning orasida bir devor qilajakman. Menga temir parchalarini keltiring", dedi. Nihoyat, 2 tog` tomonlari ila barobarlashganda: "Dam uringlar", dedi. Nihoyat, u (to'p temir)ni o'tga aylantirgach: "Olib kelinglar, ustidan mis quyaman", dedi. Zulqarnayn mazkur qavm bilan Ya. va M. orasida ulkan va mustahkam to'siq - radm qura boshladi U odamlarni temir topib kelishga buyurdi Ular olib kelgan temir parchalarini o'sha 2 tog` orasiga to'plata boshladi. Nihoyat, temir parchalarini to'plab-to'plab, 2 tog` orasini to'ldirdilar. Undan keyin Zulqarnayn bosqonlar bilan dam urib, temirlarni qizitib eritishga kirishdi. U 2 tog` orasiga to'plangan temirni bosqonlar bilan dam urib alangalatib eritib olov holiga keltirdilar. Ana shunda Zulqarnayn odamlariga, endi eritilgan mis olib kelinglar, olov bo'lib turgan temir ustidan quyaman, dedi.

Ya. va M.lar Zulqarnayn qurgan radm-devor to'siq ustiga chiqa olmadilar va ular uni teshib ham o'ta olmadilar. Zulqarnaynga Ya.va M.dan shikoyat qilib yordam so'ragan qavmlar omonlikka erishdilar.

Ya. va M. haqida Anbiyo surasida quyidagilar aytiladi:

"Nihoyat, Ya'juj va Ma'juj ochilib, ular har bir tepapikpardan oqib kelganlarida. Va haq va'da yaqinlashgandagi holni ko'rsang, kufr keltirganlarning ko'zlari chaqchayib "Holimizga voy! Bizlar bundan g'aflatda edik Yo'q! Bizlar zulm qilguvchilar edik", derlar" Kahf surasida aytib o'tilganidek, qiyomatning alomatlaridan biri - Zulqarnayn kurgan sadd-to'gon ochilib, Ya. va Mlar chiqib ketishidir Demak, ular juda ko'p bo'lib, ko'pliklaridan yurganlarida xuddi sel oqqandek oqib kelar ekanlar.

Saddi Zulqarnayn bilan yo'li to'silgan Ya. vaM.lar haqida turli gaplar juda ham ko'p Ba'zilar ular mo'g'ul-tatarlar, deganlar. Shuningdek, Ya. va M. haqida bir qancha hadislar ham kelgan.

Imom Ahmad ibn Hanbal Sufyoni Savriydan qilgan rivoyatda Payg'ambar (sav)ning zavjai mutahharalari ummul mo'minin Zaynab bint Jahsh onamiz quyidagilarni aytadilar "Rasululloh (sav) uyqularidan yuzlari qizargan hollarida: "Arablarning holiga yaqinlashgan yomonlikdan voy bo'lsin, bugun Ya'juj Va Ma'juj radmi-saddidan mana shuncha ochildi" deb turdilar, bosh va ko'rsatkich barmoqlarini xalqa qilib ko'rsatdilar. Men: "Ey Allohning Rasuli, ichimizda ahdi solihlar bo'la turib halok bo'lamizmi? Dedim. U kishi "Ha, agar yomonlik ko'paysa", dedilar".

Shuningdek, Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Ibn Moja, Imom Ahmad, Imom Abu Dovudlarning rivoyatlarida ham Ya. va M. haqida xabarlar kelgan.

Aqoid ilmi ulamolari Ya. va M. haqidaga oyati karima va hadisi shariflarni mukammal o'rganib, quyidagi xulosani aytadilar: "Ya. va M. juda ham ko'p sonli bir qavm bo'lib, ularning chiqishlari qiyomatning alomatlaridan bir alomatdir. Ular yer yuzini fasodga va xarobaga to'lg'azadilar. Ularning qachon chiqishini esa, Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi".

YA'QUB (as) - Qur'onda tilga olingan paygambarlardan biri. Ishoq (as)ning o'g'li, Yusuf (as)ning otasi Ya. (as) Allohning birligiga, ibodatiga da'vat etuvchi payg'ambarlardan bo'lgan. Qur'onda uning taqvodorligi va payg'ambarligi Allohning Ibrohim(as) avlodlariga ko'rsatgan marhamati sifatida ifodalangan (2:136/130, 140/134; 6:84). Ya. (as) o'g'illari orasida Yusuf (as)ga nihoyatda mehr qo'ygan edi. Bundan ranjigan boshqa o'g'illar Yusuf (as)dan kutulish yo'lini izlaydilar. Uning joniga jabr qilib, quduqqa tashlaydilar. Ya. (as) sevimli farzandi dardida yig'layverib ko'zi ko'r bo'lib qoladi. Qur'onda aytilishicha, Yusuf (as)ning ko'ylagi Ya. (as)ning yuziga tekkach, uning ko'zlari ochiladi. Rivoyatlarga ko'ra, yer yuzidagi barcha yahudiylar Ya. (as)ning o'n ikki farzandlaridan tarqalgan.

YA'QUB CHARXIY Usmon bin Muhammad (taxm. 1363, Razna, Afg'oniston - 1447, Chag'oniyon hoz. Denov) - olim va tasavvuf murshidi. Razna sh.ga tobe bo'lgan Charx qishlog'ida tavallud topgan. Ch. boshlang'ich ta'limni avval Charxda, so'ng G'aznada olgandan keyin 1380 y. Hirotdan Buxoroga keladi. Buxoroda u Bahouddin Naqshband (1318-1389) bilan uchrashadi. U Ch.ni muridlikka qabul qilib, zikr aytish qoidasidan ta'lim beradi. Ch. Naqshband vafotidan so'ng Badaxshonda, so'ng Alouddin Attor (vaf. 1400 y.) taklifi bilan Chag'oniyonda yashadi. Attor vafotidan so'ng to umrining oxirigacha Halg'atu (Dushanbe yaqinida) qishlog'ida yashab, o'z asarlari va faoliyati bilan naqshbandiya tariqati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ch. Xoja Ahror (vaf. 1490 y.)ning murshididir.

Ch. nafaqat tariqat murshidi, balki yetuk olim ham bo'lib, undan bizga tasavvuf, fiqh, tafsir va davlatchilikka oid asarlar meros bo'lib qolgan. U o'z hayoti davomida 10 ga yaqin risola yozgani ma'lum, lekin bizgacha 7 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi tasavvufga, 1 tasi fiqhga, 1 tasi tafsirga, 1 tasi davlatchilikka oiddir. Ular quyidagilardan iborat: "Risolai qudsiya" ("Qudsiy kalimalar haqida risola"), "Risolai abdoliya" ("Abdollar haqida risola"), "Sharhi asmoulloh" ("Alloh ismlarining sharhi"), "Risolai unsiya" ("Do'stlik haqida risola"), "Tafsiri Charxiy" ("Charxiy tafsiri"), "Kitob ul-faroiz" ("Meros taqsimi haqida kitob"), "Risola darmanoqib va aqoyid" ("Manoqib va aqoyid haqida kitob").

Ch. hayoti va ilmiy faoliyati haqida M. Razzoqova 2001 y.da "Ya'qub Charxiyning ilmiy merosi va uning naqshbandiya tariqati rivojida tutgan o'rni (X1U-XU)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ch.ning qabri obod ziyoratgohdir.

YAHYO (as) - Qur'onda zikri kelgan payg'ambarlardan biri. Zakariyo (as)ning o'g'li. Ya. (as) yoshlikdan ibodatga berilgan, Tavrotdaga hukmlarga astoydil amal qiladigan, nihoyatda halim va kamtar bo'lgan. Iso (as) xudoning elchisi ekanligani birinchi bo'lib oldindan aytgan, unga ishongan va yordam bergan. Voyaga yetgach, Shomga borib u yerdagilarni Allohning birligiga ishonishga, yolgiz Ungagina ibodat qilishga da'vat etgan. Ya. (as)ning shahid bo'lishi haqida bir qancha rivoyatlar bor. Shulardan birida

aytilishicha, u nihoyatda kelishgan, chiroyli bo'lgan. Podshohning xotinlaridan biri uni yaxshi ko'rib qolib, o'z muhabbatini izhor etadi. Lekin Ya. (as) ayollarga shahvoniy munosabatda bo'lmasligini aytib, malikaga hech qachon eriga xiyonat etmaslikni nasihat qiladi. Ya. (as)ning bu harakatidan jaxli chiqqan ayol o'zining siri oshkor bo'lib qolishidan qo'rqib, podshohdan uni o'ldirishni talab etadi. Ya. (as) mehrobda ibodat qilib turganida o'ldiriladi. U shahid bo'lgach, bu ishga Parvardigorning qahri kelib, podshohning butun xonadoni bilan yer yutgani rivoyat qilinadi. Damashqdagi umaviylar masjidida joylashgan Ya. (as) sag'anasi musulmonlar ziyoratgohi sanaladi.

YAHUD - yahudiylar. Ya. istilohi Qur'onda Makka davrida paydo bo'lgan, Muhammad (sav) zamondoshlari bo'lgan yahudiylarni yoki umuman yahudiylarni anglatgan va odatda nasorolar (xristianlar) bilan yonma-yon uchraydi (3:67/60; 5:18/21, 82/85; 9:30 va b.). Madinagacha yahudiylarning muqaddas tarixiga qilingan ko'plab iqtiboslarda, asosan, Banu Isroil - "Isroil farzandlari" iborasi ishlatilgan. Qur'onda yahudiylarga nisbatan 2 xil yondashuv aks etgan. Bir tomondan ular musulmonlar kabi yakka xudolik tamoyillariga amal qilishgan, shuningdek, Ibrohim (Avraam) elchiliga bilan bog'liqsirlar, islom iudaizm (yahudiylar) tomonidan yo'qotilgan izchil yakkaxudolikni tozalagandek va tiklagandek edi, yahudiylar ahdi kitobga mansub edilar. Muhammad (sav) Makkada va Madinada bo'lganlarining dastlabki paytlarida Yasrib (Madina) va Shim. Arabistondagi ko'plab vohalar aholisiining anchagana qismini tashkil qilgan yahudiylar orasidan o'zlariga safdosh va izdopshar topish umidida edilar. Biroq, Yasrib yahudiylari Muhammad (sav)ning payg'ambar ekanliklarini tan olmadilar va u zotni ishonchsiz va masxaralab kutib oldilar, so'ngra qurayshiylar bilan ittifoq tuzib, Rasulullohning ochikdan-ochiq dushmaniga aylandilar. Natijada, hijratning dastlabki yillarida musulmonlar bilan yahudiylikka e'tiqod qilgan yasribliklar o'rtasida bir nechta to'qnashuvlar sodir bo'lib, oqibatda Banu Qaynuqo, Banu Kurayza va Banu Nadir qabilalari a'zolari Madinadan kavg'in qilinganlar, so'ngra yahudiylarning markazlari - Xaybar, Fadak va b.ga harbiy yurishlar qilingan. Arabistondagi yahudiy jamoalari bilan raqobat Qur'onda ham aks etgan. Uzayr (Yezdra)ni ilohiylashtirganlari uchun yahudiylar qoralangan (9:30).

YEVROPA ISLOM KENGASHI - Yevropadagi 12 mamlakatda ish ko'ruvchi 30 dan ortiq islom markazlari va tashkilotlarining faoliyatini boshqarib turuvchi organ. 1973 yilda Londonda tuzilgan. Kengash islom tarixi muammolari, dolzarb siyosiy masalalar bo'yicha anjumanlar o'tkazadi, faol targ'ibot ishlari bilan shug'ullanadi, bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarib turadi.

YEZDRA, Ezra - Qadimiy Ahdda nomi kelgan rohib, Qonunni o'rgatuvchi shaxs. Qur'onda nomi zikr etilgan Uzayr bilan bir deb hisoblanadi. Qur'onda aytilishicha (9:30), xristianlar Iso Masihni Xudoning o'g'li degani kabi yahudiylar Uzayrni Xudoning o'g'li deganlar. Rivoyatlarga ko'ra, yahudiylar Tavrot solingan kutini yo'qotganlarida Uzayr ushbu muqaddas kitobni tiklab bergan. Tavrot topilganidan so'ng Uzayr tiklagan kitob bilan bir xil ekani ma'lum bo'lgan. Shundan so'ng yahudiylar Uzayrni Xudoning o'g'li deganlar.

YETIM - islom ta'limotiga ko'ra, onadan emas, otadan ayrilgan norasida (balog'at yoshiga yetmagan) go'dak. Chunki, farzand tug'ilganidan so'ng uni boqib, voyaga yetkazish otaning zimmasida bo'ladi. Ye.ning hakqini yeyish katga gunoh hisoblangani kabi uni o'z kafolatiga olish, unga nisbatan yaxshi muomalada bo'lish eng ulug' savoblardan sanaladi. Bu hakda ko'plab Qur'oni karim oyatlari va Paygambar hadisleri mavjud. Sadaqa berish va har qanday ehson qilishda miskin, faqirlar bilan bir qatorda Ye.ning ham haqqi bor ekani zikr etiladi.

YOSIN, Yasin - Qur'ondagi 36-suraning nomi. Sura avvalidagi "ya" va "sin" harflaridan tashkil topgan "yosin" kalimasi suraga nom bo'lib qolgan. Bu sura Makkada nozil bo'lgan va 83 oyatdan iborat. Yo.ning fazli haqida ko'pgina xadislarda rivoyat qilingan. Ularning aksariyatida Yo. surasi Qur'onning qalbi ekani ta'kidlangan. Shuning uchun "Qur'on qalbi" suraga ikkinchi nom bo'lib qolgan. Makkada nozil bo'lgan boshqa suralar kabi Yo. ham asosiy e'tiborini e'tiqod masalasiga qaratadi. Xususan, qayta tirilish, Payg'ambarlik hamda Alloh taoloning vahtsoniyati masalalariga apohida e'tibor beradi. Surai karimaning boshida Qur'oni karim bilan qasam ichilib, Muhammad (sav)ning haqiqiy Payg'ambar ekanliklari ta'kidlanadi. Jaholatga botgan quraysh kofirlarining haddan oshib, Muhammad (sav)ni yolg'onchiga chiqarganlari haqida so'z yuritiladi. Shundan so'ng bir qishloqqa yuborilgan Payg'ambarlar va ular bilan o'sha qishloq aholisi orasida bo'lib o'tgan hodisalar keltiriladi. Payg'ambarlikni inkor etganlarning oqibati nima bilan tugaganiga urg'u beriladi. Iymonga kelgan bir odamning o'zini qanday tutgani va uning oqibati nima bo'lgani ham ajoyib uslub bilan bayon etiladi. Keyin esa, Alloh taoloning borliqdagi vahdoniyatiga va cheksiz qudratiga dalolat qiluvchi hodisalar haqida so'z ketadi. Ko'rib-qaqrab yotgan yerga hayot kirishi, kecha bilan kunduzning almashinuvi, quyoshning ziyo sochib, o'z o'rnida aylanishi, oynning burjlarga chiqib-botib turishi va b. jarayonlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, qiyomat kuni va uning dahshatlari, sur chalinib, o'liklarning qayta tirilishi, ularning mahsharga to'planishi, kishilarning mo'min va kofirga ajralishi, ularga mukofot va jazo berilishi kabi mavzularga ham surada o'rin berilgan. Yo. insonlarning jismoniy azoblarini yengillashtiradi, shuning uchun uni ovoz chiqarib o'lim to'shagida yotgan bemor tepasvda yoxud ro'za vaqtida o'qiydilar. Yo. dafn marosimida, qabr tepasida ham o'qiladi. Hadisi shariflarda rivoyat qilinishicha, kimki bu surani ixlos bilan o'qisa hojati ravo bo'lishi, och bo'lsa qorni to'yishi, tashna bo'lsa serob bo'lishi, kiyim-boshga ega bo'lishi, xavf-xatarda bo'lsa xotirjamlik topishi, kambag'al bo'lsa boy bo'lishi, mahbus bo'lsa ozod bo'lishi, qarzdor bo'lsa qarzidan oson kugulishi kabi va'dalar bayon qilingan. Yo. surasi yozilgan tumorlarni taqib yurish qadimdan udum bo'lgan. Sura erkaklar ismidida ham uchraydi. YoFAS, Abu Turk (g'arb manbalarida Iafet, Yafet) s Nuh payg'ambarning uch farzandidan biri (Som, Xom bilan birga). To'fondan so'ng omon qolgan Nuh (as) o'g'illariga Yer yuzini bo'lib bergan. Jumladan, Ye. «otasining hukmi birlan... Atil (Itil) va Yoyiq suvining yoqosig'a bordi. Ikki yuz ellik yil anda turdi. Taqi vafot tobd. Sakkiz o'g'li bor edi (Turk, Xazar, Saqlab, Rus, Ming, Chin, Qamari, Tarix)» («Shajarayi turk»). To'ng'ich o'g'li nomidan Yo.ni «Abu Turk» («Turkning otasi») deb ham atashgan. Mirzo Ulug'bekning yozishiga qaraganda, Yo.ga «Chin Mashriqining boshqa muhitlari, Qomarun tog'lari va rus yerlari oxirigacha cho'zilgan oq cho'qqilar va beshinchi iqpimning qolgan uchdan bir qismi to ma'mur yerlarning oxirigacha va Shimolning zulumatigacha yerlar baxsh etilgan edi... Aytadilarki, Turon zamin va Turkistonni Yo. (as) o'ziga asrab qo'ygan edi. Shu sababli uni Abut-turk deyishgan». Qadimda turkiy o'jalarda yomg'ir yog'diruvchi tosh (yada toshi) yordamida duo o'qib osmondan yomg'ir-qor yog'diruvchi kishilar bo'lgan. Mana

shu yada ilmuni Ye.ga otasi Nuh (as) o'rgatgan degan nakd bor. Turk otasining vafotidan so'ng Yo. uning o'rniga o'tirib yurtni boshqargan. Xalq uni Yo. o'g'lon deb atagan.

YOQUT HAMAVIY, Abu Abdulloh Shahobiddin Yoqub ibn Abdulloh ar-Rumiy (1179-1229) - mashhur sayyoh, geograf, adib, tarixchi. Bolalik chog'ida asir olingan. Uni bag'doddik savdogar Asqar al-Hamaviy Suriyaning Hama (Hamot) shahrida sotib olgan va qullarga xos ismlardan Yokut ismini berib, Hamaviy nisbasi bilan atalgan. Yo.H. savod chiqargach, xo'jasining tijorat ishlarini tartibga solib turgan. Keyinroq savdo ishlari bilan xo'jasiga hamroxdik qilib ko'p mamlakatlarni kezgan. 20 yoshida qullikdan ozod qilingach, Bag'dod sh.ga borib, ilm o'rganishni davom etgangan. 13-a. boshida Xurosonning Marv sh.da yashagan. 1213 y. safarga chiqib, 16 y. davomida Suriya, Falastin, Misr, Arabiston ya. o. janubi, Iroq, Eron, Afgoniston, Movarounnahrda bo'lib, geografiya, tarix, filologiya, etnografiyaga oid ma'lumotlar to'pladi. Manbalardan Yo.H. yozgan qariyb o'nta asarning nomi ma'lum. Shulardan 1224 y. yozib tugatgan 14 jildli toponimik asari «Mu'jam ul-buldon» («Mamlakatlar qomusi»)da Farg'ona vodiysi shahar va qishloklariga oid ma'lumotlar ham bor. Yetti jilddi «Mu'jam ul-udabo» («Adiblar qomusi») biografik asarida 7-13-a.lar boshigacha yashagan va arab tilida ijod qilgan qariyb 1100 olim mufassir, muhaddis, faqih, adiblar hakidagi ma'lumotlarni jamlagan. Asarda, jumladan, O'rta Osiyoning Xorazm, Buxoro, Marv, Axsjat, Samarqand, Farg'ona, Forob kabi shahar va viloyatlaridan chiqqan olimlar (Abu-l-Vafo Muhammad Axsikatiy, Abu Rashod Axmad Axsikatiy, Abu Nasr Forobiy, Mansur ash-Shoshiy, Abu-l-Hasan O'zgendiy va b.)ning nomi zikr qilingan. «Mu'jam ul-udabo»da muallif buxorolik Ifriqiy ijodidan bahramand bo'lganligani ta'kiddagan. Bu ikki yirik asar qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan, ular Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari kutubxonalarida saqlanmoqtsa. Yo.H. asarlari 13-a.gacha bo'lgan davr geografiyasi, adabiyoti, tili, tarixini o'rganishda muhim manba sanaladi.

YUGNAKIY, Ahmad ibn Mahmud (taxm. 12-a.oxiri - 13-a. boshlari) - shoir, olim. Ahmadning bobosi Movarounnahrda islom dinini ilk qabul qilgan turkiy qavmlardan bo'lgan. Alisher Navoiy o'z asarlarida Yu.ni O'rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo'yib, uning tug'ma ko'rliigi haqida yozadi. Yu.ning "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armugoni") asari saqpanib qolgan. U ilk islom davrining turkiy tildagi madaniyat obidasidir. Bu asar turkiy elatlarga islomiy odob qoidalaridan ta'lim berishga mo'ljallangan. Asar boshdan oyoq tavhid e'tiqodiga tayanadi, muallif fikrlari Qur'on oyatlari, Payg'ambar hadislarini bilan dalillanadi. "Hibat ul-haqoyiq" O'zbekistonda keng o'rganilib, o'zbek adabiyoti tarixi darsliklariga kiritilgan.

YUNUS (as) - Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Zu-n-nun, ya'ni katta baliq (kit) ning hamrohi degan nom ham olgan. Qur'onning 10-surasi uning ismi bilan ataladi. U Allohning yagonaligini tan olmagan o'z qavmidan g'azablanib, Parvardigorining iznisiz shahridan chiqib ketadi va dengiz qirg'og'iga keladi va u yerda ketishga hozirlanib turgan kema egalariidan o'zini ham birga olib ketishlarini iltimos qiladi. Kema sohiblari rozi bo'lib yo'lga chiqishgach, ko'p o'tmay Allohning amri bilan qattiq shamol turib kuchli to'lqin boshlanadi va kemaning cho'kishi aniq bo'lib qoladi. Shunda kemadagilar "Bizning oramizda kimdir gunohkorga o'xshaydi", deyishdi va o'zaro maslahat qilishib, qur'a tashlashga, kimgaki qur'a tushsa, o'sha odam gunohkorligiga aniq bo'lishi va uni suvga

tashlab o'zlarini saqlab qolishlariga kelishib olishdi. Kur'a bir necha bor tashlansa ham Yu.(as)ga tushaverdi. Shundan so'ng Yu(as) dengazga tashlandi. Alloh katta bir kitga Yu.(as)ni yutishni va unga biron aziyat yetkazmaslikni amr etdi. O'z xatosini tushungan Yu.(as) Allohga tavba-tazarru qildi Alloh Yu.(as) ning duolarini qabul etib kitga amr qildi va kit uni dengaz sohiliga chiqarib tashladi. Shundan so'ng u yana o'z qavmini da'vat qiladi va xalq Yu.(as)ga imon keltirib 6u dunyo jazolaridan qutuladi. Bu hakda Soffot surasi 139-148-oyatlarda va Anbiyo surasi 87-88-oyatlarda bayon qilingan. Yu.(as) qissasida qavmni hidoyatga boshlashda sabr-toqatli bardoshli bo'lishga da'vat bor. Hoz. vaqtda Iroqda Yu.(as) payg'ambarning Mosul sh. yaqinidagi qabri qadamjolarida hisoblanadi.

YUSUF (as) - Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Ya'qub (as) ning o'g'li Qur'onning 12-surasi Yu.(as)ning nomi bilan ataladi va undagi hikoya "eng go'zal qissa" deb nomlanadi. Alloh Yu.(as)ga tushlar ta'birini aniq ayta olish qobiliyatini ato etdi. Naql qilishlaricha, Ya'qub (as) o'z farzandlari orasida Yu.(as)ni ko'proq yaxshi ko'rar edi. Akalari unga hasad qilib quduqqa tashlab yuboradilar va Yu.(as)ning o'limi haqida otasiga yolg'on gapiradilar va Yu.(as)ni dashtda bo'ri yeb ketdi deb aldaydilar. Karvonchilar Yu.(as)ni kudukdan chiqarib misrlik badavlat odamga sotadi. Uning xotini Zulayho Yu.(as)ni sevib qolib yo'ldan urmoqchi bo'ladi. Yu.(as) Allohdan qo'rqib, ko'nmaydi va Zulayho ig'vosi tufayli gunohsiz zindonga tashlanadi, zindondagilarning va Misr hokimining tushi ta'birini to'g'ri aytib, u yerdan qutuladi. Davlat xazinasini saqlovchi lavozimiga tayinlanadi. Yu.(as)ning yurti Falastinda ocharchilik boshlanib, akalari uning oldiga keladi. Yu.(as)ning hayot ekani xursandchilik xabarini eshitgan otasi Ya'qub(as)ning ko'zi tuzalib ko'radigan bo'ladi. Islom an'anasida Yu.(as) chiroyli yigit sifatida tasvirlanadi. Qur'onda Alloh barcha ummatlar boshlariga tushgan balo-qazolarga sabr-qanoat qilsa, ularni kulfatlardan xalos etib saodatli kunlarga yetkazajagi uqtiriladi.

YUSUF HAMADONIY - q. Hamadoniy.

- Z -

ZABUR - diniy manbalarga ko'ra, Dovud(as)ga. nozil bo'lgan ilohiy kitob. Bibliya "Qadimga ahd" kismining bo'limi. Yunon tilida "rsalom" ("psalom"), "psalterion" ("psaltir"), qad. yahudiy tilida "tahalim" deb atalgan "Hazrati Dovudning sanolar kitobi" nomi bilan mashhur bo'lgan diniy-musiqiy oyatlar majmui. Mil av. 1500-500-yillarga tegashli. 3. sanolari, asosan, Xudoga bag'ishlangan madhiyalar, duolar, shukrona, iltijo, nola-fig'on, dushmanlardan shikoyat va h.k.dan iborat. Ularga ko'ra, xudo hamma narsalarni ko'rib-bilib, inson qalbini doim sinab-imtixon etib turuvchi zotdir, u Isroil mamlakati tarixida ham g'aroyib mo'jizalarni namoyon qilgan. Ayrim sanolarda Yaso(as)ning dunyoga kelishi, azob chekib, jon taslim etishi, so'ng tirilib, yer yuzida abadiy hukmronligini o'rnatishi bashorat etilgan (mas., 2, 21, 44, 71, 109-sanolar). Z.ning ba'zi oyatlari Injilga aynan ko'chirilgan, Iso(as) shu oyatlar mavzuida pandu nasihatlar qilgan ekan. Qur'oni karimning "Sod" surasi (18-20-oyatlar)da Dovud(as) sanolari tilga olinadi. Z.ning asl nusxasi ajoyib she'riyat namunasi sifatida Yevropa xalqlari madaniyati va san'atiga, og'zaki ijodiga barakali ta'sir ko'rsatgan. Z.ning o'zbek tilidaga to'liq matni Bibliyani tarjima qilish instituti (Stokgolm) tomonidan 1992 y.da "Injil", "Tavrot" ("Ibtido"), "Zabur" kitobi tarkibida chop qilingan (tarjimon doktor Yusuf Gulkarov).

ZAYD ibn ALI (7-740) - shialikdagi zaydiylar firqasining asoschisi. Muhammad (sav) oilasining avlodi sifatida imomlikka da'vogarlik qilib, 739 y.da Kufa sh.da umaviylar hokimiyatiga qarshi isyonga bosh bo'lgan. Muhammad al-Bokirning sustligidan norozi bo'lgan shialar uning ukasi g'ayratli Z.i.A. atrofida birlashib, uni imom deb e'lon etadilar. Ammo xalifa Hishom (724-743) qo'shinlari 740 y. isyonni bostiradi. Z.i.A.ning o'zi jangda halok bo'ladi. Jasadi Kufada chormix qilinib, kesik boshi Damashqqa, xalifa Hishomga yuboriladi.

Z.i.A. tarafdorlari alohida diniy-siyosiy guruh tuzib, Hazrat Ali avlodiga mansub imom boshchiligida diniy davlat tuzishga intiladi. Ular Z.i.A.ni so'nggi - 5-imom deb bilib, keyingi imomlarni tan olmagan. Z.i.A. o'zining imomat da'vosini Hasan va Husayndan so'ng Ali va Fotimaning har qanday avlodi imom bo'lishi mumkin, deb asoslagan. Imomlikka da'vogar ko'liga kurol olib, isyon ko'tarishi - imomatga o'tirishning asosiy sharti, deb bilgan. Shialarning imomlari, xususan, Jafar as-Sodiq esa, o'z tarafdorlarni qurolli isyon ko'tarmaslikka chaqirgan edi.

ZAYD ibn SOBIT, Abu Xorija (Abu Said) Zayd ibn Sobit ibn az- Zahhok al-Ansoriy al-Xazrajy (taxm. 615 - taxm. 665) -Muhammad (sav)ning kotibi, Qur'on yozma matni tuzuvchisi. Xazraj qabilasidan. 11 yoshida islomga kirgan va Muhammad (sav) huzurida Qur'onni o'rgangan. Sahobalarning yetuk namoyandalaridan biriga aylangan. Oromiy (suryoniy) hamda yahudiylar xati (yozuvi) va tilini bilgan. Muhammad (sav) vafotidan so'ng xalifa Abu Bakr as-Siddiq (ra) unga Qur'on matnini jam qilishni buyurgan. Xalifa Usmon ibn Affon (ra) davrida (650 y.dan so'ng) unga uch makkalik (Abdulloh ibn az-Zubayr, Sa'd ibn al-Asom, Abdurahmon ibn al-Horis) bilan birga Qur'onning rasmiy yozma matnini tuzish topshirilgan. Tuzilgan bu to'plam "Mushaf", "Usmon mushafi" nomi bilan yuritilgan. Uni xalifa Usmon (ra) birdan-bir to'g'ri va barcha musulmonlar o'qishi uchun majburiy matn, deb e'lon qilgan. Undan farq qiladigan to'plamlarning barchasini

yo'qotish haqida buyruq berilgan. Z.i.S. shuningdek mol-mulknı taqsimlash qoidalari (faroiz) ning bilimdoni, hazrat Umar (ra) davrida qabilalar devonini tuzuvchılardan biri ham bo'lgan. Xalifa Usmon (ra) davrida Madınada xalifaning xazinaboni bo'lgan va qozilik qilgan.

ZAYD ibn HORISA (? - 629) - sahoba, Muhammad (sav)ning ozod qilgan quli va tutingan o'g'li. Yoshligidan Payg'ambar (as) oilasida tarbiyalangan. Xadichadan keyin makkalik ilk musulmonlarning uchinchisi, Qur'onda zikr qilingan birdan-bir sahoba (Ahzob, 37). Zaydning otasi Horisa qadoa qabilasidan edi. Kichik yoshdaga Zayd onasi bilan birga qabila ziyoratiga borayotib asir tushgan, Makkaga keltirib Ukoz tijorat markazida sotilgan. Bozordan hazrati Xadichaga atab sotib olingan. Zaydni keyinchalik Xadicha onamiz hazrati Muhammad (sav) ga hadya qilgan. Rasuli Akram (sav) esa, uni qullikdan ozod etganlar va Zayd otasi va qabilasiga qaytib ketishni istamagach, uni farzandlikka qabul qilganlar. 3. Badr jangidan tortib Muta jangida shahid bo'lgunga qadar barcha g'azavotlarda Muhammad (sav) bilan birga bo'lgan. Payg'ambar (as) chor atrofga yuboradigan sariyyalarga (o'zlari bo'lmagan qo'shinlarga) doimo Zaydni amir etib tayinlaganlar. Zayd Muta jangida kdtınashgan askariy qo'shinga amirlik qilgan va jangda halok bo'lgan.

ZAYDIYLAR - shialikda vujudga kelgan firqa tarafdorlari. 8-a. o'rtalarida paydo bo'lgan. Arab xalifaligida ziddiyatlar keskinlashib, guruhlar o'rtasidagi kurash kuchaygan, umaviylar hokimiyati inqirozga uchragan davrda vujudga kelgan. Firqa shialarning 5-imomi Muhammad al-Bokirning ukasi Zayd ibn Ali Zayn al-Obidin nomi bilan atalgan. 864 y.da Z. qo'zg'oloni Shim. Eronda g'alaba qilib, mustaqil davlat vujudga keldi. Tabariston, Daylam, Gilon viloyatlarini o'z ichiga olgan bu mustaqil davlatdagi Z. imomlari 300 yilcha hukmronlik qilgan. 901 y.da Z. Yamanda ham hokimiyatni qo'lga kiritib, mustaqil davlat tuzgan. Yamanda Z. hukmronliga 1962 y. 26 sent. inqilobigacha, ya'ni Yaman respublika deb e'lon qilinguncha davom etgan. Z. Zaydni so'nggi 5-imom hisoblab, undan keyingi shia imomlarini tan olmaydi. Ular o'z aqidalari va marosimlari jihatidan shialar va sunniylar o'rtasida turib, har ikkala oqimga nisbatan murosasozlik yo'lini tutadi. Z. yashiringan imom Mahdiyga ishonmasliklari, Alidan ilgarigi uch xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon)ni la'natlamasliklari, taqiyya tamoyilini va muta (yoki siyg'a) nikohini inkor etishlari bilan shialardan, avliyolar va mozorlarga sig'inishni hamda darvishlik va zohidlikni inkor etishlari bilan sunniylardan ajralib turadilar. O'z aqidalarida mu'taziylardan iroda erkinligi va Qur'onni Alloh yaratganligini, xoriyiyatlardan esa, diniy e'tiqodni amaliy faoliyat bilan mustahkamlash tamoyillarini qabul qilib olganlar. Hoz. Yaman aholisining yarmidan ko'prog'i Z. firqasiga mansub. Saudiya Arabistonida, Pokiston va b. davlatlarda xam bor

ZAYNIDDIN BOBO, Shayx Abu Bakr Zayniddin boboKo'yi Orifon Toshkandiy (1164-1259) - shayx. Otasi Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suxravardiy, Bag'dodning katta mutasavviflaridan bo'lgan, suxravardiya tariqatiga asos solgan. Shayx Shahobiddin Suxravardiy 1215 y. Bag'dod xalifasining elchisi sifatida xorazmshoh Muhammad huzuriga kelgan. Shunda Z. ham otasi bilan Movarounnahrga kelgan va keyinchalik Shosh (Toshkent)da, shaharning Ko'kcha dahasidagi Ko'yi Orifon mahallasi (laqabi shundan)dagi mavjud maqbara chillaxonasida hayot kechirgan va tasavvuf bilan

shug'ullangan. Tarixiy manbalarda Z. "sayyidlarning ulug'i va sharif kishilarning karomatlisi va buyugi", "oriflarning qutbi va ishonchli rahnamosi" deb ta'riflanadi. Amir Temur 1391-92 va 1402 ylarda Z. maqbarasini ziyorat qilgan va ta'mir ettirgan. Z. Toshkentda vafot etgan.

ZAYNIDDIN BOBO MAQBARASI, Shayx Zayniddin bobo maqbarasi - Toshkentdaga me'moriy yodgorlik (13-14-a.lar). Amir Temur Ko'kcha darvozasi tashqarisidagi Orifon qishlog'iga dafn etilgan Zayniddin boboga atab soldirgan. Arxeologik tekshirishlarga ko'ra, yodgorlik yonida joylashgan chillaxona 12-13-a.larga, maqbara o'rnida bo'lgan xonaqoh 14-a.ga oid. Maqbara devori asosi 16-a.da qurilgan, tepasi va peshtoqi 19-a. oxiri - 20-a. boshlarida ta'mir etilgan. Tashqi gumbaz baland asosga o'rnatilgan. Yog'och darvozaga ustaning nomi -"Mirsharob Abdumo'min o'g'li" o'yib yozilgan. Darvoza tepasidagi deraza o'rnida yog'och panjara saqlanib qolgan. 13-14-a.larda maqbara atrofida qabriston vujudga kelgan.

ZAKARIYO (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Z. (as) Qur'onda 8 joyda zikr qilingan. 3. (as)ning nasabi haqida Qur'onda biron narsa deyilmagan. Z. (as) yoshi ulg'ayganda ham befarzand edi. Shu sababli o'zlaridan keyin "Bani Isroil" qabilasining ahvoli ne kechar ekan, deya ko'p o'ylardi. Chunki, ular shariat ahkomlariga yaxshi rioya qilmas, Z. (as)dan keyin ularga nomaqbulroq kishi sardorlik qilsa, ular zalolat ko'chasiga kirib ketishlari aniq edi. Qur'onda kelganqtsek, o'zini ibodatga bag'ishlagan Maryamga Z. (as) kafillik qilar, zero, Z. (as) Maryamning xolasining eri edi. Z. (as) masjiddan Maryam uchun maxsus joy hozirlab, har kuni uning holidan xabar olib turar edi. Masjidda Maryamga g'oyibdan turli taomu sharbatlar, mevalar in'om etilayotganini sezgan Z. (as) uvdan bu nozu ne'matlar qaerdan kelayotganini so'radi. Maryam bularning barchasi Allohning marhamati ekanligini aytdi. Shunda, Allohning har narsaga qodir ekanini bilgan Z. (as) Allohning marhamatidan umid qilib, qarib, zaif bo'lib qolgani va befarzandlik dog'i uni kuydirayotganini arz etib, Allohdan iltijo bilan farzand so'radi. Farzand so'rashidan asosiy maqsad nasl qoldirish va o'zidan keyin qavmu qarindoshlarini yomon yo'lga yurib ketishlaridan saqlab, ular orasida odilona hukm yurgazadigan o'rinbosar bo'lishini istagan edi. Bu hakda Ol Imron surasi 37-38-oyatlarda va Maryam surasi 2-7-oyatlarda bayon qilingan. Alloh taolo Z. (as)ning duosini qabul etganini, Yahyo ismli farzand dunyoga kelishi bashoratini maloikalar Z. (as)ga yetkazadilar. Z. (as) "o'zim qari, xotinim yoshligidan befarzand bo'lsa, endi bu xushxabar qanday bo'lar ekan" deb taajjublanadi. Shunda unga: "Bu Allohning irodasi. Alloh har narsaga qodir zotdir" - degan vahiy bo'ladi. Z. unday bo'lsa xotini homilador bo'lganligini qanday qilib bilishi mumkinligini Allohdan so'raganida - "Xotining homilador bo'lganida sen odamlarga gapira olmay, tiling so'zga kelmay qolur. Faqat ishora bilangana ularga xitob qila olursan. Bu holat 3 kun davom etur. Ana shunda bilgilkim ayoling farzandga homilador bo'lgan bo'lur. Shu kunlarda sen Allohga tasbeh va tahlil aytishga mashgul bo'lgan", - degan xitob bo'ldi. Bu haqda Ol Imron surasi 41-oyatda bayon qilingan.

ZAKOT (arab - tozalash, sadaqa berish) - mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning besh asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka nisobga ega bo'lgan musulmon 3. beradi. Uning mikdori (85 gr. oltin

mikdoridagi mablag). Mazkur mablag kishining o'zi va qaramog'idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lishi lozim. Bu mablag'ga kishining jamg'armasi, do'kondaga sotiladigan mollari, sotaman deb olib qo'ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Qur'oni karimning ayrim suralarida 3. namoz bilan yonma-yon zikr etilgan. U yilda bir marta berilishi shart bo'lgan xayr-ehson (sadaqa) qatoriga kiradi va ayni vaqtda ibodat hisoblanadi. Beriladigan Z. mikdori mablag'larning 1/40 ulushi (2,5%)ga teng; Zotan Z.ning asl hikmati faqir va muhtojlarning hojatlarini chiqarmoqdir. Z.ni bera olmaydigan musulmonlar olishga haqli, avval Z. qarindoshlar orasvdaga muhtojlarga, unday qarindoshlar bo'lmasa, so'ng boshqa kambag'al, qarzdor, musofirlarga beriladi. Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan Z. miqdori bir oz boshqacharoq belgilangan.

ZALOLAT (arab. - adashish, haqiqatdan yuz o'girish, gumrohlik) - haqiqiy e'tiqoddan adashish, yuz o'girish, aynish. Hidoyatning qarama-qarshisi. Sharq mutafakkirlarining ta'kidlashlaricha, Z. to'g'ri yo'ldan chiqib ketishdir. Boshqa guruhlar fikricha, Z. maqsadga erishish uchun olib boradigan narsaning yo'qligvidir. Tasavvuf axli odamni to'g'ri yo'ldan boshlab olib bora olmagan tariqatni Z. deb hisoblaydi.

ZAMAXSHARIY, Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (1075-1144) - tilshunos, shoir, mu'taziliylar nazariyotchisi, faqih. "Jorulloh" - "Allohning qo'shnisi", "Butun dunyoning ustoz", "Xorazm faxri" nomlari bilan ulug'langan. Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Otasi rahbarligida savod chiqarib, Gurganjda, Buxoroda ilm olgan. Bir necha yil xorazmshohlar saroyida xizmat qilgan. 1118 y.dan butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan. Ikki marta haj safarida bo'lgan. Ko'hna Urganchda vafot etgan. Z arab tili, adabiyot, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asar yaratgan, ularning 20 ga yaqini saqlanib qolgan. Uning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan "Qur'on haqiqatlari va uni sharxdash orqali so'zlar ko'zlarini ochish" ("Al-Kashshof an haqiq it-tanziyl va uyun-il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl) asari mashhurdir. 1132-1134 ylarda Makkada yozilgan bu kitob qisqacha "Kashshof" deb ataladi. Mu'taziliylik ruhidagi bu asarda Z Qur'onning yaratilgani g'oyasi ifodalangan. Tavhid (yakkaxudolik) tushunchasini, Alloh sifatlarini mu'taziliylar nuqtai nazaridan talqin qilgan. Asar Qur'on matnini chuqur filologik tahlil qilganligi bilan qimmatlidir. Bu asar dunyoning turli shaharlarida qayta-qayta nashr qilingan. Musulmon ahli, olimlar undan hozirgacha muhim dastur sifatida foydalanadilar. "Kashshof"ning yuzga yaqin qo'lyozmasi va unga yozilgan 20 dan ortiq sharhi bor. Z.ning fiqhga oid "Turli masalalarning muhimi", "Vorislilik huquqi ilmi bo'yicha mashq", din asoslari haqidagi "Usuldagi tartibotlar", "Shahodat kalimasi haqida risola", hadislarga bag'ishlangan "G'arib hadislar haqida ajoyib asar", shuningdek til, nahv masalalarini keng yoritgan kitoblari, she'riy devonlari saqlangan bo'lib, ular turli tillarga tarjima qilinib chop etilgan.

ZAMZAM, Obi zamzam- Makka sh.dagi "Masjidi Harom" sahnidagi muqaddas buloq. Ka'ba yonida bo'lib, hoz. vaqtda pastda -alohida va maxsus joyga o'tkazilgan suv jo'mraklari orqali ichiladi. Buloq suvi kengligi bir qarichdan ortikroq po'lat quvur orqali chiqadi, oynaband xonada xizmatchilar uni Masjidning birinchi, ikkinchi va uchinchi qavati (tomi)ga tarqalishini nazorat qilib turadilar. Suv tarqatgach uskunalar kecha-kunduz beto'xtov ishlaydi. Z tarixi uzoq. Rivoyatlarga ko'ra, buloqning paydo bo'lishi Ibrohim (as)ning o'g'li

Ismoilning tavalludi bilan bogʻlanadi: choʻlda qoldirib ketilgan bibi Hojar chaqalogʻi (Ismoil) dunyoga kelgach, yuvinish va chanqovini bosish maqsadida suv axtarib shu yaqindagi Safo va Marva tepaliklari orasida yetti marta yelib-yuguradi. Suv topolmay obdon toliqqan ona chaqalogʻi yoniga qaytsa, uning oyoklari ostidan suv chiqayotganligini koʻradi. Nima kdlarini bilmay shoshib qolgan bibi Hojar "zam, zam" (yaʼni "toʻxta, toʻxta!") deydi. Boshqa bir rivoyatda onaning mushkul ahvolidan boxabar boʻlgan Jabroil (as) yerni siypalab suv chiqarib bergan deyiladi. Lekin oradan koʻp asrlar oʻtib buloq koʻzi yopilib qoladi. Vaqti kelib Muhammad (sav)ning buvalari Abdulmuttalib buloq koʻzini qayta ochgan. Z Qurʻoni karimda tilga olingan. Z suviga yuz-qoʻllarni yuvish, undan ichish haj va umra amallarini bajarishning belgisi va savobli ish hisoblanadi. Ziyoratchilar qaytishda oʻzlari bilan suvdan olib ketib, koʻpchilikka tarqatadilar. Hoz. Makkada suvni turli hajmlardagi idishlarga kuyadigan moslama ishga tushirilgan.

Z suvi oʻziga xos xususiyatga ega. Tarkibi kishi tanasi uchun foydali maʼdanlarga boyligi, oshqozon-ichak, qon tomiri va b. baʼzi kasalliklarga davo ekani aniklangan. Shu bois "Z suvi salomat kishi uchun taom, kasalmandlar uchun shifobaxshdir" deyilgan hadisi sharifda.

ZANGI OTA, asl ismi Oyxoʻja ibn Toshxoʻja (? - 1258) — avliyo, hakim. Toshkentda tugʻilib, yashagani haqida maʼlumotlar bor. Ahmad Yassaviyning ustozlari Arslonbob eshonning avlodi (avarasi). Oʻta qora tanli boʻlgani uchun zangi (zanji) deyishgan. Tasavvufni targʻib qilgan. El-yurt molini boqib podachilik bilan shugʻullangan. Rivoyat qilishlaricha, uning qaramogʻidaga mollar yaylovda oʻtlab kechqurun uyga qaytishda kishilarning ekinzorlariga kirmas, oʻt-oʻlandan bir chimdim ham yemas ekan (shu sababli chorvadorlar Z.o.ni oʻz pirlari deb hisoblaydilar). Tarixiy maʼlumotlarga qaraganda, Zangi ota Hakim ota (piri)dan diniy bilimlarni olib, shu bilan birga mustaqil aql va ilm hosil qilgan. Hakim otaning asl nomi Sulaymon Boqirgoniy boʻlib, u zot soʻfiy shoir boʻlgan, Ahmad Yassaviyning xalifasi edi. Hakim ota vafot etganidan keyin, oradan maʼlum vaqt oʻtgach Z.o. u zotning bevalari boʻlmish bibi Anbarga Xorazmga sovchi yuboradilar va oʻz nikohiga oladi, Anbar bibidan bir necha farzandlar koʻradi. Z.o. maqbarasi Oʻrta Osiyodaga gʻoyat ajoyib tarixiy va meʼmoriy obidadir. U 14-a.ning 90-y.larida qurilgan. Bu hakdagi bir rivoyatda, Amir Temur Yassaviyning qabrini ziyorat qilgani keladi va qabr ustiga maqbara qurishga farmoni oliy beradi, ustalar ishga kirishadilar, lekin har kuni kechasi devor kulab tushaveradi. Bu qiziq bir sinoat edi. Shunda Ahmad Yassaviyning ruhlari paydo boʻlib, mendan avval shoshlik (toshkentlik) Z.o. (Oyxoʻja)ga maqbara quringlar, degan ekanlar. Bu voqeadan keyin Yassi sh.dan Z.o. maqbarasigacha odamlar qator turib gʻishtlarni qoʻlma-qoʻl uzatishgan emish. Z.o. qabrini meʼmoriy obidalar majmui ham deyiladi. Zero, u darvozaxona, minor-mezona, masjid, madrasa, xonaqoh, shiypon, hovuz, Zangi ota va umrdoshlari Anbar bibi maqbaralaridan tashkil topgan. Olimlarning fikricha, maqbara uslubiy jihatdan Samarqand sh.dagi obidalarga oʻxshashligi chindanda, uning Amir Temur tomonidan qurilganidan dalolat beradi. Z.o. va Anbar onaning qabrlari Toshkentdan 16 km jan.da, Zangaota tumanidagi Zangaota qishlogʻida. Bu maskan katta ziyoratgoh hisoblanadi.

ZANGI OTA MAJMUASI - Toshkent viloyati Zangi ota qishlogʻidagi meʼmoriy yodgorlik (15-20-a.lar). Z.m. Zangi ota, Anbar bibi maqbarasi, darvozaxona, madrasa, masjid, xonaqoh-shiypon, minora va hovuzdan iborat.

Anbar bibi maqbarasi, hovuz, shiypon va darvozaxona alohida-alohida qilib kurilgan. Zangi ota maqbarasi esa madrasa va masjid bilan yonma-yon tushgan bo'lib, hovliga shim.-sharq va shim.-g'arbdagi darvozalar orqali o'tiladi. Minora ham shu hovlining o'rtarog'iga, masjid va maqbaraga yaqinroq qilib kurilgan. Z.m.ga ikki tomoni terakzorli xiyobon orqali boriladi. Majmuaga jandan qad. qabriston tutashgan, uning atrofi devor bilan o'ralgan. Zangi ota maqbarasi peshtoqi hovliga qaragan, qolgan uch tomoni esa qabristonga yondosh qilib kurilgan.

Zangi ota maqbarasi dastlab 4 xonali (ziyoratxona, go'rxona va uning ikki yonida kichik xona qoldikdari saqlangan), bezaksiz bo'lgan. Ichki xona devorlari ravokli chorsi asosdan, burchaqlaridagi bag'al sakkiz qirrali, gumbazlari har xil. Darcha va tobodonlar ishlangan. Go'rxonadagi oq marmar qabrtoshiga nafis o'yma naqsh va arabiy xatlar bitilgan. Keyinchalik maqbara oldiga peshtoq qurilib koshinkori bezak berilgan. Peshtoq va xonalar tashqi devori, ziyoratxona va go'rxona poygumbazi sayqallangan g'ishtchalar, o'ymakor rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Ichki xona idorasi parchinli, mehrobiga "P" shaklida koshin va arabiy yozuv bitilgan. Gumbaz osti bezaklari ustiga zarhal berilgan. Peshtog'idagi namoyon hoshiyalari sopol, sirkor gasht va yig'ma koshin terilib, unga sakkiz burchaqli turunjlar ishlangan. Maqbara Amir Temur tomonidan kurilganligi (14-a. 90-y.lari) va Ulug'bek davrida (15-a.ning 20-y.lari) bezak ishlari bajarilganligi aniqlangan. 16-17-a.larda peshtoq va gumbazlari ta'mirlangan. Maqbara yoniga bir qavatli madrasa va namozgoh masjidi kurilgan (1832). Madrasa bir qavatli qator hujra, 2 darvozaxona va 3 yirikroq xona (darsxona)dan iborat. 1870 y.da Z.m. ta'mirlanib, namozgoh masjidining peshayvoni kurilgan. Qo'qonlik usta hoji Muhammad bezagan. Majmua atrofi obodonlashtirilib, tarixiy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan.

ZARAZMIY, Abul Hasan Ali ibn Xujr as-Sa'diy al-Marvaziy az-Zarazmiy (771-858) - muhaddis, faqih, adib. Marv viloyatidagi Zarazm qishlog'ida tug'ilgan. Iroq va Xijozdagi shaharlar bo'ylab ko'p sayohatlar qilgan. Undan ta'lim olish uchun huzuriga turli mamlakatlardan olimlar kelishgan. Sam'oniylar Z.ning 10 ta ustozlari va 7 shogirdini sanab o'tadi. Z. fiqh va hadisga oid 3 ta asar yozgan. Zarazm qishlog'idagi qabri ziyoratgoh bo'lgan.

ZAHABIY, Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad (1274, Damashq -1348) - mashhur tarixchi va muhaddis. Damashq va Qohira madrasalarida tahsil olgan, so'ng Damashq madrasasida mudarrislik qilgan. Islom olamida tarix va hadis allomasi sifatida shuhrat qozongan. 12 jildli "Tarix al-Islom" ("Islom tarixi"), "Al-Ibar" ("Ibratlar"), "Siyar an-nubalo" ("Olijanob kishilar siyratlari"), "Tabaqot al-huffoz" ("Hadis hofizlari tabaqalari"), "Tabaqot al-qurro'" ("Qorilar tabaqalari"), "Miyzon al-i'tidol fiy naqd ar-rijol" ("Hadis roviylariga baho berishning adolatli mezon") kabi islom tarixi va hadisga doir ko'plab asarlar yozgan. Bulardan eng mashhuri "Tarix al-Islom" asari bo'lib, unda O'rta Osiyo, jumladan Movarounnahr tarixining o'rganilmagan jihatlarini oydinlashtiruvchi ko'plab muhim ma'lumotlar bor.

ZIYOVUDDIN ibn ESHON BOBOXON (1908 - 1982) - muftiy, diniy arbob. Dastlab o'z otasi Eshon Boboxon Abdumajidxon o'g'li qo'lida, so'ngra Toshkentdagi Baroqxon, Ko'kaldosh madrasalarida tahsil ko'rgan (1923-31). Qohiradagi al-Azhar dorilfununini tugatgan (1947). Z.E.B. O'rta Osiyo va Qozogaston musulmonlari diniy boshqarmasi

tashkiliy qo'mitasida bosh kotib (1942), diniy boshqarma raisining o'rinbosari (1943-57), rasi (1957-82). Toshkentda Imom Buxoriy nomidaga Islom in-tini tashkil etdi (1969) va unga bevosita rahbarlik qildi. Uning sa'yi harakati bilan Buxorodagi "Mir Arab" madrasasi faoliyati qayta tiklandi (1945). Sobiq Sovet Ittifoqi va bir qancha musulmon mamlakatlarida o'tkazilgan yirik xalqaro diniy anjumanlarning tashkilotchisi yoki faol ishtirokchisi sifatida turli xalqlar va dinlar o'rtasida hamkorlik o'rnatilishiga harakat kdpdi. Masjidlar bo'yicha Butunjahon Oliy Kengashi a'zosi etib saylandi (Makka, 1976). Ziyovuddinxon diniy merosni keng targ'ib va tashviq qilishdan tashqari ilmiy, adabiy faoliyat bilan ham shug'ullangan. Ibn Sinoning gagaenaga oid kitobini o'zbek va rus tillariga o'gargan (Abu Ali ibn Sina, Traktat po gigiene, T., 1982). Ziyovuddinxonning "Diyorimizda islom va musulmonlar" asari (1979, rus tilida)da islom dinining mohiyati ochib berilgan, u barcha zamon va xalqlar uchun salohiyatli din, uning tamoyillari barcha yaxshi niyatli kishilarning orzu-umidlari bilan hamohang ekani ko'rsatilgan. Futuhiy taxallusi bilan she'rlar bitgan. Xalqlar o'rtasida tinchlikni saqlash, yer yuzida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash ishiga hissa qo'shigani uchun Iordaniya, Suriya, Marokash va Misr Arab Respublikasining oliy ordenlari bilan takdirlangan. 1998 y. tavalludining 90 yilligiga bag'ishlab Toshkentda ilmiy-amaliy konferentsiya o'tkazildi. Toshkentdagi Qaffol ash-Shoshiy qabrlar majmuasida otalari Eshon Boboxon yoniga dafn etilgan.

ZIYORAT (arab. - biror yerga yoki shaxs huzuriga borish) - muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish. Z marosimi odatda qabr tepasida Qur'onning ayrim suralari (ayniqsa Fotiha surasi)ni o'qib, marhum haqqiga duo qilish, shuningdek xayr-ehson, sadaqa berish kabilardan iborat. Islom dini aqidasiiga ko'ra, aziz-avliyolarning maqbaralariga Z uchun borilganda ularning ruhlaridan madad so'rapshik, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoizdir. Chunki, bu kabi amallarni ro'yobga chiqarish faqat Allohning ixtiyoridadir. Z qilinuvchilar payg'ambar bo'ladimi, avliyo yoki tariqat shayxi bo'ladimi, ulardan najot so'rash o'rniga haqlariga duoi xayr qilish, sadaqa-ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etish o'rinlidir. Islomda shaxsga sig'inish shirk sanaladi. Muhammad (sav) o'zlarining bir hadisi shariflarida aytganlar: "Qabristonlarni ziyorat qilib turingazlar, zero u oxiratni eslatadi". Oxiratni eslash esa, kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi.

ZIYORATGOH - q. Muqaddas joylar.

ZIKR, zikr tushish (arab. yodga olish, eslash) - tasavvufda xudoni yodga olish bilan bog'liq marosim. Ilohiyotchilar Allohni yodga olish zarurligini Qur'oni karimning "Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur" (13:28) degan oyati bilan bog'laydilar. Z ovoz chiqarib (zikr al-jahriy) va ovoz chiqarmasdan (zikr al-xafiy) tushiladi. Ovoz chiqarib Z tushish O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Bunda bir guruh so'fiylar avval davra qurib o'tiradi, bir kishi (qavvol) muayyan iboralarni ma'lum ohangda o'qiydi, unga ayrim musiqa asboblari jo'r bo'ladi; bora-bora kishilar o'rnidan turib, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Z vaqtida so'fiy va darvishlar "Alloh hayy" (Alloh tirik); "la iloha illalloh" (Allohdan o'zga ma'bud yo'q); "Allohu akbar" (Alloh -eng ulug'); "al hamdu lilloh" (Allohga hamdu sanolar)" va b. so'zlarni takrorlaydi. Uzoq vaqt takrorlangan so'zlar, musiqa va raqs natijasida Z tushayotgan o'zligani unutadi, Allohdan boshqa hech kim va

hech narsani yodiga keltirmaydi. Zotan so'fiylar uchun Z tushishdan asosiy maqsad Allohga yaqinlashishdan iborat. Z mavlud va boshqa diniy marosimlarning tarkibiy qismiga aylangan.

ZIMMIY (arab. birovning zimmasidagi shaxs), ahli zimma- islom davlati soyasida yashaydigan g'ayridinlar. Ya'ni, ular dini, joni, moli va b. sohalarining tinch-omonligi musulmonlar zimmasida bo'lganlardir. Ular bilan ahdnoma tuzilganda musulmonlar ana o'sha narsalar ila ularni ta'minlashni o'z zimmalariga olganlar. Payg'ambar (sav) davrlarida Madinai Munavvarada yahudiylar musulmonlar bilan ahdnoma asosida axli zimma bo'lib tinch-omon o'z dinlariga amal qilib yashaganlar. Abu Bakr Siddiq (ra)ning davrlarida ham ana o'sha siyosat davom etdi. Umar ibn Xattob (ra)ning Baytul Makdis nasorolariga bergan ahdlari va ular bilan qilgan muomalalari islomda Zlarga bo'lgan munosabatning namunasi. U kishi Jobiyada turganlarida huzurlariga Iliya axli kelib omonlik so'rashdi. Ular bilan jizya berish haqidagi sulh tuzildi va quyidagi ahdnoma yozildi: "Bismillahir roxmanir rohiym. Ushbu Allohning bandasi, mo'minlarning amiri Umar Iliya axliga bergan omonlikdir. U ularning jonlariga, mollariga, cherkovlariga, xochlariga, bemorlariga va sog'lariga hamda barcha millatiga omonlik berdi. Ularning cherkovlari maskan qilinmaydi, buzilmaydi va cherkovlar, ulardagi narsalar, xochlar hamda ularning molu mulklaridan biror narsa kamsitilmaydi. Ulardan biror kishiga zarar etkazshshaydi. Iliyada ular bilan birga birorta ham yahudiy maskan tutmaydi. Ahli Iliya zimmasida xuddi ahdi Madoin bergandek jizya berish bordir. Ruamlarni (vizantiyaliklarni) va o'g'rilarni chiqarish ularning zimmasidadir. U yerdan kim chiqsa, to omonlik yeriga yetib olgunicha joni ham, moli ham omonda bo'ladi. Ulardan kim muqim qolsa, u ham omondadir. Uning zimmasiga ham axli Iliyaga bo'lgan jizya lozim bo'ladi. Ahli Iliyadan kim joni va moli ila Ruamlar bilan ketishni va ibodatxona hamda xochlarini qoldirishni istasa, ular omoshtik joylariga yetib olgunlaricha o'zlariga ham, ibodatxona hamda xochlariga ham omonlik bor. U yerda yer ahdidan kim bo'lgan bo'lsa, ulardan kim qolishni istasa qolaveradi. U ahdi Iliya o'tagan jizyani o'taydi. Kim istasa, axli Rum bilan ketaveradi. Kim istasa, axliga qaytib kelaveradi. Hosillarini yig'ib olmaganlaricha ulardan hech narsa olinmaydi. Qachon ular o'z zimmalaridagi jizyani bersalar, ushbu maktubdaga narsalarda Allohning ahdi, Uning Rasulining zimmasi, xalifalarning zimmasi va mo'minlarning zimmasi bor". Ushbu ahdnomani Iliyaning a'yonlariga olib borishganvda ular cheksiz kuyundilar. Bunchalik kengliklar va himoyalar bo'lishi ularning yetti uxlab tushlariga ham kirmagan edi. Bir ming to'rt yuz yildan ko'proq oldin yozilgan ushbu hujjatda Islom davlatining g'ayridin kishilarga qandoq munosabatda bo'lishi ko'rinib turibdi. Ular to'liq erkinlik, haq-huquqlari bilan ta'minlangan bo'lishi ham yaqqol ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham o'sha paytlarda ko'pgina g'ayridin xalqlar va jamoalar o'z dindoshlari hukmidan ko'ra musulmonlarning hukmini afzal ko'rganlar. Bunga misollar ko'p. Buni insofli g'ayridin bohislar kitob qilib yozganlar. Ana o'sha narsani hozirgacha birov qila olgani yo'q. Hoz. xorijiy Sharkdaga musulmon mamlakatlarida Z haqidagi tasavvur borgan sari yo'qolib bormoqda, qaysi dinda ekanidan qati nazar barcha fuqarolar umumiy qonunga itoat etadilar.

ZINDIQ (ko'pliga - zanodiqa) - ilohiyotda, asosan, moniylik, mazdakiylik va xurramiylar ta'limoti vakillarini anglatuvchi istiloh; keng ma'noda "Allohga ishonmovchi", mo'minning ziddi. Z so'zi Islomga sosoniylar davrida eroniy lahjadan Z deb Avestoni yangicha, allegorik talqin etuvchi kishilarni atashgan. Islomda Z istilohini keng qo'llanilishi uning

diniy talqinidan ko'ra, ko'proq siyosiy jihati bilan izohlanadi. "Allohga ishonmasliga" (zandaqa) imon uchun emas, avvalambor davlat hokimiyatiga xavf-xatar tug'diruvchi shaxslarni Z deb e'lon qilishgan. Zandaqani targ'ib etgani uchun islomda ilk bor Z. deb qatl etilgan shaxs Ja'ad ibn Dirham bo'lgan. U Qur'on yaratilgan deb da'vo qilgani uchun 742 (743) y. Iroqda osib o'ldirilgan. Xalifa al-Mahdiy davri 775-785)da maxsus qozilik mansabi - Zlarni nazorat etuvchi (sohib yoki Orif az-zandaqa) tayin etilgan. Islom tarixidagi Z.larga qarshi namunali jazo choralari ko'rilgan xollar ko'p bo'lgan (molikiylar G'arbda, xanafiylar - Usmonli turk saltanati davrida). Hoz. vaqtda islom aqidaparastlari Z tushunchasini din manfaati yo'lida yetarlicha qayg'urmayotganlarga nisbatan ham qo'llaydi.

ZINO (arab. - buzuklik, fahsh, zinokorlik) - islom aqidasi bo'yicha erkak va ayolning shar'iy nikohsiz jinsiy aloqada bo'lishi. Shariatda Z. uchun yuz darra urishdan tortib o'lim (toshbo'ron qilish) jazosigacha belgilangan. Lekin jazoga hukm qilish uchun Z. bilan ayblanuvchilarning o'zlari iqror Bo'lishi yoki to'rtta ishonchli guvohning bo'lishi shart qilingan. Aks holda, - diniy manbalarda aytilishicha - arzimagan sabablar bilan insonning obro'si to'kilishi, ig'vogar, bo'htonchilarga qo'l kelishi mumkin. Yuz darra urishga hukm etilgan Z. qiluvchi (zinokor) er va ayol avval uylanmagan, turmush qurmagan bo'lishi kerak. Ammo, uylangan, turmush qurgan bo'lsa, ularni o'lguncha toshbo'ron qilinishi belgilangan.

ZOVIYA (arab. - burchak, hujra) - so'fiylar, darvishlar to'xtaydigan va yashaydigan maskan. Arab mamlakatlarining ba'zilarida rabot, ba'zilarida Z deb atalgan. Eron va Afg'onistondagi tak'ya, O'rta Osiyodagi xonaqohga to'g'ri keladi.

ZOHID (arab. yuz o'giruvchi, tark etuvchi) - tarkidunyo qilgan kishi. Z.lar musulmonlarni bu dunyo rohat-farog'atidan voz kechishga, ollohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar.

ZOHIDLİK - tarkidunyochilik, saqlanish. Xudoning marhamatiga musharraf bo'lish, jannatga tushish uchun tarki dunyo qilish zarurligi haqidagi diniy tasavvur, mutaassiblikka, bir yoqlama dunyoqarashga da'vat etuvchi oqim. Z islomda darvishlik, chilla o'tirish, ro'za tutish, zikr tushish kabilarda namoyon bo'ladi. Tasavvufda Z Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etish, demakdir. Bunda Allohga shirk keltirishdan saqlanish va ibodatda riyodan xoli bo'lish; barcha gunoxdardan va harom narsalardan saqlanish va nihoyat, ortiqcha dunyoviy ashyolarga mehr qo'ymaslik nazarda tutiladi. Shariat va tariqat odoblariga bu xilda rioya etishni Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror, Najmiddin Kubro va b. targ'ib etganlar.

ZOHIRIYLAR (arab. zohir - tashqi, oshkor) - 1) Qur'on ta'limotini aynan tushunuvchi va so'zma-so'z talqin qiluvchi oqim tarafdorlari. Botiniylarning qarama-qarshisi. 2) 10-13-a.larda tarqalgan va keyinchalik yo'qolib ketgan shariat mazhabi. Unga Dovud ibn Ali al-Isfahoniy az-Zohiriy (883 y. v. e.) asos solgan.

ZUBAYR ibn AVVOM, to'liq ismi Abu Abdullo az-Zubayr ibn al-Avvom ibn Xuvaylid al-Asadiy al-Qurayshiy (? -656) - sahoba, makkalik ilk musulmonlardan. Asharai Mubashsharadan. Quraysh qabilasidan, Xadicha kabi bani Asad urug'idan. Muhammad (sav)ga xolavachcha, Xadichaga esa, akaning o'g'li. Oishaning singlisi Asmoga uylanganligi uchun Rasuli Akramga boja hisoblanadi. 12 yoshida islomga kirgan. Oldin Habashistonga, so'ngra Madinaga ko'chgan(hijrat qilgan)lardan. Muhammad(sav)ning barcha g'azotlarida qatnashgan. Badr jangida dushmanga birinchi bo'lib qilich solib hamla qilgan. Umar (ra) davrida Yarmuk jangida qatnashib, ikki joyidan yaralangan. Misrni fath etishda qatnashgan. Z.ibn A. badavlat bo'lib, uning bir quli, hisobsiz moli, yer va bir necha uyi bo'lgan; u xayr-ehson qilishni sevar, mol dunyosini Alloh yo'lida sarflagan. Savdogarlik bilan shug'ullangan. Xalifa Umar (ra)ning xalifalik uchun ajratgan 6 kishilik maslahat ashobidan edi. Usmon (ra) xalifaligi davrida chiqqan ixtiloflarga qo'shilgan. Jamal jangida Aliga qarshi chiqqan, so'ngra afsus chekib, orqaga qaytgan. Biroq qaytishda bir daraxt tagida uxlab yotganida o'ldirilgan. Qotil Ibn Jurmuz Zubayrning boshini Aliga olib borgan. Mukofot kutgan qotilga Ali payg'ambarimizning "Zubayr qotiliga jahannamga kirishini xabar beringiz", mazmunidagi hadislarini o'qib bergan. Z.ibn A. payg'ambarimizdan 38 hadis rivoyat qilgan.

ZULKIFL (as) - Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Z.ning asl ismi Bishr bo'lib, Ayyub (as)ning o'g'lidir. U otasi Ayyub (as)dan so'ng payg'ambar qilib yuborilgan. Allohga bergan ahdigaga vafo qilgani uchun Z deb nomlangan (Zulkifl -Kafolat sohibi). Qur'onda Z nomi Ismoil va Idris (as)lar bilan birga zikr qilingan (Anbiyo surasi 85-86-oyatlar, Sod surasi 48-oyat). Ammo, qaysi qavmga payg'ambar etib yuborilgani va payg'ambarlik da'vati haqida Qur'onda aniq oyat zikr etilmagan. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, rumliklar Z.ga ergashganliklari nakd etiladi. Bu qavm Z.dan o'zlarini uzoq umr ko'rishliklarini Allohdan so'rashni iltimos qilishgan. Parvardigor Z.ning duosini qabul etib, "ular o'zlari xohlamaguncha o'lmaslar, bunga sen ham kafil bo'lgan", degan vahiy keladi. Bishr o'z qavmiga bu bashoratni yetkazadi. Ilohiy vahiyga o'zi kafil bo'ldi. Shu sababdan uni Z deb atay boshlaganlar. Iroqda al-Xilla yaqinida Z.ning qabri deb hisoblanadigan ziyoratgoh mavjud. Boshqa joylarda ham Z maqbarasi mavjudligi, jumladan u Termiz yaqinida dafn etilgani haqida rivoyatlar bor.

ZULKIFL MAQBARASI - Termiz yaqinidagi me'moriy yodgorlik (11-12-a.lar). Rivoyat qilinishicha, bu yerga payg'ambar Zulkifl dafn etilgan. Tarixiy manbalarda Abbosiylarning atoqli lashkarboshilaridan Ishaq ibn Kuntoj ham shu yerda dafn etilgani qayd qilingan. Amudaryodagi Payg'ambar orolining jan. qismida joylashgan masjid, go'rxona va ularga tutash 2 xonadan iborat. Binolar turli davrlarda bunyod etilgan. Masjid murabba tarhli (6,95 x 6,95), gumbazli, oldi peshtokli. Mehrobiga ganchkori garih naqsh ishlangan.- Go'rxona (6 x 4 m) masjid sathidan 1 m cha baland qilib qurilgan, unda sag'ana saqlangan. Go'rxonaning ikki eshiga orqali tutash kurilgan ikki xonaga o'tiladi. Xonalar devoriga g'ishtlar mavjli shaklda terilgan.

ZULM, nohaqlik, sitam, istibdod - odamlar o'rtasida barqaror bo'lgan munosabatlarni qasddan buzish; insonni ruhan siqish, majburlash, xafa qilish, taxqirlash, unga zo'ravonlik qilish, mol-mulkni bosib olish va h.k. Qur'oni karimda Z jazo berilishi lozim

bo'lgan jinoyat sifatida qoralanadi. Odatda Z tushunchasida mulkdorlarning ijarachilarga, xo'jayinlarning mardikorlar, xizmatkorlar va qullarga, katta qarindoshlarning kichiklariga, mansabdorlarning xalqqa bo'lgan salbiy munosabati, shuningdek, qozilar va hokimlarning g'ayriqonuniy qarorlari tushuniladi. Z xukuqni poymol qilish ma'nosida barcha mazhablar tomonidan qoralanadi, biroq, unga bo'lgan munosabat va qarshilik ko'rsatish tarzi har xildir. Z.ga qarshi kurashish mavjud ijtimoiy tartiblarni buzadigan bo'lsa, Z.ga qarshi kurashmasdan unga chidash afzal, degan fikr ilgari ham, hoz. ham islomiy aqida vakillarini to'la qoniqtiradi va islom axloqiy asosining bosh ahkomlaridan biri sanaladi.

ZULFIQOR (arab. - teshib o'tuvchi, o'tkir) -Muhammad (sav)ning Badr jangida qo'lga tushirgan mashhur 2 uchli shamshirlari. Z johiliyat davrida Arabistondagi mashhur shamshirlardan sanalib, makkalik Munabbih ibn Xajjojga tegishli bo'lgan. Muhammad (sav) vafotlaridan keyin hazrat Aliga, so'ngra esa, xalifalarga o'tgan. Islom an'anasida Z sehrlil kuchga ega hisoblanib, uzayishi yoki qisqarishi mumkin bo'lgan. Islom dini tarqalgan xalqlarda o'g'il bolalarga Z ismini qo'yish odati bor.

ZULQARNAYN (arab. - ikki shoxli) -Qur'onda qissasi kelgan mo'min bandaning ismi. Z shaxsi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar uni makedoniyalik Iskandar deb hisoblashadi. Biroq, Islom ta'limotiga ko'ra bu to'g'ri emas, chunki makedoniyalik podsho Allohning yagonaligiga ishongan mo'min bo'lgan emas. Qur'ondagi Z esa, mo'mindir. Alloh "Kahf" surasida Payg'ambar (sav)ga xitob qilib: "sendan Zulqarnayn haqida so'rarlar" degan. Muhammad (sav)dan odamlar Z to'grisida so'raganlar. Qissada aytilishicha, Alloh taolo Z.ga yer yuzida hukmronlik, molu dunyo, askarlar va b. katta imkoniyatlarni bergan edi. Shuningdek, Alloh unga hukm yuritish, binokorlik va obodonchilik, davlatni mustahkam tutish kabi ishlarni o'rgatgan edi. Z o'z mulklarini aylangan. O' shim. tomon yo'l olgan. Ikki tog' orasiga yetganida, ularning ortida biron gapni anglamaydigan qavmni ko'rgan. Bu qavm Z.dan yer yuzida buzg'unchilik qilguvchilar - Ya'juj va Ma'jujdan o'zlarini himoya qilish uchun to'siq qilib berishini so'rashgan. Z Alloh unga bergan ilm orqali mustahkam temir devor kurib, haligi qavmni Ya'juj va Ma'jujning hujumlaridan saqpanishiga yordam bergan.

ZUNNUN al-MISRIY, Abul Fayz Savbon ibn Ibrohim (taxm. 796-860/61) - Misrdagi ilk tasavvuf vakili, so'fiy shayxlardan biri. Misrdagi Axmim degan joyda tug'ilgan. Targ'ibot ishlari bilan Makka, Damashq, Antioxiyada safarda bo'lgan. Molikiylik mazhabi faqih va tarixchi Abdal Hakam tasavvufni targ'ib qilgani uchun Z al-M.ni qoralagan va so'fiylik ta'limotini "noma'qul bid'at", deb hisoblagan. Mu'taziliylar ta'limotiga qarshi bo'lgani uchun Z al-M. hokimiyat tomonidan ta'qibga uchragan. Z al-M.ning o'n beshga yaqin asari bor, deb hisoblaydilar. Bizgacha yetib kelgan she'riy parchalarida aziz-avliyolar tarkidunyochiligining afzalliklari va tasavvuf ahlining eng oliy orzusi - Allohga "yaqinlashish" holatlari bayon etilgan. Bunga ma'rifat orqali erishiladi, ma'rifat esa, uning fikricha, dunyoviy ishlardan, o'z tabiiy ehtiyojlaridan voz kechish, nafsni tiyish orqali o'zini kamolotga olib chiqish bilan belgilanadi. Tasavvuf an'anasida Z.al-M. so'fiylikning "maqomat va ahvol" to'g'risidagi ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Z.al-M. Allohni insoniy qiyofada tasavvur etishni rad qiladi, uning butunlay ilohiy olam ekanligini ta'kidlaydi. Z.al-M.ning goyalari keyingi so'fiylar tomonidan o'zlashtirildi, rivojlantirildi.

Jomiy, Attor va b. soʻfiylar hayotini vasf etuvchi majmualarida Z.al-M. shaxsini ulugʻlab, afsonaviy darajaga koʻtarganlar.

- O' -

O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI - O'zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot. 1943 y. 20 okt.da Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari qurultoyida ta'sis etilgan. Toshkentdagi Baroqxon madrasasida joylashgan. Bu tashkilot 1992 y.dan Movarounnahr musulmonlari idorasi, 1996 y.dan O'.m.i. deb ataladi. U davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Idora o'z hududidagi musulmonlar o'rtasida diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlarga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. O'.m.i. moddiy jihatdan musulmonlardan masjidlarga tushadigan xayr-ehsonlar, yordamchi xo'jaliklar va b. hisobiga ta'minlanadi. Idora rahbar organi - Oliy Hay'at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Muftiy o'rinbosar (noib)lari bor. O'.m.ida Masjidlar, Xalqaro aloqalar, Xayriya, Fatvo, Ta'lim va Muhtasiblik bo'limlari bor. Buxorodagi Mir Arab madrasasida (1945) va Toshkentdagi Buxoriy nomidagi Islom in-tida (1971) va bir necha diniy bilim yurtlarida kadrlar yetishtiriladi. Idora tasarrufidagi "Movarounnahr" nashriyatida "Islom nuri" gazetasi, "Hidoyat" jur., diniy adabiyotlar, diniy taqvim va b. nashr etiladi. O'.m.i. xorijiy mamlakatlardagi ko'pgina diniy tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Idora har yili 3,5-4 ming kishining haj safarini uyushtirishda faol ishtirok etadi. U.m.i. o'z faoliyatida Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga rioya qiladi.

O'.m.i.ga turli yillarda Eshon Boboxon Abdumajidxon o'g'li (1943-1957), Ziyovuddinxon Boboxonov (1957-1982), Shamsuddinxon Boboxonov (1982-1989), Muhammadsodik Muhammadyusuf (1989-1993), Muxtorjon Abdullaev (1993-1997), Abdurashid qori Bahromov (1997 y.dan) muftiylik qilgan.

O'N IKKI IMOM - shialikdaga asosiy oqim - imomiylar (ba'zan "o'n ikkichilar" - "isnoashariya" deb ataladi) o'rtasida e'tiqod qilinadigan imomlar sulolasi. Xalifa Ali bilan Fotima (Muhammad (sav) qizi)dan tarqalgan avlodlardan iborat. Ular payg'ambar avlodi deb taniladi. Imomiylar ularni islomning qonuniy rahnamolari deb tanib, xalifalar hokimiyatini g'ayriqonuniy deb hisoblaydi. Bular - Ali ibn Abu Tolib, Hasan, Xusayn, Zayn al-Obidin Ali (vafoti 713 yil), Muhammad al-Bokir (732 y.v.e.), Ja'far as-Sodiq (700-765), Muso al-Kozim (799 y.v.e.), Ali ar-Rizo (818 y.v.e.), Muhammad at-Ta'qiy (835 y.v.e.), Ali an-Naqiy (868 y.v.e.), Hasan al-Askariy (846-873), Muhammad al-Mahdiy (rivoyatlarga ko'ra, 874-878 y.lar orasida yo'qolgan). Imomlarning ba'zilarigina o'ldirilgan yoki zaharlangan, lekin shunga qaramay, imomiylar ularning barchasini xalifalar tomonidan o'ldirilgan deb hisoblaydi, ularni jabrdiyda va din yo'lida shahid bo'lganlar deb motam tutadi. 12-imom - Muhammad al-Mahdiyni yashiringan deb hisoblab, uning qaytib kelishini kutish asrlar davomida shialar orasida an'ana sifatida saqlangan. Sunniylar orasida ham "imom Mahdiy"ning kelishiga ishonish ma'lum o'rin egallab, u zamona oxir bo'lganda keladi, deb tasavvur qilingan (q. Mahdiylik). Imomlar va imomzodalar dafn etilgan maqbaralar hozir ham shialar uchun muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi, hatto ular uchun haj o'rnini bosadi. Bunday "muqaddas joylar" Najaf, Karbalo, Kozimayn (Iroq), Madina (Saudiya, Arabistoni), Mashhad, Qum, Shoh Abdul Azim (Eron) shlarida joylashgan.

- G' -

G'AZAVOT - q. Jihod.

G'AZOLIY, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azoliy (1058-1111) - yirik ilohiyotchi olim, faylasuf. Tus sh. (Xuroson)da tug'ilgan. Nishopur sh.da ash'ariy ulamo Juvayniy qo'lida tahsil ko'rdi. Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk huzurida Bag'dodda xizmat qildi, Nizomiya madrasasida faqih-mudarris sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ismoililar Nizomulmulkni o'ldirganidan so'ng R. haj bahonasida Bag'dodni tark etib, Damashqda 11 yil yashadi. Keyinchalik Nizomulmulk o'g'li Faxrulmulk taklifi bilan yana Nizomiya madrasasida mudarrislik qildi.

Asosiy asarlari "Tahofut ul-falosifa" ("Faylasuflarni rad etish"), "Kimyoi saodat" ("Saodat kimyosi"), "Ixyo ulum ad-din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish") va b.da R. islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqqan, uni falsafiy jihatdan asoslashga uringan. An'anaviy sunniylik aqidalarini so'fiylik ideallari bilan birga qo'shib talqin etgan. Inson iroda erkinligi va ilohiy taqtsir masalalarini ko'rib chiqib, "kasb" ("o'zlashtirish") g'oyasini oldinga surgan. R.ga ko'ra, inson Alloh buyurgan yaxshi yoki yomon amallar orasidan o'ziga maqbulini tanlab olishda ixtiyoriydir va shu bois, mazkur xatti-harakatlari oldindan belgilab qo'yilishi (takdir)ga qaramay, ular uchun aynan insonning o'zi mas'uldir. Bir necha asarlarida G'. musulmon faylasuflari, Aristotelning Sharqdagi izdoshlari (Forobiy, Ibn Sino va b.) bilan olamning yaratilganligi, Koinot abadiyligi, ruhning o'lmasligi muammolari, sababiyat nazariyasi va h.k. bo'yicha bahs yuritgan. Islom tafakkuri va o'rta asr Yevropa falsafasiga barakali ta'sir ko'rsatgan. Zamondoshlari tomonidan "Hujjat ul-islom" ("Islom dalili") deb ulug'langan.

G'AYB (arab. - insondan goyib hodisalar) -inson sezgi a'zolari bilan his eta olmaydigan, bilish imkonlari bilan idrok eta olmaydigan hodisalar. Inson o'zining nechog'li bilimdonligi bilan g'ururlanmasin, uning bilganidan bilmagani ko'p bo'lib qolaveradi. O'sha R. narsalarni bilishda insonning birdan-bir vositasi bor, u ham bo'lsa, ilohiy vahiydir. Qolgan barchasi taxmin va gumonlardan boshqa hech narsa emas. Mo'min-musulmonlar R.ga iymon keltirish bilan boshqalardan ajralib turadilar. Chunki, aqida bobi, asosan, R.ga, ya'ni, ko'zi bilan ko'rib, qo'li bilan ushlamagan narsalarga ishonishdan iboratdir. Allohga imon keltirish ham R.ga imondir. Shuningdek, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, Payg'ambarlarga, qiyomat kuniga, jannatga, do'zaxga, yaxshi-yu yomon qadarning Allohdan bo'lishiga imon keltirish ham R.ga ishonishdir. Ushbular va bundan tashqari insonni har tarafdin o'rab turgan, o'tmishni, hozirni va kelajakni ilohiy parda ortida tutib turgan son-sanoqsiz narsalar g'aybiyotdir. Inson G'.ni bilish borasvda g'oyat ojizdir. U birinchi inson - Odamatoning qaerda va qachon paydo bo'lganini bilmaydi. Bilishi mumkin bo'lgan narsa - Qur'oni karimdagi ma'lumotlar. Boshqa hammasi taxmin, gumon, faraz va h.k. Inson hatto o'z boshiga kelajakda qanday hodisalar kelishini bilmaydi. O'ziga tegishli narsalarni bilmaganidan keyin, olamdagi boshqalarga aloqador narsalarni umuman bilmaydi. Alloh taolo esa, ularning hammasini bilguvchidir. G'.ning kalitlari Alloh taoloning O'zidaligi shundadir. Bu kalitni hatto Payg'ambarlar ham bilmaydilar. Kimki, R. ilmini da'vo qilsa, kofirlardan bo'ladi. Aqoid ilmida "g'aybiyot" deb nomlangan, imon keltirish lozim bo'lgan narsalardan, Arshni, Kitobni va b.ni aytish mumkin.

G'ANIMAT (arab. g'anima - o'lja) - harbiy o'lja; islom an'anasida musulmon qo'shinlari yov bilan jang qilganda qo'lga kiritilgan barcha boyliklar va asirlar. G'azavot va jihod urushlarda R. olish shariatda qonuniy deb belgilangan, G'.ning beshdan bir qismi davlat xazinasiga (q. Xums) topshirilgan, qolgani lashkarboshilar va lashkarlar orasida taqsimlangan.

G'IJDUVONIY Abdulxoliq, Xoja Abdulxoliq ibn Abduljamil Rijduvoni (1103 - 1179) - xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi; buxorolik 7 pirning birinchisi. Xojai Jahon nomi bilan ham mashhur. Rijduvon (Buxoro yaqini)da imom oilasida tug'ilib, islomiy tasavvur va urf-odatlar muhitida tarbiya topdi. 22 yoshida Buxoroga keldi va Yusuf Hamadoniyning muridi bo'ldi. R. dunyoqarashining shakllanishida malomatiylar ta'limoti va qalandarlik harakati ta'sir ko'rsatdi. U zohidlikda yashashni, shariat ko'rsatmalari, Payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilishni targ'ib etdi. U butun hayotini Alloh yo'lga bag'ishlab, farz va sunnat amallarini bajarib, ibodatu riyozat bilan mashg'ul bo'ldi. Yusuf Hamadoniyning so'fiylik ta'limotini zikri xufiya (so'zsiz, fikriy zikr tushish) bilan boyitdi hamda xojagonlik tariqatining 8 ta rashha (qonun-qoida)sini shakllantirib berdi. Bu rashhalar har nafasni zoe ketkazmaslik, har qadamni to'g'ri bosish, azizlarning xizmatida bo'lish, har bir ishda Haq taoloni yoddan chiqarmaslik, tildan qo'ymaslik, niyatda mustahkam bo'lish kabilardir. R. ta'limoti naqshbandiylik tariqatiga asos bo'lgan. Bahouddin Naqshband R.ning axloqiy talablariga yana 3 talab qo'shgan. R.ning "Vasiyatnoma" risolasi Toshkentda 1993 y. chop etildi. Uning Rijduvon sh.daga qabri tabarruk ziyoratgoh hisoblanadi. Bizgacha "Risolayi odobi tariqat", "Risolayi sohibiya", "Vasiyatnoma" va b. asarlari yetib kelgan. 2003 y.da R.ning 900 yillik yubileyi nishonlandi. R. yodgorlik majmui qayta ta'mirlandi.

G'OZIY (arab. - jangchi, harbiy yurish ishtirokchisi) - islom dini uchun "muqaddas urush" (g'azavot) ishtirokchisi. Islom an'anasida R. Alloh yo'lida jang qiluvchi, bunday jangda o'lgan shahid, o'ldirgan G', ya'ni begunoh, g'olib deb ta'riflangan.

G'ULOT (arab. g'oliy - chegaradan chiqqan) -islom dini ta'limotvda juda chuqur ketgan firqalarning umumiy nomi. Ayrim islom ilohiyotchilari shialikdan ajralib chiqqan, lekin o'zlarini musulmon deb hisoblaydigan firqalarning ko'plari (ismoiliylar, nusayriylar va b.)ni ham R. firqalar deb ta'riflaydi va ularni musulmon hisoblamaydi. Hozirda ekstremistik harakatdagi toifa oqimlar ham R. hisoblanadi.

G'USL (arab. - cho'milish) - pok bo'lish uchun maxsus tartibda ' obdon yuvinish. R. jimo (jinsiy aloqa), biror sabab bilan maniy (shahvat)ning chiqishi, ehtilom (uyquda maniyning chiqishi) kabilar natijasida farz bo'ladi. Hanafiylik mazhabida G'.ning farzlari uchta - og'izni g'arg'ara qilib chayish, burunni tubiga yetkazib chayish va tamomi badanga suv yetkazish. Bitta tukning o'rnicha joyga suv tegmay qolsa ham G'. mukammal hisoblanmaydi. Boshqa mazhablarda og'iz-burun chayqash farz emas. Islomda loaqal bir haftada bir mahal (juma kuni), ikki hayit va arafa kunlari G'. qilish sunnat sanaladi. G'. "katta tahorat" deb ham ataladi.

- SH -

SHAYOTIN (shaytonning ko'plikdagi shakli), shaytonlar - Alloh va insonlarga dushman bo'lgan, o'zlarining egalari - Iblis ash-Shayton bilan birga Qiyomat kundan so'ng jahannam azoblariga duchor etiladigan yovuz ruhlar. Sh. - insonlarni yo'ldan urishda Iblisning asosiy quroli, ular insonlarni solih amallar qilishdan chalg'itishadi va gunoh ishlarga boshlaydilar. Olovdan yaratilgan bo'lib, Iblis tomonidan ko'payib turishlari mumkin. Ismlarga ega bo'lib turli shakllarga kira oladilar. To'p-to'p holda turli mamlakatlarda yashashadi, ayniqsa, Hindiston va Suriyadagi Sh. o'zlarining qudratli ekanliklari bilan mashhur. Sh.ga xuddi ash-Shayton kabi rajim sifati qo'shib ishlatiladi (q. Qur'on, 15:17). Rivoyatlarga ko'ra, Sh. tarixda o'tgan ko'p muqaddas shaxslar (mas., Yusuf (as))ni gunoh ishlarga va xato qilishga undagan, Sh.ning bir qismi Sulaymon (as)ga bo'ysungan, lekin keyinchalik diyonatsiz ishlariga qaytganlar. Sh. insonlarning ibodat qilishlariga xalaqit berishadi, xudoni yoddan chiqarishga majbur etishadi, ularni sehrgarlik va afsungarlikka o'rgatishadi, ko'pincha ularni yuzaki tomondan yaxshi bo'lib tuyulgan gunohkorona intilish va ishlarga undaydi. Har bir insonning o'z farishtasi bor bo'lgani kabi, o'z Shaytoni ham bor deb hisoblanadi. Ularning har ikkisi inson qalbini egallash uchun kurash olib boradi. Sh. uning shahvoniy intilishlari, lazzatni istashi, qahr-g'azabi, hasadi va b.dan foydalanib uni Allohning yo'lidan chalg'itishga intiladi, ba'zan inson buni sezmaydi ham. Sh. vasvasasiga uchganlar oxir oqibat do'zaxga tushadilar, chunki, Sh. Alloh oddida ojizdirlar. Sh.ni haydash uchun "A'uzu bi-l-lahi min ash-shayton ar-rajim" yoki Qur'on oyatlarini (mas., 113, 114) o'qib, Allohni yordamga chaqirish kifoya. Islom dinidan avval ham, o'rta asrlarda ham Sh. shoirlarga ilhom berib keladi deb hisoblangan. Musulmon ilohiyotchilari Sh.ni jinlar bilan aloqasi masalasini muhokama etishgan. Eng ko'p tarqalgan nuqtai nazarga ko'ra, Sh. -jinlarning eng qaysar va dinsiz qismi. Boshqa bir fikrga ko'ra - azaldan dinsizlikka va do'zaxga mahkum etilgan maxluklarning bir toifasidir. Jinlarning bir qismi Allohga ishonib, shu bilan xalos bo'lishi mumkin. Qur'on va ilohiyotga doir asarlarda ash-Shayton (Iblis) va Sh. ko'pincha o'rni almashib kelishadi, chunki, Sh. Iblis irodasi va farmonlarining ijrochisidurlar.

SHAYTON (arab.) - oliy dargohdan haydalgan farishtaning nomi. Arab tilida shayton so'zi jin, ins, hayvon va b. maxluqlarning bo'ysunmas, sarkashlariga nisbatan ishlatiladi. Qur'onda talqin qilinishicha, Sh.ni Alloh olovdan yaratgan, keyinchalik amriga itoat qilmagani uchun oliy dargohdan quvilgan, (rajim) deb la'natlagan. Lekin Alloh bandalarini sinab ko'rish uchun Sh.ga muxdat bergan. Shuning uchun u barchani yo'ddan ozdirishga harakat qiladi. Qur'onda Sh. so'zining sinonimi sifatida Iblis iborasi ham ishlatilgan.

SHAYX (arab. - keksa, oqsoqol; qabila, urug', oila oqsoqoli) - islom dini tarqalgan mamlakatlarda avval bilimdon kishilar, olimlar, so'ngra ruhoniylar, ulamolalar, faqihlar. Keyinchalik so'fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar, muqaddas joylarning mutasaddilari ham Sh. deb yuritilgan. Arablarda islomdan ilgari urug', qabila boshliqlari, katta patriarxal oila oqsoqollari Sh. deb atalgan. Musulmon mamlakatlarida hozir Sh. oliy diniy maktablarning mudarrislari va yirik ulamolarning unvoni sifatida ham qo'llaniladi. O'rta

Osiyoda Sh. ko'pincha muqaddas mozorlar va qadamjolarida sadaqa va nazr-niyoz olib turadigan ruhoniylar tabaqasiga nisbatan ishlatilgan.

SHAYX XOVANDI TAHUR, Shayxontohur (1359 y.v.e.) - shayx. Hoz. Bo'stonliq tumani Bog'iston qishlog'ida tug'ilgan. Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li. Umar Bog'istoniylar befarzand bo'lib, kunlarni birida o'z zavjai muhtaramalari bilan Shayx Zayniddin maqbarasiga kelib Allohdan farzand ato etishni iltijo qilishadi. Ko'p o'tmay farzand ko'rishadi. Unga Xovand Tahur (pok shayx) deb nom qo'yishadi. Sh.X.T. ilohiyotga va tariqatga doir ilk saboqni otasidan olgan. "Rashahot ayn al-hayot" ("Hayot buloqlaridan oqqan tomchilar") nomli asarda yozilishicha, Sh.X.T. ilohiyot va tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri, yetuk mutasavviflardan bo'lgan.

U yassaviylik tariqati yo'lidan borib, shu tariqat namoyandalaridan o'rganadi hamda ilmi zohiriy va ilmi botiniy sir-asrorlaridan voqif bo'lib, sohib karomat shayxlar orasida yuksak maqomga erishadi. Yakka xudolik haqidagi ta'limotni, tasavvufga oid iboralarni sharhlab bergan, shuningdek, she'riyat bilan shug'ullangan. Sh.X.T.ning Dovud ismli o'g'li bo'lib, u ham shayx sifatida mashhur edi.

Sh.X.T. dafn etilgan joy ziyoratgohga aylanadi. Uning mozori atrofida boshqa saYeana va qabrlar paydo bo'lib, Toshkentning katta va muqaddas qabristoniga aylangan. 15-a.ning 2-yarmida Xoja Ahror qabr ustiga maqbara qurdiradi. Zotan uning validai muhtaramasi shayx Dovudning qizi bo'lgan. Xoja Ahror qurdirgan inshoot zamonlar o'tishi bilan nurab, bizgacha yetib kelmagan. Hoz. maqbara esa, avvalgisining loyihasi va ko'rinishini saqlagan holda 19-a.da qayta tiklangan.

SHAYX XOVANDI TAHUR MAQBARASI - me'moriy yodgorlik. Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li - Shayx Xovandi Tahurga atab solingan. Yodgorlik 15-a.ga oid ko'hna maqbara poydevori ustiga 18-19-a.larda qurilgan. Xonalar gumbazlar bilan yopilgan, go'rxona gumbazi qo'shqavat bo'lib, 12 qirrali asosga o'rnatilgan; ziyoratxona arxitekturasi o'ziga xos xonaqoh bo'lib, sakkiz ravokdan iborat. Darchalardagi koshinkori panjaralar saqlanib qolgan. O'tmishtsa ziyoratgoh bo'lgan.

SHAYXIYLAR, ash-Shayxiya (yoki al-hasaniya) - 1. G'arbiy Xuroson (Eron)da 14-a.ning 30-80-y.larida mavjud bo'lgan shialikdagi so'fiylik tariqati. Uning asoschisi, mozandaronlik darvish Shayx Xalifa shayx Baluyi Amoliyning muridi bo'lib, lekin ustoz qarashlarida "nuqson" borligani bilgach, uni tark etib bir muncha vaqt shayx Alouddavla Simnoniy xonaqosidan qo'nim topgan. So'ngra Sabzavor jome masjidida yashab, "isyonkorlik ruhi"dagi va'zlar bilan chiqa boshlagan, uning izdoshlari ko'payib borgan. Sunniy faqihlar fatvo tuzib, unda Sh. rahbarini masjidida dunyoviy nutklar so'zlaganlikda, ilohiyotchilarning taqiklarini buzganlikda va yashirin faoliyat yurgazganlikda qoralashgan. 1335 y. Shayx Xalifa yashirin suratda o'ldirilgan va 1342 y.gacha Sh. tariqatiga shayxning muridi, Xuroson shaharlari aholisini Sh.ga da'vat qilgan Hasan Juriy bosh bo'lgan. U muridlarni yashirin ish ko'rishga, qurolli chiqishga tayyorgarlik ko'rishga chaqirgan. Uning muridlari orasidan keyinchalik mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan harakat a'zolari - sarbadorlar ham yetishib chiqqan. Tarixchi Xondamirning fikriga ko'ra, shayx Hasan Juriy sarbadorlar amiri Mas'ud buyrug'iga ko'ra qatl etilgan (1342), uning vorisi Darvish Aziz ham 30 yildan so'ng o'ldirilgan. Sh. tariqati 14-a. 80-y.larigacha mavjud bo'lib, so'ngga sarbadorlar amiri Sh.ni taqikdab qo'ygan.

2. Eronda 19-a.da tarqalgan shialikdagi ilohiyot maktabi. Asoschisi - shayx Ahmad ibn Zayniddin al-Ahsoiy (1753-1826). Sh. mafkurasi shialikdagi axboriydardan farq qilgan: Sh. rivoyatlar sonining ko'payib ketganligi va ular tanqid qilinmasligiga qarshi chiqqanlar. Sh.ga ko'ra, 12 imom ilohiy irodaning namoyon bo'lishi, Allohning xohishlarini sharhlovchilardir va shu jihatdan ular - yaralishning oxirgi sababidirlar. Ular Alloh yaratgan barcha narsalarni aks ettiradilar, lekin o'zlari quvvatga ega emas. Sh. ta'limoti Erondagi bobiylik harakatiga g'oyaviy asos yaratib bergan, biroq, Sh.ning unda ishtirok etganlari noma'lum. Lekin 19-a. o'rtasida bobiylikka nisbatan qilingan qatag'onlik, quvg'in Sh.ga ham taallukli bo'lgan, ularni ta'qib etish keyinchalik ham davom etgan.

SHAYXULISLOM - muayyan mamlakatda islom tashkilotlari boshlig'i - oliy diniy unvon. Faxriy unvon sifatida 10-a.dan u yoki bu faqih yoxud so'fiyga nisbatan ishlatilgan. 13-a.dan keyin muntazam suratda qo'llanilgan. Buxoro xonligi, Turkiya (16-a.dan 1924 y.gacha) va b. davlatlarda Sh. - eng oliy diniy lavozim. Bunday lavozim va unvon musulmon mamlakatlarining ba'zilarida uchraydi. Shialikka mansub diniy boshqarma rahbari ham Sh. unvonini bilan yuritiladi. Sunniylikka mansub boshqarmalarning rahbarlari muftiy unvoniga ega.

SHARIAT (arab. - ostona va suv ichish joyi; yo'l; musulmonchilikda Sh. qonunchilik ma'nosida ishlatiladi) - Alloh joriy qilgan amaliy hukmlar majmuasi, shu ma'noda Sh. fiqh ma'nosida ham tushuniladi. Samoviy dinlarning barchasidaga amaliy qism Sh. deb ataladi. Islom Sh.i hukmlari Qur'on, sunnat, ijmo' va qiyosdan olinadi. Sh.ning maqsadlari uchga; zaruriy, hojatlik va yaxshilash qismlariga bo'linadi. Din va dunyo uchun zarur bo'lgan maqsadlar zaruriy maqsadlar, deyiladi. Ular yo'q bo'lsa, dunyoning ishlari buziladi va oxiratda azobga qolinadi. Islom Sh.ining maqsadlari dinni, jonni, aqlni, naslni va molni asrashdan iborat. Sh.da ushbu narsalarni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan barcha choralar ko'rilgan. Sh.ning hojatlik maqsadlari esa, kishilarga osonlik tug'dirish va ulardan qiyinchilik va mashaqqatni aritishga qaratilgan. Bunga musofir va bemor kishilarga namozni qasr qilib o'qish va ro'zani ochib yuborishga berilgan ruhsatlar va shunga o'xshash ko'plab shar'iy hukmlar kiradi.

Sh.ning yaxshilash maqsadi jamiyatda bir biriga muruvvat ko'rsatishni ta'minlaydi. Agar u narsalar yo'q bo'lsa, hayot nizomi buzilib ketmaydi. Shuningdek, odamlarga mashaqqat ham tug'ilmaydi. Ammo, insoniylik muruvvatiga putur yetadi. Bu maqsadda, asosan, yaxshi odatlar va husni xulq ko'zda tutiladi. Pokizalikka boshlovchi, kiyim bosh, turar joy, jism va b.ni pok tutish haqidagi shar'iy ko'rsatmalar, yeb ichish odoblari, oilaviy aloqalarni yaxshilash kabi ko'plab ishlar haqidagi shar'iy hukmlar shu jumlagi kiradi. Payg'ambar Muhammad (sav) rahbarligida birinchi Islom davlati tashkil topganda Sh. normalari o'sha davlatning asosiy qonunlari bo'lgan va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Keyinchalik 4 roshid xalifa, umaviylar, abbosiylar va usmoniylar davlatlari vaqtida ham Sh. davlatning qonuni bo'lib kelgan. Ammo, vaqt o'tishi bilan turli omillarga ko'ra, musulmonlar Sh. hukmlaridan uzoklashib borganlar. Asta sekin Sh. hukmlariga amal qilish ham susayib va ba'zida noto'g'ri yo'llarga kirib borgan. 20-a.ning boshiga kelib, Sh.ga amal qilish ba'zi davlatlarda rasman bekor qilingan. O'zi shundoq ham sustlashib qolgan Sh.ga amal qilish ishi parokanda bo'lgan. Musulmonlar yashaydigan davlatlar g'arb davlatlari qonunlaridan ko'chirma olishga o'tdilar. Hozirga kelib faqatgina Saudiya Arabistoni davlati o'zining Sh.ga amal

qilayotganini aytadi. Boshqa islom davlatlarida faqat oilaviy - nikoh, taloq, nafaqa kabi masalalarda va merosda Sh.ga to'liq yoki qisman amal qilinadi. Boshqa qonunlar g'arb davlatlari qonunlaridan o'zgartishlar bilan olingan ko'chirmadan iborat. 20-a.ning o'rtalaridan turli shaxs va jamoalar tomonidan Sh.ga amal qilishni qayta tiklash chaqiriklari olib borilmoqda. Bunga qisman amal qilgan yerlar ham bor. Ammo, ko'pchilik davlatlarda bu chaqiriklar gap bo'yicha qolib kelmoqda.

O'zbekiston hududida qadimda barcha musulmon o'lkalari bilan bir qatorda Sh. tatbiq qilingan. Movarounnahrlik faqihlar chuqur bilimlari, mashhur asarlari bilan Sh.ning rivojiga muayyan hissa qo'shgan. Movarounnahr hanafiylik mazhabining markazlaridan bo'lib, shu yerlik xalqlarning huquqiy tizimi Sh. tamoyillari va qoidalari asosida yaratilgan. Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", farg'onalik Faxriddin Hasanning "Fatovo", buxorolik Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasar" singari kitoblari musulmon davlatlarida mashhur bo'lgan. Ular o'z asarlarida ayrim huquqiy me'yorlarni mahalliy sharoitga moslashtirishga intilganlar. Islom mamlakatlarida hoz. kunda Sh. jamiyatning ijtimoiy-ruhiy hayotini qamrab oluvchi tartib-qoida sifatida muayyan mavqega ega. Boshqa Islom yurtlari qatori bu hududda ham asta-sekin Sh. qonunlari o'rni susayib borgan. Bolsheviklarning oktyabr to'ntarishidan so'ng Sh. umuman man qilingan. 2-jahon urushi davrida Sh.ning ba'zi shaxsiy ibodatga oid ta'limotlariga amal qilishga chegaralangan shaxslarga ruhsat berilgan. Mustaqillik davrida namoz, ro'za, haj kabi shar'iy amallarni fuqarolar bemalol qilish imkoniga ega bo'ldilar.

SHAMSIDDIN KULOL MAQBARASI -Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (14-15-a.lar). Amir Temurning piri shayx Shamsiddin Kulol dafn etilgan (1370). Maqbara to'g'ri to'rtburchak tarhda (12,1x10,6 m) qurilgan bo'lib, gumbazi saqlanmagan, keyinchalik yassi tom bilan yopilgan. Bino pishiq g'ishtdan qurilgan, devorlari bir necha marta suvalib, dastlabki bezaklarini ham, qiyofasini ham qisman yo'qotgan.

SHARIF (arab. - "olijanob", "aslzoda") -Muhammad (sav) avlodlarining nomiga qo'shiladigan hurmat so'zi. Sh. yana bir necha mo'tabar atamalarga sifat tarzida qo'shiladi. Mas., hadisi Sh., Buxoroyi Sh., Kalomi Sh., Kuddusi Sh., Mushafi Sh. va sh.k.

SHATH (ko'pliga shatahot yoki shathiyot; shataha fe'lidan - "harakatda bo'lmoq", "qirg'oqlar tomonidan qisib qo'yilishi natijasida jo'sh urmoq" - daryodaga suv haqida) - so'fiyning ekstaz holatida (vajd) o'zini nazorat qila olmay qolgan so'fiy aytadigan ibora. Sh. istilohi ekstaz holatining o'zini ham anglatadi. Fe'ning ma'nosidan kelib chiqib, tasavvuf nazariyotchilari Sh.ga so'fiyni zikr paytida Allohni mushohada qilishi (mushohadat al-haqq), undagi "men"ni "yo'q bo'lishi" (fano an nafsihi), U bilan o'zining birligani his etishi (ittihod) natijasida uni chulg'ab olgan hissiyotlarining "otilib chiqishi" deb ta'rif berganlar.

Bu holatdagi so'fiylar og'zidan chiqqan eng mashhur iboralardan Mansur al-Hallojning "Men-Xudo!" (ana-l-Haqq), Bistomiyning "Men sharafliman! O men qanchalar buyukman!" (subhani, subhani ma a'zama sha'ni), ash-Shibliyning "Sizning davringiz tugayapti, faqat mening vaqtimning na oxiri na boshi bor!", Ibn Sab'inning "Xutsodan o'zga hech narsa yo'q" va b.ni ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda Sh.ni so'fiyda sodir bo'ladigan shaxsiy ichki kechinmalar, uni so'z bilan

ta'riflash mushkul bo'lgan hissiyotlarini izhor etishga bo'lgan intilishi deb izoxdash mumkin.

SHAFOAT (arab.) - boshqa birovga qo'shilib, unga yordam berish va yonini olib, biror narsani uning uchun so'rash. Ko'pincha, Sh. martabasi va hurmati yuqori shaxsning o'zidan past odamning tarafini olishi tushuniladi. Qiyomatdagi Sh. ham shundandir ("al-Mufradot fi Rariybil Qur'on" 263 s.) Sh.chi o'zini, Sh. qilinadigan shaxsga unga yordam berish va uning uchun bir narsani tilash uchun, qo'shadi. Shuningdek, Allohning huzurida Sh. beruvchilar ham, gunohkorlarga ko'mak beradilar.

Sh. bir necha turlarga bo'linadi. 1-ulug' Sh. bo'lib, barcha payg'ambar (as)lar ichidan Payg'ambar Muhammad (sav)ning o'zlariga xos qilingandir. Buning dalili, Buxoriy, Muslim va b. rivoyat qilgan "ulkan shafuat" hadisidir.

2-Payg'ambar (sav)ning, yaxshiliklari va yomonliklari barobar bo'lib qolgan odamlar jannatga kirishlari uchun Sh. qilishlari. 3-Payg'ambar (sav)ning, boshqa bir, do'zaxga amr qilingan odamlarni unga kirmasliklari uchun Sh. qilishlari. 4-Payg'ambar (sav)ning jannatga kirgan odamlarning amallari savobi taqozo qilgan darajadan yuqori darajaga ko'tarish uchun Sh. qilishlari.

5-Ba'zi qavmlarni jannatga hisobsiz kirishlari haqidagi Sh. Bu qismga dalil Ukosha ibn Musoning hadisidir.

Rasululloh (sav) unga duo qilib, Alloh uni jannatga hisobsiz kiradigan yetmish ming kishilardan qilishini so'raganlar (Buxoriy, Muslim).

6-Azobga sazovor odamlardan azobni engillatish uchun Sh. Payg'ambar (sav) amakilari Abu Tolibning azobini yengillatish haqidagi Sh.lariga o'xshash (Muslim, Abu Sa'vd al-Xudriy rivoyat qilgan).

7-Payg'ambar (sav)ning barcha mo'minlarga jannatga kirish izni berilishini so'rab qiladigan Sh.lari.

8-Payg'ambar (sav)ning o'z ummatlaridan gunohi kabira qilganlariga Sh. qilishlari. Ushbu 8 tur Payg'ambar (sav)ga va Sh. qilinuvchiga nisbatandir.

Sh. shafuatchiga qarab ham 8 turli bo'ladi:

1-Anbiyo (as)larning ummatlariga Sh.i.

2-Farishtalarning gunohkorlarga Sh.i.

3-Kichik bolalarning ota-onasiga Sh.i.

4-Allohning yo'lida shahid bo'lganning o'z axlidan 70 kishiga Sh.i.

5-Qur'onni yod olgan kishining axli baytiga Sh.i.

6-Mo'minlarning bir-birlariga Sh.i.

7-Qur'oni karimning o'z qorisiga Sh.i.

8-Ro'zaning ro'zadorga Sh.i.

Qur'oni karimning 2-sura, 255-oyatida Sh. to'g'risida jumladan shunday deyilgan: "Uning huzurida hech kim (hech kimni) Uning ruhsatisiz shafuat qilmas".

SHAXSEY-VAXSEY - shialikdagi motam marosimi. Muhammad (sav) nabiralari (Alining o'g'li) imom Husaynning halok bo'lgani munosabati bilan har yili muharram oyining boshida o'tkaziladi. Sh.-v. Shialarning motam yurishlari vaqtida odat bo'lgan "Shoh Husayn, voh Husayn" degan qichqiriqlarining qisqargan shakli (yana q. Ashuro).

SHA'BON (Hindiston va Pokistonda - shabi barot) - musulmon qamariy taqvimidagi 8-oy. Islomga qadar Sh. - 4 muqaddas oydan biri (q. Qur'on, 9:36), chunki qad. arab taqvimiga ko'ra, yozgi tengkunlik Sh.ga to'g'ri kelgan. Sh.da qo'shimcha ro'za tutish (va b. solih a'mollar qilish) keng tarqalgan, Sh.ning 15-kuni esa (u johiliyat davrida ham e'zozlangan), islomda eng ommaviy xalq bayrami - laylat al-baro'a ("yaratish kechasi", odatda "xalos bo'lish kechasi" deb tushuntiradilar, ya'ni gunoxdarni kechirish) xuddi laylat al-qadr kabi qad. yanga yil bayrami belgilarini saqqab qolgan. Shu kechada Alloh "eng pastki osmon"ga tushib, gunohlarini afv etishni so'raganlarning iltijosini ijobatga olar ekan. Laylat al-baro'ada Yosin surasi o'qiladi, o'lganlar yodga olinib, ular ruhiga duolar qilinadi. Hindiston va Pokistonda qashshoqlarga taom tarqatiladi, shirinliklar tanovul qilinadi, bayram charog'bonligi o'tkaziladi.

Sh.ning 13-15-kunlari "Oq tunlar" (kunlar) deb atalib, bir qator mamlakatlarda bu kunlarda ro'za tutiladi. Sh. oyining 3-kunida Rasululloh (sav)ning nabiralari Husayn tug'ilgan, 5-kuni - boshqa nabiralari Hasan tug'ilgan bo'lishi mumkin deb hisoblangan sanalardan biri deb aytiladi. Sh.ning 15-kuni - qibla Quddusdan Makkaga o'zgartirilgan kun deb hisoblanadi. Oy nomiga al-mu'azzam - "izzatli" sifatini qo'shish bilan islomda Sh.ning ahamiyati uqtirib ko'rsatiladi

SHA'RONIY (yoki ash-Sha'roviiy), Abdulvahob ibn Axmad (1493-1565) - misrlik mashhur so'fiy va ilohiyotchi. Saqiyat - Abu Sha'ra qishlog'ida tug'ilgan, o'z shajarasini (asossiz ravishda) Ziyoniylar sulolasidan chiqqan Tlemsen hukmdorlariga, ular orqali alaviy Muhammad ibn al-Hanafiyaga bog'lagan. Qohirada yashab, ijod etgan. Shofi'iylik fiqhini u Misrning atoqli faqih Zakariyo al-Ansoriydan o'rgangan. Ibn Arabiy qarashlari unga katta ta'sir ko'rsatgan. Qohirada Sh. so'fiy va'zxon sifatida tezda shuhrat qozongan, tarafdorlari ko'paygan. Badavlat qozi Abdulqodir al-Mag'oziliy unga atab madrasa kurdirgan va vaqf sifatida bir qancha yer mulklari ajratib bergan. Sh. va uning avlodlari undan merosiy foydalanish huquqini olganlar. Shu tufayli Sh. ko'p xayr-sadaqalar qilgan, kambag'allar, mayib-majruhlar, shuningdek, ko'p sonli muridlarini boqqan, bular uning shuhrati yanada ortishiga sabab bo'lgan. 1774 y. uning sag'anasi ustiga uning nomi bilan ataladigan masjid bunyod etilgan, u hozir ham saqlangan. Masjid joylashgan ko'cha va yaqin atrofdagi mavze ham uning nomi bilan ataladi. Sh. hadis, fiqh, so'fiylik va b.ga oid 60 dan ziyod asar yozgan. Ibn Arabiyning kuchli ta'siriga qaramay, Sh. uning vahdat al-vujud ta'limotini qabul qilmagan. U "ma'rifatli" so'fiylik tarafdori bo'lib, fiqh va islom aqidalarini chuqur bilish har bir so'fiy uchun shart deb hisoblagan. U tavakkulni bir taraflama -har bir ishni Allohning irodasiga tashlab qo'yishni, bu bilan "qashshoqlikda kun kechiruvchi bekorchilar va tekinxo'rlarni" so'fiylikda ortib borishiga qarshi chiqqan. Fiqh sohasida Sh. mezon nazariyasini ishlab chiqqan, unga ko'ra, islomdagi 4 asosiy mazhab o'rtasidagi ixtiloflar asosan shariat qoidalariga amal qilishga oid. Sh.ga ko'ra, barcha mazhab asoschilari haq bo'lib, diniy qonun negazida sobitqadam bo'lganlar. Ular o'rtasidagi farq faqatgina shariatning u yoki bu qoidasini "murakkablashtirish" (tashdid) yoki "engillashtirish" (taxfif)dan iborat bo'lgan.

SHAHID (arab. guvoh) - islomda din yo'lida halok bo'lgan shaxs. Hadislarga ko'ra, Sh. o'z imonini kofirlarga qarshi urushda xalok bo'lishi bilan tasdiqlaydi. Unga qabr azobidan xoli bo'lib jannatga tushish kafolatlangan, shuning uchun u dafn etilishidan oldin yuvilmaydi. Sh.ning hayotidaga qilgan barcha gunoxlari kechiriladi, jannatda u Alloh

huzurida baland martabaga erishadi. Vaqt o'tishi bilan g'ayritabiiy o'lim topgan (inson, hayvon tomonidan o'ldirilgan, tabiiy ofat, og'ir yuqumli kasalliklar, zaharlanishdan o'lganlar, haj paytida vafot etganlar va b.) barcha kishilar Sh.lar deb hisoblangan. Hadislarda aytilishicha, o'z obro'si yo mol-mulki yoki joni yoxud dini, shuningdek, ahdu oilasining himoyasi yo'lvda qurbon bo'lganlar ham Sh.dir. Vabodan o'lgan, ichki xastalik ila o'lgan, g'arq bo'lib o'lgan, tom bosib o'lganlarni Sh. hukmida o'lganlar deyiladi. Boshqa bandalardan farkli o'laroq shahidlar uchun xos qilingan xislatlar ham bor ekan. 6 xislat Alloh taoloning yo'lida jihad qilib shahid bo'lganlargagana nasib bo'lar ekan. 1-Sh. 1-daf'ada mag'firat qilinadi; 2-Sh. o'zining jannatdagi o'rnini ko'radi; 3-Sh. qabr azobidan saqlanadi; 4-Sh. katta qo'rqinchdan omonda bo'ladi; 5-Sh.ning boshiga bitta yoquti dunyo va undagi narsalardan yaxshi bo'lgan viqor toji qo'yiladi; 6-Sh.ni hurlardan 72 jufti halolga uylantiriladi 7- Sh.ni yaqinlaridan 70 tasiga shafolat qildiriladi.

SHAHODAT ("guvohlik") - 1) Kalimsi shahodat. 2) U yoki bu fakt yuzasidan beriladigan guvohlik ko'rsatmasi.Sh . haqiqiy bo'lishi uchun u to'g'ridan to'g'ri, ya'ni boshqalarning so'ziga asoslanmasdan (agarda u topshiriq va vasiyat bo'lmasa) va 2 erkak yoki 4 ayol tomonidan berilmog'i lozim. Qulning SH.I ayolning Sh.iga tenglashtirilgan G'ayridinlarning Sh.i ba'zi mazhablarga ko'ra dinga taalluqli bo'lmagan masalaga oid bo'lsa musulmonlar Sh.iga teng deb hisoblangan lekin ular o'z dinlari nomidan qasam ichishlari kerak bo'ladi, boshqa bir mazhabp ko'ra - umuman inobatga olinmaydi. Agarda kelishuv asosida soxta Sh. berilgan bo'lsa ba'zi mazhablarga ko'ra, u qasamxo'r sifatida jazolanadi, boshqasiga ko'ra esa - soxta guvoh sifatida jazoga tortiladi. Sh. tartibi Abu Yusuf (8-a.) tomonidan batafsil bayon qilingan. Sh. haqiqatni aniqlashda eng muhim usullardan biri sifatida shariat sudiga rioya qilinadigan barcha mamlakatlarda saqlanib qolgan.

SHAHRISTONIY, Muhammad ibn Abd al-Karim ash-Shahristoniy (1075 -1153) - shofi'iylik mazhabi faqih, ash'ariylar, oqimiga mansub ilohiyotchi, din va diniy-falsafiy ta'limotlar tarixchisi, faylasuf U Eronning Xuroson viloyatidaga Shahriston sh.da tug'ilgan. Sh. 10 dan ortiq asar yozgan ulardan ash'ariylar ilohiyot tizimining bayoni, Qur'onga sharhlar (ismoiliylar ruhidagi sharhlar)dan parchalar saqlanib qolgan. Uning Ibn Sino bilan bahs, shuningdek "Dinlar va mazhablar haqida kitob" ("Kitob al-milal va-n-nihal") asari (1127) din tarixiga oid eng mashhur va e'tiborli kitoblardan biridir. Muallif o'z asarining 1-qismida islom tarixini, 2-qismida esa, O'rta yer dengizi atrofi va Sharq xalqlari e'tiqodlari va diniy-falsafiy ta'limotlarini bayon etgan.

SHIALIK (arab. - guruh, tarafdorlar) -islomdagi asosiy yo'nalishlardan biri, O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyin 2-o'rinda turadi. Hozir jahondagi musulmonlarning qariyb 8%i Sh.ka mansub hisoblanadi. Sh. 7-a. o'rtalarida xalifa Ali(kv) hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. 7-a. oxirlariga kelib, Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan. Sh. boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farkdardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo'lgan. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farkdar vujudga kelgan. Sh. diniy-aqidaviy ta'limotda, marosim va urf-odatlarda sunniylikdan ma'lum darajada farq qiladi. Diniy-siyosiy harakat sifatida xalifalar hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan zamindor guruhlarning, hatto xalq qo'zg'olonlarining mafkurasi

sifatida ham maydonga chiqqan. Sh. aslida zamindor guruhlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash oqibatida vujudga kelgan bo'lsa-da, bu ixtiloflar ko'pincha diniy ta'limotdaga tafovut shaklida namoyon bo'lgan. Sh. tarafdorlari (shialar) sunniylar kabi Qur'onni ilohiy deb e'tirof etadi, lekin ayrim o'ta reaksion ruhdagi oqimlari xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydi. Sh. ilohiyotchilari Qur'onning mazmunini majoziy talqin qilish yo'li bilan o'z ta'limotlarini asoslaydi. Sunnada hadislar masalasida esa, ular faqat Ali(kv) va uning tarafdorlari nomi bilan bog'liq bo'lgan hadislarni tan olgan va shunday hadislardan iborat mustaqil to'plamlar tuzgan. Bu to'plamlar Axbor deb atalgan. Sunniylikda e'tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, Sh.da tavhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e'tiqod qilinadi. Bulardan 4 aqida - tavhid (Allohning yagonaligani e'tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya'ni takdir aqidasi), nubuvvat (payg'ambarlik), qiyomat yoki ma'od (oxirat kunining kelishi va o'lganlarning tirilishi), asosan, sunniylik ta'limoti bilan mos tushadi. 5-aqida imomat (imomlar hokimiyatini e'tirof etish) esa, sunniylikka va sunniy xalifapar hokimiyatiga zidliga bilan farq qiladi. Sh. Ali(kv) va uning avlodlaridan iborat o'n ikki imom hokimiyatini tan oladi. Shu munosabat bilan barcha xalifalarni, xususan dastlabki xalifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallab olgan shaxslar sifatida qoralaydi. 874-878 y.lar orasida 7-9 yoshida bedarak yo'qolgan 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular "yashiringan" hisoblaydi, zamona oxir bo'lganda uning qaytib kelishini va adolat o'rnatishini kutadi (imomi Mahdiy, imomi oxir zamon). Bu tasavvur malum darajada sunniylikda ham tarqalgan. Ba'zi urf-odat va marosimlarda, shariat normalarida ham Sh. bilan sunniylik o'rtasida ma'lum tafovutlar bor. Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf sh.larida joylashgan TTT. imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladi. Sh. shariatida ja'fariylik mazhabi hukmron bo'lib, shialar imom Husaynga motam tutadi, shaxsey-vaxsey deb nom olgan motam yurishlari o'tkazadi va h.k. O'rta asrlarda Sh. ichida ixtiloflar yuz bergan, natijada ko'p firqalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiylar, ismoiliylar, ibodiyalar va b. hozir ham mavjud. Sh. hoz. vaqtda Eronda hukmron e'tiqod hisoblanadi. Iroq, Afgoniston, Hindiston va Pokistonda shialar bor. Ozarbayjon va Tojikistonda (Pomirda ismoiliylar) aholining muayyan qismi Sh.ka e'tiqod qiladi.

SHIBLIY, Abu Bakr Dulaf ibn Jahdar (ibn Ja'far) (861-946) - bag'dodlik so'fiy, al-Junayd va al-Hallojning eng yaqin shogirdi va safdoshi. Samarrada tug'ilgan, otasi xalifaning bosh hojibi, amakisi -Iskandariyada amir ul-umaro bo'lgan. Sh.ning o'zi xalifa al-Muvaffaqning hojibi vazifasida ishlagan. 40 yoshida Shim. Erondagi Damovand viloyati voliysi etib tayinlangan, biroq to'satdan bundan voz kechib, Bag'dodning mashhur so'fiylaridan Xayr an-Nassoj huzurida (majlis) "tavba" qilib so'fiylikni ixtiyor etgan. Dastlabiga hissiyotga o'ta beriluvchan xarakterli Sh. al-Halloj targ'ib etgan "o'ta" so'fiylikka moyillik bildirgan. Biroq, ta'qib etishlar, so'ngra al-Hallojning qatl etilishi uni o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur etib, al-Junayd va tarafdorlari kabi ehtiyotkorona mavqeni tutishiga sababchi bo'lgan bo'lsa kerak. Sh. al-Hallojdan yuz o'girib, uni mumtoz shaxslar mulki bo'lgan "sirlar"ni ochganlikda qoralaganligi haqida ma'lumotlar bor. Al-Halloj qatlidan so'ng Sh.ning hulqi juda g'alati bo'lib qolgan. Uning g'alati qiliqlari (qimmatbaho kiyimlari va mushk anbarlarini yoqib yuborishi, o'zini o'zi qiynoqqa solishi va b.) hissiyotga o'ta beriluvchanligi uni telba deb hisoblashlariga olib keldi, shuning uchun bu davrda g'ayrifirklovchilar va bid'atga qarshi kurash olib borayotgan Bag'dod hukmron doiralari unga e'tibor bermaganlar. Sh.ni shuningdek, badavlat xonadonda tug'ilganligi va o'sha paytda shu kurash tashabbuskorlaridan bo'lgan molikiylar

mazhabiga mansubligi ham kutqarib qolgan bo'lsa kerak. Huquqiy va Qur'on ilmlarida Sh., olimlarning fikricha, bu sohadagi eng kuchli allomalardan qolishmagan va hatto ulardan ustun turgan. Sh.ga nisbat beriladigan so'fiyona she'rlar badiiy qimmatga ega. Uning tarjimai holiga oid parchalar, aytgan so'zlari va she'rlarini barcha mo'tabar so'fiylik risolalaridan topish mumkin. Uning Bag'doddagi qabri saqlangan va bugungi kunda ham ziyoratgoh sanaladi.

SHIRK - sherik keltirish. Allohning sherigi bor deb e'tiqod qilish. Sh. - Alloh taolaga xos bo'lgan sifatlarni Undan o'zgaga sobit qilishdir.

Sh.ning shar'iy tushunchasi - Maxluqni Robbil olamiynga 5 ishdan birida tenglashtirishdir. Ya'ni, Allohning zotida, sifatlarida, ismlarida, ishlarida va hukmlarida sherigi bor, deb e'tiqod qilishdir. Sh.ning turlari:

1) ibodatda Sh. keltirish. 2) duoda Sh. keltirish. Bandalarning toqatidan tashqari narsalarda, oddiy sabablardan ustun narsalarda Allohdan boshqadan nusrat va yordam so'rab duo qilishi - Sh. bo'lib, bu ish insonni tavhid sohasidan chiqarib, kufr doirasiga kiritadi. 3) robbilikda Sh. keltirish. 4) hukmda Sh. keltirish. 5) mulk va sultondagi Sh. keltirish. 6) xalq-yaratishdagi Sh. keltirish. 7) itoatda Sh. keltirish. 8) tashri'dagi Sh. keltirish. Bundan tashqari, imom Dehlaviy fikricha, Sh.ning quyidagicha 8 xil turi mavjud: 1-Sajdada Sh. keltirish. Islomdan avval sanamlarga va yulduzlarga sajda qilar edilar. Allohdan o'zgaga sajda qilish man qilindi. Alloh taolo: "Kuyoshga ham, oyga ham sajda qilmanglar, ularni yaratgan Allohga sajda qilinglar" (Fussilat surasi, 37), dedi. 2-Yordam so'rashdagi Sh. keltirish. Islomdan avvallari bemorga shifo berish, kambag'alga boylik kabi hojat talab ishlarda Allohtsan o'zgodan yordam so'rar edilar. Nazr qilishdagi Sh. keltirish ham shu jumlagi kiradi. Chunki, Allohdan o'zgaga nazr qiluvchi, o'ziga kelgan yordamga shukr qilish maqsadida yoki bo'lajak yordamdan umid qilib nazr ataydi. Mushriklar sanamlariga nazr atar va o'sha nazr tufayli ulardan maqsadlariga erishtirishlarini kutar edilar. Barakat umidida ularning ismlarini tilovat qilar edilar. Alloh taolo ularga namozda, "Iyyaka na'budu va iyyaka nastaiyn" (Fotiha surasi, 4), deb aytishni vojib qildi. Bu sajda va ibodatda Sh. keltirishdan, shuningdek, yordam so'rashda Sh. keltirishdan qaytarish edi. Alloh taolo: "Alloh bilan birga birovga duo qilmang!" (Jin surasi, 18), degan. Chunki, duo yordam so'rash uchun bo'ladi. Shuning uchun ham, hojatlarda, musibat va alamlarda Allohdan boshqaga duo qilish man qilingan. 3-Uluhiyat (ibodatga sazovor)likdagi Sh. keltirish.

Ular o'zlarining ba'zi sherik xudolarini Allohning qizlari, o'g'illari, deb atashar va buni ularning ilohning juz'i bo'lganlari uchun uluhiyat haqqini berish uchun qilar edilar. Batahqiq bu ishdan juda ham qat'iy ravishda qaytarildilar. 4-Tashri'dagi Sh. keltirish. Yahudiylar o'z axbor (diniy olim)lari va rohiblarini Allohdan o'zga Robbilar qilib olar edilar. O'shalar halol degan narsani, qilsa bo'laveradigan halol narsa, ular harom qilgan narsani esa, gunoh bo'ladigan harom narsa, deb e'tiqod qilar edilar. Harom qilishning ma'nosi falon narsa uchun jazo chorasi ko'riladi, deyishdir. Halol qilishi esa, falon narsa uchun jazo chorasi ko'rilmaydi, deyishdir. Bas, jazo chorasini ko'rish va ko'rmaslik Allohning sifatlaridandir.

5-Allohdan o'zgaga atab so'yishlik ila Sh. keltirish.

Mushriklar sanamlarga va yulduzlarga qurbat hosil qilish maqsadida ularga atab jonlik so'yar edilar. Bunda ular yoki o'sha narsalarning nomini aytib so'yishar, yoki maxsus butlariga olib borib so'yar edilar. Bas, bundan Allohning quyidagi so'zlari ila qaytarildilar: "Allohdan boshqaning nomi aytib so'yilgan narsa" (Moida surasi, 173) va "Allohning ismi zikr qilinmagan narsadan yemanglar"

(An'om surasi, 119).

6-Allohdan o'zganing nomi ila qasam ichish bilan Sh. keltirish.

Ular ba'zi kishilarning ismlarini muborak ulug', deb e'tiqod qilishar, ularning ismi bilan yolg'ondan qasam ichganing molu dunyoga va axliga nuqson yetadi, deb o'ylar edilar. Shuning uchun, bu ishni qilishmas va talashib qolgan odamlardan o'shalarning ismlari ila qasam ichishni talab qilar edilar. Bas, bu ishdan man qilindilar.

7-Allohdan o'zgaga haj yoki ziyorat qilish ila Sh. keltirish.

Ya'ni, o'sha Allohga Sh., deb e'tiqod qilinayotganlarga xos tabarruk joylarga borib, ularga kurbat hosil qilishga urinish Shariatda bu ishdan ham man qilingan Payg'ambar (as): "Faqat uchta masjidgagina ko'ch bog'lab (ziyosatga) boriladi", dedilar. 8-Nom qo'yishdagi Sh. keltirish. Mushriklar o'z bolalariga Abdul Uzzo, Abdush Shams kabi nomlarni qo'yar edilar. Payg'ambar (as) Sh.ka ishora qiluvchi ko'plab ismlarsh o'zgartirdilar. "Ismlarning eng afzali Abdulloh va Abdurahmon", dedilar. Islomda Sh. hech kimdan kechirilmas gunoh hisoblanadi

SHIRKAT, shirka ("sheriklik" "kooperatsiya") - bitim (akd)ning maxsus turi Unga ko'ra, ikki va undan ortiq kishi umumiy ish olib borish uchun (savdo, hunarmandchili* yoki boshqa sohada) birlashadilar. Buning uchun ular o'z mablag'larini o'rtaga qo'yib, birgalikda harakat qilishadi. Bunda har bir sherik umumiy mulkdan foydalanish huquqiga ega va umumiy ishda qatnashishga majburdir. Daromad: va zarar har bir Sh. qatnashchisining qo'shgan ulushiga qarab, yoki kelishuvga asosan taqsimlanadi. Sh.ning 4 turi bor: 1) To'liq Sh., unda qatnashchilar teng ulush qo'shib o'z imkoniyatlariga ko'ra teng bo'ladilar, ya'ni ular bir kasb-hunar bilan shug'ullanadilar yoki bir savdoda mashg'ul bo'lib erkin musulmon hisoblanadilar; 2) To'liq bo'lmagan Sh., unda faqat o'zaro bitim talab etilib, ulushlarning tengligi talab etilmagan; 3) Maqsadli Sh. unga ko'ra, umumiy mablag' bo'lmasligi mumkin. lekin kreditga qilish mumkin bo'lgan umumiy ish bor; 4) Sh. - kooperatsiya, unda turli kasb-hunar kishilari umumiy ish yuritish uchun birlashadilar (ko'nchilar, egarchilar, etikdo'zlar, quyuvchilar, temirchilar va b.). Ayrim mazhablarga ko'ra, Sh.ning so'nggi 2 turini ularda umumiy mablag' bo'lmagani tufayli e'tirof etish mumkin emas. Sh. tartibi hozirda islom mamlakatlari iqtisodiy hayotining barcha jabhalarvda to'liq saqlanib qolgan bo'lib, yangi sharoitlarga moslashib bormoqda.

SHIS (as) - payg'ambar. Odam (as)ning Hobil o'ldirilganidan keyin tug'ilgan 3-o'g'li. Injilda Sif deb atalgan. Xudojo'y kishi bo'lgan, Allohdan unga vahiy kelib turgan. Vahiy 50 sahifani tashkil etgan, deb hisoblanadi. Makkada yashagan, haj marosimini muntazam ravishda ado etgan. Loy va toshdan Ka'ba binosini kurgan. Odamato va Momohavo bilan birga Makka yaqinidaga Abu Qubays tog'ining g'orida dafn etilgan.

SHOZILIYLAR, ash-Shoziliya - Shim. Afrikadagi eng yirik so'fiylik tariqati. Asoschisi - Abu-l-Hasan ash-Shoziliy (1196/ 97-1258) mag'riblik bo'lib, shajarasini shayx Ibn Xorazm (1236 y. v.e.) orqali mashhur Abu Madyonga bog'lagan. Sh.ga g'oyaviy asos bo'lgan Shoziliy ta'limoti o'zining asosiy qoidalarida mo'tadil so'fiylik g'oyalariga asoslangan. Ular o'z davrida al-Junayd va b. "mo'tadil" so'fiylar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Abu Madyon tomonidan Shim. Afrika sharoitiga moslashtirilgan. Shoziliy Tunisdagi o'z tarafdorlariga yo'llagan maktubida va og'zaki va'zlarida itoatda bo'lishga,

Allohdan qoʻrqishga, hukumat bilan hamkorlik qilmaslikka, shariat koʻrsatmalariga qatʼiy rioya etishga, Rasululloh (sav) sunnatlariga ergashishga, dunyo lazzatlaridan yuz oʻgirishga daʼvat etgan.

Sh. bir necha asr mobaynida Afrikaning Sudandan to Maligacha boʻlgan ichki viloyatlarida muvaffaqiyat bilan islomni tarqatgan. Sh. va uning tarmoqlari Marokash, Tunis, Jazoir, Sudan va b. Afrika mamlakatlarida bugungi kunda ham mavjud. ShOM - 5 vaqt oʻqiladigan namozning biri. Sh. namozining oʻqilish vaqti Kuyosh botgandan boshlab, magʻrib ufqidagi qizil shafaqning koʻrinmay ketadigan vaqtigacha deb belgilangan. Bu taqriban 60 daqiqaga teng. Sh. namozi 3 rakaat farz, 2 rakaat sunnat oʻqishdan iborat. Sh., xufton va bomdod namozlarining farzi jamoat bilan oʻqilganda imom qiroatni jahriy (ovoz chiqarib) oʻqishi vojib amallardan hisoblanadi. Yakka oʻqigan odam uchun bu ixtiyoriydir. 2) Quyosh botgan payt ham Sh. deb ataladi.

SHOFIʼIY, toʻliq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ash-Shofiʼiy (767-820) - imom, shofiʼiylik mazhabining asoschisi, sayyidlardan. 2 yoshida onasi Makkai Mukarramaga olib kelgan va shu yerda Qurʼoni karimni yod olgan. 10 yil arab olamida shirin tili va fasohati bilan mashhur boʻlgan Huzayl qabilasida yashagan, natijada yirik arab tilshunosi, sheʼriyat bilimdoni boʻlib yetishgan. Koʻp yerlarga safar qilgan. Makka muftisi Muslim Xolid az-Zanjiiy va Madinai munavvarada Imom Molik huzurlarida taʼlim olgan. Imomi Aʼzamning shogirdi Muhammad ibn Hasan bilan Bagʻdodda yaqin muloqotda boʻlib, unga shogird tushgan va shu yerda oʻz mazhabini tuzgan. Imom 111. mazhabi, asosan, Misrda, Hind okeani davlatlarida, ayrim orollarda tarqalgan. Sh. bir qancha muddat goh Iroqda, goh Hijozda istiqomat qilgan. 815 y. Qohirada muqim turib qolib, shu yerdagi "Amr ibn Os" jomeʼ masjidida fiqhdan dars bergan. Sh.ning "ar-Risola", "al-Umm" asarlari islom olamida mashhurdir va shofiʼiy ulamolar uchun eng zarur manba boʻlib xizmat qiladi. Sh. "Usul al-fiqh" ilmiga asos solgan. Boshqa faqihlar oʻzlariga manba deb hisoblagan "Istihson"ni qabul qilmagan, uni xato deb tushungan.

Bu zot haqida Imom Axmad ibn Hanbal shunday degan: "Siyoxdon koʻtargan har bir kishining zimmasida Shofiʼiyning haqqi bor". Boshqa olimlar esa: "Muhaddislar gʻaflat uykusida edilar, Imom Shofiʼiy ularni uygʻotdilar", deyishgan.

SHOFIʼIYLIK - sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Imom Shofiʼiy asos solgan. Sh. huquq tizimi xanafiylar va molikiylarning diniy-huquqiy taʼlimotini oʻziga singdirgan boʻlsa-da, koʻproq molikiylarga yaqin turadi. 111. qiyosni va raʼyni cheklab koʻllaydi. Sh. Qurʼon va sunnaga yagona manba sifatida qaraydi. Sh.ga koʻra, sunna Qurʼonni toʻldiradi, xolos, sunnaning oʻzi qiyoslab oʻrtacha hukm chiqarish uchun asos boʻlolmaydi. Sh. tarafdorlari madinalik rivoyatchilarning hadislarini ustuvor hisoblab, ular aytgan hadis yoki ijmoʻga tayanib ish koʻrish mumkin, deb biladi. Sh. Suriya va Misrda shakllangan. Oʻrta asrlarga kelib Yaqin Sharq mamlakatlarida keng garqalgan. Keyinchalik bu mazhabning taʼsir tsoirasi torayib borgan. Hoz. vaqtda Misr, Indoneziya, Shimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarining baʼzilarida, qisman Suriyada va jan. arab sultonliklarida Sh. mazhabi diniy-huquq gizimiga amal qiluvchilar bor.

SHOH VALIULLOH Axmad Abdurahim (1703-62) - islom mafkurasining yirik namoyandasi, 18-a.da Hindiston musulmonlari o'rtasida boshlangan diniy islohotchilik harakatining asoschisi. Yirik ruhoniyning o'g'li. Diniy maktabni tamomlab, otasi asos solgan ;"Madrasai Rahimiya"da falsafa, ilohiyot va mantiqdan dars bergan. Hindistonda boburiylar saltanati inqirozga uchragan davrda uning ta'limoti saltanat shuhratini tiklashga qaratildi. Sh.V. zodagonlar va ulamolar doirasidan tashqari, keng musulmonlar o'rtasida ham ilm va ma'rifatni, axloqiy garbiyani kuchaytirish, ilmsizlik va jaholatga qarshi kurash tarafdori bo'lib maydonga chiqqan. Sh.V.ning falsafa va ilohiyotga doir 50 dan ortiq asari bor.

SHOHI ZINDA ANSAMBLI Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (11-12-a.) Afrosiyob tepaligi janubidagi maqbaralardan iborat ansambl. Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohi Zinda (Tirik shoh) degan afsona bor. Sh.z.a. bir-biri bilan yo'lak orqali bog'langan uch guruh binolar (14-a. o'rtalari va oxirlari hamda 15-asrda qurilgan)dan iborat.

SHOHID - guvoh. Sh.ning sud jarayonida ishtirok etishi an'anaviy sud yuritishning muhim qismidir. Sh. har 2 tarafning biri tomonidan sudga taklif etilishi va b. bir garaf tomonidan izohsiz rad etilmasligi lozim. Sh.dan zo'rlab ko'rsatma olish mumkin emas, lekin sababsiz ko'rsatma berishdan bosh gortish diniy majburiyat(farz)ni jiddiy buzish deb baholanadi. Har qanday huquqiy layoqatli kishi, uning ijtimoiy mavqei va dinidan qat'i nazar Sh. sifatida taklif qilishi mumkin. Biroq g'ayridin faqat dinga aloqador bo'lmagan masalalar yuzasidan guvohdik berishi mumkin, qaram kishi esa, o'z xojsi, homiysi yoki qarindoshi ishi yuzasidan guvoxlik bera olmaydi. Haqiqatni aniqlash uchun 2 ozod kishining Sh.ligi kifoya. Bitta erkakning guvoxligi 2 ayol yoki 2 cho'rinsh guvohligiga tenglashtiriladi. Faqat go'dak tug'ilishini tasdiqpash chog'ida bir cho'ring guvoxligi yetarli hisoblanadi. Soxta guvoxlik bergan Sh. jinoiy javobgarlikka tortilib. uning keyingi guvohliklari qabul qilinmaydi.

Ijtimoiy hayotda Sh. - ijtimoiy va xizmat yuzasidan tug'iladigan turli holatlarni o'z so'zi bilan tasdiqlash majburiyatini olgan shaxs. Hoz. paytda notarial idoralar va o'zaro kafolatlarning turli shakllari taraqqiy etishi bilan Sh o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

SHOHIMARDON (fors. "erlar shohi": "mardlar shohi") - choryorlarning to'rtinchisi Aliga berilgan nomlardan biri. Hazrat Ali janglarda jasurlik, mardlik ko'rsatib shu nomga sazovor bo'lgan. Farg'ona viloyati Hamzaobod qishlog'ining sobiq nomi Sh. edi. Ma'lumki, xorijiylardan bo'lgan Ibn Muljam Alining boshiga qilich urib, og'ir yarador qilgan va 2 kundan so'ng Ali vafot etgan. Naql qilinshicha, o'limi oldidan o'g'illari imom Hasan va imom Husaynni chaqirib: "jigarbandlarim, bugun sizlar bilan abadiy vidolashsam kerak. Ertaga ertalab ok tuya mingan bir badaviy (arab) kelib, sizlardan mening jasadimni so'raydi. Sizlar darhol jasadimni unga topshiringlar! Ammo, zinhor uning orqasidan ergashmanglar", deb vasiyat qiladi. O'g'illari yig'lashib, "Uning ortidan bormasak, qabringazni qaerdan izlab topamiz" deb so'raydi. Ali, qaerda 3 tomoni tog' bilan o'ralgan tekislik bo'lsa, o'sha yer mening qabrim bo'ladi, deb dunyodan ko'z yumadi. Dunyo bo'yicha ana shunday maskandan bugungi kunda yettitasi mavjud. Farg'onadagi Sh. nomli qishloq ham ana shulardan bittasidir.

SHUAYB (as) - Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Arab millatiga mansub bo'lgan 4 payg'ambardan (Hud (as), Solih (as), Muhammad (sav) bilan birga) biri. Sh. (as) o'z qavmini fasohatli usullar bilan imonga da'vat etganligidan "payg'ambarlar xatibi" deb nom olgan. Sh. va uning qavmi Arabiston ya.o.ning Qizil dengaz qirg'og'idagi Madyon degan joyda yashab o'tgan. Bu qavm, asosan, savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ular Allohga ibodat qilish o'rniga turli ilohlarga sig'inadigan, moddiy boylik orttirishga hirs qo'ygan, bu yo'lda har qanday razolat, nohaqliklardan qaytmaydigan kishilar edi. Savdo qilganlarida tosh-tarozidan urib qolishga odatlanishgandi. Sh. (as) o'z qavmini savdoda halollikka, kishilar haqqiga xiyonat qilmaslikka da'vat eta boshladi. Sh. (as)ning nasihatlariga ko'nmagan qavmning barchasi zilzila yuz berishi natijasida halokatga uchradi. Qur'onda payg'ambarlarga bo'ysunmagan qavmlarni Alloh qattiq azobga duchor qilishi eslatiladi. Sh. (as) va uning o'z qavmini da'vat qilgani va gumroh qavmning boshiga tushgan azob-uqubatlar haqida Qur'onda A'rof surasi, 85-87-oyatlar, Hud surasi, 87-90-oyatlarda bayon qilingan.

"SHO'ROI ISLOMIYA" - Turkiston taraqqiyparvar ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy tashkiloti. 1917 y. 14 martda Toshkentda tuzildi. Uning tashkil topishida Munavvarqori Abdurashidxonov katta xizmat qildi. Tashkilot faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustafo Cho'qay o'g'li (1890-1941), Ahmad Zakiy Validiy To'g'on (1890-1970) kabi ma'rifatparvarlar muhim rol o'ynadi. Tashkilot tashabbusi bilan Butun Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi o'tkazildi (1917 y. apr.). Qurultoyda qabul qilingan tashkilot dasturida o'lka musulmonlari orasida islohotlar o'tkazish g'oyalarini tarqatish, mintaqadagi barcha musulmonlarni yagona fikr va maslak asosida birlashtirib Turkistonga muxtoriyat maqomini berish uchun kurash vazifasi qo'yilgan. "Sh.i." butun o'lkadagi musulmonlar manfaati uchun kurashganligi tufayli unga turli xalqlar va tabaqalar vakillari kirgan edi. Tashkilot "Sho'roi islom" nomli jarida ham chiqardi (1917 y. apr.-iyun). Biroq taraqqiyparvar ziyolilar (jadidlar) bilan eskilik tarafdorlari bo'lgan ayrim ulamolar (qadimchilar) o'rtasidagi kelishmovchiliklar "Sh.i." tashkiloti safida tarafkashlik yuz berishiga olib keldi. Undan ajralib chiqqan bir guruh ulamolar "Sho'roi ulamo" jamiyatiga asos soldi (1917 y. iyun). Turkistondaga sovet rejimi esa, 1918 y. boshida "Sh.i." tashkiloti faoliyatini umuman taqiqladi.

"SHO'ROI ULAMO" - Turkiston ulamolari jamiyati. 1917 y. iyunda "Sho'roi islomiya"dan ajralib chiqqan. Jamiyatning Toshkent, Qo'qon, Samarqand sh.laridagi sho'basi faol ish olib bordi. Jamiyat dasturi va nizomiga ko'ra, ichki siyosiy tuzilmada shariat qonunlariga qat'iy rioya qilish, milliy-diniy qadriyatlarni yuksaltirishga da'vat etilgan. "Sh.u." "al-Izoh" (1917 y. iyun - 1918 y. may), "al-Isloh" (1917-18) jur.larini nashr etdi. Ularda davrning dolzarb muammolari: diniy, axloqiy, ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalar yoritib borildi. "Sh.u." tashabbusi bilan Toshkentda Turkiston va Qozog'iston musulmonlari qurultoyi o'tkazildi (1917 y., sentyabr). Unda ulamochilar va Sho'roi islomchilar o'zaro birlashib, "Ittifoqi muslimin" degan siyosiy partiya tuzdilar. "Sh.u." jamiyati sof musulmon muxtoriyati g'oyalarini ilgari surdi, sho'rolar rejimiga qarshi faol kurashdi. Bolsheviklar 1918 y. boshlarida jamiyat faoliyatini taqiqladi.

- CH -

CHILYOSIN (chihil yosin; forscha qirq yosin) - Qur'onning Yosin surasini o'qish bilan bog'liq bo'lgan diniy odat. Unda og'ir darddan xalos etish yoki yengillatish maqsadida bemor tepasida Yosin surasi 40 marta o'qiladi.

CHILLA O'TIRISH - so'fiylarga va muridlarga xos odat. So'fiylik tariqatlarida murid 40 kun davomida uydan chiqmasdan toat-ibodat qilishi "chilla o'tirish" deb atalgan. Yirik so'fiy namoyandalarning qarorgohlarida (mas., Turkiston sh.dagi Ahmad Yassaviy, Buxoro yaqinidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida) chilla o'tirish uchun alohida hujralar bo'lgan. Ch.o'. vaqti dindor tomonidan oldindan niyat qilingan bo'ladi. Bu e'tikof deb ham ataladi.

CHILTON - diniy tasavvurlarga ko'ra, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan afsonaviy 40 ruh. Rivoyatlarda Ch.lar odamlar ko'ziga ko'rinmaydi, ba'zan ular orasida odam qiyofasida yashaydi deb talqin etiladi. Ular, odatda, mozor va shu kabi odamlar bo'lmaydigan joylarda uchraydi, deb tasavvur qilinadi. Turli ofatlardan saqlanish, kasaldan kugulish maqsadida Ch.larga atab pilikdan yasalgan 40 chiroq yoqish, ularga bag'ishlab turli taomlar pishirish odati bo'lgan. Taomlar Ch. oshi deb atalgan va ular shu marosim munosabati bilan to'plangan xotin-qizlarga tarqatilgan. Hoz. vaqtda Ch.lar va ular bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar deyarli yo'qolib ketgan.

CHISHTIYA - so'fiylik tariqatlaridan biri. 12-a.da Sharqiy Xurosonda shakllanib, 12-13-a.da Hindistonda uzil-kesil rasmiy tus olgan. O'rta asrda Ch. suxravardiylik bilan birga Hindistonda eng ommaviy va keng tarqalgan tariqatlardan hisoblangan. Ch. asoschisi Xo'ja Abu Ishoq ash-Shomiy (1097 y.v.e.) bo'lib, Iroqdan Chisht qishlog'iga (Hirot yaqinida) ko'chib kelgan (tariqatning nomi shundan) va u yerda xonaqoh qurgan. Uning 9-(yoki 8-) vorisi shayx Mu'iniddin Hasan Sijzi Chishtiy (1142-1236) Ch.ni Hindistonga tarqatdi. Ch. shayxlari o'z silsilalarini Ibrohim Adham va Hasan al-Basriy orqali Ali ibn Abu Tolibga bog'laydi. Ch. tariqati Nizomiddin Avliyo (1325 y. Dehlida v.e.) davrida o'zining yuksak cho'qqisiga yetib, so'fiylik Shim. Hindistonda ommaviy tus olgan hamda janub va sharq tomon keng yoyilgan. U Ch. tarmogi -Nizomiyaga asos solgan. Ch. ta'limotining asosini vahdati vujud g'oyasi tashkil etgan. Ch. vakillari hokim-amaldorlar bilan har qanday aloqa bog'lashni inkor qilgan. Allohga tavakkul qilib, o'z mehnati bilan tirikchilik o'tkazishni targ'ib etgan. So'fiy och kishining qornini to'ygazish, mazlumlar iltimosini albatta bajarish, kambag'al-qashshoklarga baholi qudrat ko'mak berish yo'li bilan Alloh marhamatiga sazovor bo'lishga intilishi shart, deb hisoblangan. Shuningdek, muridlarga pulga mukkasidan ketish, gadoychilik bilan shug'ullanish, araq ichish, giyohvandlik qilish, tamaki chekish taqiklangan. Ch. yo'li shariat, tariqat, haqiqat kabi 3 bosqichdan iborat bo'lib, muridlik davri 1000 kun davom etgan. Zikr bilan birga 40 kun ro'za tutish rasm bo'lgan. Ch. tariqati a'zosi kigazdan qilingan cho'qqi kuloh kiyishi bilan boshqalardan ajralib turgan.

CHOR KITOB - islomga oid pand-nasihatlarni oʻz ichida tutgan kitobi. Sharafiddin Sanoiy al-Buxoriy qalamiga mansub. 2 sheʼriy va 2 nasriy majmuadan iborat. "Chahor kitob" ("Toʻrt kitob") deb ham ataladi. Qoʻlma-qoʻl boʻlib, hoz. davrgacha yetib kelgan. Kitobda toʻat-ibodat, shariatning qonun-qoidalari: farz, sunnat, namoz va roʻza haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda qiziqarli voqea va hikoyatlar, sharqona donolik namunalari bayon etilgan. Kitob fors tilida yozilgan boʻlib, turkiy-oʻzbek tilidagi tarjimalari ham mavjud.

CHORYORLAR (fors. - toʻrt doʻst) - Muhammad (sav) vafotlaridan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki 4 xalifa (Abu Bakr Siddiq Umar, Usmon, Ali). Bu xalifalarni Ch. deb atash Eron, Afgʻoniston va Oʻrta Osiyodagi oddiy dindorlar orasida rasm boʻlgan. Ch. arab tilidagi diniy manbalarda "xulafo ar-roshidin" ("toʻgʻri yoʻldan borgan xalifalar") nomi bilan tilga olinadi. Ch. xalifalikni boshqarish va kengaytirish, koʻshni yerlarni fath etib islom bayrogʻi ostida birlashtirishga rahnamolik qilgan hukmdorlardir. Musulmonlar Ch.ni "paygʻambar noiblari" hisoblaydilar. Islom anʻanasvda Ch. hukmronlik davri islomning oltin asri deb yuritiladi. Bu davr 30 yil boʻlgan.

Ch. zamonida Paygʻambar (sav) boshlab bergan futuhotlar oxiriga yetkazilgan, davlat kurilishi mukammal boʻlgan, islom yetib borgan oʻlkalarda barqarorlik oʻrnatilgan.

Asosiy mualliflar ro'yxati

Abdulhay Abdullaev
Abdulhay Abdurahmonov
Abduqayum Azimov
Marfua Alaviya
Mahfuza Alimova
Mansurali Arabboev
Muhammad Ahmad
Sirojiddin Ahmedov
Shamsuddinxon Boboxonov
Abdulkhakim Juzjoniy
Zohidjon Islomov
Hamidulla Karomatov
Abdulaziz Mansurov
Mahkam Mahmudov
Ahmad Mubashshir
Zohidillo Munavvarov
Soat Musaev
Ismoil Muhammad Yusuf
Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
Salohiddin Muhitdinov
Ashirbek Mo'minov
Bahodir Nurmuhammad
Sultonmurod Olimov
Qahramon Rajabov
Nodir Ramazonov
Durbek Rahimjonov
Ilhom Sultonov
Abdulhamid Tursunov
Alisher Tursunov
Ahmad Tursunov
Ubaydulla O'vatov
Davron Shorahmedov
Abdurahmon Rofurov
A'zam Qambarov
Zohidxon Qodirov
Muhammadjon Qodirov
Suyun Qoraev
Muhammad Ayub Hamidov
Ahadjon Hasanov
Faxriddin Hasanov
Zuhriddin Husniddinov

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=767.0>
Internet uchun Shahina tayyorladi.

www.ziyouz.com

2007